T. Mirzayev, O. Safarov, D. O'rayeva

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI XRESTOMATIYASI



Ч352
8
М-66

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

T.MIRZAYEV, O.SAFAROV, D.O‘RAYEVA

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI XRESTOMATIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

B 129470
O‘zMU
Ilmiy kutubxonasi

TOSHKENT–2008

T.Mirzayev, O.Safarov, D.O'rayeva. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. T., «Aloqachi», 2008, 560 bet.

"O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi xrestomatsiyasi" oliy o'quv yurtlarida "O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi" fani bo'yicha tahsil oluvchi talabalarning olgan nazariy bilimlarini kuchaytirish va amaliy mustahkamlash uchun mo'ljallab tuzilgan.

Uning yordamida talabalarga o'zbek xalqi an'analarining o'ziga xosligi, betakrorligi, milliy marosimlarimiz bilan bog'liq xalq og'zaki ijodi namunalarining janr tarkibi, qo'shiqchilik va baxshichilik san'ati, ertakchilik, askiyabozlik, og'zaki drama, lofbozlik, latifago'ylik, paremik janrlarga xos xususiyatlar, asotirlar, afsona va rivoyatlar, naqllar, bolalar folklori janrlari namunalaridan misol keltirilishi bilan ular haqida ma'lumotlar beriladi hamda talabalarda o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining naqadar boy va qadimiy ekanligi haqida tasavvur-tushuncha uyg'otiladi. Shu bilan birga bu majmua orqali talabalarda xalq an'analarini ardoqlash, milliy qadriyatlarimizni, jumladan, o'zbek folklori namunalarini jahon miqyosida targ'ib va tashviq qilish tuyg'usi shakllantiriladi.

Taqrizchilar: M.Mahmudov – pedagogika fanlari doktori;
M.Jo'rayev – filologiya fanlari doktori;
G.Eshchonova – filologiya fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-326-31-1

«Aloqachi» nashriyoti, 2008-y.

TUZUVCHILARDAN

O'zbek folklorshunosligining asoschisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Hodi Zarif tuzgan ikki jildlik "O'zbek folklori" (1939 va 1941) xrestomatiyasi nashr etilganiga salkam yetmish yil to'layotir. Lotin alifbosida bosilib chiqqan bu ikki kitob hozir bibliografik noyob asarga aylandi. Xrestomatiya o'sha yillarda endigina respublikamiz universitetilari va pedagogika institutlari filologiya fakultetlarida o'qitila boshlangan o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi kursini o'rganishda asosiy dasturgina emas, balki yana ham aniqroq qilib ta'riflaganda, mazkur fanning o'quv rejasidan mustahkam o'rin olishini tasdiqlashdan tashqari o'zbek folklori bo'yicha o'qitilishi va o'rganilishi zaruriy qo'llanma vazifasini ham sharaf bilan o'tadi.

Mazkur xrestomatiya o'zi tuzilgunigacha bo'lgan o'zbek folklorshunosligi erishgan natijaning yakuniy sarhisobi, qolaversa, xalqimiz og'zaki poetik ijodiyotini kelajakda yanada kengroq miqyosda to'plash, ommabop nashrlarni yuzaga keltirish va chuqur, teran tadqiq etishning istiqbollarini ochib ko'rsatdi va belgilab berdi. Shu ma`noda o'sha xrestomatiyani shartli ravishda ulkan chinorga o'xshatsak, hozirgi o'zbek folklorshunosligi nimaga erishgan bo'lsa barini o'sha chinorning tobora rivoj topib borayotgan shoxalari va butoqlari deyish mumkin. Ana shunday katta shoxalardan biri – O'rta Osiyo xalqlari folklorshunosligida ilk tajriba sifatida amalga oshirilayotgan "O'zbek xalq ijodi" (O'XI) seriyasidagi ko'p tomlikdir. 1960-yildan beri bu benazir nashrning salkam qirq kitobi elga taqdim qilindi. Uning yigirma to'rt kitobini xalq dostonlari nashri tashkil etsa, qolgan besh kitobi – ertaklar, to'rt kitobi – qo'shiqlardan iborat. Yana latifa, maqol, topishmoq, askiya va bolalar folkloriga bag'ishlangan alohida tomlari ham bor.

Folklorshunoslikning birinchi sohasi allaqancha vaqt davomida askiyani yozib olmoq va nashr qilmoq mumkin emas, degan gumon hukmguzaronligiga chek qo'yuvchi mustaqil bir tom el qahqahasiga avji parvoz bag'ishlab yuzaga keldi. Shularga qaramay, hanuzgacha asotirlar, afsonalar, rivoyatlar, naqllar, loflar, xalq og'zaki dramasi, olqishlar, qarg'ishlar va so'z sehriga asoslangan yana talay janrlarga oid namunalarning ommabop nashrlari amalga oshirilganicha yo'q.

Ikkinchi sohasi – alohida bir baxshi repertuarining ko'p tomlik qulliyoti nashri tajribasi. Ergash Jumanbulbul o'g'lining hayoti va ijodiga bag'ishlangan o'zbek tilidagi besh tomlik "Bulbul taronalari" va rus tilidagi uch tomlik "Pesnya Bulbulya" kitoblar –

ana shu tajribaning yorqin misoli. Lekin hali Fozil shoir, Po'lkan shoir, Islom shoir, Abdulla shoir, Xolyor Abdukarim o'g'li, Umir shoir, Qodir Rahim o'g'li va yana talay xalq ijodkorlari qulliyotlari navbat kutib yotibdi.

Noma'lum sabablarga ko'ra bemavrid to'xtatib qo'yilgan o'zbek folkloriga oid tadqiqotlarning yetti kitobi, Hodi Zarifning akademik V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda yaratgan "O'zbek xalq qahramonlik eposi" monografiyasi, "Alpomish" dostoni atrofidagi bahsu munozaralar, shuningdek, o'zbek folklorshunoslarining keyingi yarim asr davomida yaratgan xilma-xil muammolar tadqiqotiga bag'ishlangan qator monografiyalari va risolalari — o'sha ulkan chinorning teran va mustahkam butoqlaridirki, ana shular va yuqorida e'tirof qilingan sohalar bir butunligidan 1980-yilda o'zbek xalqi tarixida ilk bora "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" o'quv qo'llanmasini yaratish mumkin bo'ldi. Albatta ilk tajriba sifatidagi bu qo'llanmaning o'z afzalliklari ham, o'z yetishmovchiliklari ham bor edi. Shuni hisobga olib, 1990-yilda o'zgartirilgan mualliflar jamoasi tomonidan uning darslik namunasi yaratildi. Oradan bir yil o'tar-o'tmas, O'zbekistonda milliy istiqlol e'lon qilindi. O'shanda ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid qator darsliklar milliy istiqlol g'oyalariga mos kelmay, yaroqsiz bo'lib qoldi, lekin faqat mazkur "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" darsligi ma'naviy jihatdan yaroqli sanalib, respublika oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlarida hamon o'qitib kelinmoqda. Bu o'zbek folklorshunosligining beqiyos yutug'i edi, albatta.

Shunga qaramay, milliy istiqlol mafkurasi oliy ta'lim mazmunini isloh qilish va uni milliy o'zlikni anglashga xizmat qildirish talabini kun tartibiga qo'ygan hozirgi sharoitda o'zbek folklorshunosligining XX asr davomida erishgan barcha yutuqlarini qamrab oluvchi va o'zbek xalqi milliy mentaliteti hamda ma'naviy dahosi mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi o'zbek folkloriga oid darslik va xrestomatiyaning yangi avlodini yaratishni hayotiy zaruriyatga aylantirib qo'ydi.

Qo'lingizdagi xrestomatiya ana shu zaruriyatga muvofiq o'zbek folklorshunosligining butun XX asr davomidagi izlanishlari natijasiga tayangan holda tuzildi. Unga "O'zbek xalq ijodi" ko'p tomligining amalga oshgan qo'shiqlarga ("Gulyor" 1967; "Oq olma, qizil olma" 1972; "Sovet davri xalq qo'shiqlari" 1983; "Boychechak" 1984); ertaklarga ("Suv qizi", "Oltin olma" 1966; "Gulpari" 1969; "Kulsa —gul, yig'lasa—dur" 1983; "Oltin beshik"

1986); dostonlarga ("Alpomish" 1979; "Dastagul" 1964), latifalarga, maqollarga, topishmoqlarga, askiyalarga oid tomlaridan, shuningdek, "O'zbek sovet folkloridan namunalar" (1954), "Xorazm xalq qo'shiqlaridan namunalar" (1965), "O'zbek xalq maqollari" (2001), "Bulbul taronalari" (1971-1973) besh tomligi, "Abu Ali ibn Sino haqida afsonalar, rivoyatlar, hikoyatlar", "Dono Navoiy", "Qaldirg'ochni qo'ndirgan qo'shiq", "Navro'z", "Ipak yo'li afsonalari", "Bobolardan qolgan naqllar", "Qizil gulning g'unchasi", "Alla-yo, alla", "To'y muborak, yor-yor", "Ulug' oy umidlari", "Buxoro afsonalari", "Bo'zlardan uchgan g'azallar", "Alpomish" dostoni variantlari», "Go'ro'g'li" turkumi va yana turli-tuman nashrlar, "Sharq yulduzi" va "Guliston" jurnallarida, davriy matbuotda turli yillarda har xil munosabat bilan bosilib chiqqan materiallar tanlanib kiritildi. Ayni chog'da ayrim folklorshunoslar tomonidan yozib olingan bo'lsa-da, hali ilmiy iste'molga kiritilmagan yoxud endigina tadqiqotchilar nazariga tushib hozircha omma e'tiboriga havola qilinmagan, ammo folklorga oid ilmni o'rganish nuqtayi nazaridan muhim sanalgan bir qator materiallar ham shu xrestomatiyada birinchi marta e'lon qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti huzuridagi Hodi Zarif nomidagi Folklor arxivi, shuningdek, talay o'zbek folklorshunoslari shaxsiy arxivlaridan tanlab olingan bu xildagi materiallar silsilasini so'z sehriga asoslangan badiklar, kinnalar, olqishlar, qarg'ishlar, shuningdek, yo ramazon, sust xotin, choy momo, ko'nalar kabi mavsumiy-marosim qo'shiqlari, kuyov salom, kelin o'tirsin, o'lim yor-yorlari singari oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari tashkil etadi. Zotan, xrestomatiya uchun materiallarning yaxlit tizim sifatida tanlanishi nafaqat o'zbek folkloriga xos hodisalar mohiyatini chuqurroq idrok etishga yo'l ochadi, balki o'quv dasturi talablarini ham birmuncha to'laroq aks ettiradi. Binobarin, mazkur materiallar bilan tanishuv bo'lajak filologlarni xalq e'tiqodlari tarixini, etnografiyasini, badiiy zakovatini teran his etishga o'rgatadi, xalqimiz kechmishidagi g'alabalar va mag'lubiyatlardan saboq olishlarini ta'minlaydi, qisqasi, ularni milliy qadriyatlar mag'zini chaqishga o'rgatadi, shu asosda ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllanishi ta'minlanadi. Ona-Vatan va ona-xalqni sevish tuyg'ulari junbushga keladi.

Xrestomatiyadagi materiallar bo'lajak filologlarning ma'ruzalardan olgan nazariy malakalarini to'ldirish va mukammallashtirishdan tashqari kelajakda maktabdagi faoliyatlari

davomida folklorning dostonlar, ertaklar, afsonalar, latifalar, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar singari mavzularni o'qitib-o'rgatishlarida ham muhim manba bo'la oladi.

Xrestomatiya hali takomillashtirishni taqozo etadi, albatta. Binobarin, shu xususdagi har bir taklif va istakni minnatdorchilik bilan qabul qilamiz. Manzilimiz: 7050017. Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. BuxDU, O'zbek adabiyoti kafedrasi.

To'ra Mirzayev,
Oxunjon Safarov,
Darmon O'rayeva.

BIRINCHI QISM

O‘TMISHDAGI O‘ZBEK FOLKLORIDAN NAMUNALAR

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI

Mehnat qo‘shiqlari

Qo‘shchi qo‘shiqlari

O‘roq-o‘rmoq, olmoq-solmoq,
Qo‘sh haydamoq bormoq-kelmoq.
Hammasidan qiyin ekan,
Ey, ho‘kizim, ro‘zg‘or qurmoq.

Qo‘sh haydaydi saman sariq,
Ho‘kizlari juda oriq.
Ho‘kizlari ko‘tarolmas,
Yerda qoldi bo‘yinturiq.

Hayda-hayda, ximich bilan,
Donni sepma cho‘mich bilan.
Kenja bacha olishadi,
Kuchi yetmay omoch bilan.

Ho‘kizginam, bo‘yinginang ezildi,
Ko‘zginangdan yoshlar qator tizildi.
Bo‘yinturuq bilan omoch tortmasang,
Sening bilan menga go‘rlar qazildi.

Qora yerni qoq yorgan,
Qovun ekib, lab yorgan.
Mehnatining zo‘ridan,
Tos tepadan shox yorgan.

* * *

Egamning oti mallaxol
Menga berar sholi poxol
Uni yeyolmay holma-hol,
Men qo‘shga qanday yarayin?

Shoxlarim bor: gaz quloch,
Ustida o'ynar qaldirg'och,
Hayday desam, voy qornim och,
Men qo'shga qanday yarayin.

Qobirg'am bor vassaday,
Gavron yasarlar hassaday,
Har bir ko'zim shokosaday,
Men qo'shga qanday yarayin.

Bo'ynimda bor bo'yinturuq,
Omochlari sharaq-shuruq,
Oqshom borsam, oxur quruq,
Men qo'shga qanday yarayin.

Shoxlarim bor quloch-quloch,
Shoximga qo'nar qaldirg'och,
Yuray desam, voy qornim och,
Men qo'shga qanday yarayin.

* * *

Yetib kelding ekishdan,
To'rt oyog'ing kumushdan,
Ochko'z boy qarashmadi,
Bazo'r chiqding bu qishdan.

Shoxlaring bor chambarak,
Ko'zlaring yongan chiroq,
Dehqonlar mingan biroq.
Sen hayvondan chog'roq.

* * *

Xo'jayinga dehqon tushdim bahordan
Ishga tushdim, qo'sh haydadim sahardan.
Xabar olmas, sira ochu nahordan
Kuyib-yondim xo'jayingning dastidan.

Ola ho'kiz, targ'il ho'kiz,
Shudgor tanobin tortib o's,

Qo‘sh haydaymiz bahor va kuz,
Atrofimiz dala va tuz.
Yur jonivor, xo‘sh jonivor,

Qo‘sh yotadi, hulkar botsa,
Ish boshlaymiz tonglar otsa,
Qadam tashlab asta-asta,
Oldinga bossin payvasta,
Yur jonivor, xo‘sh jonivor.

* * *

Yotar joyim o‘nqir-cho‘nqir,
Yotolmayman tinchim yo‘qdir.
Tana to‘shim bo‘ldi chuqur
Men qo‘shga qanday yarayman.

Shoxlarim bor chambarak,
Ko‘zlarim yongan chiroq,
Qo‘shga tushsam mehnatimdan
Egamning bo‘lar vaqti choq.

Qo‘shga qo‘shib jabrlab,
Gavron urdi cho‘qqimga
Yil o‘n ikki oy ishladim,
Somon qoldi haqqimga.

O‘rim qo‘shiqlari

G‘ujmoqi[1] bug‘doy,
Donginang to‘q-ay,
To‘p bo‘l o‘rayik,
Ho‘pda[2] ko‘rayik.

O‘rog‘im olmos,
O‘rishdan qolmas,
Sira ham tolmas,

[1] G‘ujmoqi – boshoqli, donalari g‘uj.
[2] Ho‘p – xirmon etib, bug‘doy yanchish.

O‘rmasam bo‘lmas.
G‘ujmoqi bug‘doy,
Donginang to‘q-ay,
To‘p bo‘l o‘rayik,
Ho‘pda ko‘rayik.

O‘rog‘im qayqi,[1]
Sen meni boy qi(l),
Ko‘taray xirmon,
Donidan to‘y qi(l).

G‘ujmoqi bug‘doy,
Donginang to‘q-ay,
To‘p bo‘l o‘rayik,
Ho‘pda ko‘rayik.

O‘rog‘im haqqon,[2]
Sen menga yoqqan,
Qo‘lginam chaqqon,
Mehnatda boqqan,

G‘ujmoqi bug‘doy,
Donginang to‘q-ay,
To‘p bo‘l o‘rayik,
Ho‘pda ko‘rayik.

O‘rog‘imni soldim cho‘pga
Bul so‘zimni qo‘ydim ko‘pga
Xushtor yoring kirganda,
Mayiz tuyib qo‘shgin so‘kka.

Yantoqlikdin ko‘rdim qora,
Uzoq bo‘ldi ikki ora,
Ko‘ray desam, ko‘rolmayman,
Xoliq yorim so‘zi sara.

---

[1] Qayqi — bukik.
[2] Haqqon — ildam, tig‘i o‘tkir.

Tariq qo'riqlovchi va Chechak qo'shig'i

Chechak:-Oyxaylama[1] mo'ntay tariq,
Ekibsiz bizga oq tariq.
Jigirdonimda olti tariq,
Bolam yotir ochdan g'arib.
Oyxaylama sart bolasi,
Emayman man oq tarig'in.
Yigit: -Men oldim yorning boshini,
Chechak oldi changal qoshini,

.....

Bir to'pi bugun kelib yeb ketibdi,
Bir to'pi ertakelay deb ketibdi.
Barakallo chechakning mirzosiga
Bedanasin bizlarga beb[2] ketibdi.

Ho'p maydalar

Mayda-mayda, mayda qil, maydayo-mayda,
Mayda qilsang unday qil, maydayo-mayda,
Sochini yuvgan qizday qil, maydayo-mayda,
Tong shamolga tayyor qil, maydayo-mayda.

Mayda-mayda morisin, maydayo-mayda,
Don somondan arisin, maydayo-mayda,
Ayni sahar bo'lganda maydayo-mayda,
Bobo dehqon dorisin, maydayo-mayda,

Qirqib-qirqib haydagin, maydayo-mayda,
Qirq botmonlar kelsin-o, maydayo-mayda,
To'g'orib-to'g'orib, haydagin, maydayo-mayda,
To'qson botmon kelsin-o, maydayo-mayda,

Yo'rtib-yo'rtib haydagin, maydayo-mayda,
Yuz botmonlar kelsino, maydayo-mayda,

* * *

[1] Oyxaylama – qizg'anma
[2] Beb - berib

Ho‘p hayda-yo, ho‘p hayda,
Qalqon qulog‘im hayda,
Temir tuyog‘im hayda,
Ostingda bosgan donni,
Oyog‘ing qilsin mayda.
Sen po‘stidan judo qil,
Somoni senga foyda.
Chu -he, jonivorim hayda.
Xirmonni qilgin mayda.
Ishni tamom qilmasang,
Joningga tinim qayda.
Men belginangga minib,
Chu-chu deyman silkinib,
Charchab men ham jonivorim,
Boraman ko‘zim tinib,
Chu-he, jonivorim, hayda,
Boshingni yerga solma.
So‘zimni og‘ir olma.
Ko‘zim ilinib ketganda,
Tag‘in-a, to‘xtab qolma.
Chu-he, jonivorim, hayda.
Xirmonni qilgin mayda.
Donni yig‘ib olmasak,
Bizlarga tinim qayda.
Chu-he, jonvor, chu-ha,chu.
Qamchi yemay duvva-duv,
Yerdan chiqqan ekinning
Tirikligi tiniq suv.

Yorg‘ichoq qo‘shiqlari

Yorg‘ichog‘im guldur-guldir,
Bo‘g‘zing to‘la oppoq undir.
Boy boboning xonadoni
Ikkimizni eydir-eydir.

* * *

Yorg‘ichoqdan ro‘zg‘orimda un bor ekan,
Go‘zal qizning yuzida nur bor ekan.

Go‘zal qizning yuzida nur bo‘lsa-ya,
Oq yuziga quyosh ham xushtor ekan.

Yorg‘ichoq sen yorg‘ichoq,
Tishlaring bo‘lsin qaqroq.
Bo‘g‘zing to‘lsin hamisha,
Bug‘doyim bo‘lsin qayroq.

Arpa tortsam mayin qil,
Tarig‘imni qil upa.
Jo‘xorimga bo‘lgin zil,
Bug‘doyimni o‘zing bil.

Boy otamdan olganman,
Chorak arpa donini.
Donim qimmatga tushgan,
Jonim garovga tushgan.

Aylantirib men seni,
Aylantirdim boshimni.
Qo‘llarim buncha toldi,
Tanim balchiqqa qoldi.

* * *

Yorg‘ichoq tortmas edim
Och qolganimdan tortaman
Sabzavon aytmas edim,
Kuyganlarimdan aytaman.
Kuyganim, kuydirganing,
Har joyga borsam aytaman.

* * *

Yorg‘ichoqni taq-taqijon deydilar-o,
Tegirmonni rohatijon deydilar-o.
Yorg‘ichoqdan terlab chiqqan bandaman-o,
Xo‘jarayhon, bo‘yniyo‘g‘on deydilar-o.

* * *

Yorg‘ichog‘im ustida bosh aylanur-o,
Bodom qovoq ustida qosh aylanur-o.
Boyga tushib baxtsiz bo‘lgan dugonajon-o,
Seni ko‘rsam ko‘zimga yosh aylanur-o.

* * *

Yorg‘ichoq yalpoqqina,
Un qilar oppoqqina.
Yorg‘ichoq xir-xir etar,
Mushtdekkina xamir etar.

Ikki toshu bir sannoch
Qonimni so‘rar yorg‘ichoq
Yorg‘ichoq torta-torta
Toldi qo‘lim.
Ikki tosh orasida qoldi qo‘lim.

Qo‘riqchilik qo‘shiqlari

Chumchuq quvish

Ey, hoy, gala, ey, hoy, gala,
Chumchuq keladi bir gala.
Mening bog‘im kichkina,
Hu, katta bog‘larni tala.

* * *

Hala-yo, hala-yo,
Katta polni tala-yo.
Katta polga to‘ymasang,
Kichik polni tala-yo.

* * *

Uying ketgur chumchuqlar,
Jo‘xorimni eb ketdi.
Yana to‘ymay u suqlar,
Erta kelaman deb ketdi.

Ho-huv, gala-gala,
Ho-huv, gala.
Voy gala, voy gala,
Voy ketdi.
Donlarni chumchuq yeb ketdi.
Kelmay ketsin ko'r chumchuq
Yana kelaman deb ketdi.
Ho-huv, gala-gala!
Ho-huv gala!

Qarg'a quvish

Jo'xorilar oq bo'ldi,
Qo'nma, shum qorayaloq.
Agar qo'nsang urayin
Bo'lar oyog'ing cho'loq.
Ha-yu, hu!

Dehqonchilik qo'shiqlari

G'allachilik, sabzavotchilik va bog'chachilik qo'shiqlari

G'allalar aytishuvi

Tariq: – Arpani otingga ber,
Bug'doyni ish, qo'noqni sot.
Saqlasang qirq yil turadi,
Kichkina polvon tariq.

Qo'noq: – Arpani otingga ber,
Bug'doyni ish, tariqni sot.
Yeridan chiqmay turib,
Dehqonni kuydirgan tariq.

Bug'doy: – Maqtanaberma, arpa-yo kurmak,
Boshingda o'ynar yetti to'qmoq.

Arpa: – Alhamdulillo, qorni yoriq
Bug'doy emasman,

Tegirmonning bo‘g‘iga tushib,
Qiynoq emasman.

Jo‘xori: — Bu so‘zlarni ne deb aytding
No‘xatoyim?
Bu yerlardan qarolaringni
Yo‘qotayin.

Qo‘noq: — Oshdin begonasan,
Qo‘noqqa taqdirgan tariq.
Inidan chiqmay turib
Dehqonni kuydirgan tariq.

Qoradaryo

Arpa aytar zamon-zamon,
Suvsizlikdan bo‘ldim somon.
Men bo‘lmasam non qaydadir,
To‘lmadingmi Qoradaryo?

Bug‘doy aytar olishaman,
To‘ylarga xo‘p yarashaman,
O‘qlovlarga yovushaman,
To‘lmadingmi Qoradaryo?

Zig‘ir aytar ziroyiman,
Xaloyiqqa keroyiman.
Palovga xo‘p yarayiman,
Toshmadingmi Qoradaryo?

Kunjut aytar irog‘iman,
Kechalarning chirog‘iman.
Juvoz rangning baroyiman,
Toshmadingmi Qoradaryo?

Jo‘xori aytar taroshadi,
Sepoyam xo‘p yaroshadi.
Andiriga qalashadi,
Toshmadingmi Qoradaryo?

Lavlagi aytar lovlanmadim,
Qozon-qozon dimlanmadim.
Eli xalqim shaylamadim,
Toshmadingmi Qoradaryo?

Sholg'am aytar shod bo'lmadim,
Bu g'amdan ozod bo'lmadim.
Suv ichib obod bo'lmadim,
Toshmadingmi Qoradaryo?

Olmaginam

Olmaginam osh endi,
Ertaroq sen pish endi.
Kun o'tkazma, osilma,
Kel ertaroq tush endi.

Olmaginam oziqsan,
O'karib eding qoziqdan.
Ko'kartib edim suv berib,
Na pishmaysan qiziqsan.

Olmaginam ola ko'z,
Yaltiraydi ikki yuz.
Bozor borsam, talashsin,
Kelib qolsin o'g'il-qiz.

Olmaginam o'rayin,
Savatlarga terayin.
Kimlar pulni ko'p bersa,
Seni shunga berayin.

Tutday daraxt

Erta-oqshom olma pishar,
To'pir-to'pir tagiga tushar.
Unga bachalar chopishar,
Sira bo'lmas tutday daraxt.

Erta kecha uzum pishar,
Ikkita patir yo'lga tushar.
Qovmu qarindosh topishar,
Sira bo'lmas tutday daraxt.

Anjir o'zi pastda bo'lar,
Yotarli yeri xasta bo'lar.
Borar joyi rasta bo'lar,
Sira bo'lmas tutday daraxt.

Zardolidir ismli behish(t),
O'tar-ketar bu uch oy qish.
Bandalar qilmasin nolish,
Sira bo'lmas tutday daraxt.

Qarolidir donasi taxir,
Pishar hamma mevadan oxir.
Bachalar kelib menga gapir,
Sira bo'lmas tutday daraxt.

Tagidan turib boqaman,
Ustingga chiqib qoqaman.
To'rttasi chodir tutadi.
Bittasi tovoqqa chopadi.
Sira bo'lmas tutday daraxt.

Shoxlaridir har yoqqa,
Qizlar chiqdi sayr boqqa.
Qizlar donani chaqadi,
Tutmayizga xo'p yoqadi.
Sira bo'lmas tutday daraxt.

* * *

Hovli ichi olicha,
Terib olsin boricha.
Men o'g'limni chaqiray,
Ovozimning boricha.

Chorvachilik qo'shiqlari

Qo'yboqar cho'pon qo'shig'i

Tog'larning boshi qobilda,
Qobilga qo'ylar jobildi.
Sadafgina tug'ildi,
Astaroq haydang sabildi.

Havo bir yog'ar tov-tovga
Yilqilar kirdi matovga.
O'n besh yoshli bir qizgina,
Yig'lab-a, kirdi o'tovga.

Qo'y haydadim qayirga,
Qo'ynim to'lib tuyirga.
Borib bir ayting qizlarga,
Bizni bir ko'rsin uyirga.

Tog'larga chiqdim taqillab,
Qovurg'alarim shaqillab.
Har bir qizlarni ko'rganda
O'la berg'aydim hiqillab.

* * *

Cho'ponlar qo'y boqadi nola qilib,
Cho'ponga qiz bermanglar zoya qilib,
Cho'ponga qiz bersangiz zoya qilib,
Chaydaman olib ketar pana qilib.

* * *

Elamon-a, elamon,
Echki boqib kelaman.
Sho'rdan shog'ol o'tdimi?
Dumi loyga botdimi?
Gulbutaning tagida,
G'azal aytib yotdimi?

Sog'im qo'shiqlari

Ho'sh-ho'shlar

Ho'sham tursang yarashar,
Xo'sh-ho'sh, xo'sham, xo'sh.
Xaloyiqlar qarashar,
Ho'sh-ho'sh, xo'sham, xo'sh.

Men aylanay hayvonim,
Xo'sh-ho'sh, xo'sham, xo'sh.
Hayvoni bezuvonim,
Xo'sh-xo'sh, xo'sham, xo'sh.

Bolalari bosh bo'lar,
Xo'sh-ho'sh, xo'sham, xo'sh.
Bolalari yosh bo'lar,
Xo'sh-ho'sh, xo'sham, xo'sh.

* * *

Xo'sh-xo'shlasam iyasan, xo'shey- xo'shey,
Kovshabgina turasan, xo'shey- xo'shey,
Angraymagin jonivor,xo'shey- xo'shey,
Sen bolangga to'yasan, xo'shey- xo'shey.

Tog'da olqar o'ting bor, xo'shey- xo'shey,
Oqar buloq suting bor, xo'shey- xo'shey,
So'laxmonday jasadda, xo'shey- xo'shey,
Xurma-xurma suting bor, xo'shey- xo'shey.

Tog'da olqar o'tingni, xo'shey- xo'shey,
Unutmagin jonivor, xo'shey- xo'shey,
Iyib turgan sutingni, xo'shey- xo'shey,
Quritmagin jonivor, xo'shey- xo'shey.

* * *

Kadi-kadi sut bergin,
Kadi bog'i uzilsin.

Qatiqlaring jonivor,
Tulumlarga suzilsin.

Cho‘ponlar seni boqsin,
Qo‘yga qo‘ng‘iroq toqsin.
Iyib bergin sutingni,
Daryoday toshib oqsin.

Kadimni keltirarman,
Bolangni kuldirarman.
Alaymagin, jonivor,
Qo‘zingga qoldirarman.

Turey-tureylar

Tog‘larda buloq sharqirar, turey-turey,
Yelin qoping yarqirar, turey-turey,
Agar bolang olmasang, turey-turey,
Emgaklaring zirqirar, turey-turey.

Oqil bo‘lsang anglagin-a, turey-turey,
Quloq solib tinglagin-a, turey-turey,
Agar bolang olmasang-a, turey-turey,
Beva joning xazarda-ya, turey-turey.

Qo‘y sog‘aman qo‘shoqda, turey-turey,
Qo‘y ishqi menga yoqqan, turey-turey,
Qo‘y sutini ichganlar, turey-turey,
Ko‘pdan-ko‘p shifo topgan, turey-turey.

Toqqa bitar boldirgon-a, turey-turey,
Boylar ko‘pni yongdirgan-a, turey-turey,
Yaylovingni yov oldi-ya, turey-turey,
Savlatingni suv oldi-ya, turey-turey.

Churey- chureylar

Ot oyog‘in ot bosar, churey-churey,
Oq yuzingni gard bosar, churey-churey,

Agar shuytib sog'dirmasang, churey-churey,
Qassoblar butingdan osar churey-churey.

Og'izginangda o'ting bor, churey-churey,
Elinginnangda suting bor, churey-churey,
Sersoqqolim jonivor, churey-churey,
Kerilib turgan buting bor, churey-churey.

Bolaginang baxtingdir, churey-churey,
Uni olib uxlagin, churey-churey,
Bolalilar ma'rashar-a, churey-churey,
Bolasizlar qarashar-a, churey-churey.

Yona yerda yotgansan-a, churey-churey,
Chalanaga botgansan-a, churey-churey,
O'zing bolang bilmasdan-a, churey-churey,
O'zgalabsan jonivor, churey-churey.

Hunarmandchilik qo'shiqlari

Urchuq qo'shiqlari

Eshik oldi qumaloq
Mening ipim yumaloq.
Elak ichida kepak,
Mening ipginam ipak.

Mening ipimdan qilib,
Esholmaydi o'rgimchak.
Uyning oldida olma,
Ertagacha tul qolma.
Aylantirayin seni,
Urchuqqinam, sen tolma.

So'ylana, so'ylan, urchug'im,
Suqsurday bo'ylan, urchug'im.
Eshik oldi yo'ng'ichqa,
Mening ipim ingichka.

Tez-tez aylan, urchug'im,
Tezlab bo'layin kechka.

Burayin qo‘lim bilan
Gurillab aylan, urchug‘im.

Ipginam cho‘zilmasin,
Ko‘ngillar buzilmasin.
Yertasiga o‘rmakda,
Ipginang uzilmasin.

Charx qo‘shiqlari

Charxginam g‘um-g‘um etadi,
Dukkinam to‘lmasmikan?
Oyi yilda bir bozor,
Nimcha ip chiqmasmikan?

Charx yigirib, charx yigirib,
Chorbog‘ olganman o‘zim.
Soyalarida o‘ltirib,
Kashta tikkanman o‘zim.

Charx yigirib, charx yigirib,
Shoyi ko‘ylak olaman.
Shoyi ko‘ylakni kiyib,
Shohimardon boraman.

Charx yigirib, charx yigirib,
Shul qo‘lginam toladir.
Agar shuni yigirmasam,
Bolalar och qoladir.

Charxginam, ey, charxginam,
Yurakkinamni olasan.
Ayt-chi, sen bu yurtlardan,
Qachongina yo‘qolasan?

Bo‘zchi qo‘shiqlari

Bir nechalar aytib kiyar bo‘zini,
Bir nechalar yamab kiyar bo‘zini.
Ma’rakada gap etdilar izini,
Nafisdan o‘xshagan bo‘zim yaxshidir.

O‘tmish yo‘qdir bazzoz yona bormoqqa,
Jinnimizmi qimmat chitni olmoqqa.
Yaramaydi ikki yuvib kiymoqqa,
Nafisdan o‘xshagan bo‘zim yaxshidir.

Biz to‘qiymiz qirog‘ini o‘xshatib,
Moki otaman dastagimni qaqshatib.
Bozordagi shoyilardan yaxshi etib,
Nafisdan o‘xshagan bo‘zim yaxshidir.

Do‘kon uyga kirsam tanim qaqshaydi,
Sovuqlarda o‘lmay qolsam yaxshiydi.
Qarisi tilladan ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi?

Popishakni yakka-yakka bosaman,
Dastagima nozbo‘y gullar osaman.
Azondan kechgacha moki otaman,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi?

Alima solmadim saylon qosh uchun,
Do‘kona kirarman qoshlarim suzuk,
Laxtakning tagida bir changan uzuq,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi?

Og‘och moki buyurib edim ustaga,
Bozor yaqin keldi, qoldim qistog‘a.
Borib ayting moki tuzatgan ustaga,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi?

Atanoqni yugurib soldim do‘kona,
Borib ayting bazzoz bo‘lib chiqqona.
Bir kun qolib boqsin bizday chaqqona,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi?

* * *

Go‘sht ololmay gurda olgan bo‘zchi,
Qiz olomay beva olgan bo‘zchi.
Munchalar shildirab o‘tar nochasi,
Qip-qizil shalg‘amga o‘xshar pochasi.

O‘rmak to‘qish qo‘shiqlari

O‘rmagim yotibdi o‘ralib,
Men yuribman kerilib.
Qaynanam qaramaydi
O‘rmagimga uyrilib.

O‘rmagimni to‘qiyman,
Kecha-kunduz to‘qiyman.
Qachon tamom bo‘ladi,
Deb ashula to‘qiyman.

Odarg‘im, oshib kelgin,
Qilichim, shoshib kelgin.
Shu o‘rmagim bo‘lguncha,
G‘ayratim, toshib kelgin.

O‘rmagimni o‘ray-yo,
Men boshimga qaray-yo,
O‘rmakkinam, ungin deb
Endi sendan so‘ray-yo.

Kashtado‘zlik qo‘shiqlari

Kashta tikdim sanama,
O‘tlar yondi tanama.
Tikmay desam urishar,
Uyda turgan enama.

Sanamani sardor tikar,
Sanab-sanab ko‘zin tikar.
Sanama tamom bo‘lguncha,
Gap eshitmay bo‘ladi kar.

Sanamani sanar qo‘lim,
Qariganda yoshlik gulim.
Sayrab-sayrab hayron qolsin,
To‘tilar bildan bulbulim.

Ipginam ado bo‘ldi,
Jonginam judo bo‘ldi.

Sanamani tikkuncha,
Qaynanam xudo bo'ldi.

Sanadim sanamani,
Rosa qiynadi mani.
Puliga olib beray,
Degan ro'moling qani?

* * *

Ilma tikdim ilib-ilib,
Tomoshani hamma qilib.
Rahmat deydi ko'rgan kishi,
Har guliga hayron qolib.

Ipi-iplarning zari,
Hayron qolsa yoshu qari.
Ilma ham oson emas,
Uni tikar qiz ilgiri.

Ilma tikar qo'lginam-a,
Farosat qil, ko'zginam-a,
Ertayu kech tikdim ilma,
Ter keladi yuzginama.

* * *

Yo'rma tikdim jimillatib,
Shoyi belqars himillatib.
Yigitlarga yarashadi,
Do'stlar unga qarashadi.

Do'ppido'zlik qo'shiqlari

Do'ppi tiksang childirma,
Cho'pu xasga ildirma.
Yurtingni chindan sevsang,
Dushmaningga bildirma.

Boqqa kirdim boqmoqqa,
Gulni uzib taqmoqqa.

Do‘ppi tikib qon bo‘ldim,
Daydi sayoq, ahmoqqa.

* * *

Qalpoq tikdim zardo‘zi,
Kiyadi yorning o‘zi.
Kiysalar yorning o‘zi,
Kuydirar qoshu ko‘zi.

Suv kelar tosh ustiga,
Qalpog‘ing qosh ustiga.
Men yorimni sog‘insam,
Yig‘layman osh ustiga.

Ko‘chalaringdan o‘tay,
Xiyol-xiyol yo‘l solib.
Qalpog‘ingni men tikay,
Chin xayoldan gul solib.

To‘ndo‘zlik qo‘shiqlari

Tegirmonning taxtasi tarashadir,
Bek ukamga ola to‘nlar yarashadir.
Ola to‘nning chalmasi sariq bo‘lar,
Har yigitning nomusi, ori bo‘lar.

* * *

Og‘am to‘ni, qo‘zim to‘ni,
Tiklab-tiklab tikay uni.
Yorim to‘ni-jonim to‘ni,
Jonim bilan tikay uni.

* * *

Banorasdan to‘n tikay,
Oldiga po‘pak tutay.
Yoqasiga gul solay,
Arabining xatiday.

* * *

Men ukamga to‘n bichaman,
Yetti gul bog‘dan kesib.
Chokiga po‘pak tikaman,
Teppa sochimdan kesib.

* * *

Teppa sochim qatma-qat,
Qavatlaridan aylanay.
Ukalarim ishsevarlar,
Mehnatlaridan o‘rgulay.

Sarboz qo‘shiqlari

Karmana yurtidan chiqdim dalaga,
Bir to‘da sarbozdan qoldim baloga.
Bir to‘da sarboziga gal berib qochdim,
Buxor darvozasin nayzalab ochdim.

* * *

Qiyadan chiqqan qirq yulduz,
Qiyalab ketdi botgani.
Ikki kam ellik sarkarda
Darband ketdi yotgani.

Darband yo‘li olaydi,
Yursa tovon yalaydi.
Ikki kam ellik sarkarda
Ahvolginang qalaydi?

Ahmadbekning bo‘z oti
Buxor qarab kishnaydi.
Buxordagi xotini
Jilovidan ushlaydi.

SO‘Z SEHRI ASOSIDAGI XALQ QO‘SHIQLARI

Badiklar

Eshik oldi sho‘ralar,
Oyog‘imga o‘ralar.
Endi ketib borasan,
Xush kelibsan, jo‘ralar.

Ko‘ch-ko‘ch, ko‘chasan,
Ko‘char yering men aytsam,
Olti kulcha – ozig‘ing,
Olti oylik yo‘lga ko‘ch.
Yetti kulcha – emishing,
Yetti oylik yo‘lga ko‘ch.

Ko‘ch-ko‘ch, ko‘chasan,
Ko‘char yering men aytsam,
Toji davlat boshidan ko‘ch,
Sham’i chiroq ko‘zidan ko‘ch,
Charxi falak burnidan ko‘ch.

Ko‘ch-ko‘ch, ko‘chasan,
Ko‘chirmasam – qo‘ymayman,
Qoning ichmay to‘ymayman,
Bul o‘rtada qo‘ymayman.

Kalma aytgan tilidan ko‘ch,
Tasbeh olgan qo‘lidan ko‘ch.

Ko‘ch-ko‘ch, ko‘chasan,
Mening otim arabdir.
Arab otim men aytsam,
Sening kuning xarobdir.

Ko‘ch-ko‘ch, ko‘chasan,
Qavat-qavat qulog‘idan ko‘ch,
Bilqillagan buyragidan ko‘ch,
So‘lqillagan yuragidan ko‘ch.
Umurtqaning uyidan ko‘ch,
Qobirg‘aning zehidan ko‘ch,

Xayr qilgan qo'lidan ko'ch,
Izzat qilgan tizzidan ko'ch,
Poytaraf oyog'idan ko'ch,
O'tiraturg'on joyidan ko'ch,
Yuraturg'on yo'lidan ko'ch,
Qilaturg'on ishidan ko'ch,
Qirq poya suyagidan ko'ch!

Ko'ch-ko'cha, ko'chasan,
Ko'char yering men aytsam,
Momo bo'lsang, ko'lga ko'ch,
Ziyon bo'lsang, cho'lga ko'ch,
Arvoh bo'lsang, go'rga ko'ch.

Ko'ch-ko'ch, ko'chasan,
Ko'char yering men aytsam,
Qizib yotgan go'rga ko'ch,
O'lik yotgan mozorga ko'ch,
Uli bilan mo'liga ko'ch,
Ko'chib yurgan lo'liga ko'ch.
Bor javobingni beraman.
Tegirmonning do'liga ko'ch.

Iyik bilan biyikka ko'ch,
Tovda yurgan kiyikka ko'ch.
Qizil egar naqshiga ko'ch,
Boqolmagan baxshiga ko'ch.

Ko'ch-ko'ch, ko'chasan,
Ko'char yering men aytsam,
Tov boshiga – archaga ko'ch,
Til tushunmas g'alchaga ko'ch.
Harrov desang, tuyaga ko'ch,
Sutli desang, biyaga ko'ch.

Ko'ch-ko'ch, ko'chasan,
Egri-bugri tog'larga ko'ch,
Hangragan eshakka ko'ch,
Miyovlagan pishakka ko'ch.
Nosvoyni otganga ko'ch,
Chilimni chekkanga ko'ch.

Shaqir-shuqur kulganga ko‘ch,
O‘trik-yolg‘on aytganga ko‘ch.
Men bormagich uylarga ko‘ch,
Men o‘tmagich to‘rlarga ko‘ch.

Oq eshakka em bo‘lsin,
Ko‘k eshakka em bo‘lsin.
Bolamning boqtirgani shul bo‘lsin,
Boqtirgani shul bo‘lsin.
Endi boqish ko‘rmasin,
Endi qoqish ko‘rmasin.

* * *

Ko‘ch-ko‘ch, badik, ko‘ch, badik,
Bo‘sag‘ada burilib turma, badik,
Bo‘sag‘ada burilib tursang, badik,
Egasining ko‘ngliga kelar hadik.

Ko‘ch-ko‘ch, badik, oylarga ko‘ch,
Oy ostida o‘tirgan boylarga ko‘ch.
Tiniq desang, soylarga ko‘ch,
Yugurik desang, toylarga ko‘ch.

* * *

Badiksho pirimga sig‘indim,
Gulafsho pirimga sig‘indim.
Gulafsho bo‘lsang, ko‘ch,
Badiksho bo‘lsang, ko‘ch.

Tuya badik bo‘lsang, ko‘ch,
Ot badik bo‘lsang, ko‘ch.
Qo‘y badik bo‘lsang, ko‘ch,
Sigir badik bo‘lsang, ko‘ch.

Qizil badik bo‘lsang, ko‘ch,
Qora badik bo‘lsang, ko‘ch.
Ko‘k badik bo‘lsang, ko‘ch,
Oq badik bo‘lsang, ko‘ch.

* * *

Yigit: - Mayda desang, Angren[1] toshiga ko'ch,
Biyik desang, Qopqaning[2] boshiga ko'ch.
Ko'char joying bilmasang, men aytayin,
Qunduz qora qizlarning qoshiga ko'ch.

Qiz: - Sayoz desang, Angren chetiga ko'ch,
Harom o'lgan ho'kizding etiga ko'ch.
Ko'char joying bilmasang, men aytayin,
Oydin oppoq jigitding betiga ko'ch.

Yigit: -Mayda desang, Chirchiqding toshiga ko'ch,
O'rmondagi qiyg'irding boshiga ko'ch.
Ko'char joying bilmasang, men aytayin,
Qulon qora qizlarning chochiga ko'ch.

Qiz: - Endi ko'chsang, ey badik, eshakka ko'ch,
Shudgorda shumpaygan kesakka ko'ch.
Ko'char joying bilmasang, men aytayin,
To'ppi kiyib, choch qo'ygan erkakka ko'ch.

Yigit: -Endi ko'chsang, oy badik, kubiga ko'ch,
Uyrum desang, daryoning tubiga ko'ch.
Ko'char joying bilmasang, men aytayin,
Qizlarning qo'lidagi guliga ko'ch.

Qiz: - Uzun desang, do'konding bo'ziga ko'ch,
So'zlaydigan jigitding so'ziga ko'ch.
Ko'char joying bilmasang, men aytayin,
Qarchig'ayday jigitding ko'ziga ko'ch.

Yigit: - Mayda desang, Angren toshiga ko'ch,
Marakada oshpazning oshiga ko'ch.
Ko'char joying bilmasang, men aytayin,
Qiyg'och qora qizlarning qoshiga ko'ch.

---

[1] Angren daryosi nazarda tutiladi.
[2] Chotqol tog'laridagi cho'qqi.

Qiz: - Echki sirin aytmaydi ulog'ina,
To'g'oy sirin aytmaydi bulog'ina.
Gaplasholmay do'stiman g'arib bo'lsin,
Borib jopish jigitding qulog'ina...

Yigit: - Endi ko'chsang, oy badik, sholiga ko'ch,
Sholining qing'ir-qiyshiq poliga ko'ch.
Ko'char joying bilmasang, men aytayin,
Qizlarning betidagi xoliga ko'ch.

Qiz: - Badik ketib boratir, ketsin-a,
To'g'oy sirin aytmaydi qoqisina.
Badik bo'g'on bolangdi aytib bersam,
Nima qilib berasan haqisina?

Kinnalar

Momo kirna bo'lsang, chiq,
Arvoh kirna bo'lsang, chiq.
Jin kirna bo'lsang, chiq,
Kul kirna bo'lsang, chiq.
Suv kirna bo'lsang, chiq,
Dev kirna bo'lsang, chiq.
Pari kirna bo'lsang, chiq,
Hasad kirna bo'lsang, chiq.
Ko'z kirna bo'lsang, chiq,
Suq kirna bo'lsang, chiq.

Betlaganning betiga bor,
Ko'zlaganning ko'ziga bor,
Har kimning o'ziga bor.

Suqchining qiziman, kirna,
Jinning qiziman, kirna.
Hasadchining qiziman, kirna,
Kulchining qiziman, kirna.
Qoning ichmay — to'ymayman,
Chiqarmasam — qo'ymayman,
Chiq, badbaxt, chiq, badbaxt!

* * *

Chiq, badbaxt, chiq!
Chiqarmasam menga la'nat,
Chiqmasang senga la'nat!

Hap ko'zingga hafalak,
Mozordagi kapalak,
Ko'zlaganning ko'ziga bor,
So'zlaganning so'ziga bor.
Chiqmasang, senga la'nat,
Chiqarmasam, menga la'nat!

Qon yalasang, qassobga bor,
Gard yalasang, tegirmonga bor.
Un yalasang, allofga bor,
Qorni katta boylarga bor,
Ochiq chorvadorlarga bor.
Yaxshi ot mingashganlarga bor.
Yaxshi to'n kiyganlarga bor,
Mening bolamda nima haqqing bor.
Chiq, badbaxt, chiq!
Chiqarmasam, qo'ymayman!
Chiqmasang senga lan'at,
Chiqarmasam menga la'nat!

Olqishlar

Umringdan baraka topgin!

* * *

Eshigingdan mehmon arimasin!

* * *

Borgan joying o't bo'lsin,
Balo qazo yo'q bo'lsin!

* * *

Tuproq olsang—oltin bo‘lsin!

* * *

Biring ikki bo‘lsin,
Ikking tuman bo‘lsin!

* * *

Boshing toshdan bo‘lsin,
Borgan joyingda qumtosh bo‘l!

* * *

Oy borib, omon kel!

* * *

Qo‘shilganing bilan qo‘sha qari!

To‘y olqishi

Oq bug‘doyning patiri,
O‘rgamchining chatiri,
Bir-ikki og‘iz aytayin,
Qora ko‘zlar xotiri.
Eshik oldi mavjim tol,[1]
Mavjim tolga qo‘ling sol.
Men fotiha aytayin,
Katta-kichi(k) quloq sol.
Atta bo‘lsin, fatta bo‘lsin,
Zuvalasi katta bo‘lsin.
Qil chivig‘i qildan bo‘lsin.
Chilobchini puldan bo‘lsin.
Eshik oldi ko‘l bo‘lsin,
Uyi bozor yo‘l bo‘lsin.
Qatorda nori bo‘lsin,
Uyi mehmonga to‘lsin.
Usta so‘ksin boltani,

[1] Mavjim tol — majnun tol

Qabul bo‘lsin olgani.
Oq gazadan chang chiqdi,
To‘da otliq bir chiqdi.
To‘da otliq ichida
Sizning kuyov sumbatli.
Otga minsin irg‘alib.
Otning beli mayishib,
Otga minsin imtilib,
O‘ngirlarin qimtinib.
Chovib olgan juyrug‘i,
Taqimida horisin.
Sevib olgan suydugi
Quchog‘ida qarisin.
Gangon jaylov joylasin,
Qo‘yni jaylov haydasin.
Jaylovdagi qo‘ylari
Korson quyruq boylasin.
Jengcha xarchi deganda
Saralab parcha aylansin,
Bilka xarji deganda
Amirkoni aylasin.
Qayni xarji deganda
Qopchiqlab tanga taylasin.
Qopchig‘ini ocholmay,
Qiynab o‘ziga taylansin.
Boldiz xarji deganda
Parchalab saqich taylasin.
Girdidagi boldizlari
Qarsa-qursa chaynasin.
Parchachakday[1] guli bo‘lsin,
Navro‘zakday turli bo‘lsin...
Qora qo‘yning quyqasi,
Bilagida chuykasi.
Adras xarji bermasa
O‘pkalanar biykasi.
Arpa bersang otga ber,
Qatir-qatir chaynasin.
Qizni bersang-mardga ber,
Qizg‘aldoqday jaynasin...

[1] Parchachak – boychechak

Chimildiqning betiga
Chim farishta gul bo'lsin.
Yostig'ining betiga
Dasta-dasta gul bo'lsin.
Shirin-shakar til bo'lsin,
Bedanay yo'lchi bo'lsin.
Boqqani tumor bo'lsin,
Dushmani bemor bo'lsin.
Yoqqani qumaloq bo'lsin,
Suygani chaqaloq bo'lsin.
Ne tilasa shuni bersin...
Egani uzum bo'lsin,
Umrlari uzun bo'lsin.
Ichganlari qatiq bo'lsin,
Davlatlari ortiq bo'lsin.
Egay-tugay egarsin,
Etagidan ko'karsin.
Ikkovi qo'sha qarisin.
O'chog'i to'la kul bo'lsin,
Tegaragi ul bo'lsin.
Og'zi to'la kulgi bo'lsin,
Ko'zi to'la uyqu bo'lsin.
Oralagani ko'cha bo'lsin,
Uyi to'la bacha bo'lsin.
G'unajini do'nnanab,
Do'ng adirga sig'masin.
G'unajini g'unnanab,
G'un-adirga sig'masin.
Jabig'i jundan[1] yoping'i,
Jomg'ir yog'sa o'tmasin.
Chalqib yotgan ko'lday bo'l,
G'ozlar uchib o'tmasin.
Oshkor-oshkor tog'day bo'l,
Dushman bosib o'tmasin...
Bosh-boshingga, boshingga,
Baraka bersin oshingga.
Qo'shig'imni qo'shayin,
Men zulfimni eshayin.
Aytgan bilan ado bo'lmas,

[1] Jabig'i jun — tulki juni

Qancha aytsam potiyani.
Kuyov boshqa xarji bermas,
To‘xtatay gapni picha.
Qolgani bo‘lar tong-kecha,
Omin deya qo‘l ko‘taring,
Qiz onasi boybichcha.

Qarg‘ishlar

Tilingni qarg‘a cho‘qisin!

* * *

Ko‘zingni quzg‘un cho‘qisin!

* * *

Ko‘zingga bo‘z tuproq to‘lsin!

* * *

O‘liging ustida o‘ltiray!

* * *

Go‘ringda to‘ng‘iz qo‘psin!

* * *

Yo‘lingda qoqilib o‘lgin!

* * *

So‘zing bo‘g‘zingda qolsin!

* * *

Go‘shtingni qashqirlar yesin!

* * *

Onangni bolamlab qolganini ko‘ray!

* * *

Ostonaga qoqilib, til tortmagin!

* * *

Bo‘yningni shayton uzsin!

* * *

Og‘zingdan laxta-laxta qoning kelsin!

* * *

Uying chumolini uyiday buzilsin!

* * *

Yuzingga chechak chiqsin!

* * *

Sochlaring sartaxtada yoyilsin!

* * *

Bir qarich yer buyurmasin!

* * *

Tiling tanglayingda qotsin!

* * *

Boshing azadan chiqmasin!

* * *

Ko‘zlaring oqib tushsin!

* * *

Chaynaganing bo‘g‘zingda qolsin!

* * *

Ona suting harom bo‘lsin!

* * *

Bolang og‘zingdan kelsin!

* * *

Kosang sira oqarmasin!

* * *

Jig‘ildoningga suyak tiqilsin!

* * *

Yulduz ko‘rmay, jon bergin!

* * *

Niyatingga etmay, juvonmarg bo‘l!

* * *

Jigaring teshilib, to‘kilsin!

* * *

Bir ko‘zingdan yiring,
Bir ko‘zingdan qon oqsin!

* * *

Basharang qurib ketsin!

* * *

Turqu siyohing qurib ketsin!

* * *

Qo‘shilganing bilan qo‘shmozor bo‘l!

* * *

Vatangado bo‘lgin!

* * *

Tilginang kesilsin!

MAVSUMIY MAROSIM QO‘SHIQLARI

Navro‘z keldi, yoz keldi

Navro‘z keldi, yoz keldi.
Turna keldi g‘oz keldi,
Yam-yashil chorbog‘lardan
Bulbulday ovoz keldi.

Navro‘z keldi bu kecha
Pishiring navro‘z go‘ja,
Go‘jasi shirin momolarga,
Beraylik bir juft jo‘ja.

Gulgun ekan ko‘ylaging,
Gulday nozik bilaging,
Navro‘z keldi, gul keldi,
Aytgin bo‘lsa, tilaging.

Qaldirg‘och qayib uchar,
Qanotin yoyib uchar,
Navro‘zda qozon to‘lsa,
Elimizni baxt quchar.

Sumalakjon, sumalak

Bahorning sen elchisi,
Yaxshilikning belgisi,
Navro‘zning sen singlisi,
Sumalakjon, sumalak,
Sumalakjon, sumalak,

Doshqozonda sumalak,
Kovlamagan armonda,
Bir-birining ko‘nglini
Ovlamagan armonda,
Sumalakjon, sumalak,
Sumalakjon, sumalak,

Sumalakka o‘tin yo‘q
Qayda ekan dalasi,
Kelmadimi hasharga,
Qo‘ni-qo‘shni bolasi?
Sumalakjon, sumalak,
Sumalakjon, sumalak,

Qiz bolaning ro‘moli,
Qizil gulli shoyi,
Bilsangiz, sumalakjon,
Barcha ovqatning boyi,
Sumalakjon, sumalak,
Sumalakjon, sumalak,
Navro‘z kelay deganda,
Bug‘doy undirib qo‘ydik,

Mehmon bo‘lib kelingiz,
Sumalak qilib qo‘ydik.
Sumalakjon, sumalak,
Sumalakjon, sumalak,

Sumalakjon, qildik biz,
Bolalarni yig‘dik biz,
Uxlash vaqti kelganda,
Bir ko‘rpaga sig‘dik biz.
Sumalakjon, sumalak,
Sumalakjon, sumalak,

Qora ko‘zli Qamaroy,
O‘yin tushar misli oy.
Sumalak ko‘p bahona,
O‘ynadik botguncha oy.
Sumalakjon, sumalak,
Sumalakjon, sumalak.

Sumalakjon pishgan so‘ng,
To‘yib-to‘yib edik biz.
Buncha shirin sumalak,
Unga qoyil qoldik biz.
Sumalakjon, sumalak,
Sumalakjon, sumalak.

Omonliq, hey omonliq

Omonliq, hey omonliq
Yetdik Navro‘zga,
Unutilsin yomonliq,
Qut ber, rizq-ro‘zga.

Yurtga tinchlik so‘rayman,
Olamga chiroy.
Shu ayomni qutlay deb,
Undirdim bug‘doy.

Sumalak bir bahona,
G‘animat diydor.

Shu urfimiz shohona,
Oqibatga yor.

Zamonga ming shukrkim,
Yetdik Navro'zga.
Maysa o'sibdi durkun,
Suray men ko'zga.

Boychechak

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayrondi..
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayrondi.

Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,
Tut yog'ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar.

Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.

Boychechagim bolasi,
Qulog'imda donasi.
Donasin olay desam,
Chiqib qoldi onasi.

Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.

Boychechagim boylandi,
Ko'chama-ko'cha aylandi.
Boychechagim ko'k somsa,
Cho'ntaklarga joylandi.

Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayrondi.
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayrondi.

Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.
Sen bizlarning to'ng'ich go'zal qizimiz,
Bizga qarab jilmaysang-chi, hoy, chechak.

* * *

Boychechagim hillolik,
Hamyon-hamyon tillolik.
Hamma bozor-bir bozor,
Tevarak cheti lolazor.

Lolazor xazon bo'libdi,
Olimqul juvon bo'libdi.
Bala-bala-bum, boychechak,
Bala-bala-bum, boychechak,

* * *

Oppoqjon

Oppoqjon dastidan
Qizil gul ochildi.
Qizil gulning xumchasi,[1]
Oppoqjonning bachasi.
Oppoqjon o'libdi,
Ko'k ko'ynakni kiyibdi,
Oq ko'ynakni yoribdi.
Olma minan otibdi,
Yumalata yotibdi.

[1] G'unchasi ma'nosida

Halinchak

Halinchak, ho, halinchak,
Halinchakda kelinchak,
Saltligini sog'ingan,
Kelinchaklar kuyinchak,
Halinchak, ho, halinchak,
Uchavergin kelinchak,
Ko'zga surma yarashar,
Qo'sh chekkaga qo'sh chechak.

Boyga chopon bichdingmi,
Tushda ayron ichdingmi?
Boyni qo'yga jo'natib,
Halinchakda uchdingmi?
Kelinchak, ho, kelinchak,
Uyqung buzsin «inga»lar,
Yertamu kech belanchak,
Olib kelsin yangalar.
Halinchak, ho, halinchak,
Halinchakda kelinchak.

Lola, lola, lolajon

Lola, lola, lolajon
O'sar joying dalada.
Lola, lola, lolajon
Chidash berding jalaga.

Lola, lola, lolajon,
Chaqmoqdan hech qo'rqmagin,
Lola, lola, lolajon,
Jaladan hech qo'rqmagin.

Lola, lola, lolajon,
Sellar oqsa qo'rqmagin.
Lola, lola, lolajon,
Sovuq tursa qo'rqmagin.

Lola, lola, lolajon,

Qizlardan hech qo'rqmagin.
Lola, lola, lolajon,
Bizlar uzsak qo'rqmagin.

Lola, lola, lolajon,
Qizlar taqsa qo'rqmagin.
Lola, lola, lolajon,
Bizlardan ham qo'rqmagin.

Lola, lola, lolajon,
Lola sayli sho'x bo'lsin.
Lola, lola, lolajon,
Bizdan ko'ngling to'q bo'lsin.

Lola, lola, lolajon,
Chaqir yoningga boraylik.
Lola, lola, lolajon,
Sendan ko'proq teraylik.

Lola, lola, lolajon,
Seni ko'rsak quvnaymiz.
Lola, lola, lolajon,
Dala chiroyi sensan.

Lola, lola, lolajon,
Bahor daragi sensan.
Lola, lola, lolajon,
Keldik seni sog'inib.
Lola, lola, lolajon,
Ta'zimdamiz sig'inib.

Lola, lola, lolajon,
Yurtim chiroyi, lolajon,
Elim chiroyi lolajon.
Hoy bolalar, bolalar,
Yuring qirga boraylik.
Lolalardan teraylik,
Chakkalarga taqaylik.

Hoy, bolalar, bolalar,
Gul sayliga boraylik.

Quchog'imiz to'ldirib,
Gulloladan teraylik.
Hoy, bolalar, bolalar,
Toqqa qarab chopaylik.

Toqqa yetib borgan so'ng.
Lolalardan teraylik.
Hoy, bolalar, bolalar,
Navro'z, navro'z o'ynaylik.
Navro'z, navro'z o'ynash uchun,
Gul terishga chiqaylik.
Yerning qoni lolajon,
Yerning joni lolajon,
Lola sayliga kelib,
Ko'rdik seni lolajon.

Yo ramazonlar

— Uyga baraka!
Assalomu alaykum, bizlar keldik
Payg'ambar yo'lini izlab keldik.
Har yilda keladi bir marta ro'za,
Ro'zaning savobi tegadi sizga.
Bersangiz-bermasangiz xudo yo'liga.

Rabiman, yo rabiman, yo ramazon,
Rabiman aytib keldik eshigingizga.
To'qliday o'g'il bersin beshigingizga.
Xudoyim bergan o'g'il mullo bo'lsin,
Otining egarlari tillo bo'lsin.
Payg'ambarning o'n bir o'g'li bor edi,
Hammasidan Shoyusuf gulzor edi.
Shoyusufni ovga olib chiqdilar,
Chaga[1] tashlab, bo'ri yedi, dedilar.
Onasi yig'lab bordi cha boshiga,
Chashmalar ravon to'ldi ko'z yoshiga...
Oq tanga, ko'k tanga,
Chiqarib bering, jon yanga!

[1] Chohga

Uydan sadaqa olingach:
– Tomga sepdim sedona,
Terib esin bedona.
Uyingiz – bulbulxona,
Har yil bo'lsin to'yxona.
Bu uyning orqasida oy ko'rdim,
Bu uyning egasini boy ko'rdim.
Sadaqa berilmagach:
– Bu uyning orqasida latta-putta,
Bu uyning egasining keti katta.

* * *

– Uydan baraka!...
Rabiman, yo rabiman, yo ramazon...
Rabiman, oblohi mohi ramazon.
Rabiman aytib keldik eshigingizga.
Makkada bir tol bor-boshi qora,
Xudoyim o'g'il bersin-qoshi qora.
Makkada bir tol bor- puldakkina,
Xudoyim o'g'il bersin - guldakkina.
Makkaning ro'moli bor-oyning o'zi,
Mashatil[1] ro'mol tikar boyning qizi.
Mashatil tikkan ro'mol belimizda,
Ayta-ayta qaytamiz yo'limizga.
Payg'ambarning bir qizi Fotimadir,
Qo'lida tillo qaychi-to'n bichadir.
Bizga tikkan to'nining qurog'i yo'q,
Beli bog'liq kelganlarning sanog'i yo'q.
Oq tamaki, ko'k tamaki,
Chiqarib bering, jon amaki.

* * *

– Uydan baraka...
Ramazon aytib keldik eshigingizga,
Qo'chqorday o'g'il bersin beshigingizga.
Qo'chqorday o'g'il bersa beshigingizga,
Kim kelib, kimlar ketmas eshigingizga.

---

[1] Mashatil – mahsharda to'qilgan ro'mol ma'nosida

Shu uyda bir odam bor – oti Huri,
Go'zallikda tengi yo'q-quyosh nuri.
Minsangiz, oshiqlarning samani, deydi,
Yursangiz, oshiqlarning chamani, deydi.
Soy bo'yiga chiqsangiz, quchaman, deydi,
Oyga qarab kulsangiz, o'paman, deydi.
Yo javob, yo savob.
Yo bir kosa g'o'linob!

Hayitliklar

Navro'zi navbahorda xush obi rahmat yog'di,
Dovu daraxtga yoqib, yerga ham rohat yog'di.
Ilm uchun farzandini maktabga berganlarga
Ham farog'at, ham saxovat, ham sabru toqat yog'di.

* * *

Yangi yil kirgan kuni turli daraxtlar ochilur,
Yeru osmon ko'ksiga durru gavhar sochilur.
O'g'lini maktabga qo'ygan bandalarning shul kuni
Yuzlarini yoritib jannat eshigi ochilur.

* * *

Ro'za oyi keldi, ketdi, bilmadim kimdan rizo,
Haq taolo ko'rsatur imonimiz ro'zi jazo.
Ey, ota, xizmat qiling ustozimizga ilm uchun,
Bizni ozod aylagan ustozimiz bo'lsin rizo.

Sust xotin

Sust xotin, sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Havo yog'mas bo'lama, sust xotin,
Tomchi tommas bo'lama, sust xotin.
Yetmishdagi kampirni, sust xotin,
Sel opketmas bo'lama, sust xotin.

Sust xotin, sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.

Hosillar mo'l bo'lsin, sust xotin,
Dehqonning uyi to'lsin, sust xotin.
Yomg'irlarni yog'dirgin, sust xotin,
Yomonning uyi kuysin, sust xotin.

Sust xotin, sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.

Havolarni yog'dirgin, sust xotin,
Bug'doylarni bo'ldirgin, sust xotin.
Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,
Elu yurtni to'ydirgin, sust xotin.

Sust xotin, sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.

* * *

Sust xotin-a, sust xotin,
Ishtonbovi bo'sh xotin.
Olti qarich ovi bor,
Oq jiyakdan bovi bor.
Havo yog'mas bo'lama,
Tomchi tommas bo'lama.
Yetmishdagi kampirni
Sel opketmas bo'lama?

Sust xotin-a, sust xotin,
Ishtonbovi bo'sh xotin.
Dehqonlarni g'am bosdi,
Omochini chang bosdi,
Havo yog'sin sebalab,
Bo'ri qochsin jobalab.
Bug'doy bo'lsin zarchalab,
Sag'ir-sug'ur qolganlar.
Nonni esin parchalab.

Sust xotin-a, sust xotin,
Ishtonbovi bo'sh xotin.

* * *

Havo yog‘ar tov-tovga, sust xotin,
Yilqi enar u tovga, sust xotin.
Ko‘chada yurgan kelinchak, sust xotin,
Qochib kirar o‘tovga, sust xotin.

* * * * * *

Sust xotin, sulton xotin,
Ko‘lankasi maydon xotin.
Sust xotinga ne kerak,
Sharros-sharros yomg‘ir kerak.

Choy momo

Choymomo, choy, choy, choy
Chayilib qolsin bu shamol.
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol.
Ucha-ucha beringlar,
Uchilib qolsin quv shamol.
Choymomolar o‘libdi,
O‘g‘li yetim qolibdi.
Choymomoning onasi,
Amakisiga boribdi.

Choymomo, choy, choy, choy
Chayilib qolsin bu shamol.
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol.
Ucha-ucha beringlar,
Uchilib qolsin quv shamol.

* * *

Cho‘y, cho‘y, cho‘ymomo,
Cho‘ymomoning o‘lganiga uch kun bo‘ldi.
Cho‘y, cho‘y, cho‘ymomo,
Ucha-ucha beringlar,
Uchilib qolsin quv shamol.
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol.

Yig‘a-yig‘a beringlar,
Yig‘ilib qolsin, bu shamol,
Cho‘y, cho‘y, cho‘y, cho‘ymomo,

Ko‘nalar

(Yas-yusun marosimida aytiladigan bo‘zagarlar qo‘shiqlari)

Kosagul: – Alyor bo‘lsin-ay,
Xo‘jam yor bo‘lsin-ay.
Xo‘jam bergan bu davlatga
Dushman zor bo‘lsin-ay.
Bo‘zaxo‘r kosani qaytara turib:
– Oyga o‘xshaydir yuzing,
Cho‘lponga o‘xshaydir ko‘zing.
Shuncha ham yaxshi bo‘lurmi,
Xalq ichida yulduzing!?
Yoki:
Quy bo‘zangni, suz bo‘zangni qilqillatib,
Marding ichsin, nomarding zor yig‘lasin.
Ichib beray, ukajonim, alyor bo‘lsin, –

– deya kosani qaytargach, 2 ta yo 4 ta to‘rtlik aytadi. To‘rtlikning birinchi satri qaysi so‘z bilan boshlansa, 2- yoki 3 va 4-to‘rtliklarning ham birinchi satri xuddi o‘sha so‘z bilan boshlanmog‘i shart:

– Bo‘za bo‘zdir, rangi so‘zdir, xo‘p ichaylik bo‘zani,
Xumi oltin, tillodan qozonlari.
Saksovul bo‘lsa bo‘zaxo‘rning o‘tini,
Shul pishirar chori qo‘yning etini.

Bo‘za ichdim boshga chiqdi xumori,
Yor qo‘ynida qoldi bo‘ynim tumori.
Hech bahona topmas erdim borgani,
Xo‘b bahona bo‘ldi bo‘yning tumori.
– Bo‘zani asli otasi kurmakdir,
Mayxonada o‘ynamoqdir, kulmoqdir.
Mayxonada o‘ynamasang, kulmasang,
Kim qo‘yibdi mayxonaga kelmoqdi...

Bo‘zani ichgan sari kayf ortadir,
Barchani birdek yaratsang netadir?
Bir nechaga beribsan baxtu davlat,
Bir nechaning umri zoe o‘tadir.
– Bo‘zaning asl otasi kurmakdin,
Hech madorim qolmadi yurmakdin.
Yoronlar, bul ma’niga soling quloq,
G‘arazim-yaxshi-yomon ko‘rmakdi.
Bo‘zaning piyolasi ham lolasi,
Yigitga hamdam bo‘lur qaynonasi.
Ul yigit chiqsa bo‘zojin mast bo‘lib,
Oldiga o‘ynab chiqar jononasi.

– Oq kiyik kelar-ketar izi bilan,
Onasi maslat[1] solar qizi bilan.
Borib ayting onasining o‘ziga,
Shariatlik ishim bor qizi bilan.

Oq kiyik qayda yurar tog‘ bo‘lmasa,
Qizil gul qayda bitar bog‘ bo‘lmasa.
Er yigit qaydan olar sevganini,
Oldida haydab yurgan mol bo‘lmasa?!

– E begim, qo‘ylik xonangda qo‘y turur,
Qo‘yni so‘ysang jumla-olam to‘ydirur.
Qo‘yni so‘ydim, deya qilma minnat hech,
Qornim ochsa, tangrim o‘zi to‘ydirur.

E begim, qoshing qaro, ko‘zing qaro,
Qosh qarosi manga bo‘ldi bir balo.
Yoshligida ikki so‘zlik yigitlar,
Qariganda ikki yuzi qop-qora.

Oq machitning yo‘lida yo‘l ayrilur.
Fe’li ozgan bandadin yor ayrilur.
Ayrilsa yor ayrilsin, do‘st ayrilmasin,
Vaqti kelsa taxtidin xon ayrilur.

Oq machitning yo‘lida bir bog‘ o‘tin.

[1] Maslat – maslahat

Bu dunyoda bormikan bag'ri butun?
Bu dunyoda bor bo'lsa bag'ri butun,
Qog'ozdan qozon qilay, guldan o'tin.
– Buxoroning bir tomoni Qorako'l,
Yig'lay-yig'lay yoqalarim bo'ldi ho'l.
Farzandlikning uyin ko'rsang misli gul,
Befarzandning uyin ko'rsang misli cho'l.

Buxoroning bir tomoni Registon,
Toza-toza mato kelar o'risdan.
Farzandlikning uyin ko'rsang guliston,
Befarzandning uyin ko'rsang cho'liston.
– Er yigitning bir mingani qoradir,
Yarashurga zar kokilin taradi.
Er yigitda farzand o'g'lon bo'lmasa,
O'lgandan so'ng moli mulki talandi.

Er yigitning bir mingani burildi,
Chu deganda qo'ldan qamchi surildi.
Er yigitda farzand o'g'lon bo'lmasa,
O'larida zamonasi qovrildi.
– Suv ichida halqa uradir bir ilon,
Og'zida oltin baliq soyibqiron.
Men aning soyibligin qaydan bilay,
Suv qurisa baliq o'lur ham ilon.
Suv ichida sabzaning holoti bor,
O'z tengiga tushganning davlati bor.
O'z tengiga tushganlar o'ldim demas,
Og'ziga tomsa shakar to'ydim demas.

Daryoning nar yuzida hay-haylagan,
Qamchisining uchiga zar boylagan.
Qamchisi qayrib olib otga solgan,
Uyda yorim qoldi deb xatga solgan.

Daryoning nar yuzida umr qilur,
Shox sinsa zargarlar kumush qilur.
Shox sinsa saroltin sol bo'yningga,
Agar sen oshiq bo'lsang ol qo'yningga.
– Ayt deganda, ayta bermasmi kishi,
Mard bo'lib maydonda yurmasmi kishi!

Qizlarjon jonim desa, tanim desa,
Qipqizil devona bo'lmasmi kishi!
Ayt deganda, aytmagan nomard ekan,
Qiz bolaning ikki labi qand ekan.
Molni bersang qizga ber-band ekan,
Juvonning ishi qursin-beband ekan.
– Qizlarjon, qaynar buloqqa boshlamang,
Moli ko'p deb boy bolasin xushlamang.
Mol degan qo'lning kiri-yuvsa ketar,
Kokulingni chor tarafga tashlamang.

Qizlarjon qirga ko'yodi bo'zini,
Savdogarga ko'rsatadi o'zini.
Savdogar savdoga chiqdi mol uchun,
Qizlarjon shaydoyi bo'ldi yor uchun.
Qizlarjon, oting nima?-Gulbahori!
Sanga tushdi man etimning nazari.
Sanga tushsa man etimning nazari.
Qachon bo'lgay ikki etim bozori.

Qizlarjon, qilliqqinang qil yoradi,
Lablaringning shakari til yoradi,
Qoshlaring qozi bo'lib yurt so'rasa.
Kipriging jallod bo'lib bosh oladi.
Tolga oshsam – tolcha belim toladi.
Uyga kirsam–yaxshi yorim qoladi.
Qaydin sevdim ikki birdek lolani,
Birin sevsam, birin ko'ngli qoladi.

Tolga oshib uyon-buyon qaragan,
Gul taginda qora zulfin taragan.
Ul mohda bo'lgay yigit ko'nglin anglagan,
Do'zaxda bo'lgay qizning baxtin boylagan.
Qarshidan ortdim tuyaga qirq qozon,
Yor uchun gulday yuzim bo'ldi xazon.
Yotib yerdim yaxshi yorning qo'ynida,
Uying kuygur so'filar aytdi azon.

Qarshida qor yog'adi, bunda qirov,
Aqlim bilan hushimni oldi birov.
Aqlim bilan hushimni olsa birov,

Yetsa molim, yetmasa-boshim garov.
Kichkina xirmonchani sug‘urdilar,
Qonim bilan bag‘rimni qo‘g‘irdilar.
Qonim bilan bag‘rima to‘ymagan so‘ng,
O‘tga yoqib kulimni so‘g‘irdilar.

Kichkina xirmonchadan oldim somon,
Oshiqqa kunduzgidan oydin yomon.
Ikki oshiq tilagin bersa xudo,
Kunduzi yog‘sa yomg‘ir, tuni-tumon.
Chirmanda chertib keladur ikkisi,
Ikkisi desam, yorimning birisi.
Ikkisicha hargiz seni ko‘rmasam,
Sitilib oqqay ikki ko‘zim barisi.

Chirmanda chertsa bo‘lur barmoq bilan,
Boy qizin olsa bo‘lur har bob bilan.
Boy qizi suvga tushsa baliq bo‘lur,
Baliqni tutsa bo‘lur qarmoq bilan.
Suv kelar havosidan,
Tegirmon navosidan.
Qiz bola to‘ppi tikar,
Yigitning havasidan.
Suv keladir boshidan,
Sultonimning qoshidan.
Yig‘lay berma, qiz bola.
Ko‘zginangning yoshidan!

Suv kelar gumbur-gumbur,
Suyganim qizil guldir.
Suyganimni olmasam,
O‘lganim o‘shal kundir.
Suv kelar hovli-hovli,
Irg‘alur mayda toli.
Irg‘ansa mayda toli,
Sayrashur bulbullari.

Orqaning kiyiklari mergan sari.
Sochi suluv ko‘rinar o‘rgan sari.
O‘ksib-o‘ksib yig‘layman qiz bolaga,
Yotib turgan joyini ko‘rgan sari.

Orqaning kiyiklari bo‘z-bo‘zgina,
Qayga ketdi bizning qora ko‘zgina.
Ketsa-ketsin bizning qora ko‘zgina,
Va’dasi yo‘q, sharti yolg‘on qizgina.
Qish kunining lolazoridir olov,
Oldiga yoqsang yonadir lovva-lov,
Lovva-lovga uch nima darkor ekan,
Bir kapchik, biri dutor, biri damlangan polov.

Qish kuni g‘ish-g‘ish etarlar g‘ishalar,
Chaqmayin qonimni so‘rdi pashshalar.
Pashshaning oyoqlari qildin bo‘lur,
Yigitning har bir so‘zi guldin bo‘lur.

Eshigingga sipo boylay chim bilan,
Sen ketarsan, man qolarman kim bilan.
Sen ketarsan yora-yu jo‘rang bilan,
Man qolurman ich to‘la armon bilan.

Eshigingdan oy tushibdi yuzima,
Sendin o‘zga yor ko‘rinmas ko‘zima.
Sendin o‘zga yor ko‘rinsa ko‘zima,
O‘tirib sabre tilayman o‘zima.

Eshiging oldida qish qor bo‘raydi,
Er yigit boshiga salla o‘raydi.
Bir o‘ragan sallasin qayta o‘rasa,
Ul yigitning yoriga kim qaraydi.

Eshik oldi ko‘lhovuz-loying bo‘lay,
Otlanib chiqsang jilovdoring bo‘lay.
Hammaning oyi ketib kuni qoldi,
Men sening ketmas jilovdoring bo‘lay.

OILAVIY-MAISHIY MAROSIM QO'SHIQLARI

To'y qo'shiqlari

Xatna (Sunnat to'yi) qo'shiqlari

Sunnat to'yida chaqiriladigan jarlar

O, tevadan-o o'chog'ini o'ydirgan,
Katta o'choqni qurdirgan,
Chorqirra[1] qo'yni so'ydirgan,
Nortuyaga ulog'ini urdirgan,
Ko'pkarisini choptirgan,
Yuz ellik so'm pul bilan
Ulog'ini qo'ydirgan,
Ola bo'qchani ochdirgan,
Beqasam to'nini yoptirgan,
Bo'tali tuya, qo'sh ho'kiz,
Baytalini oldirgan,
Barakalla-yo, boyvachcha-yo!

O, mingan oti to'pichoq-o,
Yol-quyrug'i bir quchoq-o,
Men aytaman nasihatdan,
Ot to'rvasi banotdan,
Ot yemishi kishmishdan,
Omborchisi sho'x ekan-o,
Jarchiboshi bo'sh ekan-o,
Yemishlari go'sht ekan-o,
O, barakalla-yo, boyvachcha-yo!

O, men aytaman chayqalib,
Unda to'ylar turar kutib,
Tezda kiyinib chiqqin-da,
O'tirasanmi so'ljayib,
O, tevadan-o o'chog'ini o'ydirgan,
Katta o'choqni qurdirgan,
Chorqirra qo'yni so'ydirgan,

[1] Chorqirra–bo'rdoqi.

Nortuyaga ulog'ini urdirgan,
Ko'pkarini choptirgan,
Solimlarini tarqatgan,
Yuz ellik so'm pul bilan,
Ulog'ini qo'ydirgan,
Ola bo'qchani ochtirgan,
Beqasam to'nini yoptirgan,
Bo'tali tuya, qo'sh ho'kiz,
Baytalini oldirgan,
O, barakalla-yo, boyvachcha-yo!

Bola qochdi

Hovligacha mayda tol,
Mayda tolga payvand sol,
Olgan yoring yosh bo'lsa,
Aldab-suldab yo'lga sol,
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Tomni tepib yo'l qildim,
Oltin bardan to'n qildim,
Bir engini tor qildim,
O'ynamoqqa zor qildim,
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Tomdan tarasha tushdi,
Zulfing yarasha tushdi,
Zulfingga qarab-qarab,
Qalpog'im yerga tushdi,
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Tom ustida beda bor,
Maydasini elab ol,
Bizlar qilgan bazmda,
Qarilarga nima bor,
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Eshik oldi moshpoya,
Bargi boshingga soya,
Seni o'zing yosh juvon,
Umring shu cholga zoya,
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Parang ro'moli bo'lsa,
Ko'rpa qatiga qo'ysa,
Daladan yori kelib,
Olib boshiga solsa,
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Aka oting ko'kmidi,
Ko'k bedasi yo'qmidi,
Rangingda hech qoning yo'q,
Sevgan yoring yo'qmidi?
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Aka otingni ko'rdim,
Tog'larda yurgan ekan,
Qayrilib salom bersam,
Tili yo'q hayvon ekan,
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Hovlichada tutingiz,
Xurmachada sutingiz,
Bormay desam qo'ymaydi,
Ola bo'ynoq itingiz.
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Mehmonxona o'chog'i,
Ko'kcha qovun po'chog'i,
Muncha ham shirin ekan
Sevgan yorning quchog'i,
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Mehmonxona vassasi,
Qizil gulning dastasi,
Aytsam ado bo'lmaydi
O'yinchining qissasi,
Ho mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda-mayda.

Hay do'st

Ariq bo'yida yalpiz-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Yalpizning bargi yolg'iz-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Otang bozor ketganda-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Qanday yotasan yolg'iz-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Nari betning kamari-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Hurillaydi shamoli-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Olti oy qo'limda turdi-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Yetti gulli ro'moli-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Tom ustida beda bor-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Maydasini elab ol-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Qizlar hayitga chiqsa-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Yaxshisini saylab ol-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Tom ustida yotaman-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Turna kelsa otaman-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Turna bo'yli qizlarni-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,
Soch bog'idan tortaman-ey,
Hayyor-ey, hay do'st, hay do'st, do'st-do'st,

Eshik oldi sho‘ralar-ey,
Hayyor-ey, hay do‘st, hay do‘st, do‘st-do‘st,
Oyog‘imga o‘ralar-ey,
Hayyor-ey, hay do‘st, hay do‘st, do‘st-do‘st,
Bizlar ketib boramiz-ey,
Hayyor-ey, hay do‘st, hay do‘st, do‘st-do‘st,
Yaxshi qoling jo‘ralar-ey,
Hayyor-ey, hay do‘st, hay do‘st, do‘st-do‘st,

* * *

Toqqa chiqdim chirmashib, hay yor-yor, hay do‘st,
Jiyron otga mingashib, hay yor-yor, hay do‘st,
Jiyron otga jul[1] kerak, hay yor-yor, hay do‘st,
Chamanga bulbul kerak, hay yor-yor, hay do‘st.

Bundan bordim andizga,[2] hay yor-yor, hay do‘st,
Otim toyrildi muzga, hay yor-yor, hay do‘st,
Toyrilmoqqa muz yaxshi, hay yor-yor, hay do‘st,
O‘ynamoqqa qiz yaxshi, hay yor-yor, hay do‘st.

Qo‘y ichidan sudrab chiqdim qo‘zini, hay yor-yor, hay do‘st,
Nodon boshim tanimadi yozini, hay yor-yor, hay do‘st,
Nodon boshim tanisaydi yozini, hay yor-yor, hay do‘st,
Berar edi gul Zeboim qarzini, hay yor-yor, hay do‘st.

Erka bolam, to‘ying muborak bo‘lsin

Muboraklar bo‘lsin yetgan to‘yingiz,
Juft o‘rali ko‘shki ayvon uyingiz,
Mudoma izzatda o‘tgay umringiz,
Yaxshi odam to‘y boshlasa yoz bo‘lar,
Juft tilla xarjlasa xalfa soz bo‘lar,
Xalfangizga kumush ro‘mol yarashar,

To‘yingga yarashar sozanda — baxshi,
Mehmonlar ko‘p izzat ko‘rgani yaxshi,
Xalfang chechan bo‘lsa, to‘yingiz naqshi,

[1] Jul—otga egar solishdan avval yopiladigan maxsus jundan to‘qilgan yopqich.
[2] Andizga—tog‘da, adirlarda o‘sadigan dorivor o‘simlik.

Bilib keldik shu kun to‘y bo‘lganini,
Xaloyiq hammasi to‘planganini,
Xalfalar ham xizmatda turganini,

O‘rta yerga qozonlarni qo‘yinglar,
Biqillatib qizil xo‘roz so‘yinglar,
Oq bilakni chizg‘ab biring yuvinglar.

Ayvonga qo‘yinglar oltindan o‘ra,
To‘yingizga kelur xon bilan to‘ra,
Hammaning to‘yindan shu to‘ying sara,

Sira ko‘nglingizda qolmasin armon,
Yolg‘onchi dunyoda surgaysiz davron,
Sizlara yor bo‘lgay hazrati Polvon,

Nikoh to‘yi qo‘shiqlari

Yor-yorlar

Yor-yor aytsak, jamoat,
Xush dengizlar, yor-yor,
Xush bormikan degani
Do‘st bormikan, yor-yor.
Ota-onasin uyini
Suv oldirib, yor-yor,
Oblo birov uyini
Quvontirib, yor-yor,
Qizday munglig‘ dunyoda
Hech bormikin, yor-yor.

Kelidagi qatiqni
Kim to‘kibdi, yor-yor,
Ketadigan singlimni
Kim so‘kibdi, yor-yor.

Shildir-shildir shiboqqa
Sirg‘am tushdi, yor-yor.
Sinamagan yot elga
Singlim tushdi, yor-yor.
Singlim tushgan joylarga

Oy bo‘layin, yor-yor.
Kuyov chekkan chilimga
Nay bo‘layin, yor-yor.
Kuyov yigit hammadan
Zo‘r bo‘larmi, yor-yor.
Birovning suygan qizin
Obketarmi, yor-yor.
Bundan borsang nozingni
Kim ko‘tarar, yor-yor.
Yaxshi bo‘lsa olganing
Shu ko‘tarar, yor-yor.
Yomon bo‘lsa olganing
So‘z keltirar, yor-yor.

Chimildiqni bir selping,
Ko‘rsin otang, yor-yor.
Savdosidan qutildim,
Desin otang, yor-yor.

Ovdir-shovdir oq munchoq
Toqinarsan, yor-yor.
Bundan borib onangni
Sog‘inarsan, yor-yor.

Ota-onang eshigi
Bag‘dod eshik, yor-yor.
Kirganingdan sochingdan
Silar eshik, yor-yor.

Qaynonangni eshigi
Huvaydo eshik, yor-yor.
Kirganingda sochingdan
Yular eshik, yor-yor.

Dursin-dursin yerlarda
Dursin qoldi, yor-yor.
Oy yorug‘da o‘ynashgan
Do‘sting qoldi, yor-yor.

To‘rt quloqli qozonda
Ulushing qoldi, yor-yor.

Olqishlangiz, jamoat,
Oldi-ketdi, yor-yor.
Ota-onasin yig'latib,
Singlim ketdi, yor-yor.

* * *

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Bordir masal, yor-yor.
O'g'il bola boqqanlar
Qandu-asal, yor-yor.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Kelin jonon, yor-yor.
Shu kelinni olganda
Yo'qdir armon, yor-yor.

Tog'dan tushgan archani
Sakkiz denglar, yor-yor.
Sakkiz qizning sardori
Keldi denglar, yor-yor.

Sakkiz qizning sardori,
Biz bo'lamiz, yor-yor.
Sakkiz bog'da ochilgan,
Gul-lolamiz, yor-yor.

Kelin kelgan eshikni
O'rda denglar, yor-yor.
Ot bog'lagan qoziqni
Tillo denglar, yor-yor.

Uzun-uzun arg'amchi
Halunchakka, yor-yor.
Atlas ko'ylak yarashar,
Kelinchakka, yor-yor.

Tovor ko'ylak engiga
Tut qoqaylik, yor-yor.
Kuyov pochcham bag'riga,
O't yoqaylik, yor-yor.

Qayrag‘ochga ip solib,
Uchgan singlim, yor-yor.
Mahallaga xol bo‘lib
Tushgan singlim, yor-yor.

Quda xolam tomini
Toldan yopgan, yor-yor.
Tol xivichdek qamishni
Qaydan topgan, yor-yor.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan,
Qish po‘stini, yor-yor.
Kishi tashlab ketarmi
Jon do‘stini, yor-yor.
Kishi tashlab ketganda
Jon do‘stini, yor-yor.
Uni ursin Andijonning
Mirpo‘stini, yor-yor.

Tog‘da toychoq kishnaydi
Ot bo‘ldim deb, yor-yor.
Uyda kelin yig‘laydi
Yot bo‘ldim deb, yor-yor

Yig‘lama, qiz, yig‘lama,
To‘y seniki, yor-yor.
Ostonasi tillodan
Uy seniki, yor-yor.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan,
Mis panjara, yor-yor.
Har jafoga ko‘nadi
Qiz bechora, yor-yor.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan,
Gul pichanim, yor-yor.
Bir hovlida o‘ynashib
Teng o‘sganim, yor-yor.
Teng o‘sganim jo‘nasa,
Uzatayin, yor-yor.

Ketmon olib yo'llarini
Tuzatayin, yor-yor.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
O'lanchi qiz, yor-yor,
Va'dasida turmagan
Yolg'onchi qiz, yor-yor.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Siyosatli, yor-yor.
Ikki quda bir-biriga
Sharofatli, yor-yor.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Tuzliqda tuz, yor-yor.
Xush kelibsiz qudalar,
Xizmatda biz, yor-yor.

* * *

Husn elining podshosi
Sen emishsan, yor-yor
Sabo bilan subhidam
Gul ochilur, yor-yor.
So'ylaganda og'zidan
Dur sochilur, yor-yor.
Gul ochilur erta-kech
Qizil, ola, yor-yor.
Soqiy, bering piyola
To'la-to'la, yor-yor.
Bizlar mayni ichamiz
Qona-qona, yor-yor.
Shum raqiblar yurishsin
Yona-yona, yor-yor.
Sumbul kabi zulflari
To'lg'anadi, yor-yor.
Tog'da bitgan loladek
Hid beradi, yor-yor.
Qalam- qalam qoshlari
Chizilgandek, yor-yor.

No‘xat-no‘xat xollari
Yozilgandek, yor-yor.
Davlat bilan yetgaysan
Murodingga, yor-yor.
Hech nihoyat bo‘lmagay
Avlodingga, yor-yor.

Yigit: - Kakang keldi deganda, kakang keldi, yor-yor,
Xo‘rozlarning ichida dakang keldi, yor-yor.
Qiziq-qiziq o‘landan ayt, oxun qiz, yor-yor,
Tarap bo‘lib aytmoqqa akang keldi, yor-yor.
Qiz: – Bulbullarning qo‘ngani gul bo‘ladi, yor-yor.,
Olamdagi bor so‘zni til biladi, yor-yor.
Tarap bo‘lib aytmoqqa kepsiz, aka, yor-yor,
Oxunliging bu yerda kim biladi, yor-yor.
Yigit: – O‘lan aytsam barchani kuldiraman, yor-yor,
Jiyronchani mehmonga mindiraman, yor-yor.
Qiziq-qiziq o‘landan ayt, oxun qiz, yor-yor,
Oxunligim shu yerda bildiraman, yor-yor.
Qiz: – Takyada nashalarni tortibmiding, yor-yor,
Qora norga yukingni ortibmiding, yor-yor.
Tarap bo‘lib aytmoqqa kepsiz, aka, yor-yor,
Birda-ikkida to‘yda aytibmiding, yor-yor.
Yigit: – Bir bismillo deganda, bir bismillo, yor-yor,
Bir bismillo bitilgan etti tilda, yor-yor.
Birda-ikkida to‘yda aytganim yo‘q, yor-yor,
Qo‘l bergan xo‘jayin, Xizr, o‘zing qo‘lla, yor-yor.
Qiz: – Kiygan to‘ning yarashgan bo‘yginangga, yor-yor,
Men bilmadim, ne so‘z bor o‘yginangda, yor-yor.
Birda - ikkida to‘yda aytmasangiz, yor-yor,
Indamasdan borib yot uyginangga, yor-yor.
Yigit: – Anov tog‘ning bag‘rida chinori bor, yor-yor,
Suluv qizning bo‘ynida tumori bor, yor-yor.
Aytayin deb bir xayol qilib edim, yor-yor,
Nosvoydayin o‘lanning xumori bor, yor-yor.
Qiz: – Otibmiding tog‘larning uvlarini, yor-yor,
Bo‘yningga toq eshonning tumorini, yor-yor.
Uyginangda sen yotib aytib-aytib, yor-yor,
Bosmaysanmi o‘lanning xumorini, yor-yor.
Yigit: – Ko‘rolmadim deganda, ko‘rolmadim, yor-yor,
Uch aylanib bedanani urolmadim, yor-yor.

Ikkovingning tovushing to‘yda chiqdi, yor-yor,
To‘ti qushdek talpinib turolmadim, yor-yor.
Qiz: – O‘lan aytib to‘ylarni gul qilasiz, yor-yor,
Bu Xizrni o‘zingizga pir qilasiz, yor-yor.
Ikkovimizning tovushimiz to‘yda chiqsa, yor-yor,
Ikkovimizni, oxunjon, nima qilasiz, yor-yor.
Yigit: – Qo‘yib yoyib boraman o‘tdan-o‘tga, yor-yor,
Jabdiq solsa yarashar to‘riq otga, yor-yor.
Ikkovingdan biringni loyiq ko‘rsa, yor-yor,
O‘tqizdirib qo‘yarman saltanatga, yor-yor.
Qiz: – Mindingiz doim otning qashqasini, yor-yor,
Bir yaratgan qizlarning nusxasini, yor-yor.
Oxun qizga osilmay, Oxun aka, yor-yor,
Olmaysizmi qizlarning boshqasini, yor-yor.
Yigit: - Yuqoridan kelaman yolg‘iz o‘zim, yor-yor,
Qo‘limda ko‘k qarchig‘ay, sariq yuzim, yor-yor.
O‘lan aytib o‘ltirgan, bo‘tako‘zim, yor-yor,
Bari qizdan yaxshisan-yolg‘iz o‘zing, yor-yor.
Qiz: - Bog‘da ochilgan bahorda gul bo‘ladi, yor-yor,
Bu jannatda g‘ulmon bilan hur bo‘ladi, yor-yor.
Oxun qizga osilmay to‘g‘ri ayting, yor-yor,
Qiz bolaning barisi bir bo‘ladi, yor-yor.
Yigit: – Serkalarning boshida shoxi bordir, yor-yor,
Har bozorning o‘zining narxi bordir, yor-yor.
Qiz bolaning barisi birday dema, yor-yor,
Qiz boladan-qiz bolaning farqi bordir, yor-yor.
Qiz: – Saratonda tog‘dagi qorday bo‘lar, yor-yor,
Yarashiqli qatorda norday bo‘lar, yor-yor.
Sinchi bo‘lsang aytib o‘t, Oxun aka, yor-yor,
Yaxshi, yomon farqlari qanday bo‘lar, yor-yor.
Yigit: – Toshkentning bir bozori-o‘ymoq bozor, yor-yor,
Yigitlik jo‘mard elga qo‘y boqtirar, yor-yor.
Qiz bolaning yaxshisi tushib qolsa, yor-yor,
Oting boylab oldingda o‘ynab turar, yor-yor.

O‘roqchining qo‘lida bovliq turar, yor-yor,
Qo‘y ichida irg‘alib sovliq turar, yor-yor.
Qiz bolaning yomoni tushib qolsa, yor-yor,
«Ota, birov keldi,» deb hovliqtirar, yor-yor.

Yilqi ichida minganim jiyron chubar, yor-yor,
Qayqaydagi shumliklar biydan chiqar, yor-yor.
Qiz bolaning yaxshisi tushib qolsa, yor-yor,
Tolchiviqday buralib uydan chiqar, yor-yor.

Yaxshisini izlagan tanib olar, yor-yor,
Ot olganlar yaxshisin topib olar, yor-yor.
Qiz bolaning yomoni tushib qolsa, yor-yor,
Yomon itday betingdan qopib olar, yor-yor.

Avliyoning sarasi – Qoramozor, yor-yor,
Sochingning chigilini taroq yozar, yor-yor.
Yaxshi bilan o'ynasang kunda bozor, yor-yor,
Yomon bilan o'ynasang– ko'ngling ozor, yor-yor.

Yilqini hayday soldim Qurisoyga, yor-yor,
Qalmoqi egar yarashar to'riq toyga, yor-yor.
Qalmoqi egar urguncha yaydoq yaxshi, yor-yor,
Yomon qizni olguncha bo'ydoq yaxshi.

Sir bo'yini yoqalab topdim qayroq, yor-yor,
Olchanglagan sariq otga mindim yaydoq, yor-yor.
Yomon qizga mol berib yalinguncha, yor-yor,
Ikki qo'lim selkillatib yuray bo'ydoq, yor-yor.

* * *

Anov tog' bilan manov tog' egiz ekan, yor-yor,
Jami qizdan oxun qiz to'kis ekan, yor-yor.
Nasib qilib oxun qiz menga tushsa, yor-yor,
Quvolishib o'ynashga ne qiz ekan, yor-yor.
Qiz: – Ot yolini beshtadan o'ribmiding, yor-yor,
Bizning elni oralab yuribmiding, yor-yor.
Oxun qizga osilib bo'ytib qolding, yor-yor,
Oxun qizni bir erda ko'ribmiding,yor-yor.
Yigit: –Taqir yerga o'rmaging qurguchi eding, yor-yor,
«Charchadim», deb bo'yningni burguvchi eding, yor-yor.
Men ko'rganda kichkina bola eding, yor-yor,
Tepa soching to'rt tutamturguchi eding, yor-yor.

Qiz:- Suv bo'yida ko'kargan tolday bo'pman, yor-yor,

Ko'lankasi qiyma olchin jarday bo'pman, yor-yor.
Siz ko'rganda kichkina bola bo'lsam, yor-yor,
Oxun aka shul vaqtda qanday bo'pman, yor-yor.
Yigit: - Ovulingning oqsoqoli - Eshim oriq, yor-yor,
Tong otarda yorug' yulduz, peshin borib, yor-yor.
Men ko'rganda kichkina bola eding, yor-yor,
Qo'sh anoring chiqibdi to'shing yorib, yor-yor.

O' l a n l a r

– O'lanlarning avval boshi - tamal toshi,
To'y oldidan tortganim so'qim oshi.
Hadding bo'lsa, qani, kelib o'lan boshla,
Bu elatning manman degan keksa-yoshi.

– Baland-baland tog'larning qori bo'lar,
O'ngirida burgut, lochin, sori bo'lar.
O'lanchilar manmansirab kerilmaydi,
Er og'asi-mard yigitning ori bo'lar.

– Bulut bo'lsa, kun chiqmay kiradi kech,
Daryo, soyni ko'rib: keyin etikni ech.
Yigirmaga kirgan bo'yim darxon dersan,
Ko'sa kishi qariganin bilmaydi hech.

– Surik bilan haydaganim olti sovliq,
Ipagingdan ber menga to'pga bovliq.
Ipagingdan bermasang to'pga bovliq,
Mahallangga solaman gala dovruq.

– Quvon, qarg'a, deganda, quvon, qarg'a,
Quvalasam ketadi uzoqlarga.
Hargiz oshna bo'lmanglar juvonlarga,
Sizni tashlab ketadi tumanlarga.

– Daryo to'lib oqadi Ahsi bilan,
O'ynab – kulaveringlar yaxshi bilan.
O'ynaganda – kulganda yaxshi bilan,
Belbog' tikib beradi naqshi bilan.

– Qo‘shiq aytsang mendek aytgin, shunday qilib,
Tegirmonda soz tortilgan unday qilib.
Barakalla qizni boqqan onasiga,
Yonbag‘irda ochilgan gulday qilib.
– Shom bo‘lsa, men yiroqni ko‘zlayin,
Bo‘tasi o‘lgan tuyaday bo‘zlayin.
Bo‘tasi o‘lgan tuyalar bo‘z bo‘lur,
Dil bilan suygan yoringiz soz bo‘lur.
– O‘lan aytsam, o‘lanchi deydi meni,
Yo‘lda yotsam och bo‘ri yeydi meni.
Och bo‘rining og‘ziga qildan arqon,
Yigirmaga kirguncha yurdim darxon.
– Oy oldida bir yulduz bor, oydan qoldi,
Ko‘k muguzli ko‘k serkam qo‘ydan qoldi.
Qishlog‘ingiz qizlari yomon ekan,
Tor kovushni talashib to‘ydan qoldi.
– Anoyidir deganda, anoyidir,
Kovush-mahsi qizlarga binoyidir.
Talashmasdan na qilsin bizning qizlar,
Tanovori bedona, qaloyidir.
– O‘lan-o‘lan deganda, o‘lan ko‘pdir,
O‘lan aytgan tilingdan menga o‘pdir.
O‘lan aytgan tilingdan o‘ptirmasang,
Sen o‘ngga-yu men chapga, yo‘llar ko‘pdir.
– Uyal-uyal deganda, uyalsa-chi,
Aytolmagan og‘izni tiyolsa-chi.
O‘lan aytgan vaqtida kim aynisa,
Yuzlariga qozonkuya surkalsa-chi.
– Oq olma, qizil olma pishmaydigan,
Ikki yaxshi bir yerga tushmaydi-kan.
Ikki yaxshi bir yerga tushib qolsa,
Bu dunyodan o‘tganin bilmaydi-kan.
–Sho‘r bulog‘i deganda, sho‘r bulog‘i,
Erta bilan tarqalar ko‘l bulog‘i.
Shoyi bilan shalparni kiyib olib,
Kuydiradi qizlarning serdumog‘i.
– Namangandan chopgan ot surinmaydi,
Gervas qizlar etagi ko‘rinmaydi.
Shohi bilan sholparni kiyib olsa,
Qarigani o‘ziga bilinmaydi.

– Buvishingdan deganda, buvishingdan,
Oyog'ingda qalayi kovushingdan.
Qushga taqqan qo'ng'iroq ovoziday,
Apaginang o'rgilsin tovushingdan.
– O'yna turib deganda, o'yna turib,
O'rtanaman-kuyaman seni ko'rib.
O'rtanganda-kuyganda seni ko'rib,
Ermaklaysan, kulasan labing burib.
– Qiyo-qiyo tog'larning qirg'isi bor,
Mulla Xolvoy uyida bir qizi bor.
O'tgan-ketgan yigitning ko'zi shunda,
Manglayida saraton yulduzi bor.
– Oting Qurbon deganda, oting Qurbon,
Qurbon, desam, yuragim larzon urgan.
Barakallo, Qurbonjon, himmatingga,
Va'da bergan joyiga borib turgan.
– Bedanaman deganda, bedanam,
Dala-qirda yo'rg'alib kun ko'raman.
Barmog'imning uchida bir dardim bor,
Qizlar tabib bo'lmasa men o'laman.
– Bug'doypoya deganda, bug'doypoya,
Seni mendan ajratdi Ulug' qoya.
Agar Ulug' qoyalar qulab tushsa,
Boshginangga solaman shunda soya.
– Olma-o'rik deganda, olma-o'rik,
Mahallaning ichida qilding ko'rik.
Mahallaning ichida qilsang ko'rik,
Sendan bo'lgan bolaga men ham sherik.
– Uning o'chsin deganda, uning o'chsin,
Qora qaychi tillingning uchin kesin.
Yana qaytib uyatli o'lan aytsang,
It yaloqda osh ichib kuning o'tsin.

* * *

– Erta sahar boraman qo'yxonamga,
Kevanagim yarashar bo'yginamga.
Tol tayog'im tayanib, turib qolsam,
Suluv qizlar keladi uyginamga.
– Ipak ro'mol boshimda tovlanadi,
Chaqirmagan to'yingga kim boradi.
Bormayman deb, bir xayol qilib edim,

Sevganimning tovushi jon oladi.
— O‘rik-o‘rik ko‘zingdan, o‘rik-o‘rik,
O‘rtanaman-kuyaman seni ko‘rib.
O‘rtanguncha-kuyguncha seni ko‘rib,
Yonboshimda o‘tirgin soching o‘rib.
— Bordim Chustga, ko‘zingdan, bordim Chustga,
Kichiklikdan oshiqman qiyg‘ir qushga.
Qo‘lingdagi qo‘sh uzuk-birin bergin,
Qo‘lginamga solayin namoyishga.
— Daryo betni deganda, daryo betni,
Daryo betning bulbuli sayrab o‘tdi.
Tinch saharda sayragan go‘yo bulbul,
Qizil gulning ishqiga to‘ymay o‘tdi.
— Daryo betda nima qattiq, jiyda qattiq,
Jonivorning mevasi boldan totliq.
Ota bilan onaning mehri qattiq,
Yaxshi ko‘rgan bolasin pulga sotdi.

* * *

— Daryoning o‘rtasida sol ham qayiq,
Ovulingda qiz bormi bizga loyiq,
Ovulingda qiz bo‘lsa bizga loyiq,
Tanishgani o‘lan aytib biz borayik.
— O‘lanni boshlab yubor, Abdujabbor,
O‘lan desang, bizlarda bir qopi bor.
Sen aytishib eng qizlarni, biz ko‘raylik,
O‘lan desang, aytib beray, uying obbor.
— O‘lan yolg‘on deganda, o‘lan yolg‘on,
Yolg‘on emas, kampir bilan choldan qolgan.
Buvaybobning boshida kema qolgan,
To‘y-to‘ylab o‘lan aytmoq shundan qolgan.
— Olti yigit ichida obing Tursin,
Ko‘zachaga suv qo‘ydim, tinib tursin.
Chindan suyib o‘ynasang, men borayin,
Yolg‘on bilan chaqirsang, beting qursin.
— Olti qizning ichida oting Anor,
Anordayin betlaringdan qonlar tomar.
Nurlar tomgan betingdan bir o‘ptirsang,
Ona sutin emgandayin mehrim qonar.
— Usmonqul ko‘ch-ko‘ch desa, ko‘ch boshlaydi,

Ortidan Nurmon aka yuk tashlaydi.
Otini Abduqodir olib kelib,
Boshiga latta - ro'mol yolpushlaydi.
— Qo'limdagi besh barmoq - birovi toq,
Oxunlikdir elning ko'nglini xushlamoq.
Avvallarda to'yda o'lan aytganim yo'q,
Endi aytib kelaman - ne deydi xalq.
— Horibsan, horma desam, bor bo'lgaysan,
Bir qator olma ichra nor bo'lgaysan.
Har yerda bizni maqtab aytsang o'lan,
Dong chiqargan o'lanchiga yor bo'lgaysan.
— Qoratog'ning boshida qori bordir,
Nurotada yaxshilarning bog'i bordir.
Meni qanday engasan, hay Oxunim,
Tanglayimda o'lanning dog'i bordir.
— Tog'da bo'lar tulkining tuyoqsizi,
Arzon bo'lar chakmonning jiyaksizi.
Meni qanday engasan, hay Oxunim,
Men ham senday birovning iyaksizi.
— Anov qorning bag'rida tarlon bo'ri,
Bosib emas bo'larmi orlon bo'ri.
Tunov kuni bir so'zing eshitib edim,
O'pkam qora qozonday shundan beri.
— Ol bedana deganda chol yugurar,
O'tli yerni ko'rganda mol yugurar.
Har yerda bizni maqtab aytsang o'lan,
Oq qubbaday yuzingga qon yugurar.
— Qarshimda o'ltirgan qay kishi ekan,
So'zlari so'zimga shay kishi ekan.
O'lanni qaydan bilar deb o'ylasam,
O'lanni suvga chayib ichgan ekan.
— Yuqoridan men kelaman eshak haydab,
Eshagimning yoniga tesha boylab.
Boyning qizin olaman alchanglatib,
Keli tuyar qilarman taltanglatib.
— Anov tog'ning boshidan oldim qayroq,
To'qim solmay, to'riq otga mindim yaydoq.
Boy qiziga mol berib yalinguncha,
To'ppingni chakkangga qo'y, yurgin bo'ydoq.
— Otang menga berarmi, tuya bersam,
Topganimni oldingda uya bersam.

Otangni bermasiga qo'yamanmi,
O'ng betingni qayirib suya bersam.
– Otamning oq uyi bor, ming qo'yi bor,
Otam senga bermaydi, ne zo'ring bor.
Kim senga va'da berdi tegaman deb,
Otam seni qilmaydi yilqi bekor.
– Osh pishirdim yontoqning termasiga,
Oshiq bo'ldim qoshingning kermasiga.
Uyir-uyir yilqini uyib bersam,
Qo'yamanmi otangni bermasiga.
– Otang sening ot tugul toy topmagan,
Sen tuqqanda bulomiqqa moy topmagan.
Ko'ldan o'rdak uchadi bo'ynin egib,
Berasanmi ovulingning itin yig'ib.
Minganimni so'rasang to'riq otdir,
Jonivorning quyrug'i o'raladir.
Ovulimning itlarin nega beray,
Jonivorning har biri bo'ri oladir.
– Baland-baland tepada qush o'ltirar,
Yo'qligim boshingga kulfat keltirar.
Yo'q bo'lib yor oldida xor bo'lguncha,
Tog'da arslon bo'layin to o'lguncha.

Laparlar

– Qoshingni qora deydilar,
Qora qosh ukam, yor-yor.
Ko'rsat qoshingni, men bir ko'ray,
Jonim ukam, yor-yor.

– Qoshimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor?
Qaldirg'ochning qanotini
Ko'rmabmidingiz, yor-yor?

– Ko'zingni shahlo deydilar,
Shahlo ko'z ukam, yor-yor.
Ko'rsat ko'zingni, men bir ko'ray,
Jonim ukam, yor-yor.

Ko‘zimni ko‘rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor?
Tog‘da ohu ko‘zlarini,
Ko‘rmabmidingiz, yor-yor?

Yuzingni qizil deydilar,
Qizil yuz ukam, yor-yor.
Ko‘rsat yuzingni, men bir ko‘ray,
Jonim ukam, yor-yor.

Yuzimni ko‘rib, nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor?
Bog‘lardagi qizil gulni
Ko‘rmabmidingiz, yor-yor?

Ro‘molim

Ro‘molim bor, ro‘molim bor,
Ro‘molimda tumorim bor,
Bir ko‘rishga xumorim bor,
Dod, alimdan ketdi ro‘mol.
Ro‘molimning uchi shoyi,
O‘rtasida bordir oyi,
Olib bering, jonim doyi,
Dod, alimdan ketdi ro‘mol.
Ro‘molim tushdi yopa,
Yor eshitsa bo‘lar xafa,
Yora aytmang, jonim opa,
Dod, alimdan ketdi ro‘mol.
Ko‘p chroyli edi ro‘mol,
Alimdan uchirdi shamol,
Otam-onam ham kambag‘al,
Dod, alimdan ketdi ro‘mol.
Ro‘molimda edi-yo xayolim,
Zabun bo‘ldi holu ahvolim,
Har dam tushirar yodima yorim,
Dod, alimdan ketdi ro‘mol.

Qoshing qorami?

Yigit: – Bir ko'rib jamolingni
Qalbim bo'ldi ming pora.
Nedan duchor bo'libman
Senday jilvali yora?!
Qiz: – Sochim uchi jamalak,
Uchi mening qo'limda.
Oshiq yonmas bo'larmi,
Ul yorining yo'lida?!
Yigit: – Qoshing qorami, yorim,
Ko'zing olami, yorim.
Ko'nglingdagi sevganing
Bizday bolami, yorim?!
Qiz: – Qoshim qoradir, yorim,
Ko'zim oladir, yorim.
Yosh ko'nglima o't solgan
Sizday boladir, yorim?!

Bilakuzuk

– Soy bo'yida turgan yigit
Qoshu ko'zin suzgan yigit.
Bilakuzuk olgan yigit,
Endi bering bilakuzugimni.
– Soy bo'yida turganim yo'q,
Qoshu ko'zim suzganim yo'q.
Bilakuzugingni olganim yo'q,
Olganlar bersin bilakuzugingni.
– Maydon aro yurgan yigit,
Saman, yo'rg'a mingan yigit.
Bilakuzuk olgan yigit,
Endi bering bilakuzugimni.
– Maydon aro yurganim yo'q,
Saman, yo'rg'a minganim yo'q.
Bilakuzugingni olganim yo'q,
Olganlar bersin bilakuzugingni.
– Havo havoga duch kelur,
Qizlar yigitga xush kelur.
Sevinchisi o'pish bo'lur,
Endi bering bilakuzugimni.

– Havo havoga duch kelmas,
Qizlar yigitga xush kelmas.
Sevinchisi o'pish bo'lmas,
Olganlar bersin bilakuzugingni.
– Oq otingga yol bo'layin,
O'ng betingga xol bo'layin.
Yoring yo'qtur, yor bo'layin,
Endi bergin bilakuzugimni.
– Oq otimga yol kerakmas,
O'ng betimga xol kerakmas.
Yorim bordir, yor kerakmas,
Olganlar bersin bilakuzugingni.
-Nariroq turgin, men borayin,
Ko'rpani qalin men solayin.
Bir kecha ko'ngling men olayin,
Endi bergin bilakuzugimni.
–Nariroq tursam, borar bo'lsang,
Ko'rpani qalin solar bo'lsang.
Bir kecha ko'nglim olar bo'lsang,
Cho'nchakginamda bilakuzuging.

Boshginam og'riydi

– Onajon, onajon,
Boshginam og'riydi.
– Boshginangdan onang aylansin,
Nimalarga og'riydi?
Bozorlarda bo'lar ekan,
– Bozorlarda bo'lar ekan,
Zargarlarda turar ekan,
Uning oti tillaqosh,
O'shanga og'riydi.
– Onajon, onajon,
Bo'yinginam og'riydi.
– Bo'yinginangdan onang aylansin,
Nimalarga og'riydi?
– Bozorlarda bo'lar ekan,
Zargarlarda turar ekan,
Uning oti bo'yintumor,
O'shangga og'riydi.
– Onajon, onajon,

Ko‘zginam og‘riydi.
– Ko‘zginangdan onang aylansin,
Nimalarga og‘riydi?
– Bozorlarda bo‘lar ekan,
Attorlarda turar ekan,
Uning oti surmacha,
O‘shangga og‘riydi.
– Onajon, onajon,
Quloqqinam og‘riydi.
– Quloqqinangdan onang aylansin,
Nimalarga og‘riydi?
– Bozorlarda bo‘lar ekan,
Zargarlarda turar ekan,
Uning oti oltin sirg‘a,
O‘shanga og‘riydi.

Bozor boraymi, qizim?

Bozor boraymi, qizim,
Sholpar olaymi, qizim?
– Yo‘q, yo‘q, jon dadajon,
Aslo ochilmaydi ko‘zim.

– Bozor boraymi, qizim,
Atlas olaymi, qizim?
– Yo‘q, yo‘q, jon dadajon,
Aslo ochilmaydi ko‘zim.

Bozor boraymi, qizim,
Senga er olaymi qizim?
– Yo‘q, yo‘q, jon dadajon,
Aslo ochilmaydi ko‘zim.

– Bozor boraymi, qizim,
Maktabga beraymi, qizim.
– Ha, ha, jon dadajon,
Shunda ochiladi ko‘zim.

Gul o‘yin

– Sen soy chumug‘i bo‘lsang, yora,
Soylarga qarab uchsang.
Men tog‘ kaptari bo‘lib,
Orqangdan quvib yursam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

– Sen tog‘ kaptari bo‘lsang, yora,
Orqamdan quvib yursang.
Men yurgan lochin bo‘lib,
Changalga olib qochsam.
Yor, anda na qilg‘aysan?

Sen yurgan lochin bo‘lsang, yora,
Changalga olib qochsang.
Men yurgan ovchi bo‘lib,
Miltiqlab otib qolsam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

– Sen yurgan ovchi bo‘lsang, yora,
Miltiqlab otib olsang.
Men bog‘da anor bo‘lib,
Qizarib-pishib tursam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

– Sen bog‘da anor bo‘lsang, yora,
Qizarib-pishib tursang.
Men yurgan bog‘bon bo‘lib,
Bittalab uzib olsam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

Sen yurgan bog‘bon bo‘lsang, yora,
Bittalab uzib olsang.
Men bog‘da uzum bo‘lib,
Sarg‘ayib-pishib tursam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

– Sen bog‘da uzum bo‘lsang, yora,
Sarg‘ayib-pishib tursang.
Men yurgan ari bo‘lib,

Ko‘zginam og‘riydi.
– Ko‘zginangdan onang aylansin,
Nimalarga og‘riydi?
– Bozorlarda bo‘lar ekan,
Attorlarda turar ekan,
Uning oti surmacha,
O‘shangga og‘riydi.
– Onajon, onajon,
Quloqqinam og‘riydi.
– Quloqqinangdan onang aylansin,
Nimalarga og‘riydi?
– Bozorlarda bo‘lar ekan,
Zargarlarda turar ekan,
Uning oti oltin sirg‘a,
O‘shanga og‘riydi.

Bozor boraymi, qizim?

Bozor boraymi, qizim,
Sholpar olaymi, qizim?
– Yo‘q, yo‘q, jon dadajon,
Aslo ochilmaydi ko‘zim.

– Bozor boraymi, qizim,
Atlas olaymi, qizim?
– Yo‘q, yo‘q, jon dadajon,
Aslo ochilmaydi ko‘zim.

Bozor boraymi, qizim,
Senga er olaymi qizim?
– Yo‘q, yo‘q, jon dadajon,
Aslo ochilmaydi ko‘zim.

– Bozor boraymi, qizim,
Maktabga beraymi, qizim.
– Ha, ha, jon dadajon,
Shunda ochiladi ko‘zim.

Gul o'yin

– Sen soy chumug'i bo'lsang, yora,
Soylarga qarab uchsang.
Men tog' kaptari bo'lib,
Orqangdan quvib yursam,
Yor, anda na qilg'aysan?

– Sen tog' kaptari bo'lsang, yora,
Orqamdan quvib yursang.
Men yurgan lochin bo'lib,
Changalga olib qochsam.
Yor, anda na qilg'aysan?

Sen yurgan lochin bo'lsang, yora,
Changalga olib qochsang.
Men yurgan ovchi bo'lib,
Miltiqlab otib qolsam,
Yor, anda na qilg'aysan?

– Sen yurgan ovchi bo'lsang, yora,
Miltiqlab otib olsang.
Men bog'da anor bo'lib,
Qizarib-pishib tursam,
Yor, anda na qilg'aysan?

– Sen bog'da anor bo'lsang, yora,
Qizarib-pishib tursang.
Men yurgan bog'bon bo'lib,
Bittalab uzib olsam,
Yor, anda na qilg'aysan?

Sen yurgan bog'bon bo'lsang, yora,
Bittalab uzib olsang.
Men bog'da uzum bo'lib,
Sarg'ayib-pishib tursam,
Yor, anda na qilg'aysan?

– Sen bog'da uzum bo'lsang, yora,
Sarg'ayib-pishib tursang.
Men yurgan ari bo'lib,

Shakar labingdan so‘rsam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

– Sen yurgan ari bo‘lsang, yora,
Shakar labimdan so‘rsang.
Men bog‘da gulnor bo‘lib,
Ochilib kulib tursam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

– Sen bog‘da gulnor bo‘lsang, yora,
Ochilib-kulib tursang.
Men bulbuligo‘yo bo‘lib,
Sayrab shoxingga qo‘nsam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

Dig‘ajon

Aka, otingiz uch yashar,
Daryolar to‘lib-toshar.
Yorim kelmay qolganda,
Ko‘zlarimdan qon oqar.
Dig‘a-dig‘a, dig‘ajon,
Yoring bo‘lay og‘ajon.

Osmonda oy botmasin,
Qilichda qon qotmasin.
Yorim kelgan kechasi.
So‘fi azon aytmasin.
Dig‘a-dig‘a, dig‘ajon,
Yoring bo‘laman qachon?

Osmonda oy o‘ynaydi,
Ko‘zim yorga to‘ymaydi.
Yaxshi ko‘rgan yorimga,
Dushman qovushtirmaydi.
Dig‘a-dig‘a, dig‘ajon,
Yoring bo‘lay, og‘ajon!

Qanday onam bor edi:
Doka ro‘molini dol qo‘ygan.
O‘ng betiga xol qo‘ygan,

Toldan xivchin keltirgan.
Suluvday qiz o‘stirgan.

Qanday onam bor edi:
Tol yog‘ochday soyalim,
Tut yog‘ochday mevalim.
Soyasida yotganim.
Mevasidan totganim.

Qanday onam bor edi:
Jonim onam, qanotim.
Belimdagi quvvatim,
Ayozda qaymoq yalatgan.
Yayrab oldida o‘ynatgan.

Qanday onam bor edi:
Alachani qoqishgan.
Bolalarimni boqishgan,
Uzilganimni ulagan,
Yirtilganimni yamagan.

Qanday onam bor edi:
Saranjomimu sarishtam,
Uyimdagi farishtam.
Sarishta ketdi uyimdan,
Farishta ketdi uyimdan.

«To‘y muborak» qo‘shiqlari

To‘y muborak bo‘lsin-o,
To‘ylar muborak bo‘lsin-o,
To‘yga kelgan qizlar-o,
Sarpo muborak bo‘lsin-o.
To‘yga kelgan qizlar-o,
To‘yib o‘tirgan qizlar-o,
Yaxshi bilan yomonni
Ko‘rib o‘tirgan qizlar-o,
Yaxshining diydoriga
To‘yib o‘tirgan qizlar-o,
Yomonning firog‘iga
Kuyib o‘tirgan qizlar-o.

Shakar labingdan so‘rsam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

– Sen yurgan ari bo‘lsang, yora,
Shakar labimdan so‘rsang.
Men bog‘da gulnor bo‘lib,
Ochilib kulib tursam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

– Sen bog‘da gulnor bo‘lsang, yora,
Ochilib-kulib tursang.
Men bulbuligo‘yo bo‘lib,
Sayrab shoxingga qo‘nsam,
Yor, anda na qilg‘aysan?

Dig‘ajon

Aka, otingiz uch yashar,
Daryolar to‘lib-toshar.
Yorim kelmay qolganda,
Ko‘zlarimdan qon oqar.
Dig‘a-dig‘a, dig‘ajon,
Yoring bo‘lay og‘ajon.

Osmonda oy botmasin,
Qilichda qon qotmasin.
Yorim kelgan kechasi.
So‘fi azon aytmasin.
Dig‘a-dig‘a, dig‘ajon,
Yoring bo‘laman qachon?

Osmonda oy o‘ynaydi,
Ko‘zim yorga to‘ymaydi.
Yaxshi ko‘rgan yorimga,
Dushman qovushtirmaydi.
Dig‘a-dig‘a, dig‘ajon,
Yoring bo‘lay, og‘ajon!

Qanday onam bor edi:
Doka ro‘molini dol qo‘ygan.
O‘ng betiga xol qo‘ygan,

Toldan xivchin keltirgan.
Suluvday qiz o'stirgan.

Qanday onam bor edi:
Tol yog'ochday soyalim,
Tut yog'ochday mevalim.
Soyasida yotganim.
Mevasidan totganim.

Qanday onam bor edi:
Jonim onam, qanotim.
Belimdagi quvvatim,
Ayozda qaymoq yalatgan.
Yayrab oldida o'ynatgan.

Qanday onam bor edi:
Alachani qoqishgan.
Bolalarimni boqishgan,
Uzilganimni ulagan,
Yirtilganimni yamagan.

Qanday onam bor edi:
Saranjomimu sarishtam,
Uyimdagi farishtam.
Sarishta ketdi uyimdan,
Farishta ketdi uyimdan.

«To'y muborak» qo'shiqlari

To'y muborak bo'lsin-o,
To'ylar muborak bo'lsin-o,
To'yga kelgan qizlar-o,
Sarpo muborak bo'lsin-o.
To'yga kelgan qizlar-o,
To'yib o'tirgan qizlar-o,
Yaxshi bilan yomonni
Ko'rib o'tirgan qizlar-o,
Yaxshining diydoriga
To'yib o'tirgan qizlar-o,
Yomonning firog'iga
Kuyib o'tirgan qizlar-o.

Hozir turg'on ulli-kichik yoronlar,
Qo'l ko'taring, to'ylar muborak bo'lsin!
Yoshu qari ham norasta bolalar,
Omin denglar, to'ylar muborak bo'lsin!

Har kim murodini istar Xudodin,
Olloh bergay barcha qulning murodin,
To'y aylamoq qoldi Odam Atodin,
Alar haqqi, to'ylar muborak bo'lsin!

Ul Yusuf-Zulayho erdilar oshiq,
Bo'ldi ikkalasi vaslga loyiq,
Omin denglar turgan barcha xaloyiq,
Alar haqqi, to'ylar muborak bo'lsin!

Xudoyim rahmati to'yda namoyon,
Hukmida bor edi bu jumla jahon,
Bul qizni to'y etib oldi Sulaymon,
Shular haqqi, to'ylar muborak bo'lsin!

Xudodan o'zgani solmanglar yoda,
Murodingni Olloh etsin ziyoda,
Ne murod istarsan, tilla Ollohdan,
Omin denglar, to'ylar muborak bo'lsin!

To'yning ta'rifini aytsam sizlarga,
Quloq soling to'yda aytgan so'zlarga,
Kalom uchun hurmat qiling bizlarga,
Hammangizga to'ylar muborak bo'lsin!

Bugun bilib keldik to'y bo'lganin,
Amma-xola, qarindoshlar kelganin,
Yoshu qari bu xizmatda elganin,
Boshlayvering, o'nglar bo'lsin to'yingiz!
Uylarina gul uymalar uydirib,
To'rlarina garniturlar qo'ydirib,
Qo'sha-qo'sha qaramollar so'ydirib,
Boshlayvering, o'nglar bo'lsin to'yingiz!

Qolmasdan armoni asli bir ishdan,
Silobchasi oltin, quloni kumushdan,

Palov damlang o'ttiz botmon gurunchdan,
Boring boshlang, o'nglar bo'lsin to'yingiz!

To'y aytimlari

1. **Kelinning sochini mayda o'rganda aytiladi:**
   Oyda quloch,
   Kunda tutov,
   Senga kuyov,
   Bizga palov.
2. **Kelinning raxti urilganda aytiladi:**
   Raxt urdigu raxt urdik,
   Raxtiga gullar urdik.
   Avozayu darvoza,
   Xudo muborak qilsin,
   Gulcherjonning to'yini.
3. **Chimildiqda kelin-kuyov uchun joy solinganda aytiladi:**
   1-kampir:
   Tush ko'ribman, tush ko'ribman,
   Bir ajoyib tush ko'ribman.
   Kelinimning qo'lida
   Hasan-Husan toy ko'ribman.
   2-kampir:
   Tush ko'ribman, tush ko'ribman,
   Bir ajoyib tush ko'ribman.
   Kuyovimning qo'lida
   Fotima-Zuhro oy ko'ribman.
4. **Qizni chimildiqqa olib kirganda yangalar tomonidan aytiladi:**
   Uyga kirsam, to'rda bir oy o'ltirar,
   Yonida beqasam to'nli bir boy o'ltirar.
   Beqasam to'n Samarqand sayqalidir,
   Sizga taqdim etdik ochilmagan gul g'unchasin.

Jarlar

Huy bale

Kelin keldi loladay,
Har ko'zi piyoladay,
Na salomu na alik,

Qo‘shga qo‘shgan jugonaday.
Huy bale!

Ko‘zi qozonning boshida,
O‘zi egarning qoshida.
Zarracha yo‘q bardoshdan,
Chivin tushganday oshiga.
Huy bale!

Kelinni ko‘ring. Kelinni,
Kelmay turib tilin.
Kelinni ko‘rdik kal ekan,
Kelinni ko‘rdik, shal ekan.
Huy bale!

Kelin kelar loladay,
Har ko‘z shopiyoladay.
Ko‘zga surtgan ilikday,
Qoshu ko‘zi pilikday.
Huy bale!

* * *

Sen qachon gul deb yubording,
Men senga yo‘l bermadim.
Sen qachon shahzoda bo‘lding,
Men senga qul bo‘lmadim.
Dutoringni qo‘lga olib
Qomatingday turmadim.
Huy-huy-huy, huy bale!
Huy-bala-bale, huy bale!

Dutoringni asta chalgin,
Oq bilaging tolmasin.
Oq bilaging tolsa-tolsin,
Va’da yolg‘on bo‘lmasin.
Va’dadan qaytsa kuyov
Aslo musulmon bo‘lmasin.
Huy-huy-huy, huy bale!
Huy-bala-bale. huy bale!

Eshiging oldidan o'tdim,
Gul ochildi xayolimda.
Birovning so'ziga kirib,
Yana o't solma jonimga.
Birovga pistazor kordir,
Birovga rustazor bordir.
Asal-parvarda deb so'rdim,
Labingdan o'z xayolimcha,
Huy-huy-huy, huy bale!
Huy-bala-bale, huy bale!
Labimni labga qo'yganda,
Qo'lim bo'yningga o'ralgay.
Hazoron[1] o'ldirar bo'lsang,
Soching birla bo'g'ib o'ldir.
Qilich birla chopar bo'lsang,
Qo'ling qonimga bo'yalgay.
Huy-huy-huy, huy bale!
Huy-bala-bale, huy bale!

Dilimga har zamon sayli
Tamosha qilgani kelding.
Yurak dardini gulg'unchaday
Boqiy qilgani kelding.
Kel endi, quy qadahni,
Soqiy sen bilgani kelding.
Huy-huy-huy, huy bale!
Huy-bala-bale, huy bale!

Kel endi rahbari ruhim,
Emassan endi begona.
Eshigingdir mudom rohim,
Qilig'ing qildi devona,
Nasib etdi bugun taqdir,
Sening suhbating, jonona.
Huy-huy-huy, huy bale!
Huy-bala-bale, huy bale!

Qoramug'day somonisi,
Qora bug'doy somoni bo'l.

[1] Hazoron—ming marta.

Yomonning yaxshisi bo'lmay,
Yaxshilarning yomoni bo'l.
Hamisha bog' aro yayrab,
Omonlarning omoni bo'l.
Huy-huy-huy, huy bale!
Huy-bala-bale, huy bale!

Antalhodiy

Hovlingizda yakka tol-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Yakka tolga payvand sol-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Uying kuysin poyaki-yo,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Shu bachchaga chilim sol-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.

Qoshing Qashqar qamishi-yo,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Tishing zargar kumushi-yo,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Qaysi soydan kelodur-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Shu bachchaning tovushi-yo,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Man bog'imga bormayman-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Bog'bon bo'lsa yurmayman-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Endi kirdim aqlimga-yo,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Nodon bilan yurmayman-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Qizil gulning ravshani-yo,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Aytib keling o'shani-yo,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Bir yostiqqa yotganni-yo,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Bilmaydir andishani-yo,

Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Qizil gul taram-taram-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Davlatim – yoru jo'ram-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Davlat desam topilur-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.
Topilmas yoru jo'ram-o,
Antalhodiy Mavlon do'st oblo rabbano.

Aylanay kelinning qaddi bo'yinnan

Qadam bosib galdi bizning ellar-a,
Aylanay kelinning qaddi bo'yinnan,
Bulbul uchib qo'nar toza gullar-a,
Aylanay kuyovning qaddi bo'yinnan.

Kuyov yigit turma[1] boylar belina,
Xafalik kelmasin bolam ko'yningga,[2]
Kelinoyim xina yoqar qo'lina,
Aylanay kuyovning qaddi bo'yinnan.

Kelinoyning qo'sha kumush haykali,
Gapirib so'zlaydi, bir shirin tilli,
Kelinoyni ko'rsangiz bir nozik belli,
Aylanay kelinning qaddi bo'yinnan.

Sizniki

Kuyov xo'ja, qurbon bo'lay otingga,
Asrab boqqan erka qizim sizniki.
Mening qizim loyiq sening ko'nglingga,
Asrab boqqan erka qizim sizniki,
Uyim, elim, arja bo'g'cham sizniki.

Dushmanning so'ziga siz quloq tutmang,
Mening bergan nasihatim unutmang,
Injitmang, koyimang, qattiq so'z aytmang,

[1] Turma-belbog'
[2] Ko'yningga–ko'nglingga.

Asrab boqqan erka qizim sizniki,
Uyim, elim, arja bo'g'cham sizniki.

Yaxshi-yaxshi so'ylashinglar ikkingiz,
Qizil gulday iskashinglar ikkingiz,
Oq ipakday chirmashinglar ikkingiz,
Shivirlashib so'zlashinglar ikkingiz,
Asrab boqqan erka qizim sizniki.

Kelin bika, qurbon bo'lay bo'yingga,
Asrab boqqan erka o'g'lim sizniki.
Ko'hna davlat keldi sening uyingga,
Asrab boqqan erka o'g'lim sizniki,
Uyim, elim, molu mulkim sizniki.

Kelin bika, bo'lsin sizga muborak,
Muborak aylagay bu jo'shqin yurak.
Sizning sog'ligingiz bizlarga kerak,
Asrab boqqan erka qizim sizniki.
Uyim, elim, molu mulkim sizniki.

Haqqa yetgay to'y egasining nolasi,
Qabul bo'lg'ay tongda yetgan duosi.
Murod eting amma bilan xolasi.
Asrab boqqan erka qizim sizniki.
Uyim, elim, molu mulkim sizniki.

Kelin bika bo'lsin sizga muborak,
Muborak aylagay bu jo'shqin yurak,
Sizning sog'ligingiz bizlarga kerak,
Asrab boqqan erka qizim sizniki.
Uyim, elim, molu mulkim sizniki.

Kuyov xo'ja, tamom etdim so'zimni,
Oldingizda qizil etgin yuzimni,
Sizga berdim asrab boqqan qizimni,
Uyim, elim, molu mulkim sizniki.

Kelin o'tirsin

Oftobi anvarim, xush keldingiz,
Ikki diydam, sarvarim, xush keldingiz,
Siz uchun oyu kun mushtoqdir,
Jon bolamni qallig'i, xush keldingiz,
Oyim kelin o'tirsin.

Yana kelin o'tirmasa-uylarni berdim,
Poygakni qo'yib-to'rlarni berdim.
Boru yo'q davlatimni berdim,
Jamiyki savlatimni berdim.
Oyim kelin o'tirsin.

Kelin oyim yashasinlar,
Taglariga baxmal to'shasinlar.
Kelin oyim bilan o'g'limdan bo'lgan bolalar
Ota-onalariga o'xshasinlar.
Oyim kelin o'tirsin.

Kuyov o'tirsin

Ikki tog'ning orasidan
Oy chiqadi lovullab.
Kuyov to'ra kirib kelar,
Sepichlari yaltillab.

Kuyov to'ra o'tirmasa,
Uylarni berdim.
Qoziqda kishnagan
Duldulni berdim.
O'tirsinlar, kuyov to'ra.

Qafasda sayragan
Bulbulni berdim,
Hovlida ochilgan
Oq gulni berdim,
O'tirsinlar, kuyov to'ra.

Kuyov-kuyov deydilar,

Mulla kuyov deydilar,
Qaynotasi bilan qaynonasi
Eshigidan borganda
Xush kelibsiz, deydilar.
O'tirsinlar, kuyov, o'tirsinlar.

O'tiring kuyov o'tiring,
Shu kelin ham sizniki!
Mol-jonimiz ham sizniki!
O'tiring, kuyov o'tiring,
Xudo sizga oq baxt bersin!
Bir etak o'g'il-qiz bersin!
O'tiring, kuyov, o'tiring.

Xush kelibsiz

Qo'llarda bitgan quroqday,
Yonib turgan chiroqday,
Yoru jo'rasi, kuyov no'kari bilan
Xush kelibdi kuyovlar!

Oshlarga solgan ilikday,
Qoshlari, ko'zlari pilikday,
Yoru jo'rasi, kuyov no'kari bilan
Xush kelibdi kuyovlar!

Shudgorga yoqqan qordayin,
Yangi bir chiqqan oydayin,
Yoru jo'rasi, kuyov no'kari bilan
Xush kelibdi kuyovlar!

Otlarga minsa mirzaday,
Yerlarga tushsa nayzaday,
Yoru jo'rasi, kuyov no'kari bilan
Xush kelibdi kuyovlar!

Yuzlari bozor noniday,
So'zlari odam joniday,
Yoru jo'rasi, kuyov no'kari bilan
Xush kelibdi kuyovlar!

Kelin salomlar

Otovlarga qatnagan,
Qavurg'asi chatnagan
Durjonmomoga salom.

Oq ayvonning o'rasi,
Yigitlarning sarasi
Kuyov bolaga salom.

Kamzo'llari sadabli,
O'zi juda adabli
Qaynog'asiga salom.

Qora sochi gajakday,
Chirmashgan gul pechakday,
Qaynbikaga salom.

Osmondagi oyday
Qora qoshi yoyday,
Kichik singilga salom.

Ko'zlari qora-ola,
Og'zi bolli piyola,
Qaynonaga salom.

Elda ulug' simmatli,
Gapi-so'zi qimmatli,
Qaynotasiga salom.

Qaqrasidan qaragan,
Zuvolasin sanagan,
To'y uyining bekasi,
Qaynonasiga salom.

Qo'chqor guli popoqli,
Tund, osilgan qapoqli,[1]

[1] Qapoqli-qovoqli

To‘y uyining sultoni,
Qaynog‘asiga salom.

Beparovuz og‘zi bor,
To‘y uyining to‘fasi,
Ovsinbiyiga salom.

Guldirasi tosh yorar,
Oyboltasi bosh yorar,
Kelin-qizning sevgani,
Kuyov yigitga bir salom.

* * *

O‘ho‘-o‘ho‘ yo‘talgan,
Obdastani ko‘targan,
Yoru-yoru chahor yoro,
Qaynotasiga salom.

Oq saqichday eshilgan,
Mahallada kerilgan,
Yoru-yoru chahor yoro,
Qaynanasiga salom.

Himmati daryo ko‘li,
Qiz bolalarning guli,
Yoru-yoru chahor yoro,
Qaynsinglisiga salom.

Kir yuvilgan sovunday,
Ichi tushgan qovunday,
Yoru-yoru chahor yoro,
Ammalariga salom.

Qizil olmaning po‘sti,
Kuyov yigitning do‘sti,
Qolmasin kamu ko‘sti,
Hammalariga salom!

G‘o‘zadagi pechakday,
Qayrilmachoq gajakday,

Ochilgan gul chechakday,
Qaynegachisiga salom!

Ariqdagi zulukday,
Qoshu ko'zi pilikday,
Yoqib qo'ygan ilikday,
Ovsiniga salom!

Katta bog'ning-anori,
Uyning yongan lanori,
Yoru-yoru chahor yoro,
Singlisiga bir salom!

Tomga qo'ygan shotiday,
Eshonbobom otiday,
Yoru-yoru chahor yoro,
Qaynog'asiga bir salom!

Tomga bosgan pichanni,
Qiz bolaning chechani,
Yoru-yoru chahor yoro,
Opasiga bir salom!

Tomga bosgan bo'yraday,
Yurishlari to'raday,
Yoru-yoru chahor yoro,
Kuyov yigitga salom!

O'qib o'zgan mullodan,
Uzangisi tillodan,
Yoru-yoru chahor yoro,
Akasiga bir salom!

Qozonida quyruq qayragan,
Oti qoziqda o'ynagan,
Yoru-yoru chahor yoro,
Kuyov yigitga salom!

Mashinani ishlatgan,
Hamma ishni o'xshatgan.

Yoru-yoru chahor yoro,
Singlisiga bir salom

Xat yozadi tokchada,
Osh pishirar dekchada,
Yoru-yoru chahor yoro,
Yangasiga bir salom!

Osmondagi oq qog'ozday,
Do'ppilari qog'ozday.
Yoru-yoru chahor yoro,
Qaynotasiga bir salom!

Suv kechgani eringan,
O'g'il tug'ib kerilgan.
Yoru-yoru chahor yoro,
Qaynonasiga bir salom!

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Kelin salom, yor-yor.
Barcha o'tgan arvohlarga
Qilay salom, yor-yor.

Qaynatasi, bilsangiz,
Sizga salom, yor-yor.
Qaynanasi, bilsangiz
Sizga salom, yor-yor.

Amakisi, tog'asi,
Ammalariga salom, yor-yor.
Ovsinu xolalari,
Ammalariga salom, yor-yor.

Qaynsingil, ukalar,
Churvaqalarga salom, yor-yor.
Jiyanlaru og'alar,
Qurvaqalarga salom, yor-yor.

Suvdan chiqqan suluvday,
Qoshi ko'zi suzukday,

Eshitib oling qaynsinglisi
Sizga salom, yor-yor.

Tokchadagi atirday,
Yasab qo'ygan patirday,
Eshitib oling qo'shnilar,
Sizga salom, yor-yor.

Ot bahosi to'n kiygan,
El bahosi ot mingan
Eshitib oling, otasi,
Sizga salom, yor-yor.

Qora qo'yning pochasi
Yigitlarning novchasi,
Eshitib oling, akasi,
Sizga salom, yor-yor.

Pechlarini bar urgan,
Qirq yigitga sar urgan,
Eshitib oling, amakisi,
Sizga salom, yor-yor.

Eshikdagi qoqidek,
Uyda o'tirgan soqidek,
Eshitib oling, momosi,
Sizga salom, yor-yor.

Arg'amchini ushlagan,
Hammaning vaqtin xushlagan,
Eshitib oling, tog'asi,
Sizga salom, yor-yor.

Qizil gulning xipchasidek,
Bug'doy nonning kulchasidek,
Eshitib oling, opajoni,
Sizga salom, yor-yor.

Ot ustida yo'qdekkina,
Uzib qo'ygan nordekkina,

Eshitib oling, ukasi,
Sizga salom, yor-yor.

Kuyov salomlar

Kuyov keldi ko'ringiz,
Ko'rgiligin beringiz.
Ulay-bulay demayin,
Otin aytib beringiz.
Poda bersang, ola ber,
Yilqi bersang, qora ber.
Munda turgan yigitning
Har biriga tovoq ber.

Qo'sh ho'kizni yuritgan,
O'rada bug'doy churitgan.
O'rigini kampirlar,
Jovli olib quritgan,
Qaynotasiga salom.

Bosgan izi bilinmas,
Pichoqsiz sapchi tilinmas.
Bir kecha sermalaganda,
Qo'liga guruch ilinmas,
Amaki, tog'alariga salom.

Kuyov keldi izzat bilan,
Salom aytur hurmat bilan
Kuyov tomonidan salom.

Shukurlilloh ul zotga,
Xoliqu mavjudotga
Kuyov tomonidan salom.

Ota bo'lib odob bergan,
Qizim bor, deb ko'krak kergan qaynotasiga
Kuyov tomonidan salom.

Qiz tug'ib bo'y yetkazgan,
Bugun bag'ridan ketgazgan qaynonasiga
Kuyov tomonidan salom.

Amak bilan tog‘olarga,
Ham xeshu aqrabalarga
Kuyov tomonidan salom.

Dugonayu jo‘ralaga,
Oqsoqolu to‘ralarga
Kuyov tomonidan salom.

Bu yerdagi mehmonlarga,
Chaqqongina mezbonlarga
Kuyov tomonidan salom.

To‘yimizga kelganlarga,
Qutlug‘ bo‘lsin, deganlarga
Kuyov tomonidan salom.

Motam marosimi qo‘shiqlari

Yig‘ilar va yo‘qlovlar

Otaga bag‘ishlangan yig‘ilar

Soqolining tagidan
Sullohlarga yo‘l bergay, voy otam.
Muylabining tagidan
Mulolarga yo‘l bergan, voy otam.

Qush qanoti tegmagan,
Tog‘da daraxtlar bormikan, voy otam.
O‘lim dog‘in totmagan,
Dunyoda inson bormikan, voy otam.

Baland tog‘lar past bo‘ldimi-ya,
O‘lganingiz rost bo‘ldimi-ya, voy otam.
Shamol kelmay o‘chdi chirog‘im,
Dunyoda inson bormikan, voy otam.

Boshimda posbonim, otam,
Oldimda sarbonim, otam,
Buzilgan qo‘rg‘onim, otam,
Voy, otam-ey, voy, otam.

Ot-ulovi changida qolgan,
O‘g‘il-qizi yo‘lda qolgan,
Rohatini ko‘rolmagan,
Voy otam-ey, jonim otam.

Ko‘chat ekib meva terolmagan,
Nevaralarini ko‘rolmagan,
Yuragida armon qolgan,
Otajonim, jonim otam.

Ariq qazib suvini icholmagan,
Mehnat qilib rohatini ko‘rolmagan.

* * *

– Bel boylayman po‘tasiz,
Qanday boqaman otasiz.
Oq-oqqina qo‘zilar,
Yaylov o‘ti tilaydi.
Yetim qolgan bolalar
Ota ko‘ngli tilaydi.
Voy o‘lim, vo kunim, vo davron...

Xotinning eriga yig‘isi

Men onam deb yig‘lasam,
Onasi o‘lgan yig‘lasin.
Men otam deb yig‘lasam,
Otasi o‘lgan yig‘lasin.
Sendek jigarim yo‘qdir desam,
Jigari ketgan yig‘lasin.
Ayo do‘stlar, hech kim mendek
Suyganidan ajralmasin.
To‘ram ketdi, to‘ram ketdi,
Bag‘rimni tilab to‘ram ketdi.
Meni g‘amxonaga tashlab,
O‘zi sayli Eram ketdi.
Tegirmon toshini boshimga
Langar qildi-yu ketdi.
Xudo soldi bu savdoni,
Qalandar qildi-yu ketdi.

* * *

-- Uylarida o'ynab-kulgan, voy to'ram,
Yorim desam og'zim to'lgan, voy to'ram,
Go'daklarin menga tashlab, voy to'ram,
Bir nafasda tamom bo'lgan, voy to'ram,

Uloqlarni choptirib, voy to'ram,
O'g'lin bo'yin ko'rmagan, voy to'ram,
Poygalarni qo'ydirib, voy to'ram,
Qizin to'yin ko'rmagan, voy to'ram,

Etagim to'la dur ekan, voy to'ram,
Peshonam qurg'ur sho'r ekan, voy to'ram,
Uzay desam, gulim yo'q, voy to'ram,
Kuydimmi desam, kulim yo'q, voy to'ram,

Eksa-bitmas maydonim, voy to'ram,
Chaqirsam kelmas mehmonim, voy to'ram,
Ot ko'tarmas polvonim, voy to'ram,
Xonamdagi sultonim, voy to'ram,
Qoraygan tog'ning tumani, voy to'ram,
Qaqshatdi o'lim yomoni, voy to'ram,

Qal'adan qilgan qo'rg'onim, voy to'ram,
Yovlar kelib buzdirdi, voy to'ram,
Bemahal kelgan o'lim, voy to'ram,
Aql-hushimdan ozdirdi, voy to'ram,

Qoratepa yo'lini, voy to'ram,
Ketmonlab choptira olmadim, voy to'ram,
Bemahal kelgan o'limni, voy to'ram,
Ilojin topdira olmadim, voy to'ram,

Orqamga tushgan oftobim, voy to'ram,
Ustimga kiygan kimxobim, voy to'ram.
Qishlardagi qishlovim, voy to'ram,
Yozlardagi yaylovim, voy to'ram,

* * *

Arg‘umoq edi mingani,
Kirovka edi kiygani.
Mahsi kiydi sovurdan,
O‘ta berdi dovurdan.
Chayqalib engin tashladi,
Beshgina kun davriga.
O‘ltirmay kulgi boshladi,
Oq bug‘doyning nonini
Yopmas edi erinib.
Bul kunimning davrida
Ishshak qo‘yning go‘shtini
Yemas edim jerikib.
Hovlimda bozor yurgizdi,
Dasht parchasi yomon deb.
Buxoro parcha kiygizdi,
To‘rimdan oyna qaratdi.
Tol tarog‘i yomon deb,
Shamshod taroq taratdi.
Mingan oting ko‘kmidi,
Ko‘k bedasi yo‘qmidi.
Bolalaring mungg‘aytirib
Hech armoning yo‘qmidi.

* * *

Yig‘lasinu yig‘lasin,
Har kim o‘ziga yig‘lasin.
Peshkadan poygaga tushgan
Bevazanlar yig‘lasin.

Yig‘lamay naylay, ki man,
Ro‘zim siyoh qildi falak.
Sevarimdan ayirib,
Baxtim qaro qildi falak.

Bog‘ sizday bo‘lmasin,
Bog‘bon sizday bo‘lmasin.
Bog‘ devori yiqilib,
Cho‘pon sizday bo‘lmasin.
Sizdayin bo‘lgan kishi,
Hargiz onadan tug‘ilmasin.

Onaga bag‘ishlangan yig‘ilar

Ro‘moling oqmidi, onam,
Tevaragi ko‘kmidi, onam.
Azroilning kelishidan,
Xabaring yo‘qmidi onam.

Jon onam, jonim onam,
Jonimga darmonim onam.
Oq sut bergan, jon onam,
Oppoq sut bergan, jon onam,

Shishai gumbaz ichida
Kamolga yetkazgan onam.

Oq sutingga rozi bo‘l,
Azizim, Ka’bam onam.
Shishani zargarga berdim,
Oshno bo‘lgaymi deb.

Mehrimni onamga qo‘ydim,
Muqim turgaymi deb.
Mehribon jonim onam,
Nomehribon bo‘ldi butun.

Ko‘zimni yo‘lga qo‘yib,
Cho‘lga ravon bo‘ldi bugun.
Olatog‘dan oshirarlar,
Gul yuzingni yoshirarlar.

Boriga ham yo‘g‘iga,
Achchig‘u ham totiga.
Dardiga ham dog‘iga,
Sabri ul tog‘im onam.

Bog‘ etib, chorbog‘ etib,
Qaddi dol, bog‘bon onam.
Qiz debon, o‘g‘il debon,
O‘zginasi xo‘r onam.

Aylanib ham o‘rgilib,
Dilginasin shod etib.
Jon debon, jonim berib,
El ichida shon onam.
Men so‘rab kelsam eshikdan
Boshginang osmon onam.
Mehribon ul dilbandiga
Doim dildor onam.

Qiz dedim, o‘g‘il dedim,
Men seni shod etmadim.
Dilginang tortgan taom-a
Bir kuni yod etmadim.

O‘tirib tun yoki kun,
Suhbatingdan to‘ymadim.
Ro‘z dedim, ro‘zg‘or dedim,
Hech bir o‘zimdan ortmadim.
Kiydirgani, xush etgani
To‘rt enlik mato topmadim.

Dard ila to‘lsa dilim,
Endi qayga boraman?
Onajon, sendek beg‘araz do‘stni
Endi qaydan topaman?
Tashlading, ketding bu kun
Bog‘ni ham chorbog‘ni ham.
Izlaringga-ku meni
Zor-u zor etding, onam.

Onajonim, armonlarim
Endi kunda ortadir.
Sen-la turgan xonadonim,
Endi nurab bitadur.

Xayr ketdi sen bilan,
Ko‘rk ketdi sen bilan.
Bir o‘zing dunyomiding,
Dunyo ketdi sen bilan.
Peshkada joying ochiq,
Uyni to‘latganing qani?

Erning xotinga yig'isi

Keldimki, otim bog'langan,
Kesib siynasi dog'langan.
Muhabbatin bir iqrora bog'langan,
Umr savdom yostiqdoshim, xush endi.

Eshiging ayvon-o'choqli,
Qo'llaring dasturxon -sachoqli,
Uzun bo'yli, keng quchoqli,
Sevib olgan qora ko'zim, xush endi.

Boboga bag'ishlangan yig'ilar

Topilmas matoginam, bobojonim,
Yirtilmas xitoginam, bobojonim.
Shirin so'zginam, bobojon,
Mehmondo'stginam, bobojon.

Yangi bog'ning shirasi,
Ko'na bog'ning kundasi, bobojonim.
Qo'ylar so'ysam- kelmasginam,
Oylar o'tsa- aylanmasginam.
Kunlar o'tsa —ko'rinmasginam,
Qimmat kelib, arzon ketgan, bobojonim,

Tangalarga xirmonginam,
Tillalarga misqolginam.
Bozor borsa-baqqolginam,
To'ylar qilsam-oqsoqolginam, bobojonim.

Uyda bo'lsa-maslahatdor,
Yo'llar yursak-bo'lgan mador.
Endi esa yostig'lari chimdan, bobom,
Otlari cho'pdan, bobom.

Uch kunlik g'oyibginam, bobojonim,
Siz g'oyibu nopaydoginam, bobojonim.
Uyimning sarishtasi, bobojonim,
Uyimning farishtasi, bobojonim.

Bobojonim, jonim mening,
Tirikdiz g'amim yo'q edi.
Meni tashlab qayon kettiz.

Buviga aytiladigan yig'ilar

Uyimiz farishtasi, buvijonim,
Ukalarim sarishtasi, buvijonim,
Har ishda maslahatgo'y, buvijonim,
Tunlari allago'yim, buvijonim.
Hamisha duogo'yim, buvijonim.
Oq sochli, nuroniy, buvijonim,
Endi qaydan izlay-ey, buvijonim.

Momojonim, momo-ey,
Bizni tashlab ketmang-ey.
Bizni tashlab ketib-ey,
Mehriyiza zor etmang-ey.

Yiqilsam-suyagan momam,
Ishlarda duogo'y, momam.
Suyanchig'im edingiz, duogo'yim edingiz,
Endi kimga suyanay men,
Endi kimga sir aytay men.

Farzand o'limiga bag'ishlangan yig'ilar

Ostona bo'ldi turishing,
Fotiha bo'ldi ulushing,
Voy bolam-ey, jon bolam!

Quralay-quralay ko'zlaring
O'rgimchakka in bo'ldi,
Voy bolam-ey, jon bolam!

Quyuq-quyuq sochlaring
Qumursqaga uy bo'ldi,
Voy bolam-ey, jon bolam!

Lo'ppi-lo'ppi yuzlaring

Aylanib ketdi tuproqqa,
Voy bolam-ey, jon bolam!

* * *

Qizil kiysa-qarashgan,
Yashil kiysa yarashgan,
Voy bolam jigargo'sham!
Qora ro'mol qo'limda,
Qorayib qoldim yo'lingda,
Voy bolam, shamchirog'im!
Sariq ro'mol qo'limda,
Sarg'ayib qoldim ko'yingda,
Voy bolam, soyabonim!
Sandiq to'la sariq gul,
Taqsam ado bo'lmaydi,
Voy bolam, jonim bolam!
Bolajonim dardini,
Aytsam ado bo'lmaydi,
Voy bolam, davlatim bolam!

* * *

— Sen mening jonim eding,
Oysultonim, bolam.
Taxt uza xonim eding,
Oysultonim, bolam.

Bir ajab g'uncha eding,
Ochilmayin urdi xazon.
Endi men dog'ing chekay,
Oysultonim, bolam.

Naylayin qora ko'zingni
Sog'inib qo'zim, seni?
Taxta tobutlar senga
Taxti ravon bo'ldi, bolam.
Dardi hasratingda qoldim,
Oysultonim, bolam.
Shod bo'lib beshgina kun
Dunyoda yurolmading.

Yuragingda ketdi armon,
Oysultonim, bolam.
Koshki sendan burunroq
Bo'lgay edim xoksor.
Xok bo'ldi gulbadaning,
Oysultonim, bolam.

O'ting tushdi yuragimga,
Chaqirib olsam bo'lmas.
Endi seni topolmayman,
Endi seni ko'rib bo'lmas.
Oysultonim, bolam.

* * *

Zil terak, zilmon terak, voy bolam,
Maydonga eksam bitmadi, voy bolam,
Zolimlarga yolbordim, voy bolam,
Arzi dodimga yetmadi, voy bolam,

Qaytarmadim so'zingni, voy bolam,
O'ksitmadim o'zingni, voy bolam,
Yetimlik nomin taqmadim, voy bolam,
Tunlar mijja qoqmadim, voy bolam,

Qo'rqmas arslon bilagim, voy bolam,
Dilda maqsad-tilagim, voy bolam,
Otang qilganda vafot, voy bolam,
Ko'z tikdim senga faqat, voy bolam,

Ovga-ovga deb eding, voy bolam,
Quyon ovga deb eding, voy bolam,
Jiyron otga minganda, voy bolam,
Ketdim otga deb eding, voy bolam,

Qator-qator uy solgan, voy bolam,
Devoriga gul solgan, voy bolam,
Solgan guli bitmasdan, voy bolam,
Go'ristonga yo'l olgan, voy bolam,

Sharshara ning boshiga, voy bolam,
Qor yog'ibdi, izi yo'q, voy bolam,
Bolaginam otildi, voy bolam,
Yig'laydigan qizi yo'q, voy bolam,

Go'ristonning bug'doyi, voy bolam,
Helpiraydi, doni yo'q, voy bolam,
Bolaginam yotibdi, voy bolam,
Yer ostida, joni yo'q, voy bolam,

Opaga bag'ishlangan yig'ilar

Oy, yuzlari oynali, opajonim,
Gul yuzlari gulobli, opajonim.

O'tirganlari ko'rpali
Opajonim, opam-ey!

Gapirgan gaplari sarpoli
Opajonim, opam-ey!

O'tirib to'nlar bichishgan,
Sirlarini aytishgan,
Opajonim, opam-ey!

Kelmas yo'lga bosh qo'ygan,
Oy aylansa aylanmagan,
Opajonim, opam-ey!

Ota-onamdan meros,
Opajonim, opam-ey!

Eshiklari hassali.
To'shaklari fotihali,
Opajonim, opam-ey!

So'rab borgan so'roqchim,
Istab borgan istanchim,
Opajonim, opam-ey!
Yo'qlab-yo'qlab qo'yaylik,
Yo'q bo'lmasin opam-ov!

Silkib-silkib qo'yaylik,
Chang bo'lmasin opam-ov!

Jigarim

Gulg'unchadek ochilmagan, jigarim,
Muattari sochilmagan, jigarim.

Bu dunyodan chanqoq ketgan, jigarim,
Ko'ngillarga firoq ekkan, jigarim,

Yuraklarni zardob etgan, jigarim,
Tuzlar sepib selob etgan, jigarim.

Nechun ajal ravo ekan, jigarim,
Giriftori balo ekan, jigarim.

Ajal sirin kim biladi, jigarim,
Aytmay nishonga oladi, jigarim.

Chekaman nolayu afg'on, jigarim,
Axtaray dashtu biyobon, jigarim.

Yigit kishining o'limiga bag'ishlangan yig'ilar

Gardaniga gaz etmagan,
Shonasiga yoy etmagan.
Otlar minsa yarashgan,
To'nlar kiysa yarashgan.

Yuk ustida yoyi qolar,
Oy kelinday yori qolar.
Kattalari eshikda qolar,
Kichiklari beshikda qolar.

Avliyoning darvozasi,
Yomon ekan andozasi.
Yigit o'ldi-yomon bo'ldi,
Elga ketdi ovozasi.

* * *

Tol yog'och mevasi bo'lsa,
Shoxasi yerga tegmasmi?
Yigit qirq yoshida o'lsa,
Uning armoni kuymasmi?

Yog'och otga jar qo'ydim,
Jilovdor bo'lmadi hech kim.
Oxirat yo'liga yo'l oldim,
Tavallo qilmadi hech kim.

Tol yog'och mevali bo'lsa,
Shoxasi yerga tegmasin.
Navqiron yoshda o'lib,
Yigit armoni kuymasin.

Onasi:

-Bilagim sindi saridan
Chinorimdan ayrilib.
Yuragim chiqdi qopidan
Shunqorimdan ayrilib.
Bulturgi yili shu kunda
Ipak edi o'rmagim,
Kulgi edi ermagim.
Bu yilgi yili shu kunda
Ipdan bo'ldi o'rmagim,
Yig'i bo'ldi ermagim.
Teng-teng chinor teng chiqar,
Tepsingan otdan ter chiqar.
Tengqurlaring kelganda
Teng solib uydan kim chiqar?
Qora bir nayza ushatdim.
Kelbating yerga to'shatdim.
Sirli bir nayza ushatdim,
Sumbating erga to'shatdim.

Opasi:

– Qopqog'ing topsang ocha ko'r,
Hayron qolgur qora yer.
Qora yerda halqa yo'q,

Opasi kuysin o'tiga.
Qora erning bag'rida,
Tanasi yotar, joni yo'q.
Chor oynaning ko'zida
Opasi kuysin o'tiga.
Charx urgan mirzo o'zidir,
Gul oynaning ko'zidir.
O'lganga maqtab aytmayin,
Aytuvli mirza o'zidir.
Otlarga minsa oynaday,
Yerlarda yursa nayzaday.
Manglayda tuqqan Hulkarday,
Opasi kuysin, aynamning.
Qantarib qo'ygan tulporday.

Singlisi:

– Qamchisini qayirdi,
Eldan haqin ayirdi.
Qoziqdan otni qochirdik,
Ellardan otini o'chirdik.
Chorsi belbog' belida,
Ko'rinmaydi elida.
Mingan oting olma ko'z,
Olma ko'zni minganda,
Tegdimikan yomon ko'z.
Suqsur edi–suq tegdi,
Yugurik edi–o'q tegdi.
Qarmoqlar soldim ko'llarga,
Daraklar soldim ellarga.
Qarmog'im suvga botmadi,
Daragim elga o'tmadi.
Eshiklar oldi gulxayir,
Mevasi yo'qdir bexayir.
Singlisi o'lsin, aynimning.

Bolalarini mung'aytirib,
Bu ishingga kim qoyil.
Eshiklar oldi zig'irdir,
Zig'irni pulga jubirdi.
To'y qilaman degani

Yomoniga buyurdi.
Sandig'imning siri edi,
Oq yuzimning nuri edi.
Bo'lar-bo'lmas dard uchun
Bo'taday ko'zin sindirdi,
Singlisi o'lsin, aynimning.

Osilganda-osmonim,
Uchar bo'lsam-qanotim.
Charx urganda-chorbog'im,
Aylanganda-hayotim.
Ko'nar bo'lsa-ravotim,
Tortinmay kirar-makonim.
Singlisi o'lsin, aynimning.

Qizg'aldoqday ochilib,
Yerlarga ziyo bo'lganim.
Boychechakday ochilib,
Gulida xazon urganim.
Novdada sovuq cholg'anim,
Bargida sovuq urganim.
Ekin joyda egilib,
Bir kosa suvday to'klib,
Singlisi o'lsin, aynimning.

Yangasi:

– Qiyodan tuqqan qirq yulduz,
Qiyalay bordi botgani.
Yangasi kuysin norimning,
Qiyomat bordi yotgani.

Uydan tuqqan o'n yulduz,
O'ynoqlay bordi botgani.
Yangasi o'lsin norimning,
U dunyo bordi yotgani.

U dunyo borsang, ko'p yotma,
Och arvoh bilan so'z qotma.
Och arvoh seni ozdirar,
Uy-joyingdan bezdirar.

Opasi kuysin o'tiga.
Qora erning bag'rida,
Tanasi yotar, joni yo'q.
Chor oynaning ko'zida
Opasi kuysin o'tiga.
Charx urgan mirzo o'zidir,
Gul oynaning ko'zidir.
O'lganga maqtab aytmayin,
Aytuvli mirza o'zidir.
Otlarga minsa oynaday,
Yerlarda yursa nayzaday.
Manglayda tuqqan Hulkarday,
Opasi kuysin, aynamning.
Qantarib qo'ygan tulporday.

Singlisi:

– Qamchisini qayirdi,
Eldan haqin ayirdi.
Qoziqdan otni qochirdik,
Ellardan otini o'chirdik.
Chorsi belbog' belida,
Ko'rinmaydi elida.
Mingan oting olma ko'z,
Olma ko'zni minganda,
Tegdimikan yomon ko'z.
Suqsur edi–suq tegdi,
Yugurik edi–o'q tegdi.
Qarmoqlar soldim ko'llarga,
Daraklar soldim ellarga.
Qarmog'im suvga botmadi,
Daragim elga o'tmadi.
Eshiklar oldi gulxayir,
Mevasi yo'qdir bexayir.
Singlisi o'lsin, aynimning.

Bolalarini mung'aytirib,
Bu ishingga kim qoyil.
Eshiklar oldi zig'irdir,
Zig'irni pulga jubirdi.
To'y qilaman degani

Yomoniga buyurdi.
Sandig'imning siri edi,
Oq yuzimning nuri edi.
Bo'lar-bo'lmas dard uchun
Bo'taday ko'zin sindirdi,
Singlisi o'lsin, aynimning.

Osilganda-osmonim,
Uchar bo'lsam-qanotim.
Charx urganda-chorbog'im,
Aylanganda-hayotim.
Ko'nar bo'lsa-ravotim,
Tortinmay kirar-makonim.
Singlisi o'lsin, aynimning.

Qizg'aldoqday ochilib,
Yerlarga ziyo bo'lganim.
Boychechakday ochilib,
Gulida xazon urganim.
Novdada sovuq cholg'anim,
Bargida sovuq urganim.
Ekin joyda egilib,
Bir kosa suvday to'klib,
Singlisi o'lsin, aynimning.

Yangasi:

— Qiyodan tuqqan qirq yulduz,
Qiyalay bordi botgani.
Yangasi kuysin norimning,
Qiyomat bordi yotgani.

Uydan tuqqan o'n yulduz,
O'ynoqlay bordi botgani.
Yangasi o'lsin norimning,
U dunyo bordi yotgani.

U dunyo borsang, ko'p yotma,
Och arvoh bilan so'z qotma.
Och arvoh seni ozdirar,
Uy-joyingdan bezdirar.

Qirlarga chiqib qaraydi,
Qirq ovuldan so‘raydi.
Orqangda qolgan bolalaring,
Xirmonga borib yig‘laydi.

Tomga qo‘ygan norvonday,
Kurashga tushgan polvonday.
Qo‘sh ketmonni peshlatdi,
Qo‘sh novchani ishlatdi.

Olmamikan, normikan,
Shu orada bormikan.
Kelar kuni bormikan,
Qora bir nayza tolmikan.
Hech bir yurtda bormikan?
Shu yurtlarda bor bo‘lsa,
Xabarini topgan bormikan?
Xabarini topgan bandaga
Boylovda moli suyunchi,
Daragin topgan bandaga
Dordagi to‘ni suyunchi.

Eshiklar oldi qumg‘ondir,
Qumg‘onda qo‘lin yuvgandir.
Bolalarim qaytdi deb,
Zo‘rdan bir ko‘zin yumgandir.
Yangasi kuysin, aynimning.

Opasi:

– Qurisin julning iyrag‘i,
Surilsin otning tuyog‘i.
Taqiyalar tikdim gaz og‘iz,
Opasi kuysin o‘tiga,
So‘ylashmadim bir og‘iz.

Kelib edim sog‘inib,
Oltin bargak taqinib.
Opasi kuysin, aynimning.
Qani bir sening turganing,
Usti-boshing qoqinib.

Zig'irlar gulin tashladi,
Bevafo ekan bu dunyo.
Kimga vafo ayladi dunyo?
Taqdirda bo'lgan so'ng,
Har bir banda o'ladi.

* * *

Nikoh to'yi bo'lmagan yoshlar bevaqt vafot etganda beshqarsak bilan aytiladigan yig'ilar

Yetti qiz bilan yalla aytib ulgurmay,
Bolasiga alla aytib ulgurmay,
Bog'lardan uzib chiqmay bir qizil olma-ya,
Qirlardan terolmay qirmizi lola-ya.
Otasining sarvari, onasining gavhari,
Bir zumda, bir zumda, bir zumda,
G'oyib bo'ldi, g'oyib bo'ldi, gul qiz-a.

O'ng gulidan bir guli ochilmagan,
Bu dunyoga shunday kelib, shunday ketgan.
Yorga emas, quruq yerga quloch yozgan,
Yolg'on dunyoga kelib, jabru jafo tortgan.
Tikkan narsalarini kiymagan,
Kiyganini yirtib ulgurmagan,
Ro'molini dol qo'ygan,
Onasi qalbiga o'chmas dog' qo'ygan.
Gul holida ochilmagan g'uncha qiz,
Bevaqt so'ldi, bevaqt so'ldi, essiz.

Motam yor-yorlari

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Ul parvona qiz, yor-yor.
Afsuslarki dunyodan
Ketdi gul iz, yor-yor.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Oy bolasi, yor-yor.
Bizni kelin yangi uyning,
Gul lolasi, yor-yor.

Yor-yor-ey, yor-yor-ey,
Gul lolasi, yor-yor.
Bog‘ sendek bo‘lmasin,
Bog‘bon sendek bo‘lmasin.
Sendayin bo‘lgan kishi,
Hargiz onadan tug‘ilmasin.
Munkar Nakir so‘rog‘idan,
Oson qilsin, yor-yor.
Payg‘ambar ummatim deb,
Qo‘ling tutsin, yor-yor.
Chahor yori bosafo
Do‘stim desun, yor-yor.
Shohistayi jannatni
Ravo ko‘rsun, yor-yor.

O‘ram-o‘ram sochlaring
Tuproq bo‘ldi, yor-yor.
Sen uchun onayizor,
Adoq bo‘ldi, yor-yor.
Yurak qonga to‘ldi-yu
Qaro bo‘ldi, yor-yor.
Kelinliging sarposi
Endi aza, yor-yor.
Gul solingan kashtangni
Kimga beray, yor-yor.
To‘lib-to‘lib oqqan
Soyga beray, yor-yor.

Labingdagi kulguni
Bosdi qaro, yor-yor.
Ul yigitning yuragini
G‘amlar bosdi-yo, yor-yor.
O‘ram-o‘ram sochlaring
Qanday topay, yor-yor.
Sanday sarvi qomatni
Qanday topay, yor-yor.
O‘ram-o‘ram sochlaring
Majnuntolmi, yor-yor.
San so‘lding-ku, endi u
Ko‘kararmi, yor-yor.

* * *

Hay-hay o'lan, jon o'lan, armonli qiz, yor-yor,
Onalari ko'ngliga darmonli qiz, yor-yor.
Lolaxon ham ketayapti u dunyoga kelinchak,
Oyim qizim sochlari qaro tolga halinchak.
Sakkiz behisht ichida podshoh qizi, yor-yor,
Hur qizlarning ichida hamroh qizi, yor-yor.
Hay-hay o'lan, hay o'lan, hamroh qizi, yor-yor,
Oxiratga ketuvchi podshoh qizi, yor-yor.

Molu dunyo, sanoga ko'z solmadi, yor-yor,
Bu dunyoga mehmon bo'p xush ketmadi, yor-yor.
Sarv qaddi xiromon, jahon qizi, yor-yor,
Oshig'iga etmagan, jonon qizi, yor-yor.
Ikki qo'li tepada, yoriga etolmaydi, yor-yor,
Jumla qizlar ichida o'ynolmaydi, yor-yor.
Hay-hay o'lan, hay o'lan, hamroh qizi, yor-yor,
Oxiratga ketguvchi podshoh qizi, yor- yor.

Salom, ey barno qizim, xush kelibsiz, yor-yor,
Mehmon bo'lib bu dunyoga, xush kelibsiz, yor-yor.
Oyim qizim sochlari qaro tolga hayinchak,
Ona qizim ketadi qaro erga kelinchak.
Orzusiga etmagan armonli qiz, yor-yor,
Oxiratga kelinchak darmonli qiz, yor-yor.
Hay-hay o'lan, hay o'lan, jonon qizim, yor-yor,
Hur qizlarning ichida podshoh qizim, yor-yor.

Motamli «Sallabandon» marosimining yig'ilari

Salla-salla boshniki, voy bolam-ey, yor-yor,
Ko'rmay ketdi boshingni, jon bolam-ey, yor-yor.
Tosh emaskan boshginang erta ketding, yor-yor,
Sallaginang bog'lamay xazon bo'lding, yor-yor.
Sham chiroqni yoqdilar, afsus, o'chib bo'lganakan,
Lovullarmi desalar, risqing tamom bo'lganakan.
Lola-lola, lolazor bo'ldi,
Endi bag'rim qonlarga to'ldi.
Bolam, bolam, bolam-ey.
Mehribonim, bolam-ey.

Yiqqanlarim poya bo‘ldi,
Mehnatlarim zoya bo‘ldi.
Bu o‘lim qanday bo‘ldi,
G‘uncha gulim so‘ldi-yo,
Yurakkinam yuldi-yo.
Chirog‘imni kim yoqar,
Dilginamga kim boqar.
Jonim qizim, xayru xo‘sh.

Motamli «Chopon kiydi» («Jomapo‘shon») marosimining yig‘ilari

Ayvondagi tulporing egasiz-ey, yor-yor,
Kishnab-kishnab tulporing yurak tilar, yor-yor.
Belingdagi kamaring qayda qoldi, yor-yor,
Yeng shimarib chiqarding uloqlarga, yor-yor.
Kuydirding-ku olamni tashlab ketib, yor-yor,
So‘ldirding-ku lolamni tashlab ketib, yor-yor.
Voy dod-ey, voy dod, qanday chiday bu dardga,
Boshim quyay qay tarafga, qanday chiday bu martga!?
Yuragimni sug‘urishdi, ko‘zlarimni o‘yishdi,
Mehribonim qaydasan, jonajonim qaydasan?
Ko‘zlaringni och bolam, bolam,
Yo bo‘lmasa yonginangga tort bolam-o, vo bolam.

O‘lim allalari

Avval boshlab xudoni yod etaylik, alla,
Payg‘ambarlar ruhini shod etaylik, alla.
Payg‘ambarlar ruhiga bizdan salom, alla,
Izzati ikrom bilan shod etaylik, alla.

Alla-allaning oti,
Olloh- xudoning yodi.
Kimlar qo‘ydi shu otni,
Payg‘ambarlar avlodi.
Ming o‘lib, ming tirilar,
Payg‘ambarning zuryodi.

Payg‘ambarning ummatlaridan
Ming bir kishi bo‘lar har kuni,

Ming bir kishi o'lar har kuni,
Yo, rabbim, alla, huya.

Alla, alla-ya, alpiroq,
Go'ringda yonsin shamchiroq.
Shamchiroqning yonganidan,
Yonmagani yaxshiroq.
Bevafo dunyo bo'lganidan,
Bo'lmagani yaxshiroq.

Piyola rangiga boqsam,
Mening rangimga o'xshaydi.
Ichidagi parcha qanti
Yurak dog'imga o'xshaydi.

Bir qator turna keladi,
Gul shoxiga qo'ngani.
Gul shoxi larzon uradi
Turnani qo'ndirgani.

Turnaning qo'nar yeri
Oxir Sulaymon tog'idir.
Bandaning borar yeri
Do'zax yo jannat bog'idir,
Oxir qaro yer ostidir.

Ne balo uzoq yerdan boshladingiz,
Yurakka cho'g'-olov tashladingiz.
Cho'q-olov itdan olov, alla,
Tutunlari yo'qdir, uxla.
Yuraklar sadporadir, alla,
Butun joyi yo'qdir uning, alla.
Avliyo yo'li qaydadur, alla,
Tuproqlari maydadur, alla.
Avliyoning to'rt burji bor, alla,
Avliyoda navxonalar bor, alla.
Na shoh qoldi, na gadoy, alla,
Allalab ko'tardilar, alla.
Olib ko'chadan o'tdilar, alla.

* * *

Alla deb ko‘tardilar,
Jon onam, jonim onam, alla.
Haq hukmini bitirdilar,
Jon onam, jonim onam, alla.

Olib ketdi elu xeshingiz,
Yoningizda yo‘q bir kishingiz.
Dod, lahadda yolg‘iz boshingiz,
Qanday kechar hollaringiz, alla.
Jon onam, jonim onam, alla.

Ketaringni bilmadim, alla,
Yo‘lingizda turmadim, alla.
Lol bo‘lib bu tillarim,
«Qayting, ona!» demadim, alla.
Jon onam, jonim onam, alla.
Qibladan kelgan shamol,
Bog‘imni vayron ayladi, alla.
Bemahal kelgan o‘lim
Jonimni vayron ayladi, alla.

* * *

Alla – allaning yodi,
Alloh xudoning oti
Bugina onajonim,
Payg‘ambarlar zuryodi
Oblo, bir oblo.

* * *

Tabiblar topmadilar,
O‘lim dardiga darmonlar.
O‘limning oldida, do‘stlar,
Filning pashshacha yo‘q darmoni.

O‘q otdim soylarga tushdi,
Osmonda bir yulduz uchdi.
Qidiraman topolmayman.
U yulduz qaylarga tushdi?

Al omon-omonim ber,
Jannatdan makonim ber.
Tavbadan qarorim ber,
Kavsardan sharobin ber.

Al omon-omonim ber,
Gavhari imonim ber.
Har musulmon bandaning
Behishtdan makonin ber.

Bu dunyoda o'tar ekan,
Odam o'g'li mehmon bo'lib.

Chaqaloq qazo qilganda aytiladigan o'lim allasi

Bolam ko'ylagi ko'kmidi, alla-yo alla,
Kamarcha bog'i yo'qmidi, alla-yo alla?
Azroillar kelganda-yo, alla,
Sheru mardlar yo'qmidi, alla?

Uzatarlar elu xeshim, alla-yo alla,
Ustimda yo'qdir bir kishim, alla-yo alla,
Bu vatanda yolg'iz boshim, alla-yo alla,
Orqamda qolmas bir kishim, alla-yo alla,

Sochin yozib onam yig'lar, alla-yo alla,
Beli bog'liq otam yig'lar, alla-yo alla,
Lahad og'zi suvalganda-yo, alla,
Mening vasfim ado bo'lmas, alla.

Bulbuligo'yo bo'lsam, alla-yo alla,
G'am-qayg'uni xatga olsam, alla-yo alla,
Azroillar kelganda-yo, alla,
Shu xatni tutsam-o, alla,
Rahmi kelmasmikin-o, alla-yo alla,

Ado bo'ldim, ado bo'ldim, alla,
Ado bo'lganga yig'larman, alla.
Qarindosh yoru do'stimdan, alla,
Judo bo'lganga yig'larman, alla.

G‘amlar boshimdan o‘tadi, alla,
Yuragim to‘lib-toshadi, alla.
G‘amning biri ketmay turib, alla,
Boshqasi kelishga shoshadi, alla.

Marhum tilidan aytiladigan allalar

Otmang mani toshlar bilan,
Uchib ketarman qushlar bilan,
Alla, rabim, bir alla.

Qushlar kelar, man kelmasman,
Ko‘zing to‘lar yoshlar bilan,
Alla, rabim, bir alla.

Ustimda yig‘lashib yotar,
Eling man-man aljamol,
Alla, rabim, bir alla.

Olmang jonimni jamol
Maning qarindoshlarim,
Kelib qolar hali zamon.
Alla, rabim, bir alla.
Alla, rabim, alla.

Eltib qo‘yar elu xeshim,
Yonimda turmas bir kishim,
Hoy-hoylagan yolg‘iz boshim,
Alla, rabim, bir alla.

Bizga sarpoy bichdilar,
Engi yo‘q, yoqasi yo‘q.
Bizga bir uy duzadilar,
Eshigi yo‘q, to‘ynugi yo‘q.
Alla, rabim, bir alla.

Biza otlar yasadilar,
Egari yo‘q, yugani yo‘q.
Alla, rabim, bir alla.

Qarchig‘ayday qayrilib,

To‘tiqushday termilib,
Eltib qo‘yar elu xeshim.
Men ketarman elima,
Alla, rabim, bir alla.

Shirin jonim berganda,
Tog‘u toshdan oshirdilar,
Alla, rabim, bir alla.

Alla, rabim, bir alla.
Shirin jonim topmayin,
Qora tuprog‘a yoshirdilar.
Alla, rabim, bir alla.

Belbog‘ bering belima,
Alla, rabim, bir alla.
Men qo‘shilay elima,
Alla, rabim, bir alla.

* * *

O‘tgan oyning oydini,
Oydin ekan bilmadim.
Onam bilan yurganim,
Davron ekan bilmadim.

O‘ydim-o‘ydim joylarning
O‘yilgani chin ekan.
Onaginam chiqmadi,
Ko‘milgani chin ekan.

Hech kim menday bo‘lmasin,
Qizil guli so‘lmasin.
Mendayin odam bo‘lsa,
Dunyoga asli kelmasin.

Uyim oldi supacha,
Supachada ko‘rpacha.
O‘lganlar hech kelmaydi,
Mehmon bo‘lib bir kecha.

Chimildig'i chim bo'lgan,
Bosh yostig'i qum bo'lgan.
Suygan onam yagona,
O'lim qildi begona.

Lirik qo'shiqlar

To'rtliklar

Eshigingdan o'tsam man,
Dutoringning ovozi.
Yuragimni kuydirgan
Suygan yorimning nozi.

* * *

U yoq o'tadir bir gul,
Ochilibdir qizil gul.
Yorimning gulzorida
Sayrab yotadi bulbul.

* * *

Sevgan yor, sani bo'ying,
Qachon bo'ladi to'ying?
Bo'lsa-bo'lmasa to'ying,
Quchoqlab o'pib qo'ying.

* * *

Osmondagi yulduzning
Shamchirog'i bormikan?
Jonim, yuragimni ko'r,
Kuygan dog'i bormikan?

* * *

Oyni oyga otaymi,
Yorim, seni kutaymi?
Yorim, dardingda sening
Ostonangda yotaymi?

* * *

Atlas ko'ylagim engi,
Mening yuragim kengi.
Dunyoni gir aylanib,
Topmadim o'zim tengi.

* * *

Ariq bo'yida yalpiz,
Yalpizning shoxi yolg'iz.
Uylanmagan yigitlar
Qanday yotadi yolg'iz?

* * *

Bog'ingga kirib ko'rdim,
Olmang uzguday bo'pti.
Shu qiz mening sevganim,
Olib qochguday bo'pti.

* * *

Bog'ingda guling bo'lsam,
Eshikda quling bo'lsam.
Hech armonim yo'q edi,
Ishqingda kuyib o'lsam.

* * *

Bulbul sayramas bo'ldi,
Gullar ochilmas bo'ldi.
Dushman so'ziga kirib,
Yorim qaramas bo'ldi.

* * *

Ichmakka qimiz achchiq,
Ichgandan keyin totliq.
Og'zida novvot bormi,
Qora ko'z tili totliq.

Chimildig'i chim bo'lgan,
Bosh yostig'i qum bo'lgan.
Suygan onam yagona,
O'lim qildi begona.

Lirik qo'shiqlar

To'rtliklar

Eshigingdan o'tsam man,
Dutoringning ovozi.
Yuragimni kuydirgan
Suygan yorimning nozi.

* * *

U yoq o'tadir bir gul,
Ochilibdir qizil gul.
Yorimning gulzorida
Sayrab yotadi bulbul.

* * *

Sevgan yor, sani bo'ying,
Qachon bo'ladi to'ying?
Bo'lsa-bo'lmasa to'ying,
Quchoqlab o'pib qo'ying.

* * *

Osmondagi yulduzning
Shamchirog'i bormikan?
Jonim, yuragimni ko'r,
Kuygan dog'i bormikan?

* * *

Oyni oyga otaymi,
Yorim, seni kutaymi?
Yorim, dardingda sening
Ostonangda yotaymi?

* * *

Atlas ko'ylagim engi,
Mening yuragim kengi.
Dunyoni gir aylanib,
Topmadim o'zim tengi.

* * *

Ariq bo'yida yalpiz,
Yalpizning shoxi yolg'iz.
Uylanmagan yigitlar
Qanday yotadi yolg'iz?

* * *

Bog'ingga kirib ko'rdim,
Olmang uzguday bo'pti.
Shu qiz mening sevganim,
Olib qochguday bo'pti.

* * *

Bog'ingda guling bo'lsam,
Eshikda quling bo'lsam.
Hech armonim yo'q edi,
Ishqingda kuyib o'lsam.

* * *

Bulbul sayramas bo'ldi,
Gullar ochilmas bo'ldi.
Dushman so'ziga kirib,
Yorim qaramas bo'ldi.

* * *

Ichmakka qimiz achchiq,
Ichgandan keyin totliq.
Og'zida novvot bormi,
Qora ko'z tili totliq.

* * *

Qizil gul bargi bo'lay,
Doim oldingda turay.
Agar bevafo bo'lsang,
Ishqingda kuyib o'lay.

* * *

Tom tagida o'ltirib,
Tom bosdimi, yor sani?
Yuzlaring sarg'ayibdi,
G'am bosdimi, yor sani?

* * *

To'riq otda qo'riq bor,
Oq bo'z otda quyruq bor.
Suyar bo'lsang, yaxshi qiz,
Majnunlardan buyruq bor.

* * *

Sayra, bulbul, sayra,
Qizil gul shoxi sinsin.
Yor ayrilaman deydi,
Ayrilib ko'ngli tinsin.

* * *

Daryo bo'yi qamishlik,
Qamish yonida o'rdak.
Men sizga kuyib qoldim,
Yoringiz bormi bo'lak?

* * *

Pichoqni solay desam,
Yorim qo'limni tutdi.
Ikki qoshini qoqib,
Mening ko'nglimdan o'tdi.

* * *

Osmon-egiz yer bila,
Ikkalamiz bo‘z bola.
Bo‘z bolani bo‘zlatgan
Bo‘yi yetgan qiz bola.

* * *

Jon ichda jonon qiz,
Jongsha o‘tni yoqqan qiz.
Qora ko‘zli qalam qosh,
Sochni uzun o‘rgan qiz.

* * *

Chilon boqqa kirmayman,,
Chilon bog‘da ilon bor.
Yor yoniga bormayman,
Uning bo‘lak yori bor.

* * *

Darvoza zanjirini
Ilib qo‘ygali bo‘lmas.
Kishi qo‘lida yorim,
Olib kelgali bo‘lmas.

* * *

Boqqa kirmoqchi bo‘ldim,
Chilgi uzmoqchi bo‘ldim.
Chilgi chumak uribdi,
Yorga yolg‘onchi bo‘ldim.

* * *

Chorbog‘ingni suv bossa,
O‘rdak bo‘lib suzayin.
Zolim yorning dardini
Daftar qilib yozayin.

* * *

O‘rdaklar ko‘lda bo‘lur,
Churraklar cho‘lda bo‘lur.
Har kim yorin sog‘insa,
Ko‘zlari yo‘lda bo‘lur.

* * *

Qoshingning qoraligi,
Ko‘zingning zeboligi.
Jonga jafo qiladir
Yorimning baloligi.

* * *

Ko‘zim uchadir mening,
Toshkentdan yorim kelur.
O‘zi kelmasa yorning
Xushxabar so‘zi kelur.

* * *

Qoshning qorasi senda,
Oy yuzingga man banda.
Chaqirganda kelmaysan,
Yuzi qora sharmanda.

* * *

Atlas ko‘ylak kiyguncha,
Marjon olib taqsang-chi.
Qari cholga tekkuncha,
Daryolarga oqsang-chi.

* * *

Qibladan shamol tursa,
Yorim qanday yuradi?
Do‘stdan ko‘p dushmani bor,
Bunda qanday turadi?

* * *

Qora-qora qoshligim,
Uzun-uzun sochligim.
Qora qoshni deb yurib,
Qorda qoldi yoshligim.

* * *

Ro'molimni olibsan,
Olib dorga solibsan.
Ro'molimni berolmay,
Uvolimga qolibsan.

* * *

Ro'molim chorsi, yorim,
Darvozang qaysi, yorim.
Kun botmasdan kelasan,
Qilig'ing yaxshi, yorim.

* * *

Ro'molim bor — alyosin,
Yor beliga bog'lasin.
Yor beliga yetmasa,
Yuragi qon bog'lasin.

* * *

Gulyor-gulyor emasmi?
Tagi maydon emasmi?
Qiz olmagan yigitning
Ko'ngli vayron emasmi?

* * *

Yorimning hovlisida arpabodiyon,
Rimning o'zi yaxshi, onasi yomon.
Onasining gaplari-ko'ngilga armon,
Bolasining gaplari-yurakka darmon.

* * *

Mening dardimni sen tortgan,
Sening dardingni men tortgan.
Kechalari tol chiviqdek,
Ikkimiz chirmashib yotgan.

* * *

Yorimning bo‘yi zebo,
Zebo bo‘yida gul bor.
Shirin so‘zlari totliq,
Oy yuzlarida xol bor.

* * *

Yor bo‘lsa, yarashgudek,
Dushmanlar qarashgudek.
O‘zi uyquda turib,
Uyg‘onib ko‘z ochgudek.

* * *

Yor dardi yomon ekan,
Men ovora bo‘lmayman.
Boray desam, yo‘l uzoq,
Sog‘insam, ko‘rolmayman.

* * *

Yorim bergan uch olma,
Uchalasi qo‘ynimda.
Uxlab, cho‘chib uyg‘onsam,
Yorning qo‘li bo‘ynimda.

* * *

Yorim keladi sayrab,
Sunbul sochini tarab.
Men esimdan ayrildim,
Qora ko‘ziga qarab.

* * *

Boshimdagi do‘ppining,
Gullarin sanasang-chi.
Sen meni olar bo‘lsang,
Dadamdan so‘rasang-chi.

* * *

Chinnining xil-xili bo‘lsa,
Yigitning bulbuli bo‘lsa,
Yonida pistasi bo‘lsa,
Chaqarga ustasi bo‘lsa.

* * *

Ro‘molimning uchini
Tugmaganga tugdiray.
Qoshimga o‘sma qo‘yib,
Kuymaganni kuydiray.

* * *

Oh, yorim, qilig‘ing yomon,
Ishqilib, bo‘lgin omon.
Ishq o‘ti menga tushdi,
Do‘zax o‘tidan yomon.

* * *

Gulmidi, g‘unchamidi,
Yor, sening boshingdagi?
Olmamidi, anormidi,
Yor, sening ko‘ksingdagi?

* * *

Dilbarim, oydek yuzingga
Bir jo‘ra xoling bo‘lay.
Kecha yoningda yotib,
Kunduz giriftoring bo‘lay.

* * *

Qoshlarim qovushmagan,
Kiprigim yopishmagan.
Na qilay, ota-onam
Tengimni topishmagan.

* * *

Chumchuq otdim gaz bilan,
Kabob qildim tuz bilan.
O'ynamadim-kulmadim,
Bo'yi yetgan qiz bilan.

* * *

Olma guli bo'lmaydi,
Qo'lingga olsang bir quchoq.
Kishini yori yor bo'lmaydi,
O'lguningcha jonga pichoq.

* * *

Yorim tikkan do'ppisi
Shaftoli shoxida qoldi.
Chin so'zni bering, jonim,
Ko'ngil orada qoldi.

* * *

Uy bitadir loy bilan,
Suv oqadir soy bilan.
Umrim o'tarmi shundoq,
Ko'ngli qora yor bilan?!

* * *

Tuya yotar o'rnida,
Qo'ng'irog'i bo'ynida.
Qiz bolani so'rasang,
Yetmish yashar qo'ynida.

* * *

Terak bargi qotmasin,
Shu kecha tong otmasin.
Yor chaqirgan kechasi,
Kundoshni uyg'otmasin.

* * *

To'rt devorning qo'ynida
Sarg'ayib somon bo'ldim.
Suyganimga tegolmay,
Yosh turib, xazon bo'ldim.

* * *

Ko'chadagi olmani
Hamma qoqib ketadi.
Kambag'alning qizini
Zo'rlab olib ketadi.

* * *

Suv ustidagi ko'prik
Uvadaga o'xshaydi.
Qiz olaman degan chol
Devonaga o'xshaydi.

* * *

Tegib tosh, yorildi bosh,
Ikki bekachdir kundosh.
Kundosh bo'lsa mayliydi,
Ikkalasi qarindosh.

* * *

Qoshim qorasi o'sma,
Bevafo, yo'lim to'sma.
Bevafo,yo'lim to'ssang,
Qoshdan ketadi o'sma.

* * *

Yuring, o‘rtoq, g‘iz-g‘izga,
Otim toyildi muzga.
Toyingani muz yaxshi,
O‘ynagani qiz yaxshi.

* * *

Oh, meni shohim, hay-hay,
Sen meni shohim, hay-hay.
Ko‘zu qoshingga do‘longim,
Kel beri, shohim, hay-hay.

* * *

Olma bersam, olmaysan,
Behi bersam, yemaysan.
Qaysi zolim qizisan,
Aldaganga ko‘nmaysan.

* * *

Olmani otgim keladir,
Behini sotgim keladir.
Suyib olgan yorimga
Bir so‘z aytgim keladi.

* * *

Ariq bo‘yini o‘ydim,
Qo‘limga xino qo‘ydim.
Yoru jo‘ramdan kechib,
Yor, senga bino qo‘ydim.

* * *

Ro‘molim bor — simdaka,
Simdaka demang, aka.
Ikkalamiz o‘ynaylik,
Birov bilmasin, yakka.

* * *

Atlas ko'ylak suzilsin,
Do'konlari buzilsin.
Sizdan o'zgani desam,
Tandan jonim uzilsin.

* * *

Bog' aylanib chiy tutdim,
Kelasiz deb ko'z tutdim.
Kelmasingizni bilib,
Laxta-laxta qon yutdim.

* * *

Olma guli noparmon,
Yorni izlab toparman.
Yorni izlab topganda,
O'ng betidan o'parman.

* * *

Uchirmang qalam qoshni,
Bizga irg'itmang toshni.
O'ldirsangiz ichmayman,
Yorim ichmagan oshni.

* * *

Suvga borib, suvda ko'rdim suvchini,
Tishlab olay lablaringning uchini.
Lablaringning uchida mehrigiyo,
Tojikchalab chaqiray: - Inja biyo.

* * *

Yorim to'ni qirmizi,
Mingan oti qirg'izi.
Yuragimni kuydirdi
Telpagining qunduzi.

* * *

Yorim to‘ni beqasam,
Yoqasiga gul solsam.
Yoqasiga gul solib,
Tizzasida o‘ynasam.

* * *

Eshik oldida qo‘zi,
Qo‘zining qora ko‘zi.
Menginani mast qilgan
Yorimning shirin so‘zi.

* * *

Qoshing asli qoradir,
O‘sma qo‘yganing yolg‘on.
Sening uchun men kuygan,
Sening kuyganing yolg‘on.

* * *

Qoshingni qorasiga,
Xol bo‘lay orasiga.
Asti rahming kelmaydi
Birovning bolasiga.

* * *

Yoring bo‘lsa-sho‘x bo‘lsa,
Yursa, ko‘chalar to‘lsa.
Do‘sting ko‘rib suyunsa,
Dushmaning kuyib o‘lsa.

* * *

Olma pishganda keling,
Tagiga tushganda keling.
Orqa sochim jamalak,
Belga tushganda keling.

* * *

Qizil guling qatma-qat,
Qiz boqqanlarga rahmat.
Qiz olib o'ynatmagan
Yigit otingga la'nat!

* * *

Eshigingda tosh olma,
Tosh olmaga tosh otma.
Uyingda yoring turib,
Begonaga gap qotma.

* * *

Chinorning shoxini egib bo'lmaydi,
Xotini borlarga tegib bo'lmaydi.
Xotini borlarga tegib qo'ysangiz,
G'amdan hech chiqmaysiz, vafo qilmaydi.

* * *

Baland tog'lar ustida erimaydi qor,
Atrofidan aylansam, qaramaydi yor.
Qarasa-qaramasa, ne parvoyim bor,
Menga ham topiladi o'zim tengi yor.

* * *

Chirmandangiz chin oshiq,
Chinordan bo'lar qoshiq.
Buncha ham shirin bo'lar
Yoshlikdagi chin oshiq.

* * *

Ariq bo'yida chigit,
Chigitni suvga uyit.
Qiz bola kasal bo'lsa,
Uning davosi yigit.

* * *

Yomonmi xulqi, yorim,
Telpagi tulki, yorim.
Suyganini olomay,
Hammaga kulgi yorim.

* * *

Uzugim bor to‘qqiz ko‘z,
Dushmanlar qilar gap-so‘z.
Dushmanlar qilsa gap-so‘z,
Ayrilmaylik, qora ko‘z.

* * *

Suv oqar guldir-guldir,
Suyganim qizil guldir.
Suyganim kelmay qolsa,
O‘lganim o‘shal kundir.

* * *

Bozor boshida o‘zim,
Qarg‘ashoyida ko‘zim.
Shunisiga hayronman,
Yorga o‘tmaydi so‘zim.

* * *

Bozorboshi tim bo‘ldi,
Kesak otgan kim bo‘ldi?
Paranjiga o‘ralib
Imlab o‘tgan kim bo‘ldi?

* * *

Sochda-soch, daryoga soch,
Kel, men boray, qo‘yningni och.
Sen agar jallod esang,
Boshimni kes, qonimni soch.

* * *

Bedapoyang bo‘sh qoldi,
O‘rtasida qo‘sh qoldi.
Kelmaysanmi, suygan yor,
Oyi ko‘rpang bo‘sh qoldi.

* * *

Osmonning tumanlari,
Yilqining g‘unonlari.
Suv desang, sharbat berar,
Nanayning juvonlari.

* * *

O‘sma qoshni o‘stirar,
Surma ko‘zni suzdirar.
O‘lim bersin upaga
Sovchilarni keltirar.

* * *

Tol kesganim yo‘q edi,
Toldirding bilagimni.
Yor suyganim yo‘q edi,
Yondirding yuragimni.

* * *

Oy chiqsa – oydin bo‘lur,
Kun chiqsa – kunduz bo‘lur.
Qiz bolaning qoshlari
Telpakka qunduz bo‘lur.

* * *

Yuragim choydishmidi,
Choylar solib qaynatasan?
Ovozim bulbulmidi,
Boqqa kirib sayratasan?

* * *

Suv bo'yida o'ltirib,
Suvni loyqatmang, to'ram.
Beqasam to'nni kiyib,
Yurakni dog'latmang, to'ram.

* * *

Olmaning nozikligidan
Ko'rinadi donasi.
Bargiga shabnam tushibdi,
Biz aning devonasi.

* * *

Oy yuzingga oynaman,
Sunbul sochingga men taroq.
Xushlasang, oldingdaman,
Xushlamasang, ketay yiroq.

* * *

Eshigingdan o'taman
Gul ko'tarib ham yo'talib.
Menga chin oshiq esang,
Chiqqin ukangni ko'tarib.

* * *

Toshga yomg'ir kor qilurmi
Muttasil yoqqan bilan.
Davlatingiz kam bo'lurmi,
Bir qiyo boqqan bilan.

* * *

Men bu yerga kelmas edim,
Yor keltirdi meni.
O'tga tushsam, kuymas edim,
Yor kuydirdi meni.

QO‘SHIQLAR

G‘ayra-g‘ayra...

Qosh agar payvasta bo‘lsa,
O‘smani gardon qilur.
Yor agar nodon bo‘lsa,
Oshiqni sargardon qilur.
G‘ayra-g‘ayra dam-badam,
Oromi jonim sen mening,
Shirin zabonim sen mening.

Oyga o‘xshaydir yuzing,
Cho‘lponga o‘xshaydir ko‘zing.
Muncha ham zolim ekan
Xunrezga tarso ko‘zlaring.

G‘ayra-g‘ayra dam-badam,
Oromi jonim sen mening,
Shirin zabonim sen mening.

Qoralar, qop-qoralar,
Oshiqqa ma’shuq mo‘ralar.
Yor bilan o‘ynay desam,
Qo‘ymaydi baxti qoralar.

G‘ayra-g‘ayra dam-badam,
Oromi jonim sen mening,
Shirin zabonim sen mening.

Boqqa kirsam, boqasan,
Imlab qoshingni qoqasan.
Qoqma desam, qoqasan,
Bir baloga toqasan.

G‘ayra-g‘ayra dam-badam,
Oromi jonim sen mening,
Shirin zabonim sen mening.

Yallama, yorim

Qoshini termasi ko‘p,
Mo‘ychinak tishlamaydi.
Mani yorim dangasa,
Mo‘makday ishlamaydi.

Yallama, yorim, yalloma,
Yallolashaylik, bedodlashaylik.
Soyning bo‘yi salqin ekan,
Hasratlashaylik.

Beqasamdir to‘ningiz,
Qaysi joyda uyingiz?
Bordi-keldi qilaylik,
Shirin ekan so‘zingiz.

Yallama, yorim, yalloma,
Yallolashaylik, bedodlashaylik.
Atlas ko‘rpa, par yostiq,
Yonboshlashaylik.

Qoshingiz o‘smadakkina,
Belingiz tasmadakkina.
Man sizni juvon desam,
Qilig‘ingiz qizdakkina.

Yallama, yorim, yalloma,
Yallolashaylik, bedodlashaylik.
Do‘stu dushman bilmasin,
Hasratlashaylik.

Mening yorim bu emas,
Belbog‘idan belgulik.
Meni izlab yurgandir,
Qora ko‘zi termulib.

Yallama, yorim, yalloma,
Yallolashaylik, bedodlashaylik.
Uchtami – to‘rtta bo‘lib olib,
Hasratlashaylik.

Oshiq bo'ldim o'zingga,
Qoshing bilan ko'zingga.
Aytolmayman yuzingga,
Insof bersin o'zingga.

Yallama, yorim, yalloma,
Yalloning anti bor,
Bedodli bandi bor.
Sevgan yorim cho'ntagida
Burama gajjak qanti bor.

Ro'paramda turasiz,
Men qarasam, kulasiz.
Oshiqligim bilasiz,
Iloji yo'q, yurasiz.

Yallama, yorim, yalloma,
Yallicham qoldi.
O'ynab yurgan joyimda
Ro'molcham qoldi.

* * *

Bu kulbayi ehzona xurshidi jahon keldi,
Go'yoki o'lik erdim, bu jismima jon keldi.

Noz ila kalom aylab, rig'a salom aylab,
Bog' ichra xirom aylab, ul shoh jahon keldi.

Ovozi sanamlardek, donishda Iskandardek,
Qahr aylasa ajdardek, chun nur ayon keldi.

Boshim yo'lida qurbon, o'ltirsa nadir armon,
Ul la'li labi xandon ham pista dahon keldi.

Jomig'a solib otash, ham mahvash, ham dilkash,
Mastona yurib mahvash xalq ichra nihon keldi.

Uyalma

Nozingga jon tasadduq,
Jonon desam, uyalma.
Bo'yingga bo'ldim oshiq,
Marjon desam, uyalma.

Olma dedim o'zingni,
Ololmadim so'zingni.
Hidlab ko'rib o'zingni,
Rayhon desam, uyalma.

Doim qaddingni o'ylab,
Nomingni tilda so'ylab,
Yurdim mahalla bo'ylab,
Hayron desam, uyalma.

Ko'rdim seni qachonda,
Gulzoru bog' chamanda,
Sevdim seni o'shanda,
Bog'bon desam, uyalma.

Tortma o'zingni nari,
Ko'zim senga xumori,
Oshiqlarning shiori
Yolg'on desam, uyalma.

Ayrildim

Hasratingda yurak-bag'rim tildirdim,
Yurtu elga oshiqligim bildirdim.
Netay, oxir seni qo'ldan ildirdim,
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

Toza gullar ochilibdi bog'larda,
Yurak-bag'rim ado bo'ldi dog'larda.
Sen beparvo, yurarsan qayog'larda?
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

Ota-onang senga kishan soldimi,
Yo bo'lmasa ko'ngling mendan qoldimi?
Shu g'animlar orag'a qotildimi?
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

G'animlardan endi aslo qo'rqmasman,
Sen bo'lmasang, sarson bo'lib yurmasman.
Sen bo'lmasang, bir dam bunda turmasman,
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

Hajviy qo'shiqlar

Hajviy to'rtliklar

Eshon bobom keldilar,
Qo'lingni ber, dedilar,
U dunyoda qo'llayman,
Naziringni ber, dedilar.

* * *

Ariq bo'yida burgan
Burgan shoxi egilgan.
Sho'ring qurg'ur kambag'al
Boy qo'lida ezilgan.

* * *

Soy ichida mis qozon,
So'filar aytar azon.
Aytmay o'lsin so'filar,
Zolimlar bo'lsin xazon.

* * *

Oq kaptarim don yeydi,
Ko'k kaptarim non yeydi.
Boyning erka qizlari
Betin yuvmay non eydi.

Uyalma

Nozingga jon tasadduq,
Jonon desam, uyalma.
Bo'yingga bo'ldim oshiq,
Marjon desam, uyalma.

Olma dedim o'zingni,
Ololmadim so'zingni.
Hidlab ko'rib o'zingni,
Rayhon desam, uyalma.

Doim qaddingni o'ylab,
Nomingni tilda so'ylab,
Yurdim mahalla bo'ylab,
Hayron desam, uyalma.

Ko'rdim seni qachonda,
Gulzoru bog' chamanda,
Sevdim seni o'shanda,
Bog'bon desam, uyalma.

Tortma o'zingni nari,
Ko'zim senga xumori,
Oshiqlarning shiori
Yolg'on desam, uyalma.

Ayrildim

Hasratingda yurak-bag'rim tildirdim,
Yurtu elga oshiqligim bildirdim.
Netay, oxir seni qo'ldan ildirdim,
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

Toza gullar ochilibdi bog'larda,
Yurak-bag'rim ado bo'ldi dog'larda.
Sen beparvo, yurarsan qayog'larda?
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

Ota-onang senga kishan soldimi,
Yo bo'lmasa ko'ngling mendan qoldimi?
Shu g'animlar orag'a qotildimi?
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

G'animlardan endi aslo qo'rqmasman,
Sen bo'lmasang, sarson bo'lib yurmasman.
Sen bo'lmasang, bir dam bunda turmasman,
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

Hajviy qo'shiqlar

Hajviy to'rtliklar

Eshon bobom keldilar,
Qo'lingni ber, dedilar,
U dunyoda qo'llayman,
Naziringni ber, dedilar.

* * *

Ariq bo'yida burgan
Burgan shoxi egilgan.
Sho'ring qurg'ur kambag'al
Boy qo'lida ezilgan.

* * *

Soy ichida mis qozon,
So'filar aytar azon.
Aytmay o'lsin so'filar,
Zolimlar bo'lsin xazon.

* * *

Oq kaptarim don yeydi,
Ko'k kaptarim non yeydi.
Boyning erka qizlari
Betin yuvmay non eydi.

* * *

Omon-omonga qoldik,
Qanday zamonga qoldik.
Zamonaning zo'ridan,
Eski choponga qoldik.

* * *

Boyning qizi oyimcha,
Yong'oq o'ynab yutasiz.
Jazmaningiz kelganda,
Pashshaxona tutasiz.

* * *

Shaldir-shuldir taqqan qiz,
Mingboshiga yoqqan qiz.
Mingboshidan pul olib,
Otasini boqqan qiz.

* * *

Boy boylarga boqadi,
Suv soylarga oqadi.
Sho'ring qurg'ur kambag'al,
Mehnatidan yoqadi.

* * *

Qo'qon yo'li qumlama,
Qovunlari to'rlama.
Boyning qizini olma
Orqa sochi ulama.

* * *

Singlim unlar elaydi,
Gajagi qimirlaydi.
Zolim eri kelganda,
Darchani zanjirlaydi.

* * *

Yangamsanu yangamsan,
Ko'ylak bicha olmaysan.
Ko'ylagingni qo'ltiqlab,
Eldan nomus qilmaysan.

* * *

Mayiz kelsa to'rdaman,
Palov kelsa so'ridaman.
Kelmay o'lsin mirshablar
Indan qochib mo'ridaman.

* * *

Otam meni otdilar,
Boy boboga sotdilar.
Boy bobosi qurisin,
Rangimni sarg'aytdilar.

* * *

Qoshing qoshingga to'g'ri,
Sen katta boyning o'g'li.
Sen boy vachchaga tushgan,
Mening peshonam sho'ri.

* * *

Tom boshida beda bor,
Maydasini elab ol.
Erkalatmay go'rga bor,
Soqolingda burga bor.

* * *

Sa'va degan qushchani
Maxsar bersang sayraydi.
Savdogarning qizlari
Aqcha bersang qaraydi.

* * *

Boy bobomning qizlari
Sochi uloqqa o'xshaydi.
Chaqirsangiz kelmaydi,
Yog'och quloqqa o'xshaydi.

* * *

Aka yoringni ko'rdim,
Ko'chada turgan ekan.
Egilib salom bersam,
Tili yo'q hayvon ekan.

* * *

Charxni buzgan parrasi,
Qizni buzgan onasi.
Buzmay o'lsin onasi,
Sayoq bo'bdi bolasi.

* * *

Kampirlarning lakkisi,
Uchida tamakisi.
Kampirlarning o'ynashi,
Erining amakisi.

* * *

Qozi pochcham bog'ida laganda halvo,
Qozi pochcham o'ldi deb, Qo'qonda g'alva.
Qozi o'lsa mayliga, mufti o'lmasin,
Muftining besh bolasi yetim qolmasin.

* * *

Men kirdim baqqollikka,
Ip oldim chaqalikka.
Mening suygan yorimni,
Berdi oq soqollikka.

* * *

Boyning dalasi toshlik,
Xotini qo'ydi qoshlik.
Murodni qildi toshbo'ron,
Shokirboy o'zi boshliq.

* * *

Sandiq usti sariq gul,
Taqsam ado bo'lmaydi.
Yurakdagi hasratni,
Aytsam ado bo'lmaydi.

* * *

Havoga qarab tursam,
Uchib keldi uch oyoq.[1]
To'rt xotini bor edi,
Birini qo'ydi uch taloq.

* * *

Tol bargi suvga tushdi,
Eshonlar qo'lga tushdi.
Eshonlarning uyida,
Otinlar yo'lga tushdi.

* * *

Atlas ko'ylak kiymayman,
Hilviratib yurmayman.
Qimorbozga tegmayman,
Kunda kaltak emayman.

* * *

Devolga qarg'a qo'ndi,
O'q yasadim otgani.

[1] Oyoq — bir xil qush.

Xalqdan nomus qilaman,
Seni yor deb aytgani.

* * *

Xonu bekni yer yutsin,
Yerning qa'riga ketsin!
Qozilarning qorniga,
Qora qoziq qoqilsin!

* * *

Ayting unga urmasin,
Urmay qo'llari sinsin.
Bizni urgan qo'llari,
Bandidan judo bo'lsin!

* * *

Ot boyladim xariga,
Xaridan ham nariga.
Otam meni sotdilar,
O'zlaridan ham qariga.

* * *

Charxim tanob tashlaydi,
Bir baloni boshlaydi.
Kundoshligi qurisin,
Kunda urush boshlaydi.

* * *

Kunda qayhatar moshni,
Terib tashlamay toshni.
O'ldirsang ham ichmayman,
Kundoshim qilgan oshni.

* * *

Qaynanam qaynab turadi,
Tilini chaynab turadi.
O'g'li bozordan kelsa,
Yuragim o'ynab turadi.

* * *

Ko'zachamga suv solsam,
Qaynanam to'ktiradi.
O'g'liga chaqib har kun,
Urdirib, so'ktiradi.

O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan

Quloqqa solganim qoshsiz halqadi (r),
Suvga solsam marjonlarim qalqadi.
Kelay desa zolim xondan qo'rqadi,[1]
O'lar bo'ldik bu xonlarning dastidan.

Kechalari to'shaganim bo'yradir,
Kunduz bo'lsa ikki ko'zim yo'ldadir.
Ko'zim nuri Bika[2] qizim qaydadir?
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Xonlar qursin xonligini bildirar,
Nayzasini elkalarga ildirar.
Norasta qizlarni nikoh qildirar,
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Xevada o'liklar sasib yotibdi,
Bo'yniga duosin osib yotibdi.
Bir xonni boshqasi bosib yotibdi,
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Ko'prikdan ko'rinar otini boshi,
Yomg'irdek yog'adi ko'zining yoshi.

---

[1] Dardidan, zulmidan, dastidan ma'nosida.
[2] Xivada Eshniyozova Maryam deganining Bikaposhsho degan cholg'uchi qizini xon zo'rlab oldirib ketadi. Bu qo'shiq o'sha vaqtda bitilgan.

Elu xalqning kulfat doim yo'ldoshi,
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Shu kun uch kun bo'ldi o'zim xafaman,
Telbalardek har tomonga chopaman.
Men bolamni endi qaydan topaman?
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Senga kelgan meni olsin der edim,
Husnidan doimo vahma yer edim.
Bolamni ming jondan ortiq ko'rardim,
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Sarhovuz bo'yida qolgandir sozi,
Qulog'imga kirmay qoldi ovozi.
"Bolam" deb, chiqqandim urdi ayozi,
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Qizilqumga ot yuborsam surilmas,
Na issiq, na sovuq – menga bilinmas.
Bolam ko'rinmasa – dunyo ko'rinmas,
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Qizil gul ichida yurgim keladi,
Esgan shamolida turgim keladi.
Har nafasda uni ko'rgim keladi,
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Qizilqum ustida qizil qumg'onim,
Oq siynam ustida bo'lsang mehmonim.
Seni ko'rar kun bormi, ey mehribonim?
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.

Xo'jayinning dardidan

Azon bilan qo'shga qo'shdim aravani,
Bo'yniga ildirdim somon to'rvani.
Choshkada yubordi qora sho'rvani,
Yonib o'ldim xo'jayinning dardidan.

Dehqon yana senga kerak bo'ladi,
Arpa — tarig'ingdan cho'rak bo'ladi.
Bir hovuch undan ham barak bo'ladi,
Yonib o'ldim xo'jayinning dardidan.

Xo'jayinlar — dehqonlarning dushmani,
Ichiga sig'maydi qilgan pushmoni.[1]
Qad bukildi, ketdi ko'zning ravshani,
Kuyib - yondik xo'jayinning dardidan.

Xo'jayinga dehqon turdim bahordan,
Ishga tushdim, qo'sh haydadim sahardan.
Xabar olmas sira ochu nahordan,
Kuyib - yondik xo'jayinning dardidan.

Har kuni beradi qattiq nonini,
O'ldirmasdan olar kishi jonini.
Oqsoqollar olar boyning yonini,
O'lar bo'ldik xo'jayinning dardidan.

Xonavayron bo'lsin Xivaning xoni

Qora sochim dutoringga tor bo'lgay,
Mani sevgan yigit doim bor bo'lgay.
Xiva xoni xarob, xoru zor bo'lgay,
Xonavayron bo'lsin Xivaning xoni.

Olmali bog'larga beyi soparman,
Yaxshi ko'rgan yorni qaydan toparman?
Kambag'alni zolim itday qoparman,
Xonavayron bo'lsin Xivaning xoni.

Soymikan deb sotmalarni bo'yladim,
Gul yorimning diydoriga to'ymadim.
Nechun zolim ko'zlarini o'ymadim,
Xonavayron bo'lsin Xivaning xoni.

Tegirmon ustidan marvar ko'chadi,
Qaddimni buklasam, belim sanchadi.

[1] Pushmon - pushaymon

Chiqonlarim ko'zlarimdan uchadi,
Xonavayron bo'lsin Xivaning xoni.

Tikonli daraxtga beyi sopilmas,
O'ynab kulay desam, tengim topilmas.
Yigitlarni ming azobda qiynagan,
Xonavayron bo'lsin Xivaning xoni.

Qizlar xarob bo'ldi

Qizlar xarob bo'ldi xonning qo'linnan,
Mahram chiqar go'zallarning yo'linnan.
Na Oyxonum, na Gulsanam kun ko'rdi,
Zor yig'lashib o'ldi zolim zulminnan.

Isfandiyor xonning iti tuymadi,
Ali mahram elda qizni qo'ymadi.
Qizlarning baxtiga qora bog'ladi,
Qizim, deb onalar giryon yig'ladi.

Tokchadagi turgan toza piyola,
Xon mahrami ko'cha kezar na vola?[1]
Xofovandim[2] otma, o'zing apparding,
Sevarding-ku, qayda qolding, bo'z bola?

Xonga patir kerak, bizga kepak noni,
Yo iloyim, qarg'ishimiz tutgay oni.
El qarg'ishi xonimizga kor qilmasa,
Bizlarga ham xudo bersin bug'doy noni.

Xiva xoni xon bo'lmoqqa yetmasin,
Bu zolim hech niyatina yetmasin.
Qizlarimiz qon yig'ladi dastidan,
Bunday zolim onasinan bitmasin.

[1] Vola – ne balo, nimaga, nima balo?
[2] Xofavand – ayollar taqinchog'i.

Boshing kesilsinu, qoning to'kilsin

Isfandiyor, zolimliging bildirding,
Non o'rniga kunjarani edirding.
Kambag'alni qiynab, boyni kuldirding,
Haddan oshding, zolim! Yoning so'kilsin!
Boshing kesilsinu, qoning to'kilsin!

Nohaq o'lim kalomingda bormikan?
Xudoying tashnami — qonga zormikan?
Sandan yomon zolim yana bormikan?
Haddan oshding, zolim! Yoning so'kilsin!
Boshing kesilsinu, qoning to'kilsin!

Yurtni xarob etding, Isfandiyorxon,
Haybatingga qarab tandin chiqar jon.
Rahm etmayin xalqni qiynading chunon,
Haddan oshding, zolim! Yoning so'kilsin!
Boshing kesilsinu, qoning to'kilsin!

Ko'p qiynading, endi azobing etar,
Xaloyiqning qoni boshingga yetar.
Qora yer o'liging saqlamas, turtur,
Haddan oshding, zolim! Yoning so'kilsin!
Boshing kesilsinu, qoning to'kilsin!

Yumoristik qo'shiqlar

Kampir marjon taqadi

Qarg'alarni qarg'alar,
Shudgorlikda o'rmalar.
Cholini ko'rsa kampirlar
Bedanadek yo'rg'alar.

Oshqovoqning gulidan
Somsa qilgan kampirlar.
Chol buvamiz kelganda,
G'amza qilgan kampirlar.

Daryo lim-lim oqadi,
Oqmasa kimga yoqadi?
Chol buvamga yoqqani
Kampir marjon taqadi.

Oshqovoqning pallasi,
Chol buvamning sallasi.
Kampiri g'amza qilsa,
Qaltiraydi kallasi.

* * *

Yugurib keling, moshova,
Yo'rg'alab keling, moshova.
Moshovaning moshi bor,
Ichida mushtday go'shti bor.
To'g'ragani pichoq yo'q,
Kampirlarga kuyov yo'q.

Moshovani pishirdim,
Pishmay turib tushirdim.
Chol bobomga ichirdim,
Qornini gupday shishirdim...

Bangi

Bangi-bangi, bangi boz,
Bangi yeydi o'rdak, g'oz.
Kim qilsa qattiq ovoz,
Urib o'ldirsa ham oz.
Bangi osmonda uchar,
Es-hushini qochirar.

Ey, bangi, bangi, bangi,
O'lmasdan murda rangi.
Bangi sira boyimas,
Qorni nonga hech to'ymas.

Ko'knori

Ko'knorijon, ko'knori,
Bo'ynida marjon ko'knori.
Pullikka darmon ko'knori,
Pulsizga armon ko'knori.

Bo'yni olmaning savog'i,
Orni achitma qovog'i.
Ichgan odam huzur qilur,
Rangidan sil hazar qilur.

Ko'knorini kim ichadi –
Bola-chaqadan kechadi.
Qovoqlari chaqqan kabi
Basharasi ham shishadi.

Ko'knorilar kayfi o'zga,
Uni paytavada suzsa.
Talashib-tortishib ichar,
Gajjak bo'lib jondan kechar.

Cho'tir va bo'qoq aytishuvi

Cho'tir: - Oxirat bozoriga
Yuk bog'lagan karvon, bo'qoq.
Olti ming g'ishtni pishirgan
Betutun xumdon, bo'qoq.
Bo'qoq: - Arilarning uyasini –
Bet bu, deb aldar cho'tir.
Xuddi chakichlab chekilgan -
Patir, deb guldor, cho'tir.
Cho'tir: - Yelkasiga xurjun osgan
Xurjunida oshqovoq.
Har biri chorak yetilgan,
Mirishkor dehqon, bo'qoq.
Bo'qoq: - Bu kecha qaylarda qolding,
Betlaring itning izi?
Panjara gulgun yuzingdan
Ayladingmi or, cho'tir?..

Daryo lim-lim oqadi,
Oqmasa kimga yoqadi?
Chol buvamga yoqqani
Kampir marjon taqadi.

Oshqovoqning pallasi,
Chol buvamning sallasi.
Kampiri g'amza qilsa,
Qaltiraydi kallasi.

* * *

Yugurib keling, moshova,
Yo'rg'alab keling, moshova.
Moshovaning moshi bor,
Ichida mushtday go'shti bor.
To'g'ragani pichoq yo'q,
Kampirlarga kuyov yo'q.

Moshovani pishirdim,
Pishmay turib tushirdim.
Chol bobomga ichirdim,
Qornini gupday shishirdim...

Bangi

Bangi-bangi, bangi boz,
Bangi yeydi o'rdak, g'oz.
Kim qilsa qattiq ovoz,
Urib o'ldirsa ham oz.
Bangi osmonda uchar,
Es-hushini qochirar.

Ey, bangi, bangi, bangi,
O'lmasdan murda rangi.
Bangi sira boyimas,
Qorni nonga hech to'ymas.

Ko‘knori

Ko‘knorijon, ko‘knori,
Bo‘ynida marjon ko‘knori.
Pullikka darmon ko‘knori,
Pulsizga armon ko‘knori.

Bo‘yni olmaning savog‘i,
Orni achitma qovog‘i.
Ichgan odam huzur qilur,
Rangidan sil hazar qilur.

Ko‘knorini kim ichadi –
Bola-chaqadan kechadi.
Qovoqlari chaqqan kabi
Basharasi ham shishadi.

Ko‘knorilar kayfi o‘zga,
Uni paytavada suzsa.
Talashib-tortishib ichar,
Gajjak bo‘lib jondan kechar.

Cho‘tir va bo‘qoq aytishuvi

Cho‘tir: - Oxirat bozoriga
Yuk bog‘lagan karvon, bo‘qoq.
Olti ming g‘ishtni pishirgan
Betutun xumdon, bo‘qoq.
Bo‘qoq: - Arilarning uyasini –
Bet bu, deb aldar cho‘tir.
Xuddi chakichlab chekilgan -
Patir, deb guldor, cho‘tir.
Cho‘tir: - Yelkasiga xurjun osgan
Xurjunida oshqovoq.
Har biri chorak yetilgan,
Mirishkor dehqon, bo‘qoq.
Bo‘qoq: - Bu kecha qaylarda qolding,
Betlaring itning izi?
Panjara gulgun yuzingdan
Ayladingmi or, cho‘tir?..

Yumoristik to‘rtliklar

Tegirmonu tegirmon,
Tevaragi temirdan.
Ishdan qochgan opamning
Labini sichqon kemirgan.

* * *

Ko‘cha boshida sada,
Sada soyasi qayda?
Ishlamagan yalqovni
Samovar qo‘yishga hayda.

* * *

Uyda yotar dangasa,
Nasga botar dangasa.
Samovarda o‘ltirib,
Gapni sotar dangasa.

* * *

Bog‘da otilgan mushak
Osmonga chiqdi beshak.
Dangasani so‘rasang,
Yomg‘irda qolgan to‘shak.

* * *

Ariq bo‘yida kosa,
O‘ltiradi dangasa.
O‘ynagani tosh bo‘lsa,
Unga tekin osh bo‘lsa.

Tarixiy qo‘shiqlar

Botirxon zulmi (Ernazar shoir)

Botirxon otlanib chiqsa,
Ko‘ring saltanatlarini.

Necha yil qamab yotdi
Kenagas yurtlarini.

Qamay-qamay, alqissa,
Oldi ko'zin o'tlarini.
Tayloqday bo'kirtirib so'ydi
Ne-ne azamatlarini.

Ne-ne yigit g'uchchaq so'ydi
Kenagas parizodlarini.
Yana podshoh, hiylagarlik
Bitib-bitib berdi yorliq.
Ko'p o'zbak bir nonga sotdi
Bitgan yorliq xatlarini.

Xon zulmi

E, yoronlar, birodarlar,
Dunyodan armonli ketdim.
Qarab turgan qiz-juvonlar,
Naylayin, armonli ketdim.

Umrim o'tdi qonlar yutib,
Qabirg'am yerlarga botib.
O'lmadim oyoq uzatib,
Naylayin, armonli ketdim.

Kulbam, ayvonim yiqildi,
Uyimga qora tikildi.
Bolalarim yetim qoldi,
Naylayin, armonli ketdim.

Dunyoda izzat ko'rmadim,
Zavqu safo hech surmadim.
Gunohim nedur, bilmadim,
Naylayin, armonli ketdim.

Ko'rmadim huzur-halovat,
Doim ishim bo'ldi tuhmat,
Boshimda qamchi pata-pat,
Naylayin, armonli ketdim.

Dunyoda emadim barak,
Bolalarim bo'ldi halak.
Rohat bizlarga bedarak,
Naylayin, armonli ketdim.

Emdi mening chiqar jonim,
Oqizdi qirmizi qonim,
Turmoqqa yo'qdir madorim,
Naylayin, armonli ketdim.

Faryod qilmoq vaqti yetdi,
Qamchilar jonimdan o'tdi,
Zolim xon zulmini yetdi,
Naylayin, armonli ketdim.

Ming la'nat

Said Ahmad, toming baland,
Tomingdan ham noming baland.
Yigitlarga qo'l qo'ygan,
Padaringga ming la'nat.

O'zini o'zi chog'lagan,
Belini mahkam bog'lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Baxmal po'stin og'ir deb
Otga solgan Said Ahmad.
"Yigitni biz beramiz", - deb,
Xatga solgan Said Ahmad.

O'zini o'zi chog'lagan,
Belini mahkam bog'lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Suv ichiga cho'p tushdi,
Yigitlar xatga tushdi.
Onasini yig'latib,
Yigitlar yo'lga tushdi.

O‘zini o‘zi chog‘lagan,
Belini mahkam bog‘lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Sandiq ustida bo‘hcha,
Yigitlar guli g‘uncha.
O‘lgir poshsho qo‘ymaydi
Gul bo‘lib ochilguncha.

O‘zini o‘zi chog‘lagan,
Belini mahkam bog‘lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Mavlonbekning ravoti
Ravotida mergani.
Poposhxonlar yig‘laydi:
-Qani dadam kelgani?

O‘zini o‘zi chog‘lagan,
Belini mahkam bog‘lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Nikolay qon jallob

Poyezdingni jildirgan
O‘txonasi bilan do‘ngalagi.
Dvinskka ketishdi
Mard yigitning bir bo‘lagi.

Dvinskka ketmas edi
Mard yigitning bir bo‘lagi.
Dvinskka ketkizgan
Nikolay zolim zambaragi.

Dvinskka yo‘l bo‘lsin,
Qarag‘ayzoring kul bo‘lsin,
Yigitlarni qiynagan
Nikolaying yo‘q bo‘lsin.

Toshkentingizdan minib
To‘p ostida chiqdilar.

Dunyoda emadim barak,
Bolalarim bo'ldi halak.
Rohat bizlarga bedarak,
Naylayin, armonli ketdim.

Emdi mening chiqar jonim,
Oqizdi qirmizi qonim,
Turmoqqa yo'qdir madorim,
Naylayin, armonli ketdim.

Faryod qilmoq vaqti yetdi,
Qamchilar jonimdan o'tdi,
Zolim xon zulmini yetdi,
Naylayin, armonli ketdim.

Ming la'nat

Said Ahmad, toming baland,
Tomingdan ham noming baland.
Yigitlarga qo'l qo'ygan,
Padaringga ming la'nat.

O'zini o'zi chog'lagan,
Belini mahkam bog'lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Baxmal po'stin og'ir deb
Otga solgan Said Ahmad.
"Yigitni biz beramiz", - deb,
Xatga solgan Said Ahmad.

O'zini o'zi chog'lagan,
Belini mahkam bog'lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Suv ichiga cho'p tushdi,
Yigitlar xatga tushdi.
Onasini yig'latib,
Yigitlar yo'lga tushdi.

O‘zini o‘zi chog‘lagan,
Belini mahkam bog‘lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Sandiq ustida bo‘hcha,
Yigitlar guli g‘uncha.
O‘lgir poshsho qo‘ymaydi
Gul bo‘lib ochilguncha.

O‘zini o‘zi chog‘lagan,
Belini mahkam bog‘lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Mavlonbekning ravoti
Ravotida mergani.
Poposhxonlar yig‘laydi:
-Qani dadam kelgani?·

O‘zini o‘zi chog‘lagan,
Belini mahkam bog‘lagan
Nochor ketgan yigitlar.

Nikolay qon jallob

Poyezdingni jildirgan
O‘txonasi bilan do‘ngalagi.
Dvinskka ketishdi
Mard yigitning bir bo‘lagi.

Dvinskka ketmas edi
Mard yigitning bir bo‘lagi.
Dvinskka ketkizgan
Nikolay zolim zambaragi.

Dvinskka yo‘l bo‘lsin,
Qarag‘ayzoring kul bo‘lsin,
Yigitlarni qiynagan
Nikolaying yo‘q bo‘lsin.

Toshkentingizdan minib
To‘p ostida chiqdilar.

Onalari "voy, bolam" deb,
Kafan to'nin bichdilar.

O'txonasini qichqirtirib
Istansaga yurgizdi.
Ko'kterakka yetmasdan
Soz dutorimni sindirdi.

Suv oshini ichmayman,
Etigimni yechmayman.
Qorda qarag'ay kesganman,
Hech haqqimdan kechmayman.

Olib o'tib Odesga
Imoratiga qaratdi.
Tizzamizdan qon so'rib,
O'z foydasiga yaratdi.

O'ng qo'lingda bir qassob,
Cho'chqani so'yadi behisob.
Bizni to'qqiz oy ishlatdi
Nikolay degan qon jallob.

Namoz (Nurmon Abduvoy o'g'li)

Bedov minib sag'risini silatdi,
Murodini bir xudodan tilatdi,
Yaqin dedi Qarshi cho'lin talatdi,
Amir, podshohni taxt ustida yig'latdi.
Hech ko'rmadim Namozday azamatdi.

Kecha-kunduz yurgani dala-dasht bo'ldi,
O'ttiz yigitlarga o'zi bosh bo'ldi.
Nikolayga necha kun kengash bo'ldi,[1]
To o'lguncha Nikolay bilan g'ash bo'ldi,
Namozdayin bir zo'r o'tdi jahonda.

[1] Namozni yo'qotish uchun Nikolay necha kun kengash qilishga majbur bo'ldi, demoqchi.

Namozbek deydilar asil otini,
Dahbet deydi o'sgan viloyatini.
Bir fasl qilayin ta'rifotini,
Gazet bilan eshitib edi Nikolay
Zo'r yig'ladi o'rdadagi xotini.

Burgutdayin qovog'in uygandir,
Bor kuchini bilagiga yiqqandir,
Namoz desa, yotgan boylar uyg'ondi,
To'rt hokimga o'zi tanho tekkandir.
Namozday vallomat o'tdi jahonda.

Oti Namozbekdir, o'zi sher edi,
Qozoq-o'risga och bo'riday doridi.
O'n to'rt bo'lis ushlayolmay daridi,
Namozday qarchig'ay bordir jahonda.

Ostiga mingani uchar qush edi,
Sayr etdi mana bu ikki dashtini.
Shul buzgandir Maxovxona roshini,[1]
Qamoqdan ozod qib aytmish qizini,
Rustam qilolmaydi qilgan ishini,
Namozdayin polvon bordir jahonda.

Savash bo'ldi sozag'anni darasi,
Quvganda ko'rmaydi dushman qorasi.
O'zi Saroy,[2] Avezdayin jo'rasi,
Avezdayin botir bordir jahonda.

Boshiga yarashgan zarrin dastori,
Ko'rganda ketadi dushman eslari.
O'zi qipchoq, Sherniyozday do'stlari,
Sherniyozday arslon bordir jahonda.

Havo yog'sa tog'ning beti tumandir,
Ostiga mingan ot uchqur jiyrondir.
Suv o'rniga oqizdi qizil qonni

[1] Roshini-devorini.
[2] Saroy urug'idan.

Sirgalidan hamroh deydi Jumanni,
Jumandayin polvon bordir jahonda.

Mirshablar uradi sahar dovulni,
Hamroh qildi Davur bilan Qavulni.
So'rab yotir Dahbed bilan Dovulni,
Namozday to'qsoba bordir jahonda.

Ostida o'ynaydi arg'imoq oti,
Oqposhshoga ketgandir ariza xati.
Jilovida Kenjadayin jallodi,
Kenjadayin qonxo'r bordir jahonda.

Samarqand shahrida davron surgandir,
Oldiga solgandir o'ttiz merganni.
Xufton bo'la buzdi Kattaqo'rg'onni,
Hech ko'rmadik Namozdayin sultonni.

Boshiga taqqanni tilla tosh qildi,
Makka bormay, Miyonkolda haj qildi.
Savdogaru jalloblarni bosh qildi,
Namozdayin bir bek o'tdi jahonda.

Termalar

Do'mbiram

Buyog'ing zardolu qopqog'ing tutdan,
Ulfating bor yurtdan bo'lgan, do'mbiram.
Seni menga qilib bergan ustakam,
Elim minan qilgan ekan mustahkam,
Chertganda berasan bulbulday muqom,
Tovushim qanoti bo'lgan, do'mbiram.

Yorib yoqsam biror choydish qaynamas,
Gohi kelsa egang gapni o'ylamas,
Bog' ichinda qumri senga so'ylamas,
Har majlisning guli bo'lgan, do'mbiram.

Boshqa ishning sira bo'lmas poyoni,
Sening ham ishingning yo'qdir ziyoni.

Ikkovimiz qidirdik yoqti dunyoni,
Qarshidan ob qaytding ikki tuyani,
Arg'amchi, qop yuking bo'lgan, do'mbiram.

Ustodim aytgin deb menga buyurdi,
Egang aytib yurgan katta shoirdi.
Tushgan puli bilan oldim govmish siyirdi,
Qatiq, ayron, sutim bo'lgan, do'mbiram.

Bo'yog'ing zardolu, qulog'ing archa,
Chuldirab so'ylasang fayzli kecha,
Orqangdan ergashar xaloyiq necha,
Katta mening siyim bo'lgan, do'mbiram.

Sen yo'q joyda mening yo'qdir ilojim,
Qo'limga olg'ondan keladi avjim.
Xudoyim bergan seni, yorlig'im, tojim,
Doimo bo'lgankan sen kissa xarjim.
Ba'zi vaqtlar hamroh bo'lgan, do'mbiram.

Egang ochib o'qimasdi kitobni,
Tusmol bilan bari bir-biriga bopti.
Ba'zilar aytadi: Muncha gapni qayerdan topti?
Sen shogird, men ustod bo'lgan, do'mbiram.

Yigirma to'rtimda bordim Qarshiga,
Qaytishda bir qo'ndim Beglamushiga.
Doim majlis berding sap terilgan yaxshiga,
Har elatning siyin ko'rgan, do'mbiram.

Egang borar doim chaqirgan joyga,
Poygada qolmayman, o'taman to'rga,
Uch marta borib aytdim Hazrati Nurga,
Mening bilan ulfat bo'lgan, do'mbiram.

* * *

Archalarning ostidan
Archib olgan do'mbiram.
Pistalarning ostidan
Bichib olgan do'mbiram.

Irg‘aylarning ostidan
Irg‘ib olgan do‘mbiram.
Bodomlarning ostidan
Borib olgan do‘mbiram.
Zaranglarning tagidan
Yorib olgan do‘mbiram.
Besh qo‘y bilan o‘n otga
Sotib olgan do‘mbiram.
Egasiga pul bermay,
Tortib olgan do‘mbiram.
Do‘mbiram, seni boqayin,
Boshingga po‘pak taqayin.
Yaxshi so‘ylab chiqmasang,
O‘choqqa qo‘yib yoqayin.
O‘choqdan chiqmaydi hiding,
Bir siqim bo‘lmaydi kuling.
Sotaketsam bozorga,
Nospuli bo‘lmaydi puling.
Tortuvli elning ustidan,
Tortib olgan do‘mbiram.
Qo‘ng‘irot elning ustidan,
Qo‘nib olgan do‘mbiram.
Do‘rmon elning ustidan,
Do‘nib olgan do‘mbiram.
Sen o‘zing torg‘il pista,
Tob esang yo‘nadi usta.
O‘ttiz ikki nag‘mang bor,
So‘zlay ber asta-asta.
Do‘mbiram, sen so‘z bilan
Olib kel qo‘shiqni biz bilan.
Do‘mbiramda ikki tor,
Birini chertsam biri bor.
Besh-olti og‘iz aytayin,
Qo‘shig‘imga quloq sol.
Do‘mbiramning boshi teshik,
Havas bilan aytay qo‘shiq.
Chuldiragan tovushingga
Zulfi qaro qizlar oshiq.
Sozanda bekordir sozi bo‘lmasa,
Ovchilik bekordir tozi bo‘lmasa.
Qiz, kelin bekordir nozi bo‘lmasa,

Yigitlik bekordir yori bo‘lmasa.
El ichida obro‘ topgan do‘mbiram.

* * *

Archalardan archib olgan do‘mbiram,
Pistalardan pichib olgan do‘mbiram.
Daryolardan kechib olgan do‘mbiram,
Bodomlardan borib olgan do‘mbiram.
Tollardan tanlab olgan do‘mbiram,
Ko‘p ichidan saylab olgan do‘mbiram.
Biron joyga to‘yga borsak ikkimiz,
Mendan oldin to‘rga o‘tgan do‘mbiram.
Kel, do‘mbiram, kengashaylik,
Bir ot minib mingashaylik,
Baland tog‘lardan oshaylik.
Qarindoshlar chaqiribdi,
Qidirib suhbat qo‘shaylik.
So‘yla, sozim, qoyim-qoyim,
Qalin to‘shak mening joyim.
Tovushingni eshitganda
Quloq soldi necha oyim.
Ne go‘zalga oshno qilgan do‘mbiram.
Bu kosangni Cho‘pon ota uygandir,
Qopqog‘ingni Zangi bova qo‘ygandir.
Bu toringni Momo Havo eshgandir,
Qulog‘ingni noumid shayton teshgandir.
Shu sababdan gumburlagan do‘mbiram.
So‘yla, do‘mbira, boqayin,
Boshingga po‘pak taqayin.
Har majlisda ko‘pni ko‘ynin olmasang,
Sindirib olovga yoqayin.
G‘ang‘ir-g‘ang‘ir, g‘ang‘ir g‘ozim,
Qo‘limdagi laqay sozim.
Charchaganday bo‘ldim o‘zim,
Yetishmaydi aytgan so‘zim.
Qizil do‘mbiram buyog‘i
So‘zimga so‘z qo‘shgan do‘mbiram.
Yog‘ochdir saqti siyog‘i
Har shaharni ko‘rib kelar.

Yo‘q bo‘lganda ham oyog‘i
Tog‘u toshni yurib kezgan do‘mbiram.

Nima aytay?

Chorrahadan Chambil solgan,
Qirq yigiti yig‘ilib kelgan,
Har yurtlardan boshin olgan,
Keng maydonda korvon bo‘lgan,
To‘rt yarim lak tuman eldan
Aytaymi Go‘ro‘g‘li bekdan?

Baland tog‘larning qori,
Ketmasin nomusi, ori.
Bosh bo‘b o‘tdi Ahmad dalli,
Ahmad dallidan aytaymi?

Kiygan to‘nlari munosib,
Yag‘rinini sovut bosib,
G‘azot kuni kalla kesib.
Mardlik bilan ko‘ngli o‘sib
Bosh bo‘b o‘tdi Ravshan, Yusuf,
Yusufxondan aytaymi?

Tog‘ boshini bosar tuman,
Har ish bo‘ladi begumon.
Ot belgiga mingan so‘ng,
Bo‘lar edi oxirzamon.
Bek bo‘lib o‘tdi Qoraxon,
Qoraxondan aytaymi?

Mingan oti to‘buchoq,
Dastalari bor bir quchoq.
Bir oti bor to‘qson beshda
Haliyam sini qilinchoq.
Bek bo‘b o‘tdi Shodmon quchchoq
Shodmonbekdan aytaymi?

Har ish bo‘lsa oson ko‘rgan,
Nishonani poylab ilgan,

Obod bo'ldi Chambil qo'rg'on.
O'n ming kishiga bosh bo'lib
Bek bo'b o'tdi Toshbek turkman,
Toshbekxondan aytaymi?

Eshagini hangratgan,
Kaltagini sudratgan,
Chatirtepadan o'q otgan,
O'qi Ho'rtanga botgan
So'rab o'tdi Hasan polvon,
Hasanxondan aytaymi?

O'n beshida oyday to'lgan,
Olmosini belga solgan,
Go'ro'g'liga xizmat qilgan,
Qirq yigitni girdiga olgan,
So'rab o'tdi Avaz polvon,
Avaz polvondan aytaymi?

* * *

Chambilbelning katta tog'i palabon,
Olamga mashhurdir Go'ro'g'li sulton,
Go'ro'g'lidan aytayinmi bir suxan?

Chambilbelda oti bo'ldi namoyon,
Mullabachcha erdi hofizi qur'on,
Suyangan o'g'lining oti Avazxon,
Avazxondan aytayinmi bir suxan?
Chambilda bek bo'lib o'tgandi Darxon,
Ovozasi ketgan edi Hasanxon,
Dushman ko'rgan yerda o'chini olgan
Hasanxondan aytayinmi bir suxan?
Er yigitlar yovdan olar o'chini,
Yovni ko'rsa to'kar bari kuchini,
Xoldor deydi yigitlarning norini,
Xoldorxondan aytayinmi bir suxan?

Avazning bir yo'li – Gulixiromon,
Shunga ham buyurdi Go'ro'g'li sulton,

Qabul qildi o'n oltida Avazxon
Xiromondan aytayinmi qadrdon?

Ot chopganda mardlar olar orini,
Alp ataydi polvonlarning zo'rini.
Yo aytaymi Zulfizarday parini?
Zulfizardan aytayinmi bir so'zni?

Yugurik ot darkordir doining beliga,
Maydonda o'ynatadi dirka-dirka.
Zangor yurtda o'ynab o'sgan Xolbika,
Xolbikadan aytayinmi bir so'zni?

Aqldorga ollo berar davlatni,
To'fon qilib o'tgan olqor elatni.
Qiymavutga o'tgan yakka Ahmadni,
Ahmadxondan aytayinmi bir so'zni?

Haq o'zidir bandalarga mehribon,
Oltmish ikki yoshgacha ko'rmadi o'g'lon,
Bir dostonning oti edi Odilxon,
Odilxondan aytayinmi bir doston?

"Xasxona" der asl uning yerini,
O'qish minan burro qilgan tilini,
Ta'rif bersam unday Orzigulini,
Orziguldan aytayinmi bir suxan?

Qoraxonning bordi uchta buvisi,
Oltmish to'rtta haqqa yetti nolishi,
Duo qildi kelib bir soyil kishi,
Undan keyin bo'ldi ikkita yoshi,
Er o'g'il, Sher o'g'lidan aytayinmi bir suxan?

Ravshanxon jahonda bo'ldi bir o'g'lon,
Qiziga loyiq ko'rmadi Avazxon.
Zangor elga talab qilgan Ravshanxon,
Ravshanxondan aytayinmi bir suxan?

Aytgan dostonlarim barin bilaman,
Maslahatni men sizlarga qilaman.

Qaysisini xohlasangiz, aytib beraman,
Semizidan ushlangizlar, shovvozlar,
Orig'ini yana boqib kelaman.

O'git-nasihatlar

Baland tog'lar pay ko'rinar,
Teskayida qori bo'lsa.
Qush qiyoga ucholmaydi,
Sayyodlarning to'ri bo'lsa.
Qo'y yoyilib chiqolmaydi,
Chobutida bo'ri bo'lsa.
Yerda giyo tebranmaydi,
Shoxosida doni bo'lsa.
Yosh bolalar etim qolar,
Peshonada sho'ri bo'lsa.
Qiz bolalar kuyib o'tar,
Olgan yori qari bo'lsa.
Hangomasi soz kelmasmi –
Har kimning tengquri bo'lsa?
Yigit ko'ngli shod bo'lmasmi-
Olgan yori yosh bo'lsa?
Suluvlarga yarashmasmi-
Oq yuzining xoli bo'lsa?
Yigit xalqi xushro'y bo'lar,
Qizil yuzda xoli bo'lsa.
Cho'ponlarga guduk bo'lar,
To'rvasida noni bo'lsa,
Abzal solsak yarashmasmi-
Mingan oti to'riq bo'lsa?
Boybichchalar to'yda turar,
Xizmatingda cho'ri bo'lsa.
Fuqarolar tinch bo'lmasmi –
Bosh rahbari odil bo'lsa?
Suluv qizlar chiqa olmaydi,
Ko'ngil bergan yori bo'lsa.
Oq o'tovga yarashmasmi-
Oq ipakdan bog'i bo'lsa?
Karvonlar ham shod bo'lmasmi –
Yetovida nori bo'lsa?

Qabul qildi o'n oltida Avazxon
Xiromondan aytayinmi qadrdon?

Ot chopganda mardlar olar orini,
Alp ataydi polvonlarning zo'rini.
Yo aytaymi Zulfizarday parini?
Zulfizardan aytayinmi bir so'zni?

Yugurik ot darkordir dolning beliga,
Maydonda o'ynatadi dirka-dirka.
Zangor yurtda o'ynab o'sgan Xolbika,
Xolbikadan aytayinmi bir so'zni?

Aqldorga ollo berar davlatni,
To'fon qilib o'tgan olqor elatni.
Qiymavutga o'tgan yakka Ahmadni,
Ahmadxondan aytayinmi bir so'zni?

Haq o'zidir bandalarga mehribon,
Oltmish ikki yoshgacha ko'rmadi o'g'lon,
Bir dostonning oti edi Odilxon,
Odilxondan aytayinmi bir doston?

"Xasxona" der asl uning yerini,
O'qish minan burro qilgan tilini,
Ta'rif bersam unday Orzigulini,
Orziguldan aytayinmi bir suxan?

Qoraxonning bordi uchta buvisi,
Oltmish to'rtta haqqa yetti nolishi,
Duo qildi kelib bir soyil kishi,
Undan keyin bo'ldi ikkita yoshi,
Er o'g'il, Sher o'g'lidan aytayinmi bir suxan?

Ravshanxon jahonda bo'ldi bir o'g'lon,
Qiziga loyiq ko'rmadi Avazxon.
Zangor elga talab qilgan Ravshanxon,
Ravshanxondan aytayinmi bir suxan?

Aytgan dostonlarim barin bilaman,
Maslahatni men sizlarga qilaman.

Qaysisini xohlasangiz, aytib beraman,
Semizidan ushlangizlar, shovvozlar,
Orig'ini yana boqib kelaman.

O'git-nasihatlar

Baland tog'lar pay ko'rinar,
Teskayida qori bo'lsa.
Qush qiyoga ucholmaydi,
Sayyodlarning to'ri bo'lsa.
Qo'y yoyilib chiqolmaydi,
Chobutida bo'ri bo'lsa.
Yerda giyo tebranmaydi,
Shoxosida doni bo'lsa.
Yosh bolalar etim qolar,
Peshonada sho'ri bo'lsa.
Qiz bolalar kuyib o'tar,
Olgan yori qari bo'lsa.
Hangomasi soz kelmasmi –
Har kimning tengquri bo'lsa?
Yigit ko'ngli shod bo'lmasmi-
Olgan yori yosh bo'lsa?
Suluvlarga yarashmasmi-
Oq yuzining xoli bo'lsa?
Yigit xalqi xushro'y bo'lar,
Qizil yuzda xoli bo'lsa.
Cho'ponlarga guduk bo'lar,
To'rvasida noni bo'lsa,
Abzal solsak yarashmasmi-
Mingan oti to'riq bo'lsa?
Boybichchalar to'yda turar,
Xizmatingda cho'ri bo'lsa.
Fuqarolar tinch bo'lmasmi –
Bosh rahbari odil bo'lsa?
Suluv qizlar chiqa olmaydi,
Ko'ngil bergan yori bo'lsa.
Oq o'tovga yarashmasmi-
Oq ipakdan bog'i bo'lsa?
Karvonlar ham shod bo'lmasmi –
Yetovida nori bo'lsa?

Yigit vaqti xush bo'lmasmi –
Olgan yori pari bo'lsa?
Podsho zolim tortar dorga,
Uch yog'ochdan dori bo'lsa.

* * *

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Odam bo'lgan bilan barin teng dema.
Yo maktabni, yo majlisni ko'rmasa,
Tuya bo'lgan bilan bari nor dema.
Ikki botmon ustida yuki bo'lmasa,
Boy bo'lganman barin birday boy dema.
Uning qo'lida xayri saxovat bo'lmasa,
Xotin bo'lgan bilan barin teng dema,
Labda boli, betda xoli bo'lmasa.

Och qolganda zog'ora non qand bo'lar,
Charchaganda eshak ham bo'lsa, ot bo'lar.
Mulla bo'lsang – qalam bilan xat bo'lar,
Mehr qochsa, qarindosh ham yot bo'lar.

Po'lat, temir yer tagida yotarmi?
Egov bo'lmay yomon temir o'tarmi?
Sherik bo'lsang – bir mard bilan birga yur,
O'zi o'lmay seni tashlab ketarmi?

Xira bo'lib tuqqan oydan,
Suv oqmagan katta soydan,
Bezakot xayrsiz boydan,
O'tsiz, suvsiz qolgan tilla saroydan
Kir demagan uzrli tom yaxshidir

Og'a-ining qadringga yetmasa,
"Sen og'a!" – deb jilovingdan tutmasa,
Eling sening izzatingni yetmasa,
Bir boshingni olib ketgan yaxshidir.

Dunyoning aslini bilgin, ko'hnadir,
Aqllini bilgan odam donodir.
Zarkokilli misli o'tday yonadir,

Yigitning ustozi ota-onadir.
Bu dunyosi bir kaptarxonadir,
Biri-uchsa, biri kelib qo'nadir.

Bir ot olsang, nazarkarda boydan ol,
Quyruq kesdi bir o'spirin toydan ol.
Kattarguncha fe'lin sinab minarsan,
Bir yor olsang, qizning sarasini ol.
O'sma qo'ysa, yarashadi, ko'rarsan,
Tan mahraming ko'rgan sari suyarsan.
Sira olma yorning noqobilini,
Ko'ra-bila ho'l tezakday kuyarsan.

* * *

Qo'lingdagi urgan sozni
Ko'kragida tor keltirar.
Havo bo'ylab so'ylamoqda,
Bu yog'ida bor keltirar.
Beme'yor og'ir yukni
Bo'rivoyli nor keltirar.
Boshingdagi mushkul ishni
Oltin, kumush, zar keltirar.
Ro'zg'oringda bo'lsa zaif
Davlat ketmas sendan toyib,
Dasturxoning tursa yoyib.
Keling, keting munday ishni
Sohibaql yor keltirar.
So'zni so'zga ulamoqni
Ko'makayda til keltirar.
Peshonangda bo'lsa xoling,
O'g'ling bo'lsa endi olim,
Maktabga bersang ertalab,
Ustozidan olib ta'lim.
Bir qog'ozga xat keltirar,
Ko'krakdan kelgan ovozni
Qo'limdagi soz keltirar.
Yomonga bersang omonat,
Yarmini yeb, oz keltirar.
Olgan yoring yaxshi bo'lsa,
Noz ustiga noz keltirar.

Qahrlanib bo'lsang xafa,
Magar qilsa senga vafo,
Miyig'ida sekin kulib,
Achchig'ini past keltirar.
Qamishquloq bedov otni
Turkman eldan yuz keltirar.
Bir mard bilan yursang birga,
Qator tuya zar keltirar.
Yomon bilan yursang birga,
Doim senga or keltirar.
Qo'rqoq bilan sira yurma,
Keng dalani tor keltirar.

* * *

Ul bo'lsin, qizlar, ul bo'lsin,
Olgan xarjingiz mo'l bo'lsin.
To'planishib yurgan qizlar,
Sizlarga endi yo'l bo'lsin?

Alpinchoqli, talpinchoqli,
Bo'yni to'la zar munchoqli,
Xipchamiyon,[1] keng quchoqli,
Qizlarim, sizga yo'l bo'lsin?

Nozik – o'zing, beling - xipcha,
Yegningga yarashib nimcha,
Qizlarning tozasi senga,
Qizlarim, sizga yo'l bo'lsin?

O'n to'rt yoshdadir kamoling,
Oydan ravshandir jamoling,
Boshingda qimmat ro'moling,
Qizlarim, sizga yo'l bo'lsin?

Qo'llaringda qo'sha uzuk,
Bilagingda bilakuzuk,
Bir-biringdan biring tuzuk,
Qizlarim, sizga yo'l bo'lsin?

[1] Shevada. Aslida ximcha.

Tomog'ingda qora nozik,
Xonazodsan, bo'yning o'zik.
Labzing shirin, ko'zing suzik,
Qizlarim, sizga yo'l bo'lsin?

Uyingizda bordir xurma,
Kiygan ko'ylaklaring burma.
Sizga muncha yarashibdi
Ko'zingizga qo'ygan surma.
Qizlarim, sizga yo'l bo'lsin?

Eson bo'lsin bu boshlaring,
Oqmay ko'zingdan yoshlaring,
O'sma qo'ysang yarashadi,
Chakkangga yetgan qoshlaring.
Qora qosh qizlar, yo'l bo'lsin?

* * *

Yigitning bo'lsa oshi,
Birov, ko'zi, birov — qoshi.
Er yigitdan qaytsa davlat,
Dushman bo'lar emgakdoshi.
Ma'qul so'zli, keng quchoqli
Dilbar yor darkor yigitga.

Uyning oldi yakka terak,
Kiyganingiz adras ipak.
To'shdan oqqan qo'shabuloq
Ega darkordir yigitga.

Ota degan davlat boshi,
Xotin degan ko'ngil xushi.
Og'sa tarozining boshi,
Bir onadan emgakdoshi —
Aka ham darkor yigitga.

Qirq kun boqsang bir kun yarar,
Qayg'udan boshing qutqarar.
Otdir ham yigit yo'ldoshi.

Ko‘rib-ko‘rib quvonmoqqa,
Tayoqdayin suyanmoqqa,
O‘lsang – izingni bosmoqqa,
O‘g‘il darkordir yigitga.

Avval-avval, avval boshdan
Davlat kerakdir yigitga.
Davlat muyassar bo‘lgan so‘ng,
G‘ayrat ham kerakdir yigitga.
Yigit shuldir – xatosidan,
Tavba qilsa – gunohidan.

Kunlarim
(Go‘ro‘g‘li tilidan)

Paydo bo‘ldim ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchdim manzilxonadan,
Go‘r ichida paydo bo‘ldim enadan,
Go‘r ichinda paydo bo‘lgan kunlarim.

Bulbul oshna bo‘lar bog‘ning guliga,
Quloq soling Go‘ro‘g‘lining tiliga,
To‘rt yosho‘imda kelib Rustam[1] qo‘liga,
Odamzod ichiga kelgan kunlarim.

Armon bilan bilmaganin bildirib,
Hasrat bilan ichin g‘amga to‘ldirib,
Badkirni[2] olti yoshimda o‘ldirib,
Uni erman yakson qilgan kunlarim.

Iqbol bersin har bir suygan quliga,
Kuysin o‘lim, kim chidaydi hiliga.
O‘n yoshimda kelib Yovmit eliga,
Elatning ichiga kelgan kunlarim.

G‘anim bo‘lsa, zor qaqshatib, jilatib,
Xafa qilib, g‘amin g‘amga ulatib,

[1] Rustam asli taka –Yovmitdan bo‘lib, dushman yurtida Go‘ro‘g‘lini chaqaloqligida olib tarbiyalagan cho‘pon.
[2] Badkir – bosqinchi dushman podshosining katta bir amaldori.

Rayhondan G'irko'k otim to'latib,
Arabga yangasin "bergan" kunlarim.[1]

Qabul qildim erkaklarning so'zini,
Minib emdi G'irko'k asbi tozini,
Rayhonning Zaydinoy otli qizini
Ko'kbuloqdan olib qochgan kunlarim.

Qirq yigitni Chambilbelga jiydirib,
Oltin piyolaga maylar quydirib,
Sarpoga silovsin to'nlar kiydirib,
Chambilbelda davron surgan kunlarim.

Oh dedim, mudomo ko'nglim o'sdi,
Siltadim, qilichim g'animni kesdi.
Ko'hi Qofdan olib keldim Yunusdi,
Qora devman qon to'kishgan kunlarim.

Daryoda yuzganlar kema ham soldi(r),
Bedovga yarashgan quyruq ham yoldi(r).
Bog'i iramdan olib keldim Misqoldi,
Parilarman o'ynab-kulgan kunlarim.

G'irotim qaytmaydi g'o'non tobidan,
O'n to'rt marta oshdim Balo tog'idan.
Ikki pari oldim Ko'hi Qofidan,
Dunyodan bemurod o'tgan kunlarim.

Qirq yigitga ko'targanman kosamni,
Kim biladi mening tortgan g'ussamni?
Vayangandan olib keldim Hasanni,
Temirshohni zor yig'latgan kunlarim.

Maydon-maydon G'irotimni yeldirdim,
G'anim bo'lsa mayda-mayda bo'ldirdim.

---

[1] "Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi" dostonida aytilishicha, Go'ro'g'li yosh vaqtida o'zi emib katta bo'lgan biyadan tug'ilgan urg'ochi qulunni Xuroson ko'li yonida boqib yurganda, arablar podshosi Rayhon Go'ro'g'lining yangasi (tog'asi Ahmad Sardorning xotini) Xoljuvonni olib qochib ketish uchun keladi. Go'ro'g'li uning otidan biyasini qochirib oladi. Bu vaqt Rayhon Go'ro'g'lini aldab, hiyla bilan Xoljuvonni olib qochadi. Bu satrlarda ana shu voqeaga ishora qilinayotir.

Bol Avazni Gurjistondan keltirib,
Xunxorshohni zor yig'latgan kunlarim.

Chambilbelni obod qilib, el qilib,
Qirq yigitga in`om-ehson mo'l qilib,
Ilik berib, ikkovini ul qilib[1],
Shul ikkovin o'g'lim degan kunlarim.

Maydon bo'lsa mindim G'irko'k otimni,
Dushmanga qo'ymadim, oldim lotimni.
Obod qildim Chambil viloyatimni,
To qiyomat o'chirmaslar otimni,
Otim o'chmas, hech kim aytmas zotimni,
Dunyodan bezuryod o'tgan kunlarim.

Go'ro'g'li der men ham sencha bor edim,
Boshimni xatabga urgan nor edim,
Yoshim ketdi, Bo'zo'g'londay qaridim,
Zimistonda yoqqan qorday eridim.

O'z vaqtimda har na desam, der edim,
Tanho o'zim katta yovga doridim.
Meni bilsang, bir atoqli er edim,
Qattiq-qistov kunlar bo'lsa, sher edim,
Qorni chaynab, muzni purkkan kunlarim.

Bu gaplarni aytdi Chambilning shoyi,
Bepilik yonarmi chiroqning moyi?
Qariganda farzand gadoyi,
Bebahra bo'lib parilar hamroyi,
Quloch urib, quruq qolgan kunlarim.

---

[1] Avaz bilan Hasanni asrandi o'g'il qilib olganligini aytayotir. Urf-odatga ko'ra, o'tmishda katta to'y-yig'in qilib, asrandi bolalarni xaloyiq o'rtasiga olib chiqib, qo'liga ilik berib, farzand qilib olinar edi. Mazkur satrlarda ana shu udumga ishora qilingan.

XALQ PAREMIK IJODI

Maqollar

Vatan va vatanparvarlik haqida

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.

* * *

Ona yurting–oltin beshiging.

* * *

Ona yurting omon bo'lsa,
Rangi ro'ying somon bo'lmas.

* * *

Vatan gadosi–kafan gadosi.

* * *

Begona tuproq–devona tuproq.

* * *

Yovdan qo'rqqan–yovga do'st,
Elni suygan–erga do'st.

* * *

Yer davlati–elida.

Do'stlik, ahillik va xudbinlik haqida

Ayrilganni ayiq yer,
Bo'lingann bo'ri yer.

* * *

Arg'amchiga qil quvvat.

* * *

Aqlli do'st–rohat,
Aqlsiz do'st–ofat.

* * *

Bir mayizni qirq kishi bo'lib yer.

* * *

Birlashgan o'zar,
Birlashmagan to'zar.

* * *

Boylik–boylik emas,
Birlik–boylik.

* * *

Do‘st yuzidan bilinar,
Dushman–izidan.

* * *

Do‘stsiz boshim–tuzsiz oshim.

* * *

Kuch–birlikda.

Mehnat, mehnatsevarlik, ishyoqmaslik va tekinxo‘rlik haqida

Arpa ekan arpa o‘rar,
Bug‘doy ekan–bug‘doy.

* * *

Baxt–yalqovga begona.

* * *

Bekorchining beti yo‘q,
Qozon osar eti yo‘q.

* * *

Birovning oshiga qaragan och qolar.

* * *

Bugungi ishni ertaga qo‘yma.

* * *

Gap bilguncha, ish bil.

* * *

Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam,
Odam–mehnati bilan.

* * *

Dehqonning xazinasi–yer,
Uning kaliti–ter.

* * *

Yer yuzini er ochar,
Er yuzini–yer.

* * *

Tekinxo‘r qopib yeydi,
Mehnatkash topib yeydi.

* * *

Halol mehnat– mo‘l daromad.

Ilm, kasb-hunar va ilmsizlik haqida

Avval o'rgan, keyin o'rgat.

* * *

Aql ko'pga yetkazar,
Hunar ko'kka.

* * *

Bilim—aql chirog'i.

* * *

Bilimsiz birni yiqar,
Bilimli mingni.

* * *

Bilmaganini so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

* * *

Bir yigitga qirq hunar oz.

* * *

Yoshlikda bilgani—toshga yozgani,
Qarilikda bilgani—muzda yozgani.

* * *

Ilm olish-igna bilan quduq qazishga teng.

* * *

Ilmsiz bir yashar,
Ilmli ming yashar.

* * *

Hunar bilan ilmning o'g'risi yo'q.

Donolik va nodonlik haqida

Avval o'yla, keyin so'yla.

* * *

Aql aqldan quvvat olar.

* * *

Aql yoshda emas, boshda.

* * *

Aqli kalta pand yeydi,
Aqli teran qand yeydi.

* * *

Aqlli otini maqtar,
Ahmoq—xotinini.

* * *

* * *

Do‘st yuzidan bilinar,
Dushman–izidan.

* * *

Do‘stsiz boshim–tuzsiz oshim.

* * *

Kuch–birlikda.

Mehnat, mehnatsevarlik, ishyoqmaslik va tekinxo‘rlik haqida

Arpa ekan arpa o‘rar,
Bug‘doy ekan–bug‘doy.

* * *

Baxt–yalqovga begona.

* * *

Bekorchining beti yo‘q,
Qozon osar eti yo‘q.

* * *

Birovning oshiga qaragan och qolar.

* * *

Bugungi ishni ertaga qo‘yma.

* * *

Gap bilguncha, ish bil.

* * *

Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam,
Odam–mehnati bilan.

* * *

Dehqonning xazinasi–yer,
Uning kaliti–ter.

* * *

Yer yuzini er ochar,
Er yuzini–yer.

* * *

Tekinxo‘r qopib yeydi,
Mehnatkash topib yeydi.

* * *

Halol mehnat– mo‘l daromad.

Ilm, kasb-hunar va ilmsizlik haqida

Avval o'rgan, keyin o'rgat.

* * *

Aql ko'pga yetkazar,
Hunar ko'kka.

* * *

Bilim—aql chirog'i.

* * *

Bilimsiz birni yiqar,
Bilimli mingni.

* * *

Bilmaganini so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

* * *

Bir yigitga qirq hunar oz.

* * *

Yoshlikda bilgani—toshga yozgani,
Qarilikda bilgani—muzda yozgani.

* * *

Ilm olish-igna bilan quduq qazishga teng.

* * *

Ilmsiz bir yashar,
Ilmli ming yashar.

* * *

Hunar bilan ilmning o'g'risi yo'q.

Donolik va nodonlik haqida

Avval o'yla, keyin so'yla.

* * *

Aql aqldan quvvat olar.

* * *

Aql yoshda emas, boshda.

* * *

Aqli kalta pand yeydi,
Aqli teran qand yeydi.

* * *

Aqlli otini maqtar,
Ahmoq—xotinini.

* * *

Bo‘ydoqning aqli—ikki ko‘zida.

* * *

Gado arazlasa to‘rvasiga ziyon.

* * *

Donoga ish—shonu shuhrat,
Nodonga ish—g‘amu kulfat.

* * *

Johil ulfat—boshingga kulfat.

* * *

Onangni otangga yomonlama,
Do‘stingni—dushmanga.

Yaxshi so‘z, yaxshilik va yomonlik haqida

Achchiq til—zahri ilon,
Chuchuk tilga jon qurbon.

* * *

Birovning so‘zi yaxshi,
Birovning o‘zi.

* * *

Yomon bilan yurdim—qoldim uyatga,
Yaxshi bilan yurdim—yetdim niyatga.

* * *

Yomon og‘izga—tosh,
Yaxshi og‘izga—osh.

* * *

Yomonning tili bor,
Yaxshining dili bor.

* * *

Oltin yerda qolmas,
Yaxshilik—yo‘lda.

* * *

So‘zdan so‘zning farqi bor
O‘ttiz ikki narxi bor.

* * *

Yaxshi so‘z—ko‘ngil podshosi.

* * *

O‘zi yuzsiz—so‘zi tuzsiz.

* * *

Havas qilgan yetar,
Hasad qilgan yitar.

Kamtarlik va manmanlik haqida

Avval o‘zingga boq,
So‘ngra nog‘ora qoq.

* * *

Arzimaydi shavlasi,
Kuydiradi g‘alvasi.

* * *

Dimog‘dorga bir gap—oz,
Ikki gap—ko‘p.

* * *

Kamtar bo‘lding-gavhar bo‘lding.

* * *

Kamtarga—kamol,
Manmanga—zavol.

* * *

Maqtanchoq-quruq po‘choq.

* * *

Egilgan boshni qilich kesmas.

Mardlik, botirlik va qo‘rqoqlik haqida

Baland tog‘da qor bo‘lar,
Er yigitda or bo‘lar.

* * *

Baliqning kuni ko‘l bilan,
Botirning kuni el bilan.

* * *

Bir boshga-bir o‘lim.

* * *

Botirdan o‘lim qo‘rqar.

* * *

Va’daga vafo—mardning ishi,
Va’dasiz— subutsiz kishi.

* * *

Yigit so‘zidan qaytmas,
Arslon—izidan.

* * *

Mard o‘zar, nomard to‘zar.

* * *

Nomardning xotini bo‘lguncha,

Mardning bevasi bo'l.

To'g'rilik va egrilik haqida

To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'lasan,
Egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'lasan.

* * *

To'g'ri do'stdan ayrilma.

* * *

To'g'ri oshini yer,
Egri—boshini.

* * *

To'g'rilikka o'lim yo'q.

* * *

Egri kishining soyasi ham egri.

* * *

Qing'ir ish—qirg'in ish.

* * *

Qing'ir ishning qiyig'i,
Qirq yildan keyin chiqar.

* * *

Qulf o'g'ri uchun,
Mehr to'g'ri uchun.

Rostgo'ylik va yolg'onchilik haqida

Bir so'zlikning yuzi yorug',
Munofiqning yuzi choriq.

* * *

Yolg'on aytib foyda ko'rsang
Oxiri zarar toparsan,
Rost aytib zarar ko'rsang
Oxirida foyda toparsan.

* * *

Yolg'onchining guvohi—qasam.

* * *

Rostga zavol yo'q.

* * *

To'g'ri so'z tuqqaningga yoqmas.

* * *

To'g'ri so'z tosh yorar,

Egri so‘z—bosh.

* * *

Yov makrini yolg‘on yashirar.

Hushyorlik va ehtiyotsizlik haqida

Aytilgan so‘z—otilgan o‘q.

* * *

Bozor ko‘rgan echkidan qo‘rq.

* * *

Bo‘yiga qarama, o‘yiga qara.

* * *

Bo‘rini ayasang, seni talar.

* * *

Dushmanning kulgani-siringni bilgani.

* * *

Yomg‘irda ot tanlama,
Hayitda—qiz.

* * *

Kelinni kelar yili sina.

* * *

Kichkina demang bizni,
Ko‘tarib uramiz sizni.

* * *

Kulma qo‘shningga,
Qaytib kelar boshingga.

* * *

Ko‘za kunda sinmas,
Kunida sinar.

Tadbirkorlik, tajribakorlik va kaltabinlik haqida

Arzimas qozonning kuyasi bo‘lma.

* * *

Bir ko‘rgan ming eshitgandan yaxshi.

* * *

Bolaga ish buyur,
Ketidan o‘zing yugur.

* * *

Yetti o‘lchab bir kes.

* * *

Kerakli toshning og'irligi yo'q.

* * *

Onangni otangga bepardoz ko'rsatma.

* * *

Sichqonning o'lgisi kelsa,
Mushuk bilan o'ynashar.

* * *

O'ylamay qilingan ish
Boshga keltirar tashvish.

Saxiylik, ta'magirlik, ochko'zlik va baxillik haqida

Saxiyning qo'li ochiq,
Qo'li ochiqning yo'li ochiq.

* * *

Bor borini yeydi,
Uyatsiz orini.

* * *

Yeb to'ymagan—yalab to'ymas.

* * *

Yema, ichma, bo'l baxil,
Boy bo'lmasang, men kafil.

* * *

Kambag'al saxiy bo'lar,
Boy—baxil.

* * *

Keng bo'lsang—kam bo'lmaysan.

* * *

Kunda yegan—suq,
Oyda yegan—to'q.

* * *

Ochko'zni tuproq to'ydirar.

Mehmon va mehmondo'stlik haqida

Aytmagan yerga—yo'nilmagan tayoq.

* * *

Mehmon kelar eshikdan,
Rizqi kelar teshikdan.

* * *

Mehmon otangdan ulug'.

* * *

Mehmon so‘rab emas.

* * *

Mehmonga osh qo‘y,
Qo‘lini bo‘sh qo‘y.

* * *

Uying tor bo‘lsa ham,
Ko‘ngling keng bo‘lsin.

* * *

Qo‘nguncha qo‘noq uyalar,
Qo‘ngandan keyin uy egasi.

* * *

Qo‘noqning kuni uch,
Uch kundan so‘ng puch.

Adolat, insof va insofsizlik haqida

Adovat emas, adolat yengar.

* * *

Adolat qilichi keskir bo‘lar.

* * *

Aytsam tilim kuyadi,
Aytmasam dilim.

* * *

Insofsiz—iymonsiz.

* * *

Insofsizga erk bersang, elni talar.

* * *

Ko‘r bo‘lsang ham ko‘rnamak bo‘lma.

* * *

Suvning oqishiga qara,
Xalqning xohishiga qara.

Qadr-qimmat, izzat-hurmat va qadrsizlik haqida

Aytgan joydan qolma,
Aytmagan joyga borma.

* * *

Bir kun suv ichgan joyingga
Qirq kun salom ber.

* * *

Bor—boricha,
Yo'q holicha.

* * *

Kattaga hurmatda bo'l,
Kichikka izzatda bo'l.

* * *

Ota bo'lmay—ota qadrini bilmas,
Ona bo'lmay—ona qadrini.

* * *

Ot oriqlikda ko'rimsiz,
Qiz-yetimlikda.

* * *

Suymaganga suykanma.

* * *

Tanimasni siylamas.

* * *

Yaxshi qiz-yoqadagi qunduz,
Yaxshi yigit-ko'kdagi yulduz.

* * *

Qadrlasang, qadring oshar,
Qadrsizdan hamma qochar.

Muhabbat, vafo va bevafolik haqida

Ahdi borning baxti bor.

* * *

Vafosizda hayo yo'q,
Hayosizda vafo yo'q.

* * *

Jon kuydirmasang-jonona qayda?
Toqqa chiqmasang-do'lona qayda?

* * *

Ishqi yo'q — eshak,
Dardi yo'q—kesak.

* * *

Yigit mehri — ko'zida.

* * *

Suluv—suluv emas,
Suygan—suluv.

* * *

Sevgi qarimas.

* * *

O‘ntaning yor—yori bo‘lguncha,
Bittaning vafodori bo‘l.

* * *

Husn to‘yda kerak,
Muhabbat kunda.

Oila, farzand va qo‘shnichilik haqida

Ayolning sarishtasi—
Ro‘zg‘orning farishtasi.

* * *

Bir kun urush bo‘lgan uydan
Qirq kun baraka ketar.

* * *

Bolalik uy — bozor
Bolasiz uy— mozor.

* * *

Boshing ikki bo‘lmaguncha,
Moling ikki bo‘lmas.

* * *

Bo‘ldiradigan ham xotin,
O‘ldiradigan ham xotin.

* * *

Gung qizning tilini enasi tushunar.

* * *

Davlating—ota-onang,
Savlating—o‘g‘il qizing.

* * *

Yon qo‘shning—jon qo‘shning.

* * *

Yaxshi xotin—jon ozig‘i,
Yomon xotin—bosh qozig‘i.

Odob, tarbiya va odobsizlik haqida

Bola aziz, odobi undan aziz.

* * *

Yoshning hurmati—qarz,
Qarining hurmati—farz.

* * *

Odobning boshi—til.

* * *

Otasi tentakning—biri tentak,
Onasi tentakning— bari tentak.

* * *

Uyat —o'limdan qattiq.

* * *

Er yigitga ikki nomus —bir o'lim.

* * *

Yaxshi boladan—rahmat,
Yomon boladan—la'nat.

* * *

Qush uyasida ko'rganini qiladi.

Qarindoshlik, mehr-oqibat va oqibatsizlik haqida

Yog' yeganda—yot yaxshi,
Qon ichganda—qarindosh.

* * *

Daraxt tomiridan suv ichar.

* * *

Kuyoving yomon bo'lsa—qizingdan ko'r,
Kelining yomon bo'lsa—o'g'lingdan ko'r.

* * *

Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas.

* * *

Qizimning qaynanasi yomon,
O'zimning kelinim yomon.

* * *

Qirq uy quda bo'lsa,
Qirq yil qirg'in bo'lmas.

* * *

Qozilashgan qarindosh bo'lmas.

Umid, ishonch, orzu-havas, umidsizlik haqida

Bevaning tushiga er kirar,
Dehqonning tushiga—yer.

* * *

Bir orzu o'n orzu bolalaydi.

* * *

Joni borning umidi bor.

* * *

Kampirning dardi g'o'zada.

* * *

Umidsizlik uyin buzsang,
Umidingga yetarsan.

* * *

Yaxshi niyat—yarim davlat.

* * *

Qizlik uyga qirq ot bog'lanar.

* * *

Har kallada ming xayol.

Taqdir, omad va baxtsizlik haqida

Ayagan ko'zga cho'p tushar.

* * *

Jo'janing iqboli bo'lsa,
Tovuqning emchagi bo'lardi.

* * *

Yo'li ochiq yigitning yangasi oldidan chiqar.

* * *

Kambag'alning ovi yurmas,
Ovi yursa ham, dovi yurmas.

* * *

Ota-onang taxt etar,
Baxt eta bilmas.

* * *

Tilab olgan bolamni,
Echki tepib o'ldirdi.

* * *

To'yi bo'lmas qiz bo'lmas.

* * *

Qirq yil qirg'in kelsa,
Ajali yetgan o'lar.

Sabr-qanoat va sabrsizlik haqida

Bardoshliga—yog'liq osh.

* * *

* * *

Odobning boshi—til.

* * *

Otasi tentakning—biri tentak,
Onasi tentakning— bari tentak.

* * *

Uyat —o'limdan qattiq.

* * *

Er yigitga ikki nomus —bir o'lim.

* * *

Yaxshi boladan—rahmat,
Yomon boladan—la'nat.

* * *

Qush uyasida ko'rganini qiladi.

Qarindoshlik, mehr-oqibat va oqibatsizlik haqida

Yog' yeganda—yot yaxshi,
Qon ichganda—qarindosh.

* * *

Daraxt tomiridan suv ichar.

* * *

Kuyoving yomon bo'lsa—qizingdan ko'r,
Kelining yomon bo'lsa—o'g'lingdan ko'r.

* * *

Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas.

* * *

Qizimning qaynanasi yomon,
O'zimning kelinim yomon.

* * *

Qirq uy quda bo'lsa,
Qirq yil qirg'in bo'lmas.

* * *

Qozilashgan qarindosh bo'lmas.

Umid, ishonch, orzu-havas, umidsizlik haqida

Bevaning tushiga er kirar,
Dehqonning tushiga—yer.

* * *

Bir orzu o'n orzu bolalaydi.

* * *

Joni borning umidi bor.

* * *

Kampirning dardi g'o'zada.

* * *

Umidsizlik uyin buzsang,
Umidingga yetarsan.

* * *

Yaxshi niyat—yarim davlat.

* * *

Qizlik uyga qirq ot bog'lanar.

* * *

Har kallada ming xayol.

Taqdir, omad va baxtsizlik haqida

Ayagan ko'zga cho'p tushar.

* * *

Jo'janing iqboli bo'lsa,
Tovuqning emchagi bo'lardi.

* * *

Yo'li ochiq yigitning yangasi oldidan chiqar.

* * *

Kambag'alning ovi yurmas,
Ovi yursa ham, dovi yurmas.

* * *

Ota-onang taxt etar,
Baxt eta bilmas.

* * *

Tilab olgan bolamni,
Echki tepib o'ldirdi.

* * *

To'yi bo'lmas qiz bo'lmas.

* * *

Qirq yil qirg'in kelsa,
Ajali yetgan o'lar.

Sabr-qanoat va sabrsizlik haqida

Bardoshliga—yog'liq osh.

* * *

Bir qoshiq oshim–g'avg'osiz boshim.

* * *

Odob bilan baxt topilar,
Sabr bilan taxt.

* * *

Sabr tubi–sariq oltin.

* * *

Toqatliga tog'lar egar boshini,
Toqatsizning birovlar yer boshini.

* * *

Uchishga qanot kerak,
O'qishga–toqat.

* * *

Qirqiga chidagan, qirq biriga ham chidar.

* * *

G'alvirni suvdan ko'targanda ko'r.

Rizq–nasiba va benasiblik haqida

Bol tutgan barmog'in yalar.

* * *

Bordan yuqar, boldan tomar.

* * *

Buyursa–quyruq, buyurmasa–yumruq.

* * *

Yigit moli–yo'lida.

* * *

Och qoringa achchiq sarimsoq.

* * *

To'yganga–to'y, to'ymaganga–tomosha.

* * *

Uzumini ye, bog'ini surishtirma.

* * *

Erta turgan yigitning rizqi ortiq,
Erta turgan ayolning bir ishi ortiq.

Iqtisod, tejamkorlik va isrofgarchilik haqida

Avval iqtisod,
Keyin siyosat.

* * *

Buromad bo'lmasa, daromad bo'lmas.

* * *

Daryo–daryo qabul qil,
Tomchi–tomchi yumor.

* * *

Ko'p bo'lsa–seplab ko'r,
Oz bo'lsa–eplab.

* * *

Osh qolsa–davlat,
Ish qolsa–mehnat.

* * *

Pulning onasi–tiyin.

* * *

Tejog'lik ish–bejog'lik ish.

* * *

Tejog'lik ro'zg'or–xotinning obro'si.

* * *

Hisobsiz pul qayda?

Me'yor va me'yorsizlik

Tirsakni tishlab bo'lmas.

* * *

Tor uyda tomosha.

* * *

Tuya silkinsa, bir eshaklik yuk chiqar.

* * *

Elakka kirgan xotinning
Elik og'iz gapi bor.

* * *

Yangini eski saqlar.

* * *

O'tkir qilich-qinning zavoli.

* * *

Qulochingga qarab ketmon chop.

* * *

Qo'rqqandan quvongan yomon.

Epchillik, uddaburonlik va noshudlik haqida

Ayron ichgan qutular,

Chelak yalagan tutilar.

* * *

Daraxtning bo‘shini qurt yer.

* * *

Noshud ketganda maqtanar,
Botir—qaytganda.

* * *

Sirka tilamakka ham usul kerak.

* * *

Tannoz taranguncha—to‘y tarqar.

* * *

Qalovini topsang—qor yonar.

* * *

Qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarma.

Vaqt va fursat qadri haqida

Vaqt—omad.

* * *

Vaqting ketdi—baxting ketdi.

* * *

Vaqt tog‘ni yemirar,
Suv toshni kemirar.

* * *

Vaqtim bo‘shga ketdi,
Erim go‘shtga ketdi.

* * *

Ishning omadi—o‘z vaqti.

Farosat va farosatsizlik haqida

Aytar so‘zni ayt,
Aytmas so‘zdan qayt.

* * *

Betimning qalini—jonimning huzuri.

* * *

Gapni gapir uqqanga,
Jonni jonga suqqanga.

* * *

Gapni gapirib netarsan,
Onasi bemahal tuqqanga.

* * *

To‘shagingga qarab oyog‘ingni cho‘z.

* * *

Farosatsiz falokatga yo‘liqar.

* * *

O‘zgaga kulguncha,
O‘z holingga yig‘la.

* * *

O‘qish boshqa, uqish boshqa.

* * *

O‘zi yuzsiz—so‘zi tuzsiz.

G‘urur va xushomad haqida

Betayinning gardani baland.

* * *

Ilmsiz bosh qashir,
Xushomadgo‘y gap tashir.

* * *

Ichak—chavoq go‘sht bo‘lmas,
Laganbardor do‘st bo‘lmas.

* * *

No o‘rin g‘urur-boshga balo.

* * *

Shirin gapga uchma,
Maqtaganni quchma.

* * *

Qatorda nori borning ori bor.

* * *

Haqni aytsam urarlar,
Xushomadni suyarlar.

Tozalik, sog‘lik va bemorlik haqida

Boylikning boshi—sog‘lik.

* * *

Dard filni pashshadek qilar.

* * *

Dardingning vaqti o‘tsa,
Tabibdan o‘pkalama.

* * *

Zardoli ye-da, suv ichgin,
Zirrilamasang, menga kel.
Olma ye-da, suv ichgin,
Og'rimasang, menga kel.

* * *

Izzat tilasang—ko'p dema,
Sihat tilasang—ko'p yema.

* * *

Ko'zing og'risa—qo'lingni tiy,
Tishing og'risa—tilingni.

* * *

Og'rigandan uzilgan yomon.

* * *

Rang ko'r—hol so'r.

* * *

Salomatlik—tuman boylik.

Tug'ilish va o'lim haqida

Odam—omonat,
Diydor g'animat.

* * *

Avval—bahor,
Oxir—xazon.

* * *

Jon bor yerda—qazo bor.

* * *

O'lim-shohu gadoga barobar.

* * *

O'tmas umr bo'lmas,
Sinmas—temir.

To'y va azadorlik haqida

To'y oshi—to'palon oshi.

* * *

To'y—tegishliniki,
Hayit barchaniki.

* * *

Qizniki qiyin bilan bitar,
O'g'ilniki o'yin bilan.

* * *

To‘ydan ham bo‘ldi—bo‘ldisi qiziq.

* * *

Qizlik uy qudasiz bo‘lmas.

* * *

Temirni zang yemirar,
Odamni—qayg‘u.

* * *

Azaga borgan xotin o‘z dardini aytib yig‘lar.

* * *

Har elning o‘z irimi.

Yoshlik va qarilik haqida

Bir yigit qirq yilda bino bo‘lar.

* * *

Burgut qarisa sichqon ovlar.

* * *

Yosh kelsa—ishga,
Qari kelsa — oshga

* * *

Yoshlik chog‘im —oltin chog‘im.

* * *

Yoshdan—xato, keksadan—ato.

* * *

Noz qizga yarashar,
Kampirga balo bormi!

* * *

Qarisi bor uyning zari bor.

Yil fasllari va tabiat hodisalari haqida

Aziz momo[1] olti kun,
Qahri kelsa, qattiq kun.

* * *

Asad[2]—ekiningni yasat.

* * *

[1] Aziz momo — o‘z ichiga ahmon-dahmon, hezim-xirmon paytlarini oladigan, qishdan bahorga o‘tiladigan olti kunlik fursat bo‘lib, 13-19-martlarga to‘g‘ri keladi.
[2] Asad — eskicha oy nomi; 22-iyuldan 21-avgustgacha to‘g‘ri keladi.

Aqrabda[1] ikki sovuq urmasa,
Oxiratda ham urmas.

* * *

Bahorgi harakat—kuzgi barakat.

* * *

Asadda oralab ye,
Sunbulada[2] saralab.

* * *

Yer haydasang—kuz hayda,
Kuz haydamasang—yuz hayda.

* * *

Yoz yopinchig'ingni qo'yma,
Qishda o'zing bilasan.

* * *

Yozning yozig'i—qishning ozig'i.

* * *

Savr kirdi—ekinlarga davr kirdi.

* * *

Chilla qori—yerning qoni.

* * *

Qavs suvi dardga—davo,
Quyosh, havo—tanga davo.

Hayvonot olami haqida

Boq otingni arpa bilan,
Boqar qazi-qarta bilan.

* * *

Ot—yigitning yo'ldoshi.

* * *

Oti borning—qanoti bor.

* * *

Sigirli uyda sil bo'lmas.

* * *

Cho'pon bo'lsang—qo'yni boq,
Moyi toshsin chorchadan.
Itni boqsang—sirtlon boq,

[1] Aqrab – eskicha oy nomi; 22-oktyabrdan 21-noyabrgacha to'g'ri keladi.
[2] Sunbula – eski astronomiyada osmonning o'n ikki burjidan oltinchisi; oy nomi; sentyabrga to'g'ri keladi.

Qo'y oldirmas qo'radan.

* * *

It oyog'i—ezgulikka.

* * *

Boylikning boshi—sovliq.

Sabab va oqibat haqida

Aybi borning tizi qaltirar.

* * *

Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

* * *

Bermas qizning qalini ko'p.

* * *

Bir balosi bo'lmasa,
Shudgorda quyruq na qilur.

* * *

Yegan og'iz uyalar.

* * *

Ish bor yerda—xato bor.

* * *

Gapdan gap chiqar,
Balchiqdan imorat.

Tenglik va tengsizlik haqida

Bo'ying tengi bilan yurma,
Aqli tengi bilan yur.

* * *

Zo'rdan zo'r chiqsa,
Zo'r dumini qisar.

* * *

Yigit—yigitning ko'zgusi.

* * *

Katta boshning og'rig'i ham katta.

* * *

Odam odam bilan,
Pista bodom bilan.

* * *

Tenglik—kenglik.

* * *

Tengini topsang–tekin ber.

* * *

Tuyani shamol uchirsa,
Echkini osmonda ko'r.

* * *

O'xshatmaguncha uchratmas.

Kambag'allik, faqirlik haqidagi tarixiy maqollar

Bedananing uyi yo'q,
Qayga borsa pitpildiq.

* * *

Bersang–eyman, ursang–o'laman.

* * *

Boy ko'zi xonda,
G'arib ko'zi nonda.

* * *

Boyga kelin bo'lguncha,
Kambag'alga qiz bo'l.

* * *

Boyni mol bosar,
Kambag'alni – bola.

* * *

Borga–bozor, yo'qqa–guzar.

* * *

Yo'g'on–cho'zilar, ingichka–uzilar.

* * *

Yo'qni yo'ndirib bo'lmas,
Borni–undirib.

* * *

Kambag'al to'ysa, boy uxlamas.

* * *

Amaldordan osha qilma,
Xafalikni sotib olma.

* * *

Amirning oshidan faqirning mushti yaxshi.

* * *

Boyga ishonsang–boring ketar,
Xonga ishonsang–boshing.

* * *

Boyning mushugi quyon ovlar.

* * *

Da'vo qilma domladan,
Qarzdor bo'lma so'fidan.

* * *

Domla-imom och qolsa, bozor kezar,
So'fi och qolsa-mozor...

* * *

Yomon arava yo'l buzar,
Mulla, eshon el buzar.

* * *

Zamona—zo'rniki,
Tomosha—ko'rniki.

Topishmoqlar

Osmon, yer, suv haqida

Ko'k kosani to'ntardim.
(Osmon.)

Ko'k sandig'im ochildi,
Ichidan zar sochildi.
(Osmon, quyosh.)

Oltin kelganda kumush ketar,
Kumush kelganda oltin ketar.
(Quyosh, oy.)

Bir parcha patir,
Olamga tatir.
(Oy.)

Ko'k ko'ylakka g'o'za yozdim.
(Osmon, yulduzlar.)

Zil gilam, zil-zil gilam,
Ko'taray desam, og'ir gilam.
(Yer.)

Ketar, ketar-izi yo‘q,
Tayanmoqqa tizi yo‘q.
(Suv)

Tabiat hodisalari, yil fasllari haqida

Ko‘zga ko‘rinmas,
Qo‘lga tutilmas.
(Havo)

Oyog‘i yo‘q qochadi,
Qanoti yo‘q uchadi.
(Bulut)

Shil etdi,
Shivilg‘on ketdi.
(Yashin)

Novcha yigit tom teshar.
(Yomg‘ir)

Oppoqqina dasturxon,
Yer yuzini qoplagan.
(Qor)

Bostirdim ikki tovuq,
Biri–issiq, biri–sovuq.
(Qish, yoz)

Ariqdan oyna oldim.
(Muz)

Bir kosa sut,
Olamga dud.
(Tuman)

Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
(Shamol)

Bir onasi bor,
O'n ikki bolasi bor.
(Yil, o'n ikki oy)

Bir taroqda o'ttiz kelin soch taraydi.
(Oy, o'ttiz kun)

Zarga sotilmas,
Zo'rga topilmas.
(Soya)

Odam a'zolari va xislatlari haqida

Taqir-tuqur taqirvon,
Uni toping, dilbarim.
Ichidagi mehribon,
Uni toping, dilbarim.
Og'zidagi ozig'i,
Uni toping, dilbarim.
Tagidagi qozig'i,
Uni toping, dilbarim.
Qoziq osti xurmacha,
Uni toping, dilbarim.
– Taqir-tuqur taqirvon,
Beshik degan emasmi?
Ichidagi mehribon
Bola degan emasmi?
Og'zidagi ozig'i
Ona suti emasmi?
Tagidagi qozig'i
Sumak degan emasmi?
Qoziq osti xurmacha
Tuvak degan emasmi?

* * *

Qizil chiyning ostida
Qizil kiygan o'tirar.
(Kelin)

Yechdim, o‘rdim,
Tog‘ orqasiga tashladim.
(Soch o‘rimi, bosh)

Uy ustida sari yoy.
(Qosh)

Tom ustida qo‘sh chiroq.
(Ko‘z)

Jar boshida yorti supra.
(Quloq)

G‘aznadir to‘lmas,
Bir kun bo‘sh qolmas.
Bo‘sh qolsa, turmas,
Usiz jon bo‘lmas.
(Og‘iz)

Temir qo‘rg‘on ichida
Qizil toychoq o‘ynaydi.
(Til)

Teg desam, tegmaydi
Tegma desam, tegadi.
(Lab)

Jar yoqalab tosh qo‘ydim,
Jayronchani bo‘sh qo‘ydim.
(Tish, til)

—Chanaroqda qo‘sh chiroq,
U ne bo‘ldi, bolqanto‘z?
Uy ustida sari yoy,
U ne bo‘ldi, bolqanto‘z?
Zarna yerda qo‘sh to‘la,
U ne bo‘ldi, bolqanto‘z?
Hovuzi bor, suvi yo‘q,
U ne bo‘ldi, bolqanto‘z?
Qator-qator qora nor,
U ne bo‘ldi, bolqanto‘z?

Uy ortida qo‘sh terak.
U ne bo‘ldi, bolqanto‘z?
—Chang‘aroqda qo‘sh chiroq
Ko‘z degani emasmi?
Uy ustida sari yoy
Qosh degani emasmi?
Zarna yerda qo‘sh to‘la
Burun degani emasm?
Hovuzi bor, suvi yo‘q
Og‘iz degani emasmi?
Qator-qator qora nor
Soch degani emasmi?
Uy ortida qo‘sh terak
Soch o‘rimi emasmi?

Hayvonot dunyosi haqida

To‘rt oyoqli,
Temir tuyoqli.
(Ot)

Kuchi halol,
O‘zi harom.
(Eshak)

O‘zi katta,
Dumi kalta.
(Tuya)

Erta ketar laylixon,
Kechda kelar laylixon.
Turli-turli bog‘chalardan
Yig‘ib kelar laylixon.
(Sigir)

Ikki tortar,
Bir yirtar.
(Ho‘kiz, omoch)

Ikki qozonga bir cho‘mich.
(Sigir tili)

To‘rt qoziq,
Hammaga oziq.
(Sigir elini)

To‘rt mergan
Bir quduqqa tosh otar.
(Sigir sog‘ish)

Kichkinagina bo‘yi bor,
Sandal kabi dumi bor.
(Qo‘y)

Soqoli bor,
Aqli yo‘q.
(Echki)

Soyada yotar,
Ming qo‘yni boqar.
(It)

Qora qumg‘on,
Ko‘zingni yumg‘on.
(Mushuk)

Uyday joyni olar,
Sichqondan qo‘rqar.
(Fil)

Ola-bula to‘ni bor,
Quyrug‘ida xoli bor.
(Yo‘lbars)

Kelganda to‘rt oyoq,
Ketganda ikki oyoq.
(Ayiq)

Dalama-dala qidiradi,
Qo‘y bilan echki oh uradi.
(Bo‘ri)

Kechasi ovida,
Kunduzi uyida.
(Tulki)

Shoxlari bor qo'chqordek,
Bo'yi misli daraxtdek.
(Kiyik)

O'zi yo'rtiq,
Labi tirtiq.
(Quyon)

Qushlar va parrandalar haqida

Boshi taroq,
Dumi o'roq.
(Xo'roz)

Gala-galani ko'rdim,
Ko'chada gadoyni ko'rdim.
(Tovuq)

Oq bo'ldi, ola bo'ldi,
Ichidan chiqdi, qora bo'ldi.
(Tovuq, tuxum, jo'ja)

Suvga kiradi lik-lik,
Suvan chiqadi, lik-lik.
Hamisha lik-lik,
Tomosha lik-lik.
(O'rdak)

Hindistondan kelgan lo'k,
Bo'yni ola, ko'zi ko'k.
(Laylak)

Uzun-uzun, uzun soy,
Uchiga yetgan bormikan?
Ola tovuq mokiyon,
Moyagini topgan bormikan?
(Turna)

Baraki-baraki,
Barmoqlari o'n ikki.
Surma qora to'ni bor,
Quyrug'ida dumi bor.
(Tovus)

Qirdan turib tuxum irg'itdim.
(Burgut)

Liking-liking yo'rg'asi,
Og'zida baxmal to'rvasi.
(Kaklik)

Qizil yulg'unning tagida
Qizlargul opam yotibdi.
(Qirg'ovul)

Gul tagida olifta.
(Bulbul)

Zuv-zuv borag'ay,
Tomdan qarag'ay.
Cho'p, loy cho'qigay,
Savat to'qigay.
(Qaldirg'och)

Chang'aroqda chirqillaydi.
(Chumchuq)

Hasharotlar haqida

Zuv-zuv, zuvon qush,
O'zlari bezavon qush.
Hay-hay, uning yurishi,
G'amza bilan turishi.
(Ari)

Tutdan bizga ko'ylak tikar.
(Ipak qurti)

Joni boru suyagi yo‘q.
(Kapalak)

O‘zi yo‘qdek,
Tovushi o‘qdek.
(Chigirtka)

O‘zi qora qanotli,
Shoxlari bor tirnoqli.
(Qo‘ng‘iz)

Joni bor, qoni yo‘q,
Yer ostida soni yo‘q.
(Chumoli)

To‘r bilan o‘rab olgan,
Pashshaga zanjir solgan.
(O‘rgimchak)

Daraxt va mevalar haqida

Yozda kiyinadi,
Qishda echinadi.
(Daraxt)

Hasan aka tikka turadi,
Bolalari chapak chaladi.
(Terak barglari)

Yozda ham qishda
Bir xil kiyimda.
(Archa)

U yoni tog‘,
Bu yoni tog‘.
O‘rtasida
Sarig‘ yog‘.
(Yong‘oq)

Osti taxta, usti taxta,
O‘rtasida yashil paxta.
(Bodom)

Osh ichida tosh,
Tosh ichida osh.
(O‘rik)

O‘zi ko‘m-ko‘k,
Yuzi qizil.
(Olma)

O‘zi shirin, tukligina,
Mazasi bor, totligina.
(Shaftoli)

Dum-dumaloq bo‘yi bor,
Palovda obro‘yi bor.
(Behi)

Bir qop un,
Ichida ustun.
(Jiyda)

Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo‘z bola.
(Tok uzum)

Qirq hujrada qizil qizlar.
(Anor)

Osti teri, usti teri,
Ichida totli tariq.
(Anjir)

Ekin va o‘simliklar haqida

Qorday oppoq,
Yungday yumshoq.
(Paxta)

Hamma yog‘i qiltiq,
Hamma unga intiq.
(Bug‘doy)

Bizning uyda bir qiz,
Boshida bir tol qil yolg‘iz.
(Sholi)

Bo‘yi bir qarich,
Soqoli ikki qarich.
(Makkajo‘xori)

Qiya-qiya yerlarda
Qiyma juvon o‘tirar.
Dakanasin dol qo‘yib,
Tolma juvon o‘ltirar.
(Oq jo‘xori)

Boshi oq,
Qoshi qora.
(Loviya)

O‘zi pishiq,
Burni qiyshiq.
(No‘xot)

Qora-qora qo‘g‘irmoch.
(Mosh)

Oltin sochdim tojidor,
Hamma unga xaridor.
(Tariq)

Kunga qarab tolmaydi,
Kundan ko‘zni olmaydi.
(Kungaboqar)

Bir tanada
Ming dona.
(Kunjut)

Poliz ekinlari va sabzavotlari haqida

Ho‘ppa semiz,
Bir tuki yo‘q.
(Tarvuz)

Zar-zar to‘ni bor,
Zardan panohi bor.
Urdi pichoqni,
Uning ne gunohi bor?
(Qovun)

Qo‘shnimning arqoni devoldan oshib tushdi.
(Oshqovoq palagi)

Pishganda mazasiz,
Pishmaganda mazali.
(Bodring)

Qat-qat to‘nli,
Qarich bo‘yli.
(Karam)

Yer ostida qizil bo‘g‘cha.
(Sholg‘om)

Yer tagida oltin qoziq.
(Sabzi)

Yer tagida sakcha go‘sht.
(Lavlagi)

Past-past bo‘yi bor,
Yetti qavat to‘ni bor.
(Piyoz)

Yer tagida yumron qoziq.
(Turp)

Bir barmoqcha bo‘yi bor,

Qizil baxmal to‘ni bor.
(Qalampir)

Yer ostida mushtday quyruq.
(Qo‘ziqorin)

Oziq-ovqatlar haqida

Yumalatsam joni yo‘q,
Bo‘g‘izlasam qoni yo‘q.
(Xamir)

Oq otdim,
Qizil oldim.
(Yopgan non)

Yettisi bir yerga yig‘ilsa,
Beshisi bir yerga yig‘iladi.
(Palov)

Qozon ichida oppoq qor.
(Shirguruch)

Kesdim, quduqqa tashladim.
(Ugra)

Bukdim, quduqqa tashladim.
(Chuchvara)

Osh pishirdim-tuzi yo‘q.
(Sumalak)

O‘zi oppoq qor emas,
Non bo‘lmaydi-un emas.
(Shakar)

O‘zi taom bo‘lmas,
Usiz ta’m bo‘lmas.
(Tuz)

Poliz ekinlari va sabzavotlari haqida

Ho‘ppa semiz,
Bir tuki yo‘q.
(Tarvuz)

Zar-zar to‘ni bor,
Zardan panohi bor.
Urdi pichoqni,
Uning ne gunohi bor?
(Qovun)

Qo‘shnimning arqoni devoldan oshib tushdi.
(Oshqovoq palagi)

Pishganda mazasiz,
Pishmaganda mazali.
(Bodring)

Qat-qat to‘nli,
Qarich bo‘yli.
(Karam)

Yer ostida qizil bo‘g‘cha.
(Sholg‘om)

Yer tagida oltin qoziq.
(Sabzi)

Yer tagida sakcha go‘sht.
(Lavlagi)

Past-past bo‘yi bor,
Yetti qavat to‘ni bor.
(Piyoz)

Yer tagida yumron qoziq.
(Turp)

Bir barmoqcha bo‘yi bor,

Qizil baxmal to‘ni bor.
(Qalampir)

Yer ostida mushtday quyruq.
(Qo‘ziqorin)

Oziq-ovqatlar haqida

Yumalatsam joni yo‘q,
Bo‘g‘izlasam qoni yo‘q.
(Xamir)

Oq otdim,
Qizil oldim.
(Yopgan non)

Yettisi bir yerga yig‘ilsa,
Beshisi bir yerga yig‘iladi.
(Palov)

Qozon ichida oppoq qor.
(Shirguruch)

Kesdim, quduqqa tashladim.
(Ugra)

Bukdim, quduqqa tashladim.
(Chuchvara)

Osh pishirdim-tuzi yo‘q.
(Sumalak)

O‘zi oppoq qor emas,
Non bo‘lmaydi-un emas.
(Shakar)

O‘zi taom bo‘lmas,
Usiz ta’m bo‘lmas.
(Tuz)

Bir o‘rdakka
Bir chimdim.
(Choy)

Mehnat qurollari haqida

G‘uv-g‘uv yetar,
Qorni to‘ysa yumalab ketar.
(Urchuq)

Sariboy akam saqtali,
Ikki oti no‘xtali.
(Charx)

U yog‘i tog‘, bu yog‘i tog‘,
O‘rtasida Hoji chinqiroq.
(Halloji)

Osmondan osilgan,
Yerdan qazilgan.
(Bo‘z to‘qish do‘koni)

Uzun-uzun uzama,
Uchi mening qo‘limda.
(O‘rmak)

Qora tovuq qaqirlaydi,
Qanotlari shaqirlaydi.
(Moki)

Urdim, gup etdi,
Yer tagiga kirib ketdi.
(Ketmon)

Tushgan yerini kesar.
(Tesha)

Tushgan yerini titar.
(Arra)

Tushgan yerini uzar.
(Ombir)

Oqqina tovuq somon sochar.
(Panshaxa)

Yer tagida oy yurar.
(Omoch)

Turar joy, unga tegishli asboblar va jihozlar haqida

Opon-oponni ko'rdim,
Eski choponni ko'rdim.
Qobirg'asi qalashgan,
Odam yutganni ko'rdim.
(Qora uy)

Og'il to'la chinoq qo'y.
(Qora uyning uvig'i)

Xitoy qush –qanotlarini yoyib,
Oyog'ini bukib, tog'da o'ltiribdi.
(Chodir)

Bobom uyda,
Soqoli tashqarida.
(Bolor)

Devolga qo'nggan qushim:
Ba'zilari bir qanot,
Ba'zilari qo'sh qanot.
(Eshik)

Qo'li yo'q, oyog'i yo'q, uy poylar.
(Qulf)

O'zi katta,
Sarpo'shi yo'q.
(Hovuz)

Tomda tarasha,
Uyga yarasha.
(Sandiq)

Oyog'i yo'q—yuradi,
Og'zi yo'q—gapiradi.
(Soat)

Xo'jalik asboblari haqida

Og'zi qora alomat,
Ichi qizil qiyomat.
(Tandir)

O'zi bitta, qulog'i to'rtta.
(Qozon)

Qoradev yiqildi,
Bolalari yig'ildi.
(Qozon, tovoq, kosa)

Laylak uyada, dumi ziyoda.
(Cho'mich)

Hakka uyada, quyrug'i ziyoda.
(Qoshiq)

Osti imorat,
Usti imorat,
O'rtasi otashxona.
(Samovar)

Chin qushim, chinni qushim,
Chin tepaga qo'ndi qushim.
Tumshug'ini yerga berib,
Xalqqa salom berdi qushim.
(Choynak)

Mehmon keldi,
Yugurib bordi.

Qo‘liga chiqib,
Labini o‘pdi.
(Piyola)

Olov, tutun, chiroq va yoqilg‘i haqida

Tovoq to‘la anor,
Hadding bo‘lsa ol.
(Cho‘g‘)

Yalt-yalt etadi,
Yamlab ketadi.
(O‘t-olov)

Chang‘aroqdan uchib chiqadi,
Qarasa, ko‘zni ko‘r qiladi.
(Uchqun)

Qora ho‘kiz toqqa chiqdi,
Qizil ho‘kiz uyda qoldi.
(Tutun, olov)

Bir bosh bug‘doy – uy to‘ldirar.
(Chiroq)

Miltilaydi ko‘zlari,
Mo‘ltillaydi yoshlari.
(Sham)

Quticha-yu quticha,
Ichi-chi to‘la mixcha.
(Gugurt)

Devol orqasida ko‘k taka.
(Kul)

Kiyim-kechak, bezak va tikuvchilik asboblari haqida

Bosh ustida chambarak,
Chambarakda kapalak.
(Do‘ppi)

Boshingdagi boshpana,
Qish-qirovda gulxona.
(Telpak)

Kunduzi himoya qiladi,
Kechasi qoziqda turadi.
(Kiyim)

Top, topishmoq,
Tanga yopishmoq.
(Ko'ylak)

Erta turdi,
Ikki ayri yo'lga tushdi.
(Shim)

Besh og'ayni, qo'rasi bir,
Xonasi boshqa.
(Qo'lqop)

Keragida osuvli,
Aqlliga biluvli.
(Sochiq)

Chakka tomadi,
Yerga tushmaydi.
(Sirg'a)

Buxorodan kelgan hundi,
Besh og'ochga mindi.
(Uzuk)

Har mo'ridan tutun chiqsa,
Bachchalar tapir-tupur.
(Karnay)

Tomda turib gilam qoqdim.
(Nog'ora)

O'zi mitti,
Ovozi olamga yetdi.
(Surnay)

Yuqoridan keladi burmali boy,
Yoqasi chir aylanur tugmali boy.
Qirman yigit in soladi,
Ne ekanin bilmayman, yopiray.
(Garmon)

O'yinlar va o'yinchoqlar haqida

Oq g'ozim uchdi-ketdi,
Ichagini cho'zdi-ketdi.
(Varrak)

To'rda kelinim to'ramday,
Ikki ko'zi qizarib o'larday.
(Qo'g'irchoq)

Tap-tap etadi,
Ursam uchib ketadi.
(Koptok)

Ot-arava asboblari, yo'l haqida

Otdan baland,
Itdan past.
(Egar)

Bosgan yerim boy chuqur,
O'tirgan yerim oy chuqur.
(Uzangi, egar)

Tepdim, terakka chiqdim.
(Otga minish)

Og'zi yo'q, ko'zi yo'q,
Gaplashadi odam bilan.
(Kishan)

Yetti teshik,
Bir kartik.
(Ot xamuti)

Ikki botir-qilichlashar.
(Qaychi)

Yalang'och qochadi,
Yorg'oqli quvadi.
(Igna, angishvona)

Kitob, yozuv va o'quv qurollari haqida

Qat-qatgina qatlama,
Aqling bo'lsa, tashlama.
(Kitob)

Oq yer ochdim,
Qora bug'doy sochdim.
(Qog'oz, yozuv)

Sirti tayoq,
Ichi bo'yoq.
(Qalam)

Tili bor, joni yo'q,
Gapirgan gapining soni yo'q.
(Ruchka)

Menda bor, senda yo'q,
Jismda bor, so'zda yo'q.
(«M» harfi)

Senda boru menda bor, olamda yo'q,
Unda boru munda bor, olamda yo'q.
(«N» harfi)

Qoshda bir,
Qoshiqda ikki.
(«Q» harfi)

Cholg‘u asboblari haqida

Uzun-uzun ulomiq,
Uchi mening qo‘limda.
Bulbullari sayraydi,
Tubi mening qo‘limda.
(Tanbur)

Jonsiz bulbul sayraydi,
Egalari so‘zlaydi.
(Dutor)
Hasan darozi bir bukir,
Hovliga soladi zikir.
Kunduzi yuradi-yuradi,
Kechasi lingini ko‘tarib yotadi.
(Arava)

Ikki teng – baravar,
Yumalatsa–g‘ildirar.
(Arava g‘ildiraklari)

Bir arqonim bor,
Uchi-quyrug‘i yo‘q.
(Yo‘l)

Kema, qurol-yaroqlar haqida

Yursa izi bilinmas.
(Kema, qayiq)

Qora tuyam qaqirladi,
Suyaklari shaqirladi.
(Miltiq o‘qi)

Qora biyam qalt etadi,
Qobirg‘asi yalt etadi.
(Qilich)

Chaldirmoqlar

Bir to'da g'oz uchib borar ekan. Bir g'oz kelib «Ey yuz g'oz, salomat bormisiz?» – debdi. Shunda ulardan biri aytibdi: «Biz yuz g'oz emasmiz, yana biz miqdori g'oz bo'lsa va yana bizning yarmimiz miqdori, tag'in yarmimizning yarmi bo'lsa, u vaqtda sen qo'shilsang, shundagina yuz g'oz bo'lamiz», – debdi. Havodagi g'ozlar qancha ekan?

(36+36+18+9+1)

* * *

Bir savdogar tuyasi bilan shomda chiqib, Shomga etolmay tuyasi o'ladi. Tuyasi o'lmog'ining sababi-yog'i ko'p bo'lib, o'zining oriq bo'lgani edi.

(Birinchi shom-namozshom.
Ikkinchi shom-Shom shahri.
Yog'ining ko'pligi-ustiga ko'p yuk ortilgan.
Tuya oriq bo'lganidan yukni ko'tarib Shomga yetolmay, yo'lda o'ldi).

* * *

Bir podsho go'zal bir qizga xushtor bo'lib:

–Hoy qiz, seni haramimga olib borib o'z nikohimga olsam, rozimisan? – deb so'rabdi. Shunda ul go'zal qiz: – Roziman, lekin qalin shartlarim bor. Ana shu qalin shartlarimni keltira olsangiz, – debdi. Podsho qalin shartlarining nima ekanligini so'rasa, go'zal qiz: – yigirma taka, o'ttiz buqa, qirq qo'chqor, ellik belbog', oltmish axta, yetmish taxta keltirsangiz, –debdi.

Podsho o'rdasiga qaytib kelib, bu to'g'rida vaziridan maslahat so'rabdi. Shunda vaziri podshoga: – Bo'lmasa, qiz sizni o'ldiribdi, ul sizga tegmayman degani, – debdi. –Qalin shartlarining ma'nosi: Odam yigirmada takaday tez bo'ladi. O'ttizda buqaday bo'ladi, qirqda qo'chqorday bo'ladi, ellikda belbog' bo'qqan odamday o'zini suyantirib yuradi. Oltmishda axta bo'ladi, yetmishda taxtaday qotadi. Siz hozir oltmishga kiribsiz, haddingizga qarang. Shuytib qiz sizni gap bilan uribdi, – debdi.

Shunday qilib, har kim ham o'z haddini bilishi kerak ekan. «Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan»–deganday.

* * *

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadimgi zamonda bir maqtanchoq podsho bor ekan. Bu podsho: «Yurtda mendan boshqa aqlli odam yo'q», deb yurar ekan.

Bir kun podsho ovga chiqibdi. Tushgacha ov qilibdi, hech ovi yurishmabdi. Keyin bir bolani uchratibdi. Podsho bolaga qarab:

–Hoy bola, bizni mehmon qilmaysanmi? –debdi.

Bola:

–Jonim bilan, yoshulli, –debdi.

Shunda podsho:

–Bizlarni nima so'yib mehmon qilasan? –deb so'rabdi. Bola:

–Topsak birni , topmasak ikkini so'yamiz, – deb javob beribdi.

Podsho bolaning javobidan hayron qolibdi. Keyin vazirlariga:

–Bu bolaning gapida bir xosiyat bor, buni bir sinab ko'ramiz, –debdi.

–Podsho odamlari bilan bolaning uyiga boribdi. Bola podshoni, uning odamlarini yaxshilab mehmon qilibdi. Podsho boladan:

–Bola, sen nechta qo'y so'yding? –deb so'rabdi.

Shunda bola:

–Birini topmadik, shuning uchun ikkini so'ydik, –deb javob qaytaribdi. Podsho yana taajjublanib:

–Birni topmasang, ikkini qayerdan topib so'yding? – debdi.

–Bizning bir bo'g'oz sovlig'imiz bor edi. Boshqa bir qo'y topolmay, shu bo'g'oz qo'yni so'ydik. Q'zini so'ygandan keyin bolasi ham o'ldi. Ana, ikkisini so'ydik, deganning ma'nosi shu, – debdi haligi bola. Podsho buni eshitib, bolaning aqliga qoyil qolibdi. Keyin uni o'z saroyiga olib ketibdi. Bu bola o'qib dono bo'libdi, keyin podshoh uni o'ziga bosh vazir qilib olibdi.

TABULAR

Nikoh marosimiga oid tabular

1. Nikoh kechasi hech vaqt toq sham yoqilmaydi, u albatta juft bo'lishi shart. Nikoh kechasi yondirilgan shamni to o'zi yonib tugamaguncha puflab o'chirish mumkin emas.

2. Yosh kelin-kuyovlar chillalik davrda qorong'ida yurmasligi kerak. Ular turgan xonadonda doim chiroq yonib turishi lozim.

3. Chillalik yosh kelin-kuyovlar orasidan gurbahezalak degan hayvon o'tmasligi kerak, aks holda ular bepusht bo'lishi mumkin.

4. Ikki qarindosh yaqinda to'y qilib, uylarida chillali kelin bo'lsa, bir-birovinikiga o'tmaydi.

5. Chimildiqqa beva ayol, befarzand ayol kirmaydi. Aks holda yangi kelin ham beva qolib, pushbel bo'larkan.

6. Kelinni chimildiq tagiga kirgizgandan so'ng ko'p bolali bo'lsin deb uning etagiga tuxum tashlanadi.

7. Kuyov chimildiqqa kirgach, turmushimiz asaldek shirin-shakar bo'lsin deb kelinga sharbat ichiradi.

8. Kelin-kuyovning oynasiga boshqa kishi qaramaydi.

9. Kelinning sepiga sariq rangli narsa qo'yilmaydi. Bu ayriliqqa olib keladi, deb qaraladi.

10. Chilladan chiqmagan kelin kechqurun daraxtzorlar va maysazorlar orasidan ko'p yurmasligi kerak. Aks holda unga chilla tushib bola ko'rishi qiyinlasharmish.

11. Birinchi bor sovchilikka borganda tezroq ketishga, o'tirib qolmaslikka harakat qilinadi. Ko'p o'tirib qolinsa — kelin yalqov chiqadi, tezroq turilsa — kelin chaqqon chiqadi, deb irim qilinadi.

12. To'y kuni yoqilgan gulxanni suv sepib o'chirmaslik kerak. Negaki, kelin-kuyovning baxti shu gulxanday olamni isitsin.

13. Kelin-kuyovni ostonadan olib kirayotganda yo'lini to'smaydilar.

14. To'yga borganda bo'yi yetgan qizlarga holva olib kelinadi. Shu zaylda baxtli bo'lishi, yaxshi xonadonga turmushga chiqishi niyat qilinadi.

15. Yangi kelgan kelin 3 kundan so'ng qozon boshiga kelib jaz pishirishi kerak. Bu xonadonga qut-baraka keltirishining belgisi hisoblanadi.

16. Kelin-kuyov atrofidan aylantirilgan gulxan majburan o'chirilmaydi, aks holda oila totuvligi buzilarmish.

17. Yangi tushgan kelin yolg'iz qoldirilmaydi.

18. Kelin-kuyovga nikoh o'qitilayotganda qo'llar yoyilib o'tiriladi. Agar birov qo'lini yoki ikki barmog'ini ustma-ust qo'ysa, o'qilayotgan nikohga tugun tushib, o'sha yoshlarning baxtlari bog'lanib qolarmish.

19. Yosh kelin-kuyovlarning nikohi kunduzi o'qilmaydi. Faqat kechqurun o'qiladi.

20. To'ylarda sarpolar yoshi ulug', ko'pni ko'rgan, oilasi tinch keksalar tomonidan kiygiziladi. Shular kabi keksayib yursin degan ma'noda.

21. Kelin kuyov tomonidan uyiga ko'tarib kelingan olovni ko'rsa baxtli bo'ladi.

22. Kelinga onasi lachak kiydirganda, uning ensasiga sariq yog' surtmog'i shart. Kelinning ensasi sariq yog'day muloyim bo'larmish.

23. Peshonalari oq yuzlari yorug' bo'lsin degan niyatda qudalar yangi kelin-kuyov uyiga kelganda peshonalariga un surtiladi

24. Qudalarga tovuq so'yilmaydi, aks holda kelinning oyog'i quruq bo'larmish.

25. Kelin sarpolarini teskari o'rash mumkin emas, aks holda uning baxti qaytar emish.

26. To'y kuni kelin-kuyov xonasiga sovuq suv kirgizilmaydi. Bu bilan ular orasiga sovuqlik tushmasligini tilaydilar.

Qiz va o'g'il bolalarga oid tabular

1. Qiz bola qattiq ovoz chiqarib kulmasligi kerak. Bunda uning yelkasidagi shaytonlar rohatlanar ekan.

2. Yigit kishining kiyimi yuvilgach, teskari qilib quritilmaydi, aks holda yigitning kissasi qurirmish.

3. Qiz bola dasturxonning to'rt chetida o'tirmaydi, aks holda uyda qolib ketarmish.

4. Qizlar kechqurun oynaga qaramasliklari kerak, aks holda baxtsiz bo'larmishlar.

5. Bolalar o't ekilgan yerga o'tirmasliklari kerak. Chunki janoza o'tning ichida o'qiladi.

6. Qiz bola kechqurun oynaga haddan ziyod ko'p qarayversa, oxiri kal erga tegarmish

7. Agar bolaning bo'yi o'sib ketaversa, rafida bilan uning boshiga uch marotaba urilsa, bo'yi o'sishi to'xtab qolarmish.

8. Qiz bola kechqurun bosh yalang yotmasligi kerak, negaki sochining xar bir tolasiga bittadan farishta qo'narmish.

9. Baxti ochilmagan qiz har chorshanba azondan bosh yuvishni kanda qilmasa, baxti ochilarmish.

10. Bola o'qlov bilan urilmaydi, aks holda bola o'z baxtini topmasmish.

11. Kechqurun o'sma qo'yilmaydi, aks holda qiz bola baxtsiz bo'larmish.

12. Ikki marta o'sma qo'yilmaydi, aks holda qiz bola ikki marta turmushga chiqar ekan.

13. Kimki bo'ydoqlikda mushukni yaxshi ko'rsa, uylanganida xotinini ham yaxshi ko'radi.

14. Yigit kishiga o'sma qo'yilmaydi, aks holda qamoqqa tusharmish. Ba'zida bilmay qo'yilsa - boshini tandir ichiga tikib olmoq joiz.

15. Qiz bola tirsagini urib olsa, demakki, bo'ydoq yigit uni izlayapti.

16. Ota-ona uyda bo'lsa, farzand o'sha uyning tomiga chiqmasligi kerak. Aks holda hurmatsizlikdir.

17. Kiz bola chorshanba kuni tirnog'ini olmaydi, aks holda baxtsiz bo'larmish.

18. Yigit yaqin qarindoshiga uylanmaydi, qiz bola ham yaqin qarindoshiga turmushga chiqmaydi, aks holda farzandlari nogiron tug'iladi.

19. Qizni so'rab kelgan sovchiga norozilik belgisi sifatida oyoq kiyimini teskari qo'yish kifoya.

20. Agar qiz bolaning qoshlari orasi uzoq joylashgan bo'lsa, uzoq joyga kelin bo'lasan deydilar

21. Bo'ydoq yigit ostonada o'tirsa – qo'ygan sovchisi quruq qaytarmish.

22. Bo'ydoq yigitlar ko'p uxlasa – bo'lajak rafiqasi dangasa bo'larmish.

23. Ikki yigit yoki ikki erkak kishi orasidan qiz bola o'tsa baxtsiz bo'ladi.

24. O'g'il bolalar juft yoshdaligida sunnati qilinmaydi, aks holda baxtsiz bo'ladi.

25. Qiz bola quyosh botayotganda bosh yuvmasligi kerak, aks holda husnini yo'qotadi.

26. Bola endi oyoq chiqarib tetapoya boshlaganida oyog'i tagiga suv sepib va ravon yursin deb, niyat qilinadi.

27. Oilada yigit bitta bo'lsa, dushanba kuni kir yuvish mumkin emas.

28. Qizlarning baxt ko'ylagini bir marta nikoh ko'rgan qo'shapir ayol bichadi.

29. Aytishlaricha, qiz bola kelajakda kim bilan turmush qurishini bilishni xohlasa, kechasi osmonga tikilib yulduzlarning bor yoki yo'qligini aniqlar ekan. Yulduzlar chiqqan bo'lsa o'zining shaxsiy ko'zgusiga qarab 12 ta yulduz sanarkan. So'ngra oynani o'zining yostig'i tagiga qo'yib yotsa, tong otgunga qadar kelajakda kimga turmushga chiqishini tush ko'rar ekan.

30. Oilada ikkita bola sunnat qilinganda biri yotgan uydan chiqib ikkinchisinikiga kirib bo'lmaydi. Ularning biriga chilla tushib bitishi qiyinlashmog'i tayin.

31. Ota qizining boshiga urmasligi kerak, aks holda qizi baxtiqaro bo'larmish.

32. Osmonda kamalak chiqqanda qizlar sochini qirqsa — sochi uzun bo'larmish.

Homilador ayollar va yosh bolalarga oid taqiqlar

1. Homilador ayol ko'ylagiga to'g'nag'ich taqmasligi kerak.
2. Chaqaloq chillasidan chiqquncha yolg'iz qoldirilmaydi.
3. Yangi tug'ilgan chaqaloqli uyga aza bo'lgan uydan kishi kelishi taqiqlanadi.
4. Chaqaloq chillasidan chiqmaguncha ona uni birovnikiga olib bormaydi.
5. Chaqaloq tug'ilgan uyda 40 kungacha kechasi chiroq o'chirish mumkin emas, bolaning kelajagi yorug' bo'lsin, deb shunday qilinadi.
6. Bola yoshiga yetguncha kechasi uni qorong'ida olib yurilmaydi, aks holda bola uchinar emish.
7. Beshikni alas qilmasdan unga bolani belamaydilar, chunki bola dardga chalinar emish.
8. Bolaning beshigi quruq tebratilmaydi.
9. Bola beshigining usti ochiq qo'yilmaydi. Go'yo beshik usti ochiq qolsa, unga insu jinslar kirib yotarmish.
10. Bolani beshikka solganda, u yotgan ko'rpacha ostiga, albatta, yo non, yo pichoq qo'yiladi. Non yoki pichoq unga keladigan har qanday baldo-ofatni yo'qotarmish.
11. Chaqaloqni yostiq ustiga yotqizmaydilar.
12. Tishi chiqmagan bola eshakka mindirilmaydi. Eshaktish bo'lmasin deb shunday qilinadi.
13. Bolaning qo'liga gul berilmaydi.
14. Yosh bolani biror joyga olib borsalar, uning qo'ndog'iga non qo'yib boradilar.

15. Chaqaloq ko'ylakchasining etagini buklab tikmaydilar. Bu bilan kelajakda chaqaloqqa yo'li ochiqlik tilanadi.

Kunlar va vaqtga doir taqiqlar

1. Ayol 7 hafta chorshanba kuni bosh yuvsa, albatta beva bo'lib qolarmish. Sababi - eri o'lishi mumkin. Qiz bola esa sochini yuvsa yaxshi.
2. Chorshanba kuni to'y qilish xosiyatli emas. O'sha kuni bo'lgan bola o'g'ri bo'lib tug'ilarmish
3. Odam yashab turgan hovlida darvozani ertalab yopib qo'yish xosiyatsiz sanaladi.
4. Oftob qo'ngach, uy yoki hovlini supurish xosiyatsiz sanaladi, chunki o'sha paytda farishtalar kelarmish.
5. Namozshomda igna bilan biror narsani tikish uvol sanaladi, arvohlarga igna suqilarmish.
6. Ayyom kirganda bosh yuvmaslik lozim, aks holda, kishi laqma bo'larmish.

O'limga oid tabular

1. Ta'ziya bo'lgan kun bosh yuvilmaydi.
2. Ta'ziya bo'lgan kun uxlayotgan kishini erta uyg'otadilar.
3. Ta'ziyali xonadonda 40 kun ichida suv zarb bilan sepilmaydi, sekin sepiladi. Chunki o'lik 40 kun ichida shishib yoriladi. Agar suv zarb bilan sepilsa — o'lik yorilib ketadi deya irim qilinadi.
4. O'lik chiqqan xonadonda 40 kungacha yog' qizdirilib ovqat qilinmaydi. Aks holda o'lik yoqqa qovurilgan bo'ladi. Shu vajdan qaynatma ovqatlar qilinadi.
5. Ta'ziyada isiriq tutatilmaydi, aks holda ko'z tegmasin degan ma'noni berar ekan.
6. O'lik chiqarilmay turib, bosh yuvilmaydi. Aks holda bosh og'riq bo'lish mumkinmish.
7. O'lik chiqarilmay uxlanmaydi, aks holda o'likning og'irligi tushib odam kasal bo'larmish.
8. Qo'shnisi yoki yaqin qarindoshi vafot etganda, o'lik chiqargunga qadar bosh yuvmaslik, baland ovoz chiqarmaslik, ko'chaga bosh ochiq chiqmaslik kerak.
9. Sochni yoyib yurish uyga aza chaqirish hisoblanadi.

10. O'lim bo'lgan kunda saqich chaynalmaydi, aks holda shu o'lgan insonning boshini chaynagan bo'larmish.

11. O'lik chiqarilayotganda yangi to'y bo'lgan kelin-kuyovlar uni ko'rmasliklari kerak, aks holda ular umrbod baxtsiz bo'larmish.

12. Yangi azador xonadonda kir yuvilmaydi. Aks holda mayitning og'ziga mag'zava to'kilarmish.

13. Azador xonadonga toq narsa eltish kerak. Juft narsa bo'lsa, azang ko'paysin, azangga aza qo'shilsin degan ma'noni bildirarmish.

14. Ta'ziyadan hech qayerga kirmay to'g'ri uyga kelish kerak.

15. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa uch kundan keyin umri uzoq bo'lsin deb ugro pishiriladi.

16. O'lik ustiga o'lik bo'lmasin deb, o'lik bo'lgan uyda 20 kun o'tguncha tuxum qaynatib yeyilmaydi.

17. O'lik chiqqan xonadondan yeyiladigan narsa olib ketilmaydi, aks holda boshqa xonadonda ham o'lik bo'larmish.

18. Kechqurun mozor oldidan o'tayotganda omin qilinmaydi, chunki arvohlar yurar emish.

19. Mozor oldida hojat chiqarilmaydi, aks holda arvohlar bosar ekan.

20. Azador xonadonda xamirli ovqat pishirilmaydi. Yoki lag'mon, chuchvara kabi taomlar pishirib kelinmaydi. Bu bilan azangga aza qo'shilsin degan ma'no anglanadi.

21. Ta'ziya kuni qassol ko'ziga qaralmaydi, aks holda oqibati yomon bo'larmish.

22. Tobutga mayitni solib qabristonga ketayotganda yomg'ir kafanga tegmasligi kerak. Aks holda izi uzilmay o'lim bo'ladi deya irim qilinadi.

23. Kech tushgach baland ovoz bilan gapirilmaydi. Aks holda bu ta'ziyadan darak berarmish.

24. Xonadonda tez-tez ta'ziya bo'lsa, qaytib takrorlanmaslik uchun orqasidan supuriladi va tosh otiladi.

25. Biror kishi olamdan o'tgan bo'lsa, o'sha kun non pishirilmaydi, aks holda uning gunohlari og'irlasharmish.

26. Uch kundan ortiq aza tutilmaydi, aks holda ko'p kuyinish keyingi baxtsizlikni boshlab kelarmish.

27. Belga yoki bo'yinga ro'molni bog'lab qo'yish mumkin emas. Negaki ta'ziyador kishilargina belga to'n ustidan bel bog'lashadi.

28. Vafot etgan kishi tushga kirsa — tiriklar bezovtalanmasin degan ma'noda tandirga qorachiroq yoqiladi.

Ro‘zg‘or ashyolari va turli predmetlarga oid taqiqlar

1. Uyda, hovlida supurgini tikka qo‘yish uvol. Tik qo‘yilsa kimdir o‘larmish. Supurgining ustidan sakramaydilar. Aks holda u xorlik keltirarmish. Supurgi qo‘ldan qo‘lga berilmaydi, birovga berilmoqchi bo‘lgan taqdirda yerga tashlanadi. Supurgini qo‘lga berish o‘sha odamga yomonlik tilashdir, deb tushuniladi.
2. Dasturxonni nonsiz, suprani unsiz qo‘yish uvol, aks holda, uydan xayru baraka ketarmish.
3. Dasturxon qora matodan tikilmaydi. Aks holda qora kunlarni olib kelarmish.
4. Qozonni kechasi yuvmasdan qoldirish mumkin emas, aks holda, uydan xayru baraka ketarmish.
5. Qozon yerga qo‘yilmaydi, aks holda, shu uyning erkagi qarzdor bo‘lar emish.
6. Ovqat qoldig‘ini kosa tagida qoldirish uvol.
7. Qozonni chappa qo‘yish mumkin emas, aks holda, rizq-ro‘z ucharmish.
8. Qaychi quruq ochib yopilmaydi. Buni er-xotin orasida janjal chiqishiga yo‘yadilar.
9. Biror kiyimni tikib bo‘lingach, ignani ipsiz qoldirish mumkin emas, aks holda, kishi judolikka uchrar emish.
10. Kulni bosish va uning ustidan sakrab o‘tish mumkin emas.
11. Tovuq tuxumining po‘chog‘ini yoqish qat’iyan man etiladi.
12. Singan buyum ustida saqlanmaydi. Aks holda uy egasiga baxtsizlik keltirarmish. Singan oynaga qarash taqiqlanadi. Aks holda kishi baxti qaro bo‘larmish.

Kishilar turmush faoliyatining turli sohalariga oid taqiqlar

1. Mehmonning orqasidan uy supurilmaydi. Shuningdek, uydan biror kishi safarga chiqsa, orqasidan uy supurilmaydi. Aks holda, uning izi yo‘qolarmish va qaytib kelmasmish.
2. Yotgan kishining ustidan sakramaydilar.
3. Kishi choponni kiymay, elkasiga tashlab yursa, barakasi ketarmish.
4. Yetim haqini eyish uvol.
5. Havoni, shamolni so‘kish mumkin emas. Aks holda, odam g‘azabga uchrarmish.
6. Birovning g‘iybatini qilish gunoh.

7. Tishni bir-biriga tegizib, g'ijirlatish mumkin emas, aks holda, janjal chiqarmsh.

8. Ertalab uyqudan kech turish xosiyatsiz, uydan xayru baraka ketarmish.

9. Hovlida chiqqan tikanni yulib tashlash lozim, aks holda, xonadonga xorlik keltirarmish.

10. Sochiqqa bir vaqtda ikki kishi qo'l artishi mumkin emas, aks holda, ular o'zaro urisharmish.

O'ZBEK XALQ NASRI

ASOTIRLAR

Oy bilan kun

Bir paytlar Oy bilan Kun er-xotin bo'lishgan ekan. Ular er-xotinlik davrlarida yaxshi yashashibdi. Turmush, tirikchiligi odamlarga xizmat qilishni ham bab-baravar bo'lib olishgan ekan. Kun kunduz kuni yotog'idan chiqib tirikchilik g'amini yer, odamlarga iliqlik ulashib, kech kirgach, uyiga horib-charchab qaytar ekan. Kun kunduzi uyiga keldimi, Oy pishirgan-netganlarini uning oldiga qo'yib, edirib —ichirgandan keyin uyidan chiqib ketar ekan. Qorong'u bo'lsa odamlar bir-birlarini ko'rolmay qolishar ekan-da! Shuning uchun Oy ham kechasi uyidan chiqib, tunni yoritib, odamlarning mushkulini yengillashtirar ekan. Kun bilan Oy shunday kun kechiraverishibdi.

Kundan-kun, oydan-oy o'tib, Oy bilan Kun farzand ko'rishibdi. Otini Yulduz qo'yishibdi. Keyinchalik bitta bolalari ikkita bo'libdi, ikkita bolalari uchta bo'libdi, uchta bolalari to'rtta bo'libdi. Bora-bora shunchalik ko'payib ketishibdiki, sanab sanog'iga, aytib adog'iga yetolmay qolibdilar. Kunlardan bir kun nimayam sabab bo'lib, er-xotin urushib qolishibdi. Kun zarda qilibdi, Oy arazlabdi. Bo'lganda bolalariga qiyin bo'libdi. Kun uydan ketib qolibdi. Onalari Oymomo sal uyquga ketdi deguncha Kun bolalaridan birovini olmoqchi bo'larmish, Oy bilib qolib, uni yana tortib olarmish. «Yulduz uchdi, Oy tutdi», — degan gap shundan qolgan ekan.

Hozir ham Kun bolalarini ko'rmoqchi bo'lib, Oy uyquga ketganda ularni olib qochmoqchi bo'larmish-u, Oy uyg'onib ketib, bolasini olib qolarmish. Kunduzi bo'lsa ularni umuman ko'rsatmasmish...

Aziz momo va uning o'g'illari

Hikoya qilishlaricha, tog' tepasidagi g'orlardan birida Aziz momo degan shum kampir yashar emish. Uning bir-biridan johil ikki o'g'li-egizaklari bo'lib, birining oti Dahman, ikkinchisiniki Ahman ekan. Erta ko'klam kunlari esadigan ayozli shamollarni ana shu Ahman-Dahman yuborar ekan. Aziz momo uxlab yotganida bolalari uning shamol qopini o'g'irlab olib, sekin og'zini ochishar, qopdagi shamollarni chiqarib yuborishar ekan. Momo uyg'onganidan so'ng qarasaki, qopi bo'shab qolibdi. Buni odamlar qilgan bo'lsa kerak, deb o'ylagan Aziz momo butun qahrini odamlarga sochib, mol-hollariga, endigina ko'karmoqchi bo'lib turgan ko'katlariga, kurtak ochish arafasida turgan nihollariga qirg'in keltirmoqchi bo'lib, ayozini qo'yib yuborar, qattiq shamol, qor-yomg'irlarini odamlar ustiga haydar ekan. Ammo Aziz momo qancha urinmasin, ko'klamni to'xtatib qolishga qurbi yetmas ekan. Og'zida bir tishi yo'q, yaxshilik bilan hushi yo'q, yomon odamlar bilan ishi yo'q, o'zi judayam oriq, tos-tepasidan tarlon ochgan, manglayi yoriq, ikki ko'zi yaltiragan, hassa ushlagan qo'llari har doim qaltiragan Aziz momo halol, yaxshi odamlarni jinidan battar yomon ko'rar, ularning mol-joniga ofat keltirishga urinib ko'rarkan. Bosh yuvayotgan odamlarni ko'rsa, hassasi bilan bir urar, o'sha odamning boshi og'rib, o'zi laqma bo'lib qolarmish.

Aytishlaricha, Aziz momo bor-yo'g'i olti yoki o'n kungacha umr ko'rarkan, xolos. Shu bois odamlar:

Aziz momo olti kun
Qaltirasa yetti kun.
Saqransa sakkiz kun,
To'qransa to'qqiz kun,
O'qransa o'n kun!

degan maqolni yaratishgan ekan. O'n kun o'tib, odamlarga yomonlik qilishga ortiq kuchi yetmasligini, bahorni to'xtatib qololmasligini bilgan Aziz momo uyquga ketish oldidan o'g'illarini yoniga chaqirib, nasihat qilarkan:

– Ahman, Dahman, bolam! Zo'rlay ber! Ola qopda un qoldi, bo'y qizda buvak (bola) qoldi! Ola to'qlida jir (yog') qoldi! Zo'rlay ber-a, bo'sh kelma! Shunday deb Aziz momo uyquga ketarkan. Onasining nasihatini eshitgan Ahman-Dahman butun alamini borliqdan olmoqchi bo'lib, hamma yoqni yaxlatib yubormoqchi bo'lib sovuq shamollarini har tomondan haydab, odamlarning ustiga bostirib borisharkan. Ular dov-daraxtlarni

sovuqqa urdirib, kelayotgan bahorning yo'liga to'g'anoq bo'lishga urinishar, ammo ular baribir bola-da, yoshlik qilib, bir-birlariga xalaqit berisharkan, xolos. Shuning uchun Ahman-Dahmanning shamoli beqaror bo'lib, goh qibladan essa, gohida quyidan kelar, ba'zida kun chiqardan doxil bo'larkan. Shu bois bu shamollar na odamlarga, na jonzotlarga ziyon etkazolmas, Ahman-Dahman horib-charchab, barcha urinishlari behuda ekanligini bilib, oxiri «E, bor-el»-deyishib tupurib, o'zlarining makoni bo'lmish g'orga qaytib kirib ketisharkan. Ularning tupugi esa do'lga aylanib erga tusharkan. Agar ilk ko'klam kunlari ba`zan havo aynib, yomg'ir aralash do'l yog'sa, buni ana shu Ahman-Dahmanlarning alamli ko'z yoshlari bilan tupugi deydilar. Ahman-Dahman g'orga qaytib ketgan kunni odamlar yangi kun deb bayram qilishar, yilboshi ham o'sha kundan boshlanarkan.

Angur bilan Tangur

O'tgan zamonda Angur bilan Tangur degan judayam katta ikki aka-uka bor ekan. Ikkovi sherik bo'lib ov qilib, ovlagan jonivorlarining go'shtlarini bo'lib yer ekanlar. Bir kuni ovdan qaytib kelib ov go'shtlarini bo'lganda Angurning oilasiga taqsim bo'lgan go'sht Tangurning ko'ziga ko'proq ko'rinibdi. Tangur Angurga:

— Mening senga ozroq haqim ketdi, —debdi.

Angur esa:

— Bekor aytibsan! —debdi.

Oxiram shuytib, Angur bilan Tangur yoqalashib qolishibdi. Ikkovi qo'liga tayoq olib, bir-biriga sermashib, dunyoning u boshidan bu boshigacha quvalashib, to'balashib ketibdilar. Angur bilan Tangurning tayoqlari har sermaganlarida osmonga qadalib qolib, osmonni yara qilib, sidirib ketibdi. Osmondagi Somon yo'li degan sidiriq aslida Angur bilan Tangur yoqalashganda paydo bo'lib qolgan ekan.

AFSONALAR

Hazorasp

Qadim zamonlarda bir mamlakatda uchar otlar bo'lgan ekan. Ular uchib kelib, buloqdan suv ichib bo'lishgach, yana kelgan tomonlariga qarab uchib ketishar ekan. Terlasalar qon terlar ekanlar. Odamlar ana shu otlarni tutib minmoqchi, qo'shga qo'shmoqchi bo'lishibdi. Hech qanday yo'l bilan ularni ushlolmagach, uchar otlar doim kelib suv ichadigan buloqqa behush qiladigan dorilardan sepib qo'yishibdi. Otlar uchib kelib, odatdagidek buloq suvidan sipqorib, to'yib-to'yib ichishibdi-da, hushdan ketib birin-ketin qulay boshlabdilar. Butazorlarda poylab turgan odamlar yugurishib chiqib, otlarni ushlab minib olaveribdilar. Keyin qanotlarini qirqib, ulardan minishda, qo'shga qo'shishda foydalanibdilar. Shu buloq atrofi obod, ko'rkam bo'lib ketibdi. Ekinzorlar paydo bo'libdi. Odamlar bu joyning nomini Hazorasp, ya'ni ming ot qo'ngan, ming ot tutilgan joy, deb yurita boshlabdilar.

Iskandarning shoxi

Qadim-qadimlarda nomi dunyoning yetti iqlimiga taralgan bir podshoh yashab, uzoq umr ko'rgan ekan. Uning oti Shoh Iskandar ekan. Ba'zilar uni Zulqarnayn, ya`ni ikki shoxi bo'lib, uni hech kimga ko'rsatmay, nihoyatda ehtiyotlar ekan. Shu Zulqarnayn oz emas, ko'p emas, besh yuz yil umr ko'ribdi. Vaqti qazosi yetib, o'limi oldidan onasiga shunday iltimos qilibdi:

— Ey, onajon, menga ko'z berding-jahonni ko'rdim, til berding—uni qurol qilib, dunyoni egalladim, oyoq berding—olamni kezdim, aql berding—elu yurtlarni adolat bilan so'radim. Bormagan yerim, ko'rmagan kunim, so'ramagan davlatim qolmadi. Endi vaqti soati yetdi, o'lim haq, undan hech qayoqqa qochib qutulolmayman. Magar o'lsam meni Xurum daryosining eng chuqur tagiga ko'mdiring. U yerga menga o'xshash bir qancha Iskandarlar ko'milgan bo'lsin. Men ham o'shalar orasida bo'lay. Agar boshingizga biror mushkul ish tushsa, yo qiynalib qolsangiz, Xurum daryosining qirg'og'iga borib: «Hoy, Iskandar bolam, chiq!» —deb chaqirsangiz, men darrov chiqaman, —debdi. Iskandar Zulqarnayn shunday deb vasiyat qilgach, vafot etibdi. Kunlardan

bir kun onasining boshiga kulfat tushib, Iskandar Zulqarnayn ko'milgan joyga borib, Xurum daryosiga qarab: «Iskandar bolam chiq!» –deb qichqiribdi. Ovoz chiqmabdi. Onasi oxirgi martaba: «Iskandar, bolam, chiq!» –degan ekan, daryo ichidan: «Qaysi birimizni chaqiryapti bu ona?» –degan ovoz kelibdi. Onasi: «Men Iskandar Zulqarnaynni chaqiryapman»,–debdi. Shu payt daryo ikkiga yorilib, Iskandar Zulqarnayn boshidagi ikkita shoxlarini ko'rsatib: «Iskandar Zulqarnayn men bo'laman!» –deb chiqib kelibdi-da, onasi aytgan yumushni bajarib bo'lgach, yana daryoga tushib yo'q bo'lib ketibdi.

Xiyonat

Guldursun bir zamonlar Guliston deb atalgan ekan. Bu joy yer-suvi mo'l, gullab-yashnagan, boy shahar ekan. Shaharni qari bir podshoh so'rar, uning Guldursun ismli go'zal qizi bor ekan. Kunlardan bir kuni shaharning boshiga kulfat tushibdi: sahrodan bosqinchi qalmoq galalari o'z yo'lida uchragan hamma narsani bosib-yanchib, nihoyat, shaharga yaqinlashibdi. Qalmoqlar gullab-yashnagan dala va bog'larni yer bilan yakson etib, so'ng shaharni qamal etibdi. Aholi shaharni mardonavor mudofaa qilibdi, dushmanning xalq qarshiligini yengishga kuchi yetmabdi. Shu tariqa oylar o'tibdi, baxtga qarshi yanada xavfliroq dushman-ochlik bosqinchilarga yordamga kelibdi. Oziq-ovqat jamg'armalari tugab, odamlar ko'chalarda vafot etisha boshlabdi. Saflari siyraklashib qolgan shahar himoyachilari qurollarini qo'llarida zo'rg'a ushlab turar ekanlar. Podsho shunda o'zining amaldor va lashkarboshilarini maslahatga chaqiribdi. Bularning ichidan bir odam topilib, u so'nggi najot chorasini sinab ko'rishni taklif qilibdi. Bu-juda ayyorona reja ekan. Qamaldagi gulistonliklar qolgan bir necha ho'kiz ichidan eng semizini maxfiy yo'l bilan saroyga keltirib, uni podsho omboridagi so'nggi bug'doy bilan boqishibdi va shahardan tashqariga chiqarib yuborishibdi. Faqat qamaldagilar emas, balki qamal qilganlar ham ochlikdan azob chekishayotgan ekan. Qalmoqlar bir necha oy davomida nimani yeyish mumkin bo'lsa, hammasini bitirgan ekan. Ularning qarorgohida qamaldan voz kechish to'g'risida gap-so'zlar boshlanibdi. Och qalmoqlar ho'kizni tutib olib so'yishibdi, shunda ular ho'kizning oshqozoni sara bug'doyga to'la ekanligini ko'rib, sarosimaga tushibdi. «Agar ular molni shunchalik boqsa, g'amlagan oziq-ovqati behisob ekanda?» deb baqirishibdi jangchilar. Qamal qilishdan foyda yo'q,

shaharni olib bo'lmaydi, ochlikdan qirilib ketmasdan jo'nab qolaylik.

Qalmoqlarning lashkarboshilari ham shu fikrga kelishib, qaytishga hozirlik ko'ra boshlashibdi. Biroq podshohning qizi Guldursunning xayoli boshqa narsada ekan. U uzoq oylar davomida qalmoqlarning mard, pahlavon, yosh va xushqomat lashkarboshisi-qalmoq podshosining o'g'lini devordan kuzatib yurar ekan. Qizning qalbida xalqning dushmanlari yo'lboshchisiga nisbatan cheksiz ehtiros alanga olibdi. Qiz qamaldagilarning hiylasi ish berganini, yuk ortilgan tuyalarning bo'kira boshlagani, qalmoqlarning o'tovlari birin-ketin yo'qolayotganini ko'rib, bir necha soatdan keyin ularning bu yerda qolmasligiga, ular bilan birga go'zal shahzoda ham abadiy ketishiga ko'zi yetgach, inson nomiga nomunosib ish tutibdi. O'zining kanizagidan qalmoq bahodiriga xat berib yuboribdi. Xatda qiz yigitga bo'lgan muhabbatini izhor qilib, gulistonliklarning sirini ochib beribdi. «Yana bir kun kut, —deb yozibdi u, -shaharning taslim bo'lishini o'zing ko'rasan».

Qalmoqlar tuyalardan yuklarini tushirishibdi, tunda qarorgohda yana son-sanoqsiz gulxanlar yonibdi.

Shahar talanib yondirilibdi, aholining bir qismi qirib tashlanibdi, qolganlarini esa qul qilib olib ketishibdi. Sotqin Guldursunni shahzoda oldiga keltirishibdi. Shahzoda unga qarab shunday debdi: «Vataning dushmaniga bo'lgan nomunosib ehtirosi tufayli xalqiga va o'z otasiga xiyonat qilgan ekan, yana boshqa birov uning hirsini uyg'otsa, menga vafo qilarmidi? Uni yovvoyi ayg'irlarning dumiga bog'lang, toki bundan keyin hech kimga xiyonat qilolmasin».

Ot dumiga bog'langan Guldursunning tanasi parcha-parcha bo'lib, cho'lu biyobonlarda qolib ketibdi. Xon qizining la'nati qoni to'kilgan bu yer xarobaga aylanib, endi Guliston emas, Guldursun deb atala boshlabdi.

Qaytar dunyo

Ilgari odamlar ota-onasi qarisa, G'iyosinga tiriklay sandiqqa solib eltib tashlab kelishar ekan. Bir marta birov qarib qolgan otasini sandiqqa solib orqalab G'iyosinga eltib tashlagani jo'nab, yo'lda charchab, sandiqni bir toshga qo'yib, dam olib o'tirsa, sandiq ichidagi otasi: — "Qilmish qilaber mush, oldingga kelsin bir

mush!" – debdi. Shunda o'g'li bu so'zni eshitib, otasiga: – Ota, bu nima deganingiz? – debdi. Otasi: "O'g'lim, Qilmish qilaber mush, oldingga kelsin bir mush! Men ham bir vaqtlar otamni sandiqqa solib orqalab shu toshga kelib dam olib o'tirganimda otam sandiqning ichida turib:

– "Qilmish qilaber mush, oldingga kelsin bir mush!" – degan edi. O'sha kun bugun oldimga kelib, sen meni sandiqqa solib ko'tarib kelib shu toshda dam olib o'tiribsan. Shu voqea bir kun sening ham oldingga kelib, o'g'ling seni ham sandiqqa solib ko'tarib kelib, shu toshda dam oladi deb shu so'zni aytayotirman", –debdi.

Otasidan shu so'zni eshitgan yigit ta'sirlanib, otasini G'iyosinga eltib tashlashdan voz kechib, sandiqni uyga qaytarib olib kelib, sandiqning ostidan teshik qilib, har zamonda sandiqqa ovqat tashlab qo'yib, teshikdan axlat tushsa pastga olib tashlab hech kimga bildirmay, otasini asray beribdi.

Shu oradan ko'p vaqtlar o'tib ketib, bir yili havodan nam kelmay ko'rbuloqlar ko'rlanib quriy boshlabdi. Suvga tashna odamlar qayerdan quduq qazisa, suv chiqmas emish. Odamlar shu ahvolda juda tashvishda qolibdilar. Bir kuni haligi otasini yashirib asrab yotgan yigit: "Qani? Shu to'g'rida otamdan bir maslahat so'rab ko'raychi?" –deb, otasi yotgan sandiqning oldiga kelib: "Ota, havodan yomg'ir yog'may, ko'rbuloqlar qurib ketdi. Endi xalq qayerdanki mo'ljallab quduq qazisa, suv topmayotir. Hamma suvga tashna. Sizning yoshingiz ulug', umrning tajribalarini ko'rgan odamsiz, mabodo biror suvi yaqin yer bo'lsa, ayting, toki xaloyiq suvsizlikdan halok bo'lmasin", –debdi. Otasi sandiqning ichidan turib: – "Biyalar tushda tuyog'i bilan tirnab yotayotgan erni kovlab ko'ringlar, chunki biyalar o'sha kovlayotgan yeridan naf olib, tashna bo'lmay yuradi", –debdi.

Yigit otasidan bu so'zni eshitib, xaloyiq bilan biyalarning tushda tuyog'i bilan yerni tirnab yotadigan joyini kovlab ko'ribdi, vaqirlab bir quloq suv otilib chiqib ketibdi. Shunda xaloyiq haligi yigitdan: – Hay, sen bu yerning ostida bir quloq suv borligini qanday bilding? –deb so'rabdilar.

Yigit otasini G'iyosinga eltib tashlamay, yo'ldan qaytarib kelib, eldan yashirin sandiqqa solib asrab boqib yotganini va suvni qanday qilib topish kerakligini otasidan eshitganini xaloyiqqa aytib beribdi. Bu xabar podshohning ham qulog'iga yetib, qari odamlarning hayotiy tajribalari va ibratli gaplari elga kerak bo'lar ekan deb shunday qaror chiqaribdi:

"Endi shu bugundan boshlab hech kim ota-onasi qarisa ham G'iyosinga olib borib tashlamasin! Balki ularning o'zlari o'lgandan keyin izzat-ikrom bilan sag'ana solib, o'sha sag'anaga eltib qo'yishsin. Podshohning qaroriga bo'ysunmagan kishilarning boshi o'limda, moli talonda bo'lsin!".

Shundan buyog'iga hech kim ota-onasi qarisa ham G'iyosinga eltib tiriklayin tashlamay, balki ajali etib o'lganlaridan keyin izzat-ikromlar bilan sag'anaga eltib ko'madigan bo'libdilar.

Temir qoziq

Olang'asar[1] ovlagan olqorlarini ilib qo'ymoq uchun osmonning o'rtasiga katta bir temir qoziq qoqibdi. Buni ko'rgan Xudo "Yerni oyoq osti qilgani ozlik qilganday, endi osmonni ham teshmoqchimi?!" –deb achchiqlanibdi. Xudoning amri bilan har birining kattaligi tog'day bo'lgan toshlar yer yuziga yog'ilibdi. Yerdagi tog'lar ana shundan paydo bo'lgan ekan. Dengizlar toshib ketib, zamin suv ostida qolibdi. Oxiram Xudo yerga qarab bir puflagan ekan, u purkagan sovuqlikdan dengiz suvi shunday muzlabdiki, Olang'asarning bo'rboyidan pasti ham qo'shilib muzlabdi. Muzlagan oyoqlar gavdani ko'tara olmay, qirqilib tushibdi. Olang'asar "gup" etib dengizga ag'darilib tushib, halok bo'libdi. Hali Olang'asar qoqqan qoziq osmonda bor emish. Shuning uchun Temir qoziq yulduzining tubi sovuq bo'lar emish.

Qusam ibn Abbos g'oyib bo'lgan quduq

Muhammad payg'ambarning amakivachchasi Abbosning o'g'li Qusam ko'p sonli qo'shini bilan Samarqandga keladi. Samarqand aholisi istilochi dushman deb Qusam ibn Abbos qo'shinlariga qarshi jang qiladilar. Arablarga qarsha jangda yengilgan samarqandliklar Panjakent tog'iga qochadilar. Qusam ibn Abbos boshchiligidagi arablar esa shaharni qo'lga kiritadilar.

Qusam ibn Abbos qo'shinida xizmat qiluvchi Zevarshoh ismli bir yigit arablar bilan aloqasini uzib tog'ga, samarqandliklar huzuriga keladi. U Samarqand hokimining go'zal qizini ko'rib uni sevib qolgan ekan, shu bois arablarni qanday qilib yengish

[1] Qadimgi turklarning ilk odam haqidagi mifologik tasavvurlari asosida shakllangan obraz.

mumkinligini aytadi. U musulmonlar namoz o'qishayotganda hujum qilish kerak, chunki ular bu vaqtda namozdan boshqa hech narsaga chalg'imaydilar, deydi. Shunday qilib, Zevarshohning maslahati bilan samarqandliklar Hayit namozini o'qib turgan arablarga hujum qiladilar. Bir zumda ularning barchasini qilichdan o'tkazadilar. Musulmonlar sardori Qusam ibn Abbos esa boshi tanasidan judo qilinganiga qaramasdan, kesib tashlangan boshini ko'tarib olib, jang maydonidan qochadi va shahar chekkasidagi eski bir quduqqa tushadi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ladi.

O'sha vaqtdan boshlab, Qusam ibn Abbos g'oyib bo'lgan joy, ya'ni quduq muqaddas joy hisoblanib, Shohi Zinda yoki Tirik shoh nomi bilan mashhur bo'lib ketgan ekan.

Devqal'a

Devqal'a nomli bu qal'ani Farhod ismli bir dev qurgan emish. Farhod Xorazmshohning Shirin nomli go'zal qizini sevib qoladi va unga sovchi qo'yadi. Bu voqea podshoni juda qiyin ahvolga solib qo'yadi. U bahaybat devga qizini berishni xohlamaydi, ammo rad javobi berishdan ham qo'rqadi. Shuning uchun bir jodugar kampirdan yordam so'raydi. Shunda jodugar Farhodga bajarib bo'lmaydigan og'ir shart qo'yishni maslahat beradi. Podsho Farhodni huzuriga chaqirib, toshdan asar ham bo'lmagan Qoraqum sahrosining o'rtasida tosh qal'a qurishni buyuradi. Biroq dev uzoq janubdagi tog'lardan elkasida tosh tashib, qal'ani qura boshlaydi. Bir kuni qarasalar, qal'a bitay deb qolganmish. Undan tashvishga tushgan podsho yana jodugarni maslahatga chaqiribdi. Jodugar o'zi belgilagan kuni to'qqiz mingta bo'taloqni, yana shuncha toy, buzoq va qo'zichoqlarni so'yishni maslahat beradi. Qolgan ishni o'z zimmasiga oladi. Belgilangan vaqtda jodugar dev qurib bitkazayotgan qal'a oldiga keladi. Shu payt Xorazm tomondan dahshatli hayqiriq eshitiladi – bu so'yilayotgan minglab jonivorlaru ularning onalarining ovozi ekan.

Shunda Farhod:

– Bu nechuk ovoz? – deb so'rabdi.

– Hozirgina malika vafot etdi, Shiringa butun ahli Xorazm aza tutib fig'on chekmoqda! – deb javob beribdi jodugar kampir.

Sevgilisining o'limi to'g'risidagi xabarni eshitib gangib qolgan dev "usiz menga yashashdan ne foyda!" – deb hali joyiga qo'yishga ulgurmagan so'nggi toshni osmonga uloqtiradi. Tosh Farhodning ustiga qaytib tushadi. Devni sevib qolgan Shirin ham fojea ro'y

bergan joyga yetib keladi va sevgilisining jasadi tepasida o'ziga pichoq sanchib halok bo'ladi. Qoraqum o'rtasidagi bu qal'a esa Devqal'a[1] deb atala boshlanibdi.

Doira

Qadim-qadim zamonlarda bir mamlakatning savdogarlari savdo qilish uchun safarga chiqishibdi. Yo'llari cho'li Malikdan o'tar ekan. Yo'l yurib, yo'l yurishsa ham oz emas, mo'l yurishib, cho'li Malikning qoq o'rtasiga borib qolishibdi.

Bir payt g'amlagan suvlari tamom bo'lib qolibdi. Suvsizlikdan birin-ketin sulayishib, yotib qolishibdi. Kuch-quvvatlari ketib, turib yurishga aslo madorlari qolmabdi. Karvonda bir yigit ham bor ekan. U o'zining oxirgi meshidagi suvni safardoshlari og'ziga tomchilab-tomchilab quyibdi. Odamlar bir oz o'zlariga kelishibdi-yu, baribir issiq hamda chanqovdan yo'lga tusha olishmabdi. Shunda boyagi yigit o'ylab-o'ylab, suvdan bo'shagan meshini yorib, aravaning g'ildiragiga tarang qilib tortibdi. Shundan keyin oftobga qaratib qo'yibdi. So'ngra uni taka-tumlata boshlabdi. Ovoziga mahliyo bo'lib qattiqroq taka-tumlatibdi. Bora-bora shunchalik ura boshlabdiki, asbobning ovozi butun cho'lni larzaga keltiribdi. G'ayritabiiy bu ovozdan odamlar ham o'zlariga kelib, g'imirlay boshlashibdi. Ularda kuch-quvvat, xatti-harakat paydo bo'libdi. Ovoz barxandan barxanga o'tibdi, tepalikdan tepalikka ko'chibdi. Oxiri shu cho'lning narigi chetida ketayotgan boshqa karvondagilarning qulog'iga yetib boribdi. Karvondagilar: «Karvon halokatga uchrabdi, bo'lmasa, bunaqa ovoz chiqarmasdi. Yordamga chaqiryapti, bormoq kerak», deb ularning oldilariga yetib borishibdi. Suv berib, falokatga uchragan savdogarlarni saqlab qolishibdi-da, savdoga birga olib ketishibdi. Cho'lda suvsizlikdan halokat holiga kelgan savdogarlarni saqlab qolgan narsa doira ekan. Shu-shu doira «taka-taka-tum», «taka-taka-tum», deb ovoz chiqara boshladimi, odamlarda tetiklik, dadillik, jasurlik kayfiyatlari uyg'onarkan.

Boyo'g'li

Boyo'g'li bir paytlarda dunyoga mashhur bir boyning arzanda o'g'li bo'lgan ekan. U juda erkatoy bo'lib o'sganidan otasining

---

[1] XII-XIII asrlarda qurilgan bu qal'a qadimgi Xorazm madaniyatining noyob obidalaridan biri bo'lib, Qoraqumning markazida qad ko'targan.

gapiga hamma vaqt ham kiravermas ekan. Otasi: «Namoz o'qi».-desa, o'g'il o'qimabdi, «ro'za tut»,–desa, tutmabdi, uni qil desa qilmabdi, buni qil desa, –qilmabdi. Otasi qattiq ranjib, xudoning oldiga borib:

– Bolam aytganimni qilmaydi, shuni jazolagan bo'lib, đo'q-po'pisa qilib qo'ysang, –debdi. Xudo: «Xo'p»,–debdi. Bir payt mo'jiza ro'y beribdi. Boyqush deb so'rashgan ekan, xudo: «Bu boyning o'g'li-boy-o'g'li-ku, –deb javob beribdi. Shu-shu boyning arzandasi «Boyo'g'li» bo'lib qolgan ekan. Boyo'g'li uyalganidan odamlarga, elga qo'shila olmay, yolg'iz yasharkan...

Boshqa afsonada aytilishicha, u yomonlik keltirarmish, tunda kimning xonadoniga kelib sayrasa, shu joydan o'lik chiqarmish...

RIVOYATLAR

To'maris

Eng qadim zamonlarda Amudaryo (Araks) yoqalarida O'rta Osiyo aholisiga mansub massagetlar yashar edi. Bu davrda ularga marhum podshoning xotini malika To'maris boshchilik qilar edi. Eron shohi Kir massagetlarni o'ziga qaram qilish maqsadida To'marisga uylanmoqchi bo'lib, sovchilar yuboradi. Lekin malika shohning asl maqsadini tushunib, unga rad javobini beradi. Shundan so'ng Kir ochiq tajovuzga o'tadi va massagetlar tomon qo'shin tortadi. U daryodan o'tish uchun ko'priklar qurdira boshlaydi Bu xatti-harakatlardan boxabar bo'lgan To'maris Kirga elchi yuborib aytadi: « Ey shoh, qilayotgan ishingni to'xtat. Hali sen o'z yurtingda podshohlik qilaver, bizni ham o'z holimizga qo'y. Lekin sen bunga ko'nmaydigan ko'rinasan. Agar biz bilan kuch sinashmoqchi bo'lsang, biz daryodan uch kunlik yo'l nariga ketamiz, sen bizning yerimizga o't yoki o'z yurtingda uchrashishni istasang, shuni xabar qil».

Bu taklifni eshitgach, Kir a'yonlarini to'plab maslahat so'raydi. Ularning ko'pchiligi To'marisning chekinishini quvvatlaydilar. Lekin ular o'rtasida Krez ismli maslahatchi shohga boshqacha bir hiylani o'rgatadi: « Ey, Kir, – deydi u, – agar sen o'z qo'shining qirilib ketmasin desang, fikrimni aytaman. Agar sen ularning inson ekanliklarini va taqdir hamisha bir xil bo'lavermasligini bilsang, u holda quloq sol. Agar biz dushmanni o'z yerimizga o'tkazsak-da, yengilsak, podsholigingdan batamom ayrilasan. Chunki g'olib

chiqqan dushman mamlakat ichkarisiga tomon intiladi. Agar dushman yeriga o'tib, g'alaba qilsang, oldinga intilasan, lekin ularni hamma yerda ta'qib qilish darajasida yenga olmaysan. Xotin kishidan yengilsang, chidab bo'lmas nomusga qolasan. Shuning uchun, yaxshisi, biz To'maris aytgan yerga boraylik-da, uni yengishga harakat qilaylik. Menimcha, massagetlar eroniylarning noz-ne'matlari lazzatini bilishmaydi. Shuning uchun biz sharobni ayamasdan, mollar so'yib katta ziyofat tayyorlaylik-da, yaroqsiz askarlardan bir qismini qoldirib, orqaga qaytaylik. So'ng o'zimizni g'alaba bilan sharaflaylik». Bu maslahat Kirga ma'qul tushdi. U To'marisdan chekinishni so'raydi. Kir o'g'li Kambazga Krezni topshirib, agar urushdan qaytmasam, uning maslahati bilan shohlik qilasan, deb Eronga jo'natadi, o'zi qo'shini bilan massagetlar yurtiga o'tadi.

U yerda Kir g'alati bir tush ko'radi. Tushida Gishtaspning katta o'g'li Doroning ikki yelkasidan ikki qanot o'sib chiqqanmish va biri Mag'ribni, ikkinchisi Mashriqni to'sib turarmish. Bu vaqtlarda Doro 26 yoshda bo'lib, yosh hisoblangani uchun urushga olinmagan edi. Tush Kir yuragiga g'ashlik soladi.

U Doroning otasini chaqirib: – O'g'ling menga qarshi fitnada aybdor, Eronga qaytib, uni sudrab olib kel, –deydi.

Kir massagetlar yurtiga o'tgach, Krez ta'kidlaganidek, ziyofat tayyorlab, bir oz askar qoldirib orqaga chekinadi.

Massagetlarning bir qism qo'shini To'marisning o'g'li Sparganis boshchiligida u yerga kelib, qoldirilgan askarlarni yengib, ziyofatga mashg'ul bo'ladilar. So'ng mast lashkar uyquga ketadi. Shu vaqt Kir hujumga o'tib massagetlarning ko'pini o'ldirib, ko'pini asir oladi. Asirlar orasida shahzoda Sparganis ham bor edi.

To'maris voqeadan xabar topib, Kirga elchi yuborib aytadi:

– «Ey, qonxo'r Kir, uzum suvi yordamida bo'lgan bu voqeadan xursand bo'lma. Sen o'g'limni jang maydonida emas, nayrang bilan qo'lga olding. Endi quloq sol, senga yaxshi bir maslahat qilaman. O'g'limni menga topshirgin-da, qilgan ishing uchun jazolanmasdan yurtingga jo'na. Yo'qsa, massagetlar tangrisi Quyosh nomi bilan qasamyod qilib aytamanki, sen ochko'z yuhoning qonga tashnaligingni qondiraman».

Kir bu so'zlarga parvo qilmadi.

Sparganis esa o'ziga kelgach, voqeani anglab, xijolatdan o'zini-o'zi o'ldiradi.

Shundan so'ng To'maris qo'shinini to'plab jangga otlanadi. Dahshatli jang bo'ladi. Unga massagetlar g'olib keladi. To'maris

o‘z so‘zi ustidan chiqib jangda o‘ldirilgan Kirning boshini kesib, qon bilan to‘ldirilgan meshga soladi. U aytadi: «Garchi men jangda halollik bilan yenggan bo‘lsam-da, sen makkorlik bilan meni o‘g‘limdan judo qilib qayg‘uga solding. Ontimga amal qilib, seni qonga to‘ydiraman»...

Zariadr va Odatida

Midiya shohi Gishtaspning kichik ukasi Zariadr Kaspiy dengizidan Tanais (Sirdaryo)gacha bo‘lgan o‘lkada hukmronlik qilardi.

Tanaisning narigi qirg‘og‘ida Omarg ismli shoh podshohlik qilar edi. Bu shohning Odatida ismli go‘zal qizi bor edi.

Odatida bir kun tushida Zariadrni ko‘rib, sevib qoladi va doim shu sevgi iztirobida qiynaladi. Zariadr Omargga qizini so‘ratib sovchilar yuboradi. Lekin Omarg boshqa farzandi bo‘lmagani tufayli qizi Odatidani begona yurtga uzatishni xohlamaydi va uni o‘z yaqinlaridan biriga bermoqchi bo‘ladi. Bir kuni Omarg qizini kimga berishini sir tutgan holda to‘y bazmi uyushtiradi. Bazm avjiga chiqqanida qizni chaqirib, unga: “Qizim, biz sening to‘yingni qilyapmiz, o‘shanga oltin qadahda may tutgin. Seni o‘shanga beraman»,— deydi. Odatida atrofiga qarab, yig‘ilganlar orasida sevgani Zariadrni axtaradi, uni ko‘rmagach yig‘laydi. Chunki qiz yigitga xabar yuborib, uni ogohlantirib qo‘ygan edi. Zariadr bu vaqt bir kemachini yollab, uning yordamida daryodan o‘tadi va skif kiyimida bazm bo‘layotgan yerga boradi. U ko‘zlari yoshga to‘la, qo‘lida qadah tutib turgan Odatidani ko‘radi-da, unga yaqinlashib, Odatida men Zariadrman, mana men yoningdaman, —deydi. Qiz qo‘lidagi qadahni yigitga tutadi. Zariadr Odatidani etaklab, yashirincha kemachi turgan yerga olib keladi, ular birgalashib Zariadr yurtiga ketadilar. Omarg qizining g‘oyib bo‘lganidan ogoh bo‘lgach, xizmatkorlarini bir-bir so‘roq qiladi. Qiz sevgisidan xabardor xizmatchilar: «Biz hech narsa bilmaymiz»,— deb javob qiladilar.

Shiroq

Doro qo‘shini bilan saklar o‘rtasida urush borar edi. Sak podachilaridan Shiroq (yoki Sprak) podshohlaridan Sakesfar, Omarg (Amorg) va To‘marislar huzuriga keladi. U Eron qo‘shinini hiyla bilan halok etajagini aytadi, ammo podshohlar Shiroqning oilasiga, bolalariga, avlodiga g‘amxo‘rlik qilishlari shart edi. Ularga

qasam ichdirib, shu va'dani olgach, Shiroq shu erdayoq o'zining quloq-burnini kesadi, boshqa a'zolariga ham jarohat yetkazadi, so'ng saklardan Eron qo'shini tomoniga qochib o'tgan kishi sifatida eroniylar turgan joyga keladi.

Shiroq Doroga arz qilib, o'zini saklardan alam ko'rgan kishi qilib ko'rsatadi. U Eron qo'shinini saklarning eng chekka yerlariga olib borajagini, u yerda turib sak qo'shiniga to'satdan hujum qilib galaba qozonishlari mumkinligini aytadi.

Eron qo'shini bir haftalik oziq-ovqat olib yo'lga tushadi. Qo'shin uzoq yo'l yuradi , oziq-ovqat va suvi tamom bo'ladi.

Atrof quruq qum va sahrodan iborat edi. Eron qo'shini aldanganini anglaydi. Eron sarkardalaridan biri Shiroqdan : - Shunday ulug' podshoni aldab, katta qo'shinni biror quduq bo'lmagan, biror qush uchmaydigan, biror jonivor ko'zga ko'rinmaydigan, na olg'a yurish, na ortga qaytish mumkin bo'lmagan sahroga boshlab kelishingdan muroding nima edi? – deb so'raydi.

Shiroq o'z vatandoshlarini saqlab qoldim va Eron qo'shinini halok etaman, deb javob beradi.

Botir cho'pon qatl etiladi. Eroniylar arang Amudaryo sohiliga yetib oladilar.

* * *

Abu Ali ibn Sinoning xotirasi zo'r bo'lgan ekan. U barcha kitoblarni bir marta o'kir ekan, ikkinchi bor o'qimas ekan. Hikoya qilishlariga qaraganda, Abu Ali bir narsaga bir qarasa bo'ldi, unga ikkinchi bir nazar tashlashga zarurat qolmas ekan. Bir gal Hamadondan kelayotganida yo'lda musofirxonada qo'ngan ekan, bir olimni ko'ribdi. U bir kitob yozib, evaziga mukofot olish umidida uni Hamadon amiriga taqdim qilish uchun olib ketayotgan ekan. Eshitishiga qaraganda, Hamadon amiri ilm, san'atning qadriga etadigan va bu sohalar ahlini taqdirlaydigan shaxs ekan.

Abu Ali Ibn Sino kitobni bir ko'rib berish uchun so'rab olibdi. Egasi kitobni bergisi kelmabdi, siz tushunmaysiz, mayli varaqlab ko'ring, debdi. Shayx Abu Ali Sino uni olib varaqlashga tushibdi. Nihoyat, so'nggi varaqni ko'rib bo'lgach, muallif : «Bo'ldi, yo'lga otlanishim kerak», – deb bahona bilan kitobni qaytarib olibdi.

Abu Ali Ibn Sino kitobni qaytarib beribdi. Oradan ikki kun o'tgach, ibn Sino Hamadon amiri huzurida o'tirsa, haligi olim amir dargohiga kirib, unga kitobini taqdim qilibdi. Shunda amir Abu Aliga murojaat qilib:

— Qani, Shayxim, bu kitob qadrini belgilab bering-chi, taqdirlasa bo'ladimi-yo'qmi? — debdi.

Abu Ali Sino kitobni qo'liga olibdi-da, sal-pal varaqlab ko'rgan bo'libdi. Shayx kiyimlarini o'zgartirgani sababli haligi olim uni tanimabdi.

— Bu kitob, amirim, ancha ilgari ta'rif bo'lgan asar, bu kishi uni ko'chirib olib, o'zimniki deb keltiribdi, men buni yoshligimda Buxoroda mutolaa qilganman, — debdi Shayx.

Olim Amir oldida aytilgan bu gapdan cho'chib ketib, uni ta'lif qilmaganiga qasamlar ichibdi.

— Hamma vaqt ham qasamlar dalil bo'la olmasligini bilursiz. Mana, bo'lmasa, ikkalangiz kitobga tikilib turinglar, men yoshligimda o'qiganimda xotiramda qolganini aytib turaman, sizlar uni kitobga solishtirib turasizlar.

Abu Ali ibn Sino shunday debdi-yu, kitobni boshidan oxirigacha yod aytishga tushib ketibdi. Kitob tugagach, qo'rqqanidan olim dag'-dag' titrab, ranglari oqarib ham ketibdi. U yaqindagina yozib tugatgan kitobini boshqa bir odam shunchalik yoddan aytib berishini hech kutmagan ekan. Muallif nima qilishini bilmay, indamay, kitobini olib chiqib ketmoqchi bo'lgan ekan, Shayx to'xtatibdi:

— Bir gal kitobni mening qo'limdan olib ketganingiz yetar, endi olib ketolmaysiz, — debdi. Bu gapdan haligi olim musofirxonada ko'rgan kishisi shu ekanini payqabdi, unga biroz tikilib turibdi-da, birdan:

— Siz Abu Ali ibn Sinosiz, — debdi Shayxga va darhol unga qulluq qilib, qo'lini o'pibdi. — Men siz haqingizda ko'p eshitgan edim, lekin xotirangiz haqida aytilgan gapga hech ishongim kelmas edi. Endi ishondim. Agar bu kitobni yozmaganimda ham ishonmasmidim?

Abu Ali ibn Sino miyig'ida kulib, olimga hazil-mutoyiba qilganini aytibdi va bu kitobni taqdirlash kerakligini amirdan so'rabdi.

* * *

Abu Ali ibn Sino falsafa dengiziga sho'ng'ib, nihoyat, Arastuning «Metafizika»[1] asarini mutolaa qilishga tushadi, lekin

[1]Aristotelning (Sharqda uni Arastu deyish rasm bo'lgan) «Metafizika» asari arab manbalarida «Mo ba'da at tabia» («Tabiatdan tashqari narsalar») deb yuritiladi. Bu kitob Aristotel saylanma asarlarining birinchi jildiga kirgan bo'lib, 1976-yilda Moskvada « Misl» nashriyotida bosilib chiqqan.

hech narsa tushuna olmaydi. Yana boshidan o'qishga tushadi, bunda ham bo'lmaydi. Yana boshqatdan o'qishga tushadi, bunda ham bo'lmaydi, o'n bor o'qiydi, lekin shunda ham tushuna olmaydi, yigirma, hatto, qirq marta o'qiydi, bo'lmaydi, tushunolmaganidan juda xafa bo'lib ketadi. Keyin kitobni tokchaga qo'yib, undan umidini uzadi.

Kunlardan bir kun Abu Ali ibn Sino kitobfurushlarning oldiga borib qoladi. U vaqtlarda har kim rastaga borib kitoblarini dallollarga topshirar, ular sotib, pulni egasiga berar ekan.

Abu Ali kitoblarni tomosha qilib, o'ziga yoqqanini sotib olar ekan. Kitob ishqibozi bo'lgan Abu Alini ko'rgan dallol darrov uni yoniga chaqirib, bir kitobni ko'rsatadi. Abu Ali kitobning nima mavzuda ekanini bilgach, bosh chayqab:

— Bu kitobni tushunib bo'lmas ekan, qirq marta o'qidim, tushunolmadim,- debdi.

— Ey, sen-ey,-debdi dallol, — qiziq odam ekansan-ku, bu juda yaxshi kitob, buni sotib ol, egasi ham senga o'xshab kitob jinnisi, zaruratdan sotayapti, pulga muhtoj bo'lganidan, uch dirham bo'lsa ham mayli, dedi, buni olgin, bunday kitobni shu mahalgacha men ham ko'rmaganman.

Abu Ali dallol oldida noqulay ahvolda qoldi va kitobni uch dirham berib oldi. Bozordan chiqishi bilan kitobni varaqlay boshladi, shu holda uyga kelganini sezmay qoldi. Uyga kira solib yana boshqatdan o'qishga tushdi, qarasa, bu Arastuning o'sha qirq marta o'qib tushunolmagan «Metafizika» kitobiga yozilgan sharh asar ekan. Bu sharhlarni yozgan odam faylasuf Abu Nasr Forobiy ekan.

Abu Ali kitobfurush aytganday, xursand bo'lib ketibdi. Arastu kitobini ko'p o'qib dilida yod bo'lib qolganligi jihatidan sharhlarni o'qishi bilan uni tushundi, o'zida yo'q xursand bo'lib, dunyoga sig'maganday bo'lardi. Yana qayta-qayta o'qidi, kitob maqsadlari eshigi ochilganidan ko'p quvonib kambag'allarga sadaqa berdi, bozorga borib, o'sha kitobfurushni topdi, unga minnatdorchilik bildirdi, egasiga eltib bering deb ancha pul berdi. Shunda kitobfurush qilgan ishidan o'zi quvonib :

— Ana, o'g'lim, menga rahmat deysan, demabmidim, qari bilganni pari bilmas, deydilar, sal bo'lmasa kitobdan yuz o'giray deganding,- dedi mamnun bo'lib, — bundan keyin bir narsa desak, sen ham darhol gapimizga kirishing kerak.

Kitobfurush bu gaplari bilan kelajakda bo'ladigan savdoga zamin hozirlamoqchi bo'ldi. Abu Ali bu voqeani o'z tarjimayi holiga qo'shib bitib qo'ydi.

* * *

Kunlardan bir kuni Mirzo Ulug'bek huzuriga bir kishi kelib, o'z do'stining xiyonatidan shikoyat qildi:

– Bundan bir necha kun ilgari Buxoroni ziyorat qilish niyatida Samarqanddan yo'lga chiqdim. Hamyonimda ortiqcha ming tanga pulim ham bor edi. Ikki farsah yo'l yurganimdan keyin juda charchadim, qornim ham ochdi. Katta bir ariq bo'yida o'sgan daraxt soyasida o'tirib dam oldim, ovqatlana boshladim. Shu payt do'stlarimdan biri yo'ldan o'tib qoldi. Men uni ham ovqatga chaqirdim, keldi, birgalashib ovqatlandik, gurunglashib o'tirdik. So'ngra do'stim ketmoqchi bo'lib o'rnidan turdi, men hamyonimdagi ming tangani unga topshirib:

– Do'stim, bu hamyonimdagi ming tanga pulimni senga omonat tariqasida topshiraman, uyingga qaytgach, shu omonatni oilamga berishingni o'tinaman, – dedim. Do'stim pulni qabul qilib, omonatni oilamga topshirishga va'da berdi. Bir necha kundan keyin Buxorodan Samarqandga qaytib keldim. Do'stimning omonatni oilamga topshirmagani ma'lum bo'ldi. Darrov do'stimning yoniga borib, undan omonatni oilamga topshirmagani sababini so'radim. Mendan hech bir omonat pul olmaganini, hatto meni ko'rmaganini aytib, tonib tura berdi. Shuning uchun arz-dodimni sizga aytgani huzuringizga keldim. Pulimni shoyad undan undirib berarsiz, deb umid qilaman.

Mirzo Ulug'bek uning xiyonatchi do'stini huzuriga chaqirtirib keltirdi va bo'lgan voqeani batafsil aytib berishni so'radi. U kishi bunday deb javob berdi:

– Men katta ariq bo'yidagi daraxt soyasida u bilan o'tirib ovqatlanganim u yoqda tursin, hatto uning o'zini ham ko'p vaqtlardan beri ko'rmaganman. U daraxt qayerda va qaysi ariq bo'yida ekanini ham bilmayman.

Shundan so'ng Mirzo Ulug'bek pul egasiga buyurdi:

– Sen darrov o'sha daraxtning bir nechta bargini olib kel.

Pul egasi ketgach, Mirzo Ulug'bek uning xiyonatchi do'stini yoniga o'tqizib, chaqchaqlashib o'tirdi. So'ng uni gapga qiziqtirib turib:

– U kishi daraxt yoniga etganmikan? Daraxt ancha uzoqda bo'lsa kerak, u kishi shu paytgacha kelmadi ? – degan edi, gapga qiziqib qolgan xiyonatchini g'aflat bosdi:

– Hali etgani yo'q, daraxt ancha-uzoq yerda, – deb tilidan ilindi. Mirzo Ulug'bek kula-kula unga dedi:

– Hozirgina u daraxtni sira ham ko‘rganim yo‘q»,– deb aytgan eding-ku, u kishining haligacha daraxt yoniga yetmaganini, daraxt uzoq joyda ekanini qayerdan bilasan? Bema‘ni so‘zlarni so‘zlama, tur o‘rningdan, omonat qo‘yilgan pulni olib kel, bo‘lmasa jazo beraman.

Xiyonatchi aybini bo‘yniga olib, pulni keltirdi. Shu choqda pul egasi ham yetib keldi. Mirzo Ulug‘bek ming tanga omonat pulni xiyonatchidan olib egasiga topshirdi.

* * *

Bundan bir necha yuz yil avval Erondami, Turondami, xullas, bir musulmon yurtida bir podsho bo‘libdi. Uning otasi Sulton Husayn ekan. O‘zi ilmli, o‘qigan, oq-qorani tanigan, ulug‘ kishilar avlodidan ekan. Uning bir vaziri bor ekan, u ham o‘qigan, oq-qorani tanigan, podsho bilan bir madrasada o‘qigan ekan. Uning oti Mir Alisher ekan.

Vazirni podsho, podshoni vazir yaxshi ko‘rar ekan, lekin podshoning ulamo- pulamo, qozi-pozilari, xullas, boshqa amaldorlari bular o‘rtasidagi yaxshilikni ko‘ra bilmas ekanlar. Mir Alisherni podshoning yonidan yo‘q qilib yuborish chorasini axtarib, oxiri ulamo, qozi- muftilar uni bir quduq ichiga tashlabdilar. Sulton Husayn bo‘lsa bundan xabarsiz ekan, lekin Mir Alisher yo‘qligi uchun bir narsasi yo‘qolgan kishidek:

G‘am bilan, qayg‘u bilan
So‘ldi bahorim gullari, –

deb har kuni bir satr she’r aytib yurar ekan. Sulton Husaynning bu she’rini shu elatda bir cho‘pon eshitib, yodlab olibdi-da, bo‘lsa-bo‘lmasa, duch kelgan yerda aytib yura beribdi. Kunlardan bir kuni cho‘pon bir qumlikka borib, quduqning bo‘yida shunday:

G‘am bilan, qayg‘u bilan
So‘ldi bahorim gullari, –

debdi. Quduqning ichida holsizlanib yotgan Mir Alisher Sulton Husaynning she’ri ekanligini darrov bilibdi. Shunda quduqning ichidan ovoz beribdi:

Do‘stini choha solibdur,
Sayramas bulbullari.

Shu payt cho‘pon darrov quduqqa qarab, ichidagi Mir Alisher ekanligini bilib, uni tortib olmoqchi bo‘libdi. Mir Alisher aytibdi:

– Meni sen bu yerda qoldiraver. O‘zing podshoning dargohiga borib, agar podsho yana:

G‘am bilan, qayg‘u bilan
So‘ldi bahorim gullari, –

deb she’r o‘qisa, sen:

Do‘stini choha solibdur,
Sayramas bulbullari.

deb ayt. Agar podsho «Sen buni qayerdan bilding?» deb so‘rasa, sen sevinchisini olib, mening bu yerda yotganimni bildir, –debdi.

Cho‘pon shu zamon Mir Alisherning so‘zlarini yod olib, Sulton Husayn dargohiga borib, sekin qarasa, Sulton Husayn:

G‘am bilan, qayg‘u bilan
So‘ldi bahorim gullari, – deb o‘tirganmish.

Shunda cho‘pon darhol:

Do‘stini choha solibdur,
Sayramas bulbullari, – deb yuboribdi.

Sulton Husayn darrov cho‘ponni yoniga chaqirib:

– Sen bu so‘zni qayerdan bilding? –deb so‘rabdi.

Cho‘pon aytibdi:

– Bu so‘zni o‘rganish uchun qanchadan-qancha molimdan ayrildim, bu bir sohibqironning g‘azali.

Sulton Husayn :

– Ayt, ayt, uning qayerda borligini ayt, sening uchun bir jom oltin, –debdi. Shunda cho‘pon aytibdi:

– Bir yaxshi kishining bahosi bo‘lmaydi, agar senga kerakli kishi bo‘lsa, uning boshiga hasrat solganlarni jazoga loyiq ko‘rmoq kerak.

Sulton Husayn darrov ulamo, vazir va qozi, mullalarini yig‘ib, har qaysisiga qirq qamchi urdirib, Alisherni taxtiravonga solib kelishni buyuribdi. Shunday qilib, Mir Alisher bilan podsho yana topishibdi, bechora cho‘pon esa mamnun bo‘lib yashayveribdi.

Shuning uchun aytar emishlar:

Yomonlik ravo ko‘rma, o‘zingga jabru sitam,
Yaxshilik birla har ish, ko‘nglingni etar Hotam.

* * *

Kunlardan bir kuni Husayn Boyqaro ertalab saroyga kirish oldidan Navoiyga ko‘rinish beribdi-da, ko‘rsatgich barmog‘i bilan tilini ko‘rsatibdi. Navoiy ham xuddi o‘sha barmog‘i bilan tilini ko‘rsatibdi. Husayn Boyqaro boshini chayqatibdi-da, saroyga kirmay iziga qaytibdi. Voqeani kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari bu imo-ishoralarning sababini so‘rashibdi. Navoiy:

– Xusayn «Boshga baloni nima keltiradi?» deb so'rab edi.
«Til»,– deb javob qildim, –debdi.
Shogirdlar Navoiyning ziyrakligiga qoyil qolishibdi.

* * *

Bir kuni sof ko'ngilli Alisher fasohat va zarofat bobida zamon shoirlarining peshqadami Xoja Osafiyga nasihat qilish uchun muborak tilini bayonga keltirib aytdi:

– Men hayron bo'laman, o'tkir zehningiz va baland ta'bingiz bo'la turib, she'r aytish bilan kam shug'ullanasiz, hamma vaqtingizni foydasiz ishlarga sarf qilasiz.

U:

– Hozirgi fursatda borgan sari ko'proq she'r aytish bilan mashg'ul bo'layotirman. Masalan, o'tgan kecha ikki pullik sham yonib bitgunicha ikki yuz bayt aytdim, – dedi. Oliy Hazrat dedi:

– Demak, u tizmalarning yuz bayti bir pul ekan-da.

* * *

Qorabug'roxon degan podsho bo'lib, Qashqarda turar ekan. Kunlarning birida u ov qilib yurib, suv bo'yida qo'shiq aytib o'tirgan go'zal qizni ko'rib, sevib qolibdi. To'y-tomoshalar bilan unga uylangan kuni urush boshlanib, Qorabug'roxon urushga jo'nab ketibdi. Bu urushda u g'olib chiqibdi. Ammo og'ir yarador ekan, yo'lda keta turib ahvoli og'irlashibdi. Shunda podsho kun chiqish, ya'ni qaylig'i bor tomonni ko'rsatib: «Anda jon qoldi, meni o'sha yerga ko'minglar»– deb jon beribdi. Vazirlari vasiyatga ko'ra, ko'rsatgan joyga keltirib ko'mibdilar. U yer keyinchalik shaharga aylanib, "Anda jon" so'zi Andijon bo'lib, o'sha shahar nomiga aylanib ketibdi.

NAQLLAR

Bir donishmand o'z o'g'liga shunday nasihat qildi:

– O'g'lim, agar muroding gullari ochilishini istasang, shu besh narsaga e'tibor qil:

Qahru g'azab olovini yumshoqlik suvi bilan o'chir.

Axloqsiz, tarbiyasiz, buzuq kishilar vasvasasidan hazar qil.

Ishlaring binosini to'g'rilik uzra qur, xiyonat yo'liga qadam qo'yma,

Yuz bergan voqea-hodisalarni chidam bilan boshqalarga o'tkaz, sabru toqatni qo'ldan berma,

Xirs, ta'ma, ig'vo, birovga ozor berishdan saqlan.
Istasang kim etmagay senga balo,
Bermagil hech kimga ozoru jafo.

* * *

Aflotundan so'radilar:

— Qanday odamni kuchli, qanday odamni kuchsiz, dey ayta olamiz?

Aflotun javob berdi:

— Achchig'langan chog'ida o'zini tuta bilgan odam— kuchli, aytmasligi kerak bo'lgan so'zni aytishdan tilini tiya olmagan odam kuchsiz sanaladi.

* * *

Bir odam:

— Men buyuk bir shahar ahlidandirman, — deb maqtandi.

Arastu aytdi:

— Buning ahamiyati yo'q, ammo sen buyuk shahar odami bo'lishga loyiqmisan yoki yo'qmi— ana shu ahamiyatga molik.

* * *

Arastudan so'radilar:

— Odam bilan qanday muomala qilishimiz kerak?

Arastu shunay maslahat berdi:

— Odamlarning o'zingizga qanday muomala qilishlarini istasangiz, ularga shunday muomala qilingiz.

* * *

Arastudan so'radilar:

— Nega ko'p odam yigitlik chog'ida havasga, kayf-safoga moyil bo'ladi?

U shunday javob berdi:

— Yigit ikki quvvatdan birining — aqli yoki nafsining ta'siri ostida bo'ladi. Agar aqli g'olib bo'lib, yigit uning ta'siri ostida bo'lsa, najot topadi. Nafsga ergashgan yigit halokat va falokatga uchraydi.

* * *

Luqmoni Hakim o'z o'g'liga shunday nasihat qildi:

– O'g'lim, nodon va johil bir kishi sen bilan biror masala ustida bahslashib qolsa, sen unga muloyimlik bilan javob ber. Agar u sening javobingdan qanoatlanmay jahli chiqa boshlasa, so'zingni yana qaytarib aytma, u bilan olishib o'tirma, spukut qil.

So'zing naf etmasa, qilma ioda[1],
Bo'lur aytgan saring jahli ziyoda.

* * *

Bir kishi farzandini qanday tarbiyalash kerakligini bilmoqchi bo'lib, maslahat olgani Abu Ali ibn Sino oldiga kelib:

– Farzandimizning tarbiyasi haqida maslahat so'rab kelgan edik, –debdi.

– Bolangiz nechaga kirdi? – deb so'rabdi Ibn Sino.

– Uch yoshga, tili chiqqan, – debdi haligi kishi.

– Kech qolibsiz, – debdi Ibn Sino, – siz bu ishni uch yil ilgari boshlashingiz kerak edi.

* * *

Tutun Cho'g'- olovga zorlanib debdi:

– Onajon, men sizning qizingiz bo'lsam ham nega doimo qop-qoraman, siz esa porlab, yonib turasiz, buning sababi nimada?

Cho'g' shunday deb javob beribdi:

– Qizim, bu ish yangi bir ish emas, dunyoda inson o'z porloqligi bilan porlaydi. Bolaning porloq bo'lishi uchun bir porloq ota-onaning farzandi bo'lgani kifoya etmaydi, ya'ni olijanob fazilatli ota-onaning shunday go'zal fazilati bilangina inson ulardek bo'lmaydi. Farzandning o'zi fazilatni kasb etib olishi kerak. Shundagina u farzandi porlaydi, cho'g'dek yonib turadi.

Hissa: – Farzandning olijanob, fazilatli bo'lishiga uning nasl-nasabi emas, o'z g'ayrat va jasorati sababchi bo'ladi.

Kishi o'z shamini yondirmas esa
Yorug'likning nishonini ko'rolmas.

---

[1] Ioda –takrorlash, qaytarib aytish.

* * *

Nizomulmulk ismli vazir olijanob va odil ekan. Birov hadya keltirsa, barchaga barobar bo'lib berar ekan. Bir kuni bir bog'bon unga o'nta ertangi bodring keltiribdi. Vazir birin-ketin uchala bodringni o'zi eb qo'yibdi-da, bog'bonga ming dinor in'om beribdi. Vazir bog'iga dam olgani chiqqanda uning bir mulozimi so'rabdi:

— Janob, siz nima uchun uchala bodringni bir o'zingiz yedingiz, bunday odatingiz yo'q edi-ku?

Odil vazir muloyimlik bilan javob qilibdi:

— Bodringlar taxir ekan, boshqalarga bersam, taxirligiga chidayolmay, dehqonga yomon so'z aytib yuborardilar, uning dili ozor chekardi.

* * *

Bir kuni Basra shahrining hokimi hordiq chiqarish uchun o'z bog'iga bordi. Bog'bonning iffatli, nomusli va juda go'zal xotini bor edi. Hokim u go'zal xotinni ko'rib, ko'ngli unga mayl etdi. Bir ishni bajarib kelish uchun bog'bonni bog'dan uzoqroq bir yerga yubordi.

Keyin xotinga bog' eshiklarini bekitib kelishni buyurdi. Xotin qaytib kelgach, hokim:

— Hamma eshikni bekitib keldingmi— deb so'ragan edi, xotin faqat bir eshikni berkitishga ojiz ekanini aytdi. Hokim buning sababini so'ragan edi, xotin shunday javob berdi:

— U eshik- mening vijdonim va erimga sadoqatim eshigi.

Hokim bu so'zni eshitib, ko'p xijolat chekib:

— Singlim, meni kechir, — dedi va qilmishidan pushaymon bo'lib, xotindan uzr so'radi.

* * *

Bir nodon odam Hotami Toyga ko'p jabru jafo yetkazdi. Og'ziga kelgan yaramas so'zni aytishdan toymaydi. Aqlli kishining nodon bilan olishib turishi durust bo'lmagani uchun Hotam ham u bilan olishmasdan, sukut etib turdi. U kishi charchab so'zdan to'xtagandan keyin Hotam aytdi:

— Yana aytadigan haqoratli so'zlaring bormi? Mening yonimda aytib bitir. «Aqlsiz nodon odam adabsizlik qilsa, u bilan olishmay adabsizligini kechirishdan boshqa chora yo'qdir»,— deganlar.

Shunga ko'ra men hamma haqoratli so'zlaringga javob qaytarmay, sukut qildim, seni avf etdim. Mening odamlarim orasida senga o'xshash past tabiatli, aqlsiz, nodon odamlar bor. Ular yonida haqorat qilsang, seni ham o'zlari kabi nodon ekanligingni bilmay hujum qilib, man etishimga qaramasdan, senga ozor yetkazardilar. Shuning uchun hamma haqoratli so'zlaringni o'zimga aytib bitira qol.

* * *

Bir donishmand shunday dedi:

— Istirohat va uyquga mayl qilmasdan ilgari shu uch narsani esingizga tushiring: Avvalo, bugun sizdan biror xato ish o'tdimi, yo'qmi? Agar o'tgan bo'lsa qanday tadbir bilan tuzatish mumkin? Shuni o'ylang.

Ikkinchidan, bugun xalq manfaati yo'lida birorta xayrli ish qildingizmi, yo'qmi? Shuning andishasini qiling.

Uchinchidan, eslang, beparvoligingiz va ishga sovuqqonligingiz tufayli qaysi ishingiz amalga oshmay qoldi?

ERTAKLAR

Ziyod botir

Sulton Murod o'lgandan keyin o'rniga Sulton Fotih taxtga o'tiribdi. Sulton Fotih ko'p dono, aqlli, hushyor odam ekan...

Sulton Fotihning go'zallikda tengi yo'q, aqlli, o'qimishli qizi bo'lgan ekan. Bu qizni kim bir marta ko'rsa, yana ko'rsam deb orzu qilarkan. Ismi jismiga monand Qamarxon ekan. Sulton Fotih qizini jon-dilidan yaxshi ko'rarkan. O'q otishda, nayza sanchishda, tig' urishda unga teng keladigani yo'q ekan. Qamarxonga xushtor bo'lganlarning son-sanog'i yo'q ekan. Boshqa mamlakatlardan ham shahzodalar, bekzodalar oshiq bo'lib, sovchi qo'yar, ammo qiz hammasiga yo'q deb javob berarkan.

Sultonning saroyida bir usta bo'lib, hamma hunarga omil ekan. Uning yasagan asboblari Sultonga juda maqbul bo'lgani uchun saroyidagi barcha ustalarning boshlig'i qilib qo'ygan ekan. Saroydagilarning kattasidan kichigi ustani hurmat qilarkan. Ustaning navqiron o'g'li bo'lib, xushsurat, o'qigan, aqlli, shijoatli yigit ekan. Bu yigitning oti Ziyod botir ekan. Botirlikda ancha

shuhrat qozongan ekan. Ziyod botir ham Sultonning qizi Qamarxonga oshiq ekan.

Otasi o'g'liga hunar o'rgatmoqchi bo'lib: «O'g'lim, ko'zim tirikligida hunar o'rganib olgin»,— debdi. Ziyod botir ko'p vaqt o'tmasdan otasining hunarlarini o'rganib olibdi. Bir kuni malika ustaga o'q-yoy buyuribdi. Usta malikaning ko'nglidagidek o'q-yoy qilish uchun bor hunarini ishga solibdi. O'g'li ham otasidan yashirincha o'q-yoy tayyorlagan ekan. Tayyorlagan o'q-yoyni otasiga ko'rsatibdi. Otasi uni ko'rib hayratda qolibdi. O'q-yoy otasi tayyorlagan o'q-yoydan ancha yaxshi ishlangan ekan. O'q-yoyning qabzasiga ajoyib ruboiylar naqsh etilgan. Otasi azbaroyi xursand bo'lganidan o'g'lining peshanasidan o'pib:

«Balli o'g'lim, mening hunarimni o'rganib olibsan, endi hech kimga xor bo'lmaysan»,— debdi. So'ng o'zi tayyorlagan o'q-yoyni qoldiribdi-da, malikaga Ziyod botir ishlagan o'q-yoyni yuboribdi. Malika o'q-yoyni ko'rib qoyil qolibdi. O'q-yoy o'zining o'ylaganidan ham ziyoda bo'lgani uchun ustaga in'omlar beribdi...

Usta ancha keksayib qolgan ekan. Kasal bo'lib qolibdi, hech qanday dori-darmon kor qilmabdi. Oxiri olamdan ko'z yumibdi. Usta o'lgandan so'ng Sulton Fotih Ziyod botirni otasining o'rniga tayinlab, ustalarga boshliq qilib qo'yibdi.

Kunlarning birida Sulton haramga kirsa, qizi bir kamonni o'ynab o'tirgan ekan. Kamonning ishlanishini ko'rib, hayratlanibdi va qo'liga olib tomosha qilib turganda ko'zi kamonning qabzasiga yozilgan baytga tushibdi. Bunday o'qib qarasa, oshiqona yozilgan bayt. Sulton darg'azab bo'lib Ziyod botirni chaqirib:

— Buni kim yozgan? — deganida, Ziyod botir:

— Men yozdim, — debdi. Sulton:

— Hali sen shunday yaramas ishlarni ham qilasanmi, ko'rmamak, — deb jallod chaqirib, uni o'limga buyuribdi.

Shunda vazirlardan biri podshoning oyog'iga yiqilib, Ziyod botirning gunohini so'rabdi. Sulton vazirining so'zini yerga tashlamay, Ziyod botirni o'limdan ozod qilibdi, lekin shahardan tashqariga haydab yuboribdi.

Ziyod botir yo'l yurib, cho'l yurib, tog' bosib, qir oshib bir necha kun deganda bir toqqa kelibdi. Bu tog' ko'kalamzor, odamning ko'nglini ochadigan xushhavo joy ekan. Ziyod botir tog'da aylanib yurib yilqi-qo'ylarni o'tlatayotgan mo'ysafidni ko'ribdi. Ziyod botir cholga salom beribdi. Chol yigitning charchab kelganini bilib, bir kosa qimiz uzatibdi va:

— Qayerdan kelyapsan, o'g'lim? — deb so'rabdi. Ziyod botir

boshiga tushgan musibatni gapirib beribdi. Cholning rahmi kelib:

– O'g'lim, endi qayoqqa borasan? – deb so'rabdi.

– E, ota, endi qayoqqa borar edim. O'z yurtimdan judo bo'lgan bir g'aribu musofirman. Hozir boshim oqqan tomonga ketayotibman, – debdi Ziyod botir.

– Men shu tog' xalqining molini boqaman, – debdi chol, – ota-bobomdan tortib hammamiz shu kasbni qilib kelamiz. Topganimga qanoat qilsang, menga o'g'il bo'la qol.

Ziyod botirga bu gap ma'qul tushibdi:

– Otajon, agar siz shuni xohlasangiz, men jonu dilim bilan roziman, – debdi u.

Shunday qilib, Ziyod botir cho'ponga o'g'il bo'lib, qo'y-yilqilarni boqib yura beribdi. Ziyod botir bu yerda palaxmonga tosh solib otishni juda yaxshi mashq qilibdi. Yirtqich hayvonlar mollarni talasa, bir tosh bilan urib o'ldiraveribdi. Ziyod botirning bu ishidan cho'pon ham xursand bo'libdi. Har yili bir qancha molni yirtqich hayvonlar nobud qilar ekan. Ziyod botir kelganidan so'ng mollar tinchib qolibdi. Ziyod botirning ta'rifi butun tog' xalqiga yoyilib ketibdi. Odamlar Ziyod botirga «Sangandoz[1] botir» deb nom berdilar. Oradan ikki yil o'tibdi.

Ziyod botir shu yerda otasi bilan mol boqib yuraversin, endi gapni Sultonning kizi Qamarxondan eshiting. Qamarxon zimdan Ziyod botirga ko'ngil qo'ygan, ichida: «Agar otam meni erga bersa, shunga bersa»,– deb yurar ekan. Otasi Ziyod botirni shahardan haydab yuborganidan keyin yorug' dunyo Qamarxonning ko'ziga qorong'u bo'lib, ertayu kech Ziyod botirni yodlab, kechalari yig'lab tong ottirar ekan. Ammo dardini hech kimga aytmas ekan. Qamarning qirq kanizi bo'lib, ularning boshlig'i Humoyun degan bir qiz ekan. Qamarxon o'z sirini axiri shunga aytibdi. Malika ko'ngil yozish uchun tez-tez ovga chiqib turibdi. Bir kuni erkakcha kiyinib, otasidan ijozat olib, ov itini oldinga solib ovga ketibdi. Bir necha kun yurgandan so'ng bir o'rmonga yetibdi. Tustovuq va qirg'ovullarni ovlabdi, lekin tuzukroq ov uchramabdi. Qamarxon otni boshqa tomonga solibdi va osmono'par tog' oldidan chiqibdi. Qiz toqqa chiqib ketayotgan paytda oldidan bir bo'ri chiqib qolibdi. Qamarxon bir o'q bilan bo'rini o'ldirib, kanizagining qo'liga berib, oldinga qarab yurgan ekan, kiyikka duch kelibdi. Kiyikning qulog'iga tilla halqa osilgan, shoxiga tilladan muhr bosilgan, bo'yniga har xil asil toshlar taqilgan

[1]Sangandoz- toshotar

ekan. Qamarxon kiyikni yaxshi ko'rib qolibdi. Qizlarga: «Shu kiyikni o'rab olib, tiriklay tutinglar, kiyikni hech kim qochirmasin, agar kimki qochirsa, yuziga qora surtib, ovdan haydanglar»,— debdi.

Qizlar Qamarxonning aytganini qilib, qo'llariga kamon olib kiyikning atrofini o'rabdilar. Humoyun o'rtaga tushib kiyikka kamon tashlabdi. Kiyik chap berib, malikaning yonidan o'tib ketibdi. Malika ketma-ket uch marta kamon tashlabdi, ammo kiyikni ilintirolmabdi. Qizlardan uyalib kiyikning orqasidan quvib ketibdi. Kiyik ham otgan toshday zirillab, uchar qushday pirillab ketaveribdi. Kiyik ham, ot ham nihoyatda charchabdi. Kiyik hallosiab bir g'orga kirib ketibdi. Ha, endi tutdim, deb malika suyunib g'orga kirib qarasa, g'or teshik ekan, kiyik naryog'idan chiqib qochibdi. Malikaning jahli chiqib, yana otga minib, kiyikning orqasidan qorama-qora quvlabdi. Kiyik soy yoqalab ketayotgan paytda Ziyod botirga duch kelib qolibdi. Ziyod botir shu tog'da yilqilarni o'tlatib yurgan ekan. Palaxmonga toshni solib kiyikning shoxini mo'ljallab uribdi. Tosh kelib kiyikning bir yoq shoxini uchirib yuboribdi. Jonivor kiyik til tortmasdan o'libdi. Ketma-ket malika ham quvib kelibdi. Qarasaki, kiyik o'lib yotibdi. G'azab bilan qilichini qinidan sug'urib:

— Nomard cho'pon, kiyikni otadigan bo'lsam, allaqachon otardim, maqsadim tiriklayin tutmoq edi, sen nega birovning ovini otasan, — deb otining jilovidan tortib, Ziyod botir tomonga burgan paytda to'satdan yo'lbars paydo bo'libdi. Malikaning oti yo'lbarsdan hurkib orqasiga chekinganida, malika ot ustidan uchib ketibdi. Qo'lidagi yalang'och qilich tirsagiga botibdi. Ziyod botir sher paydo bo'lishi bilanoq palaxmonga toshni solib mo'ljallab turgan ekan. Sher malikaga sakray deganda Ziyod botir sherning oyog'ini mo'ljallab urgan ekan, tosh sherning tumshug'iga tegib, til tortmay o'libdi. Keyin kelib qarasaki, yuziga niqob tutgan bir chiroyli yigit behush bo'lib yotibdi. Yigit darrov ko'ylagini echib, engini yirtib, qizning qilich kesgan qo'lini tang'ib qo'yibdi.

Bu bechora bekorga o'lib ketmasin deb, suv olib kelib yuziga sepibdi. Yuzidan niqobini olib, suv ichirmoqchi bo'lgan ekan, qarasa, qora sochlari yuziga yoyilib ketgan Qamarxon. Yigit o'zini yo'qotib qo'ya yozibdi.

Oradan bir oz o'tgandan keyin qiz o'ziga kelibdi. Ko'zini ochib qarasa, tepasida cho'pon yigit yig'lab o'tirganmish. Tikilib qarab, Ziyod botirni tanibdi va quvonganidan yana hushidan ketibdi. Shu payt Qamarning kanizaklari yetib kelishibdi. Qarashsa,

bir sher o'lib yotibdi, malika behush, cho'pon yigit tepasida suv sepib o'tiribdi. Qizlar darrov otdan tushibdilar. Humoyun yugurganicha kelib, malikaning boshini tizzasiga olib, ko'zidan yosh to'kib turgan paytda malika hushiga kelibdi. Malikani shaharga olib qaytishmoqchi bo'lganda u unamabdi. To tuzalmagunimcha shu yerdan jilmayman, debdi. O'sha yerda chashma, chashma yonida ikki tup daraxt bor ekan, soyasi ikki botmon yerga tusharkan. Malikaning borgohini o'sha yerga tikishibdi. Malika Ziyod botir tanirmikin deb, undan: «Siz bu yerda qachondan beri cho'ponlik qilasiz,» — deb so'rabdi. Ziyod botir, nima bo'lsa bo'lar, rostini aytib qo'ya qolay deb: «Sizning otangiz haydab yuborgandan beri»,— debdi. Malika Ziyod botirdan kechirim so'rab:

— Menda ayb yo'q, — debdi. Ziyod botir quvonib, otasini chaqirib kelibdi. Otasi: «Bu aziz mehmonlarni ziyofat qilishimiz kerak»,— deb qishloqdan bir katta qozon keltirib, bir necha qo'yni so'yibdi. Cho'pon ota qizlarga:

— Chanqagandirsizlar? — deb choralarda qimiz quyib berib turibdi. Oradan bir qancha kun o'tibdi. Malikaning yarasi ham tuzala boshlabdi.

Endi so'zni malikaning otasidan eshiting.

Malika ovga chiqib ketganiga o'n besh kun bo'libdi hamki, undan darak bo'lmabdi. Otasi bir pahlavonni chaqirib, unga bunday debdi:

— Bir oy bo'ldi, haligacha malikadan darak yo'q, borib bir xabar ol-chi, qayerda ekan? Uni qayerda uchratsang ham olib kel.

Bu pahlavon malikani sevar ekan. Shuning uchun ham podshoga astoydil xizmat qilib yurar ekan. Podshoning buyrug'ini eshitib, pahlavon benihoya xursand bo'libdi. U yigitlarga: "Malikani qayerda yolg'iz topsak, u bilan suhbat quramiz»— deb, bir xum sharob olib, safarga chiqibdi. U besh kun deganda malikani topibdi. Qarasa, malika Ziyod botir bilan suhbat qilib o'tirgan emish. Buni ko'rib, pahlavonning joni chiqib ketibdi. Bir narsa degani malikadan qo'rqib, otdan tushibdi, ular bilan so'rashib bo'lib, malikaga:

— Otangiz sizdan xavotir olib, meni yubordilar, — debdi.

Shu payt mehmonlarga ovqat olib kelishibdi. Pahlavon ham olib kelgan sharobini o'rtaga qo'yibdi. Ikki-uch qiz kosagul bo'lib, sharob quyib turibdi. Pahlavon arzimagan bahona topib, Ziyod botirni uribdi.

Ziyod botir achchig'lanib, pahlavonni bir urgan ekan, chakagi

tushib, og'zidan ko'pik oqib, o'sha ondayoq o'lib qolibdi. Pahlavonning yigitlari Ziyod botirga tashlanibdilar. Ziyod botir jang qilib, ularni engibdi. Jang tugagandan keyin, malika: «Endi bu yerda turib bo'lmaydi, boshqa bir yurtga ketaylik» debdi, keyin kanizaklariga javob berib:

– Otam meni so'rasa: «Malika bir kiyikning orqasidan quvlab ketdi, biz axtarib topolmadik» – deb aytinglar, – debdi va ular bilan xayrlashibdi.

Ziyod botir bilan malika cho'pon otaga qulluq qilib xayrlashib, ikki otga minib, yo'lga ravona bo'lishibdi. Ular ov qila-qila bir necha kun deganda bir shaharga yetib boribdilar. Bu shaharning nomi Hirot ekan. Ana shu yerda Sulton Husayn Mirzo podsho ekan. Bular kelib bir saroyga tushibdilar. Bir necha kun o'tgandan keyin Ziyod botir qizni nikohlab olish uchun domla axtaribdi. Shu saroyga yaqin joyda bir shayx yashar ekan. Ziyod botir shayxnikiga boribdi. Shayx uyda yo'q ekan. Uning o'g'li Ziyod botirning gapini eshitib: «Men o'zim nikohlab qo'ya qolay»,– debdi va Ziyod botir bilan saroyga kelibdi. Nikoh paytida qizga ko'zi tushib: «Attang, shunday chiroyli qizni nikohlab qo'ldan berib qo'ydim»,– deb afsuslanibdi.

Qiz dardida yigit Ziyod botir bilan og'ayni bo'lib qolibdi.

Shayxning o'g'li:

– Musofirni siylamoq sunnati payg'ambar, – deb ularni bot-bot ko'rgani kelib turibdi.

Ziyod botir malika bilan maslahatlashib, bir temirchiga shogird tushibdi. Temirchiga uning xizmati yoqib qolibdi. Temirchi qarasaki, yigit o'zidan ham hunarmand. Temirchi insofli odam ekan. Uni o'ziga sherik qilib olibdi.

Bir kuni shayxning o'g'li Ziyod botirga:

– Birodar, – debdi, – siz saroyda yotmang, men mahallamdan bir hovli topib qo'ydim. Shuni sizga olib beraman.

– Hovli olishga pulim yo'q, – debdi Ziyod botir.

– Sizda bo'lmasa, bizda bor, menga topganingizda berarsiz, – debdi shayxning o'g'li.

Ziyod botir hovlini ko'rib yoqtiribdi. Ishlab topilgan puli bor ekan, pulni naqd sanab beribdi. Shundan keyin er-xotin ko'chib kelishibdi. Kunlarning birida shayxning o'g'li Ziyod botirga:

– Xotiningiz yosh narsa, siz ishga ketgan paytda u yolg'iz qoladi. Biznikida bir zohid kampir bor, o'zi befarzand. Shu kampirni siznikiga yuborsam qanday bo'ladi? – debdi.

Ziyod botir undan juda xursand bo'libdi.

Shayxning o'g'li bir makkor kampirni topib, unga pul beribdi va:

«Shu Qamarxonni nima qilib bo'lsa ham yo'ldan uring»,– deb uni Ziyod botirning uyiga oborib qo'yibdi.

Kampir Qamarxon bilan ona-boladay bo'lib ketibdi. Kampir ertayu kech qo'lida tasbeh, namoz o'qir ekan. Qamar eri ishga ketgandan keyin gilam to'qir, zeriksa ashula aytar ekan. Kampir asta-sekin qizning pinjiga kirib, shayxning o'g'lini maqtay boshlabdi. Qamar makkor kampirning maqsadini sezib qolibdi.

Eriga kampirning gaplarini aytib beribdi. Shunda Ziyod botir: Sababi bu yoqda ekan-da. Mayli, hozircha indamay turaylik-chi, yana nima der ekan, – debdi.

Ertasiga makkor kampir yana shayxning o'g'lidan gap ochib:

– Sizni u kishi juda yaxshi ko'radi, u bilan bir gaplashsangiz nima qiladi? – debdi.

Qamarning achchig'i kelib, kampirning lunjiga bir tushiribdi. Kampirning lunji shishib, tili og'ziga sig'may, yigitning oldiga boribdi va bo'lgan sinoatni aytib beribdi. Shayxning o'g'li achchig'lanibdi. Kallakesar bir tanishi bor ekan, uni chaqirib:

– Bu kecha hech qayerga borma, bir ish bor, shuni bajarasan, – debdi.

Shayxning o'g'li yarim kechada xizmatkori bilan Ziyod botirning uxlaganini bilib, ikkisi devordan oshib tushibdi. U Ziyod botirni o'ldirib, xotinini olib chiqib ketmoqchi ekan. Qamar odam sharpasini sezib, Ziyod botirni uyg'otibdi. Ziyod botir qarasa, ayvon oldida ikki odam turgan emish. Yostig'i tagidan xanjarini olib, shayxning xizmatkoriga tashlanibdi, uning kallasini shartta olib, unga hamla qilmoqchi bo'lib turgan shayxning o'g'lini ham dast ko'tarib, yerga uribdi. Shayxning o'g'li Ziyod botirning oyog'iga yiqilib, ikkinchi bunday noma'qulchilik qilmaslikka so'z beribdi.

Malika «o'ldiraylik» desa ham, Ziyod botir: «Mayli ketsin bu nomard. Ikkinchi bunday ishni qilmasin»,–deb uni uydan chiqarib yuboribdi.

Shayxning o'g'li bu yerdan chiqqandan keyin: "Nega podshoga borib chaqmayman»,– deb saroyga yo'l olibdi.

Sulton Husayn Mirzo o'z yaqinlari bilan o'tirgan ekan, ular orasida shayx ham bor ekan. Shayxning o'g'li podshoga ta'zim qilib:

– Shohim, yaqinda yurtimizga bir oqpadar yigit bir qiz bilan kelgan edi. Men ularni durust odamlar deb nikohlab qo'ygan edim. Keyin hovli ham olib berdim. Shu kecha ko'chadan o'tib ketayotsam, hovlidan kulgi eshitildi. Qarasam, haligi oqpadarning

xotini yigitlar o'rtasida o'ynab turgan ekan. Achchig'imga chidolmay yigitni chaqirib: «Bu nima buzuqlik, uyalmaysanmi?» degan edim, u menga bir musht soldi. Shohim, shu yaramas yigitni shahardan badarg'a qilishga farmon berishingizni so'rayman. Buning kasofati hammamizga tegmasa deb qo'rqaman, — debdi.

Sulton g'azablanib:

— Uni shahardan haydab yuborish emas, hoziroq kallasini tanidan judo qilaman, — debdi va Ziyod botirnikiga navkarlarini yuboribdi. Sulton yuborgan kishilar Ziyod botir bilan Qamarxonning qo'llarini orqalariga bog'lab olib kelishibdi. Sulton Qamarni ko'rishi bilanoq o'zini yo'qotib qo'yibdi. Ikkovining hech qanday gunohi yo'qligini sezibdi. U Ziyod botirdan:

— Sen bu qizni qayerdan olib kelgan eding? — deb so'rabdi.

— O'zidan so'rang, — debdi Ziyod botir.

Ammo podsho unamabdi. Sulton achchig'lanib:

— Jallod, olib chiq buni, dorga os, — debdi. Botirni jallodlar olib chiqib ketishayotganda Ziyod botir chaqqonlik bilan ular qo'lidan chiqib qochibdi va to'ppa-to'g'ri haligi temirchi ustaning uyiga boribdi. Bo'lgan voqeani unga so'zlab beribdi. Temirchi: «Falon joyda bir g'or bor, sen o'sha yerga borib turasan, men shaharda nima gap bo'lganini ertaga borib senga aytaman»,— debdi.

Endi gapni malikadan eshiting:

Sulton Qamarga yaxshi gapirib: «Men sizni malikalarning malikasi qilay, siz menga tegishga rozilik bering»,— deb ko'p yalinsa ham bo'lmabdi. Sulton g'azablanibdi. Sultonning bog'ida yashirin bir zindon bor ekan, uni hech kim bilmas ekan. Qamarni shu zindonga solibdilar. Ziyod botirning qochganini eshitib, shahar darvozalarini bekitib qidiruv boshlashibdi. Ertasiga kechqurun temirchi usta Ziyod botir yashiringan g'orga boribdi.

— Endi nima qilamiz, tuzukroq yo'l ko'rsating? — debdi Ziyod botir.

— Bir yo'l bor, — debdi, — sen vazir Alisher Navoiy bilan uchrashasan, butun voqeani unga aytasan, dardingga o'sha kishi davo topa oladi,- debdi temirchi o'ylab-o'ylab.

Ziyod botir yarim kechada g'ordan chiqib, Navoiyning uyiga boribdi. Eshikda turgan mulozimga salom berib:

— Men Navoiy hazratlarinikiga uzoq yerdan mehmon bo'lib keldim,-debdi.

Navoiy kechalari uxlamasdan ishlar ekan. Mulozim Navoiy huzuriga kirib: «Bir mehmon yigit uzoqdan sizni ko'rgani kelibdi»,— degan ekan, Navoiy:

– Chaqir kirsin, – debdi.

Ziyod botir Navoiy bilan ko'rishib-so'rashib bo'lgach, boshidan o'tgan voqeani birma-bir bayon qilibdi. Navoiy uni yupatib:

– Xotirjam bo'ling, sulton Qamarxonni o'ldirmaydi, ertaga xabar olaman, – debdi.

Navoiy ertasi podsho saroyiga borib, to'g'ri boqqa kiribdi. U Sultonning shu yerda yashirin zindoni borligini bilar ekan. Bog'ni aylanib yurganda bog'bonga duch kelibdi. Bog'bon Navoiyga ta'zim qilib, bir dasta gul tutibdi. Bu kishi ham bog'bonlik, ham zindonbonlik qilar ekan.

Navoiy bog'bonga qarab:

– Qizdan xabar olib turibsizmi? Yoshlik qilib tag'in o'zini o'zi o'ldirib qo'ymasin, – debdi.

– Ha, taqsir, xabar olib turibman, sultonning o'zlari ham hozir kelib ketdilar, –debdi bog'bon.

Shu bilan Navoiy xotirjam bo'lib, uyiga qaytibdi va Ziyod botirga qizning sog'-salomatligini bildiribdi. O'zi shu kundan boshlab odamlarga podsho bog'iga tomon lahm kovlatibdi. Uch kun deganda lahm kovlanib bo'libdi. Navoiy Qamarni zindondan chiqazibdi.

– Senga birodarman, Qamar, bajonidil singlim, mening uyimda bir umr tursangiz ham bemalol, birov sizlarga daxl qilmaydi, – debdi Navoiy. Qamar bilan Ziyod botir xursand bo'lib Navoiyning uyida yashabdilar. Oradan uch yil o'tibdi. Qamar o'g'il ko'ribdi. Bolasi yuradigan bo'libdi. Bir kun Navoiy bog'dan chiqib ketayotganda bola yo'lda suv o'ynab turgan ekan. Navoiy uni ko'tarib, qo'liga gul berib, eshik oldiga yetganida ichkaridan Ziyod botirning ovozi eshitilibdi:

– Nega yig'laysan, onangni sog'inganing bilan borib ko'rolmaysan. Qo'y, yig'lama, yuragimni ezma.

Navoiy buni eshitib, hovliga kiribdi. Qamar ko'zyoshini artib, o'rnidan turib, Navoiyga salom beribdi. Navoiy:

– Xafa bo'lmang, singlim, yana bir oy sabr qiling, yurtingizga o'zim oborib qo'yaman, otangizga ham tushuntiraman, – debdi.

Oradan bir oy o'tibdi. Navoiy sultondan sayohat bahonasi bilan ijozat olib, o'zining sirdosh yigitlaridan to'rttasini hamroh qilib, safar jabdug'ini rostlabdi. Yigitlar bir hafta ilgari Qamar bilan Ziyod botirni shahardan chiqarib, bir tog'ning bag'riga qo'yib kelishibdi. Navoiy bir haftadan so'ng yo'lga chiqibdi. Qamar bilan Ziyod botirni olib, to'ppa-to'g'ri ularning yurtiga jo'nabdi.

Bir necha kun yo'l yurib, yo'l yursalar ham mo'l yurib, axiri Qamarning yurtiga yetibdilar. Sulton Fotih Navoiyning kelganini eshitib, bir qancha yigitlarini unga peshvoz chiqaribdi. Navoiyni bir necha kun mehmon qilgandan keyin :

– Xush kelibsiz, xizmat? – debdi podsho.

Navoiy:

– Sizdan ikki gunohkorning gunohini kechishingizni so'ragani keldim. Shularning gunohidan o'tsangiz, bir necha kun turaman, bo'lmasa, hozir qaytib ketaman, – debdi.

Podsho:

– Agarda gunohkorlar otamni o'ldirgan bo'lsalar ham siz tufayli ularning gunohidan kechdim, kim ekan ular ? – debdi.

Navoiy Qamar bilan Ziyod botirni chaqiribdi. Qamar kelib, otasiga o'zini tashlabdi.

Podsho sevinganidan hushidan ketayozibdi.

– Qayerda eding, bolam? – deb yig'lab yuboribdi. Qamar yo'qolganidan so'ng Sulton darak solmagan joyi qolmagan ekan.

Sulton shahar xalqiga yetti kun ziyofat beribdi. U Ziyod botirni o'ziga lashkarboshi qilib tayinlabdi. Ziyod botir tog'da cho'ponlik qilib yurgan otasini chaqirtirib kelibdi. Navoiy bir necha kun turgach, Hirotga qaytibdi, Ziyod botir bilan Qamar shod-xurramlik bilan umr kechiribdilar.

Muqbil toshotar

Buxoro amirining go'zal qizi bo'lgan ekan. U qiz qanchalik chiroyli bo'lsa, shunchalik g'ayratli ekan. Uning ismi Mehrinigor ekan.

Mehrinigor yuziga niqob tortib xuddi yigitlardek qilich-qalqon bilan ko'p vaqtini ovda o'tkazar ekan. U bir kuni sakkiz yuz yigit bilan ovga chiqibdi. Bu ovga chiqqan yigitlar o'q otishga, kamon tashlashga shunday usta ekanki, agar bittasi kamandni halqa-halqa qilib Mirrix yulduzini mo'ljallab tashlasa, shubhasiz Mirrix yulduzini ilintirarkan. Agar Mehrinigor o'zi o'q otadigan bo'lsa, mabodo bu qizning otgan o'qi mening gardishimga tegib qolguday bo'lsa, gul mixlarim to'kilib ketadimi, deb falak titrab turarkan. Mehrinigor yigitlari bilan ov qila-qila bir toqqa yetibdi. Tog' juda baland ekan, bir tomoni ketganicha to'qay ekan. Tog'ning bir chekkasidan chiroyli kiyik chiqib qolibdi. Mehrinigor yigitlarga qarab: «Mana shu kiyikni o'rtaga olinglar, uni tirikligicha tutishimiz kerak, kiyik kimning yonidan o'tib ketsa, shu odamga

jazo beraman», — debdi. Sakkiz yuz odam har tarafdan davra olib kiyikka kamand tashlabdi. Kiyik shunaqa epchil ekanki, sakkiz yuz yigitning kamandiga ilinmasdan chap berib, malikaning oldidan chiqib ketibdi. Malika o'q-yoyni g'azab bilan otibdi, tegmabdi. Kiyik tog'ma-tog' oshib ketibdi. Shu tog'da cho'pon mol boqib yurgan ekan. Kiyik shuning ro'parasidan o'tib qolibdi. Cho'pon paloxmonga toshni solib kiyikning shoxini mo'ljallab urgan ekan, kiyikning shoxi ikki yoqqa uchib, kiyik mukkasiga yiqilibdi. Malika ot qo'yib ketayotganida tog'ning bir chekkasidan bir yo'lbars pishqirib malika tomon yuguribdi. Ot yo'lbarsdan hurkib orqaga tislangan ekan, malika otdan yiqilib tushibdi. Yo'lbars malikaga yetishiga ikki qadam qolganda, yaqinda turgan cho'pon tosh bilan yo'lbarsning manglayiga bir urib, miyasining mag'zini chiqarib yuboribdi. Cho'pon yugurib kelib, malikani o'rnidan turg'azmoqchi bo'libdi.

Shu vaqt sakkiz yuz yigit yetib kelibdi, malikani bu ahvolda ko'rib hayron bo'lishibdi. Cho'pon bechora nima qilishini bilmabdi, darhol malika otga minib, qo'lidagi uzugini cho'ponga hadya qilibdi.

Malika saroyga qaytganidan keyin qaytib ovga chiqmaslikka va erkaklar libosini kiymaslikka o'ziga so'z beribdi.

Endi gapni cho'pondan eshiting. Bechora cho'pon malik hushiga oshiq bo'lib uyiga bazo'r yetib kelibdi. Shu kundan boshlab qattiq kasal bo'lib yotib qolibdi. Cho'pon tog' xalqining eng yaxshi ko'rgan farzandi ekan, uning ismi — laqabi Muqbil Toshotar ekan. Muqbilning to'satdan kasal bo'lib qolganiga tog' xalqi hayron bo'libdi. Muqbil tog' xalqining podasini boqib, uni yirtqich hayvonlardan saqlar ekan. Cho'pon har qanday vahshiy hayvonni bitta tosh bilan urib yiqitar ekan. Yirtqichlar Muqbildan qo'rqib, tog' xalqining yaylovlariga yo'lamas ekan. Muqbil kasal bo'lgandan keyin, yirtqichlar tog' xalqining mol-joniga hujum qila boshlabdi.

Muqbil Toshotarning keksa otasi bilan qari onasi bor ekan. Ular Muqbilning kasaliga kuyib yig'lashar ekan. Tog' odamlari Muqbilning ahvolidan har kuni xabar olib turishar ekan. Ular ichida bir donishmand chol bor ekan. U bir kuni Muqbilning yonida o'tirib:

— O'g'lim, sening kasaling ishq kasali bo'lsa kerak. Rostini ayt, bolam, bu dard senga qaydan keldi? Qaysi bir qora ko'zning nozik qarashiga, qaysi bir jingalak sochning kamandiga asir-mubtalo bo'lib qolding? — deb so'rabdi.

Cho'pon yotgan joyida ko'zyoshi qilib:

— Ey, ota, nimasini so'raysiz. Mening dardim tuzalmaydigan dardga o'xshaydi, — debdi.

Shunda chol yana:

— Jon bolam, yuragingdagi dard-hasratingni ayt. Agar sen yaxshi ko'rgan qiz osmondagi yulduz bo'lsa ham olib beramiz,- debdi.

Cho'pon malikani ko'rganini, uning lutf etib, qo'lidagi uzugini berib ketganligini birma-bir aytibdi.

Chol yigitning dardi ishqdan ekanligini bilib, bu sirni tog' xalqiga aytibdi:

— Bizning Muqbil Toshotarimiz podshoh qizi Mehrinigorga oshiq bo'libdi. Endi bunga bir tadbir o'ylab topmasalaring, Muqbilning dardi yana og'irlashadi, — debdi.

Tog' odamlari nari o'ylab, beri o'ylab:

— Podsho qizini Muqbilga bermaydi, — deyishibdi. Keyin ulardan biri:

— Shunday bo'lsa ham kishi yuborib ko'ramiz, bersa bergani, bermasa hammamiz yakdil bo'lib urushamiz. Yo birato'la o'lib ketamiz, yo Muqbilni tilagiga yetkazarmiz, — debdi.

Donishmand chol bir qancha kishini ergashtirib, podsho qiziga sovchi bo'lib boribdi. Sovchilar bir qancha qo'yu yilqilarni podshoga tuhfa uchun olib borishibdi. Podsho ularga qarab:

— Xo'sh, nima arzlaring bor: —deb so'rabdi.

Donishmand chol hamma voqeani bayon qilib, keyin:

— Shohim, biz sizga qulchilikka keldik, — debdi. Podsho tutaqib ketib:

— E, nodonlar, mening qizimga senlar sovchi bo'lib keldilaringmi? Bu qanday nomus yo meni mensimaysanlarmi? — deb sovchilarni zindonga soldiribdi. Keyin lashkarlariga qarab:

— Hammangiz buyurib, sahroyilarning mol-mulkini olib keling, Muqbilni tiriklayin tutib keltiring, — debdi.

Lashkarlar tog' odamlarining mol-hollarini talab, ko'p jabr-zulm qilibdilar. Muqbilning otasi hamma voqeani o'g'liga aytib beribdi. Shunda Muqbil:

— Hali meni deb bechora xalq shu ahvolga tushdimi, —debdi-yu, palaxmonini elkasiga osib, jang bo'layotgan joyga ot choptirib ketibdi. Borib qarasa, podsho lashkarlari xalqni ezib-yanchib talayotgan ekan. Muqbil darhol ularga qarshi jang boshlabdi.

Lashkarlarning allaqanchasini qirib tashlabdi. Qolganlari o'rdaga qarab qochishibdi. Borib podshoga arz qilishibdi:

— E, podshohi olam, Muqbil Toshotar juda zo'r yigit ekan.

Har qanday odamni musht ursa, til tortqizmay o'ldirar ekan. Juda ko'p odam o'ldi, biz dargohingizga qochib qutuldik.

Podsho g'azablanib, butun lashkarini yig'diribdi, o'zi bosh bo'lib jangga kiribdi.

Muqbil uzoqdan turib tosh bilan lashkarlarning boshlarini uchiraveribdi.

Podsho Muqbilga baravar kelolmasligiga ko'zi etib, unga kishi yuboribdi va:

— E, pahlavon yigit. Qizimni senga berishga roziman. Lekin ikkita shartim bor: biri shuki, qo'lingda to'rttadan sakkizta yo'lbarsni etaklab kelasan. Ikkinchisi, Hotamtoyning boshini kesib keltirasan. Uning yaxshi oti bor, olib kelasan. Shu shartlarimni bajo keltirsang, qizimni senga berayin va seni o'zimga kuyov qilib olayin»,— debdi podsho.

Muqbil shu shartni qabul qilibdi, uni podshodan zindonda yotgan kambag'al bechoralarni chiqarib yuborishni talab qilibdi. Podsho bu talabni qabul qilibdi. Zindondagilarga bosh-oyoq kiyim kiygizib bo'shatib yuboribdi.

Muqbil tog' xalqidan fotiha olib, yakka o'zi yo'lbars qidirib ketibdi. Yura-yura bir to'qayzorga yetibdi. Qamishzorda uxlab yotgan bir yo'lbarsni ko'rib qolibdi. Vaqtni qo'ldan bermay, bora solib uni bo'g'ibdi. Yo'lbars o'rnidan turib Muqbil bilan olisha ketibdi. Muqbil yo'lbarsni mahkam bo'g'ib olib, mushuk bolasiday qo'lda o'ynatib, bir-ikki marta yerga uribdi. Yo'lbars hangrab qolgandan keyin tumshug'iga behush qiladigan dori tutib, uni hushidan ketkazibdi, tumshug'iga burov solib, yo'g'on zanjir bilan daraxtga bog'lab, yana yo'lga tushibdi.

Yurib-yurib bir toqqa chiqibdi, unda yana bir yo'lbarsga duch kelibdi. Olishib, uni ham yengibdi: zanjir bilan katta daraxtga bog'labdi. Keyin ularning hammasini bir joyga yig'ib, birin-ketin hushiga keltirib, tepib-tepib qo'rqitib qo'yibdi.

Yo'lbarslar qo'rqqanidan boshlarini quyi solib turar emish. Muqbil tumshug'iga burov solingan sakkiz sherni yetaklab yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, yetti kun deganda qishlog'iga yetib kelibdi. Muqbilning o'lja bilan omon-eson kelganini ko'rgan qishloq xalqi juda sevinibdi.

Muqbil erta bilan qo'lida to'rttadan sakkizta yo'lbarsni yetaklab podsho saroyiga boribdi.

«Muqbil toshotar shartni bajarib, sakkizta yo'lbarsni yetaklab kelayotir»,— deb hammaning yuragiga g'ulg'ula tushibdi. Odamlar uni ko'rishlari bilan to's-to'polon qilib qocha boshlabdilar.

Yasovullar bu xabarni podshoga yetkazibdilar. Podshoni vahima bosib: «Men uni o'lib ketar deb o'ylagan edim, attang, tirik qolibdi»,— deb bir qancha lashkar bilan Muqbilni kutib olgani chiqibdi. U noiloj bunday debdi:

— Balli, o'g'lim, balli. Shartimni bajaribsan. Endi qo'lingdagi yo'lbarsni toqqa eltib, o'sha yerda terilarini shil. Keyin ikkinchi shartni bajarishga kirish, — debdi.

Muqbil qishloqdagi yor-do'stlari bilan xayrlashib, Hotamning boshi bilan otini olib kelgani jo'nabdi. To'rt oy deganda Hotamtoyning shahriga yetibdi. «Shu kecha biron joyda qo'nay», — deb o'ylab borayotgan ekan, katta suvning bo'yida qirq yoshlar chamasidagi bir odam qo'tir echkini yuvib turganini ko'ribdi. Muqbil undan:

— Hotam shahardami yo biror yoqqa ketganmi? — deb so'rabdi.

— Hotamtoy shaharda. Yo'l bo'lsin, yigit. Musofirga o'xshaysiz. Bugun biznikida mehmon bo'ling, Hotamtoy oldiga ertaga borarsiz.

Muqbil o'zicha: «Ayni muddao bo'ldi», - deb sevinib, haligi odamning uyiga boribdi. Uy egasi Muqbilni yaxshilab mehmon qilibdi. Vaqt yarim kechadan oqqanda uy egasi Muqbildan so'rabdi.

— Yaxshi yigit, Hotamtoyda nima ishingiz bor edi?

— Ha, zarur ishim bor edi. Siz uni taniysizmi? O'zi qanday odam?

— Ha, Hotamni taniyman, u shaharning kattasi bo'ladi. Shunday bo'lsa ham boshqa shohlar singari taxtda o'tirmaydi, faqirlardek xalq orasida yuradi. U kishida qanday ishingiz bor edi? — deb yana so'rabdi uy egasi. Shunda Muqbil:

— Men juda hayron bo'lib qoldim. Yurtimiz podshosining amri bilan Hotamning boshini olib ketgani kelgan edim. Gapingizga qaraganda Hotam juda bahodir yigit ko'rinadi. Meni u bilan maydonda qanday olishar ekanman?

Uy egasi Muqbildan:

— Hotam sizga nima yomonlik qilgan edi? — deb so'rabdi.

— Hotam-ku, menga yomonlik qilgan emas, —debdi Muqbil.

So'ngra Hotamni nima uchun o'ldirgani kelganini birma-bir aytib beribdi.

— Siz bu kecha yaxshilab dam oling, — debdi uy egasi, — erta sizni Hotamga olib boray.

Muqbil uy egasidan minnatdor bo'lib uyquga ketibdi.

Tong otibdi. Ertalab nonushtadan keyin Muqbil:

– Qani, Hotamning uyini menga ko'rsatib qo'ying, – debdi.

Uy egasi:

– Hotam degani men bo'laman. Podsho aytgan otni bisotimda boshqa hech narsa bo'lmaganidan, kecha so'yib, sizga ovqat qildim. Siz oshiq yigit ekansiz, siz uchun bitta bosh emas, mingtasi ham qurbon bo'lsin, – deb Muqbil oldiga tiz cho'kib, boshini tutibdi. Muqbil Hotamning mardligini ko'rib, yig'lab yuboribdi.

So'ngra bunday debdi:

– Yo'q, Sizning boshingizni kesadigan qo'lim qirqilsin. Podsho qizini bermasa, bermay qo'ya qolsin. Men sizdek saxiyning qurboni bo'lay.

Hotamning bir o'g'li bor ekan, otasiga qarab debdi:

– Mehmon to'g'ri aytadilar. Bari bir, siz boshingizni berganingiz bilan: «Bu bosh Hotamniki emas»,– deb uchinchi shart qo'yishdan toymaydi.

So'ngra Muqbilga qarab:

– Otam siz bilan birga borsinlar, agar otamning boshi bilan sizdek muhtoj kishining hojati chiqadigan bo'lsa, men mingdan ming roziman, – debdi.

O'g'lining so'zini Hotam ma'qullab:

– Men bironta muhtoj odam hatto boshimni so'rab kelganda ham ayamayman, deb ahd qilgan edim. Endi murodimga yetdim, – debdi.

Muqbil nima qilarini bilmay noiloj, Hotam bilan yo'lga tushibdi. Ular bir necha kundan keyin Buxoro shahriga yetib kelibdilar. Muqbil Hotam bilan podsho oldiga kiribdi. Podsho Muqbilni ko'rib izzat bilan yuqori o'tqizib:

– Qani, Hotamning boshi bilan otini olib keldingmi? – deb so'rabdi.

– Hotam saxiy yigit ekan, bilmasdan men uning uyiga borib mehmon bo'lib qolibman. Bisotida boshqa narsasi bo'lmaganidan o'sha siz ishqivoz bo'lgan otni so'yib, mendek bir musofirni mehmon qildi. Mening ahvolimni bilib, boshini qilichga tutib berdi. Lekin men shunday mard, saxiy kishining boshini emas, o'zini tiriklayin olib keldim, –debdi. Podsho:

– Qani Hotamning o'zi? – deb qichqiribdi. Hotam o'rnidan turib podshoga ta'zim qilibdi. Podshoning rangi uchib, badanida titroq turibdi. Keyin Hotam podshoga qarab:

– Siz yo'qlagan Hotam men bo'laman, –debdi.

Podsho Muqbilga qarab:

— Men senga «Hotamning boshini keltir» degan edim. Sen buni tiriklayin olib kelibsan, — degan ekan, Hotam:

— Men o'z yurtimda boshimni bu yigitga tortiq qilgan edim, unamadi. Noiloj o'zim birga keldim. Mana, marhamat, boshimni kestiring, shu bechorani murodiga yetkazing, — debdi.

Podsho jallod chaqirib, Hotamni o'limga buyuribdi. Jallod Hotamni olib ketayotganda Muqbil chidolmabdi: bir musht bilan jallodning yuzini teskari qilib qo'yibdi, keyin podshoga g'azab bilan:

— Sen qanday nomardsan. Shunday begunoh, mard, oliyjanob yigitni o'ldiradigan bo'lsang, qizingni bermay qo'ya qol. Agar o'ylaganing odam o'ldirish bo'lsa, Hotam o'rniga meni o'ldir, — debdi. Podsho tutaqib Muqbilga qarab:

— O'ldirsam sendan qo'rqamanmi, — deb jallodni chaqiribdi. Muqbilni ham o'limga buyuribdi.

Shu payt ichkaridan Mehrinigor yugurib chiqib, o'zini Muqbilga tashlabdi. Podsho g'azab bilan:

— Uni ham o'ldiring—deb buyuribdi. Shunda Hotam:

— Andishani bilmas ekansiz, taqsir, —deb yugurganicha podsho taxtiga chiqib boribdi. Podsho qilich o'qtalgan ekan, Hotam podshoning qilichli qo'lini mahkam ushlab, yuziga bir tarsaki uribdi. Podsho taxtdan ag'darilib tushibdi. Hotam Muqbilga qarab:

— Taxtga chiqib o'tiring, yigit?—debdi. Saroy odamlari podshodan bezor bo'lgan ekanlar, hammalari Muqbilga itoat qilibdilar. So'ngra Hotamning o'zi bosh bo'lib, Mehrinigorni to'y-tomoshalar bilan Muqbilga olib beribdi.

Shunday qilib, Muqbil Toshotar bilan Mehrinigor ikkisi murod maqsadiga yetibdi.

Malika Husnobod

Sizga bog' bersin bizga hayot.

Zamonlarning zamonida, qadimal ayomda bir zolim podshoh bor ekan. Podshoning bir qizi bor ekan. Onasi bir kambag'alning qizi ekan. Sohibjamolligi haddan ziyoda, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, shaqshaqai jamoli o'n to'rt kechali oyni xira qilar ekan. Suv ichsa tomog'idan, sabzi esa biqinidan ko'rinar ekan.

Malikaga ko'p joylardan sovchi kelibdi, otasi bermabdi. Kunlardan bir kuni podshohning taxti tepasidagi daraxtga bir qarg'a kelib qo'nibdi. Qarg'a «qag'...qag'»— deb qag'illabdi. Podshohning to'rt yuz ulamosi bor ekan. Podsho ularni chaqirib:

– E, ulamolar, qarg'a nima deyapti?-deb so'rabdi. Ulamolardan biri:

– Qarg'aning nima deyayotganini bilmaymiz. Chunki u – qarg'a, biz – odamzodmiz. Qarg'a o'z vaqtini chog' qilmoq uchun qag'illaydi debdi.

Zolim podsho darg'azab bo'lib, «jallod» debdi. O'n to'rt jallod margi-salovat qilichini burro, zabonini go'yo qilib «kimning ajali yetdi, oftobni soyaga yetkazmay bosh kesarman,» deb turibdi.

Shu zamon malika bu so'zni eshitib qolibdi:

– E ota, sizga nima bo'ldi, nima savol so'radingiz? «Xuni nohaq to'rt yuz kishining boshini kesamizmi?» debdi.

Podshoh doimo xotiniga: «Men podshohman, yaxshi kiyib, yaxshi eyapsan, agarda bir kambag'alga tekkaningda, non o'rniga g'isht chaynar eding», deb ta'na qilar ekan. Podshoh ketgandan so'ng qizi:

«E ona, meni bir kambag'al, mehnatkashga beringki, agar toleim bo'lsa, uni podshoh qilib, otamning taxtiga o'tqazay», der ekan.

O'sha kuni jumboq ustida qiz hozir bo'libdi. Podshoh:

«Agar jumboqni echsang, gunohlaringdan o'tdim» debdi. Qiz «Qarg'aning «qag'» degani, erni bor qiladigan ham xotin, yo'q qiladigan ham xotin, deganidir»,– deb javob beribdi.

Podshoh darg'azab bo'lib, har bir tuki nishtari obdor bo'lib:

– E soching qirqilgul, sening ko'ngling er tilabdi, men seni zindonga solib, yetti yil saqlab, keyin teringga somon tiqayin, toki bu ish boshqa qizlarga ibrat bo'lsin, bundan keyin hech kim ota-onasidan javobsiz erni tilga olmasin, – deb qizini zindonga solibdi. Haligi to'rt yuz kishini ozod qilibdi.

Podshoh bir haftagacha uydan chiqmay, fikr qilibdi: «Qizni zindonda ochdan o'ldiraymi, osaymi, nima qilsam, bu ishni xalq bilmas ekan?»

Podshohning bir vaziri bu ishlardan xabardor ekan. Qizga rahmi kelib, kechasi uni zindondan qutqarib olibdi. Uyiga olib kelib, bir duradgorga hech bir joyidan shamol, suv kirmaydigan qilib mustahkam bir sandiq yasattiribdi. So'ngra qizga qarab:

– E, qizim, otangning niyati buzildi, senga qirq kunlik ovqat tayyorladim. Sandiqqa tush, uning qopqog'ini mahkam bekitib, daryoga tashlayman, umring uzun bo'lsa, birorta odam seni xalos etar, podshoh qilichidan o'lganingdan ko'ra, sahroda cho'pon bo'lib yurganing yaxshi, – debdi.

Qiz «xo'p» dep sandiqqa tushibdi. Vazir sandiqni ko'tarib,

daryo labiga kelibdi va uni suvga oqizib yuboribdi. Sandiq suvda uch oy oqibdi. Qiz bir kunlik ovqatni to'rt kunga yetkazibdi.

Bo'lak bir mamlakatning podshohi odamlarga: «Menga sahrodan o'tin keltiringlar» deb buyruq beribdi. Bir kambag'al ayolmand kishi bor ekan. U: «Men boraman, mening bola-chaqam ko'p, menga bir narsa bersangiz, bolalarim bilan ovqat qilaman», deb qo'liga o'roq olib, beliga arqon bog'lab dalaga boribdi. Chol o'tin qilib bog'labdi, chanqovini bosish uchun daryo labiga suv ichgani borgan ekan, shu paytda daryo o'rtasida oqib kelayotgan bir sandiqni ko'ribdi.

Chol darhol ust boshini echib, o'zini daryoga tashlabdi, sandiqni tortib chiqaribdi. Uni qayerdan ochishni bilmabdi. Nihoyat, unnab-unnab o'roq uchi bilan sandiqni ochibdi. Qarasa, Malikayi xubon, malikayi talat, husnu jamolda tengi yo'q bir qiz yotgan emish. Chol hayron bo'lib: «Bu bir savdogarning qizi bo'lsa, otasi bilan savdoga jo'nagan bo'lsa, yo'lda daryo bo'lsa-yu, kemaga o'tirgan bo'lsa, kema cho'kib ketgan, bu sandiq suvning betida qolgan, mening bu qiz bilan nima ishim bor. Podshohga o'tinni olib borsam, bir tanga beradi, qizni olib borsam, hech narsa bermaydi, yaxshisi shuki, daryoga tashlab yuboraman», deb fikr qilibdi.

— Hoy qiz, o'likmisan, tirikmisan? —deb chaqiribdi. Qizning tirnoqlari o'sgan, sochlari paxmaygan ekan. Chol ko'rib:

— E qiz, seni tag'in daryoga tashlayman, — debdi.

— E ota, meni sandiqdan chiqarib olsangiz, men sizni ko'p davlatmand qilardim, — yalinibdi qiz.

Chol quloq solmay sandiqni bekitib: «Buni shaharga olib borib sotaman, bunda nima bor-yo'qligini hech kim bilmaydi», deb ko'taribdi. Bozorga olib borgan ekan, ko'chada ketayotgan podshohning ko'zi chol bilan sandiqqa tushibdi: «E chol, qani keltirgan o'tining, men senga o'tin olib kel desam, birovning uyini o'g'irlab, sandig'ini olib kelibsan?» deb cholni qilich bilan ikki nimta qilibdi, sandiqni saroyga keltiribdi.

Podshoh xizmatkorlariga: «Sandiq ochilsin,» —debdi. Sandiqni ochib qarasalar, bir qiz yotgan emish. Podshoh uni ko'rib, oshiqi beqaror bo'libdi. Ko'kragidan bir tiri juvoldiz parron o'tibdi va qizni sandiqdan olib: «Menga tekkin» debdi.

Qiz:

— Podshohim, menga qirq kun muhlat bering. To'rt oydan beri ko'p azob chekdim, endi qizlar bilan birga yurib, besh-o'n kun o'ynab, dimog'imni bir oz chog' qilay, —debdi. Podshoh qabul

qilmabdi. «Hozir «xo'p» demasang, boshingni tanangdan judo qilaman,» –debdi. Qiz yig'labdi: «Bo'lmasa uch kunga javob bering, qizlar bilan bog'da sayr etib, o'ynab olay, keyin sizning aytganingiz bo'lsin». Podshoh bir kunga javob beribdi.

Qiz qirq qiz bilan podshohning bog'iga kiribdi. Bog'ning etagidan daryo oqar ekan, qizning ko'zi daryoga tushibdi. «Yuguringlar, qizlar, daryoga tushib, cho'milib chiqamiz», deb daryo tomonga yo'l boshlabdi.

«Men bir kambag'alga tegib, uni podshoh qilib, zolim otamning tepasiga lashkar tortib borib, uning taxtini ko'kka sovuraman, deb ahd qilgan edim. Agar bu podshohga tegsam, maqsadim hosil bo'lmaydi», deb o'ylab o'zicha va qizlardan oldinroq borib, daryoga sho'ng'ibdi. Bir jayxun baliq daryoda yotgan ekan, qizni yutibdi-yu, suv tagiga ketibdi. Qirq qiz daryo labida chapak chalib qolaveribdi.

Qizlar borib bu voqeani podshohga aytibdilar. Podshoh oh tortib, boshidagi tojini, belidagi kamarini yerga urib, o'zi bir qalandar suratiga kirib, cho'l-biyobonga chiqib ketibdi.

Endi ikki kalima so'zni bo'lak joydan-shahri Jurjondan eshiting:

Bir podachining o'g'li daryo bo'yida mol boqib yurar ekan. Bir to'da baliqchi daryoda to'r solibdi. Podachi bola baliqchilarga yig'lab bunday debdi:

Uch kundan beri otam och, kasal. Ovqat topib kelgani shaharga bormayman. Men borsam «podangni boq» deb hech kim ko'chada yurgizmaydi. Menga biror narsa beringlar.

Haligi baliqchilar:

– Mana shu solingan to'rimizga nimaiki ilinsa seniki, deyishib, to'rni suvdan ko'tarishibdi. Qarasalar: bir katta jayxun baliq tushibdi. «Ol, bola» debdilar. Podachi bola baliqni to'rtta ho'kizning beliga bog'lab, sudratib uyiga olib boribdi.

Otasi suyunib baliqni yorgan ekan, ichidan bir qiz chiqibdi. Chol suyunib, qizning nafasiga quloq solsa, tirik ekan. Chol darrov qizning og'ziga suv tomizibdi. Bir ozdan keyin qiz ko'zini ochibdi. O'rnidan turib cholga salom beribdi.

– Ota, qornim och, menga bir luqma tomoq topib bering, – debdi. Chol bilan o'g'li qizga haligi baliqdan pishirib berishibdi, so'ngra qiz so'rabdi:

– Ota, Sizning kasbingiz nima, o'g'lingizning kasbi nima?

– Men podachi edim. Endi qarib qoldim. O'g'lim ham podachilik qiladi.

Qiz suyunib aytibdi:

– Men endi murodimga yetdim. Sizga qiz bo'laman. Xohlasangiz meni o'g'lingizga olib bering.

– E bolam, to'y qilishga bizda hech nima yo'q.

– Men o'zim xohlasam, to'y xarji uchun narsaning keragi yo'q.

Nihoyat chol xursand bo'lib, qizni o'g'liga olib beribdi. Qiz sochini orqasiga turmaklab, qozonni qarasa, kirligidan u qulog'i bu qulog'iga yetay deb qolibdi. Idish-tovoqlari ham shunday. Hammasini tozalabdi. Chol uni ko'rib, dili oynadan ham ravshan bo'libdi. O'rnidan turib:

– E qizim. Men kasal bo'lib qoldim. Uy ichiga ham qaray olmadim. O'g'lim bo'lsa, mol boqish bilan ovora. Erta ketib, kech keladi. – debdi.

Kelin uy-ro'zg'orini butlashga kirishibdi. Uning ozodaligi va chaqqonligini ko'rgan chol juda xursand bo'lib:

– Bolam, sening g'ayratingni ko'rib, mening ham g'ayratim keldi. Xizmat bo'lsa, menga ham buyursang, – debdi. Kelin o'ng qulog'idagi bitta baldoqni cholga berib:

– Buni bozorga olib boring, xaridor nima bersa, olib keling, – debdi.

Chol baldoqni olib, karvonsaroyga borib o'tiribdi. Bir savdogar baldoqqa xaridor bo'lib:

– Ota, necha pul bu? –deb so'rabdi. Chol:

– O'zingiz insof qilib bir nima bering, – debdi.

Savdogar bir qutini oltinga to'lg'azib beribdi.

– Ota, bo'ladimi, yo ozmi? – debdi.

– Insof qiling deb edim, gapim tamom, – debdi. Savdogar yana bir xaltada oltin chiqarib beribdi. – Yuklab keting, – deb bir xachir ham beribdi. Cholning achchig'i kelib: "Bu meni masxara qilyapti, bir olib qochayki, savdogar meni hech topolmasin", deb o'ylabdi, oltinlarni xachirga yuklab jo'nabdi. Savdogar o'z ko'nglida: "Agar shundan yana bitta topganimda, mamlakatning podshosiga yetti iqlimning boj-xiroji barobariga sotardim" debdi. Chunki baldoq noyob gavhar ekan.

Chol uyiga kelib, oltinlarni keliniga beribdi.

Keyingi hafta kelin chap qulog'idagi baldog'ini ham chiqarib beribdi. Chol yana avvalgi joyga borib o'tiribdi. Yana o'sha savdogar kelib qarasa, chol o'tirganmish.

– Necha pul, ota? –deb so'rabdi savdogar.

– Senga sotmayman, – debdi chol. – Seni meni hazil-mazax qilyapsan. Savdogar:

– Yuring hujraga, – deb cholni hujraga boshlab kiribdi. Cholga ikki sandiq tilla beribdi, shohi to'n kiygizibdi, ikki xachir beribdi.

– Ota, turar joyingiz qayerda? – deb so'rabdi. Chol "joyimni aytsam, oltinlarni tortib oladi" deb o'ylab:

– Mening joyim yo'q, – debdi. Chol uyiga kelibdi. Kelin pullarni olib, uyga qo'yibdi. Tashqariga chiqib, orolni taxmin qilibdi, kengligi o'n kunlik yo'l kelar ekan.

Kelin cholga qarab:

– Paxsa uradigan yigirmata devolzon toping, – debdi. Chol topib kelibdi. Kelin devolzonlarga:

– Bola-chaqangizni ham olib keling, – debdi. Ular olib kelibdilar. Har kuni ularga osh-non, pul, yaxshi kiyim bosh berib turibdi. Buni eshitib ikki yuzta devolzon usta jam bo'libdi. Ular devol urishga boshlabdilar. Bu devolzonlarni ko'rgan odamlar: "Bu ishni kim qilyapti?" deyishsa: "podachi qilyapti, sizlarga ham ish kerak bo'lsa kelaveringlar", deb javob berar ekanlar.

O'n besh kunda besh ming uylik odam to'planibdi. Uch oy deganda devol bitibdi. O'n ikki joyda darvoza qurilibdi. Kelin har bir darvozaga xat yozdirib, suratini yopishtiribdi.

Xatning mazmuni quyidagicha ekan:

"Bu yurtning nomi Husnobod. Har kimga oshlik-nonlik kerak bo'lsa, kelib xizmat qilsin".

Bir yil ichida yetmish besh ming uylik odam jam bo'libdi.

Hammasiga qo'sha-qo'sha uylar solib berilibdi. Bir qancha odam yaroq-aslaha tayyorlabdi. Malika har darvozaga yigirma beshtadan odam qo'yib: "Kimki darvozaga kelib, suratga yomon tikilsa, uni menga keltiringlar" deb hukm qilibdi. Bu shaharning xabari Jurjon mamalakatining podshosiga ham etibdi.

Podshohning achchig'i kelib: "Mening zamonamda kim bu beodoblikni qilib, mening yurtimga kelib, podsholik da'vo qiladi? Borib tig'dan o'tkazay," – deb darvozaga yetib, darvozada turgan qorovullarni ko'ribdi.

– Bu shaharni kim bino qildi? – deb so'rabdi podshoh.

Qorovullar:

– Shu darvozadagi suratning egasi qildi. Sizga yaxshi xizmat qilsak-da, o'zimizgagina ovqat berar edingiz, bola chaqamiz och qolaverardi. Shu sababli bola-chaqamiz ko'cha – ko'ylarda sarson bo'lib tilanchilik qilib yurardi. Bu podshoh xotin esa bola-chaqamizni yaxshi parvarish qildi. Bizdan hech narsa ta'ma qilmasdan, bolalarimizni yaxshi joylarda tarbiya qilib o'qitdi.

Ko'p bolalar bir ishning egasi bo'ldilar, – deb javob berishibdi.

Podshoh suratni ko'rib, oshiq bo'lib, qizni o'ziga xotin qilishni xohlab qolibdi. Shaharga kirib, malikaning o'rdasiga boribdi:

– Jurjon podshosi keldi, sizni o'ziga xotinlikka tilaydi, – deb malikaga xabar yetkazibdilar. Bu gapdan malikaning achchig'i kelib, podshohni chaqirtiribdi. Malika:

– E podshoh, nechta xotining bor? – deb so'rabdi.

– Qirqta.

– E ahmoq podshoh, – debdi Malika qirq xotin ustiga meni ham olmoqchimisan, bu ishni ixtiyor qilma.

Podshoh bu so'zdan g'azablanib:

–Sen kabi ahmoq qizning qo'lidan nima ish kelardi:

Meni xalq ichida sharmanda qilding, – deb yonidan qilichini sug'urgan ekan, qiz o'zini taxt orqasiga olibdi. Qizning xizmatkorlari kelib podshohni ushlabdilar. Oyoq-qo'liga kishan urib, zindonga solibdilr. Shahar xalqi buni eshitib, zolim podshohdan qutilganlariga sevinib, Malikani podshoh qilib ko'taribdilar.

Oradan bir necha kun o'tibdi, bir qalandar darvoza oldiga kelib, suratga tikilib yig'layveribdi. Qorovullar uni Malikaning oldiga olib kelibdilar. Malika qarasa, bir kunga muhlat bergan podshoh ekan. Shunda Malika so'rabdi:

– E qalandar! Nimaga yig'laysan?

– Bir qoshiq qonimdan o'tsangiz aytaman.

– O'tdim, ayt.

– Mening bir mahbubam bor edi. Oti Husnobod edi. Sizning darvozangizda o'shaning suratini ko'rdim. Darvozada ham "Husnobod" deb yozilgan. Sizni ko'rsam, kimligingizni bilardim.

– Agarda o'sha qiz tirik bo'lsa nima qilasan?

– Daryoga tushib, yo'q bo'lgan deb eshitdim, agar biror hiyla qilib, kanizlarga biror nima berib, o'zi qochgan bo'lsa, qo'limga tushsa, go'shtini bittadan tikanga ilaman.

– Malika senga hech gunoh qilgani yo'q. Hali ham bu shaxtingdan qayt, – debdi qiz.

Qalandar "Mening xotinim shumikan," – deb gumon qilibdi.

Qilichini sug'urib, malikaga o'qtalibdi va: "Yuzingni och, ko'raman" debdi. Malika taxt orqasiga yashirinibdi va: "Ushla bu qonxo'rni!" deb buyuribdi. Xizmatkorlar buni ham ushlab, zindonga solibdilar.

Malika xotirjam bo'lib vazirga buyuribdi:

– Lashkarimizning hisobini ol-chi, qancha ekan.

Vazir lashkar hisobini olib chiqibdi. Otliq, piyoda yetti lak lashkar yig'ilibdi, qirq kun yo'l jabdug'ini tayyorlab, yeri va lashkarlar bilan ota shahriga jo'nabdi.

Dashtu biyobonlarni, cho'lu sahrolarni keza-keza, axiri malika o'z ota yurtiga yaqinlashibdi.

Endigi gapni qizning otasidan eshiting:

Qizning otasi kechasi tush ko'ribdi: qarasa, osmondan bir bürgut kelib podshohni ko'tarib uchibdi, olib keta turib: "Menga qulluq qilasanmi yo boshingni uzib tashlaymi?" – debdi. Podshoh:

"Yurtimni va xazinayu dafinalarimni – hammasini senga beray, lekin meni omon qoldir", debdi. Shunda qush: "Menga dunyo kerak emas, sen zolimdan Husnobodning qonini talab qilaman", debdi. Podshoh qizning otini eshitib, yig'lab, yalinib turgan vaqtda, Husnobod qizi bir tog'ning orasidan chiqib kela boshlabdi. Bir qo'lida yalang'ochlangan qilich, bir qo'lida g'oz kabobi bor emish. Qiz yetib kelib o'sha qushni bir uribdi. Qush ikki bo'lak bo'libdi. Podshohni yerga qo'yib, qo'lidagi kabobni uzatib: "Ota, mendan o'tgan bo'lsa, kechiring, ma'zur tuting", debdi. Podshoh "dod" deb uyg'onibdi.

Qarasa, yoni-verida hech kim yo'q, qorong'ida bir o'zi yotgan ekan.

Erta bilan qirq to'rt vazirini va to'rt yuz akobirini chaqirtibdi. Ular yig'ilishib kelibdilar, podshoh ularni o'tirishga ishorat qilibdi. Hammasi qo'l qovushtirib o'tiribdi. Podshoh o'ziga qarashli odamlarni yig'ib, kechasi ko'rgan tushini birma-bir aytib beribdi va ta'birini so'rabdi. Ammo o'tirganlarning birortasi ham churq etmabdi. Shunda podshoh g'azablanib, ikki qo'lini musht qilib:

– Tushimning ta'birini aytmasalaring, birortangni ham tirik qo'ymayman, – debdi.

– E shahanshoh, – debdi katta vazir ta'zim bilan, – bir qoshiq qonimdan kechsangiz, tushingizning ta'birini aytay.

– Ayt, kechdim.

Vazir aytibdi:

– Boshingizdan ko'tarilgan qush dushman bo'lsa kerak, dushman yurtimizni vayron qilay deb turgan bir vaqtda qizingiz kelib ajratib olsa-yu, podshohlik boshqa odamning qo'liga o'tsa.

Podshoh yana g'azablanibdi va:

– E yolg'onchi, qizimning suyaklari zindonda chirib ketganiga necha yil, necha zamonlar bo'ldi, sen qo'rqqaningdan shu gapni aytib, meni qo'rqitmoqchisan. Seni ham zindonga solay, qizim

yonida sening ham suyaklaring chirisin, – deb vazirni ham zindonga solibdi.

Shundan so'ng kechalari qo'rqib uxlayolmay, o'q yegan to'ng'izday har tarafga yugurib, oppoq tong ottirib chiqadigan bo'lib qolibdi. Bir haftadan keyin bir xabarchi kelib, podshohga:

– Jurjon yurtining podshosi ustingga lashkar tortib keldi. Tez chiqib toj-taxtingni bersang, berganing, bo'lmasa o'zing bil, deb podshohning xalqumiga bir musht uribdi. Podshoh o'zini o'nglab olguncha, u odam ketibdi.

Podshoh uni ko'rib qanday ekan, – deb xayol surib qolibdi va vazirlrdan maslahat so'rabdi. Vazirlar:

– Bizdan maslahat chiqmaydi. Yaxshi desak ham o'ldirasan, yomon desak ham o'ldirasan. Zindondagi vazirni olib chiqib, in'om dasturxon qilib dushman oldiga chiqar. Xoh o'lib ketsin, xoh tirik qolsin, – deb javob beribdilar.

Podshohga bu so'z ma'qul bo'lib, vazirni zindondan chiqaribdi. Unga bir qancha pul, mol berib, bunday debdi:

– Jurjon podshohiga borib, mening salomimni yetkazasan. Mabodo mamlakat kerak bo'lsa, "xo'p" de. Negaki, kecha yegan mushtumning og'rig'i hali ketgani yo'q; bordi-yu, qon kerak bo'lsa, u vaqtda shahardan chiqib ketaman. Chunki ikkinchi mushtga asti tobim yo'q.

Vazir kulib:

– Tushingning ta'birini aytsam, qilgan achchig'ing boshqacha edi, bitta qizingni nima qilding? Axir boshingga shu kunlarni o'zing orttirding. U podshoh kelib seni zindonga solar. Xor-zorlik bilan o'ldirar, – debdi.

Podshoh loyga botgan eshakdek boshini solib turibdi.

Vazir tortiqlarni olib, shahardan jo'nab, qo'shinga etibdi, so'ngra o'z nomi-nasabini yozib xat qilibdi: "Qon kerak bo'lsa, butun shahar odamlari uchun men jonimni beraman. Yo'q desalar, nohaq qon to'kilmasin, podshohlik taxtini beraman" deb qo'l qo'yib, elchi orqali xatni jo'natibdi. Xat Malikaga borib tegibdi. U xatni o'qib, vazirni bilib, uni chaqirtibdi:

– Ichkariga kirsin, – deb ijozat beribdi.

Vazir kirsa, taxtda bir podshoh o'tiribdi, boshida toj, belida kamar. Qirqta mahram qo'l bog'lab xizmat uchun turibdi. Vazir unga ta'zim qilibdi.

Podshoh yonida betiga niqob tutgan bir odam o'tiribdi. Bu odam vazirga qarab:

— E vazir, bizning makonimizga qo'rqmasdan bir o'zing kelibsan, o'ldirsam nima deysan? — debdi. Vazir debdi:

— Kishi o'z farzandidan ham qo'rqadimi? Farzand har qancha g'azab qilsa ham otalik hurmatini saqlaydi. Jigarpora qizimni tushimda ko'rganimga bugun yetti kun bo'ldi. Tushimda meni hurmat qildi, shoyadki tushim o'ng kelsa.

Bu so'zlarni eshitishi bilanoq Malikai Husnobod betidan niqobini olib, vazir biln ko'rishibdi va bunday debdi:

— E mehribon ota, siz orqali murodimga yetdim. Otamning yurtini sizga bersam, fuqaroga, beva-bechoralarga zulm qilmasdan podshohlik qilsangiz.

Vazir darhol o'rnidan turib, qulluq qilib:

— E bolam, men qarib qoldim. Podshohlik hukmini...menga bergan bo'lsang, ro'paramda o'tirgan toju taxt egasi podshohga tutdim, muvofiq ko'rsang, qolgan umrimni sening qoshingda o'tkazsam — debdi.

Malikai Husnobod lashkar bilan shaharga kirib, otasini axtaribdi. Podshoh somonxonasida, bir oxurning ichida biqinib yotgan ekan. Kuyovi podshohning boshiga qilich ko'taribdi. Podshoh yig'lab qiziga yalinibdi. Qizi erining qo'lidan qilichini olib:

— Har nechuk bo'lsa ham otam qilgan gunohiga tavba qildi, o'lmasin, — debdi. Podshohlik muhrini podachi yigit nomiga o'ydiribdi. Husnobod eri bilan bu yurtni ham idora qilib, zindonda begunoh yotganlarni ozod qilibdi. Ulardan bir qanchasini shaharlarga hokim qilib tayinlabdi.

Shunday qilib, Husnobod o'zining umr yo'ldoshi — podachi yigit bilan umr kechirib, murod-maqsadiga yetibdi.

Avom folchi

Qadimgi zamonda bir kitob ko'radigan mulla folchi bor ekan. Uning qiladigan ishi hamma vaqt kitob ko'rib fol ochish ekan. Bir kuni shu mulla o'lib qolibdi. Mullaning xotini qo'shnisining xotini bilan inoq ekan. Qo'shni xotin mullaning o'lganini eshitib, "dugonamning eri o'libdi, borib fotiha o'qib ko'nglini so'rayin" deb, mullaning uyiga chiqibdi, mullaga fotiha qilib, xotini bilan gaplashib o'tiribdi. Mullaning xotini o'rtog'ining oldiga osh-non qo'yibdi. Shunday qilib, u yoq-bu yog'iga qarasa, yuqori tokchada bir narsaga o'ralgan kitob turgan emish. U kitobni olib, "bu nima?" deb mullaning xotinidan so'rabdi. Shunda mullaning xotini ko'z yoshi qilib:

— Ey do'stijonim, buning nimasini so'raysiz. Sizga aytsam, bu erimning fol kitobi edi. Erim rahmatlik shu kitob bilan shaharlarga borib, ko'chalarda o'tirib, fol ko'rib uncha-muncha topib kelar edi. Bizlarning qishu yoz ovqatimiz shu kitobdan o'tar edi. Xullas, bu kitob bizlarga sigir, mol, uy-anjom bo'lgan, ot-oyoq, ulov bo'lgan, — deb ko'p hasrat qilibdi. Shunda dugonasi:

— Unday bo'lsa, endi bu kitobni kim olib folchilik qiladi?- deb so'rabdi. Shunda mullaning xotini:

— Ey do'stim, erim o'lgandan beri bu kitob tokchada bekor turib qoldi. Buni biladigan, ko'radigan, ishlatadigan odam yo'q, o'g'limiz yosh, — debdi. Shunda dugonasi:

— Ey dugona, men sizga bir gapni aytsam, mening erim qurg'ur avom. Qo'lidan hech ish kelmaydi, har kuni ko'chalarda tentirab keladi, qish kuni bekor yuradi. Yoz kuni mardikor bo'lib, o'lay-o'lay deb, u kundan bu kunga ikki tanga goh topadi, goh topmaydi. Topgan puli bizlarga hech nima bo'lmaydi. Bizlarda na mol va na ortiqcha bir narsa bor: kunimiz zo'rg'a o'tadi. Er-xotin bu ahvolimizga ko'p xafamiz. Bola chaqamiz bilan qiyin kun kechiramiz. Endi, egachi, malol kelmasa, shu fol kitobingizni menga bersangiz, men olib borib erimga bersam. Shoyat shu kitobingiz sababidan bizning rizqimiz, ahvolimiz durustroq bo'lib ketsa, — debdi.

Shunda folchi mullaning xotini aytibdi:

— Eringiz mulla bo'lmasa, bu kitobni qanday qilib biladi? O'zi bir avom kishi bo'lsa, kitobni qanday qilib o'qiy oladi? Eringiz mulla bo'lganda, berar edim, mayli olib borar edingiz.

Shunda avomning xotini:

— Ey do'stim, mening erim mulla bo'lganda edi, bu kitobni sizdan so'ramas edim. Erimning o'zi biror ish qilib kun kechirardik, erim avom, hech nimani bilmagani uchun men sizdan bu kitobni so'rab, muntazir bo'lib turibman, — deb ko'ngli og'riganday bo'libdi. Buni ko'rib folchi mullaning xotini:

— Ey egachi, bu kitob sizdan aylansin, xafa bo'lmang, — deb kitobni beribdi. Avom sho'rlikning xotini kitobni olib dimog'i chog' bo'lib, do'sti bilan bir oz gaplashib o'tirib, keyin javob olib uyiga qaytibdi. Xotin kitobni so'rab olib kelganini eriga aytib beribdi. Eri aytibdi:

— Men bir avom bo'lsam, bu kitobni qanday qilib ko'rib folchilik qilaman?

Shunda xotini aytibdi:

— Men sizga nimani o'rgatsam, shuni qilasiz.

Eri aytibdi:

– Men hech narsani bilmasam, qanday qilib folchilik qilaman?

Xotini:

– Sizniki ajab bir qiziq bo'ldi, bu zamonda hamma odam bir ishni bilib qiladimi? Odamning ba'zisi unday, ba'zisi bunday qilib bir kunini o'tkazib yuribdi-da. Siz bu kitobni qo'lingizga olib, mana bu shahar ko'chasiga chiqib, Registonda folchi bo'lib o'tirsangiz, nima ko'p, mol yo'qotgan ko'p, birovi bo'lmasa, birovi kelib, sizga fol ochiradi, ketadi. Xudo bandasini quruq qoldirmaydi, birovi bo'lmasa birovining ishi to'g'ri chiqib qolsa, siz mashhur bo'lib qolasiz, – deb xotini eriga "folchilik ilmini" o'rgatibdi. Erini folchining suratiga o'xshatib kiyintiribdi, boshiga bir katta sallani o'ratibdi. Qo'liga mayda cho'p yog'ochdan fol ochqich qilib beribdi, katta-katta munchoqdan tizib tasbeh qilib beribdi, keyin kitobni qo'ltiqlatib ko'chaga chiqarib yuboribdi. Bu bechora mardikor nima qilishini bilmay shu shaharning Registoniga kelibdi. Bunday qarasa, Registonda folchilar fol ko'rib, odamlarni uymalatib o'tiribdi. Bularni ko'rib, buning ham chiroyi ochilib, menga o'xshaganlar ko'p ekan deb, bu ham bir joyni olib, kitobini oldiga qo'yib, tasbehni olib, pichirlab, ko'zini alang-jalang qilib o'tiribdi. Ana shunda, bir odam ot yo'qotgan ekan. Hamma yerni axtarib topolmabdi. Uyda xotini:

– Siz otimni yo'qotdim deb xafa bo'lib yuribsiz, ko'chaga chiqing. Ko'chada nima ko'p, folchi ko'p, fol ko'rsatib ko'ring. Zora topila qolsa, – debdi. Xotinidan bu so'zni eshitib, rost aytasan, deb, o'rnidan turib ko'chaga chiqibdi. Registonga borib tasodifan haligi avom folchiga ro'para kelibdi va unga ot yo'qotganini aytibdi. Folchi:

– Fol boshi ber, – debdi. Fol boshi deb bir tanga beribdi. Bir tangani ko'rib dimog'i chog' bo'lib, og'zini qimirlatib oldidagi fol yog'ochini qo'liga olib, suf-kuf deb dam solib kitobning ustiga tashlabdi. Kitobni ochib u yer-bu yerini ko'rgan kishi bo'lib, haligi ot yo'qotganga:

– Otingizni topdim, otingiz topildi, og'rig'ingiz yopildi, bundan borasiz, oldingizdan bir ariq chiqadi, uni Chit ariq deydi. Chit ariqdan o'tsangiz oldingizdan bir katta ariq chiqadi, uning naryog'idan bir shoh ariq chiqadi, shu shoh ariqning yuqori tarafida otingiz o'tlab yuribdi. Borasiz-da, otingizni olasiz. Menga ko'proq narsa bering, – debdi. Shunda haligi ot yo'qotgan:

– Otim topilsa, bir buti sizniki, – debdi-da, jo'nab ketibdi. U shahardan tashqariga qarab ketaveribdi. Oldidan bir ariq chiqibdi,

undan o'tganidan keyin tag'in bir ariq kelibdi, undan ham o'tibdi, tag'in qistabroq yuribdi. Keyin oldidan bir shoh ariq chiqibdi. Shunday qarasa, bu yerda yo'qotgan oti o'tlab yurgan emish. Yugurib borib, ey jonivor otim, deb ushlab olib, manglaylarini silab-siypab, uyiga olib ketibdi. Otini olib kelganini xotini ko'rib, er-xotin ikkalasining dimog'i chog', vaqti xush bo'libdi. Otini topib olgan odam sevinib avom folchiga xabar qilibdi. Bu so'zni eshitgan folchining ham dimog'i chog' bo'libdi. So'ngra otini topib olgan odam va'dasiga yarasha otning to'rtdan bir hissasini hisoblab narx qilib, pulini folchiga beribdi.

Ana endi, bu so'z kundan-kun yurtga, shaharga, elatga ovoza bo'libdi: "shaharga bir folchi kelgan emish. Har nimani bilar emish, ushlab turganday topib berar emish" deb gap bo'lib, shuhrat topib ketibdi. Lekin bu sho'rlik avom folchi yuragi dukillab: "Menga bir kun mushkul ish kelib, topib bera olmay sharmanda bo'lib qolaman-da", deb o'ylab yurar ekan. Bir kun podshoning xazinasini o'g'ri uribdi, xazinada hech nima qoldirmay olib ketibdilar. Buni eshitib, podshoning hushi boshidan uchibdiyu u hamma odamlarga, mirshab, vazir, beklarga buyuribdi:

— Xazinani topinglar. Topsalaring ham topasizlar, topmasalaring ham topasizlar. Bo'lmasa, hammalaringni jallodga buyuraman. Bekorga o'lib ketasizlar.

Ular hamma yerni axtarib xazinani topolmabdilar. Shunda pulni topolmaganlarini podshoga kelib aytibdilar. Podsho: —Unday bo'lsa, Registonga boringlar, hamma folchilarni olib kelinglar. Fol ko'rsin, rom ochsin, shu xazinadan yo'qolgan dunyoni topsin, topmasayam topsin. Topolmasa, ko'chani, Registonni tang qilib yotmasin, hammasini o'ldirmoq kerak. Ular beva-bechoralarni, kambag'allarni so'rib, ovora qilib, ahmoq qilib yurmasin, bizlar ham bu folchi — rammollardan qutulaylik. Fuqarolar ham qutulsin, — debdi.

Podshoning mahram yasovullari borib, Registondagi hamma folbinlarni chaqirib kelib, podshoning so'zini ma'lum qilibdilar. Bularning so'zini folchi-ramollar eshitib, hayron bo'libdilar. Hammalari boshlarini egib, yerga qarab o'tiribdilar. Shunda mahram, yasovullar hamma folbinlarni podshoning oldiga olib boribdilar. Podsho folchilarga qarab:

— Ey folchilar. Endi sizlar bilinglar, ogoh bo'linglar, bugun bizning xazinamizni o'g'ri uribdi, topib bermasalaring hammalaringni o'ldirib, yorug' dunyodan yo'qotaman, — debdi. Folchilar indamay, damlarini chiqarmay, podshodan qo'rqib, yerga qarab turibdilar. Podsho bularga qarab do'q qilib:

– Xo'sh, damlaring ichlaringga tushib qoldi, nimaga gapirmaysanlar, – debdi.

Folbinlar orasida bir qancha munajjimlar bor, ular hatto yer ostida nima borligini bilar ekanlar. Ular podshodan qo'rqqanlaridan "bilmayman" deb, boshlarini yerga egib o'tiraveribdilar. Ana shunda podsho aytibdi: "Endi indamay turaverasizlarmi? Mening so'zimga nima deysizlar?" – debdi. Shunda folchilar:

– Bu ish bizlarning qo'limizdan kelmaydi. Bizni o'ldirasizmi, kuydirasizmi– o'zingiz bilasiz. Lekin mana bu kishi bizlardan ham katta folchi, bu kishi falon kishining otini topib bergan, falon kishining ho'kizini topib bergan, – deb avom folchini ko'rsatishibdi.

Podsho:

– Unday bo'lsa, sen topasan, –deb avom folchiga o'shqiribdi. Shunda bu sho'rlik folchi unday-bunday, debdi. Bo'lmabdi.

Podsho:

– Endi xazinani topib bermasalaring, hammangni o'ldiraman, – debdi. Podshoning bu so'zini hamma ramollar, folchilar, eshitib: "Endi o'ldik" deyishibdi. Podsho tag'in haligi avom folchiga qarab, qattiq buyruq qilibdi. Bu sho'rlik nima deyishini bilmay, endi nima bo'lsa ham o'lgan kishiman. O'larimda podshoning bir osh-nonlarini yeb o'layin, kun ko'rganning kuni ortiq, deb o'ylabdi-da, podshoga qarab:

– Unday bo'lsa, menga qirq kun muhlat bering. Qirq kunlik ovqatlarimni ham bering, qirq kun chillada o'tiraman, odamlar bilan gaplashmay, so'zlashmay ko'rayin, – debdi.

Xizmatkorlar folchiga qirq kunlik ovqatni qirqta xumga solib, uyiga olib borib beribdi. Folchi borib, xotiniga:

– Sen meni o'z holimga tinchgina yurishimga qo'ymading, men shunday folchilik qilib, sharmanda bo'lib yurganimdan ko'ra, mardikor bo'lib, ikki tanga olib yurganim yaxshi emasmidi? Podshoning xazinasini o'g'ri urib ketgan ekan, bugun shahardagi barcha munajjimlarni, rammol-folchilarni yig'ib, shuni topib berasizlar, agar topib bermasalaring hammalaringni o'ldiraman, deb buyruq qildi. Hamma munajjimlar, folchilar, "topib berolmaymiz", deb javob berdilar. Podsho meni chaqirib olib, "sen topib berasan", dedi. Men ulay-bulay, deb ko'nmadim, oxiri podsho o'ldirmoqchi bo'ldi. Ilojini topolmay, qirq kunlik muhlat oldim. Endi, ey xotin, men o'laman, qirq kunlik umrim qoldi, – debdi.

Xotini bo'lsa:

– Xudo xohlasa, xudoning o'zi bir yoqqa boshlaydi, buning

uchun xafa bo'lmang, qirq kun muhlat olib yaxshi ish qilibsiz, – deb unga taskin beribdi. Shunda folchi sho'rlik aytibdi:

– Unday bo'lsa, qirq kunlik ovqatlarni bir uyga mahkam qilib qo'y, qirq kungacha bir gap bo'lar, – debdi. Er-xotin xumlarni uyga olib borib, yuqori tokchalarga qo'yishibdi. Ana endi bular xumlarni uyga olib borib bir yerga qo'yib turaversin, endi so'zni xazinani urib ketgan o'g'rilardan eshiting.

O'g'rilar podshoning xazinasini urib, uni olib borib bir yerga qo'yib, o'zlari podshoning nima qilayotganidan ko'z-quloq bo'lib yurar ekanlar. O'g'rilarning ko'chalarda yuradigan josus-ayyorlari bor ekan. U podshoning bu ishlarini: folchilarni olib borganini, nima ishlar qilayotganini o'g'riboshiga etkazib turar ekan. O'g'rilarning jonsizi[1] bu rammollarning, munajjimlarning bizlar topolmaymiz, deganlarini eshitib, dimog'i chog' bo'libdi. Lekin folchi avomning "Bu xazinani qirq kunda topib beraman", – deb muhlat olganini bilib o'z kattalariga:

– Huv anavi, falonchining otini, falon kishining ho'kizini topib bergan folchi boru, o'sha "xazinani topib berayin" deb podshodan qirq kunlik muhlat olibdi. Bu bachchag'ar topadi, – deyishibdi. Shunda o'g'rilarning kattasi aytibdi:

– Unday bo'lsa, u bachchag'ardan xabar olib, oqshomlari poylab turinglar, topadigan bo'lsa, oldini olamiz. Topolmasa, xazinani o'zimiz bo'lishib olamiz.

Xufton chog'i o'g'ri folchining tomiga chiqib, folchi nima qilar ekan, deb poylab turgan edi, folchi sho'rlik:

– Xotin, bir xumni olib kel, – debdi. Xotini bir xumni olib kelibdi. Shunda folchi: – Biri keldi, – debdi. Buni o'g'ri eshitib, mening kelganimni bildi, deb tomdan tushib, qochib borib kattasiga aytibdi. O'g'rilarning kattasi:

– U qayoqdan bilar edi. Sen o'zning avvaldanoq yuraksiz kishisan, – debdi. U aytibdi:

– Siz ishonmasangiz ertaga boshqasini yuboring.

Bular shu maslahatda tursin. Endigi gapni haligi avom folchidan eshiting. Folchining "biri keldi" degani, bir kunlik umrim ketdi, qirq kundan bir kun kam qirqi qoldi, degani ekan. Mening oldimga qirq xumdan bir xum keldi, degani ekan. Buni o'g'rilarning poyloqchi-jonsizi: "Mening kelganimni bildi", deb o'ylab ketgan ekan. Ana shunda bu folchi xotini bilan har xil ishlarni o'ylab, bu oqshom ham yotibdilar. Erta bilan tong otibdi,

---

[1] Jonsiz - ayg'oqchi

kechagiday tag'in oqshom bo'libdi. Kechasi xufton mahalida o'g'rilardan yana biri folchining tomiga chiqib, mo'ridan poylab turibdi. Shunda folchi xotiniga:

– Olib kel, – deb ishora qilibdi. Xotini bitta xumni olib kelibdi. Folchi xotiniga:

– Ikkinchisi keldi, – debdi. Bu so'zi xumdan ikkinchisi keldi, degani ekan. Bu so'zni eshitgan ikkinchi o'g'ri: – Obbo, mening kelganimni ham bildi, – deb gumonsirab qochibdi. Bu o'g'ri ham voqeani kattasiga aytibdi. Shunda o'g'ri boshlig'i:

– Hammalaringning es-hushlaring yo'q ekan, bu bachchag'ar nimani topa olar edi. Shu yuraklaring bilan o'g'rilik qilib yuribsizlarmi? – deb xo'p koyibdi. Shunda poyloqchilikka borgan o'g'rilar xafa bo'lib:

– Bizning sirimiz ochilib, katta-kichik hammamiz sharmanda bo'lmaylik, deb qo'rqamiz, shuning uchun borib, ko'rib, bilib kelganimizni sizga aytdik. Bizning so'zimizga ishonmasangiz, ertaga o'zingiz borib bilib keling. Sizning borganingizni ham, u, albatta, biladi, – debdilar.

Bu oqshom yotibdilar, ertasi tong otibdi. Bugun ham o'g'rilarning hammasi ko'chaga chiqib, nima gap bo'lar ekan, deb poylab yuribdilar. Bir xil odamlar: – folchi podshoning xazinasini topadi, – desa, bir xillari: – topolmaydi, der ekanlar. Choyxonalarda turli-tuman gaplar tarqalgan ekan. Bu gaplarning hammasini o'g'rilarning poyloqchilari choy ichib o'tirib eshitib olar ekanlar.

Shunda otini yo'qotgan kishi choyxonaga kelib qolibdi. Uni hama odamlar "Hoy, beri keling, beri keling", deb chuvillashib chaqirib qolishibdi. Buni o'g'rilarning jonsiz ayyorlari ko'rib turgan ekan. Choyxonadagi odamlar undan otini qanday yo'qotgani va qanday qilib topganini so'rabdilar. Bu odam voqeani bir-bir gapirib beribdi. Keyin ot yo'qotgan odam:

– U folchi juda topag'on ekan. Mening otimni birdan, hech o'ylamasdan topib berdi. Bo'lmasa, men otimdan umidimni uzgan edim. Burungilarning: "Qochib qolguncha otib qol, folga ishonma, folsiz yurma", deganlaridan men bir fol ko'rsatay, bu ham bir gap-da, deb fol ko'rsatgan edim. Baraka topkur, otimni osongina topib berdi. Folchi unday qildi, bunday qildi, – deb maqtay beribdi. Shunda o'g'rilarning jonsizi bu so'zlarni eshitib turgan ekan. Uning yuragi po'killab, bu bachchag'ar unday bo'lsa, bizlarni ham tutib berar ekan, deb bu yerda o'tirolmabdi, hadiksirab o'rnidan turib ketibdi. To'g'ri kattasining oldiga borib,

bu yerda eshitgan, ko'rgan va bilganlarini unga oqizmay-tomizmay aytib beribdi:

Shunda o'g'rilarning kattasi:

– Endi o'zim borayin, o'z ko'zim bilan bu folchi nima qilayotganini ko'rib kelayin, sizlarning barchangiz yuraksiz, qo'rqoq ekansizlar – debdi.

Shu kun kechqurun o'g'rilar maslahatlashibdilar, ular boshliqlariga:

– Bugun siz o'zinigiz borasiz – debdilar. O'g'riboshi:

– Unday bo'lsa, sizlar bu yerda jam bo'lib o'tiringlar, men borib ko'rib kelay. Agar topadigan bo'lsa, qaytib kelib bir ilojini qilamiz, topolmaydigan bo'lsa podshoning xazinasini bo'lishib olamiz, – debdi.

O'g'ri boshlig'i asta-sekin yo'l olib, avom folchining uyiga boribdi. Tomning ustiga chiqib folchining ishlarini kuzatib o'tiribdi.

Lekin folchi bilan uning xotini bu o'g'riboshining kelganidan butunlay bexabar ekanlar. Avom folchi shunda xotiniga:

– Keltir, – debdi. Ittifoqo, bu kun xotinining qo'liga katta xum tushib qolibdi. Folchi buni ko'rib:

– Bugun kattasi keldi, – debdi. Bu – folchining "xumning kattasi keldi" degani ekan. Bu so'zni o'g'riboshi eshitib: "Mening kelganimni ham bildi", deb tomdan tushib qochibdi. Shunda o'g'rilarning kattasi hovliqib, jo'ralariga: – Uning bilishi rost ekan, bugun mening ham borganimni bildi. "O'g'rining kattasi keldi", deb xotiniga aytdi. Shu vaqtdan ishning oldini olish kerak, bo'lmasa, bizning sirimiz ochilib sho'rimiz quriydi. Biring folchining oldiga borib, sirimizni ochmang, xazina falon yerda turibdi. Bundan buyon nima topsak yarmisi sizniki, zinhor-bazinhor birovga aytmang, deb aytasan, – debdi.

O'g'rilar:

– Unday bo'lsa, hammamiz birdan boraylik, borib folchiga aytaylik, – deyishibdi. O'g'riboshi aytibdi:

– Sizlarniki ajab qiziq, hammalaring borib, folbinga o'zingizni bildirganingizdan nima chiqadi? Bordi-yu, folbin hammamizni tutib bersa, podsho hammamizni o'ldiradi, unda nima qilamiz? Undan ko'ra, bir kishi yoki ikki kishi borib, xazinaning qayerda turganini aytib bersalaring bo'ldi-da? Har nima bo'lsa ham tezroq boringlar. Mabodo sizlarning so'zlaringga folchi ko'nsa ko'ngani, ko'nmasa, yugurib qochib kelasizlar va folchiga o'zlaringni bildirmaysizlar. Shunda folchi xazinaning turgan joyini bilib olgandan keyin sizlarga indamaydi. Hammamiz birdan borsak,

podsho folchi oldiga qorovul qo'ygan bo'lsa, orqamizdan kelib, ushlab olsa, o'ldiradi. Podsho mamlakatni sarishta qilgan odam, bir marta g'aflatda qolib, xazinani oldirdi-da, "hamisha eganlaring qaymoqmi", degan ekanlar", debdi o'g'riboshi. Shunday qilib, o'g'rilar maslahatlashib, bir kishini folbinga yuboribdilar. Bu kelaversin, endi gapni folchidan eshiting:

Bechora folchi xotini bilan xafa bo'lib, gaplashib o'tirgan ekan:

– Ha, xotin, endi qirq kunlik umrim uch kun kamaydi. Uch kam qirq kunda men xazinani topib berolmayman, unda podsho meni o'ldirib yuboradi. Xumdan uchtasi ketdi, – deb qayg'urib o'tirar ekan. Bir mahal folchining eshigi taqillab qolibdi. Folchi "Kim?" degan ekan. O'g'ri eshikning olidaga yaqin kelibdi. "Folchi: "Kimsan? Eshikni ochaymi?" – debdi. O'g'ri:

– Eshikni ochmasangiz ham bo'ladi, ishim zarurroq, ketaman. Beriroq keling, bir gap aytaman, – debdi. Folchi xotini bilan eshik oldiga boribdi. Haligi o'g'ri: – E, folbin buva, bizlar kechagi podshoning xazinasini o'g'irlagan o'g'rilar bo'lamiz. Biz siz bilan ota-bola tutinamiz, har nima bo'lsa ham bizning sirimizni ochmang. Biz podshoning xazinasini topib beramiz, – debdi. Shunda folbin: "Podshoning xazinasini topsanglar, topganlaring, topib bermasalaring o'zlaring bilasizlar," – deb lof bilan do'q uribdi. Shunda haligi kelgan o'g'ri yalinib-yolvoribdi:

– Podshoning xazinasini biz falon yerdagi g'orga ko'mib qo'yibmiz, biz tangasini ham yo'qotganimiz yo'q. Bu ishning oxirini kuzatib turgan edik. Endi bo'lmadi, xazinani yo'q qilolmadik, nima bo'lsa ham sirimizni ochib, sharmanda qilmang, bundan buyon nima topsak, siz bilan teng bo'lib olamiz, jon folbin buva.

Folbin aytibdi:

– Podshoning xazinasini topib berdilaring, mayli, ertaga borib xazinani ko'ramiz. Bitta-yarimta oshiq –kam bo'lgan bo'lsa, sizlarda ishim yo'q, bo'lmasa xuddi kuningizni ko'rsatib qo'yaman, – deb rosa o'g'rini qo'rqitibdi. Keyin o'g'riga:

– Sizlar bilan men birga bo'lmayman, sizlarning bergan narsalaringning hammasi harom, – debdi. O'g'ri:

– Men sizga xazinaning qayerda turganini aytdim, bu yog'ini nima qilsangiz o'z qo'lingizda, – deb jo'nab ketibdi. Folbin bilan xotini o'g'rining ketganini bilib dimog'lari chog' bo'lib:

– Bu juda yaxshi ish bo'ldi, – deb uyga kiribdilar.

Erta bilan tong otibdi. Folchi xotiniga:

– Endi men podshoning oldiga borayinmi yoki birovdan xabar qilayinmi? – debdi. Xotini:

— Sizning gapingiz qiziq, o'zingiz podshoning oldiga boring, "xazinani topdim" deb xabar qiling, o'g'rilarni so'rasa, aytmay, uni-buni bahona qiling. Kecha o'g'rilarning nomini so'rab qolmadingizmi? So'raganingizda ham birovning sirini ochib sharmanda qilish yomon ish, podsho xazinasining topilishi, sizning obro'yingiz, - deb ko'p so'zlarni eriga uqtiribdi. Shunda avom folchi o'rnidan turib, dimog'i chog' bo'lib, oyog'i olti, qadami yetti bo'lib, podshoning oldiga boribdi. Folbinning kelganini mahram, yasovullar podshoga xabar qilibdilar. Folbin podsho bilan uchrashgach, — suyunchi bering, xazinangiz topildi, - debdi. Podsho sevinganidan unga katta in`om beribdi. Podsho xazinani qanday topganini va qayerda ekanini folchidan so'ragan ekan, u xazina ko'milgan g'orni tayin qilibdi. Podsho bir qancha odam bilan borib ko'rsa, xazinaning hammasi g'orda ekan. Podsho avom folchiga qoyil qolibdi. Saroyga olib kelib, unga alohida imtiyoz beribdi.

Bir kun podsho tashqariga chiqibdi va bir chigirtkani ko'rib, uni ushlamoqchi bo'libdi, chigirtka sakrab ketibdi, podsho ushlolmabdi. Tag'in ushlamoqchi bo'lgan ekan, ushlolmabdi. Uchinchi marta podsho qasd qilib, chigirtkani ushlab olibdi. Shunda podshoning ko'ngliga bir xayol kelibdi. U qo'lidagi chigirtkani qismlab, folchilardan buning nimaligini so'rab ko'rmoqchi, kim uni topsa, taqdirlamoqchi, topolmagan folchilarni folchilikdan haydamoqchi bo'libdi. Folchilarga:

— Mening qo'limdagi nima? — debdi. —Shuni topsangizlar topdinglar, topmasangiz boshlaringiz o'limda, mollaringiz talonda, — debdi. Buni eshitgan folchi — rammollarning hushlari boshlaridan uchibdi. Podsho bularga muntazir bo'lib yana so'rabdi:

— Nimaga indamaysiz?

Shunda ham folchilar damlarini chiqarmabdilar. Podshodan qo'rqib, ranglari o'chib, tuslari qochib, bir-birlariga qarashib o'tiribdilar, podsho bulardan uchinchi martaba so'rabdi. Shunda munajjim va rammollar ichida bir bilimdonrog'i bor ekan, u:

— Ey podshohi olam, sultoni bokaram. Sizga arzim bor, yo'qolgan xazinangizni topolmadik, qo'lingizdagini qanday qilib topamiz. Sizning qo'lingizdagini topib berish, xazinangizni topib bergan folbin buvamning qo'lidan keladi, — debdi.

Shunda podsho folbindan so'rabdi, folbin boshini egib, yerga termilib turar ekan. Boshqa munajjim va rammollar o'zaro so'zlashib:

— Bu podshoning qo'lidagi nima bo'lsa ekan, olmos bo'lsami

ekan, yoqut bo'lsami ekan, yo dur bo'lsami ekan. Har xolda qimmatbaho toshlardan bo'lsa kerak deb, har qaysisi har xil taxminlar qilar ekanlar. Podshoga eshittirmasdan bittasi: - Podsholarning qo'lida qimmatbaho uzuk bo'ladi, bu mabodo uzuk bo'lmasin, – der ekan. Avom folchining esiga bunday qimmatbaho toshlar kelmay, "nima desam ekan" deb boshini xam qilib o'tirar ekan. Shunda podsho tag'in avom folchidan so'rabdi. Folchi:

–Ey podshoim. Bir dam sabr qiling, o'ylab olayin, – debdi. Podsho kulimsirab qarab turaveribdi. Yon-tevarakdagilar nima der ekan deb, folbinlar bilan ramollarga qarab turishar ekan. Boshqa folchi va rammollar avom folchiga qarab turishar ekanlar. Podsho folchidan yana:

– Qo'limdagi nima? – deb so'rabdi. Avom folchi endi nima bo'lsa ham men o'lgan kishiman, deb o'zini qo'lga tushgandek his etib, podshoga:

– Ey podshohim, bir qutuldim bu malax (o'zini), ikki qutuldi bu malax, oxiri tutildi bu malax, – debdi . Endi o'zining qo'lga tushganini aytmoqchi bo'lib turganda, podsho folchining gapiga quloq solmay, qo'lini ochib:

– Barakalla, topding, – debdi. – shunda qo'lidagi chigirtka uchib borib ko'shkning ichidagi bir joyga qo'nibdi. Hamma podshoning qo'lidagi chigirtkani topgan folchiga hayron bo'lib, qarab qolibdi. Beklar, mahramlar, yasovullar va fuqarolar ham buni ko'rib:

– Barakallo, zap folchi ekansan, – deb yuboribdilar. Podsho avom folchini in'om – ehsonlar bilan uyiga olib borib qo'yinglar, deb mahramlariga buyuribdi.

Er-xotin podshoning bergan narsalarini jamlab qo'yib, dimog'chog'lik qilib yuraveribdilar. Shunday qilib murod-maqsadlariga yetibdilar.

Ur to'qmoq

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Olatog' etagida bir chol bilan kampir yashar ekan. Ular parranda va hayvonlarni ovlab, kun kechirar ekanlar.

Kuz payti ekan.

Kunlardan bir kun nima bo'libdi-yu, cholning tuzog'iga kattakon bir Laylak ilinibdi. Chol uni tuzoqdan chiqargan ekan, Laylak tilga kiribdi:

– Chol bobo, meni qo'yib yuboring, – debdi. –Men laylaklar boshlig'i bo'laman, nima so'rasangiz beraman.

— Seni qanday topaman, — deb so'rabdi chol.

— Olatog' orqasiga o'tib, meni kimdan so'ramang, uyimni aytib beradi, — debdi Laylak.

Chol Laylakni qo'yib yuboribdi.

— Yaxshiligingizni unutmayman, — debdi Laylak uchib ketayotib.

Bahor yaqinlashibdi. Tuzoqqa qushlar ilinmay qolibdi. Chol Laylakvoyni eslab: "Bir borib kelay, nima ish chiqar ekan", — deb o'ylabdi.

Olatog'dan oshib o'tibdi. Yo'lda cho'ponlarni uchratibdi.

— Bu qo'ylar kimniki? — deb so'rabdi chol.

— Laylakvoyniki. — deb javob berishibdi cho'ponlar va cholga yo'l ko'rsatishibdi.

Chol yurib-yurib yilqichilarga yo'liqibdi.

— Hoy, yilqichilar, bu yilqilar kimniki?- debdi u.

— Laylakvoyniki. — deyishibdi yilqichilar.

Rosa badavlat ekan-da, bu Laylakvoy, - debdi chol suyunib, keyin yilqichilardan so'rabdi: — Laylakvoy "so'raganingni beraman" deb va'da qilgan edi, nima so'ray?"

— "Qaynar xumcha"ni so'rang, — deyishibdi yilqichilar.

Chol ularga rahmat aytibdi-da, yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oxiri Laylakvoyning uyiga yetibdi.

— Assalomu alaykum, — debdi chol eshikdan kira turib, va'dangni bajarasanmi deb keldim. Laylakvoy:

— Tila tilagingni, — debdi.

— "Qaynar xumcha"ni ber, — debdi chol.

— Oh, — debdi Laylak, — bobo sizga bir tovoq tilla beray.

— Yo'q, — deb ko'nmabdi chol.

Laylak rozi bo'lib:

— Mana oling, — deb "qaynar xumcha"ni beribdi.

Chol "qaynar xumcha"ni olib, orqasiga qaytibdi. Shu erlik bolalarga qarab:

— O'g'illarim, xumchadan xabardor bo'lib turinglar, men uxlab olay, tag'in "Qayna, xumcha" deya ko'rmanglar, —debdi.

— Xo'p, —deyishibdi bolalar.

Bollar shum bolalar ekan. Chol uyquga ketishi bilan ular:

— Qayna, xumcha, — deyishibdi.

Xumchadan tilla qaynab chiqibdi. Bolalar shoshib qolibdi. Ular tillalarni yig'ib olib, xumchani almashtirib qo'yishibdi.

Chol uyqudan turib, xumchani olib yo'lga tushibdi va yetti kechayu yetti kunduz deganda uyiga yetibdi.

– Kampir, dasturxonni yoz, – debdi chol.
Kampir dastruxon yozibdi.
Chol ovozi boricha:
– Qayna, xumcha, – deb qichqiribdi.
Xumcha qaynamabdi.

II

Chol achchiqlanib, Laylakvoyning oldiga qarab yo'l olibdi.
Yo'lda yana yilqichilarga uchrab:
– Laylakvoy meni aldadi, nima so'ray? – debdi.
– "Ochil dasturxon"ni so'rang, – deyishibdi yilqichilar.
Chol Laylakvoyning oldiga boribdi.
– Ha, – debdi Laylakvoy. – "Qaynar xumcha" sizga kamlik qildimi?
– Meni aldab "Qaynar xumcha" o'rniga boshqasini beribsan, –debdi chol. – Menga "ochil dasturxon"ni ber.
Laylak cholning so'zini qaytarmabdi.
"Ochil dasturxon"ni olib kelayotib sodda chol yo'lda haligi shum bolalarga yo'liqibdi.
– Bolalarim, – debdi u, – mana shu dasturxonni ushlab turinglar, men yotib damimni olay, "Ochild dasturxon" deya ko'rmanglar tag'in.
– Xo'p, – deyishibdi bolalar va chol uyquga ketishi bilan:
– Ochil, dasturxon!-deb yuborishibdi. Shu zahotiyoq ular oldida yetmish xil ovqat tayyor bo'libdi. Bolalar ovqatlarni shoshib – pishib o'rab olib, dasturxonni almashtirib qo'yishibdi.
Chol uyga kelibdi-da:
– Ochil, dasturxon, – deb qichqiribdi.
Dasturxon ochilmabdi. Cholning tepa sochi tikka bo'lib ketibdi.
Chol Laylak oldiga borar ekan, yilqichilar:
– Endi "ur to'qmoq"ni so'rang, – deyishibdi.
Chol Laylakvoy oldiga borib:
– Bo'lar ish bo'ldi, endi arzimagan bir narsa so'rayman.
Menga "ur to'qmoq"ni ber, – debdi.
Laylakvoy uning so'rog'ini qaytarmabdi.
Chol "ur to'qmoq"ni olib yo'lga tushibdi. Avvalgi bolalarga yo'liqib:
– Men dam olay, sizlar to'qmoqqa qarab turinglar. Lekin "Ur to'qmoq" deya ko'rmanglar, – deb tayinlabdi.

Bolalar cholning gapiga quloq solishmabdi. Chol uxlashi bilan:

— Ur, to'qmoq! — deb yuborishibdi.

To'qmoqqa jon kirib, bolalarni shunday do'pposlab ketibdiki, hech bir bola dunyoga kelib bunaqa kaltak emagan ekan. Bolalar dodlashibdi, yig'lashibdi.

Chol uyg'onibdi. Bolalar uning oldiga kelib:

— Ota, to'qmog'ingizni to'xtating. Sizning xumchangiz bilan dasturxoningizni qaytarib beramiz. Beadabligimiz uchun ta'zirimizni edik. Tavba qildik, — deb yalinishibdi.

Shunda chol:

— Tur, to'qmoq! — debdi

To'qmoq urishdan to'xtabdi. Bolalar yugurb borib uylaridan "Qaynar xumcha" bilan "ochil dasturxon"ni olib kelishibdi.

Chol eson-omon uyiga yetib kelib:

— Qayna, xumcha" — debdi.

Xumchadan tilla qaynab chiqibdi.

— Ochil, dasturxon! — debdi.

Dasturxon ochilib, yetmish xil ovqat hozir bo'libdi.

Chol bilan kampir qolgan umrlarini rohatda o'tkazibdi, murod-maqsadlariga yetibdilar.

Hiylagar bedana

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir zag'izg'on bo'lgan ekan. U bir tup do'lananing tepasiga in qo'yibdi va beshta bola ochibdi. Bolalarini endi uchirma qilishga yaqinlashgan kunlarda undan bir och tulki xabardor bo'lib qolibdi. Tulki zag'izg'onga do'q qilib, bolalarini yeyish payiga tushibdi. U do'lananing tagiga kelib:

— Ey zag'izg'on, bitta bolangni tashlasang tashlaganing, tashlamasang do'lanangni tagidan ag'daraman, qizil qoningni shimiraman, etingni yeb, suyaklaringni kemiraman, bolalaring bilan, bitta qo'ymay, hammangni qiraman, — deb qo'rqita boshlabdi.

Bechora zag'izg'on qo'rqib ketganidan bitta bolasini yig'lab-yig'lab tashlab yuboribdi. Tulki uni ko'tarib jo'nab ketibdi. Ertasiga tulki ovqat topib yeyolmay, yana do'lananing tagiga kelib, zag'izg'onga kechagidek do'q qila boshlabdi:

Do'lanangni to'miraman[1],
Qonlaring shimiraman.

[1] To'miraman- ag'daraman

Suyagingni kemiraman,
Bitta qo'ymay qiraman.

– Yana bitta bolangni tashla, yaxshilikcha tashlamasang, o'zing bilasan, – debdi. Zag'izg'on boshqa bolalarim omon qolarku, degan niyat bilan jonidan aziz bo'lgan bolasining ikkinchisini qurbon qilibdi.

Tulki zag'izg'onning ikkinchi bolasini ko'tarib, jo'nab qolibdi. O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas, degandek tulki to'rt kun deganda zag'izg'onning to'rtta bolasini yeb qo'yibdi. Beshinchi kuni zag'izg'on bitta bolasi bilan qolib, yig'lab o'tirgan ekan. Uning oldiga bir bedana uchib kelibdi. Yig'lab o'tirgan zag'izg'onga ko'zi tushib, bedana uning holini so'rabdi. Zag'izg'on o'z ahvolini so'zlab beribdi. Dono bedana zag'izg'onning nodon va qo'rqoqligiga ko'p achinibdi. Keyin unga shunday deb o'rgatibdi.

– E zag'izg'on, tulki yana sening oldingga kelib:

Do'lanngni to'miraman,
Qonlaringni shimiraman...

– deb do'q qilsa, sen "to'mirsang to'miraver, shimirsang shimiraver", deb tura ber. Qolgan bolangni tashlama, – debdi. Bedana ketgandan so'ng, tulki kelib qolibdi. Tulki kundagi do'qini qilib, zag'izg'onni ko'rqitmoqchi bo'lgan ekan, zag'izg'on:

– Do'lanani to'mirsang to'miraver, kemirsang kemira ber, endi sendan qo'rqmayman, – debdi. Shunda tulki:

– E, Zag'izg'on. Bu so'zlarni senga kim o'rgatdi?- debdi. Zag'izg'on:

– Bu so'zlarni menga bedana o'rgatdi, - debdi. Tulki:

– Bedana qayoqqa ketdi? – deb so'rabdi.

Zag'izg'on bedana ketgan tomonni tulkiga ko'rsatib beribdi, endi tulki bedanaaning orqasidan izlab ketibdi. Bedana bir o'tloqqa borib uxlab yotgan ekan. Tulki uning izidan borib, topib, ustalik bilan bedanani tutib olibdi. Bedana:

– E, tulki, meni nima qilmoqchisan? – degan ekan, tulki:

– Sen zag'izg'onga gap o'rgatganing uchun u bolasini tashlamadi. Endi seni yemoqchiman, – debdi. Bedana tulkiga aytibdi:

– Meni yeganing bilan hech bir baraka topmaysan, qorning ham to'ymaydi, mening bir barmoqchalik ham etim yo'q. Sen meni emasang, seni yaxshilab to'ydiraman. Tulki:

– Qanday qilib meni to'ydirasan? – deb so'rabdi. Bedana aytibdi:

– Katta yo'lga chiqib turamiz, sen bir to'da xashakning ichiga kirib berkinib turasan, xotinlar dasturxonlarda turli narsalarni tugib o'tadilar. Men ularning oldiga tushib, hurpayib turaman.

Xotinlar meni ko'rib: "Mana bu bedanani ko'ringlar", deydilar. Shunda men ucholmay, yo'rg'alab qolaman. Xotinlar dasturxonni qo'yib, meni ushlamoqchi bo'ladilar. Men sekin-sekin yo'rg'alab, sekin-sekin uchib, ularni uzoqroqdagi bir tepaning orqasiga olib ketaman.

Sen shu vaqt xashak orasidan chiqib, dasturxonlarni ochasan, eng yaxshi narsalarni olib qocha berasan". Bu tadbirni eshitgan tulki shodlanibdi. Tulki bilan bedana katta yo'lning bir chetiga chiqib turibdilar. Tulki xashak orqasiga kirib yashirinibdi. Shunda uzoqdan uch-to'rtta xotin katta-kichik dasturxonlarni ko'tarib kela beribdi. Xotinlardan bittasi:

– E, ana u bedanani qaranglar, – debdi.

Boshqa bir xotin:

– Mening bolamning bedanasi uchib ketgan edi. U har kuni bedana deb xarxasha qiladi. Kelinglar, hammamiz o'rab tutib olamiz. Bu bedana ucholmaydiganga o'xshaydi, – debdi.

Xotinlar tugunlarini yerga qo'yib, bedanani ushlash uchun quvlabdilar. Bedana avval yo'rg'alibdi, keyin kalta-kalta uchibdi, oxiri xotinlarni qiziqtirib, tepaning orqasiga olib o'tibdi. Xotinlar "Bu bedananing qanotlari yulingan bo'lsa kerak, zo'rg'a uchyapti", deb o'ylab turgan ekanlar, bedana birdan "pir" etib uchib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Xotinlar dasturxonga bir talay non va go'shtlarni solib, chimildiq uzdiga[1] ketayotgan ekanlar. Tulki dasturxonlar xoli qolganini ko'rib, darrov ochibdi, non va go'shtlardan ko'pgina olib, bir chetga qarab qochibdi. Tulki non va go'shtlarni yeb juda ham to'yib ketibdi. U yana bedanani qidirib topibdi. Shunda tulki:

– E, bedana meni ko'p to'ydirib yubording, ovqatni hazm qilishim qiyin bo'lib qoldi. Endi menga bir qiziq tomoshalarni ko'rsatib, aylantirib kelgin va meni kuldirgin, – debdi.

Bedana uchib borib, bir sigir sog'ib o'tirgan kampirning oldiga yaqinlashibdi. Pirr etib uchib sigirning shoxiga qo'nib olibdi.

Kampir buni ko'rib cholni chaqiribdi.

Chol bedanani urib olmoqchi bo'libdi. Mo'ljallab turib bir tayoq otgan ekan, bedana uchib ketibdi, sigirning shoxi sinibdi, hurkib ketgan sigir kampir sog'ib turgan sutni to'kib yuboribdi.

---

[1] Chimildiq uzdi- kelin charlar

Buni ko'rgan tulki kula berib, ichagi uzilay deb qolibdi. Bedana xira tulkidan uzoqlashib, u bilan xayrlashmay jo'nab qolibdi.

Tulki ertasi erta bilan yana bedanani qidirib ketibdi. Bedana bir o'tloqda o'tlarning urug'larini yeb yurgan ekan, birdan zavq bilan sayrab yuboribdi. Agar u sayramaganda, tulki uni kechgacha ham topolmas ekan. Tulki bedanani ko'rib, buyruq qilibdi:

– E, bedana, bugun ham meni to'ydirib, xursand qilasan, bo'lmasa o'zingni eb qo'yaman, – debdi. Bedana ichida: "Bu xira tulkidan qutulish kerak: u xavfli dushman, chunki uxlab qolganingda ushlab olsa, eb qo'yishi mumkin" deb o'ylabdi. Bedana tulkiga:

– Xo'p, bugun ham to'ydiraman, lekin bu yaqinda to'y ham yo'q, kechagidek dasturxon ko'targan xotinlar ham yo'q, shuning uchun, qishloqqa yaqin joyda bir parcha go'sht ko'rgan edim, shunga boshlab boraman, – debdi. Tulki rozi bo'libdi.

Bedana bu gal tulkini cho'ponlarning qopqoniga boshlab boribdi. Qopqondagi go'shtni ko'rgan tulki bora solib o'zini go'shtga uribdi. Qopqonning ilgagi chiqib, tulkining bo'ynidan qisib olibdi. Ayyor tulki o'z tumshug'idan qopqonga ilinib, ko'p azob chekib o'libdi.

Bedana ham, zag'izg'on ham xira va ayyor dushmandan qutulib qolibdi.

Cho'ponlar qopqondagi tulkini ko'rib, juda xursand bo'libdilar.

Qirq yolg'on

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, qadim zamonlarda bir mamlakatda bir podsho bor ekan. U podshoning o'g'illari yo'q ekan, bir qizi bor ekan.

Kunlardan bir kun podsho olamdan o'tib, o'rniga qizi qolibdi. Qiz: "Kimki qirq yolg'on gapirsa, o'shanday kishini men qabul qilaman", deb xabar qilibdi. Bu xabarni eshitgan shahar kishilari o'rdaga borib, yolg'on gapning qoidasini keltira olmasdan sharmisor bo'lib ketaveribdi.

Kunlardan bir kuni cho'pon yigit bu xabarni eshitib, o'rdaga kelibdi. U darvozani taqillatib turgan ekan, mulozimlar chiqib: "Nimaga kelding?" – deb so'rashibdi. Cho'pon qizning va'dasini eshitib, kelganligini aytibdi. Xizmatkorlar: – Ey bechora cho'pon, qo'yingni boqib yuraversang-chi. Sendan katta-katta kishilar kelib gapira olmasdan sharmanda bo'lib ketishdi, – dedilar. Cho'pon: – Bergandan ham bir tillo, bermagandan ham bir tillo. Shoyad

mening gapim to'g'ri kelib qolsa, – degach, uni mulozimlar o'rdaga olib kirishibdi. Haligi qiz o'rtaga parda tortilgan bir uyda o'tiribdi. Cho'pon shu uyga borib pardaning bu tomoniga o'tirib oldi. Qiz:

– Ey cho'pon yigit, xush kelibsiz, nimaga keldingiz? – dedi.

– Men sizni olgani keldim, – debdi cho'pon. Qiz:

– Xo'sh, meni olgani kelgan bo'lsangiz, gapiring qani, men ko'ray-chi, – debdi. Cho'pon o'z so'zini boshlab:

– Onadan bitta edik, o'la-o'la uchta bo'ldik. Uchovimiz ham yalang'och ketib edik, uch ariqcha chiqdi , ikkitasi qup-quruq, bittasining suvi ham yo'q. Uchta baliq ushladik, ikkitasi o'ligu, bittasining joni yo'q. Uchovimiz bir uyga kirib, baliqlarni qovurib yedik. Eshikdan kirib, teshikdan chiqib ketdik, uy ham bilmay qoldi. Uydan chiqib o'ng qo'limning yog'ini o'ng etigimga artdim. Bir mahal qarasam, chap etigim arazlab ketibdi. Baland-baland adirlarga chiqib qarasam, ko'rinmaydi. Keyin ulkan momodan qolgan, igna bilan qazilgan bir quduq bor edi, shu quduqqa kelib, qalpog'imni oyog'im tagiga qo'yib qarasam, etigim Sirdaryoning narigi yog'ida tariq qo'riqlab yuribdi. Etigimning o'ng tomonidan borib qarasam, chapga qaraydi, chap tomonidan borib qarasam, salom bersam, o'ngga qaraydi. Oxiri ko'ndirib, ketamiz endi desam: "Xo'jayindan haqqimni olay, so'ngra ketamiz", - dedi. Xo'jayindan uchdan bir hissa tarig'ini olib, qopga solsa ham turmaydi, xurjunga solsa ham turmaydi. Oxiri yarimta kashshuk topib, shu kashshukka soldik, turdi. Otga ortsak, ot ham ko'tara olmaydi, eshakka ortsak, eshak ham ko'tara olmaydi. Oxiri ulkan momodan qolgan bir xo'roz bor edi, shunga ortdik. Xo'roz "g'o -g'oog'" deb ko'tarib ketdi, daryodan bir hakkalab o'tdi, - so'z shu joyga kelganda, podshoning qizi ko'nglida: "Shuncha aslzodalardan keldi, tegmadim, shu cho'ponga tegamanmi men, so'zidan adashsin" deb:

– U ariqcha – mariqchadir-da, – dedi.

– Ariqchasini ham bilmayman, mariqchasini ham bilmayman, o'sha xo'rozni so'yib, suyagidan bir og'il yasadim. Og'ilning to'rida eshagimni bog'lab, poygakidan quloq solsam, hangragani arang eshitiladi. Qiz:

– Kurracha-murrachadir-da, – dedi .

– Kurrachasini ham bilmayman, murrachasini ham bilmayman. Erta bilan qarasam, og'ilim yiqilgan ekan, eshak tagida qolib o'libdi. Eshakni so'yib, sag'risini charmgarga olib bordim.

Charmgar charim yasab uchdan bir hissasini berdi. Uni kavushdo'zga olib bordim. Kavishdo'z kavush yasadi. Yetmish

beshta mardona, yetmish beshta zaifona, yetmish beshta bachagona kavush bo'libdi, – degach, podshoning qizi qaradiki, haqiqatan qirq yolg'on emas, undan ham oshib boryapti. "Endi taqdirim shunda ekan-da", deb ko'nglida o'yladi. Pardani yirtib, cho'ponning oldiga kirib salomlashib ko'rishdi. Xizmatkorlariga:

– Sayl buyuringlar, – deb buyurdi.

Shunday qilib qiz qancha to'y-tomoshalar qilib, cho'ponga tan bag'ishladi.

Cho'pon podsho bo'lib, ikkalasi baxtli umr kechirdilar. Sizlar ham yetinglar murodga, bizlar ham yetaylik murodga, dushmanlar qolsin uyatga.

LATIFALAR

Podsho odam emasmi?

Bir kuni podsho pashshalarning xiraligidan xunobi oshib, ularni qo'rib o'tirgan edi, Afandi kirib qoldi:

– Afandim, – dedi podsho, – olamda pashsha yo'q joy ham bormikan-a?

– Bor, – dedi Afandi, – odamlar yo'q joyda pashsha ham bo'lmaydi.

Podsho bu javobni eshitdi-yu, sira mot qilolmay kelayotgan afandini bir mot qilmoqchi, odamlar yo'q joyda ham pashshalar bor bo'lishini isbotlamoqchi bo'lib:

– Qani, yuring mening orqamdan, – deb otga minib, uni dashtga boshlab ketdi. Yurib-yurib charchaganlaridan so'ng bir yerga qo'nib, dam olib o'tirishgan edi, besh-oltita pashsha podshoning u yoq– bu yog'idan aylanib g'uvillay boshladi.

– Xo'sh, bunga nima deysiz, Afandim? Mana, odam yo'q yerda ham pashsha bo'larkan-ku?

– Ie, shohim, siz odam emasmisiz? – darhol javob qildi Afandi.

* * *

Qo'l siltashning boisi

Bir kuni podsho saroyiga kirib kelayotgan edi, eshik oldida Afandining bir kishi bilan suhbatlashib turganini ko'rib qolib,

ularning oldiga keldi. U suhbat nima haqda borayotganini surishtirib o'tirmay, Afandiga:

– Yolg'on gapiryapsiz? – deb qoldi.

– Nega, shohim?

– Chunki qo'lingizni hadeb siltab gapiryapsiz. Bu – yolg'onchilik alomati.

– To'g'ri aytasiz, taqsir. Men bu kishiga sizning adolatli podsho ekanligingizni uqtirayotgan edim.

* * *

Afandi – mergan

Afandi merganman deb maqtanib yurar edi, bir kuni podsho uni ovga olib chiqdi. Bir yerga borganlarida o'tlab yurgan kiyik uchrab qoldi. Afandi darrov yoyini olib, o'q uzgan edi, o'qi xato ketdi.

– Bu sizning otishingiz, – dedi afandi aybini yashirmoq maqsadida podshoga qarab. Keyin yana bir o'q uzgan edi, u ham xato ketdi.

– Bu sizning otishingiz, – dedi afandi aybini yashirmoq maqsadida vazirga qarab. Uchinchi marta o'q uzgan edi, ittifoqo, borib tegdi.

– Mana bu Mulla Nasiriddining otishlari, – dedi Afandi.

* * *

Bir paqirga arzimaydigan she'rlar

Bir vaqt podsho she'r yozib, shoir bo'lishni havas qilib qoldi. Besh-oltita she'r yozgach, afandini chaqirtirib, unga o'qib berdi:

– Qalay, zo'rmi? Shoir bo'lsam bo'larkanmi? – deb so'radi. Afandi tap tortmay:

– Taqsir, yaxshisi podsholigingizni qilavering. Bu she'rlar bir paqirga ham arzimaydi. Shoirlar o'qib qolishsa, sizni mazax qilishadi, – dedi.

Bu gapdan podshoning g'azabi qaynab ketib, afandini og'ilxonaga oborib, bog'lab, oxurga non-pon solib qo'yishni buyurdi. Oradan biroz vaqt o'tgach, podsho «Afandi ta'zirini yegandir»,– deb o'ylab, uni og'ilxonadan olib kelishlarini buyurdi. Afandi kelgach, podsho unga yangi she'rlarini o'qib berdi-da, yana «qalay» deb so'radi. Afandi lom-mim demay, eshik tomonga qarab yura boshladi.

beshta mardona, yetmish beshta zaifona, yetmish beshta bachagona kavush bo'libdi, – degach, podshoning qizi qaradiki, haqiqatan qirq yolg'on emas, undan ham oshib boryapti. "Endi taqdirim shunda ekan-da", deb ko'nglida o'yladi. Pardani yirtib, cho'ponning oldiga kirib salomlashib ko'rishdi. Xizmatkorlariga:

– Sayl buyuringlar, – deb buyurdi.

Shunday qilib qiz qancha to'y-tomoshalar qilib, cho'ponga tan bag'ishladi.

Cho'pon podsho bo'lib, ikkalasi baxtli umr kechirdilar. Sizlar ham yetinglar murodga, bizlar ham yetaylik murodga, dushmanlar qolsin uyatga.

LATIFALAR

Podsho odam emasmi?

Bir kuni podsho pashshalarning xiraligidan xunobi oshib, ularni qo'rib o'tirgan edi, Afandi kirib qoldi:

– Afandim, – dedi podsho, – olamda pashsha yo'q joy ham bormikan-a?

– Bor, – dedi Afandi, – odamlar yo'q joyda pashsha ham bo'lmaydi.

Podsho bu javobni eshitdi-yu, sira mot qilolmay kelayotgan afandini bir mot qilmoqchi, odamlar yo'q joyda ham pashshalar bor bo'lishini isbotlamoqchi bo'lib:

– Qani, yuring mening orqamdan, – deb otga minib, uni dashtga boshlab ketdi. Yurib-yurib charchaganlaridan so'ng bir yerga qo'nib, dam olib o'tirishgan edi, besh-oltita pashsha podshoning u yoq– bu yog'idan aylanib g'uvillay boshladi.

– Xo'sh, bunga nima deysiz, Afandim? Mana, odam yo'q yerda ham pashsha bo'larkan-ku?

– Ie, shohim, siz odam emasmisiz? – darhol javob qildi Afandi.

* * *

Qo'l siltashning boisi

Bir kuni podsho saroyiga kirib kelayotgan edi, eshik oldida Afandining bir kishi bilan suhbatlashib turganini ko'rib qolib,

ularning oldiga keldi. U suhbat nima haqda borayotganini surishtirib o'tirmay, Afandiga:

– Yolg'on gapiryapsiz? – deb qoldi.

– Nega, shohim?

– Chunki qo'lingizni hadeb siltab gapiryapsiz. Bu – yolg'onchilik alomati.

– To'g'ri aytasiz, taqsir. Men bu kishiga sizning adolatli podsho ekanligingizni uqtirayotgan edim.

* * *

Afandi – mergan

Afandi merganman deb maqtanib yurar edi, bir kuni podsho uni ovga olib chiqdi. Bir yerga borganlarida o'tlab yurgan kiyik uchrab qoldi. Afandi darrov yoyini olib, o'q uzgan edi, o'qi xato ketdi.

– Bu sizning otishingiz, – dedi afandi aybini yashirmoq maqsadida podshoga qarab. Keyin yana bir o'q uzgan edi, u ham xato ketdi.

– Bu sizning otishingiz, – dedi afandi aybini yashirmoq maqsadida vazirga qarab. Uchinchi marta o'q uzgan edi, ittifoqo, borib tegdi.

– Mana bu Mulla Nasiriddining otishlari, – dedi Afandi.

* * *

Bir paqirga arzimaydigan she'rlar

Bir vaqt podsho she'r yozib, shoir bo'lishni havas qilib qoldi. Besh-oltita she'r yozgach, afandini chaqirtirib, unga o'qib berdi:

– Qalay, zo'rmi? Shoir bo'lsam bo'larkanmi? – deb so'radi. Afandi tap tortmay:

– Taqsir, yaxshisi podsholigingizni qilavering. Bu she'rlar bir paqirga ham arzimaydi. Shoirlar o'qib qolishsa, sizni mazax qilishadi, – dedi.

Bu gapdan podshoning g'azabi qaynab ketib, afandini og'ilxonaga olorib, bog'lab, oxurga non-pon solib qo'yishni buyurdi. Oradan biroz vaqt o'tgach, podsho «Afandi ta'zirini yegandir»,– deb o'ylab, uni og'ilxonadan olib kelishlarini buyurdi. Afandi kelgach, podsho unga yangi she'rlarini o'qib berdi-da, yana «qalay» deb so'radi. Afandi lom-mim demay, eshik tomonga qarab yura boshladi.

– Qayoqqa, – deb so'radi podsho.
– Og'ilxonaga, taqsir, og'ilxonaga, – deb javob berdi Afandi.

* * *

Siz aytgan holga keladi

Nihoyatda zolim, xasis bir odam Afandi yashab turgan shaharga hokim bo'lib keldi. Kunlarning birida u Afandini o'z huzuriga chaqirdi-da, unga buyurdi:

– Menga bitta ov iti topib keltiring: quyonquloq, kiyikoyoq, chumolibel tozi bo'lsin.

Afandi "xo'p bo'ladi, taqsir" deb chiqib ketdi. Ertasiga buzoqday ko'ppak topib keldi. Buni ko'rib, hokimning jahli chiqib ketdi.

– Men senga tog' echkisi ovlaydigan oriqqina tozi it olib kel demovmidim? Sen bo'lsang biqqiday semizni opkelibsan-ku...

– Sabr qiling, taqsir, sizning zamonangizda tez fursatda bu ham siz aytgan holga keladi...

* * *

Qiyomat-qoyin

Podsho bir kuni afandidan so'rab qoldi:

– Afandim, sizningcha qiyomat-qoyin qachon bo'ladi?

– Siz o'lganingizdan keyin o'g'illaringiz taxt talashib, bir-birlari bilan urishganlarida, – dedi Afandi.

* * *

Xudoga qolgan kun qursin

Afandi qishlog'iga podsholikdan chopar keldi-da, xalqni yig'ib, ma'lum qildi:

– Podshohimiz dushman bilan qattiq jang qilmoqdalar. Sizlar u kishining g'olib chiqishlarini xudodan so'rab, besh vaqt namozda duo qilib turarmishsizlar. Podsho buyrug'i shunday.

Afandi unga gap otib qoldi:

– Xudodan so'ranglar, degan bo'lsa, ish tamom. Xudoga qolgan kun qursin.

* * *

Lo'nda javob

— Afandim, odamlar qay vaqtgacha tug'ilaveradilar-u, qay vaqtgacha o'laveradilar? — deb so'rab qoldi podsho.

Jannat bilan jahannam to'lguncha, — dedi Afandi.

* * *

Biladigan «eshak»

Bir kuni Afandi podshodan bilmagan narsasini so'rab qolgan edi, podsho takabburlik qilib, uni mazax qila boshladi:

— Shuning bilmaydigan nimasi bor? Shundoq gapdon, hozirjavob bo'la turib, shuni ham bilmaysizmi-a? Axir buni eshak ham biladi-ku.

— Shuning uchun ham sizdan so'rayapman-da, taqsir, — dedi Afandi.

* * *

Ishtaha

Podsho bir kuni Afandini yana ziyofatga chaqirtirdi. Afandi eshikdan kirib kelishi bilan podsho uni gapga tutdi:

— Keling, Afandim, keling. Ishtahangiz bormi?

— Taqsir, mening dunyoda ishtahadan bo'lak hech narsam yo'q, — deb javob berdi Afandi.

* * *

Boy bo'lay deyman-da

Afandi bir boy savdogarning o'g'li bilan gaplashib o'tirib:

— Otang yaxshimi, — deb so'rab qoldi. Boyvachcha otasidan noliy ketdi:

— Afandim, nimasini so'raysiz? Otamning xasisligi ikki baravar oshib ketdi.

— Bo'lmasa, kel duo qilaylik, otang tezroq o'lsin-u, mol-mulki senga qolsin.

– Shunday duo qilingki, otam o'z ajali bilan o'lmasin, uni birov o'ldirsin.

– Ie, bu nima deganing?

– Otamning xunini o'ldiruvchidan olib, otamdan ham kattaroq boy bo'lay deyman-da.

* * *

Sarf qilinmagan ilm

Afandining qo'shnisi mahalla masjidining imomini maqtay ketdi:

– Bizning imomimiz xo'pam aqlli, dono, olim odam-da.

– Bo'lsa bordir, – dedi afandi, – lekin haligacha na ilmini, na aqlini biror yerga sarf qilganicha yo'q. «Sarf qilsam, tez sob bo'lib qoladi», – deb qo'rqadi shekilli.

* * *

Juvonmarg bo'lasan-qolasan....

Afandi bir madrasadosh o'rtog'ining maktabdor bo'lganini eshitib, uning huzuriga bordi. Maktabxonaga kirsa, qirq-ellikta bola chuvillashib o'qiyapti. Domla bir bolani faloqqa tortib, jazolyapti. Bola faqir bo'lsa, dodlayapti. Domla afandini ko'rdi-yu, jazoni to'xtatib, salom-xushbosh qilib, uni hujrasiga olib kirdi.

– Do'stim, ahvoling juda og'ir-ku, – dedi afandi.

– Ha, og'irlikka og'irku-ya, lekin go'daklarning duosi tez qabul bo'ladi deyishadi. Mana shundan umidvor bo'lib, maktabdorlik qilyapman-da.

– Undoq bo'lsa, yanayam og'ir ekan. Agar faloqqa tortilgan bolalarning birortasi «E xudo, domlaning jonini ol»,- deb yuborsa bormi, birpasda juvonmarg bo'lasan-qolasan-da.

* * *

Aqlli bo'lsa masjidga kirarmidi?

Afandi masjidning oldidan o'tayotib, ichkaridan g'alag'ovur, qiy-chuvni eshitib qoldi. Qarasa, mullalar qo'llariga tayoq olib, bir itni u yoqdan bu yoqqa quvib yurishibdi.

– Hoy, nega urasizlar bu jonivorni»– dedi Afandi.

– E, ko'rmaysizmi padarla'natni? Xech tap tortmay masjidga kirib keldi-ya.

– Ha, aqli yo'q-da, aqli yo'q, – dedi Afandi, – aqli bo'lsa masjidga kirarmidi?

* * *

«To'rt oyoqlik» domla-imom

Afandi askiyachi ekan. U askiyanda hech qachon birovga gapini oldirib qo'ymagan ekan. Shinavandalar uni mot qilolmay dog'da yurisharkan. Kunlarning birida Afandi choyxonaga kirgan edi, o'shanaqa dog'da yurganlardan biri- domla-imom choy ichib o'tirgan ekan, uni ko'riboq gap otdi:

– Keling, kela qoling, afandim, ko'zlaringiz bir narsani ikki qilib ko'rsatarmish, deydilar, shu rostmi?

– Rost, taqsirim, rost. Mana, masalan, janoblarini hamisha to'rt oyoqlik ko'raman,-debdi Afandi darhol.

* * *

Tejalayotgan umr

Afandidan so'radilar:

– Nega ilgarigi odamlar yuz yildan ortiq yashardilar-u, hozirgilarning umri qisqarib ketyapti?

– Ilgarigi vaqtda umr ko'p-u, odam kam bo'lgan. Umrning serobligi vaqtida xudo uni odamlarga ko'p-ko'p beravergan. Oz qolgach, kam-kam berib, tejab-tergab, shu vaqtgacha yetkazib kelyapti-da, ishqilib...

* * *

Afandi talabalik davrida bir kuni maktabga kelmay qoldi. Ertasiga domla uni chaqirtirib tergay boshladi:

– Kecha nega maktabga kelmading?

– Akamning tishi og'rib qoldi.

– Ie, akangning tishi og'risa, sen maktabga kelmaysanmi?

– Akam bilan birga tish sug'urishga borib, u bilan birga dodlashib turdimda.

* * *

U dunyoda payvand olaman

Kunlarning birida Afandi bolalari bilan ovqatlanib o'tirib, aytib qoldi:

– Bolalarim, agar qazoyim yetib o'lsam, bir arra, bir iskana, meva daraxtlarining birmuncha novdalari bilan qo'shib ko'minglar.

– Ha, nima qilasiz bularni?

– U dunyoga borib payvand solaman.

– Ie, u dunyoda yaxshi mevalar yo'q deb o'ylaysizmi?

– Borlikka borku-ya, lekin yemaydigan, ichmaydigan farishtalar ekkanidan keyin mevalarning maza-matrasasi bo'larmidi?

* * *

Qil-pil aralashib ketgandir-da?

Kechqurungi ovqat mahalida o'g'li Afandidan so'rab qoldi:

– Odamni nimadan yaratgan, dada?

– Tuproqdan.

– Quruq tuproqdanmi yo loy qilibmi?

– Loy qilib-da. Loydan odam yasab, bir qancha vaqt oftobda quritgan. Chertganda jarang-jarang qiladigan bo'lgach, unga jon kiritgan.

– Tuproqning o'zidan yasagan bo'lsa, nega odamda yung bor?

– Ha, loy qorilayotganda qil-pil aralashib ketgandir-da.

* * *

Shaytonning afti

Kunlardan bir kun chala mulla Afandini yana mot qilmoqchi bo'lib, ko'pchilik o'rtasida undan so'rab qoldi:

– Afandim, sizni «shaytonga dars beradi» deb eshitdim, shu rost bo'lsa, qani ayting-chi, shaytonning aft-angori qanaqa?

– Oynaga qarang, ko'rasiz-qo'yasiz.

* * *

Be eshakmi

Afandi negadir xunobi oshib, bozordan eshagiga somon ortib kelayotgan edi, alamzada hazilkashlardan biri so'rab qoldi:

– Afandim, somon qancha bo'ldi?

– Bir so'm.

– Be eshakmi

– Eshak- siz...

* * *

Eshagim yo'q deyapti

Ertalab qo'shnisi Afandidan eshak so'rab chiqdi. Afandi:

– To'xtab tur, oldin eshagimning o'zidan so'rab chiqay-chi? – deb ichkariga kirib ketdi. Qo'shnisi hayron bo'lib qoldi. Afandi qaytib chiqib:

– Eshagimdan so'rasam, unamadi , – dedi.

– Ie, qanday qilib.. Nega?

– Begona odamga meni aslo bera ko'rmang, deb aytdi. Birinchidan, mening qulog'imga uradi, ikkinchidan, sal tixirlik qilib yurmasam, egangga o'xshamay o'l, deb so'kadi, deyapti. Bundoq o'ylab qarasam, eshakning gapi to'g'ri. Qo'y, uka, endi shu eshakning bahridan o'tib qo'yaqol.

* * *

O'lmagan afandining joni

Bir kuni yertalab afandi yuz yuvayotgan edi, qarasa, xotini kir o'ra labiga o'tirib olib o'qchiyapti.

– Ha, xotin, ertalabdan nima bo'ldi o'zi?

– Qaydam. Sovug'im oshibdimi, bilmadim, kecha peshindan beri damba-dam o'qchiyapman.

– Nima balo, oyna-poynaga qarabmiding?

– Ha, kecha o'sma qo'ygandim, Oynaga qarasam, nima qipti?

– Hamma balo shunda-da. Oynaga qaragansan. Aftu angoringni ko'rgansan. Vodarig', o'lmagan mening jonim-a?.

DOSTON

RAVSHAN
(parcha)

Aytuvchi: *Ergash Jumanbulbul o'g'li.*
Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi: *Hodi Zarif.*

Ravshanbek bir kuni tabladan bir otni minib, qidirib, boyagi yerdan o'tib ketdi. Bir manzil, ikki manzil yo'l yurib borayotir edi, oldidan bir kampir chiqdi. Ravshanbek qarasa, bir kampir halloslab kelayotibdi.Tikon pishgan vaqti edi, kampir yalang oyoq g'ijirlatib tikonni bosib kelayotibdi. Ravshanxon buni ko'rib: – Ha momo, qayoqdan kelayotibsiz? – dedi.

Momo o'zi soqov edi, tili kalta g'uldiragan moxov edi. Ravshanbekka qarab:-Bozoydan, – dedi. Ravshanbek: – Momo, bozordan nima oldingiz? – dedi.

Kampir aytdi: – O', sho'yim qu'ysin, sen ham menga o'xshagan kuyganlaydan ekansan. Bizning yutting yasmini bilmagan; hali eshitganing yo'qmidi, Zulxumoy yomon bo'pti; yashamag'iy, shy vaqtda yigitlayiga qalpoqni yasim qilib, qalpoqning oldini ming tanga, oyqasini besh yuz tangadan sotadi. Mening biy o'g'lim boy edi, go'shginasi qoqgina, uyquginasi soqqina, gapga tushay boshingni yeguy, qayg'ayin desam yolg'iz, qayg'amayin desam yalmovuz; yigit o'lguy, meni ko'p kuydiyadi, yalchimaguy. Shu mendan ayazlab,"biy qalpoq, biy qalpoq" deb olti oydan beyi oshini ichmay yotibdi. Meni kuydiydi-ku, kuyib qog'uy.

Shunda Ravshanbek aytdi: – O' momo, olib kelayotgan qalpoq qani?

Kampir mana, deb qo'ynidan chiqarib berib edi, Ravshan qo'liga olib,"shu qalpoqqa bizning yor– Zulxumorning qo'li tekkanmikan?" – deb yorining hunarini ko'rib, ofarin, sad ofarin, deb qalpoqqa qarab bir so'z dedi:

Daraging topmadim izlab elingdan,
Bog'bon bo'lib uzsam toza gulingdan,
Qalpoqning nusxasi gulning bargidan,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan,

Seni deb ayrildim Chambil yurtidan,
Qutulmadim ayriliqning dardidan,
Qalpoqning nusxasi gulning bargidan,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Bugun tegdi bizga yorning nusxasi,
Qayda ekan buni tikkan ustasi,
Yetar kun bormikin, gapning qisqasi,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Seni deb jonimdan kechdim, Xumorjon,
Judolik ko'yiga tushdim, Xumorjon,
Ishqingning o'tiga tushdim, Xumorjon,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Men kuyarman, yorim sayri chorbog'da,
Sening uchun kuygan Ravshan ming dog'da.
G'oyibona so'zim aytay ovloqda,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Mening yorim toza qizning tozasi,
So'ylasa, gapning ko'pdir mazasi,
Har qalpog'i, ko'rsang, bir qiz bahosi,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Qachon Ravshan ko'rar gulday izingni,
Iyartib[1] kelsang-chi hurday qizingni,
Bizga qarat, hur misolim, o'zingni,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Bek Ravshan yonadi, yori bilmaydi,
Bilsa ham rahm etmas, ko'zga ilmaydi,
Qalpog'ingga gulning tarsi kelmaydi,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Xumor desa, siyna-bag'rim teshilar,
O'tingga tomirlar ipday eshilar,
Kuygan tanim qachon senga qo'shilar?..
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Men qachon borarman sening qoshingga,
Borib mehmon bo'lsam oppoq to'shingga,
Zarli ro'mol yarashmasmi boshingga,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

[1] Yaratib — ergashtirib

Yuz ofarin hunaringga, gulingga,
Bek Ravshan musofir sening elingga,
Qo'ling solsa sening nozik belingga,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Oting Xumor, o'zing Xumor, Xumorsan,
Chir atrofi uchburch isli tumorsan,
Oshiqlarni ko'zing bilan ko'marsan,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Senday suluv kezsa Shirvon yurtida,
Ravshan kuysa oshiqlikning o'tiga,
Kim chidaydi ayriliqning dardiga,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Seni deb unutdim o'sgan elimni,
Ko'yingga sayratib qizil tilimni,
Tavakkal qip, mahkam boylab belimni,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Oshiqlaring ko'pdir, menday kuygan yo'q,
Shirin joni chakkasiga teygan yo'q,
Hech kim menday senga bino qo'ygan yo'q,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Men kuyarman, yorim ayshu ishratda,
Qirqin qizlar bilan bazm-u suhbatda,
Sening uchun Ravshan qayg'u, kulfatda,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Sening darding olar mening jonimni,
Eshitsang netadi yig'laganimni,
Yig'ladim ortimda mehribonimni,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan

Bek Ravshan bulbuling, sen bir gulimsan,
Shirvonning elida jonu dilimsan,
Surati yarashgan xipcha belimsan,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Kim yetkazar mening arzi-dodimni,
Tark ettim seni deb mamlakatimni,
Unutdim Chambilday mamlakatimni
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Bugun nusxang tegdi, o'zing ham teygin,
Bizdan boshqasini, Xumorjon qo'ygin.
Oldimda yarashar liboslar kiygin,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Ravshanbek bu so'zlarni aytib edi, u turgan kampirning kayfi uchib ketdi. Ko'nglida qalpog'ini olib qochib ketadiganday bo'lib: "Ne balosi keldi, ha boshingni yeguy, sen ham mening yalchimag'uy bolamga o'xshagan yomon bola ekansan, sen ham Xumoy deb kuyganlaydan ekansan. U biy seni dog'lab o'tga kuydiyganmi? Uning oshig'i o'tiga kuyganini suyasang, sochidan ko'p; uning nimasini suyasan. Ul hammani kuyduydi-ku hiysi dunyo bo'lgay", deb Ravshanbekning qo'lidagi qalpoqni yulib olib, hayt deb keta berdi, bek Ravshanga qaramadi.

Ana, ishqivozlik yomon narsa, Ravshanbek qalpoqni ko'rib, badani balqib erib turib edi, momo qalpoqni olib keta berdi. Shunda Ravshan: — O' momo, kichaysan? Qarab tur, menga qalpoq bozorining yo'lini ko'r-sat, to'xta, momo, to'xta, — dedi. Momo aytdi: — Hu...sho'yla bola ekansan, mening bolamdan ham beyoqim ekansan, esing bo'lsa shu yomonga oshiq bo'laymiding, u yuytni buzdi-ku, — deb dim qaramaydi.

Ravshanbek: — O',momo, qalpoq bozorining yo'li qayoqda, yo'li?

—Shu yoqqa keta bey, — deb hayt deb, momo solib ketdi.

Ravshan bir alami ming bo'lib, ingichka o'ti jo'ng bo'lib," osang ustiga posing, hazor ustiga posad". Endi Ravshanbek belini ikki yeridan boylab, tavakkalni mahkam aylab, o'ziga-o'zi so'ylab: "O' Ravshanbek, sening eling yo'qmidi, ovlarga ko'ling yo'qmidi, o'tirsang-ko'nsang manziling yo'qmidi, o'ynasang-yursang teng-u xiling yo'qmidi? E uchangdan urgur Ravshanbek, hali sen nima qilib yuribsan, hali shu yurtdan sen boy bo'lib, mol orttirib ketaman deb yuribsanmi, mol izlab kelibmiding?" — deb o'ziga-o'zi o'ylab, xayoli tarlon bo'lib, o'zini har uyga solib ketib borayotir.

Bir-ikki qirdan oshdi, bir yolg'iz oyoq yo'lga tushdi. Ravshanbek:

"Ishing bo'lmasin, bozorning yo'li shu chiqar, shu yo'l bizni to'g'ri qalpoq bozoriga olib borar",- deb borayotir edi, oldidan bir qir chiqdi. Ravshanbek otini haydab, yo'rtib do'ngning ustiga chiqib qarasa, bir to'p, bari o'ziday yosh, xushro'y, qalamqosh bola, barining qo'lida bir lagancha tillasi bor, yaxshi ot ostida, bir tepaning ustida tillasi qo'lida qator bo'lib, saf tortib, otning boshini barobar qilib, osmonga qarab turibdi. Ravshanbek bularning bu ishiga hayron qolib, bu ham shularning qaragan yog'iga qarab osmonga tiklaydi, hech nima ko'rinmaydi. Juda ko'p qaradi. Hech nima ko'rinmagandan so'ng: "Anovi turgan bolalardan so'rayin, agar shuning ma'nosini bilmay ketsam bo'lmas",- deb otining boshini burib, qaqqayib turib shu bolalardan so'z so'radi: -Ey, nimaga hammang osmonga tiklab qaraysan, gaplashmaysan, bir-biringga indamaysan, ko'rganingni aytmaysan, nimaga qaraysizlar, jo'ralar? U bola-lar indamadi. Ravshan baqirib:-Ey, bir odam bir odamdan gap so'rasa, o'lib qolmasa—joni bo'lsa, javob beradi-da. Ey haromilar, padaringga po'stak, eshaklar, dim indamaysizlar, tillaring yo'qmi? Ko'zing u yoqda bo'lsa, og'zing ham bandmi, bachchag'ar?—deb qahri kelib, bir so'z deb turibdi:

"Alif" o'tib "lom" yozilar "mim" bilan,
Bir-biringga gap qotasan im bilan,
Baring birday tiklab qarab osmonga,
Osmonda savdo qilasan kim bilan?

Har kim ham o'ynaydi, kular teng bilan,
Seni ko'rgan o'tib ketar g'am bilan,
Baringning qo'lingda puling, bachchag'ar,
Osmonda savdo qilasilar kim bilan?

Baring go'dak hali, nodon bolasan,
Har ish qilsang, dim pishmagan chalasan,
Baringning qo'lingda puling, bachchag'ar,
Osmonda kim bilan savdo qilasan?
Men so'rasam, gapirmaysan, imlaysan,
Tiling yo'qmi, gapirmaysan, g'inglaysan,
Dovushing chiqarmay baring gung bo'lib,
Haromilar, muncha o'zing dimlaysan?

Qolingda tillang bor, yaxshi ot ostingda,
Siringni menga ayt, ne bor qasdingda,

Men gapirsam, gapirolmay imlaysan,
Baring tiklab, ne bor ko'kning ustinda?

Menga aytgin, men ham tiklab qarayin,
Yaxshi bo'lsa qabatingga borayin,
Osmonda kim bilan savdo qilasan,
Harami, aytsang-chi, men ham ko'rayin.

Sen javob bermaysan, men gap so'rayman,
Men ham senday osmonlarga qarayman,
Menga aytgin, men ham bilay, go'daklar,
Qiziq bo'lsa, qabatingga borayin.

Yosh bachchalar, o'z elingga to'rasan,
O'lmasang, dunyoda davron surasan,
Hammang birday tiklab qarab osmonga,
Menga ham aytinglar, nima ko'rasan?

Bedov minsam, yol-kokilin tarayman,
Men ham senday balandlarga qarayman.
Osmonda kim bilan savdo qilasan,
Osmonlarga qaraganing so'rayman.

Men yig'layman yolg'izlikda zor-zor,
Dushmanning elida bo'lmay xor-zor,
Hammang birday tiklab turib qaraysan,
Jon jo'ralar, bu osmonda nima bor?

Ravshanbekning bu so'zini eshitib,u bolalarning ichidan birovi aytdi: — Bu qanday o'zbak edi, bu bachchag'ar juda ko'p baqira berdi, juda ahmoq bachchag'ar ekan. Indamaygina keta bersachi. Vag'irlagani-vag'irlagan. Shovqimchil ekan-ku. Bizlarni tomoshadan qoldirdi, — deb so'kina berdi. Shu vaqt, u bolalarning birovi ko'zi balandda, Ravshanbekka javob berib: — O' o'zbak. Keta bersang-chi, bu gaplarni senga kim qo'yibdi?— deb, bir so'z dedi:

Yurgan yo'lim bo'tako'zli jo'nag'ar,
Nayza tegsa, oq badandan qon oqar.
Har kim bo'lsang ket yo'lingdan qolmagin,
Bizlar bilan ishing nima, bachchag'ar...

Xabaring yo‘q sening sog‘-u so‘lingdan,
Lopu lop so‘z chiqar sening tilingdan:
Bizlar bilan ne ishing bor, bachchag‘ar,
Keta ber yo‘lovchi, qolma yo‘lingdan.

Kim aytdi, bizlardan shuni so‘ragin,
Qanday nodon berdi senga daragin,
Bir lagancha tillang bo‘lsa, sen kelib,
Bizlarday bo‘p, undan keyin qaragin.

Sen o‘zbak ekansan, yurgan sahroyi,
Har yerda vag‘irlab yurgan har joyi,
Bir lagancha tilla olib qo‘lingga,
Undan so‘ng bizlarman bo‘l-da hamroyi.

Keta ber-keta ber, o‘zbak, keta ber,
To‘xtab turma, vag‘irlamay o‘ta ber.
Sen ham kelib qaraysanmi o‘larman,
Bozor borib, o‘tiningni sota ber.

Sening yurgan yering adir o‘rama,
Oldi o‘r kelganda otni urama.
Keta ber, yo‘lovchi, yo‘ldan qolmagin,
Bepul kelib, bizlardan gap so‘rama.

Bizlar, do‘stim, o‘ynamaymiz, kulmaymiz,
Shu qarashdan boshqa ishni qilmaymiz,
Keta ber, yo‘lovchi yo‘ldan qolmagin,
Bizlar sening so‘zlaringni bilmaymiz.

Baqirmay ket, baqirmay ket, baqirmay,
Bizdan so‘z so‘ramay, o‘tkin chaqirmay,
Keta ber, yo‘lovchi, yo‘ldan qolmagin,
O‘ta ber, harami, menga gapirmay.
Sening ko‘ngling bu gaplarman xush emas,
O‘zbakka bizlar tengu to‘sh emas,
Keta ber, yo‘lovchi, yo‘ldan qolmagin,
Qarama, bu kambag‘alning ishi emas.

Bu yigitlar noilojdan to‘p bo‘ldi,
Ko‘p so‘zladim mening so‘zim ko‘p bo‘ldi,

Qaramayin keta bergin orqangga,
Tekin ko'rib aytma, do'stim, muft bo'ldi

Jon jo'ra ketaber, kaytib kelmagin,
Yo'lovchisan yo'ldan qolmagin,
Har kim bo'lsang ket, yo'lingdan qolmagin
So'z so'rab alamim ziyod qilmagin

Quloq solgin alvon-alvon so'zlarga,
Yo'lovchi, tabassum qilma bizlarga.
Yo'lovchi, keta ber, yo'ldan qolmagin
Bu savdoni kim qo'yibdi sizlarga

Poralab, poralab go'shing o'silar,
Qochmoqqa qo'ymaslar yo'ling to'silar
Yo'lovchi, taassub qilma bizlarga
Bizlarga qo'shilma, boshing kesilar.

Toza gulsan, oftob tegib so'lmagin,
Keta bergin, o'bak, yo'ldan qolmagin,
Bizlarga qo'shilma, boshing kesilar,
Armon bilan, hasrat bilan o'lmagin.

Ana endi Ravshanbek polvon ularning bu so'zini eshitib sherday hurpayib, yo'lbarsday chirpinib, qoplonday jimiyib xezlanib-tezlanib, qahri kelib, ajdaho ilonday zahri kelib, bahodirliklari uyg'onib o'tday yonib, olovday qobinib, bir quti gugurtday bo'lib, o't olib ketganday bo'ldi. O'zi-o'ziga aytdi: He attang, musofirchilik ish emas ekan, he attang. Kele bugun indamay o'tib ketayin, ertaga anov olti otning birovini minib kelayin, yo'llarda elayin, bularning barining bo'ynini qiyib, og'zi-burnini qumga to'ldirib ketmasammi, — deb yo'rtib qirning ustiga chiqdi.

Ravshanbek qarasa, bir qari chol bechora bir qo'yning kallasini olibdi, to'rt pochasini beliga suqib, qornini bir qo'liga, o'pka-yurakni bir qo'liga olib kallaning bir qulog'idan tishlab olib kelayotibdi. Shunda Ravshanbek: — O' bobo, qayoqdan kelayotibsiz? — dedi.

Shunda bobo qarab turib, og'izdan kallani yerga qo'yib: —E bolamay, menga tashvish berding-ku, — dedi.

Ravshanbek:—Bobo men bozorning yo'lini topolmay yuribman shuning uchun sizga tashvish berdim, bobo, bozor yaqinmi? —dedi.

Bobo aytdi: –Bozor yaqin mana kelding, yarim tosh qoldi-da, endi manov qirga chiqsang, Qoraxon podshoning qizi Zulxumor oyimning ko'shki ko'rinadi, bolam. O' bolam, sen bu yerning rasmi-rusmini bilmaydigan bolaga o'xshaysan. Bolam, endi meni yo'ldan qoldirding-ku, shunday ham bo'lsa besh- olti og'iz so'zni senga aytib berayin, sen bilmagan bola-da, senga yaxshi boladi. Bu yerlar Qoraxon podshoga qaraydi, Shirvonga tobe. Qoraxon podshoning Zulxumor degan bir qizi bor, o'g'li ham shu, qizi ham shu, bundan boshqa bolasi yo'q. Endi bolam podsholikda erka o'sgan chopson zo'r qiz-da, shu yerdan bir baland ko'shk bo'lib tevaragini o'xshatib pishiq g'isht bilan imoratlar qilib, otasidan so'rab olib bozor yurg'izib qo'yibdi. Bugungi bozor Zulxumor qizning bozori. Har bozor bo'lsa, Zulxumor yuziga niqob tortmaydi, betini ochib o'tiradi. Zulxumor shu vaqt yigitlarga qalpoq rasm qildi, hali Zulxumorning qalpog'ining oldini ming tangga, orqasini besh yuz tangadan sotadi. Shu bugun bozor kuni, bizning elning boyvachchalari, bekvachchalari qo'liga bir la'li tilla olib "yuz ko'rim", deb Zulxumor oyni bir baland yerga chiqib tomosha qiladi. Qo'ychi, o'g'lim, gap puli borniki. Hali Zulxumor g'ayrat qilayotgan emish: "Shu bozorni juda katta bozor qilaman, juda obod qilaman", – der emish. Obod qilsa qiladi-da, podshoning bir qizi bo'lsa nima qilaman desa, qiladi.

Ana Ravshanbek endi bildi, yo'lda lagan ushlab osmonga qarab turganlar Zulxumorga qarab turgan ekan. Bobosidan u so'zlarni eshitib, bilib oldi. Shu to'l bilan otini chu deb yo'rtib qirga chiqdi, soyga tushdi, bozorning ustidan borib qoldi. Qarasa, bir kichkina bozor ekan, odam g'ijillab yotibdi.

Ravshanbek bozorning ustidan kelib qolib, "yorim Zulxumorjonni ko'raman", deb dimog'i chog' bo'lib vaqti xush bo'lib bozordagi odamlarga qarab, bir so'z aytib turibdi:

Uzoqdan kelayotibman,
G'amning yoyiga botibman,
Ey yoronlar, birodarlar,
Men yorimni yo'qotibman.
Ey yoronlar, birodarlar, xaloyiq,
Men yorimdan adashibman.
So'z aytarman mayin,
Aqli borlar qilar fahim,
E yoronlar, birodarlar,
Izlab yorim topolmayin.
Yurak-bag'rim bo'lgan kabob,
Izlarini qilsam tavof,

Men yorimdan adashganman, xaloyiq,
Yo'lga solsang, katta savob.
Bog'lardan tergan bodomlar,
Yorsiz menga doyim g'amlar,
Men yorimdan adashibman, xaloyiq,
Bozordagi ko'p odamlar.
Qayda bo'lar yor makoni,
Otidir, Xumor, makoni,
Men-ku yo'ldan adashganman, yoronlar,
Do'stlar, yo'lga soling meni.
Elda davron surgan bormi,
O'z davriman yurgan bormi,
Bizning yorni ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?
Toblab zulfin o'rgan bormi,
Yorman suhbat qurgan bormi,
Yoki birga yurgan bormi,
Bog'idan gul tergan bormi.
Bizning yorni ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?
Birga bo'p o'tirgan bormi,
Bazmiga ketirgan bormi,
Kengashin ketirgan bormi,
Hisobin yitirgan bormi,
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?
Va'dasida turgan bormi,
Qaytib, xudoy urgan bormi,
Suhbatiga borgan bormi,
Unga sirin yorgan bormi,
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?
E yoronlar, hay yoronlar,
Hammangiz menga qaranglar,
"Yoring kim?" – deng-da, so'rganlar,
Mening kunimga yaranglar,
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin ko'rgan bormi?
Mening yorim qiz bolami,
Ko'p achchig'i tez bolami,
Ko'zlari yulduz bolami,

Qoshlari qunduz bolami.
Ko'zi-jodu, qosh-xanjari,
Jonni teshar kipriklari,
Teng bo'lolmas hur-u pari,
Balki jannatning hurlari.
Unga shaydo elning bari,
Yigit tuva qarilari,
Boylar tuva qishloqlari.
Bizning yorni ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?
O'tkir, lochinday boladi.
Mening yorim yorning yori,
Abasdir kuyganning bari,
Ko'p oshiqlar intizori,
Shakli qarchig'oy boladi,
Hurkak, asoy toy boladi...
Ko'p o'zi bejoy boladi,
Majnun qildi bora-bora,
Oshiq bo'lsa nedir chora,
Bir kuygur qildi ovora,
Topmadim men baxti qora.
Bizning yorni ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?
Yor daragin bergan bormi?
Mening yorim oy boladi,
Ming ko'yliday boy boladi,
Juda hotamtoy boladi,
O'zi shirin so'z bolami,
O'zi nodon bo'z bolami,
O'zi jodu ko'z bolami.
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Lablari qirmiz bolami,
Yor daragin bergan bormi?
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Qaniki topilsa yorim,
Tasadduqdir harna borim,
Qalamqosh, ko'zi xumorim,
Ko'rmasdan ketdi madorim,
Mening shunda ixtiyorim
Dunyoda yo'qdir xabarim,
Olgandi sabr-u qarorim.

Bizning yorni ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?
Men izlab keldim izidan,
So'rsam labi qirmizidan,
Suyuldim qora ko'zidan,
Tirildim shirin so'zidan,
So'rasam shuning o'zidan
Bilmam qay shohning qizidan.
Bizning yorni ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?
Yorimni ko'rsam deb keldim,
Bir dam o'ltirsam deb keldim.
La'li shaker lablaridan,
So'r desa, so'rsam deb keldim.
Shunday asov toyday yorni
Ko'lga keltirsam deb keldim.
Oshiqligim shu bárnoga
Endi bildirsam deb keldim.
Eldan o'zgan chin suluvni
Ishqip ildirsam deb keldim.
Izlab yurgan sarvinozni,
Otga mindirsam deb keldim.
Aytganima ko'nmasa-chi,
Aldab ko'ndirsam deb keldim.
Hurkak yorning qal'asini
Urib sindirsam deb keldim.
Bizning yorni ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?
Past-pastgina past ko'chalar,
Holing bilmas bir nechalar,
Bedov mingan boyvachchalar,
Boyvachchalar, bekvachchalar,
Qalpoq bozori qaysidi?
Qalpoq bozori qaysidi?
Otin chopgan mast bolalar,
O'z tengiman do'st bolalar,
Ishi garov, bas bolalar,
Polvon, nayzadast bolalar,
Qalpoq bozori qaysidi?
Bozor kelib yig'ilganlar,
Savdo deyishib uyulganlar,

Qo‘y-serkalar—so‘yilganlar,
Qalpoq bozori qaysidi?
Qalpoq bozori qaysidi?
Bozorga kelgan odamlar,
Bog‘lardan tergan bodomlar,
Piyoda yo‘lni qadamlar,
Horigan qarri nadamlar,
Mardikorlik —ish bozori,
Cho‘yan bozori, mis bozori,
Manov pishiq g‘ish bozori,
Qassob bozor—go‘sh bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Kalava sotgan momolar,
Qalpoq bozori qaysidi?
Bozor kelgan bozorchilar,
Yo‘lni kezgan guzarchilar,
Tinmay elni kezarchilar,
Jo‘n savdoni buzarchilar,
Changib yotgan un bozori,
Qo‘qib yotgan jun bozori,
Anov mursak, to‘n bozori,
Pichoq bozor, qin bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Topolmay yurgan kechalar,
Ko‘chada hindi bachchalar,
Qalpoq bozori qaysidi?
Ma’shuqin topsa muchalar,
Oshining shavqi kechalar,
Dardiga topmay davolar,
G‘amman mehnat havolar,
Eshak haydagan bobolar,
Kalla sotgan kallapazlar,
Nag‘magar nag‘masin sozlar,
Shoirlar bo‘taday bo‘zlar,
Yo‘lni bilmay kelgan bizlar,
Qalpoq bozori qaysidi?
Hunarmandlar hunarilar,
O‘z ishiga jo‘narilar,
Nashavandlar, ko‘knorilar,
Choyman suvning qanorilar,
Qalpoq bozori qaysidi?

O‘yinchilar, darvozlari,
Shoiri xushovozlari,
Yig‘ilgan ko‘p-u ozlari,
Shoir qo‘lida sozlari,
Qalpoq bozori qaysidi?
Qopda turgan ko‘mir bozor,
Anov po‘lat, temir bozor,
Savdong ko‘p bo‘p, semir bozor,
Menga kep, xabar ber bozor,
Qalpoq bozori qaysidi?
Bozor bilan har shaharlar,
Sop benavo, darbadarlar,
Masxaraboz, bohunarlar,
Benavolar, mo‘tabarlar,
Qalpoq bozori qaysidi?
Ishchi bo‘lgan kambag‘allar,
Savdo-sotiqqa dag‘allar,
Gap topmay so‘zni maqollar,
Yigitlar, oqsoqollar,
Qalpoq bozori qaysidi?
Anovi qovun bozori,
Boqollik,sovun bozori,
U chetda tuya bozori,
Qimizga biya bozori,
Rang-bo‘yov, kuya bozori,
Savdoni uy-a bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Optovalar,mis bozori,
Beda bozor, xas bozori,
Kadi bozor, nos bozori,
Moxxov bozor, pes bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Qovunman po‘choq bozori,
Temirman o‘choq bozori,
Ro‘molman sochoq bozori,
Attorlik munchoq bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Bolor ham xoda bozori,
Paxta,uvada bozori,
Baland tepada bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Anovi poda bozori,
Shishada aroq bozori,
Xarroti taroq bozori,
Moychiman chiroq bozori,
Charx bilan o'roq bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Yilqi bozori, toy bozori,
Kurt bilan sarmoy bozori,
Qog'ozdagi choy bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Salloh sotib kalla pocha,
Qassobga tovun bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Chetda turgan qo'y bozori,
Bo'z bilan alak bozori,
Attorda elak bozori,
Rang-bo'yov,lok bozori,
Paranji, jelak bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Bug'doy ham arpa bozori,
Paxtali ko'rpa bozori,
Qo'y-teri—surpa bozori,
Sersavdo turpa bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Nonvoylikman non bozori,
Nonlari son-son bozori,
Paranjiman to'n bozori,
O'rovlari sim bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Anovi qimiz bozori,
Manovisi muz bozori,
Oriq ham semiz bozori,
Qopdagilar tuz bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Qayerda qalpoq bozori,
Qoziqda telpak bozori,
Qatlama, chalpak bozori,
Tupak ham bargak bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Anovi tari bozori,
Lo'k bilan nori bozori,

Muz bilan qori bozori,
Turganning bari bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Echki bozor, tana bozor,
Sen izlasang, ana bozor,
Novvos-juvona bozor,
Maddoh-devona bozor,
Qalpoq bozori qaysidi?
Kadidagi moy bozori,
Do'ngdagilar qo'y bozori,
Qog'ozdagi choy bozori,
Baland bozor,uy bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Sabziman piyoz bozori,
Nazirman niyoz bozori,
Qancha ko'p-u oz bozori,
Savdo bilan soz bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Echki ham uloq bozori,
Telpak ham tumoq bozori,
Kavob,qovurdoq bozori,
Nasya emas, naq bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Qalpoq bozori qaysidi?

Ravshanbek mast bo'lib," Qalpoq bozori qayerda", deb baqirib borayotir edi. Shu yerda bir nashavand turib edi, kayfi uchib ketib Ravshanbekka qarab aytdi: —Ey o'zbak, muncha baqirasan, kayf degan narsadan qolmadi-ku. Sen o'zing burun ham hech bozorga boribmiding, ilgari bozorni ko'ribmiding? Anov changib yotgan un bozori, narigi qo'qib yotgan jun bozori, ho' anov, katta do'kon—to'n bozori, narigi turgan pichoq bilan qin bozori, undan o'tsang, telpak bozori, undan o'tding qalpoq bozori-da, yurtni buzding-ku, — deyotir.

Ravshanxon bozorni oralab o'tdi, qalpoq bozoriga yetdi. Qarasa, qirq zinalik ko'shkning ustida Zulxumor oyim kanizlari bilan qalpoq sotib turibdi. Zulxumor yuzidan niqobini olib, ko'p kanizlar o'rtaga olib turibdi. Ravshanbek Zulxumorning jamolini, nav daraxt kamolini ko'rib, tomosha qildi. Ravshanbek qarasa, Zulxumorning kamoli oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to'lgan oyday ikki qoshi hiloli. Ravshanbek zehnini qo'yib qarasa,

yasangan hurday, tishlari durday, ko‘zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og‘izlari o‘ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig‘ay uchadigan qushday, muhrlangan qog‘ozday yalt-yalt etib o‘tiribdi. Zulxumoroyning bu yog‘ida to‘qsonbesh, bu yog‘ida to‘qsonbesh—o‘n kam ikki yuz kokili bor, bir yog‘ini tilla suviga botirgan, bir yog‘ini kumush suviga botirgan, tong shamoliga qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tinjirab, yaltirab o‘tiri*. Ana, Zulxumorning ko‘zi jovdirab, zulfi shovdirab, zulfining shu’lasi betiga ursa, yashin tushganday bo‘lib o‘tiri. Ravshanbek qarasa, musicha, so‘pito‘rg‘ay, g‘azalay, pismachi qushlar Zulxumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland quyilib kelib, egniga kiptiga tegib-tegib, uchib borayotibdi.

Ravshanbek Zulxumoroyni bu sha’nu shavkatda ko‘rib, yuz jon-u dil bilan ishqiboz bo‘lib, yuz jon-u dil bilan xaridor bo‘lib qarab qoldi.

Qancha yosh barno kanizlar o‘rtaga olib o‘tiribdi. O‘rta yashar bo‘layin degan kanizdan, qartaygan-ko‘hna-soltob kanizlar past tushib,qalpoq sotib turibdi. Ravshanbek qizlarni bunday ko‘rgandan so‘ng ikki qulog‘i bitib, hisobi yitib, og‘zi ochilib—anqayib, nima qilarini bilmay, esi ketib qoldi. Shu vaqtda odam uymalashib — to‘dalashib turibdi.

Ravshanbek chu, deb otni bir qamchi urib, o‘rtaga kirib bordi.Baland qarasa, Zulxumorning betining shu’lasi oynani kunga tutganday yarq-yurq etib yerga uriyopti.Buni ko‘rib Ravshanbek masti beixtiyor bo‘lib, ikki qo‘lini ko‘tarib bulg‘ab, oyoqni uzangiga tirab, balandga qarab baqirib, qizlarni chaqirib, bir so‘z aytadi:

Kuygan alvon-alvon so‘zlar,
Ayrilgan bir-birin izlar,
Ko‘shkida o‘tirgan qizlar,
Baring birday botamizlar,
Turinglar, Chambil ketamiz, o‘lgurlar,
Juringlar, Chambil ketamiz.
Shirvon elning barnolari,
Suluvlarning posholari,
Yigitlarning dil xohlari,
Yuzlari mehr-u mohlari,
Juringlar, Chambil ketamiz, kuygurlar.
Turinglar, Chambil ketamiz.
Baring ko‘shkidan turinglar,
Bir-biringman xo‘shlashinglar,
Qadrdoning ergashinglar,

Bizning otga mingashinglar
Juringlar, Jambil ketamiz, sanamlarlar.
Turinglar, Chambil ketamiz.
Endi davron Chambil belda,
Turmang qizlar Shirvon elda,
Bulbulning makoni gulda,
Har kim bo'lsa sizga kulda,
Turinglar, Chambil ketamiz,
Juringlar, Chambil ketamiz.
Turgan Shirvonning qizlari,
Saylangan jodu ko'zlari,
Bu elning botamizlari,
Bizning yorning kanizlari,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Qizning gavhar poralari,
Odam ko'rsa morolari,
Bizning yorning jo'ralari,
Bir-biridan saralari,
Turinglar, Chambil ketamiz, o'lguriar.
Juringlar, Chambil ketamiz.
Unda ham bor ko'shk-u ayvon,
Varvaraqli oltin kayvon,
Ziyodonlar alvon-alvon,
Chambilbelda bo'lsin davron,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Shirvon elning suluvlari,
Qo'yni issiq — jiluvlari*,
Yurtdan o'zgan biluvlari,
Yaxshi borib keluvlari,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Ana qizlar,ana qizlar,
O'zi vazir, dono qizlar,
So'zlari afsona qizlar,
Ko'lda suqsur-so'na qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Zulfin toblab o'rgan qizlar,
Elda davron surgan qizlar,

Kaptarday bo‘p yurgan qizlar,
Qalpoq sotib turgan qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Zarli ro‘mol o‘rashganlar,
O‘ragani yarashganlar,
Qiyalashib qarashganlar,
Bir-biriman talashganlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,.
Turinglar, Chambil ketamiz.
Shirvon elning uzuklari,
Qo‘lda tilla uzuklari,
Qizning ko‘zi suzuklari,
Ingichka bel,noziklari,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Ey qizlar,qizning barnosi,
Sizlar suluvning poshshosi,
Sizlar yigitning nash’asi,
Oshiqlarning andishasi,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Siz Shirvonning qalamqoshi,
Shirvon elining mahvashi,
Bizning yorning tengi-to‘shi,
Sizlar Xumorning yo‘ldoshi,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Tinmasdan izlab sizlarni,
Yangi men topdim qizlarni,
Iyartgin, Xumor, kanizlarni,
Buncha kuydirma bizlarni,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
O‘tirib, turishgan qizlar,
Urushib, yulishgan qizlar,
Charchamay olishgan qizlar,
Qaqirlab kulishgan qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Chaq-chaqqina chaqqon qizlar,

Marjon kumush taqqan qizlar,
Yigitlarga yoqqan qizlar,
Doim zin boqqan qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Qiyo qoshi xanjar qizlar,
Kiprik bilan sanchar qizlar,
Yigitlarni yanchar qizlar,
Borsang q ynin ochar qizlar,
Juringlar, Chambil ketainiz,
Turinglar, Chambil ketamiz.
Kanizlar, yeting dodima,
Keiib mingashing otima,
Opketay viloyatima,
Shunda yetay maqsadima,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz...

Ravshanbek balandga qarab, oyoqni uzangiga tirab, "Bizning n qaysing q shilib borasan", — deb qiziardan s rab, bir q lini tarib bulg'ab,ha deb ehaqira berdi: — Keiinglar-chi kelinglar, rov-tezroq b Iinglar. Ha juvonmarg lgurlar, yashamaguriar, b linglar, darrov kelinglar.

Unda hamma qizlar hayron qolib kulayotir, hammasi mazax-ika qilayotir. "H -h ", deyishib qarayotir. "Nega unday idi", deb bir-biridan s rayotir. Shu vaqtda Zulxumor oyim, ^i-x yi muloyim: — H qizlar, tirgan kaniziar, shu turgan ibi tamizlar. Bu qiziq b ldi, bu nima gap b Idi? Yoronlar, fti bir k rgan yigitlar bir la'li tilla berib yuz k ruvga, deb lib rolmay yuri. Manavi zidan- zi, ha deb chaqirib," tez b i-, tez b l, k shkdan tushinglar, bizning otga mingashinglar, >ving-biroving bilan x shlashinglar, bir xillaring piyoda yiqilib, nib ergashingiar, y lda yetolmay pishnashinglar", deb aytanasi ^ayotir. Voy-b y, beti qora, bu nima degan gap edi, — dedi.

Shunda bir kaniz aytdi: — E buvishim, buning yuzi qursin, irgan s zi qursin, balki bu tentakning zi qursin. Bu tentak. ling ostidagi oti ziniki emas, birovning otini tilab olib minib *l&n.* Bozorga kelgandan keyin bu k shkning ostiga kelgan, bu lizlarni k rib, balandga qarab sizni k rib, balandga qarab sizni rib, buncha qizni k rib, bu yashshamagur kutayotir, tentakligi urib. Tentakning q lida, qizil kiyganni k rsa kuttiradi. Bu

yolchimagur tentak ekan. Voy-bo'y, beti qora, uyalmagan, boshingni yegur, – deyisha berdilar.

Shunda Ravshan balandga qarab mast bo'lib: «Tush-chi tush. Kel, ha kel. Bo'l, ha bo'l» –deyotir, qo'lini bulg'ayotir, otini depsib tepinayotir. Tentaklikning ham ba'zi yerlarda navf tegadi ekan, bu tentak, deb hech kim indamadi, yuz ko'rim ham ber, demadi. Ravshanbek shu yerda qip-qizil tentakka chiqib qoldi.

Ravshanbek shu turgandan turib qoldi. Balandga qarab, qo'lini bulg'ab, qizlarni chaqirib: "Tushinglar, bizning otga mingashinglar", – deb dabdaba qilib tura berdi. Shu turgandan kun botib, bozor tarqab ketib, ko'shkdan qizlar ham tushib ketdi. Bozorda biro dam ham qolmadi. Ravshanbek balandga qarab hali ham qo'lini bo'lg'ab:" Tushchi-tush,bo'l,ha bo'l", – deb turibdi. Bir pilla Ravshanbek hushiga kelib qarasa, qorong'i bo'lib qolibdi, bozor tarqab ketibdi, qizlar tushib ketibdi, Ravshanbekning o'zi qolibdi. Hech kim yo'q.

Ravshanbekning bir ishqi ming bo'lib, jununi ko'payib, ishqi zo'rlab, nima qilarini bilmay, o'zidan boshqa odam yo'q, qizlarni "Qayoqdan tushib ketdi", – deb so'rab yuribdi, qizlarni qarab yuribdi. Qo'li bulg'alov bilan tolib qolibdi, o'zi horib qolibdi, o'ylasa, toza qip-qizil tentak bo'lib qolibdi.

Uyoq-buyoqqa qarab, qizlarning qayoqqa ketganini bilmay, bir dardi ming bo'lib, ichi g'amga to'lib, ilonday to'lg'anib, olovday tutanib, Zulxumorning o'tiga yonib, nima qilarini bilmay, kelgan yo'li bilan kelaverdi. Nayaki tortgan odamday—gung-garang bo'lib, qulog'iga gap kirmay ikki ko'zi qizarib, ne pillalarda uyiga keldi. Otidan tushib, otini boylab uyga kirdi.

Shunda kampir enasi: – E bolam, bugun kechga qolding, nega unday qilding? – deb so'rayotir. U yer-bu yerini qarayotir, u yoq – bu yog'ini ko'rayotir. Ravshanbek aytdi: – E ena, mening bugun kechga qolganim: bir do'stim uchta-to'rtta mehmoni bor ekan, ularni ziyofatga aytgan ekan, meni ham to'xtaysan, deb qo'ymadi, shunday qilib, kechga qoldim,-deb enasining ko'ngliga tasalli berib aldadi.

Enasi Ravshanbekning joyini solib berib, uxlagali joyiga o'tib yotdi.Bolaning uyqusi qayoqdan kelsin, bolani, ilon, chayon chaqqanday Zulxumorning ishqi kuydirib borayotir. O'h, deydi, bo'lmaydi, uyqu kelmaydi, yotolmay tipirlab, qashinib, qichinib, uxlayolmay, oshib-tushib goh bu yog'i bilan, goh u yog'i bilan tipirlab yotib edi. Bir pilla uh, deb dalaga chiqdi. Bolaning ko'ziga dalaning shu'lasi baland ko'rindi. Tomning ustiga chiqib qarasa,

katta yo'l bilan boyagi ko'shkda ko'ringan qizlar, qancha kanizlar kelayotir. Ravshanbek buni ko'rib, "ishing bo'lmasin, topib oldim", deb dimog'i chog' bo'lib turdi. Shunday qarasa, ikki yuzcha satta bo'z bola, katta xodalarning uchiga katta choponni boylab, moyga botirib, mash'al qilib yoqib, ko'tarib kelayotibdi. Qorong'ida hamma yerni kunduzday yorug' qilib o'ta berdi. Bularning orasidan uch yuzta qizlar o'ynashib, bir-birovi bilan olishib, bir-birovining qo'yniga qo'l solishib, barisi birday, behishtdagi hurday bo'lib, o'ynab-kulishib, bir-birini mushk-anbar, sobunlar bilan urishib o'ta berdi. Bularning orasidan boyagi ko'shkda ko'rgan xossaki kanizlar bilan Zulxumor oyim o'tib borayotibdi. Aravalarga ningan, yaxshi kiyimlar kiygan,satta semiz xom qizlar kiyimlarini ko'tarolmay iyingan, etak-boshi yig'ingan. Ana shunday yetib bir zam-zama bilan o'tdilar. Buni bek Ravshan ko'rib, tomdan tushib, enasini uyg'otib, bilmamish bo'lib, enasidan so'rab bir so'z aytadir:

Boshima zarlidan dastor o'rayman,
Tush ko'rganda yaxshilikka yo'rayman,
Hayron qoldim elatingning rasmiga,
Ena, sendan shu bir gapni so'rayman.

Imo bilan qoshin qoqqan kim bo'ldi,
Zulflariga gavhar taqqan kim bo'ldi,
Jamoli yashinday oqqan kim bo'ldi,

Qorong'ida yo'lga chiqqan kim bo'ldi,
Hayron qoldim elatingning rasmiga,
Oqshomlari mash'al yoqqan kim bo'ldi.

Ko'p kanizlar la'lu marjon taqinib,
Oladigan olg'ir qushday qoqinib,
Bir ko'rganlar boz ko'rsam, deb sog'inib,
Qorong'ida oqqan suvday oqinib,
Hayron qoldim elatingning rasmiga,
Ko'rgan oshiq yonar o'tday qobinib.

Suluv qizlar yasanibdi kiyinib,
Kiyimlarin ko'tarolmay iyinib,
Chang bo'ldi deb etaklarin yig'inib,
Sho'xligidan bir-biriga teginib,

Ko‘chalarda sayron bo‘lgan kim bo‘ldi?
Ko‘rgan yigit og‘zi ochilib,suyunib.

Har kim ko‘rsa,ena,qolar quvonib,
Oshiq bo‘lib qolar olovga yonib,
Ko‘rgan oshiq yonar o‘tga tutanib,
Bu qizlarga hech kim bo‘lmas ishonib,
Qorong‘ida yo‘lda yurgan kim bo‘ldi.
Buning bari hayitlarmi, yasanib?

Ena, ko‘p qiz ko‘chalarda jiyilgan,
Barisi yasangan,zulfi tuyulgan,
Suluv qizlar, qosh-qovog‘i uyilgan,
Hayit, to‘yga borganday bo‘p kiyingan
Ko‘chalarda hayitlagan kim bo‘ldi?
Yarashsin deb qora xollar qo‘yilgan.

Enajon, keladi bir to‘da qizlar,
Bir to‘p bo‘lib satta suluv kanizlar,
Barisin qarasang,suluv, oy qizlar,
Ko‘rmayoq yuribmiz ekan-da bizlar,
Ko‘zlari quralay, qoshi qunduzlar,
Barisi boadab, sohib tamizlar,

Bari barno, suluv, labi qimizlar,
Ko‘chada yuribdi ko‘p jodu ko‘zlar,
Imoman gap urar shu shirin so‘zlar,
Qorong‘ida kezib ul sarvinozlar,
Qo‘llarda yuzadi o‘rdak ham g‘ozlar,
Yo‘l bilan boradi bir to‘da qizlar,
Oqshomlari sayr etgan kim bo‘ldi?
Yo‘lman borayotgan qanday azizlar?

Qora zulfin qora qilib tarashgan,
Jamoliga qaragan ko‘z qamashgan,
Ko‘chalarda bir-biriman talashgan,
Kiygan kiyimlari juda yarashgan,
Zarli ro‘molini qiya o‘rashgan,
Har kim ko‘rsa, bir ko‘rsam deb qarashgan,
Suluvligi juda haddidan oshgan,
Bir bo‘lak qiz yurur daryoday toshgan,

Mash'al yoqib yo'lda turgan kim bo'ldi?
Jon ena, shu qizlar yo'ldan adashgan?

Bir bo'lak qiz kelayotir o'ynashib,
Sho'x qiz ekan choyjo'shday bo'p qaynashib,
Bari birday qizil kiyib jaynashib,
Bir-biriga kulimsirab so'ylashib,
Qorong'ida kiyib yurur bo'ylashib,
Bir-birin bo'yniga qo'lin taylashib,
Ena, bu yurganlar, aytgin, kim bo'ldi,
Bunday yurur, ena, haddidan oshib?

Ravshanbekning bu so'zlarini eshitib enasi: —Ha, bolasi qurgur, qaramasi-qarama, ularni mendan so'rama, ichkari kir, yota bergin joyingga, ha, bolasi qurg'ur, kel uyga, qarama, —deb urishayotir.

Shunda kampir bechora, o'g'li Ravshanbekka qarab bir so'z dedi:

Xudoyim yetkizsin, bolam, talabga,
Aqling bo'lsa zehningni qo'y bu gapga,
Qaray ko'rma kasofati buzuqqa,
Ichkari kir, yota bergin joyingga.

Inongin, jon bolam,mening gapima,
Har nachuk so'zlarni olma o'yingga,
Qaray ko'rma kasofati buzuqqa,
Ichkari kir yota bergin joyingga.

Elatimiz bilsang so'zlar so'zidir,
Shirvon elda men deganning o'zidir,
Qaray ko'rma kasofati buzuqqa,
Oti Xumor, Qoraxonning qizidir.

Shirvonning bir degan sarvinozidir,
Oldida yurganlar ko'p kanizidir,
Qaray ko'rma kasofati buzuqqa,
Oti Xumor, podshomizning qizidir.

Har zamon, har zamon bunda keladi,
Kechalari shunda sayr qiladi,

Har kimsa qarasa, ko‘rsa ularni,
Yuz ko‘rim deb lagan tilla oladi.

Men enangman, ko‘pdir qayg‘u ham dog‘im,
Sen bilan chog‘ bo‘lar mening dimog‘im,
Ichkari kir, yota bergin joyingga,
Dim ularga qaray ko‘rma, chirog‘im.

Bolam, ular doim yomon tomondir,
Yaxshilarga ular oxir zamondir,
Ichkari kir, yota bergin joyingga,
Qarama, chirog‘im, ular yomondir.

Sendirsan men sho‘rning ko‘ngil xursandim,
Osoyishta aziz jonga payvandim.
Qaray ko‘rma kasofati buzuqqa,
Ichkari kir, yota bergin, farzandim.

Ular yomon, bolam, o‘ynab-kulargа,
U badbaxtlar teng yo‘q, bolam,silarga,
Ichkari kir, yota bergin joyingga,
Jonim bolam, qaramagin ularga.

Jon bolam, qarama, ular ko‘rmasin,
Senga kelib, bolam, azob bermasin.
Ichkari kir yota bergin joyingga,
Senga ham yuz ko‘rim ber deb yurmasin...

Shunda Ravshanbek aytdi: – E ena, jon ena, bachchag‘arning qizi yomon suluv ko‘rinadi. Enajon menga bir lagancha tilla bergin, men borib bir ko‘zimni qo‘lim bilan yopib, bir ko‘zim bilan ko‘rib kelayin, jon, ena, jonim ena, ko‘zim ena, bir ko‘radigan qiz ekan, birgina ko‘radigan qiz ekan, ena, bera qol-da. Ha ena, qizlar o‘tib ketmasin, bir tura kel, ena, – deb yerni har tepindi, bo‘ladigan emas.

Kampir bechora: – E bolam-a, senga nima deyin, aytganimga ko‘n-maysan, sengapni bilmaysan, e nodon bolam, nima deyin, nima deyin, – deb joyidan turdi. Kampir bechora siypalanib," G‘aznaning kalitini qayerga qo‘ygan ekanman", deb izlay berdi. Topolmay yuribdi kampir. Qasdi shul edi: qizlar uzab ketsin. Kampir bir lagan tilla tugur o‘n la’li tillani Ravshandan ayamaydi; ko‘nglida: "Agar Ravshanxon Zulxumomi ko‘rsa, kelmay ketadi",

deb Ravshanbekni ko'zi qiymay, xazinaning kalitini topolmay yuribdi. Ravshanbek tom ustida, ikki ko'zi qizlarda: —Ena, topding-mi? —deydi, enasi siypalanib: — Sabil qog'urni qayerga qo'ygan ekan-man, — deb topolmaydi. Ravshanbek dam-badam:- Ena, topdingmi?—deb tom ustidan kelib so'raydi, enasi: — topolmay yuribman, — deydi.

Shunday qila-qila,tong otdi, qizlar uzab ketdi.Tong otgandan keyin ham: — Topdingmi? — dedi.Enasi: — Topolmay yuribman, — dedi.

— O' ena.Kalitingni topolmasang, pulingni boshingga ur, —deb Ravshanbek tomdan o'zini tashlab ketdi. Kampir: —Ha, bolasi qubg'ur, qaytchi-qayt, —deb qichqira-qichqira qoldi. Ravshanbek piyoda yo'rtib, ko'chaning yuzi bilan, qizlarning izi bilan yugurib, qizlarni izlab keta berdi.

Kun chiqdi, olamga yoyilib kelayotir edi.Ravshanbek ham yo'l bilan zo'r berib borayotir edi, oldidan bir otli kela berdi. Ravshanbek qarasa, biro dam,yoldor, dumdor bir jiyron otni yo'rg'asiga solib selkillab, ha deb yo'rg'alatadi, oldingi bosgani orqasiga ketadi, yurgan yo'li o'ngmaydi, sakrab avvalgi o'rniga tushadi, keyin ketsa ketadi, ilgari o'tmaydi, shunday qilib qichab kelayotipti.

Ravshanxon qarasa, bir ko'sa, juda ko'hna bo'lib ketgan bir ko'sa, uch yuzdan oshgan, to'rt yuzga yonashgan, juda qari ko'sa, yo bachchag'ar yo'ldan adashgan,daqyunus ko'rgan, jami el-xalqqa firib bergan, doim juvonbozlik, bedanabozlik bilan umrini o'tkazgan uying kuygur. Chekkasidan tarlon ochgan, iyagining go'shti qochgan, qoshlari o'sgan, ko'zini bosgan; iyagining o'rtasida bitta tuki bor ekan, u ham bir qarich bo'lib o'sgan, bu yolg'iz soqolga necha qimmatbaho yaxshi toshlardan teshib bosgan. Burnining suvi sho'rg'alib, mingan oti yo'rg'alab, Ravshanbekning oldidan chiqa keldi. Yaqin kelgandan keyin ko'zini ochib, Ravshanbekka qarab, ko'rgandan otning jilovini tortib to'xtatib, bek Ravshanga qarab, bir so'z deb turi kesa:

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,
Ko'ngil suysa yorning labi bol bo'lsin,
Sening tarzing bu ellarga kelmaydi,

So'ylagin, haromi, senga yo'l bo'lsin?
Oralasang, Shirvon katta el bo'lsin,
So'z aytmoqqa mayin,shirin til bo'lsin,

Sening tarzing bu ellarga kelmaydi,
Haromi, bachchag'ar, senga yo'l bo'lsin?

Ko'zlari qambardir, bodom qovog'ing,
Bilaging temirlan, po'lat tirnog'ing,
So'ylagin, haromi, senga yo'l bo'lsin?
Bu yerlikka o'xshamaydi siyog'ing.

Maydon-maydon bedovingni yelgansan,
Yosh bolas an, shirin joning bo'lgansan,
So'ylagin, haromi, senga yo'l bo'lsin?
Men bilgimda Xumorjonga kelgansan.

Yosh bolas an daryoday bo'p to'lgansan,
Sen juvonmarg bir shumlikni bilgansan,
So'ylagin, haromi, senga yo'l bo'lsin?
Tappa-tayin Xumorjonga kelgansan.

Menga ayt, haromi, to'g'ri so'zingni,
Hasanga o'xshatdim gulday yuzingni,
So'zlagin, haromi, qaydan bo'lasan?
Daliiga o'xshatdim qosh-u ko'zingni.

Ko'sa Ravshanbekka ko'ndalang bo'la ketdi, oldini ola ketdi. Ravshanbek ko'sadan bu so'zlarni eshitib, qahri kelib, ilonday zahri kelib, ichida aytdi: "Bu la'nati ko'sani xudo urdi-ku. Bu bachchag'ar, uying kuygur, otamni dalada, you rush-purushda ko'rsa ko'rgan chiqar, enamni qayerda ko'rgan ekan, bu la'nati it ko'rsa. Kele bunga to'g'risini aytganda qo'lidan bir ish kelarmi. Rost aytay, meni bir nima qilarmikin shu ko'sa", — deb juda achchig'i kelib: — O' ko'sa. Nima deysan, bizlarda uch miring bormi? — deb bir so'z dedi:

Sen, ko'sa, o'zingni qilma barobar,
O'z oldima men ham yurgan zo'rabor,
O'laman, deb mard qavlidan toyarmi?
Bizlarda uch miring bormi, bachchayar.

Befarzandning ko'rgan kuni zoyama*,
Yo'qchilik jo'martning ko'zin o'yama*,

Bizlarda uch miring bormi, bachchag'ar,
O'laman, deb mard qavlidan toyama*?

Rostin aytsam,men Chambilning yurtidan,
Qo'lingdan kelganin qilgin,ayama,
Tarzima qarasang nodon bolaman,
Qasd qilgan g'animni o'tga solaman,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama.
Chabilbelda yo'lbarslardan bo'laman.

So'rasang, Chambildir o'sgan elatim,
Qayrilib sinmagay mening qanotim,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama.
Chambilbelda yo'lbarslardan avlodim.

Men ham bir bog'chada bog'ning guliman,
Otam ham enamning jon-u dilimam,
Otimni so'rasang, bek Ravshan deydi,
Chambilbelda Hasanxonning uliman.

Men ham Chambilbelda yurgan to'raman,
To'ralik vaqtimda davron suraman,
Ot ustida qila berma dabdaba,
Ayyor ko'sa, javobingni beraman.

Sen ko'sami, sen ko'sami, sen ko'sa,
Ana maydon, bo'l-chi menga teng, ko'sa,
O'laman, deb mard qavlidan toyarmi?
Kuching yetsa, yengib olgin, kel, ko'sa.

Senday ko'sa mening bilan teng emas,
Bir nechalar o'z holini chengamas,
Ot ustida qila berding dabdaba,
Sen aytgan qo'rqog'ing, ko'sa, men emas.
Sen olishsang, yetarmikin majoling,
Zolim ko'sa, yetgan ekan ajaling,
Bizlarda uch miring bormi, bachchag'ar?
Juda menga ko'p bo'ldi-ku janjaling.

Sen ko'sa topibsan qo'rqoq kishingni,
Menga qarab tezlay berma tishingni.

Qo‘rqoq o‘zbak? Sen annoying topibsan.
G‘ingillagin, kesib ketay boshingni,
Qarg‘alarga kemtik qilay go‘shingni,
Topibsan o‘zbakdan qo‘rqoq kishingni,
Bilib qil-da, ayyor ko‘sa, ishingni,
Oqizarman ko‘zda qonli yoshingni.

Sen ko‘saning mendan o‘lging keldimi,
Yo bilmayman kuning oxir bo‘ldimi,
Menga buncha qila berding do‘qingni,
Yo bilmayman shayton vasvas qildimi?

Ko‘sa qaqirlab kulib, dimog‘i chog‘ bo‘lib: "Ana endi mening kayfim chog‘ bo‘lmay, kimning kayfi chog‘ bo‘ladi", – deb, – Ha juvonmarg, haromi, seni ongday topdim, mening kuygan pullarimni sendan undirib olsam kerak. Sening otang Hasanda besh yuz tilla pulim bor, shuni olaman. Juvonmarg, otangning qarzini berib ketgin, – deb ko‘sa Ravshanxon o‘g‘longa bir so‘z deb, pulini qichab turibdi:

Oralasam shahri Shirvon elim bor,
Juvonmarg, o‘zakli jonda o‘lim bor,
Berib ket, juvonmarg, otang qarzini,
Xon Hasanda besh yuz tilla pulim bor.

Eshitib ol menday ko‘sa arzini,
Sarg‘aytarman senday bola tarzini,
Xon Hasanda besh yuz tilla pulim bor,
Berib ket, juvonmarg, otang qarzini.

Podsholar boshiga qo‘yar tojini,
Eldan olar zakotini, bojini,
Xon Hasanda besh yuz tilla pulim bor,
Senga aytay qarz bo‘lganning vajini.
Otang kep bozorga soldi G‘irotni,
Do‘st-dushmanni tomoshaga qaratdi,
El bilmadi uning dushman ekanin,
"Asbi jallob sotar dedik bir otdi.
Men yig‘ladim shu ot uchun zor-zor,
Shu ot uchun ko‘sa bo‘ldi xor-u zor,

Otang kep bozorga soldi G'irotdi,
Shu G'irotga ko'sa bo'ldi xaridor.

Men ko'sa ham gapni gapga uladim,
G'am kelganda g'amgin bo'lib yiladim*,
Shu G'irotga ko'sa bo'ldi xaridor.
G'irko'k otni besh ming tilla tiladim.

Shu otini qizday qilib jaynatdi,
Nechovlarning yuragini qaynatdi
Olib kelib xon Dallining ko'shkida,
G'irotini zolim otang o'ynatdi.
Kelgan ekan xon Dallining qasdiga,
Hiyla bilan xon Dallini opketdi.

Odamlar podshoga ayon ayladi,
Mirg'azab kep men ko'sani boyladi,
Menday ko'sa ko'chada voyvoyladi,
Kuyganidan necha alvon so'yladi,
Olib borib xon Dallining otasi,
Besh yuz tilla meni yorg'i ayladi.
G'irotga xaridor ko'sa bo'laman,
Mavj urib daryoday toshi-to'laman,
Shu pulimni sendan bugun olaman,
Undan so'ng yer bilan yakson qilaman.
Oqizarman ko'zdan selob yoshingni,
Yig'latib ortingda qarindoshingni,
Shu pulimni sendan avval olaman,
Andan so'ng, kesarman tandan boshingni.

Sen bachchag'ar, mening qattiq dushmanim,
Shirvon elidadir davr-u davronim,
Sen juvonmarg, Xumorjonga kelgansan,
Seni o'ldirsam dilda qolmas armonim.

Ravshanbek ko'saning bu so'zlarini eshitib aytdi: — O' ko'sa bobo, meni aylantirma. Mening otam Chambilbelda hali tirik, o'lgani yo'q; puling bormi- yo'qmi, borib o'zidan ola ber, men bilmayman:"Qo'l qo'ni taniydi, shariat yo'lni taniydi" degan ekan, puling bo'lsa otamga bor.

— O' o'zbak, men seni qo'yib Chambilga otangga boramanmi?

Xo‘p qutulasan mendan, sen qutuladigan odamingga yo‘liqqaning yo‘q. Men seni qishloqlarning bolasiga soya chiroq qilib o‘ynatib ham pulimni undirib olayin, sen “e balli” degin, haromi, o‘zbak, o‘g‘ri, – deb Ravshanning bo‘yniga bir chilvirni solib oldi. Taqimga bosib oldi, otini chu, deb bachchag‘ar ko‘sa yura berdi, yosh yigit emasmi, ikki qo‘llab ipni ushlab, ko‘saning orqasidan ergashib,”ko‘sa, qo‘ya ber, ho‘ ko‘sa, qo‘y deyman”, – deb borayotir. Unda ko‘sa: ”Ha bobong qo‘yadi, qo‘yadigan odamingga yo‘liqqaning yo‘q”, – deb otini chu deb, hu deb yura berdi. Shunda Ravshan: ”Ha bobo, ha bobo, qo‘ya ber”, – deb o‘n qadam yerga ergashib bordi, oldidan bir ko‘prikchagina chiqdi, oldi o‘r keldi, Ravshan oyog‘ini yerga tirab bir tortdi. Ko‘sa taqqa tura berdi. Ravshanbek: “Ho‘ ko‘sa, tura ber deyman”, deb bir imtildi, ko‘saning o‘ngiridan ushlay ketdi,yulpib bir tortdi.Ko‘sa otning sag‘risiga ag‘darilib tushdi; yana bir tortdi. Yer qattiq, ko‘sa ih-ih etib tushdi. Ko‘sa bobning belida shopginasi bor edi.Ravshan qo‘lini uzatib ko‘saning shopini sug‘urib olib, o‘z shopi bilan kallasini g‘archa kesib olib, ko‘saning “pulidan”shu yerda jovlik qutulib oldi. Ko‘saning javobini berib qulog‘idan ushlab osmonga qarab otdi. Bachchag‘arning kallasiyay, qurib qolgan quv kalla ekan, qanqillab havoga chiqib ketdi. Patta novvoy degan novvoyning tandirining ustidan borib tushdi. Patta novvoyning ko‘zi tushdi, aqli shoshdi, esidan adashdi. Chopib borib xotiniga:- Ho‘ xotin, ko‘rpa-to‘shakni bo‘g‘ib, orqangga ko‘tar-a ko‘tar, xun tushdi, – deb bechora novvoy uydan chiqib qochdi.

Ravshanbek ko‘saning ishini bir yoqli qilib, ko‘chaning yuzi bilan, qizlarning izi bilan yurib bora berdi. Bir qancha yo‘l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog‘, bir yog‘i chorbog‘, juda katta kalondimog‘, ko‘rganlar farog‘, shunday joyga borib qoldi. Qarasa, ko‘p qizlar, ancha sarvinozlar, beadad kanizlar haykallashib, o‘n bir, besh bir, to‘p-to‘p bo‘lib, bir xili oz, bir xili ko‘p bo‘lib, yuribdi sayilbog‘ qilib.

Ravshanbek bildi, kechagi qizlar shu yerga kelgan ekan. Dimog‘i chog‘ bo‘ldi. Qizlarning ko‘zini olib, astagina emaklab, devorning bir teshigidan boqqa kirdi. Qarasa, bir to‘p qizil gul bor ekan, bo‘yi o‘sgan, ariq yoqasida, odam ko‘rinmas ekan. Ravshanbek astagina pisib borib gulning ichiga yashirindi. Qizlardan, mahrambachchalardan hech qaysining xabari bo‘lmadi, hech kim bilmadi, gulning orasida, bir tup gulning panasida yota berdi. Endi tomoshaning quyug‘idan chiqib qoldi.

Ravshanbek qarasa, bir katta bog‘, chir atrofi choppachog‘, bir

yog'i bog', bir yog'i daraxtzor, katta-katta chinor, barisi katta daraxti soyadir; ichi to'la suv, g'alt urib turibdi hovuzlar, pishib turibdi anor. Olmalar pishgan, to'pillab ostiga tushgan."Ana olma tushdi", deb qizlar yugurishib biri-biri bilan talashgan,qaragan ko'z qamashgan, ichida yuribdi qiz bolalar jaynashgan, juda ham boqqa yarashgan, necha barno suluvlar qora zulfin tarashgan,"anovidan yaxshi bo'pmanmi?" deb oyna olib qarashgan,"undan men suluvman", deb bir-biridan so'rashgan.

Qizlarning qilgan ishiga, o'tirish-turishiga, kaptarday gurullab yurishiga Ravshanxon qarab, erib yotir. Bog'ning har yerida gullar ekilgan, xazon bo'lib ostiga bargi to'kilgan, shosupa ustiga suvlar sepilgan, katta-katta yakka mixlar qator-qator ko'milgan, kichkinasi keliday, kattasi tuyaning beliday. Oq o'rdalar, atlas kimxob, zarbof soyabonlar, har bir katta imorat tomlar, oldi peshayvonlar, ganchlangan, gul kesgan, naqqoshlar naqshlab tashlagan, devorlarni g'ishtlagan, loyini juda ishlagan. Tovus xurramlar qo'yrug'ini chotir qilib, o'z shavqi bilan chir aylanib, mast bo'lib, xiromon-xiromon yuribdi. Bog' ichida jami parranda – uchadigan qushning bari bor. To'tilar dam tortib, maynaga qarab chaq-chaq uchurgan, bulbullar qizil gulning zavqi-shavqida necha alvonda sayrab, g'azalxonlikda turibdi. Musicha, g'urruklar g'urullar, huv tortib, kaptarlar halqa bo'lib, haqqular haq-haq deb, qumrilar do'st tortib, g'azalaylar sayrab, har bir qush o'z ohang-shavqida ohang tuzib, nag'mada turibdi boqqa oroyish berib. Nag'masozlik bir munosib yarashib turibdi. Hech zamonda, shu vaqtda bunday farahmand, xushxayol joy hech yerda aslo yo'q, ko'rganlar farog', ko'rmaganlar dog', har qanday qurumsoq ko'rsa, dimog'i chog'. Ana bog', mana bog', Iramning bog'i buning oldida bedimog'.

Ravshanbek bunday joyni ko'rib, qo'rg'oshinday balqib erib, ko'p qiziq tomoshani bepul ko'rib yotipti. Shosupalarning ustida qizlar, satta sarvinozlar, necha jodu ko'zlar, lablari qirmizlar, shirin-shakar so'zlar, o'n bir bo'lak, besh bir bo'lak, o'n besh bir bo'lak o'ynashib yuribdi. Ana shu bog'da bitta ham erkak yo'q. Qizlar o'ynashib, qizg'aldoqday yashnashib, choyjo'shday qaynashib, yilqi bo'lib kishnashib, bir-birovi bilan tishlashib, katta bog'da mushtlashib, bir xillari birov-birovining bo'yniga qo'lin tashlashib yuribdi. Ravshanbekka tomoshaning bari bir yoq, Zulxumor oyimning jamoli bir yoq bo'lib ko'rib yotipti, moyday bo'lib erib yotipti, o'zi gulning ichiga kirib yotipti, boshqa qizlar ham yaxshi-ku, ulardan jerib yotipti.

Shunda qizlar bobobi bilan, o'z to'rida o'tirib o'ynab, choyni damlab, asbobini g'amlab, Zulxumor oyim qizlarni jamlab, darvozani berkitib, erkaklarni hurkitib, o'z zavqi-shavqida nag'ma qilib, daplarni chalib, qarsakchi qizlar qarsak urib, naychi qizlar nayni chalib, g'ijjak, balabon chalib, karnaychi qiz karnayni qo'yib, necha o'yinchi barnolar qo'l qoqib, o'rtaga tushib o'ynab turibdi. Qizlar bir bazmlar, tapur-tupur o'yinlar qilayotir, qizig'i keyin bo'layotir. Mast bo'lib, hech nima bilan ishi yo'q, qo'rqitadigan kishi yo'q, boshqa narsa bilan xushi yo'q, ko'pining aqli-xushi yo'q. Bazm avj urgan, daryoday bo'lib mavj urgan, necha garov — bas bo'lgan.

Bazm tarqadi. Bazmchilar, nag'machilar nag'masini qo'ydi, o'yinchilar o'yinini qo'ydi, liboslarni kiydi. Qizlarning qorni to'ydi, bir xili uxlagani boshini yastiqqa qo'ydi. Bir xil sho'x, kam uyqi qizlar jo'ra bo'lib, uchov bir, to'rtov bir, oltov bir bo'lib gul termoqqa gulzorlarni oralab, yaxshisidan saralab, bir-birining orqasidan oralab, saralab g'unchasidan saylab, nimchasidan dasta-dasta qilib, qo'llariga olib, bir xilini boshlariga sanchib olamdan xabari yo'q, qaqirlab-qaqirlab kulib, gulga talashib, birovining oldiga birovi chopib o'tib, "gulning yaxshisini men olaman" deb yugurgulashib, to'planishib o'nta qiz Ravshanbekning ustidan kelib qoldi.

Ravshanbek nima qilarini bilmay, "har gap bo'lsa bo'ldi", deb shunday boshini ko'tarib, qizlarga bir qaradi. Ravshanni ko'rgandan, ne balosi keldi, deb qizlarning rangi o'chib, chayladay buzilib, ipday tizilib, munchoqlari uzilib, bir xillari qochdi uloqib. Qizlarning ongi ketib, ikki qulog'i chippa bitib, hisobi yitib, esankirab, bir xili ro'molini yo'qotib, entikib, halloslab, voy-voy solib, qochgan bo'yicha qochib, chuvlab Zulxumorning oldiga bordi. Zulxumor oyim, xulqi-xo'yi muloyim bu qizlarni ko'rib hayron qoldi. Qizlarga qarab: — Nega muncha qo'rqdinglar, bog'da ilon bormikan, sizlarni bir nima quvdimi, nimaga bunday hurkib qochib keldinglar, bog'da nima bor ekan? Borib suv ichinglar, - deb urishdi. Shunda qizlar damini rostlab olib, Zulxumor oyimga qarab, bir so'z deb turi:

Qizlar bilan gulni terib, jon buvim,
Qarab yurdik gulni terib har yoqqa.

Shohlarning oldida bo'lar shotiri,
Yovcha bo'lar yigitlarning botiri.

Yurib edik gullar terib, buvishim,
Bir yigit u yerda pisib yotiri[1].

Barimizni ko'rib yotir bir yigit,
Qalin gulga kirib yotir bir yigit,
Bir odam yotipti bog'ning ichida,
Gullaringdan terib yotir bir yigit.

Bir yigitdir, yigitlarning tozasi,
Yomon ishning doim bordir jazosi,
Bir yigitni ko'rib keldik gulshanda,
Barakalla, yigitlarning mazasi.

Biz ustidan borib qoldik banogoh,
Ming ofarin shuni tuqqan enaga.
Bir ta'rif aylayin, kuygin buvishim,
Tanda jonim shu yigitdan sadaqa.

Yoshligida adabi opti mulladan,
Bir zuvala ortiq kelgan ollodan.
Zulfi zarafshonni ko'rdim, buvishim,
Bir kokili nuqra, biri tilladan.

Bir yosh yigit yetishgandir kamoli,
Kunni xira qilar oyday jamoli.
Yuz ofarin shuni tuqqan enaga,
Yuziga yarashgan kelishgan xoli.

Paydo bo'pti qanday gavhar donadan,
Parvoz qilib uchib[2] manzilxonadan.
Yigitning me'rojin ko'rdik gulshanda,
Unday yigit kam-kam tug'ar enadan.

Bunday xo'shruy bo'pti, haqning farmoni,
Uni ko'rganlarning ketar darmoni.
Bir yigitni ko'rib keldik bog'ingda,
Unga tekkan qizning dim yo'q armoni.

---

[1] Yotiri—yotipti
[2] Uchib—uchibdi

Oyimlar o'tirar haykalin osib,
Bo'ynida mushk isi, anbarlar sasisb.
Unga tekkan qizning dim yo'q armoni,
Shu yigitdir, buvim, sizga munosib.

Zulflari tilladan, zarli kulosi[1]
Topilmaydi shirin jonning hiylasi.
Bilmayman qayerdan kepti bog'ingga,
Qaysi yurtda qanday shohning bolasi.

Ko'zlari kambardir, bodom qovog'i,
Bilagi temirdan, po'lat tirnog'i.
Ko'nglida lekin ko'p qayg'i ham dog'i,
Bu yerlikka o'xshamaydi siyog'i.

Qaysi yurtda qanday shohning chirog'i,
Rangin sarg'aytibdir yo'lning yirog'i.
Husnin ko'rsang, yaxshi odam tarmog'i,
Oralasa shunga lozim chorbog'i.

Quloq solgin menday kaniz so'ziga,
Bunday yigit ko'rinmagan ko'ziga,
U yigitlar arzimaydi iziga,
Shunday yigit loyiq shohning qiziga.

O'ynatib o'tirsang olib tizimga,
Ko'zing to'ysa qarab gulday yuziga.
Hech kim alishmaydi shohlar qiziga,
Jonim qurbon qoshi bilan ko'ziga.

Kokilingning bandin to'ygin, buvishim,
"E" degan so'zingni qo'ygin, buvishim.
Erga tegsang, bunga teygin , buvishim.
Qirg'iy degan qushlar bo'lar qiyoda,
O'limcha yomon ish bormi dunyoda.
Erga tegsang, shunga tekkin, buvishim,
Suluvligi, volloh, sizdan ziyoda.

Dunyoda bearmon o'tayin desang,

[1] Kulosi–kulohi

Bir mardning etagin tutayin desang,
Erga tegsang, shunga tekkin, buvishim.
Olmaday iskalab yotayin desang.
Jon buvishim, boshqani qo'ygin, buvishim.
Erga tegsang, shunga teygin, buvishim.

Zulxumor oyim, xulqi-xo'yi muloyim, kanizlaridan muncha ta'rif, tavsiflarni eshitdi, o'zi ham qizishib u ketdi, bazo'r entikib, joyidan bir qo'zg'alib o'tirdi. Ko'ziga shu vaqt bir xil yigitlar yaxshi ko'rinadigan bo'lib qolib edi. Qizlar bilmasin, deb o'zini bosdi, yuragi hovliqib ketdi, Zulxumor oyim bir entikdi. Qizlarga ko'p otashin bo'la berdi.

— O', uchangdan urgurlar. Nima balo bo'ldi sizlarga? Bir odamni shuncha maqtaysizlarmi, e o'laqolgurlar, nima balo bo'ldi, beti qoralar. Suluvligi mencha bo'ladi-da, mendan ham suluv bo'ldimi? Shoshgan o'jarlar, o'lganlaring yaxshi, — dedi.

Shunda qizlarning yoshginalari, undan boshqalari ham: — Ho' buvishim, bizlar ham ko'rdik-ku, moxov bo'layin, qiyshiq bo'layin, unga ko'nmasang, pes bo'layin, sizdan suluv, — deyishayotir.

Unda Zulxumor oyimga juda yoqib: — Esa, Oqqiz, borib sen ham ko'rib kel-chi. Qo'lingga laganni ol, oldiga bor, qanday odam ekan, nimaga kelgan ekan, qaysi yurtdan bo'lar ekan, bu bog'da nima qilar ekan? Sen aytgin: "Bu boqqa erkak, jin, jondor kelmaydi. Bu podsho qizining bog'i, sen qayoqdan kelding?" — deb so'ra, agar mehmon bo'lsa, bizlarni bilmay kelgan odam chiqar? bizni ko'ribdi, bir la`li tilla yuz ko'rim bersin, bo'lmasa qanday odam ekan, nimaga yurgan ekan? Bor, Oqqizjon, tayinini bilib kel, — deb vazir qizini yubordi.

Oqqiz bilqillab, inqillab, shipqillab joyidan turdi, qo'liga laganni olib, gullarni oralab, moralab, bek Ravshanni qoralab bora berdi.

Oqqiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulxumorga naq[1] qiz. Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rta bo'yli chog' qiz, o'ynagani bog' qiz, uyquchi emas, sy qiz, eri yo'q — o'zi toq qiz, ko'p kalon dimog' qiz, yaxshi tekis bo'z bolani ko'rsa, esi yo'q — ahmoq qiz, qora ko'z, bodom qovoq qiz, sinli-siyoq qiz, o'zi semiz — turigi yog' qiz; o'yinga qulayroq qiz, to'g'ri ishga bo'layroq qiz, o'zi anqov olayroq qiz, tanasi to'sh qo'ygan keng qiz, sag'risi do'ng qiz, urushqoq emas — jo'n qiz, a'zosi bari teng qiz; yaxshilardan so'ng

[1] Haq—naqd.

qiz, et ko'targan go'shtdor qiz; biqini tor, to'shdor qiz, aqli kam, hushdor qiz. Oq yuzin ko'rsang, oyday, hurkak-asov toyday, olg'ir qarchig'ayday qiz; yuvoshligi qo'yday, semiz emasmi, yoysang, eriydi sarig' moyday. Shunday oq qiz edi: siyroqli, kachkil bet, pas burun, kulcha betli, o'rta bo'yli. Qizil chiroyli, keng manglayli, tor biqinli, qobirg'ali, go'shtdor, to'shdor, olchanglagan, boybicha monand, og'ir ko'chgan, qulog'i yuqa, iyagi sergo'sht, qoshi qo'proq, bir-biriga ushlash, ko'zi qisiqnamo qiz edi.

Bir-bir bosib Ravshanning oldiga kelib, saddi-bastiga, baland-pastiga qarab, "xo'p yigit ekan", deb Oqqiz ko'p behuzur bo'ldi. Bunga ham yoqib qoldi. Ko'nglida aytdi: "Buvishim ko'rsin, kimni ko'rsa, yuz ko'rim bersin deydi-da; shu bolalardan ham yuz ko'rim olsa bo'larmi. Bu xirsi dunyo to'qol-da; bo'lmasa shu bolalarni uch kun, to'rt kun mehmon qilsang, shuni er qilsang, boshqani sadqayi sar qilsang, topganingni shunga kiydirsang, oqshom ham, kunduz ham o'zingni suydirsang", - deb Oqqiz ham yaxshi ko'rib qoldi.

Oqqiz kulib, iljayib: – Hormang, yaxshi yigit, qayoqdan bo'lasiz, bu boqqa qayoqdan kelib qoldingiz? – deb savol so'rab, bek Ravshanga bir so'z aytib turibdi:

– Tarzingga qarayman, nodon bolasan,
Qasd qilgan g'animni o'tga solasan,
Yurting qayer, qaysi eldan kelasan,
Zulfi zarafshonim, qaydan bo'lasan?

– Men bilmayman makonimni, yurtimni,
Kimga aytay oy qiz ichki dardimni,
Darbadar yurganda elat nimishlar.
Bilmayman, Oqqizjon, viloyatimni.

– Oyim qizman, zarli ro'mol o'rayman,
Taroq olib qora zulfim tarayman,
Zulfi zarafshonim, qaydan bo'lasan?
Tarzing ko'rib makoningni so'rayman.

–Bu judolik meni qildi sargardon,
Ayriliqdan yurak-bag'rim to'la qon.
Mening dardim qo'g'ay berma, Oqqizjon,
Oshiqda bo'lmay manzil ham makon.

—Rostin aytgin, sen, diyoring qaysidir,
Unib-o'sgan ul shaharing qaysidir,
Vallamatim, azamatim, yosh bachcha,
Qilib yurgan kasb-koring qaysidir?

—Zotim o'zbak, men bilmayman xeshimni,
O'zim nodon, haq o'ngargay ishimni.
Dunyoda kasbim yo'q, ixtiyorim yo'q,
Bir xudo, deb olib chiqqan boshimni.

—Polvon to'ram, sen yashirding siringni,
So'rayman, aytsang-chi, o'sgan yeringni,
Harna darding bo'lsa menga so'ylagin,
Ko'nglingdan olayin zangu kiringni.

—Mening sirim, ixtiyorim menda yo'q,
Bir yerda turmoqqa qaror menda yo'q,
Oshiq ixtiyori ma'shuq qo'lida,
Bu bog'da o'zimdan xabar menga yo'q.

—Bir bog'chada olmamidi, normidi,
Mard yigitga avliyolar yormidi,
Sendan buvim yuz ko'riming tilaydi,
Polvonim, kissangda puling bormidi?

—Quloq solgin turli-mutan namaga,
Yaxshi so'zdan odam bo'lar sadag'a,
Musofirman elatingga, bo'yningdan,
Bir safarga tushib turgin oraga.

—Mehring bilan sen qaragin yuzima,
Ko'nglingni qo'ya qol qora ko'zima,
Bir safarga tushsam tushay o'rtaga,
Kirasiga ne berasan o'zima?

—Sen tila, qatorda beray norimni,
Nor ustiga yuklab beray zarimni,
Bir safarga tushib turgin oraga,
Undan so'ngra olgin har darkoringni.

—Qizlar bilan o'ynagali bog' yaxshi,
Bahorda salqinli sovuq tog' yaxshi,
Necha-necha nasiyangdan kuyganman,
Harna bersang, to'ram, bizga naq yaxshi.

—Mard o'g'lonman, ishim haqdan ko'rayin,
O'lmasam dunyoda davron surayin,
Nasiyadan kuygan bo'lsang, bo'yingdan,
Esa tila, maqsadingni berayin.

—Sening husning mening aqlim oladi,
Suratlaring bir xayolga soladi.
Molu dunyong darkor emas Oqqizga,
O'xshatib bir muchchi olsang bo'ladi.

—Esa, Oqqiz, aytganingni qilayin,
Kuygan qulman, gapni gapga ulayin.
Shu mavridga ko'ndirib kel Xumorni,
Bir muchchi yo'q, to'qqiz muchchi olayin.

—Zolim Xumor yuz ko'rimni o'tarmi,
To'qqiz muchchi hali senda yotarmi,
Polvon to'ram, hech nishonang yo'qmidi,
Esa to'ram, lagan quruq ketarmi?

—Musofir qulingni qilmagin qalloch,
Talabli har bandangning baxtin och,
Mamlakatga bermaydigan niginni
Ravshanbek laganga soldi noiloj.

Ana endi Oqqiz dikillab yuzukni olib, qo'liga solib, laganni qo'liga olib ketdi, Zulxumorning oldiga yetdi. Zulxumor oyim aytdi: — Hu, Oqqiz, mehmonning hech nimasi yo'qmi ekan, laganni quruq olib kelding?

Oqqiz aytdi: — Uning o'zi qursin, bo'zargan ko'zi qursin, "hech nimam yo'q", deb yerga tiklab o'tirsa, men nima deyman, hech narsasi yo'q ekan.

Zulhumor aytdi: — Hech narsa ham bermadimi, ko'p gaplashib o'tirding, bir nishona ham bermadimi?

Unda Oqqiz: Bitta pul yuzugi bor ekan, shuni berdi, —dedi.

Zulxumor oyim: — Qani men ko'rayin, —dedi.

Oqqiz qo'lini ichiga yashirib: —Ha, senga bizlar shunday xizmatkor-da, bizlarga bir pul yuzukni ham ko'zing qiymaydi, shuni ham olib qo'yasan, — dedi.

Zulxumor oyim aytdi: — Hu beti qora, borgan kirangga yuzukni senga berdim; shunchaki, ko'rayik, ne nishonasi bor ekan. Bizning muddaomiz: shu yigit aslzodami, yo bir bekzoda, poshshozodami, xonzodami, xo'jazodami, albatta, bir erda nishonasi bo'ladi. Har kimning o'ziga yarasha belgisi bo'ladi, shuni ko'rib beraman, bo'lmasa yuzuk o'zingniki.

Oqqiz achchig'i kelib, "O'zi pul yuzuk ovorasi", deb qo'lidan chiqarib otib yubordi. Boyagi asl uzuk jingirlab un berib,yumalab borib toproqqa botib turdi. Shunda Zulxumor oyimning o'zi turib borib, yuzukni olib tozalab qarasa, yuzukning xati bor. Zulxumor oyimning ham sharrro-shar savodi bor. Zulxumor yuzukni ko'rsa, olam mamlakatga bermaydigan xosiyati bor, jamiy dev, parini bandiga olgan bandi bor. Har qaerdagi yaxshi, suluv, barno qizlarning oti bor, bir burchida o'zining oti bor ham surati bor. Shunda Oqqizga qarab: — Shunday yuzukni ham odam otarmi, pul yuzuk shumi? O'lganing yaxshi emasmi — deb Oqqizga qarab, Zulxumor oyim bir so'z dedi:

Ayo Oqqiz, daryodan bo'p to'lmading,
Ajalginag yetib, sen bir o'lmading,
"Zarning qadrin zargar bilar" har yerda,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Shundayin niginni odam otarmi,
Shunday nigin tuproqqa ag'nab yotarmi,
Agar bunga baho qo'ysa egasi,
Olaman deganman[1] kuchim yetarmi?
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Oydayin ochilgan mening baxtimdi,
Daftarimda nasiyamdir, naqdimdi,
Agar bersam bunga gavhar taxtimdi,
Oqqiz, bo'lmas bilgin nisfi bahosi
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Endi senga aytay ichki dardimni,

[1] Deganman—degan bilan

Sinmoqchi nomardimni, mardimni,
Agar bersam shunga Shirvon yurtimni,
Shunda ham bo'lmaydi nisfi bahosi,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Oqizsam ko'zimdin qonli yoshimni,
Eshitgin, Oqqizjon, bu nolishimni,
Agar bersam bunga qora boshimni,
Sarf aylasam qavmim bilan xeshimni,
Shunda ham bo'lmaydi nisfi bahosi.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Ko'rmaysanmi bu niginning xati bor,
Dev-parini bandiga olgan bandi bor
Har kim ko'rsa muhabbati bor,
Olamga bergisiz xosiyati bor.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Niginning egasi nomdor ekandi,
Bir shaharga shohi tojdor ekandi,
Har kimni desang, shuncha bor ekandi,
Shu bachcha to'ra e'tibor ekandi,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Bunday nigin bo'lar katta shohlarda,
Yer yuzining ishidan ogohlarda,
Qayoqda bir necha kadxudolarda,
Sira tegmas nigin sendaychalarga,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Qizlar aytdi: "Sendan ziyod kelbati",
Endi bildik, baland ekan davlati,
Xor qilmanglar, bir azizning farzandi,
Biz siyladik shu niginning hurmati,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Nomardga ketmasin bir mardning ori
Kuyganlarning chiqar oh bilan zori,
Bir yurtning to'rasi, elning qo'chqori,
Bizning uchun kelgan bir el nomdori
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Eshitgin, Oqqizjon, yig'laganimni,
Sabil qilay Shirvondayin shahrimni,
Niginning hurmati bag'ishlay tanimni,
Izzat bilan keltir pahlavonimni,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Bog'da bo'lar toza gulning lolasi,
Topilarmi shirin jonning hilasi,
Xor qilmanglar, bir azizning bolasi,
Kelib bo'lsin toju baxtim egasi.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Quloq solgin Zulxumorning so'ziga,
Bir nechalar etolmaydi iziga,
Har yuzukni kim qo'yibdi bizlarga,
Obborib ber omonatin o'ziga.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Kanizlar, boringlar, bekni siylanglar,
Poyandozga yaxshi libos taylanglar[1],
Yaxshi mehmon ekan, xizmat aylanglar,
Kiyintiring, yasantiring, shaylanglar,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Boqqa kepti mening aziz mehmonim,
Unga fido bo'lsin tandagi jonim,
Yurtimning egasi, davlatli xoni,
Shafqati ko'p, muruvvatli sultonim,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading.

Oqqizdan qancha qizlar bilan, necha jodu ko'zlar bilan, shirin-shakar so'zlar bilan, xizmatkor kanizlar bilan niginni berib yubordi. Oqqiz niginni olib, boshqa qizlar palos, gilam ko'tarib, adras, atlas ko'rpachalar, par yostiqlar olib kelib qoldi. Ravshanbekning tevaragini qizlar oib qoldi. Qizlar daryoday bo'lib to'lib qoldi, nechovining ichi kuyib, o'lib qoldi. Qizlar Ravshanni bir yaxshi yerga ergashtirib borib, ko'p qizlar girdini olib, yaxshi paloslar solib, Ravshanbekni o'tqizib, qand ustiga novvot, shira ustiga sharvat, shakar ustidan asal, yong'oq ustidan bodom, pista ustidan

[1] Taylanglar—tashlanglar

rusta, mayiz ustidan oftobi, uning ustidan objo'shi miska mayiz; sho'rva ustiga palov, choy ustiga shirchoy, uning ustiga sarimoy, ziyofat ustiga ziyofat tortayotir, ortganini opketayotir[1], daladagi qizlar yeb ketayotir, ko'rgan qizlar" ha, senimi", deb ketayotir .

Kun kech bo'ldi, oftob botdi, yer yuzi qoqrong'i bo'ldi. Qizlar bek Ravshanni yasatib, o'rdaga olib jo'nadi. Qizlar bari g'arroq mast bo'lib, bir turli sozlarni qo'yib, har usulga nag'ma qilib, har tusli o'yindan o'yinchilar o'ynayotir.

Qizlar taloto'p bo'lib, o'z vaqtidagi rasm-rusmlari, hangama, kulgilari bilan Ravshanbekni Zulxumor oyimning oldiga olib bordi. Katta qizlar o'rtaga olib, "kampir o'ldi", "it hurullar", "soch siypatar", "qo'l ushlatar"larini qilib o'tkardi. Ikkovini tilla taxt ustida tizdan ko'rpa, beldan yostiq qo'yib, qizlar chiqib ketdi.

Ravshanbek Zulxumor oyim bilan ikkovginasi bir ovloq uyda o'tirib qoldi. Shunda Zulxumor oyim to'rasining saddi-bastiga baland-pastiga qarasa, Ravshanxon so'ylaydi avlon-avlon, yag'rini yoziq polvon, yuzlari olmaday pishgan, zarkokil irg'olib gardaniga tushgan, ko'rganning aqli shoshgan, suluvligi haddidan oshgan, kiygan to'ni, o'tirish-turishi juda ham yarashgan. Ikki yog'ida ikki to'p kokili bor, el-yurtdan ziyod aqli bor, bir yog'ini nuqra suviga botirgan, bir yog'ini tilla suviga botirgan, tong shamoliga qotirgan; Yunus pari bilan Misqol pari o'rgan, kuniga o'n uch-o'n to'rt ko'rgan, bir yeri zehniga yoqmasa, buzib qaytadan o'rgan.

Zulxumor ichida aytdi: "Bu to'ram har qanday odam bo'lsa, bu tilla kokil nima o'laydi. O'lay-bulay odamda tilla kokil, bu yuzuk tushib qolibdimi? Bu bir asl- tegdor, xonzodami", – deb joyidan turib, qo'l qovushtirib, qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo'lib, qaqqayib turib, bir so'z aytadi:

Kelbating, savlating lochin qarchig'ay,
Shohlar chiqsa, tortiladi nuqra nay.
Yaxshi kelding, to'ram, toza kelibsan,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

Endi siznikidir davru davronim,
Ko'rgandan emrandi tandagi jonim,
Oyog'ing ostida taxti ravonim,
Xudo bergan menga aziz mehmonim,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

[1] Opketayotir–olib ketayotibdi.

Sizga bo'lsin tanimdagi bu jonim,
Siz erursiz mening orzu-armonim,
Men kanizing bo'lsam, ayo sultonim,
Meni izlab kelgan aziz mehmonim,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

Ega bo'p so'ragin Shirvon ellarni,
Qush solib ovlagin oydin qo'llarni,
Ko'ngil ketsa, quching xipcha bellarni,
Sayron qilgin tar ochilgan gullarni,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Qarab bo'lmas chin botirning bastiga,
Qo'ygan qadamlaring diydam ustiga,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

Men sizga munosib ko'rdim o'zimni,
Eshitgin, mard to'ram, aytgan so'zimni,
Xizmatkor qilgaysan ko'p kanizimni,
Telmurtma, mard to'ram, shahlo ko'zimni,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

Endi to'ram, senikidir bu joylar,
Tilladan naqqoshli oltin saroylar,
Xizmatingda yuzi bir to'lgan oylar,
Rang-barang taomlar, turli saroylar,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.
Oling iching bir piyola berdim choy,
Mehri bilan kosa berdi Xumoroy.

Ravshanbek Zulxumor oyimning qo'lidan choyini olmadi. Ravshanbek Zulxumor yorining oldida aytdi: – Sening uchun Chambilday diyorimni, otam – Hasan mardday ajdahorimni, enam – xon Dalliday g'amguzorimni tashlab, elimdan, yurtimdan chiqib musofir, g'arib bo'lib, tanimagan kishining yurtiga shuncha alamlar, sitamlar, ranju mehnatlar tortib keldim, ana seni topdim, murod-maqsadimga yetdim. Lekin sening otang – Qoraxon zolim bir podsho; sen otang bilan bo'lib, menga vafo qilmaysan, – deb qo'rqaman. Unda Zulxumor oyim bir so'z dedi:

Agar suysang, qo'yningdagi yoringman,
Sening uchun doim intizoringman,
Har so'zingdan tanda jonim aylansin,
Mening uchun xafa bo'lma, bo'yingdan.

Men gulingman, bulbulimsan, to'rajon,
Sen mening jonu dilimsan, to'rajon,
Yorim bevafo, deb xafa bo'lmagin,
Xohlab tekkan ko'nglimsan, to'rajon.

Qiyomatli hamrohimsan, to'ramjon,
Xohlab olgan dilxohimsan, to'ramjon,
Tanda jonim jasadingdan aylansin,
Tan mulkida podshoyimsan, to'ramjon.

Ko'zimning yorug'i, tanim rohati,
Jonimning huzuri, belim quvvati,
Vallamatim, saltanatli polvonim,
Zulxumorning sening bilan davlati.

Er dedim, etaging tutdim men endi,
Boshqaning bahridan o'tdim men endi,
Sen na yo'lda bo'lsang, ketdim men endi,
Sening bilan vatan etdim men endi.

Sensan mening endi orzu armonim,
Sening bilan o'tsin davru davronim,
Meni deb kelgan aziz mehmonim,
Zulxumor haqiqatli yoring, polvonim.

Men yoringman, sensan umrimning guli,
Sening bilan bo'lsin umrim hosili.
Zulxumorning sensan ham joni, dili,
Doim senda sevar yorning ko'ngili.
Senga yarashsin-da gulzor manzili,
Mening gulzorimda sayrar bulbuli,
Sizning, jon to'ram, Shirvonning eli,
Dabdala bo'lmasin mardning ko'ngili.

Ravshanbek Zulxumor yoridan bu so'zlarni eshitib, gul-gul yonib, quvonib, yorini suyib, ana-mana degancha o'n besh,

yigirma muchchini olib, Zulxumor oyning dimog'i chog' bo'lib, to'rasini o'ziga ishtiyoq qilib bir so'z dedi:

Ana, sen so'rasang, Shirvon seniki,
Mulku davlat, alvon-alvon seniki,
Zulxumorday chaman, bo'ston seniki,
So'ra ko'rgin, yorim, davron seniki.

Bahra olgin, to'ram, shirin so'zimdan,
Oshiq bo'lsang, qolma mening izimdan,
To'lganligi ravshan oyday yuzimdan,
O'pa ko'rgin, yorim, davron seniki.
Xina qo'ygan nozik qo'ldan ushlagin,
Suyib-suyib oq betimdan tishlagin,
Menday suluv bilan vaqting xushlagin,
O'ynasha ko'r, yorim, davron seniki.

Bog'bon bo'lib uzgin toza gulimdan,
Oshiqning parvoyi bo'lmas o'limdan,
Qo'rqma, yorim, mening Shirvon elimdan,
Sura ko'rgin, yorim, davron seniki.

Mening gulzorimni sayron aylading,
Gulzorimda bulbul bo'lib so'ylading,
Mening tushim sening doim yayloving,
Yaylov ko'rgin, yorim, davron seniki.

— E to'ram, siz hali "Zulxumorga oshiqman, meni kuydirdi, yondirdi" deb yurgansiz: hali siz bilmaysiz; Zulxumor sizga oshiq, sizning undan xabaringiz yo'q-da. Bo'lmasa, men boya qizlar — kanizlarga buyurib, urishib, quvlatib yuborganda nima qilar edingiz? Siz ham urishib-urishib ketar edingiz-da. Men sizga, sizdan oshiqroq uchun qizlarni yuborib olib kelib, silab-siypab, yangi yuvoshib oldim; siz hali ham hurkib turibsiz. "Oshiq degan ilgaridan bir qo'hna qo'shiq". Hali siz yosh bola, oshiqlikni nima bilasiz. Oshiqlikning ma'nosini Zulxumordan so'rang, sizni men uyg'otib qo'yayin. Hali siz oshiq bo'ldingizmi, biz ma`shuq bo'ldikmi? Ana endi, to'ram, biz sizniki bo'ldik, siz bizniki bo'ldingiz, - dedi.

Necha kun o'tdi. Ravshanbek Zulxumor bilan bo'lib ketdi. Anov qizga "men o'rtaga tushsam nima berasan" deganda, to'qqiz muchchi

va'da bo'lib edi. Oqqiz shu to'qqiz muchchini bugun olar, bugun olar, deb olti kun o'tdi. Oqqiz qaradi, Ravshanbek Zulxumorning shavqiga g'arq bo'libdi, Oqqizdan dim so'ramasa ham ajab emas, juda beparvo, Oqqizga qaramay ketib boradi. Oqqizga turib-turib bu ish o'tdi, achchig'i kelib turib ketdi. Uyiga etdi.

Oqqizning enasi bor edi, Shirvon eli mastonlarining ustodi edi, barisidan baland edi. Oqqiz to'g'ri borib enasiga voqeani bir-bir aytib berdi.

Oqqizning enasining qahri kelib, ilonday zahri kelib, bir katta oq eshagi bor edi, opkep to'qimlab, eshakni teskari minib, Qoraxon podshoning oldiga qarab bora berdi. Qoraxon podsho davlati bilan o'tirib edi, katta maston Qoraxon podshoga qarab bir so'z deb turibdi:

So'rasang shaharing, elingdir Shirvon,
Shirvonning elida davr ila davron,
So'zima quloq sol, bayon aylayin,
Katta maston arzga keldi Qoraxon...

Shirvonga vallamat deydi o'zingni,
O'zing o'lmay dushman bosib[1] izingni;
Hammaga adolat qilding, Qoraxon,
Tergamading buzuq, battol qizingni.

Qizing turkman eldan birov topibdi,
Qizing ko'ngli shu turkmanga og'ibdi,
Tergamading, shohim, battol qizingni,
O'ylagin, Shirvonga balo yog'ibdi.

Arkoni davlating bari qoshingga,
Qo'l quvshirib[2] turur tegra-toshingga,
Yovmitning elidan birov kelibdi,
Battol qizing, xonim, yetar boshingga.

[1] Bosib—bosibdi
[2] Quvshirib—qovushtirib

XALQ OG'ZAKI DRAMASI

Og'zaki dramalar

Polvon Kachal

Birinchi parda

Q o' g' i r ch o q l a r chiqmasdan ilgari chodir yonida turgan korfarmon qo'lidagi chirmandani chalib ushbu baytni o'qiydi:

K o r f a r m o n.

Endi na qilay, g'amg'uzorim yo'qdur,
Ko'nglim tilagandakgina yorim yo'qdur.
Ko'nglim tilagandakgina yorim bo'lsa,
Egam qoshida o'zga murodim yo'qdur.

(Baytni o'qib bo'lgandan keyin)

Balli, balli, buromad, buromad.

Polvon Kachal nima deydi, biz nima deymiz.

P o l v o n K a ch a l (o'zining Bichaxonim oyim degan xotini bilan chodirdan chiqadi. Polvon Kachal o'qib)

Omadam, ey omadam.
Mo'rcha miyon, omadam.

B i ch a x o n i m o y i m birdan chodirning ichiga qochib ketadi.

P o l v o n K a ch a l (xotini qochib ketgandan keyin qattiq ovozi bilan) «Voy-voy». (Yig'laydi).

K o r f a r m o n. Senga nima bo'ldi?

P o l v o n K a ch a l. Hech gapdan xabaring yo'qmi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

P o l v o n K a ch a l. Sho'tta o'ynab turuvdim, bir abrukamon, mo'rcha miyon, oyog'ida qo'qoncha kovush bor-o'taverdi, oshiqi beqaror bo'ldim man.

K o r f a r m o n. Shuni topib bersam nima berasan?

P o l v o n K a ch a l. Boshginamdagi telpagimni beraman.

K o r f a r m o n. Yo'q.

P o l v o n K a ch a l To'y egasi badavlat bo'lsun, to'qqiz to'y ko'rsun, to'y ustiga to'y bo'lsun. Bir semiz qo'y, bir adras to'n, to'qqiz tanga pul, boshingga... to'ppi. Shul eytgan narsalarni sanga oberaman.

K o r f a r m o n. Xop bo'ladi, o'rtada yotqin.

P o l v o n K a ch a l. Bu yog'da yotaymi? (Chetga yotar).

K o r f a r m o n. Yo'q.

P o l v o n K a ch a l. Mana bu yog'da yotaymi. (Bo'lak bir chetga yotar).

K o r f a r m o n. Bichaxonim xon?

B i ch a x o n i m. – Ha

K o r f a r m o n. Bu yoqqa chiqing.

B i ch a x o n i m. Ishginam bor.

K o r f a r m o n. Nima ishingiz bor?

B i ch a x o n i m. Qashoda - qushoda do'ppi bilan ro'mol tikvotman.

K o r f a r m o n. Nima bilan tikvotsan?

B i ch a x o n i m. Omoch, bo'yintiriq, kelsava, juvoldiz bilan tikvotman.

K o r f a r m o n. San omoch bilan yer haydaysammu, kelsava bilan o'g'ur tuyasammu?

B i ch a x o n i m. Chevarman.

K o r f a r m o n. Juvoldiz bilan qop og'zini tikasammu?

B i ch a x o n i m. Hunarmandman.

K o r f a r m o n. Bo'masa siz buyaqqa chiqing, bir yosh, chiroyli yigit sizni xotinlikka olmoq uchun kelibdi.

B i ch a x o n i m. Kishilar ko'pmu?

K o r f a r m o n. Betdagilar amakiz, tog'ayiz, qarindoshlariz.

B i ch a x o n i m. Voy o'lay, voy o'lay (yuzini bekitib, o'shal joyda turgan odamlarni ko'rsatib.) O'shal yigitmi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

B i ch a x o n i m. Anu bu yog'dagi yigitmikin? (Yonidagisini ko'rsatadi.)

K o r f a r m o n. Yo'q.

B i ch a x o n i m. Bo'lmasa qaysi kishi?

K o r f a r m o n. Ana o'rtada yotkan kishi.

B i ch a x o n i m. Bo'lmasa xudoyimga shukur, xudoyimga shukur. (Polvon Kachalning boshini silaydi.) Endi uyg'otib bering.

K o r f a r m o n. Oshiqni ma'shuq o'zi uyg'otvoladi.

B i ch a x o n i m. Nima deb uyg'otvolaman?

K o r f a r m o n. Dadasi, tura qol, sho'rva sovib qoldi, desang turadi.

B i ch a x o n i m. Hay, dadasi, tura qol, sho'rva sovib qoldi.

P o l v o n K a ch a l. (Turgandan keyin). "Voy, voy, voy" (ko'zini uqalab, yana yotib qoladi).

B i ch a x o n i m. Dadasi, tura qol, sho'rva sovib qoldi (yana turg'azib qo'yadi).

P o l v o n K a ch a l. Voy, voy, voy. (Turib ko'zini uqalab, yana yotib qoladi).

B i ch a x o n i m. Har qancha uyg'otsam turmaydi-ku. O'ziz uyg'otib bering uni.

K o r f a r m o n. Uyg'otib bersam, nima berasan?

B i ch a x o n i m. Bir chiroyli do'ppi tikib beraman.

K o r f a r m o n. Bo'lmasa san bir chetda tur.

B i ch a x o n i m. Xo'p. (Bir chetda turadi).

K o r f a r m o n. (Baland ovozi bilan.) O, Polvon Kachal.

P o l v o n K a ch a l. Hi...

K o r f a r m o n. Tur, xotining kelib qoldi, vahliroq tur.

P o l v o n K a ch a l. (Turib, ko'zini uqalab, u yog'ni-bu yog'ni qidirib ko'radi). Topdim. (Chetda turgan Bichaxonim oldiga chopib borib.) O, ko'zingdan akang (o'padi).

K o r f a r m o n. Hay, hay. Polvon Kachal, nima qivotsan?

P o l v o n K a ch a l. O'zimning xotinim-ku.

K o r f a r m o n. Necha puling ketdi?

P o l v o n K a ch a l. Uch pulim ketti.

K o r f a r m o n. Bo'lmasa toza qaravol.

P o l v o n K a ch a l. (U yog'ini-bu yog'ini qarab, aynab qolib). Bor-ey.

K o r f a r m o n. Nima «Bor-ey» dvotsan?

P o l v o n K a ch a l. Bor, bu xotiningni omayman?

K o r f a r m o n. Nimaga san omaysan, qatidan aynading?

P o l v o n K a ch a l. Og'zi egri, bir ko'zi ko'r, burni puchuq, bor, omayman.

K o r f a r m o n. Xo'p, xo'p. Bichaxonim, sizga narx urdi.

B i ch ax o n i m. Nima deb eytdi?

K o r f a r m o n. Og'zi egri, bir ko'zi ko'r, burni puchuq, bor, olmayman, - dedi.

B i ch ax o n i m bu so'zni eshitgandan keyin astoyidil jahli chiqdi.

P o l v o n K a ch a l (Jahli chiqib). Astag'furullo, astag'furullo. (O'zini-o'zi tomog'idan bo'g'adi, o'rnidan turib xotiniga tashlanadi. Xotinga yugurib borib, quchoqlab olib chodirga ko'tarib uradi.)

Ikkinchi parda

M a y m u n ch i (Ernazar qo'lidagi kaltak bilan chiqadi). Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom. Sizning kelishingiz qayoqdan?

M a y m u n ch i. Changali Mozondorondan.

K o r f a r m o n. E, Changali Mozondorondan kelgan bo'sang, manga nima sovg'a obkelding?

M a y m u n ch i. Shodi maymun obkeldim.

K o r f a r m o n. Maymuning ustami, xodaga chiqishni biladimi, kampir kulishini biladimi, qizlar kulishini biladimi. Juvon kulishini biladimi?

M a y m u n ch i. Ha, ha, biladi.

K o r f a r m o n. Bo'lmasa bir o'ynatib bering.

M a y m u n ch i. Xo'p. (Chodirning ichidan maymunni obchiqadi.)

K o r f a r m o n (bayt o'qib).

Xamir qilo, patir qil,
Larzon gul.
Xamir qilo, patir qil,
Larzon gul.

(Maymunchi maymunni o'ynatadi.)

K o r f a r m o n. Usta ekan, o'n ikki yashar qizning kulishini qibersin.

M a y m u n ch i. Xo'p. (Maymunning ustini silab-silab.) Jonivor, jonivor, o'n ikki yashar qizning kulishini qibergil...

M a y m u n (baland ovoz bilan kuladi). «Ha , ha, ha-ho».

K o r f a r m o n. Maymuning juda usta ekan. O'ttizga kirgan juvonlarning kulishini qibersin.

M a y m u n ch i. Xo'p. Jonivor, jonivor. (Maymunga buyuradi).

M a y m u n. (O'rta ovoz bilan kuladi). «Ho-ho-ho».

K o r f a r m o n. Juda usta ekan. Endi saksonga kirgan kampirning kulishini qibersin.

M a y m u n ch i. Xo'p. Jonivor, jonivor. (Orqasiga kaltak bilan bir uradi.) Buyurdi-qil, yuzga kirgan qari kampirninng kulishini qibergin.

M a y m u n. Ho, ho, ho...

Maymunchi maymunini quchoqlab olib chodir ichiga qochadi.

Uchinchi parda

Tergovchi chiqadi, har tarafga qarab turadi.

K o r f a r m o n. Hoy, san bo'lasan?

T e r g o v ch i eshitmaydi.

K o r f a r m o n. (Baland ovoz bilan). Hoy, san kim bo'lasan? Tergovchi eshitmaydi.

K o r f a r m o n. (Tergovchining tomog'idan bo'g'adi). Hoy, san kimsan?

T e r g o v ch i. Qattiqroq gapirsang, qulog'ing karmi?

K o r f a r m o n. Mundan ortiq qandoq qichqiraman?

T e r g o v ch i. Taraq-turuq, taraqa-turuq, nima taraq-turuq?

K o r f a r m o n. Betta to'yxona, murodxona.

T e r g o v ch i. Bo'lmasa betta taraqa-turuq, taraqa-turuq qilib chirmanda chalmagil.

K o r f a r m o n. Nimaga chalmayman?

T e r g o v ch i. Chalsang ishtarap. Oftobda o'turma, soyada o'turma, yotma, turma, yemagil, ichmagil, ishtarap.

K o r f a r m o n. Oftobda turmasamiz, soyada turmasamiz, yotmasamiz, turmasamiz, emasamiz, ichmasamiz, nima qilamiz.

T e r g o v ch i. Ishtarap.

K o r f a r m o n. Yasovul.

Y a s o v u l. Labbay.

K o r f a r m o n. Oftobda turmasamiz, soyada turmasamiz, yotmasamiz, turmasamiz, yemasamiz, ichmasamiz, nima qilamiz. Tergovchidan so'rab ber.

Y a s o v u l. Oftobda yoturmasalar, soyada turmasalar, yotmasalar, turmasalar, emasalar, ichmasalar, nima qilsun bular?

T e r g o-v ch i. Voy, voy, yuragim og'rib turibdi.

Y a s o v u l. Man so'rasam tergovchining yuragi og'rib turibdi.

K o r f a r m o n. San bekinib tur. (Yasovul chodirga bekingandan keyin.) Hoy, tergovchi, tur, yasovul ketti.

T e r g o v ch i (yotgan joyida u yoqqa-bu yoqqa qaraydi. Y a s o v u lning yo'qligini ko'rib o'rnidan lik etib turadi). Mani yuragim og'rib turibdi, endi san taraqa-turuq qilmagin.

Y a s o v u l (bekinib turgan joyidan birdan bosib chiqib). San shuncha ishtarap qilasanmu bularni?

T e r g o v ch i. Vallo-billo man ishtarap qilganim yo'q.

Y a s o v u l. Man ishtarap qilaman, demadingmi?

T e r g o v ch i. Yo‘q.

K o r f a r m o n. Hali etmadingmu?

T e r g o v ch i. Etganim yo‘q.

Yasovul yugurib borib tergovchinining tomog‘idan bo‘g‘voladi.

Tergovchi Yasovulni bir kalla qiladi. Yasovul ham tergovchini kalla qiladi va tergovchini ko‘tarib chodirning ichiga olib qochadi.

To‘rtinchi parda

T o s b o z (chiqadi). Assalomu alaykum!

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom! O‘rtoq, siz kim bo‘lasiz?

T o s b o z. Namangandan kelgan tosboz bo‘laman.

K o r f a r m o n. Nima deb keldingiz?

T o s b o z. To‘yxona, murodxonaga o‘ynagani, kulgani keldim.

K o r f a r m o n. Ikkitagina yumasa o‘ynab bergil.

T o s b o z. Bizga odamlarning oldiga solingan dasturxondan to‘kilgan oshlarni, suyaklarni berasizmi?

K o r f a r m o n. Jonimiz bilan yig‘ib beramiz, ikkitagina yumasa o‘ynab bering.

T o s b o z o‘yinga turadi. Y a s v u l birdan chiqib hiqildog‘idan bo‘g‘volib, chodir ichiga qamab chiqadi.

K o r f a r m o n. San bu tosbozni qayoqqa obording?

Y a s o v u l. Oborib Piyon bozoriga qamab qo‘ydim.

K o r f a r m o n. Shundan boshqa ish qilganing yo‘qmi?

Y a s o v u l. Ishtarap qildim.

K o r f a r m o n. Qancha ishtarap qilding?

Y a s o v u l. To‘qquz pul.

K o r f a r m o n. O‘yinchimizni qochirvording, yo‘q qilding, endi bizga nima o‘yin ko‘rsatasiz?

Y a s o v u l. Anjondan, Qashqardan ikki chiroyli qiz hozir keladi.

K o r f a r m o n. Qani bo‘lmasa bu oyimlar chiqsunlar. (Qo‘lidagi chirmandani chalib, bayt o‘qiydi.)

Yalo kechani shab’i shabiston etgay,
Bir lahzada olamni go‘riston etgay.
Bir mushkul ishim tushipti, ey bor xudoyo,
San barcha mashkulimni oson etkay.

Ikkita q i z chiqib ashula aytib o'ynaydi.

Muncha labi xandonimsan,
San mani shirin jonimsan.
Muncha labi xandonimsan,
San mani shirin jonimsan.
Muncha labi xandonimsan,
San mani shirin jonimsan.

K o r f a r m o n (chirmandani chalib bayt aytadi)

Man sani ko'rmabmidim,
Ganji ravon ko'chasida.
O'n(g) qo'lin(g)da dasta gul,
Ul hazratim o'rdasida.
Man sani yalla qilay,
Ham ko'tarib katta qilay.
Engagingning tagida,
Bir katta xol paydo qilay.

Q i z l a r qulluq qilib chodirga qochadilar.

Sarkardalar

Parda ko'tarilgandan so'ng K o r f a r m o n bir chirmandani qo'liga olib, o'ynab turib ushbu g'azalni o'qiydi.

K o r f a r m o n.

Yalo kechani shab'i shabiston etgay,
Bir lahzada olamni go'riston etgay.
Bir mushkul ishim tushipti, ey bor xudoyo,
San barcha mashkulimni oson etkay.

Qani, Yasovul, Yasovul, buromadi-buromadi, nima gaplar.

Y a s o v u l (ovozi ichkaridan eshitiladi). Barakallo. (Undan keyin Yasovul tashqariga ashula aytib chiqib keladi.)

Omadam, ey, omadam,
Mo'rcha miyon omadam.

Y a s o v u l (Korparmonga salom qiladi). Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom.

Y a s o v u l. Shu topda olamdan xabaring bormi?

K o r f a r m o n. Yo'q, olamda nima gap?

Y a s o v u l. Hozir shu joyga sarkardalar keladi, podshohlar keladi, katta-kattalar keladi. Dev ustal olib chiqmadimi? Parrosh betga chiqib, joylarni tozalamadimi?

K o r f a r m o n. Yo'q

Y a s o v u l. Men hozir dev bilan parroshni chiqazaman,

hammani chista-chista qildiraman, undan so'ng podshohlar, gubernatorlar, kattalar keladi. (Yasovul ketadi.)

D e v (bir stolni ko'tarib ashula aytib chiqadi).

Omadam, ey omadam,
Kovsar dev, ey omadam.
Chaqqon-chaqqon opchiqib,
Ustalni joyiga qo'yib, ey omadam.
Ustalni qatga qo'yaman.

K o r f a r m o n. Qator-qator radlab qo'ying.

D e v. (Qatorga oborib qo'yadi, uchta stolni olib chiqadi, qatorga qo'yadi, yana bir stolni ko'targanda yiqiladi). Charchadim, endi ustalni turg'izib qo'ying.

K o r f a r m o n. O'zing tur, ikkita ustalni olib chiqib dev ham charchab qoladimi? Tur o'rningdan ertaroq.

D e v. Yo bahovoddin, yo bahovoddin! (O'rnidan turadi. Undan keyin stolni ko'tarib qatorga qo'yadi. Yana bir stolni ko'tarib opchiqqandan keyin). Bunisini qatga qo'yay.

K o r f a r m o n. Ko'r bo'ldingmi? Qo'yvotgan joyga, radiga qo'y.

D e v. Mana betka qo'yaman. (Bo'lak stolning ustiga qo'yadi.)

K o r f a r m o n. Betga qo'yma, radga qo'y.

D e v. ...obor ustalingni, man sani xizmatkoringmanmi. (Stolni otvoradi).

K o r f a r m o n n i n g o'zi qatorga qo'yadi.

D e v. (stolga o'tirib). Charchadim.

K o r f a r m o n. Bu taxt podshohning taxti, chush!

D e v. Chushmayman, o'zingdan o'zing nima dvotsan? Chushmayman. charchadim.

K o r f a r m o n. Tush ustaldan.

D e v. O'tiramanoy, o'tiraman.

K o r f a r m o n. Chush deyman. Qo'rqmaysanmi hich kimdan? Yasovuldan ham qo'rqmaysanmi?

D e v. O'tiramanoy, o'tiraman.

K o r f a r m o n. Yasovul.

Y a s o v u l. Labbay!

K o r f a r m o n. Mana bu dev podshohning taxtiga o'tirvolib, chushmaydi. Sandan ham qo'rqmaydi.

Y a s o v u l. Chush-e, haromi, betta o'tirma!

D e v. Nima dvotsan o'zingdan o'zing!

Y a s o v u l. Buyaqqa chush, deyman!

D e v. Nima diysan, chushmayman, o'tiramanoy, o'tiraman

Y a s o v u l. Chush buyaqqa!

D e v. Nima deysan (Ikkalasi urishadi, dev yiqiladi).

Y a s o v u l. O'l, o'lib qopti. (Yig'laydi.) Voy, oto, voy oto.

Yasovul devni ko'tarvolib ketadi va yana qaytib keladi.

K o r f a r m o n. Nima qilding, haligi devni?

Y a s o v u l. Devni qamab qo'ydim, ishtarap qildim.

K o r f a r m o n. Necha pul ishtarap qilding?

Y a s o v u l. To'qqiz pul ishtarap qildim.

K o r f a r m o n. Obbo bachchag'ar-ey, katta himmat qibsan. To'qqiz pul ishtarap qibsan. Parroshni chiqargil, betlarni shupursin, tozalab qo'ysun.

P a r r o sh. Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom. Qayda yuruvding?

P a r r o sh. Uyag'da yuruvdim.

K o r f a r m o n. Darrov shupurgin (o'qiydi).

Parrosh omad, parrosh-ey,
Shupur, shupur, parrosh-ey.

P a r r o sh. (Hamma yog'ni shipirib). Endi shupurib bo'ldim, charchadim, (taxtga chiqadi) pichagina uyqum kevotti.

K o r f a r m o n. Uxlasang, uyga borib yot, betka podshohlar keladi, katta-kattalar keladi, betga yotma, uyga borib yot.

P a r r o sh. Nima dvotsan manga, man sho'tta uxlayman ("xurr-xurr" qilib podshohning taxtida uxlaydi).

K o r f a r m o n. Yasovul, manga qara.

Y a s o v u l. Labbay.

K o r f a r m o n. O, manga qara, beri kel.

Y a s o v u l. Nima gap?

K o r f a r m o n. Parrosh taxtdan chushmaydi, yotadi, ket disam ketmaydi.

Y a s o v u l. Chush, o'g'ri! Nima qilasan, betta yotma, kettalar keladi, podshohlar keladi.

P a r r o sh pisand qilmasdan «xurr-xurr» qilib xurrak otadi.

Y a s o v u l. Bu joyda qattig' uxlavotti o'g'ri. Man qattu gapirsam uyg'otaman. Tur, o'g'ri, tur!

P a r r o sh (o'rnidan turib). Yo pirim, mani nimaga uyg'atting, man charchaganman, orom ovotudim.

Y a s o v u l. Betka katta-kattalar keladi, tur, iflos. (Uni haydaydi. K o r f a r m o n g a qarab.) Taxt qildingmi, hammani shupurib, suv sepib tayyor qildingmi?

K o r f a r m o n. Taxt bo'ldi.

Y a s o v u l. Xabardor bo'l, kattalar hozir kevotti.

K o r f a r m o n (chirmandani o'ynab o'qiydi).

Tara-lay-lay,
Tara-lay-lay,
Tara-rara-lay.

1- s a r k a r d a. Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom. Qaerliksan?

1-s a r k a r d a. Mani tanimadingmi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

1-s a r k a r d a. Man Marg'ilonning qo'rboshisiman.

K o r f a r m o n. Yaxshi, joy topib o'tirvol.

2-s a r k a r d a. Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalayku assalom. Kimsan qayerdan kelding?

2-s a r k a r d a. Mani tanimadingmi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

2-s a r k a r d a. Man Samarqand apisari bo'laman.

K o r f a r m o n. A, kel, apisar bo'lsang, joyingga o'tir! (o'qiydi.)

Tara-lay-lay,
Tara-lay-lay,
Tara-rara-lay.

3-s a r k a r d a. Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom. Kimsan, qayerdan kelding?

2 — s a r k a r d a. Mani tanimadingmi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

2-s a r k a r d a. Men Samarqand apisari bo'laman.

K o r f a r m o n. A, kel, apisar bo'lsang, joyingga o'tir! (o'qiydi.)

Tara-lay-lay,
Tara lay-lay,
Tara-rara, lay.

3-s a r k a r d a. Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom.

3- s a r k a r d a . Mani tanimadingmi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

3- s a r k a r d a . O, man Urganch podshosiman.

K o r f a r m o n. Yasovul.

Y a s o v u l. Labbay.

K o r f a r m o n. Shul podshohni joyiga o'tqazib qo'y.

Yasovul podshohni joyiga o'tqazadi.

4- s a r k a r d a . Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom. O, kimsan? Qayerdan kelding?

4- s a r k a r d a . Mani tanidingmi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

4- s a r k a r d a . Man Marg'ilon qozisi bo'laman.

K o r f a r m o n. Ha,ha joyingni topib o'tir.

5- s a r k a r d a . Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalo. A, qayerdan kelding?

5- s a r k a r d a . Maniki Xo'janddan.

K o r f a r m o n. San kim bo'lasan?

5- s a r k a r d a . Mani tanimadingmi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

5- s a r k a r d a . Madaminbekman.

K o r f a r m o n. O'ti joyingga.

6- s a r k a r d a . Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom. Qayerdan kelding?

6- s a r k a r d a . Maniki Farg'onada.

K o r f a r m o n. San kim?

6- s a r k a r d a . Man Abdurahmon xonman.

K o r f a r m o n. Yasovul.

Y a s o v u l. Labbay.

K o r f a r m o n. Mana bu abdurahmon xonni yaxshi joygà o'tqazib qo'y.

Yasovul. Abdurahmon xonni o'tqizib, o'zi chetroq turadi.

7- s a r k a r d a . Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom. Qayerdan kelding?

7- s a r k a r d a . Maniki Qashqardan.

K o r f a r m o n. San kimsan?

7- s a r k a r d a . Mani tanimadingmi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

7- s a r k a r d a . Man xitoy konsuli bo'laman.

K o r f a r m o n. A, bale, o'tir joyingga.

8- s a r k a r d a . Assalomu alaykum.

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom. San qayerdan kelding?

8- s a r k a r d a . Urgutdan.

K o r f a r m o n. Urgutdan o'zing keldingmi, yo etti mingta kishimnan?

8- s a r k a r d a . Yetti mingta kishi mnan keldim.

K o r f a r m o n. Yetti mingta mnan kelgan bo'lsang, san kimsan?

8- s a r k a r d a . Man Urgut podshohiman.

K o r f a r m o n. Yasovul.

Y a s o v u l. Labbay.

K o r f a r m o n. Urgut podshosini yaxshi joyga oborib o'tqizib qo'ying.

Y a s o v u l. (Urgut podshosini joyiga o'tqizib qo'yib Korparmonga) Hich gapdan xabaring bormu?

K o r f a r m o n. Xabarim yo'q.

Y a s o v u l. Xabardor bo'l, podshoh kevotti, hich odamni sho'ttan yurgizma ham o'tqizma. Toshkanlik podshoh kevotti.

Podshoh filni minib chiqadi, taxtiga o'tiradi.

K o r f a r m o n. Yasovul, yasovul.

Y a s o v u l. (Ichkaridan turib). Labbay.

K o r f a r m o n. Darrov chiq bu yoqqa, ishim bor.

Y a s o v u l. Nima ishing bor? Shoshmay tur.

K o r f a r m o n. E, yasovul bo'lmay o'l. Podshoh chaqirvotti; podshoning oldiga bor.

Y a s o v u l. (Podshohning oldiga boradi. Podshoh pichir-pichir qiladi). Xo'p taqsir (ichkariga kirib ketadi).

K o r f a r m o n. Yasovul, bu yoqqa kel, podshoh nima dedi?

Y a s o v u l. (Ichkaridan chiqib). Podshoh qizlarni obchiq didi. Boxabar bo'l, hozir qizlar keladi.

K o r f a r m o n. (Ramuz qilib bayyot etadur):

Yallo kechani shab'i shabiston etkay,
Bir lahzada olami go'riston etkay.
Bir mushkul ishim tushipti, e bor gudoyo,
San barcha mushkulimni oson etkay.

Q o' g' i r c h o q b o z . (Ichkaridan). Ho-ho, yallo-e!

K o r f a r m o n. (O'qiydi). Pand yaradan dosh kelur!

Q o' g' i r c h o q b o z . Ho, ho, yallo-e!

K o r f a r m o n. Xumor ko'zdan yosh kelur.

Q o' g' i r c h o q b o z . Ho, ho yallo-e. (Shu topda ikkita xotin o'ynab chiqadi.)

K o r f a r m o n. Sizni biza bersalar.

Q o' g' i r c h o q b o z . Ho, ho, yallo-e!

K o r f a r m o n. Xudoyimga xush kelur.

Q o' g' i r c h o q b o z . Ho,ho, yallo-e!

K o r f a r m o n. San mani, uka. Jonimsan.
San mani shrin jonimsan.

Q o' g' i r c h o q b o z . Ho, ho, yallo-e!

K o r f a r m o n. Shoftolizor ichida.

O o' g' i r c h o q b o z . Ho, ho, yallo-e!
K o r f a r m o n. Bodom qovoq o'ldursun.
O o' g' i r c h o q.b o z . Ho, ho, yallo-e!
K o r f a r m o n. O'ldursun, yor o'ldursun.
O o' g' i r c h o q b o z . Ho, ho, yallo-e!
K o r f a r m o n. Qo'zlari xumor o'ldursun
O o' g' i r c h o q b o z . Ho, ho, yallo-e!
Y a s o v u l. (xotinlarning oldiga borib). Yur, bas-e... (o'yinchi xotinlarni haydab ichkariga ketadi. Yana chiqib keladi.)
K o r f a r m o n. A, nimaga haydading bularni?
Y a s o v u l. Bular buzuq. Sharmanda ekan.
K o r f a r m o n. Bular mnan nima qilding?
Y a s o v u l. Bularni qamab qo'ydim va ishtarap qildim.
K o r f a r m o n. Necha pul ishtarap qilding?
Y a s o v u l. To'qqiz pul ishtarap qildim.
K o r f a r m o n. Obbo, yasovul-e!
Y a s o v u l ketadi. Otashxo'r chiqadi.
U og'zidan olovni chiqazib yuradi.
K o r f a r m o n. (Chirmandani chalib aytadi).
Otashxo'r-e, otashxo'r.
O'ynap, o'ynap chiqaz-e.
Otashxo'r-e, otashxo'r,
Kuyup qoma, shazir bo'l-e!
Otashxo'r-e, otashxo'r!
Otashxo'r o'ynab ketadi. Olmaboz qo'lidagi olmalari bilan o'ynab chiqadi.
K o r f a r m o n. (chirmandanichlib bayt aytadi).
Olmaboz-e, olmaboz!
O'ynang, o'ynang, olmaboz!
Osmonga tashang, olmaboz!
Sharmanda bo'lmaneg, olmaboz!
Hushyor bo'ling-e, olmaboz!
Olmaboz o'ynab ketadi.
K o r f a r m o n. (chirmandani chalib, bayt aytadi).
Xamir qil-e, patir qil.
O'ynap, o'ynap patir qil!
Maymun bilan maybunboz chiqadi.
M a y m u n b o z. Assalomu alaykum!
K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom! Qayerdan kelding? Kimsan?
M a y m u n b o z. Man Changali Mozomdorondan keldim.

K o r f a r m o n. Xo'sh, agar Changali Mozondorondan kelgan bo'lsang, san kimsan?

M a y m u n b o z. Man Yornazar maymunchiman.

K o r f a r m o n. Yornazar maymunchiman-ku?

M a y m u n b o z. Man o'zim Yornazar maymunchiman.

K o r f a r m o n. Shuncha joydan kelsang, manga sovg'a opkeldingmi?

M a y m u n b o z. Bittagina shodi maymun opkeldim.

K o r f a r m o n. Maymuning ustami?

M a y m u n b o z. Usta.

K o r f a r m o n. Har narsaga ustami?

M a y m u n b o z. Usta.

K o r f a r m o n. O'yin baladimi?

M a y m u n b o z. Biladi.

K o r f a r m o n. Qizlarning kulishini biladimi?

M a y m u n b o z. Biladi.

K o r f a r m o n. Qari kampirlarning kulishini biladimi?

M a y m u n b o z. Biladi.

K o r f a r m o n. O'n to'rtka kirgan qiz onasi mnan otasiga erkalik qilip, qanaqa kuladi?

M a y m u n (Baland ovozi bilan) "o'h-uh", "hu-hu".

K o r f a r m o n. E barakalla, o'ttizga kirgan xotin qanaqa kuladi?

M a y m u n (O'rta ovozi bilan). "Oh-ho-ho", "oh-ho-ho".

K o r f a r m o n. A, balli,balli, saksonga kirgan qari kampir qanaqa kuladi?

M a y m u n . Eh, haha-ha...Pzz...

K o r f a r m o n. E,o'l! E...Maymuningni...

Maymunboz ketadi.Korparmon chirmandani chalib o'ynaydi, Tosbos tos bilan o'ynab chiqadi.

K o r f a r m o n. (Bayt aytadi).

Tosbos omad, tosbos-e,
Hazir bo'lgil, tosbos-e!

T o s b o s. Asalomu alaykum!

K o r f a r m o n. Vaalaykum assalom,bormisan! Eson-omon yuribsanmi, qayda yuruvding?

T o s b o s. Biz Pitirburda yuruvdik, biz shunday mashaqqat totib keldik, podshohni chaqirganiga.

K o r f a r m o n. Ha balli, balli. Bular-kelganlarga sarkardalarga o'ynab bergil.

T o s b o s. Bo'lmasa chirmandangni chal, man o'ynab beray.

K o r f a r m o n. (chalib o'qiydir.)

Tosboz omad, tosboz-e!
Osmonga tashang, tosboz-e!
Sindimagin, tosboz-e!
Sharmanda bo'lmang, tosboz-e!

Tosboz o'ynab-o'ynab podshohning oldiga boradi, qulluq qilib ketadi.

I l o n (chiqadi). Foh, foh-ho, hoy yutaman. Hoy yutaman (og'zini ochib yuradi).

K o r f a r m o n. Yutolmaysan, yutolmaysan.

I l o n. Yutaman, hoy yutaman.

K o r f a r m o n. Yutolmaysan. Yutolmaysan.

Birdan laylak osmondan tushib ilonni ko'tarib obketadi.

M e r g a n (chiqib). Otaman, hoy, otaman!

Laylak ilon bilan aylanib uchadi.

K o r f a r m o n. Otolmaysan, e, otolmaysan!

M e r g a n. Otaman, e, otaman! (Laylakka qarab otadi, laylak yerga tushadi).

K o r f a r m o n. E, ahmoq, laylakni otasanmu?

M e r g a n. Mani xotin bola-chaqamlarim ko'p, muni eymiz, xudo menga berdi, ko'tar, ko'tar! (laylakn o'zi ko'taib obketadi.)

K o r f a r m o n. Yu yarmini bizga berib ket!

M e r g a n. ...Berramannu, o'zim ochman, xotin. Bola-chaqalarim mnan uyman. (Laylakni obketadi).

K o r f a r m o n. (chirmandani chalib). Obbo!

M a' q o' l b o s h i (chiqadi). Assalomu alaykum!

K o r f a r m o n. Vaalaykum, asalom! San kimsan?

M a' q o' l b o s h i. O, man Ma'qo'lboshiman.

K o r f a r m o n. Xo'sh, san Ma'qulboshi bo'lsang, podshohlar kelgani sanga ma'qulmi?

M a' q u l b o s h i. Ha. Ma'qul.

K o r f a r m o n. Sarkardalar kelgani ham ma`qulmi?

M a' q u l b o s h i. Ha. Ma'qul.

K o r f a r m o n. Hammalari ham ma'qulmi?

M a' q u l b o s h i. Ha, ma'qul.

K o r f a r m o n. Yasovul, ho Yasovul!

Y a s o v u l. Labbay, nima gap?

K o r f a r m o n. Bul Ma'qulboshiga hammasi ma'qul.

Y a s o v u l. Hammasi ham ma'qulmi?

M a' q u l b o s h i. Ma'quldir. (Kallasini qimirlatadi).

K o r f a r m o n. Ha, yasovulning kelgani ham ma'qul ekan.

Y a s o v u l. Jur, Ma'qul, bu yaqqa (chetga borib qo'yadi).

K o r f a r m o n. Bitta yo'ra eshagim bor. Sotaman muni.

Y a s o v u l. Man olay, eshaging yo'rg'ami? Tishlamaydimi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

Y a s o v u l. Tebmaydimi?

K o r f a r m o n. Yo'q.

Eshak kiradi.

Y a s o v u l. Minvolaman hozir.

K o r f a r m o n. Jim o'tir!

Y a s o v u l. Eshanigng necha pul?

K o r f a r m o n. Eshagimga besh so'm berasan.

Y a s o v u l. To'qqiz pul olmaysanmu?

K o r f a r m o n. To'qqiz pulga eshak beradimi?

Y a s o v u l. Bo'lak pulim yo'q, u yoq-bu yog'ini qaray-chi, yaxshi bo'lsa olaman (oldiga kelganda eshak tepadi).

K o r f a r m o n. Yog'liq eshak, murich-garimdorilik eshak, yo'rg'a eshak.

Y a s o v u l. Mindirib qo'y, yo'rg'asini ko'raman. (Mingandan keyin eshak dingillab obqochadi. Yasovul eshakdan yiqilib "voy tishim", "voy boshim!" deb yotadi.)

K o r f a r m o n. Nima bo'ldi? Bu yoqqa chiq.

Y a s o v u l. Eshaning... dumini ko'tarib, mani yiqitib. To'ttatishimni sindirdi. Qani, yovash dimadingmi? Haromi!

K o r f a r m o n. Eshakni qo'yvoring, o'z ketadi. Yasovul, e, yasovul!podshoh chaqirvotti, ularning oldiga bor.

P o d s h o h (yasovulga qarab). Bularni xursandchilikka darrov askarlarni etip chiq, mashq qisun, otsun. Zambarakchi to'plarni otsun tez bo'l!

Y a s o v u l. Xo'p, taqsir! (korparmonga qarab.) gapdan xabaring bormi?

K o r f a r m o n. Yo'q, yo'q!

Y a s o v u l. Podshoh etadiki. Askarlar chisun, to'plar otilsun, odamlar qo'rqmasun, to'p-zambaraklar otiladi.

K o r f a r m o n. (xalqqa). Boxabar bo'l, hazir bo'l!

(To'pchi zambaraklarni opchiqadi, ikki rut askar chiqadi.)

"Rapri chup –agom arsh". Askar mashq qilib. mushak otadi.)

Ta-rat ra-ra, lay-lay,
Ta ra-ra lay!
Ta-a, ra-ra, lay-lay,
Ta ra-ra lay!

T o' p c h i (to'rtta to'p obchiqib). Otaman, ogoh bo'l! Zambarakni otaman.

K o r f a r m o n. Otolmaysan. Ey, otolmaysan!

T o' p c h i. Otaman, hoy otaman! (To'rttala to'pga o't qo'yib otadi)

Y a s o v u l. Endi tomosha sob bo'ldi. Omin allohu akibar. Endi ertaga kelilar. Tomosha mundan yaxshi bo'ladir.

Tamom.

ASKIYALAR

Paxtachilik

T u r s u n b u v a. Mamaroziq aka, endi ikkovimiz ham brigadir ekanmiz, mana eson-omon ekib-tikib bo'ldik. Siznikini bilmaymanu. Ammo bizning chigitlar yerni LO'PPI QILIB kiyib chiqyapti.

M a m a r o z i q a k a. Bo'lmasa, bir-birimizning ishimizni komissiya bo'lib tekshiramiz. Biz ham qolishmaymiz. Bizni YAGONA deb o'ylang.

T u r s u n b u v a. U kuni rayondagi komissiyalar kelganda dalada: O'T, O'T debsiz. Endi bir borsak, eringizning atrofida aylantirib yurib, o'rtasidagi olasini ko'rsatmasangiz kerak. Unaqa qiladigan bo'lsangiz , umumiy majlisda O'SMAY QOPSIZ, deyman.

M a m a r o z i q a k a. Darrov umumiy majlisga solmang-da, besh-olti kun muddat bering, g'o'zalarni QARICHGA keltirib qo'yaman.

T u r s u n b u v a. Yo'q, siz bizdan yashiryapsiz! O't ichida ko'milib yotsayam, g'o'zalarimiz TIZZAGA O'RIB qolgan, deb maqtanasiz.

M a m a r o z i q a k a. Tursunbuva, gapni ham UZUNASIGA, HAM KO'NDALANGIGA gapiravergunchа, brigadangizdagi traktorni ishga solsangiz-chi!

T u r s u n b u v a. Sizning traktoringiz nimaga bekor turipti desam. Hligacha YO'L QILIB yurgan ekansiz-da!

M a m a r o z i q a k a. Traktorchilarning ishlashini mundoq tekshirib turmas ekansiz-da! Mana, yo'lda ketayotib ILMOG'I bilan KO'PRIKNI ham ko'trib ketibdi.

T u r s u n b u v a. Siz ham shunaqa qarab turmas ekansiz-da,

traktorchilar YETILMAGAN yerga solgan ekan, mana, traktor kiribdi-yu, chiqolmay yotibdi.

M a m a r o z i q a k a. Ishimizni tekshirsangiz durustroq tekshiring-da! Bizning a'zolarimiz ish qilishyapti, ko'zingizga SHAXMAT o'ynashgandan ko'ringandir-da!

R a s u l q o r i. Ho o'rtoq brigadirlar, gaplashaverib suvsab qolmadinglarmi? CHANG QOQ deymi Tursunbuvaga!

I k r o m i d d i n. Tursunbuvani aslo qo'ying, suv qo'shinining oshqovog'iga oqyapti-yu, o'zlari tekshirgani kirib SUVDAN QURUQ chiqyaptilar.

T u r s u n b u v a. Mamaroziq akaning a'zosi Qodirjon aka bo'lsa, sharpalarini bildirmay sholipoyalarini sug'orib yotibdilar.[1] Nima, brigadir OG'ZIGA SUV OLGANMI, indamaydi!

Q o d i r j o n a k a. Hademay suvga serob bo'lib qolasiz, mana, Olimjon aka[2] o'sha tomondan boshini bog'lab keldi.

T u r s u n b u v a. Rasul qori, hali siz meni chanqoq dedingiz. Mana suv ham keldi. Bizning yerlar kuchsiz, Nay usulida CHANGQOQ yerlarni sug'orasiz-da!

R a s u l q o r i. Suv kelaversin-chi, qanaqa qilib sug'orishni o'zim bilaman. Haligacha Qodirjon akadan darak yo'q, yo ariq boshida SUV OCHIB o'tiribdimikin?

O l i m j o n a k a. Ana shunaqa suv ochib yotgan mirobga g'o'zalarni sug'ortirmang, ETAGINI yuvdirib yuboradi.

Q o d i r j o n a k a. Olimjon aka! Mayli, men o'shanaqa miroman. Siz ham ehtiyot bo'ling, tezroq chekanka qildirib olmasangiz, BOSHINGIZ OSMONGA YETIB qoladi.

M a m a r o z i q a k a[3]. Tursunbuva! Mana bular ishimizdagi kamchiliklarni KAMPIRNING CHIG'IRIG'IDAN chaqirganday chiqarishdi.[4] Biz TUZATDIK, ularni ham bir tuzatmaymizmi?

T u r s u n b u v a. Tuzatgani dori kerak. Gapingizga qaraganda siz g'o'zalarni ancha changlatib opsiz, dori ko'pmi deyman, hu anavi BETKAYGACHA yetibdi.

R a s u l q o r i.[5] O'shaning uchun deyman, Mamaroziq aka LOPILLAB ochilab ketibdilar-da!

R u s t a m a k a. Usmon qori[6], mana paxta terish ham

---

[1] Qodirjon aka Halilovning laqabi "laylak ", shunga shama qilingan.
[2] Olimjon aka Haydarovning laqabi "kal"
[3] Mamaroziq aka Ishoqovning laqabi "Cho'tir".
[4] Tursunbuva Aminovning laqabi "
[5] Rasul qori Mamadalievning laqabi "qori"
[6] Usmon qori Rahimbekovning laqabi "bo'qoq".

boshlandi. Terimga yosh bolalarni tushiribsiz. Nazorat qilmasangiz SIFATINGIZNI BUZIB qo'yishadi.

G' o y i b a k a. Tursunbuva, ho Tursunbuva! Tezroq harakatingizni qiling. Usmon qori aka YOSH BOLALARINI ham olib kelyapti- bularning tergani BIZNIKIGA qo'shiladi deb.

T u r s u n b u v a. Yo'q, unaqa emas. usmon qori yozda g'o'zani suvdan tortib qo'ygan, o'shaning uchun hammanikidan oldin bu Mamaroziqniki TO'KILIB yotibdi-da.

R u s t a m a k a. Mamaroziq aka deyman, qizil karvonni nega ikki kun ilgari zavodga obordingiz desam, O'G'ITNING KO'PINI ERINGIZGA solib, hammaga CHAMAN BO'LIB ko'rinayotgan ekansiz-da!

T u r s u n b u v a. Qizil karvonni bir hafta ketga surib qo'ydik. Nega desangiz. Zavodda tosh bosmay, o'zingizga o'xshash YENGIL kelyapti.

R u s t a m a k a. Bundan keyin hushyor bo'ling, yosh-yalanglar teradi, bir tomoni XOMLIK, endigi borishingizda zavod eshigi tagida USHLAB qolishadi.

I b r o h i m j o n. G'oyib aka, siz mexanik terimschisiz, e'tibor beribroq tering, orqangizdagi odamlar sizni ko'rsatib: CHALA EKAN, deb yurishmasin.

Qushlar

I b r o h i m j o n. Qodirjon aka, mana endi shoshilmasdan gaplalashaveramiz-da, darrov HAKKALAB KETMASDAN.

Q o d i r j o n a k a. Mening ham Maynavozchilikka tobim yo'q.

T u r s u n b u v a. Nega Olmimjon akaning patlarini yulib olyapsiz? U MUSICHADAN ham uvol-ku!

Q o d i r j o n a k a. G'URRAKI chiqib qoldi!

O l i m j o n a k a. Qodirjon aka bo'lar – bo'lmasga shunaqa CHITTAK otaveradilaru, o'zlari BOY O'G'LIGA o'xshab QIZIL ISHTON kiyib yuradilar.

Q o d i r j o n a k a. Olimjon akam ham maqtanchoqroq. Boshimda tojim bor deydilaru, qo'llaridan TO'TIchalik ish kelmaydi.

T u r s u n b u v a. Qodirjon aka, gapingiz LAK-LAK bo'lsa aytib oling: SARIG' SO'FI yoningizda!

Q o d i r j o n a k a. Olimjon akani ko'rib xursand bo'lib ketdim: KAL XAT olib keldi deb.

O l i m j o n a k a. Tavba, bu – G'OZ uchmaydi devdim. BU – ZOG' ham ucharkanu!

I b r o h i m. Mamaroziq aka, mana bu quzg'un haqida bir gap aytsam QARG'Amaysizmi?

M a m a r o z iq a k a. Qodirjon, gapga kirmaydigan TURUMTOYLRINGGA KO'RSHAPALAK degin, O'LIMSANGLIK qilishaveradimi?

T u r s u n b u v a. Ibrohimjon, ho Ibrohimjon! Olimjon aka bilan hadeb don olishaverasizmi. SINCHALAKDAY joningiz bor, OLMABOSHI bilan bir ursa nima qilasiz?

I b r o h i m j o n. Olimjon aka men bilan don olishmas ediyu, CHITTAK otishib cho'qishib qoldik-da!

O l i m j o n a k a. Qodirjon aka HAQQUSHLAR, osmonda parvoz qilib yursalar, ana BAG'RIQORA demang yana.

Q o d i r j o n a k a. Osmondan uchib kelib Olimjon akaning do'ppilarini tashlaymi- ILVOSIN deb.

O l i m j o n a k a. Qodirjon aka osmonda qanotlarini yozib tursalar aytaman-da – KO'RPANISOR deb.

T u r s u n b u v a. Qodirjon aka balanddagi uylarida o'zlarini oftobga solib o'tirsalar. Pastda qo'rqib ketsam-a, QARCHIG'AY olib ketmasin deb.

I b r o h i m j o n. Usta Akbarbuva[1] ikki kilogramm surpni oldilariga qo'yvoptilar. TO'RG'AY man deb.

U s t a A k b a r. Turp to'g'ragan ULARU, manga do'q urasiz, KO'RSHAPALOG'IM deb.

M a m a r o z i q a k a. Ibrohimjon, siz hali yoshsiz. Usta Akbar buvadan o'rganing, bu kishining oldida QIYG'IRLIK qilmang.

I b r o h i m j o n. Ha, sizlarga o'xshagan ustozlarni hurmatlaymiz, TO'TI-YO qilib ko'zimizga surkaymiz.

Til

E sh o q j o n.[2] Mulla G'anijon, yaxshiyam xalqimizning askiyasi bor ekan, mana sizning ham TILingiz chiqib qoldi.

G' a n i j o n. Ishoqjon, men askiya qilayotganimda luqma solmang, achchig'im chiqib sizga QO'SHMA GAP deb yuborsam xafa bo'lmang.

---

[1] Usta Akbar Usmonov – Qo'qon viloyati Naymancha qishloq askiyachilarining ustozi. 1885-yilda tug'ilgan, kasbi–aravasoz.

[2] Eshoqjon O'ktamov–askiya shinavandasi, jurnalist, Farg'ona viloyati Yaypon (O'zbekiston rayoni) qishlog'idan, 1912-yilda tug'ilgan.

E sh o q j o n. Jo'rttaga luqma soldim-da, qarasam, gapning EGAsini aytasizu, KESIMIga hayron bo'lib turibsiz.

G' a n i j o n. Adashtirmay turing, yana nomingizni OLMOSH-tirib, sizga ERGASH, bo'laklari bu, deb o'tirmayin.

E sh o q j o n. Nomimni almashtirsangiz almashtiravering. Sizga o'xshagan birorta ANIQLOVCHI topib olraman.

G' a n i j o n. Keyin mendan xursand bo'lib, hammaga aytib yurasiz-a, nomim ANIQLANISH deb.

E sh o q j o n. Juda SODDA GAP qilasiz-da!

G' a n i j o n. Bo'lmasa, siz YOYIQ GANga ko'nasizmi?

E sh o q j o n. Keling, birovning KO'CHIRMA GAPiga mojaro qilib o'tirmaylik, yana sizning FE'Lingiz buzilib qolmasin.

G' a n i j o n. Qiziqsan-a, mening fe'lim har narsaga buzilaveradimi: Nima, mening fe'lim O'TGAN ZAMON fe'limidi?

E sh o q j o n. Nega bo'lmasa mendan hadeb so'zimning O'ZAGIni o'rayverasiz? HOZIRGI ZAMON FE'Lingiz shunaqami?

G' a n i j o n. Nega menga XITOB GAP qilasiz? Sizga men yotg'i bilan BAYON GAP qilyapman-ku!

E sh o q j o n. G'anijon aka. Zap gaplaringiz bor-da, bir KELISHIKlikki.

G' a n i j o n. Ha, kelishmagan gaplarni eshitsam QO'SH TIrnog'im orasiga olib qo'ygim keladi.

E sh o q j o n. G'anijon aka. Oshiqmang, hali so'zni hijolab gapiradgan QAVS oyi emas!

G' a n i j o n. Ishoqjon. Ehtiyot bo'ling, bekordan bekorga meni ko'rsatib: buning URG'USI bor deb yurmang.

E sh o q j d o n. Ha, siz ehtiyot bo'lib yuring, xazon rezgi vaqti kelsa. Sizni bir NUQTAlab qo'yishim bor.

G' a n i j o n. Ishoqjon aka, bir hazilkashlik-da, haqiqatda zakiy odamsiz, bitta so'zni besh-olti ma'noda ishlatasiz. Shuning uchun ham men sizni OMONIM deb yuraman-da.

E sh o q j o n. YAshang, FAXRLI bo'lib KAMOLGA yeting-a.

MAQOLLAR

A s k i y a ch i. "Mushtum" tog'a, xalqimizning og'zaki ijodi juda boy va sermazmun. Bugungi askiyani xalq ijodi bo'yicha "maqollar payrovi"da qilsak.

M u sh t u m. Juda soz! Askiya-so'z san'ati, so'zning ko'rki-maqol-da, jiyan.

A s k i y a ch i. Maqol orqali ayrim kishilarning basharasini oyna kabi ko'rsatib beramiz. Shuning uchun "KIMNING BASHARASI KIYSHIK BO'LSA, OYNADAN O'PKALAMASIN".

M u sh t u m. Maqollarda kishilarning ismlari ko'rsatilmasa ham, shaxsi umumlashgan bo'ladi. Har kim o'zi uchun tegishli xulosa chiqarib olaveradi: "QIZIM SENGA AYTAMAN, KELINIM SEN ESHIT!"

A s k i y a ch i. Tog'a, doim idorada o'tiravermay, tez-tez paxta dalalariga ham chiqib tursangiz: "BETGA AYTGANNING ZAXRI YO'Q!".

M u sh t u m. To'g'ri, "DO'ST ACHITIB GAPIRADI, DUSHMAN KUYDIRIB". Lekin mening yarim umrim paxta dalalarida o'tadi. Maxsus yurishlar qilaman, g'o'za parvarishini kechiktirayotganlarga: "BUGUNGI ISHNI ERTAGA QO'YMA" deb dashnomlar beraman.

A s k i y a ch i. Bunday beg'amlarga qattiq zarba bering. Fursatni g'animat bilib, "TEMIRNI QIZIG'IDA BOS!" deng.

M u sh t u m. Og'zida mashina —mashina deb, amalda ketmonda ko'ngil uzolmayotganlar ham bor. Ana shunaqangi "TILI BOSHQA-YU, DILI BOSHQA"larga "GAP BILGUNCHA- ISH BIL!" deyman.

A s k i y a ch i. Uzunquloq gaplarga qaraganda ayrim kolxoz, sovxoz rahbarlari g'o'za parvarishini o'z holiga tashlab, "YAXSHI OT KEYIN CHOPADI", "JO'JA KUZDA SANALADI" deb, o'zlarini ovutib yurgan emishlar.

M u sh t u m. Agar shunday rahbarlarni uchratsam, och biqiniga uch-to'rt musht tushirib "KO'RPANGGA QARAB OYOQ UZAT!" deyishim turgan gap.

A s k i y a ch i. Shu toifadagi kishida rahbarlik qilayotgan kolxoz, sovxozlarning dalalarini diqqat bilan kuzatsangiz, ba'zi maydondagi g'o'zalar bizdan "RANG KO'R, HOL SO'R!" deb turibdi.

M u sh t u m. Albatta, bu ahvolni ko'rgach, tutoqib ketaman: "AYTSAM TILIM KUYADI, AYTMASAM-DILIM".

A s k i y a ch i. Tabiiyki, bunday paxtakor kuzga borib attang deb yuradi: "KEYINGI PUSHAYMON-O'ZIGA DUSHMAN".

M u sh t u m. Shunday bo'lmasligi uchun ularni "ESING BORIDA ETAGINGNI YOP" deb ogohlantirib qo'ymoqchiman.

A s k i y a ch i. Ba'zi o'rtoqlar choyxona, magazin, hatto ko'cha ko'ylarda ham ichkilikbozlik qiladilar. Gapirsangiz "OSHING HALOL BO'LSA KO'CHADA ICH!" emish.

M u sh t u m. Bunday kishilar "BETIMNING KALINI – JONIMNING HUZURI" maqolini aroqqa qo'shib ichib, yuborishgan.

A s k i y a ch i. Tog'a, shunday kishilarni uchratganmisiz? Ular ko'chada ichib kelib, o'chini oila a'zolaridan olishadi: "KO'CHADA- XANDON, UYDA-ZINDON" bo'lib.

M u sh t u m. "YOMONNING BIR QILIG'I ORTIQ" degandek. Bularning ba'zilari hatto kechasi ham uylariga kelmay, ko'chalarda sanqib yuradilar "SAYOQ YURSANG, TAYOQ YERSAN!"

A s k i y a ch i. Tog'a, shunday shaxslar ham borki, o'z jig'ildonlarining gapiga kirib. Mansablarini suiste'mol qiladilar – "BESH PANJANI OG'ZIGA TIKIB"

M u sh t u m. Bundaylarga aytadigan gapim: "KO'ZA KUNDA-KUNDA SINMAYDI, BIR KUNDA SINADI".

A s k i y a ch i. Tog'a, poraxo'rlar va pora beruvchilarga shafqatsiz bo'ling. Tokaygacha ularning fikri-zikri "SENDAN UGINA, MENDAN BUGINA" bo'ladi.

M u sh t u m. Bilasizmi, jiyan, poraxo'rlikning o'ziga xos qilig'i bor ekan: "QURUQ GAP QULOQQA YOQMAS" emish.

A s k i y a ch i. Shuning uchun ular: "QARS IKKI QO'LDAN CHIQADI" der ekanlar!

M u sh t u m. "BIR TOVUQQA HAM DON KERAK, HAM SUV KERAK" deb, uzoqdan daromad qilishlarini aytmaysizmi?

A s k i y a ch i. Agar suhbatdosh gapga tushunaversa, ochiq-oydin qilib: "MUSHUK HAM BEKORGA OFTOBGA CHIQMAYDI" deb qo'yishadi.

M u sh t u m. Masala hal bo'lgach... "TUYA KO'RDINGMI-YO'Q" deyishlariga nima deysiz?

A s k i y a ch i. Tog'a, oliy o'quv yurtlarini bitirganlardan ba'zilari tayinlangan joyga borishmaydi. "UZOQNING BUG'DOYIDAN YAQINNING SOMONI YAXSHI" emish.

M u sh t u m. Ular hatto mutaxassisliklardan ham voz kechib, boshqa ish topib olishadi. "TAKA BO'LSA HAM SUTI BO'LSIN", deb.

A s k i y a ch i. Essiz ularga davlatning sarf etgan mablag'i. "O'QISH BOSHQA, UQISH BOSHQA".

M u sh t u m. Go'yo ular diplomli bo'lib "Ishlari bitdi, eshagi loydan o'tgan".

A s k i y a ch i. Tog'a, ayrim ota-onalar o'z farzandlarini arzanda qilib tarbiyalaydilar. "BOLA BO'LSA SHO'X BO'LSIN,

SHO‘X BO‘LMASA YO‘Q BO‘LSIN!” deb.

M u sh t u m. Ular katta bo‘lgach, hasratlari olamga sig‘may “O‘ZIMDAN CHIQQAN BALOGA – QAYGA BORAY DA’VOGA?” deb so‘rab afsuslanib yurishadi.

A s k i y a ch i. Tog‘a, ba’zi san’at ustalari o‘zlarining kontsert repertuarlarini bir necha yillab yangilashmaydi, “ESKI HAMMOM ESKI TOS.”

M u sh t u m. Bu hol san’atkorlarimizning o‘z san’atlariga ixlos qo‘ymaganliklridan bo‘lsa kerak. Axir “DILDA BO‘LSA, TILGA KELADI-DA!”

A s k i y a ch i. Ayrim kompozitorlarimiz ham yangi –yangi kuylar yaratish o‘rniga mavjud xalq kuylarini qayta ishlaganlar – ishlagan: “ALIXO‘JA - XO‘JAALI” qilib.

M u sh t u m. Axir, jiyan. Eshitmaganmisiz? “BOR-BORICHA, YO‘Q HOLICHA” deb, “QOZONDA BO‘LSA, CHO‘MICHGA CHIQADI-DA!”

A s k i y a ch i. Tog‘a, ko‘z tegmasin, respublikamizning sportshuhrati uchun kurashayotgan “Paxtakor” futbol komandasi o‘zini sal o‘ngarib oldi. “TIRISHGAN TOG‘DAN OSHAR” deb bekorga aytilmagan ekan.

M u sh t u m. “Ko‘r hassasini bir marta yo‘qotadi”-da! Axir futbol ishqiobzlari ularni “YIQILGAN KURASHGA TO‘YMAS” deb dashnom beraverib bezor qilib yubrishdi-ku!

O‘xshatdim

N a s r i d d i n. Eshon, ho Eshon. Sizni o‘xshatdim.

O d i l x o‘ j a. Kimga?

N a s r i d d i n. Musobaqa komissiyalari ko‘rinmay chap berib yurgan brigadirga.

O d i l x o‘ j a. Nima qilardim?

N a s r i d d i n. G‘o‘za parvarishini ayni qizg‘in chog‘larda shaharda QOVUN tushirib yurardingiz.

O d i x o‘ j a. Nasriddin uka, men ham sizni o‘xshatdim.

N a s r i d d i n. Kimga?

O d i l x o‘ j a. Majlisda qo‘lini ko‘kragiga urib, og‘zini ko‘pirtirgan zveno boshlig‘imizga.

N a s r i d d i n. Nima qilardim?

O d i l x o‘ j a. Va’dam QOP-QOP, meni soya-salqindan TOP, deb yurardingiz.

N a s r i d d i n. Sizni bir kishiga o‘xshataymi?

O d i l x o‘ j a. Kimga?

N a s r i d d i n. Vaqti-bemahal xurrak otadigan mirobimizga.

O d i l x o‘ j a. Nima qilardim?

N a s r i d d i n. G‘o‘zani suvga bostirib yuborib , kechasi sug‘orish mana bunaqa bo‘ladi deb, tut tagiga xushtak chalib uyquga zeb berardingiz.

O d i l x o‘ j a. Chidasangiz, men ham o‘xshataman.

N a s r i d d i n. Kimga?

O d i l x o‘ j a. Mahsulot beradigan omborchimizga.

N a s r i d d i n. Xayr, nima uchun?

O d i l x o‘ j a. Taqsimot vedomosti bu yoqda qolib, raisdan bir parcha XAT KUTIB o‘tiraverardingiz.

N a s r i d d i n. O‘xshataymi?

O d i l x o‘ j a. Yana kimga?

N a s r i d d i n. Universalchimizga.

O d i l x o‘ j a. Nima qilardim?

N a s r i d d i n. Paxta yig‘im-terimi yaqinlashib qolsa ham, mashinangizni remont qilmay. DO‘PPINGIZNI YARIMTA QILIB yuraverardingiz.

Afsona

Z a y n o b i d d i n. Afsona.

O x u n j o n q i z i q. Jon afsona!

Z a y n o b i d d i n. Men kelguncha osh qilib qo‘y desam, aytganimni qilmabsa-a?

O x u n j o n q i z i q. Afsona.

Z a y n o b i d d i n. Jon afsona!

O x u n j o n q i z i q. Go‘sht –yoqqa bermapsan-a?

Z a y n o b i d d i n. Afsona.

O x u n j o n q i z i q. Jon afsona!

Z a y n o b i d d i n. Poyezddan kech qolib, boshingga xurjunni qo‘yib uxlab qopsan-a?

O x u n j o n. Afsona.

Z a y n o b i d d i n. Jon afsona!

O x u n j o n q i z i q. Uyingga taklif qiluvding. Borsam jo‘nab qopsan-a?

LOFLAR

Bir lofchi Afandi bilan chandishganj kelibdi. Afandi unga nazariga ilmaganday qarab, so'rabdi:

—Yoshing nechada?

— Odam Atodan yetti muchal kattaman.

Bu javobni eshitgach, Afandi xo'ngrab yig'lashga tushibdi.

— Nega yig'layapsiz? — deb so'rabdi lofchi.

— O'sha sen tug'ilgan yili mening bir uylik-joylik o'g'lim o'lgan edi. O'sha esimga tushib ketdi, — debdi Afandi.

* * *

Bir vaqt Afandi tabiblik qilib turganida bir lofchi kelib undan so'rab qoldi:

— Bugun kechasi uxlab qolsam, og'zim ochilib, bir sichqon kirib, ichimga ketib qoldi. Ko'nglim juda behuzur bo'layapti. Bunga nima qilsam bo'larkin-a?

— Bir mushuk bolasini tutib olgin-da, yutib yubor, qutulasan-qo'yasan...

* * *

— Dadam rahmatlikning boshlari xiyla katta edi, do'ppilariga uch qopcha don sig'ardi, — dedi bir lofchi sherigini mot qilmoqchi bo'lib.

— Shu ham bosh bo'pti-yu, — deb labini burdi ikkinchi lofchi. —Kaminaning dadalari kiyadigan do'ppining tagida bir mahalla odam salqinlanardi.

* * *

Bir lofchi tushini so'zlayotgan ekan:

—Tushimda hazrati Xizrni ko'rdim. Qanotlari xo'rozning patlaridek, rang-barang, bellarida tilla kamar, oyoqlarida amirkon kovush-mahsi...

Ikkinchi lofchi uning gapini bo'ldi:

— Bekor gap, sen ko'rganing hazrati Azroil bo'lsalar kerak. Kecha minorma-minor tovuqlarimizni quvlab yuruvdilar.

* * *

Zargar lofchi dedi:

– . Men uzugimning ko'ziga qarab, yer izida nimalar bo'layotganini ko'rib turardim, shuni yo'qotib qo'ydim-o...

– Ko'zoynaksoz lofchi javob berdi:

– Men bir ko'zoynak yasaganman, o'shani taqib qarang, uzugingiz qayerdaligi ko'rinadi-qo'yadi.

* * *

– Mening bedanam urishganida raqibini tepib o'ldirib, tumshug'i bilan uning patini yulib, go'shtini pishirib keltiradi, – deb kerildi bedanavoz lofchi.

Sagpàrast lofchi itini maqtab, shunday javob qildi:

– Men itimning o'zini buyragi bilan boqaman. O'zimni «san» desam, uni «siz» deyman.

* * *

Lofchi polvon lofchi polvonga maqtandi:

– O'ratepalik polvon bilan kurash tushdim. Belidan olib turib bir urgan edim, yerga kirib ketdi. Sakkiz kishi ketmonda qazib olishdi.

Boshqa polvon qo'lini siltab dedi:

– Men asakalik polvonni belbog'idan olib, belini bir siqqan edim, birdan yengil bo'lib qoldi. Qarasam, polvon yo'q. Bir siqishimdayoq ezilib, yo'qolib ketibdi. Qo'limda belbog'i qopti, xolos.

* * *

Bog'bon lofchi dehqon lofchiga maqtandi:

– Bir tup tok ekuvdim, shunuqangi o'sib ketdiki, naq bir chaqirim joyga etadi.

– Tokingiz unchalik o'smabdi, – e'tiroz bildirgan dehqon lofchi, men ekkan bir tup oshqovoqning palagi shunaqangi cho'zilib ketdiki, bir haftadan beri yuraman, haliyam qayerga borib yetganligini topa olmayapman.

* * *

Bir lofchi dedi:

— Hozir bizning tomonlarda kun shunday issiqki, asti qo'yaverasiz. Chelakdagi suvlar ham qaynayapti.

Ikkinchi lofchi bu gapga qo'l siltadi:

— Shu ham issiq bo'ldimi? Bizning tomonlarda kun shunaqangi issiqki, tovuqlarimiz hozir pishgan tuxum tug'ayapti.

* * *

Bir lofchi ikkinchi lofchiga hasrat qildi:

— E, birodar, kulfatga qoldik. Kecha tomimizga bir burgut qo'ngan edi,uyim bosilib qoldi.

Boshqa lofchi uni yupata boshladi:

— Tashvishlanmang, oshna, men bechora sarson bo'lib qoldim. Kecha tomimga bir chumchuq qo'ngan edi. Ahmoq bolalar o'sha chumchuqning oyog'iga ip bog'lashgan ekan, ipi o'lgur tarnovga o'ralib qolibdi. Kechadan beri o'sha chumchuq uyimizni ko'tarib mahallama-mahalla uchirib yuribdi. Hozir chumchuqning oldiga don tashlab, qaysi mahallaga kelganimizni surishtirgani ko'chaga chiqdim.

* * *

— Tog'da bir gala bo'rini quvlab ketayotgan edim, — deb lof boshladi Karim ovchi, — munday qarasam, hammasi g'orga o'xshash allaqanday qorong'i joyga kirib g'oyib bo'lishyapti. Chamalab bilsam, katta ajdarning og'ziga o'xshaydi. Ha, xuddi o'zginasi. Zarracha qo'rqmadim. Bir qo'limda xanjarimni, ikkinchi qo'limga qalamtaroshni oldim-u, rabbim, deya ajdarning og'ziga dangal otildim. Ikki jag'idan boshlab kesib boraverdim. Ikki kecha-ikki kunduz deganda gazandani ikkiga bo'lib chiqibman.

— Ha, ha, — dedi Salim ovchi, — bundan bir oy burun men ham bir ajdarni boshdan oxirigacha tilib chiqish uchun ichida bir hafta yurgan edim. O'shanda ajdarning bolasi qochib ketuvdi, o'shani siz tilgan bo'lsangiz kerak.

* * *

Choyxonada ikki lofchi bir-birin yengolmay, dahanaki jang qilishardi:

– Kecha bitta chivin tutib ichini yorsam, oltita tarvuz bilan ikkita qovun, beshta tuzlangan bodring chiqdi.

– O'sha tarvuzlardan birini biznikiga yuborgan ekansiz, so'ysam, ichidan egarlangan ot chiqdi. Hayron bo'ldim, ot bu yoqda bo'lsa, siz qayoqda edingiz?

Uchinchi lofchi gapga aralashdi:

– Bu kishi ot bilan arazlashib qolib, tuzlangan bodring ichida o'tirgan edilar.

* * *

U lofchi bu lofchiga dedi:

– Mahallamizda quyondek qo'rqoq bir mullavachcha bor. Yaqinda sher terisidan po'stin tiktirib kiygan edi, sherdan ham dovyurak bo'lib ketdi.

Bu lofchi u lofchiga javob qildi:

– Qo'ying unaqa yaramas gaplarni. Mahallamizdagi bir ovchi oldidan chiqib qolgan sher ustiga quyon yurak bir mullavachchaning to'nini yopgan edi, sher mullavachchadek qo'rqoq bo'ldi qoldi.

* * *

Bir lofchidan boshqa lofchiga xat keldi: «Nikoh o'qitmoqchi edik, bo'lmadi. Kelinni siz tomonga yuborsak, o'z imomlaringga nikoh o'qitarmikinsiz?»

Bu lofchi u lofga xatiga shunday javob yozdi: «Masjidlaringni imomi ham ko'r, ham kar, ham cho'tir, ham kal bo'lsa, bu hali holva-ku. Bizning imomning mutlaqo kallasi yo'q. Sallani yelkasiga qo'yib yuradi».

* * *

Visol chog'ida oshiq lofchi ma'shuqasiga maqtandi:

– Jonginam, sizni shunchalik sevamanki, agar oh ursam, ohim shaharni tutadi.

Ma'shuqasi ham lofda qolishadiganlardanmas ekan, shunday debdi:

–Kecha shaharni desam, siz oh urgan ekansizda-a?

BOLALAR FOLKLORI

Allalar

Aylanayin oydinim,
El ichida soydinim.
Qo'limdagi tuyg'unim,
Gapga tushgan quzg'unim.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Aylanayin, oppog'im,
Mislingni izlab topmog'im.
To'y-yig'inlar bo'lganda
Otin ayab chopmog'im.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Aylanayin, bolam-ay,
Aylansin sendan enang-ay.
Yaxshi – yomon kuningda
Xudoying bo'lsin panong-ay.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Sinli, sinli, sinbatlim,
Na'ra sherday haybatlim.
Qushday shunqor kelbatlim,
Ulug' shohday savlatlim.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Aylanayin, oydayin,
Qoshi sara yoydayin.
Talpinganing qo'limda
Tarlon qarchig'aydayin.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Qo'li arslon bilaklim,
Botir, qoplon yuraklim.
Yaxshi-yomon kunimda
Menga juda keraklim.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Aylanayin, qarog'im,

Uyda yongan charog'im.
Do'stim ko'rsa yarashib,
Dushmanimga yarog'im.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Qora qoshi qunduzim,
Ko'zi tongda yulduzim.
To'y-hayitda bo'lganda
Kiygan to'ni qirmizim.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
O'zing gavhar donaday,
Turtib emgan tanaday.
Qo'limda cho'rchib o'ynasang,
Ko'lda suqsur-so'naday.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Chopinganing bo'riday,
Bo'rilarning zo'riday.
Yigit bo'lar chirog'im,
O'zi erning eriday.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Suyli, sinli,siyoqlim,
Olg'ir burgut qoboqlim.
Changalining yozgani-
Qirg'iy, bahrin tirnoqlim.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.
Qaraganni qo'rqitar,
Qaramaganni berkitar.
To'yda to'pga qarasa,
Qo'yday qilib hurkitar.
Alla, bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.

* * *

Bulbul qushning bolasi,
Alla qo'zim, alla.
Daraxtda bo'lar uyasi,

Alla, bolam, alla.
Daraxt boshini sel olsa,
Shaydolar bo'lar onasi,
Alla, bolam, alla.
Tog'da kiyikning bolasi,
Alla, bolam, alla.
Bog'da uzumning g'o'rasi,
Alla, bolam, alla.
To'ppisida ukkilar-
Bu kimning nevarasi?
Alla, bolam, alla.

Yonamanu yonaman,
Alla, bolam, alla.
O'choqqa tushgan chaladek,
Alla, bolam, alla.
Zafarondek sarg'ayibman,
Bandida qolgan olmadek
Alla, bolam, alla.

* * *

Bulbul sayrar yozina, alla-yo alla
Qulluq qush ovozina, alla-yo alla
Bermang bulbula ozor, alla-yo alla
Bulbul beozor qushdir, alla-yo alla

Bulbul sayrar chamanda, alla-yo alla
Shu bag'ri keng Vatanda, alla-yo alla
Uni aslo cho'chitmang, alla-yo alla
Sayrasin shu chamanda, alla-yo alla

Bulbul uchar qo'limdan, alla-yo alla
Har kim qo'rqar o'limdan, alla-yo alla
Shu bulbulim sayrasa, alla-yo alla
O'lim qochar yo'limdan, alla-yo alla

Qizil gulning xirmonisan, alla-yo alla
Jonginamning darmonisan, alla-yo alla
Bulbulginam, alla qilgin, alla-yo alla
Gul umrimning darmonisan, alla-yo alla

Kela qolsin allasi-yo, alla,
Dadajonining bolasi-yo, alla.
Dadajoni qayga ketdi-yo, alla,
Onajonisin lolasi-yo, alla.

Kechalari qo'rqib chiqaman-o, alla,
Dadajonini o'ylab -o, alla.
Vahimadan dimiqaman-o, alla,
Dahshatidan qaqshaydi lab-o, alla.

Qurib ketsin podsholar-o, alla,
Qahri qattiq oshnolar-o, alla.
O'zing tezroq ulg'ayib-o, alla,
Qiron keltir ularga-yo, alla.

Dadang qasos deb ketdi-yo, alla,
Dadang alamda ketdi-yo, alla.
Uxlab-uxlab ulg'aygin-o, alla,
O'ch vaqti kelib yetdi-yo, alla.

Podsho taxti qulaydigan kun kelar,
Yayrab-o'ynab kuladigan kun kelar.
Uyimiz ham shunda quvonchga to'lar,
Alla, o'g'lim, sening ham baxting kular.
Alla-yo, alla!

* * *

Alla, bolam, alla-yo,
Alla, erkam, quluntoy.
Alla qilsin polvonim,
Belanchaging tebratay.

Alla, bolam, alla-yo,
Tilabgina olganim.
Do'mboq o'g'lim, Umidboy,
Belanchaging ustiga
Oymomoni qaratay.

Alla, bolam, alla-yo.
Sen uxlasang pishilab,

Onang ham olar orom.
Otang ham kelar ishlab,
Dam olgin, yurak, poram,
Alla, bolam, alla-yo.

Aytim-olqishlar

Chaqaloqni birinchi bor beshikka solayotganda...

— Shugina jonim, bir jonim,
Bo‘ynimdagi marjonim.
Xudo berdi sevsin deb,
Oltin beshikka kirsin deb.
Bunday bog‘laymizmi?
— Yo‘q, Yo‘q!
— Bunday bog‘laymizmi?
— Ha, Ha!
— Qoch, qoch babasi,
Keldi egasi.
Ota-onang gapirishsa,
Qichqirishsa, yana qo‘rqma!
Opalaring, akalaring
Baqirishsa, yana qo‘rqma!
Olapar it akillasa,
Qo‘rqib qolma!
Moshi mushuk hurillasa,
Qo‘rqib qolma!
Hangsher[1] hangillasa,
Yana qo‘rqma!
Birov baland ovoz solsa,
Chaqirib qolsa,
Yana qo‘rqma!

* * *

Oy keladi-yo botgani,
O‘g‘lim keladi yotgani.
Tong-saharda shabada
Xizmat qilsin uyg‘otgani.

---

[1] Hangsher—eshak

* * *

Beshigi taxta,
Orqasi paxta.
Egasi keldi,
Kuchugi qoch!
Ichida yotganning
Bahrini och!

* * *

Achasi kirsin, kuchugi chiqsin,
Beshigingni o'zing to'zdirgaysan,
Chuvaragingni o'zing chuvratkaysan,
Sariq sochlik bo'l, oq tishlik bo'l,
O'sib-o'sib o'zing oq so'zingga ega bo'l,

O'sib-o'sib ota-onangni o'zing boq,-deb bolani beshikka soladilar.

* * *

Qoch, qoch, qoch, bo'jilari,
Keldi beshikni egalari,
Bolamning o'zi keldi,
Alla qiladi,
Mazza qiladi.

* * *

Oy keladi botgani,
O'g'lim keladi yotgani,
Man qo'rqaman bolaginam,
Qo'lim tegib uyg'otgani.

* * *

Allasi keldi,
Babasi qochdi,
Qoch, qoch, egasi keldi.

* * *

Egalari kirsin,
Bobovlari chiqsin,
Uyqusi beshikda qolsin.

* * *

Ket, ket, babasi,
Keldi egasi.
Tillo qal'asi,
Gulday jo'jasi,
Taq-taq gavora,dushmanlari ovora.

Egasi keldi,
Babasi ketsin,
Toshday qotsin,
Qushday tursin.

* * *

Bolam kirsin beshikka,
Babasi chiqsin eshikka.

Chaqaloqni beshikdan olayotganda ijro etiladigan aytimlar

Chaqaloqqa choponcha,
Olib keling dadasi,
Yoqasiga ko'zmunchoq,
Taqib keling, dadasi.
Yoqasi moyli bo'lsin,
Etagi loyli bo'lsin.

* * *

Taqi-tuqi gavora bo'lsin,
Dushmanlari ovora bo'lsin,
Uyqusi beshikda qolsin,
Dushmanlari eshikda qolsin.

* * *

Taqir-tuqur gavorasi,
Dardi dili ovorasi.
So'ngra uch marta:

— O's, o's, o's! — deyilib, o'ng qo'l bilan chaqaloq yotgan o'rin siypalanib, bola orqa beli uqalanadi.

* * *

Bolam beshikdan chiqsin,
Uyqusi beshikda qolsin.

Chaqaloqni ilk bor cho'miltirganda...

Suv pok,[1] san nopok,
Pok suv sanga bo'lsin.
Sani nopokliging
Amiru xonlarga bo'lsin.

* * *

Suv-log'ar,[2] bacha-farbeh,[3]
Bolaning taniga malham bo'lsin suv,
Bolaning tanidan nopoklikni yuv.
Hamma vaqt rohatda bo'lsin shu bolam,
Ko'rmasin sirayam hech dardu alam.

Chaqaloqni birinchi marta tanishtirganda...

Hoy-hoyasi bordir shuning,
Zap doyasi bordir shuning.
Mard otasi bordir shuning,
Bek buvasi bordir shuning.
Jon buvisi bordir shuning,
Zo'r akasi bordir shuning.
Jo'r opasi bordir shuning,

[1] Pok—toza.
[2] Suv-log'ar—ozg'in, oriq.
[3] Bacha-farbeh—semiz.

Uzoq-uzoq joylarda
Baxshidasi[1] bordir shuning!

* * *

Qarolidandir beshigi,
Qayrilib olsin onasi.
Tilla qamishdan beshigi,
Tovlanib olsin otasi.
Olma daraxtdan beshigi,
Aylanib olsin buvisi.
Shaftolidandir beshigi,
Shappilab o'psin buvasi.
Zardolidandir beshigi,
Zeyralib[2] olsin opasi.
Jiyda daraxtdan beshigi,
Ko'tara qolsin opasi!

Bolaning ilk tishi ko'ringanda...

Bahor keldi, qish chiqdi,
Chaqaloqqa tish chiqdi.
Kichkintoy deb o'ylamang,
Unga ham yumush chiqdi.
Ovqatini chaynashga
Har kuni bir ish chiqdi.

* * *

Ikki tishingga dur bo'lay,
Etgan ishingga qul bo'lay.
Xaloyiqning ko'zi bo'lib,
Kissavuring o'zim bo'lay.

Bola birinchi marta o'tirganida...

O'tirsin-o, o'tirsin,
Boshini guldan to'ldirsin.

---

[1] Baxshidasi—beshikkerti qilingan.
[2] Zeyralib—javrab.

Shuginani ko'rgan qizlar
O'zini osib o'ldirsin!

Bola oyoq chiqarganda...

Adoq-adoq arisin,
Tikan shunga kirmasin.
Ko'zi qattiq bandalar,
Ko'zi shunga tegmasin!

* * *

Kela-kela, keladi,
Otasining bolasi.
Yona-yona keladi
Enasining bolasi.
O'zim o'rgilay shunnan!

Bolani toy-toy qilganda...

Toy-toy bolam, toy bolam,
Shirin, erkatoy bolam.
Yumshoq sarimoy bolam,
O'zimninggina oy bolam!

Bolaga yangi kiyim kiydirilganda...

Tepa-tepa to'zdiray,
Mingan otim o'zdiray.
San-bir yillik,
Man-ming yillik!

* * *

Yoqasi moyli bo'lsin,
Etagi loyli bo'lsin.
Mayli, bir yilda to'zsin,
O'zi-chi, ming yil kulsin!

Qizaloq sochini ilk bor yuvib turganda...

Oyda-quloch,
Kunda-tutam.
Senga-kuyov,
Menga-palov!

ERKALAMALAR

O, shugina, shuginagina,
Munchagina, tunchagina.
Kunchagina, shunchagina,
Yashnab turgan g'unchagina!

* * *

Tasma tasadduq bo'yiga,
O'yinchi kelsin to'yiga.
O'yinchilar o'ynamasa,
O'zim o'ynayman to'yida.

* * *

Aylanayin oqchamdan,
Lablari qaymoqchamdan.
Iskasam zomichadek,
Cho'milsa-gul-g'unchadek.

* * *

Shugina jonim huv, dedi,
Jom kosada suv, dedi.
Jom kosa jonim, dedi,
Bir qoshiq qonim, dedi.
Qo'tonda qo'yim, dedi,
Tramada[1] to'yim, dedi.

* * *

Sadqa sarig' yoqqa,

[1] Tramada—kuzda.

Bir kosa qaymoqqa.
Jon sadqa, dil sadqa,
Sadog'alar sayrasin,
Biyisi shundan aylansin!

* * *

Ha do'rsa, do'rsa, do'rsa,
Qamish bog'i uzilsa.
Domod[1] bo'lsa, suzilsa,
Rost kaftingga sambo'sa.[2]
Qaynanasi challasa,
Noz qilsa-yu bormasa?!

* * *

Dilfuzaxon deyla uni,
Qandga qo'shib eyla uni.
Buxorodan sovchi kelsa,
Qimmatbaho deyla uni.

* * *

Mani qizim oppoqqina,
Boshida zar qalpoqqina.
Kimlar shuni ko'rolmasa,
Ko'ziga sho'r tuproqqina.

* * *

Hayyo-huylar bo'lsin-e,
Shugina to'ylar bo'lsin-e!
Shuginaning to'ylarida
Jumla-jahon o'ynasin-e!
Ammalari tanga sepib,
Hoy, barakalla, desin-e!

---

[1] Domod–kuyov
[2] Sambo'sa–somsa

* * *

Qaldirg'ochning gajagiday
Qoshingdan aylaniy sani.
Miyonkolning tarragiday
Bo'yingdan aylaniy sani.
Qattiq yerning shalg'amiday
Boshingdan aylaniy sani.
Balxi tutning yaprog'iday
Yuzingdan aylaniy sani.
Oq terakning gullariday
Tishingdan aylaniy sani.
Qaldirg'ochning qorasiday
Sochingdan aylaniy sani!

* * *

Sher bo'ladi o'g'limiz,
Er bo'ladi o'g'limiz.
Ko'p bo'ladi o'g'limiz,
Xo'p bo'ladi o'g'limiz.
Dehqon bo'lsin o'g'limiz,
Polvon bo'lsin o'g'limiz!

* * *

Ha kishta, kishta, kishta,
To'ylari bo'lsin qishda.
Asadda gulning jamoli,
Boshida ipak ro'moli.
Uzoqlardan ko'rinsin.
Shu qizimning jamoli!

Ha kishta, kishta, kishta,
To'ylari bo'lsin qishda.
Bog'da gullar so'lmasin,
Shugina bolam o'lmasin.
Qo'zilari qo'y bo'lsin,
Qo'y qizima to'y bo'lsin.
Ha kishta, kishta, kishta,
To'ylari bo'lsin qishda.

OVUTMACHOQLAR

Yig‘lama -ey, yig‘lama,
Ilik chaqib beraman.
Qurvaqaning oyog‘iga
Munchoq taqib beraman.
Qurvaqa tuyaga mindi,
Tuya qulog‘im dedi.
Bolajonim battar yig‘lab,
Unga qalpog‘im dedi.
Yig‘lama -ey, yig‘lama...

* * *

Bolajonim, jonim bolam,
Yig‘lamagin, jonim bolam.
To‘yga onang qo‘ymadimi?
Atlasidan bermadimi?
Qoringinang to‘ymadimi?
Ha bale, bale, ha bale!

* * *

Vuy-vuy, shuginani kim urdi?
Vuy-vuy, shuginaga kim lab burdi?
Yig‘lama, oppoqqinam,
Boshimdagi qalpoqqinam!

* * *

Ha... ha... nima bo‘ldi?
O‘pkaginang nimaga to‘ldi?
Hech kim senga qaramadimi?
Sochlaringni taramadimi?
Sochlaringni tarayman o‘zim,
Sadqangman o‘zim,
Sadqangman o‘zim.

* * *

Ho‘-ba, ho‘-ba, nega yig‘laysan?

Ho‘-ba, ho‘-ba, nega big‘laysan?
Ho‘-ba, ho‘-ba, big‘-big‘lama,
Ho‘-ba, ho‘-ba, san yig‘lama.
Yig‘lab bag‘rimni tig‘lama.
Ho‘...ba, ho‘...ba...jo...on, jo...on,
Sadqa senga shirin jon!

* * *

Qo‘y, yig‘lama, jon o‘g‘lim,
Oppog‘im, bag‘ri to‘g‘lim.
O‘g‘il bola yig‘lamas,
Jigar-bag‘rin tig‘lamas.
O‘g‘il bola yig‘lasa,
Uvol bo‘ladi, o‘g‘lim.
Jigar-bag‘rin tig‘lasa,
Dushman kuladi, o‘g‘lim.

* * *

Yig‘ilaring bor bo‘lsin-ey,
Shu o‘g‘lim shunqor bo‘lsin-ey!
Yaxshi-yomon kunlarda
Bardoshli, baor bo‘lsin-ey!

* * *

Kim urdi-yo, kim urdi,
Buxoroning oq ko‘kati(n)?
Unda-ku ko‘ylak yo‘q edi.
Ko‘ylagini kim to‘qidi?

* * *

Yig‘loq qizginam ursin,
Big‘loq qizginam ursin.
Yig‘lasa-yig‘laguday,
Big‘lasa-big‘laguday.
Yig‘isida oftob bor,
Big‘-big‘ida oftob bor.

Havzak-havzaklar

Bola kafti qo'lga olinib, barmoqlari sanala boshlanadi.
– Bosh barmoq.
– Bodom barmoq.
– O'rta ziyrak.
– Hoji mirak.
– Kichkina bo'bak.
Ana shu jarayonda barmoqchalar bukib boriladi, keyingi sanoqda ular qayta tikkaytirib boriladi:
Bosh barmoq aytarkan: – Bozor boraman!
Bodom barmoq aytarkan: – Birga boraman!
O'rta ziyrak aytarkan: – Tom teshaman!
Hoji mirak aytarkan: – Xudodan qo'rqmaysanmi?
Kichkina bo'bak aytarkan: – Olaman-da qochaman!
So'nggi jimjiloq barmoq sekin silkitib qo'yiladi.

* * *

– G'alvir, g'alvir... deyilib, bola kafti qitiqlanadi. So'ng barmoqlar bukila borilib, sanaladi:
– Otasi bozorga ketdi,
Onasi pazanda bo'ldi,
Dilorom tozaladi,
Charos yedi,
Rashida ketdi!

* * *

– Bosh barmoq bosh keltirar,
Bodom barmoq bodom keltirar.
O'rta terak o'tin terar,
Hoji xo'jam sut pishirar.
Gulbibishak gul terar!

QIZIQMACHOQLAR

– Tuya-tuya, tuz qayda?
Boldir, qo'yning boshida.
Eshib keldi yemishga,
Qo'ynim to'ldi yemishga.

Yemishim yerga to‘kildi,
Yavshonini berdi.
Yavshonni qora sigirga berdim,
Qora sigir sutin berdi.
Sutini kubalikka[1] berdim,
Ko‘pigini ichib ketdi.
Qarg‘a kelib qing etdi,
Qolganini ichib ul ketdi.
Savusqon[2] kelib sarq etdi,
Sarqitin ichib ul ketdi.
Qir akam qola berdi,
Qirmochini eya berdi.

* * *

G‘oz-g‘ozim bor, g‘oz-g‘oz,
Biri chaman, biri bo‘z.
Mindim bo‘zning beliga,
Tushdim g‘or-g‘or yo‘liga.
G‘or-g‘or yo‘li oq bozor,
Oq bozorda kim kezar?
Bitta maymuncha kezar.
Maymunchani hurkitdim,
Quloq burnin turg‘izdim.
Mah-mah desam kelmadi,
Chigit bersam yemadi.
Chigit qozonda qaynar,
Bulbul qafasda sayrar.
Bulbul uyi qamishdan
O‘ng barmog‘i kumushdan.
Hofiz og‘am uydami?
Bedov otda to‘ydami?
Bedov otti minmakka,
Hofiz og‘am yarashar.
Hofiz og‘am qo‘liga
Kesar qilich yarashar.
Kesar qilich kesmakka,
Fashist kalla yarashar.

---

[1] Kubalikka—kapalakka
[2] Savusqon—tovushqon, quyon.

Fashist kalla ko‘mmakka,
Suyuq chaga[1] yarashar.
Suyuq chaga ustiga,
Ko‘rpa o‘tlar yarashar.
Ko‘rpa o‘tlar yemakka,
O‘g‘loq -qo‘zi yarashar.
O‘g‘loq -qo‘zi sog‘moqqa,
Oqcha kelin yarashar.
Oqcha kelin qo‘liga,
Chinni kosa yarashar.
Chinni kosa ichiga,
Yog‘u patir yarashar.
Yog‘u patir yemakka,
Lo‘ppi bola yarashar.

* * *

— Ola tog‘ning boshida ne ko‘rding?
— Oq beshikni men ko‘rdim.
Oq beshikning ichida oq bolani men ko‘rdim,
Oq bolaning qo‘lida
Oq piyola men ko‘rdim.
Oq piyola ichida
Qizil olma men ko‘rdim.
Qizil olma tishladim,
Samarqandda qishladim.
Qo‘zivoy tog‘am xotini
Qizday bo‘lib o‘tiribdi.
Ikki yuzi qip-qizil,
Biyday bo‘lib o‘tiribdi.
Beting qurg‘ur beshqaldaq,
Beshik yo‘nib o‘tiribdi.
Qoshing qurg‘ur qashg‘aldaq
Qoshiq yo‘nib o‘tiribdi.
Katta-katta baliqlar,
Bola bosib yotibdi.
Kichik-kichik baliqlar,
Kindik kesib yotibdi.

[1] Chaqa—qum.

Zochak degan yer yutkur,
Yupqa yozib yuribdi.

* * *

Burgam-burgamdan botir,
Burgam choponda yotir.
Choponni suvga bossam,
Ko'zi miltirab yotir.
Burgam tepdi tizimga,
Olti oyda keldim o'zimga.
Uchramay ketsin uch xotin,
Uchovi uch musht urdi.
To'ramay tursin to'rt xotin,
To'rttasi to'rt musht urdi.
To'rt oy yotdim to'shakda,
Besh oy yotdim teshikda.
Sekin tuzalib chiqdim,
Burgamni egarladim.
Astagina sudralib,
Qo'limdan qocha qoldi.
Burgamni ko'rgan bormi,
Burgamni bilgan bormi.
– Amudaryo qarshisida,
Surxondaryo berisida.
O'tini o'tlab yuribdi,
Suvini suvlab yuribdi...
Borib asta ushladim,
Chakkasiga mush(t)ladim.
Etmish botmon tuz ortdim,
Oltmish botmon muz ortdim.
Tuzini tuzchiga berdim,
Muzini muzchiga berdim,
Burgamga xaridor keldi,
To'qqiz tangaga sota qoldim.

* * *

Tarvuz yema, to'yasan,
Laqashiqaldoq.
Mehnatingga kuyasan,
Laqashiqaldoq.

Yantog'ingning yog'i yo'q,
Laqashiqaldoq.
Odamingning sog'i yo'q,
Laqashiqaldoq,
Shavla emay o'layin,
Laqashiqaldoq.
Cholga tegmay o'layin,
Laqashiqaldoq.
Choldan qolgan bolani,
Laqashiqaldoq,
Ko'tarolmay o'layin,
Laqashiqaldoq.
Deppammi, jon deppammi,
Laqashiqaldoq.
Cholga tegay deppammi,
Laqashiqaldoq.
Chol opkegan sho'laga,
Laqashiqaldoq,
Bitimmi qoqay deppammi,
Laqashiqaldoq.
Chol ketadi-boradi,
Laqashiqaldoq.
Yeri, suvi qoladi,
Laqashiqaldoq.

* * *

– Kun, san nimadan kuchlisan?
– Man kuchli bo'lsam, bulut bosarmidi?
– Bulut, san nimadan kuchlisan?
– Man kuchli bo'lsam yomg'ir yog'armidi?
– Yomg'ir, san nimadan kuchlisan?
– Man kuchli bo'lsam, yerga tusharmidim?
– Yer, san nimadan kuchlisan?
– Man kuchli bo'lsam, o't ko'kararmidi?
– O't, san nimadan kuchlisan?
– Man kuchli bo'lsam, qo'y-qo'zi yermidi?
– Qo'y-qo'zi, san nimadan kuchlisan?
– Man kuchli bo'lsam, bo'ri yermidi?
– Bo'ri, san nimadan kuchlisan?
– Man kuchli bo'lsam, ovchi otarmidi?

– Ovchi, san nimadan kuchlisan?
– Man kuchli bo‘lsam, miltig‘imni sichqon kemirarmidi?
– Sichqon, san nimadan kuchlisan?
– Man kuchli bo‘lsam, qulog‘imni qumursqa bosarmidi?
– Qumursqa, san nimadan kuchlisan?
– Kuchliman, kuchliman.
Oltmish botmon tariqni,
Orqam bilan ko‘taraman.
Yetmish botmon tariqni,
Yelkam bilan ko‘taraman.
Kuchliman, kuchliman...

Yalinchoqlar

Oftob chiqdi

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim dadamga.
Dadam chakkamga urdi:
– Onangga borgin, – dedi.
– Ona, ona, qornim och.
– Qorning ochsa cho‘pchak ter.
Cho‘pchak[1] terdim bir quchoq,
Non yopdi o‘choq-o‘choq.
O‘g‘liga berdi o‘rog‘dek,
Menga berdi tirnoqdek.
Otib urdim-da, ketdim,
Borib buvimga etdim.[2]

* * *

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim buvamga.
Buvam bir tanga berdi,
Buvim chakkamga urdi.
Chakkamning qoni chiqdi,
Yangamning joni chiqdi.

[1] Cho‘pchak-o‘tin.
[2] Etdim-aytdim.

Shamol chaqirish

Shamol, shamol,
Bag‘ring kamol.
Onangni suv olib ketdi,
Otangni suv olib ketdi.
Esa qolsang-chi?!

* * *

Shamol, bag‘ring kamol,
Cho‘loq ketmoningni olib qoch!

Oyga

Oymoma oy,
Zig‘ir moy.
Kulchatoy,
Hali-hali.

* * *

Oymomajon, oymoma,
Bizlarga kulcha tashla,
Yangamga bachcha tashla!

* * *

Oymoma ayyor,
Chiliming tayyor.
Uyingga borsam,
Iting qopadi.
Yashirinib tursam,
Iskab topadi.

Hukmlagichlar

Xonqiziga aytiladi

Xol, xol,
Otang o‘ldi,

Onang o‘ldi.
Borib xabar olmaysanmi?

* * *

Xonning qizi,
Uyingga mehmon keldi.
Bolang quduqqa tushdi!

Beshiktervatga aytiladi

Beshiktervat, beshiktervat
Bolaginang yig‘layapti?
Bolangni tebrat... tebrat... tebrat!

* * *

Beshiktervat, beshiktervat
Salima xolam nima tug‘adi?

Beshiktervat o‘ng oyog‘ini ko‘rsatsa: «O‘g‘il»
Chap oyog‘ini ko‘rsatsa: «Qiz»,— degani

Turnalarga aytiladi

— G‘alvir, g‘alvir...
-Arg‘amchi, arg‘amchi...

Shunday da’vatdan so‘ng turnalar go‘yo maqsadga muvofiq holda uchishni davom ettirishadi.

— Turna... arqon sol.
Cho‘ntagingga talqon sol.
Talqoningni yeyaylik,
Tegaversin deyaylik!

Qaldirg‘ochga aytiladi

Qaldirg‘och, g‘och-g‘och,
Eshigingni tezroq och.
Eshigingni ochmasang,

Menga yordam bermasang.
Do'stlashmayman sen minan.[1]
Ashulalar aytmayman,
Uchib kelsang qo'ymayman.

* * *

Qaldirg'och, g'och-g'och,
Eshigingni och-och.
Eshigingni ochmasang,
Tuynugingdan kiraman.
So'k oshingni ichaman,
Kafan to'ning bichaman.[2]

Laylakka aytiladi

Laylak opa,
Boshingga kapa.
Taqiyam[3] suvga tushdi,
Olib bering, jon opa!
Minadi aspi samanni,
Kezadi cho'lni Yamanni.
Uradi qamchini tovlab,
Keladi ohuni ovlab.
Teshik-tumluk kovlaydi,
O'zi qurvaqa ovlaydi.
Uning otasini, bobosini,
Jami pushtu panosini[4]
So'rab kelsang-
Ekan laylaknamo laylak.

* * *

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi.

---

[1] Minan—bilan.
[2] Bichaman—bu qo'shiqning keyingi ikki satri tubandagi variantda ham uchraydi:
Non choyingni ichaman,
Kafan to'ning bichaman.
[3] Taqiyam—do'ppi.
[4] Pushti panosini—avlod-ajdodi ma'nosida.

Laylak boradi toqqa,
Quloqlarida halqa.
Halqasi tushib qoldi,
O'tirdi yig'lamoqqa:
– Man bibi hoji edim,
Qizlarga boshchi edim.
Qizlar o'yin tushganda,
Men nog'orachi edim.
Bir kun nog'oram buzildi,
Tanoblari uzildi.
Qorbuvaning dastidan
Qanotlarim suzildi.

Echkim

Shalpang quloq, shol echkim,
O'tlab kelaman, deydi.
Suvlik-suvlik joylardan
Suvlab kelaman, deydi.
Oltiboyning bolasi
Otib ketdi echkimni,
Yettiboyning bolasi
Yetaklab ketdi echkimni.
Qo'li singan qassoblarga
So'ydirdilar echkimni.
Labi singan qozonlarga
Pishirdilar echkimni.
Jigari kuygan kampirlarga
Yedirdilar echkimni.

Qurbaqa

Qurbaqa chatanoq,
Bolang yig'laydi.
Ur chakkasiga,
Nimaga yig'laydi?

Qurbaqa chatanoq, bachang yig'laydi,
Ur chakkasiga, nimaga chig'laydi?
Supani supur, lo'li o'ynaydi,
Sarpo'shni ko'tar, go'ja qaynaydi.

* * *

— Qurbaqajon, qurbaqa
Afting nega bundaqa?
— Suvning ichida yurganda
Aftim bo'ldi shundaqa.

Qurbaqajon, qurbaqa,
Oyog'ing nega bundaqa?
— Kovush-mahsi kiymayman,
Shunga bo'ldi shundaqa.

— Qurbaqajon, qurbaqa,
Ko'zing nega bundaqa?
— Ko'zoynak man taqmayman,
Shuning uchun shundaqa.[1]

[1] Mazkur to'rtlik mustaqil holda quyidagi shaklda ham uchraydi:
Qurbaqa, baqa-baqa,
Ko'zing nega bundaqa?
Bugun o'sma qo'ymadim,
Shuning uchun shundaqa.

Tez aytishlar

Oq tepada oq kaptar, ko'k tepada ko'k kaptar.
Oq tepadagi oq kaptar ko'k tepadagi ko'k kaptarga don berdimi,
Ko'ktepadagi ko'k kaptar oq tepadagi oq kaptarga don berdimi?

* * *

Olti juft oq chinni choynakka to'rt juft ko'k qopqoq, to'rt juft ko'k chinni choynakka olti juft oq qopqoq yopsa bo'ladimi?

* * *

Bir tup tut,
To'rt tup turp.

* * *

Bir tup tut,
Tutning tagida
Bir tup turp.

* * *

Turp tutni turtib turibdimi?
Tut turpni turtib turibdimi?

* * *

Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp.
Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdimi?
Bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdimi?

Osh pashshasi—pes pashsha,
Pes pashsha—maxov pashsha.

* * *

Namanganlik To'lagan to'la lagan handalak yegan.

* * *

Osmonda ikkita kalxat: birining oq dumi kalta kalxat, birining qora dumi kalta kalxat. Oq dumi kalta kalxat qora dumi kalta kalxatga xalaqit beradi. Qora dumi kalta kalxat oq dumi kalta kalxatga xalaqit beradi.

* * *

Namanganda usta Musa puch pistafurushning oltmish uch pud pistasi bor. Oltmish uch pud pistasi bo'lsa ham o'sha usta Musa puch pistafurush, oltmish uch pud pistasi bo'lmasa ham o'sha usta Musa puch pistafurush.

* * *

Bu pista usta Musa ko'sa pistafurushning pistasi bo'lsa ham, bu pista usta Musa ko'sa pistafurushning pistasidir. Bu pista usta Musa ko'sa pistafurushning pistasti bo'lmasa ham bu pista usta Musa ko'sa pistafurushning pistasidir.

Yuqoridan kelotipti qora kalla katta kalxot. Quyidan kelotipti oq kalla kalta kalxot. Qora kalla kalta kalxotga oq kalla kalta kalxot rad berdi.

* * *

Qishda kishmish pishmasmish,
Pishsa kishmish qishmasmish.

* * *

Uy yasashasizmi?
Osh oshashasizmi?

* * *

Besh mis barkash. Besh mis barkashning ichida besh ming besh mis barkash.

* * *

Daryoning narigi betida ikkita jiyda,
Jirillagan jiydami, jirillamagan jiydami?
Jirillagan bo'lsa ham jirillatib kel,
Jirillamagan bo'lsa ham jirillatib kel.

* * *

– E jo'ra, bizning quyoshlamada quyoshlamalashib ket, quyoshlamalashsang ham quyoshlamalashib ket, quyoshlamalashmasang ham quyoshlamalashib ket.

* * *

Chustda usta Tursunmatning uchta tustovug'i bor. O'sha uchta tustovuq Chustdagi usta Tursunmatning uchta tustovug'imi yoki boshqa tusdagi usta Tursunmatning uchta tus tovug'imi?

Chandishlar

– Uch, degin,
– Uch.
– Iching puch!

* * *

– To'rt, degin.
– To'rt.
– Kallaginang mo'rt!

* * *

– Olim, degin,
– Olim.
– O'zing o'zingga zolim!

* * *

– Cho'p, degin,
– Cho'p.

– Chop mushukni o'p!

* * *

– Ikki karra ikki nechi?
– To'rt.
– Kelin bo'lib to'rga o't.

* * *

– Nima desam, «menam»[1] deya tasdiqlay olasanmi?
– Ha.
– Men ketdim.
– Menam.
– Echki sotib oldim.
– Menam.
– Echki sakradi.
– Menam.
– Eshak hangradi.
– Menam.

* * *

– Mana bu nima?
– Dum.
– Og'zing to'la qum.[2]

* * *

– Qirqdan o'ttiz birni olsak, nechi qoladi?
– To'qqiz.
– Burningga burunduq o'tqiz!

* * *

– Kim katta?
– Men katta.
– Og'zingga loyli latta!

---

[1] Menam–men ham.
[2] Og'zing to'la qum– "ko'p vaysama, og'zingni yum" varianti ham bor.

* * *

– Ukangni oti nima?
– Niyoz.
– Yemishing bo'lsin piyoz!

Aldanmachoqlar

– Karim qayoqqa bordi?
– Ola tayoqqa bordi.
– Salim qayoqqa bordi?
– Qizil bo'yoqqa bordi.
– Balli!

– Kakku ko'kka uchdimi?
– Kakku ko'kka uchadi.
– Baqa ko'kka uchdimi?
– Baqa ko'lga tushadi?
– Balli!

– Bo'ri uzum eydimi?
– Bo'ri qo'zi eydi.
– Tulki sovun eydimi?
– Tulki tovuq eydi.
– Balli!

– Bulbul cho'lda sayrarmi?
– Bulbul bog'da sayraydi.
– Burgut suvda suzarmi?
– Burgut tog'da yayraydi.
– Balli!

– Ilon uzum eydimi?
– Ilon, uzum eydi.
– E... e...
Ahmoq shunday deydi.

* * *

– Tomdan tarasha tushdi
Boshimga resha[1] tushdi.
Boshimga qarang-qarang,
Qalpog'im suvga tushdi!

* * *

– Mavji bo'ji,
Jamara guji,
Ushpulaging[2]
Erga tushdi!

* * *

– Aldadim, aldadim,
Atalani yalatdim,
Devolchadan[3] oshirdim,
Chang'aloqqa[4] yashirdim.

Arazlamalar

San dema, sanog'ingga,
Qizil pichoq tomog'ingga.
Yeganing parcha-parcha,
Sen o'zing kuchukbachcha!

* * *

Qahring kelsa,
Burningni tishla.
Qaynotangning
Qornini tishla!

---

[1] Resha-ildiz. Bu joyda tarasha ma'nosida.
[2] Ushpulaging-hushtak.
[3] Devolchadan-devorcha.
[4] Chang'aloqqa-paxta chanog'i.

* * *

Fotima-Zuhro urushdi.
Manziliga yetishdi.
Angi-mangi,
Man san minan jangi!

Yarashtirgichlar

– Qilichmi, to'qmoq?
– To'qmoq.
– Shunday bo'lsa,
Man san bilan
Qirq yilgacha o'rtoq!

* * *

Karimga berdim toychoq,
U olavermadi har choq.
Toychog'imni kim olsa,
Men u bilan chin o'rtoq!

* * *

Yalinmachoq-yalinchoq,
Pista po'choq.
Qilichmi, to'qmoq?
Qilich-qirq yilgacha o'rtoq,
To'qmoq-to'qson yilgacha o'rtoq!

* * *

Yalinmachoq, yalinmagin,
Pista po'choq, achinmagin.
Yalinmachoq,
Pista po'choq.
Biringga arpa,
Biringga bug'doy,
Gij-badabang!

Guldur-guplar

Dim-dim,
O‘ra ko‘mdim.
Gapirganning og‘ziga
Bir shapaloq urdim.

* * *

Guldur-gup,
O‘raga sichqon tushdi,
Guldur-gup.

* * *

Chumchuq uchdi,
Sa’dini quchdi,
Gum.

* * *

Jim-jim, jimma-jim,
Og‘zingni darrov yum.
Nikolayni poyezdiday,
Qilma taqa-tuq, bum-bum.

* * *

Jildirim-juft,
Og‘zimga soliq qulf.
Mendan oldin kim gapirsa,
Og‘ziga bir arava chivin, hip.

* * *

— Otini-e, otini,
Qo‘ya turgin shotini.
Mandin oldin kim gapirsa,
Ko‘r gadoyning xotini.

* * *

Hapini, hapini, hapini,
Tomga qo'ydim shotini.
Shaldiroqdan suv ichgan
Shaldir buvam xotini.
Guldirakdan suv ichgan
Guldir buvam xotini.
Mendan burun gapirgan
Ismatkarning xotini.
Hap, og'zingni yop,
Qulfi sizlarda,
Kaliti manda.

Chorlamalar

Bache, bache, bozi,
Kim qora qozi.
Kim o'yinga chiqmasa,
Bo'yniga tosh-tarozi!

* * *

Tokchaga bug'doy sepuvdim,
Undimikan-o, undimikan.
Mashrabboy uydan chiqmaydi,
Yotdimikan-o, yotdimikan?

* * *

Tomda tovuq yotarmi,
Oyog'ingdan tortarmi?
O'yin yoqmas bolalar
Namozshomdan qotarmi?
Kel-ho!

* * *

Tomda tovuq yotarmi,
Oyog'lari qotarmi?

Kichikkina bachalar
Namozshomdan yotarmi?

* * *

O‘zbargani suvi bor,
Daraxtlari xuddi dor.
Onaboshi, qani chiq.
Bachalaring sanga zor!

*****

Chumchuqcha chirillaydi,
Qanoti pirillaydi.
Sidiqaxon uydan chiqsa,
Otasi g‘urillaydi!

Cheklashmachoqlar

Ol tiyoq,
Olmon tiyoq.
Burgut tiyoq,
Jarang-jurung.

* * *

– Ona, ona, kim ona?
– Men ona. (Biz ona)
– Sizga osmondagi oy kerakmi,
Kishnab turgan toy kerak?
– Bizga kishnab turgan toy kerak.
– Kishnab turgan toy menman.
– O‘t, bizdan ekansan.

* * *

– Biz ikki gulu lola,
Kimga gul, kimga lola?

* * *

– Mati, mati,
Kimning navbati?
– Meniki. (Onaboshilardan biri.)
– Tarvuzni olasanmi,
Yoki qovunni?

* * *

– Qurilloq qurbaqani olasanmi,
Tarilloq toshbaqani?

* * *

– Toji tilla xo'rozni olasanmi,
Yo chala mulla tovuqni?

* * *

Onaboshi, onaboshi,
Yigitlarning qalam qoshi.
Kimni olasan,
Tovuqnimi, xo'roznimi?

Sanamalar

Bir, ikki,
Olma dikki.
Safar oyi
Sariq chumchuq.
Bog'da turmay,
Tez uchib chiq!

* * *

Bir, ikki,
Olma dikki.
Sariq chumchuq
Uyga kirdi,
San tezroq chiq!

* * *

Aziz ko‘chaga chiqdi,
Arobasi buzildi.
Unga nechta mix kerak?
Bir, ikki, uch, to‘rt,
Besh, olti, yetti-ketdi!

* * *

O‘n, yigirma,
O‘ttiz, qirq.
Ellik, oltmish,
Etmish, sakson,
To‘qson, yuz.
Yuzga kirgin
Oppoq qiz!

* * *

Bir, ikki... aylana,
Aylanaga kir yana.
Anqov bo‘lma, ey o‘rtoq,
Doving keladi yana!

* * *

Bir, ikki, o‘n olti...
O‘n olti deb kim aytdi?
O‘n olti deb men aytdim.
Ishonmasang, sanab boq:
Birov,
Ikkov,
Uchov,
Qochov!

* * *

Elligu ellik bo‘lar yuz,
Yuzdan chiqqan oppoq qiz.

Oshga tashla ozroq tuz,
Tez bo'l, damla, tezroq suz!

* * *

Odina, badina, yagona,
Misli Vali jahona.
Jahon-jahon qizining
Otini qo'ydim Fazila.
Fazilaning otini
Darvozaga qoqibdi,
Bo'ri kelib o'qibdi,
Cumchuq kelib cho'qibdi.
Bir, ikki, uch, to'rt,
Besh, olti, yetti,
Yetaklab ketdi!

* * *

Bir, ikki... o'n, o'n ikki,
O'n ikki deb kim aytdi?
O'n ikki deb men aytdim,
Ishonmasang, sanam boq:
Birim—bilak,
Ikkim—elak.
Uchim—ichak,
To'rtim—to'lak.
Beshim—eshak,
Oltim—olganim.
Yettim —yetganim,
Sakkizim—jonon qizim,
To'qqizim—yuzim qizili,
O'nim—ishimdagi unum.
O'n birim—aytilmagan sirim,
O'n ikkim—chiqatur, ukkim!

* * *

Bir anor, ikki anor,
Uch anor-uchginasi.
To'rt anor-to'rtginasi.
Besh anor-chambarda,

Oltisi-omborda...
Alag‘ay-palag‘ay,
Uchdi-yu, ketdi!

* * *

Sakkiz, sakkiz-o‘n olti,
O‘n olti deb kim aytdi?
Oqqina kuchukcha aytdi?
Oqqina kuchukcha qani?
Oqqina kuchukcha o‘ldi.
Bachasi kimga qoldi?
Bachasi manda qoldi.
Bachasini bering-chi?
Qani olib ko‘ring-chi?
Salim qochdi,
Halim tutdi!

Andiru mandir

Andiru mandir,
Bu guli chandir.
Sag‘iru pag‘ir,
Budir pamadur.
Lachaylik.
Gul qanidur?
Qani, chiqu sur!

Chori chambar

Akalakam, dukkalakam,
Bavri chaman, buvra amal,
Bovda edi, qayda edi,
Bovlamadik, zuvlamadik,
Piltir pis, birpas pis,
Sen tur, sen chiq!

* * *

Chori chambar,
Biri anbar.

Ona qiz qayda?
Ola-bula tog‘da.
Tog‘man, zuvman,
Piltakash to‘ti qiz,
San tur, san chiq!

* * *

Avak-avak,
Tursin tuvak.
Itbalig‘i
Suvda gezar.
Suvin chiqar,
Bulbul akar.
Momom o‘g‘li
Nera ketdi?
Tuza ketdi?
Qachon kelar?
Yoza kelar.
Yo‘lga chiq.
San yumalab
Yotaver!

Oyoq tortish

Bu oyoq-botmon oyoq,
Bu oyoq-ketmon oyoq.
Qovun ekkanda, bormiding,
Jo‘yak tortganda bormiding?
Kelma endi qovunimga. Tort!

* * *

Men o‘tirdim,
Kashta tikdim.
Voy, qo‘lchamga
Suqildi igna,
La-la-la,
Chiqsin shu bola!

* * *

Qovun palak
Guvak otdi,
Guvak emas,
Chuvak otdi.
Chuvak qovun
Shirin ekan.
Safdan chiqsin
Qo'lim tekkan!

* * *

Avak-avak, do'stim tavak,
Shoh ho'kizi, shoh kapalak,
Turna qora, tur kuchugi,
Boy talog'i, boy kuchugi.
Qachon kelar?
Yoza kelar.
San tur, san chiq!

O'yin-qo'shiqlar

Oq terakmi, ko'k terak?

– Qamar, qamar, qamchini
Qovurg'aning yanchini
Oq terakmi, ko'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
– Kichkina Salim[1] kerak.

* * *

Biz boyagi hovlida
Bo'lib tarafma-taraf.
Navbat bilan aytishdik,
Taraf-tarafga qarab.
Oq terakmi, ko'k terak?

[1] O'yinga ishtirok etuvchi bolalarning nomiga qarab, o'zgartib aytilaveradi.

Bizdan sizga kim kerak?
– Bizga kerak maktabda
Eng a'lochi Alisher.
Oq terakmi, ko'k terak?
Bizga Alisher kerak!

Bululum-bululum

– Bululum-bululum, bozi,
Bizlar kimning qizi?
– Shakarbekning qizi.
– Shakarbekning nesi bor?
– Uchar-uchar qushi bor.
– Birginasini bersang-chi?
– O'zing tutib ko'rsang-chi?
Tutganing seniki,
Qochgani[1] meniki.

Bog'lam-bog'lam

– Bog'lam-bog'lam,
– Jonim bog'lam.
– Qo'ylar qayda?
– Olabog'da.
– Nima yeydi?
– Jog' yeydi.
– Jog'i nima?
– Jog'langiya.
– Dig'i nima?
– Dig'landiya.
– Boyning qizi
Boylansin-o.

Qo'rg'on olish

–Abdurahmon qoqvosh
–Labbevosh.
–Tuyang qayda?
–Ola tog'da.
–Moyi qani?
–Moydonda.
–Qatig'i qani?
–Qatlonda.

[1] Goho "qolgani" so'zi bilan ham aytiladi.

—Nima yeydi?
—Yontoq.
—Nima beradi?
—Moy.
—Suti qani?
—Sutlonda.
—Nurmat akamning qiziga karnaymi, surnay?

Chopishda kim o'zadi?

Qo'llarida qizil gul
Yashnab keladi.
Taglarida duldul ot
Kishnab keladi.
Qo'llarida ketmoni
Chopib keladi.
«Volga»siga oq shoyi
Yopib keladi.
Qo'ltig'ida kitobi
O'qib keladi.
Qo'lda qalam, qo'shiqlar
To'qib keladi.
—Zuv...v! Zuvv!...Havoda chaqmoq!
Kim kech qolsa ahmoq!

Ushlama

Olma-anor pishibdi,
Taglariga tushibdi.
Esizgina dugonam,
Bosmachiga tushibdi.
Olib keling, ko'raylik,
Sochini mayda o'raylik.
Kastumidan ushlasam,
Ushlama, —deydi-yo,
Ushlama!
Qochadi. Boshqalar uni quvadilar.

Quvlashmachoq

Laka-lak, lak-laka, lak,
Shamolda uchdi kapalak.
Qochishing sani kapalak,
Seni tut, endi man halak.

Otilgan do‘ppini kim oldin olib keladi?

Tillo sandiq ochildi,
Tagiga bodom sochildi.
U bodomni terolmay,
Qanotlarim qayrildi.
Qanot bering, uchaylik,
Oqsaroyga tushaylik.
Oq saroyning oq toshi,
Oqsoqol buvam qoshi.
Chakalak maydonning boshi,
Arra-marra,
Bo‘yningizga bir marra.
Bir do‘ppim bor-besh.
Orqasidan qaytish,
Orqasidan kim qaytmasa,
Bir chimchilab olish!

Tarqalmachoqlar

Tor kastyum tavo[1] bo‘ldi.
Marjonim shado[2] bo‘ldi.
Xush kelibsiz, o‘rtoqlar,
O‘yinimiz ado bo‘ldi!

* * *

Uy-uylikka,
Tepa to‘llikka!

* * *

Uy-uyiga
Tepa-to‘yiga!

* * *

Uy-uyga,
Kapa to‘yga.
Bir pichog‘im bor-suyunchisiga!

---

[1] Tavo—to‘zidi.
[2] Shado—shoda.

* * *

Biz edik, biz edik,
O‘ttiz ikki qiz edik.
Shu o‘yinni bilolmay,
To‘rt tomonga to‘zidik.

* * *

Uy-uyingga,
Katta kuyingga.
Bir xo‘rozim bor,
Qaysi biringga?

Qiqillamalar

Kachchi-kachchi, dona,
Dumala, dugona.

* * *

Karim dedi: —Ha, —dedi,
Ko‘tarib urdim: —Ba! —dedi.

* * *

Halo‘shi-lo‘shi-lo‘shi,
Er boshida kalo‘shi.

* * *

Pu-pub, pu-pub, pishdi tut,
Pu-pub, pu-pub, pishdi tut.

* * *

Holaylini bilib oldim,
Yuchki dumini yulib oldim.

* * *

Handalak dalak-dalak,
Halima, yulma palak.

* * *

Laka-lak, lak-laka-lak,
Shamolda uchdi kapalak.

* * *

Chapak-chapak, chapakcha,
Yotar joyi katakcha.

* * *

Echki keladi ma'rab,
O'z egasiga qarab.

* * *

Arra-arra-arra,
Chop, san onangga qara!

* * *

Chumoli-moli-moli,
Chumoli yeydi oli.[1]

* * *

Birdi-birdi-birdi-bir,
Karim sen uyingga kir.

Tegishmachoqlar

Qosim suq,
Qorni quduq.
Ko'zi och,
Nafsi quloch.

[1] Meva.

Ko'zi lo'q,
Uyati yo'q.

* * *

Qosim qotdi,
Kamalak otdi.
Kamalagini otolmay,
Yerga yumalab yotdi.
Qosim yerdan turguncha,
Oy botib, tong otdi.
Baqo buqur,
Ichi chuqur.
Choy ichadi,
Quldur-quldur.

* * *

Qurbon quruq,
Qorni buruq.
Tomda yotar,
Tarasha otar.
Qurbaqa kelib,
Laqqa yutar.

* * *

Juma jumalaydi,
Handakka yumalaydi.
Handakni pechak bosdi,
Jumani chechak bosdi.
Juma o'laman, deydi,
Pishak ko'maman, deydi.
Sichqon ochaman, deydi,
Ilon chaqaman, deydi.

* * *

Ergash degan oti ekan,
Oyoqlari shoti ekan.
Noskaduday burni ekan,

Kajavaday qorni ekan,
Somonxona o‘rni ekan.

* * *

Fotima fotillaydi,
Oshini qatig‘laydi.
Oshiga chivin tushsa,
O‘tirib yig‘laydi.

* * *

Kelinchak-kelinchak,
Ish qilishga erinchak.
Hovlingiz juda katta,
Shipirishga erinchak.
Xamiringiz achib ketibdi,
Sutingiz toshib ketibdi.
Kir yuvibdi, horibdi,
Atir-upa qo‘yibdi.
Akasining ko‘ylagini
Ochiltirmay yuvibdi.

* * *

Hamdam bobom osh pishirar,
Ichiga pashsha tushirar.
Ichsam qornim shishirar,
Kuni bo‘yi etim tirishar.

* * *

Oy yanga-yu, oy yanga,
O‘choq boshida tanga.
Sho‘rvani sho‘r qilibsiz,
Bobomni ko‘r qilibsiz.

* * *

Anbar kelin non yopadi,
Yarmisini xom yopadi.

Kuyov kelib bir tepadi,
Qo‘rqqanidan suv sepadi.

* * *

Oy qiz, oylar qiz,
Har narsaga yig‘lar qiz.
Oppoq-oppoq bo‘yniga
Noskadini boylar qiz.

Masxaralamalar

Bozorga bordim,
Kadini ko‘rdim.
Kallasi katta,
Qorini ko‘rdim.

* * *

Boyning qizi osh ichdi,
Qoshig‘i erga tushdi.
Uni ko‘rib suygani,
Devordan oshib tushdi.

* * *

Erka qiz chiqib ketdi,
Darchani ochib ketdi.
Suyganining betiga,
Sho‘r tuproq sochib ketdi.

* * *

Yomg‘ir yog‘aloq,
Echki chaqaloq.
Boylar bolasi,
Qorni dumaloq.
Kambag‘al bolasi,
Bo‘ladi bodroq.

* * *

Qarg‘alar, hoy qarg‘alar,
Boyning bog‘ida yo‘rg‘ala.
Boy qizini bermasa,
Soqqollarini yumdala.

* * *

Layli yiqildi,
Bo‘yni bukildi.
Eshonga osh etuvdim,
Yo‘lda to‘kildi.

* * *

Otam ketgan urushga,
Dushmanni ko‘p qirishga.
Boshi uzun, ko‘zi ko‘r,
Gitlerni o‘ldirishga.

* * *

Gitler ekan badqovoq,
Afti xunuk, kar quloq.
Bosh deb olib yurgani,
Kalla emas, to‘rqovoq.

O'YINLAR

Tiriltirishma

Bu o'yinni o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham o'ynashi mumkin. O'yinga 15–20 tagacha bola qatnashadi. Ular cheklashmachoq asosida ikki raqib tomonga teng bo'linishadi.

O'yinning qoidasi: Bunda bir tomondagilar ikkinchi tomondagilarni quvlab tutishi kerak. Bir bola Anvarni tutsa, «Anvarni tutdim» deydi. Shunda uni o'yindan chiqarib yoniga bir bolani qorovul qo'yadi. O'yin paytida «o'lgan» Anvarni qorovul qo'riqlab turadi. Anvar bo'lsa harakat qilmasdan do'stlaridan yordam kutadi. Agar harakat qilsa, qo'llarini yoki oyoqlarini qimirlatsa, o'yindan chiqadi. Bir do'sti payt poylab kelib, Anvarning qo'liga astagina urib, u ham harakatsiz Anvarning yonida turishi kerak. Agar ushlab bilmasa ikkovi ham qochib ketadi, yana o'yinga kiradi. Shunisi borki, tiriltirishmada bolalar yashirinishmaydi, balki bir-birlaridan qochib yurishadi. Raqib tomon u tomon a'zolarining hammasini tutib olsalar, tomonlar o'zaro g'olib chiqib, o'zaro o'rin almashadilar. O'yin shu zaylda bolalar charchaguncha davom etadi.

Bu o'yin bolalarda chaqqonlik, epchillik, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni tarbiyalaydi. Ularning ruhan sezgir, e'tiborli bo'lishlarida muhim rol o'ynaydi.

Cho'ponlar va echkilar

O'yinni butun guruh o'ynashi mumkin.

O'yinning tavsifi: Maydon o'rtasiga diametri 8 metrga teng doira chiziladi.

O'yinchilarning soni 20 tadan ortiq bo'lgan paytda o'yin bir vaqtning o'zida ikkita katta doirada o'tkaziladi. O'yinchilar ikki guruhga bo'linadilar. Qur'a tashlash bilan bir guruh «Cho'ponlar», ikkinchi guruh «Echkilar» deb ataladi. «Cho'ponlar» bir, ikki, uch deb tartib bilan sanab chiqadilar va o'z raqamlarini eslab qolib, doira tashqarisiga, «Echkilar» esa doira ichiga joylashadilar. O'yinboshi cho'ponlardan birining raqamini aytib chaqiradi. Raqami chaqirilgan o'yinchi bir oyog'ida sakragani holda doira ichidagi «Echkilar»ni tuta boshlaydi (buning uchun u raqib o'yinchiga qo'li tegsa bas). «Echkilar» ham bir oyoqlarida sakrab cho'pondan qochadilar. Bir ozdan so'ng rahbar ikkinchi

«Cho'ponni» chaqiradi, birinchisi esa o'z joyiga borib turadi. Hamma echkilarni tutib bo'lgandan so'ng guruhlar joylaridan almashadilar va o'yin yana davom etadi. Muayyan vaqt ichida ko'proq tutgan yoki ko'p ochko to'plagan guruh g'olib chiqadi.

O'yin doirasi:

1. «Echkilar»ning doira tashqarisiga chiqishlari mumkin emas. Bu qoidani buzgan o'yinchi tutilgan hisoblanadi.

2. «Echkilar»ni tutayotgan «Cho'ponlar» o'ng, dam chap oyoqlarida sakrashlari mumkin.

3. Tutilgan «Echkilar» doira tashqarisiga chiqib o'tiradilar. Ular o'yinda qatnashishni davom ettirishlari mumkin, lekin bunda «Cho'ponlar» guruhdagi har bir tutilgan «Echki» uchun ochko beriladi.

4. Yangi «Cho'pon» faqat undan avvalgi «Cho'pon» doiradan chiqib ketayotgandan so'ng o'yinni davom ettirishi mumkin.

5. Ikkala oyog'i yerga tekkan «Cho'pon» o'z joyiga qaytariladi.

Olatoy-Bulatoy

Bu o'yinni bir guruh bolalar o'ynashlari mumkin.

O'yinning qoidasi: O'yinchilar tomonidan ikkita o'yinboshi saylanadi. Ular qo'llarini yuqoriga ko'tarib xuddi eshikka o'xshab ushlab turadilar. Bolalar qator turishib, ularning qo'li ostidan aylanib o'taveradilar. Onaboshilar har gal bolalar qo'l ostilaridan o'tayotganda:

Olatoy, bulatoy,
Man sani yo'rg'alatay.
Yo'rg'a otim o'libdi,
Go'shtini kimga sotay?
Bangi ketarman bo'pti,
Xotin olarman bo'pti.
Xotinining kuchi yo'q,
Chochvog'ining uchi yo'q,
Kashta tikar qizi yo'q,
Oshiq o'ynar o'g'li yo'q.
Ha-yu, kuchi yo'q,
Ha-yu kuchi yo'q!

Yoki:

Olatoy, bulatoy,
Yo'rg'a toyni man minib,
Xurosonga boratoy.
Xurosonning yo'lida
Bangi-mangiga sotay.
Bangining otasi yo'q,
Belida po'tasi yo'q.

Va yana:

Olatoy, bulatoy,
Man sani yo'rg'alatay.
Yo'rg'alama; chopa qol,
Shamoldan o'zib ketay,
Tezroq shamolga etay.
Onam dili qon bo'pti,
Yoshlari marjon bo'pti.
Marjonining ipi yo'q,

Qizlarining sepi yo'q,

– Qo'shiqlaridan birini kuylab, saf oxirida qolgan bolani ushlayveradilar.

O'yin ochiq havoda, bahor va yoz fasllarida o'ynaladi.

Ikki ayoz

O'yinning tavsifi: Maydonchaning hamma tomonlari chegarasidan uch-to'rt qadam ichkariga ana shu tomonlari parallel qilib bittadan chiziq o'tkaziladi. Atrofi chiziqlar bilan ajratilgan joy «uy» bo'ladi.

Onaboshi qilib tayinlangan ikki boladan boshqa hamma o'yinchilar chiziqlardan birining orqasiga – "uyga" joylashadi. O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan onaboshi baland ovoz bilan ularni o'yinga chorlaydi.

Shundan keyin bolalar maydonchaning qarshi tomoniga yugurib o'tadilar.

Onaboshilar-ayozlar yugurib o'tgan bolalarni quvib yetib, ularga qo'l tekkizadilar. Ayozlarning qo'li tekkan o'yinchilar qattiq sovuqdan qotib qolgan singari to'xtab qoladilar. Qolganlari chiziq orasidagi "uy"ga to'planadilar.

Undan keyin o'yinchilar xuddi shu tartibda maydonchaning bir

tomonidan ikkinchi tomoniga bir necha marta yugurib o'tadilar. Ammo ular har safar yugurib o'tganlarida o'zlarining ushlangan o'rtoqlariga qo'l tekkizib, ularni qutqara boradilar. Qutqarilgan o'yinchilar qolgan bolalar bilan birga chiziq orasiga qochadilar.

Bir oz vaqt o'tgach, boshqa ikkita ayoz tayinlanadi. Yugurib o'tayotganlaridan ko'pchiligini to'xtata olgan onaboshilar g'olib chiqqan hisoblanadi. Ayozlar bir marta ham ushlay olmagan yoki boshqalariga nisbatan kamroq ushlagan o'yinchilar yutqazgan hisoblanadi. O'yinning qoidalari:

1. Yugurib o'tish paytida bir-birini tutish man etiladi.
2. Uydan yugurib chiqqan o'yinchilarning orqaga qaytishlari mumkin emas.
3. Onaboshilar-ayozlar chiziq orqasida turgan o'yinchilarga qo'l tekkiza olmaydilar.

Eslatma: O'yinchilar birgalashib aytiladigan so'zlarni o'yin boshlanishidan oldin o'rganib olishlari kerak.

O'yinning o'ziga xos harakatlari chap berib yugurishdir.

Podsho va vazir

Ko'p hollarda, asosan, o'g'il bolalar, ba'zi hollarda qiz bilan aralash o'ynaladigan bu o'yinda o'yinchilar soni cheklanmagan bo'ladi. O'yin, asosan, qishda o'ynaladi..

Bunda oshiq tanlanib tashlanadi. Kimning oshig'i tikka– o'ngqa yoki o'mpa tursa – o'sha podsho; olchi tursa – o'sha vazir bo'ladi. Keyingi paytlarda oshiq o'rnida gugurt qutidan ham foydalanila boshlandi. Gugurt quti otilganda – donli tomoni yuqori tursa – uni otgan podsho; pastga tursa – vazir sanaladi.

Podsho va vazir aniqlangach, oshiq (gugurt) yana tashlanadi. Kimning oshig'i chikka tursa (gugurtning rasmli tomoni ko'rinsa) – o'sha o'g'ri hisoblanadi. Shunda vazir podshoga murojaat etadi:

– Taqsir o'g'ri tutdim.

Podsho so'raydi:

– Kim?

Vazir "o'g'ri" bo'lgan o'yinchi ismini aytadi. Podsho unga jazo beruvchi hukm chiqaradi. Vazir shu hukmni ijro etadi yoki ettiradi. Hukmlar tubandagicha bo'lishi mumkin:

– O'g'ri o'ynab bersin!

– O'g'ri ashula aytsin!

–O‘g‘ri qoshini qoqsin!
– O‘g‘ri noz qilsin!
–O‘g‘ri (qiz bo‘lsa) o‘pich bersin!
–O‘g‘ri orqasiga uch (to‘rt) durra urilsin!
–O‘g‘ri peshonasiga qarg‘achishdi qilinsin! (Peshonasiga tupuriladi).

Hukm bajarilgach, o‘yin yana qayta boshlanadi. Bunda kimning oshig‘i o‘ngqa tursa – o‘sha podsho; olchi tursa –vazir bo‘laveradi. Avvalgi podsho-yu vazir oshig‘i chikka tursa – o‘g‘ri bo‘lib, jazolanaveradi.

Salovot

Bolalar soni cheklanmasa-da, miqdoran juft raqamga teng bo‘lishlari shart. Ular to‘planishgach, dastlab ikkita onaboshini belgilashadi, so‘ngra juft-juft bo‘lishib yelkama-yelka qo‘l tashlashib, nariroqqa borishadi-da, o‘zlariga xufya nom qo‘yishib, onaboshilar huzuriga kelisharkan, shunday murojaat qilishadi:

– Onaboshi, onaboshi,
Yigitlarning qalam qoshi.
Osmondagi oyni olasanmi
Yoiki boyliqdagi toyni?

Navbati kelgan onaboshi:

– Boyliqdagi toyni.

– Men boyliqdagi toyman, – deydi shunday xufya nom olgan bola. Navbati kelgan onaboshi esa unga qarata:

– O‘t bizdan ekansan, – deydi. “Boyliqdagi toy” safga qo‘shiladi, nomi tilga olinmagan bola esa raqib taraf safiga qo‘shiladi. Barcha bolalar cheklashmachoq aytishib, shu xilda teng ikki guruhga taqsimlanishgach, har bir guruh bolalari o‘z sonlariga teng miqdorda chuqurcha qazadilar. Chuqurchalar kichkina koptok sig‘adigan hajmda bo‘lmog‘i shart. Nihoyat hamma narsa taxt bo‘lgach, o‘yinni boshlovchi guruh bolalari raqib guruh a’zolarini minib oladilar. Shunda bolalarni ko‘tarib turgan tarafning onaboshisi koptokni markaziy chuqurchani mo‘ljallab yo‘naltiradi. Koptok o‘sha chuqurchaga tushsa, uni olib darhol raqib tarafdagi biror bolani mo‘ljallab otmog‘i zarur. Koptok tegsa, raqib taraf yutqizgan sanaladi. Shunda g‘olib taraf bolalari: – Men minaman, ko‘taraverasan,

Ko‘tarolmasang, o‘livorasan.
Yo bo‘lmasa, qochivorasan,

Astak-pastak, salovot, — deya raqib taraf bolalarini minib olib o'yin galini olishadi. O'yin shu xilda toki bolalar charchashgunicha davom etaveradi.

Bu o'yin bahor, yoz va kuzda ochiq maydonlarda o'ynaladi.

Qalpoq tepdi

Bu o'yin koptok o'yinining qadimiy turlaridan. U bolalarning jo'rligida aytiladigan tubandagi qo'shiq bilan ajralib turadi:

—Qizim, qizim, qizomadi,
Eski to'nim yamomadi,
Sochlari ham uzomadi,
Bog'iga kirsa ho'jak,
Jug, jug, jug, ho'jagim demadi.

Bolalar shu so'zlarni aytib turadilar. Bir bola esa o'rtada yotgan qalpoqni boshqalarning tepib ketishidan qo'riqlaydi. Bordi-yu birorta bola tepib, chiqarib qo'ygudek bo'lsa, boshqalar tepib ketib qolishadi. Qolgan bolalar esa:

— Chur, churr, churr, — deb tezlik bilan marraga kelib turadilar.

O'yin ochiq havoda, o'g'il bolalar ishtirokida o'ynaladi. Ularning soni sakkiztagacha bo'lishi mumkin.

Mehmonmisiz?

Bu o'yinda ikkita qiz bola qatnashadi. Ulardan bittasi ikkita qo'lining kaftini ochib, o'rtog'iga uzatib turadi, ikkinchisi esa:

Juba, juba,
Ani tuba,
Tog'da lola,
Bir qiz bola,
Ko'chaga chiqing,
Bir qiz kelyapti,
Sochi mayda,
Qo'li belda
Voy qo'lim-ey, voy belim-ey,
Omonmisiz, esonmisiz,
Bugun bizga mehmonmisiz?

— deya uning qo'liga urib qochadi. O'rtog'i uni quvib tutib olsa (belgilangan marraga yetguncha), yuqoridagi qo'shiqni aytadi,

tutilgan qiz esa qo'lini ochib tutib turadi. Bu o'yin yoz oylarida ko'chada va hovlida o'ynaladi.

Akka qayda?

Bu o'yinda bolalar o'yinboshini belgilab olgach, uning amri bilan bir safga tizilishadi. Barchalari qo'lma-qo'l ushlashgan bo'ladi. Shunda o'yiboshi bilan ular o'rtasida shunday savol-javob bo'ladi:

—Akka qayda?
—Olamda.
—Nima qildi?
—Kashta tikdi.
—Kimlar uchun?
—Boylar uchun.
—Boylar unga ne berdi?
—Qattiq-quttuq non berdi.
—Darvozasi qani?
—Mana.
—Oti nima?
—Mehriya.

Kimning nomi tutilsa, o'shaning bosh tovushini, bu o'rinda "M"ni barcha bolalar to nafaslari yetguncha "M...m...m...m...m... m...m" tarzida aytib, akka-qag'aga o'xshab sakrab-hakkalab Mehriya "darvozasi"dan o'tgan bo'ladilar. Kimning nafasi eng ko'p cho'zilsa, o'yinboshilik vazifasiga o'tadi, o'yinboshi esa safga qo'shilib, uning o'rnini to'ldiradi.

O'yin shu xilda davom ettirilaveradi.

Kelincha

Bu o'yinni, asosan, qizlar o'ynaydi. Ular soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Qizlar doira shaklida o'tirib olgach, o'yinboshi qo'shiq aytib shunday shart qo'yadi:

Shokir-Shokirga ketdi,
Tillo kalishga ketdi.
Tillo kalish kiymayman,
So'pirdatib yurmayman.
O'tirgan qiz, turgan kelin!

Kim o'rnidan tursa, o'sha "kelincha" deb ustidan kulinadi. Yana qaytib shu qo'shiqni aytish evaziga o'yin davom ettirilaveradi.

Abo'lakam-dubo'lakam

Bunda ham bolalar to'planishgach, onaboshini belgilashadi. So'ngra barchalari o'tirib olib, oyoqlarini oldinga uzatishadi. Onaboshi qo'li bilan oyoqlarni bitta-bittadan turtib:

Abo'lakam-dubo'lakam,
Chitma-chiton.
Sochlari ishkelixon.
Xonimiz qachon kelar?
Xonimiz yozda kelar.
Tuzni ol, oshga sol!

Oxirgi so'z kimning oyog'iga to'g'ri kelsa, onaboshi uni chimchilab oladi. Shunda bola oyog'ini tortib oladi va o'yindan chiqqan hisoblanadi. Onaboshi eng so'nggi oyoqqacha shu sanoqni takrorlaydi. O'yindan chiqqan bolalar esa bir-bir borib yashirinishlari lozim. Oyog'i sanoqqa sig'magan eng oxirgi bola esa mushuk bo'lib miyovlaganda yashiringan bolalar sado berishlari darkor. Shunda "mushukboy" ularni birma-bir axtarib topadi. O'yin shu xilda davom etaveradi.

"To'p tosh"

Bu o'yin, asosan, qizaloqlar o'yini sifatida taqdim etiladi. Uning shartlari va turlari bisyor. Boshda qizlar kattaligi danakday, qirrador oq, qizil va ko'k rangli o'yin toshchalari tayyorlashadi. Bunday toshchalar har bir o'yinchi qizda bo'lmog'i shart. Qizlardan birovi o'yinboshilik qilib, qo'lida bir toshchani yashiradi, so'ng qo'llarini orqasiga olib, o'sha toshchani u qo'lidan-bunisiga, bu qo'lidan-unisiga bir necha marta almashtirib olganday bo'lib, tugilgan mushtlarini oldinga olib, qo'llarini cho'zgan holda: "Tosh qaysi qo'limda?" – deya dugonalariga murojaat qiladi. Yashiringan toshni topgan qiz o'yinni boshlash huquqiga ega bo'ladi. Qur'a tashlashda galni olgan qiz qo'lidagi toshlarni o'ynab turib tubandagicha "Otam ovlar ovlaydi" aytimini ayta boshlaydi:

Otam ovlar ovlaydi,
Govmish qo'ylar ma'raydi,
Onam terar bodomlar,
Oqshom kelar odamlar.
Chayla, kana, unsurlar,
Qurol yasar akamlar.

Cho'pon ochib eshikni
Berkitadi teshikni.
Katta-kichik akamlar
Nayza qalqon olganlar
Biz o'ynaymiz to'ptoshlar,
Bekinmachoq– quvlashar,
Bosta, koptok, zuvlashar,
Goh hakallab quvlashar.
Endi o'yin boshlaymiz,
Uchta toshni tashlaymiz.

Shundan so'ng "uchtalik to'p tosh" o'yinini boshlab yuborishgan. To'p tosh o'yini "Ey yosh", "Botmon-botmon" talablari, "Hakalagim", "O'qmoq-to'qmoq yalomalar", "Tergulim-termagulim" shartlari, "Uchamak" talabi singari olti qismdan keyingi yakunlovchi laparlar turkumidan tashkil topgan. Laparlar soni ham oltita: "Bitta tolning po'pagi", "Zar gilamda uchaylik", "Erta yoz maqtovlari", "Zeboxon bayti", "Hakalaka o'ynasam man", "Karra-karra" kabi. (Afsuski, bu laparlardan "Bitta tolning po'pagi"dan to'rtlik va "Hakalaka o'ynasam man"gina hozircha ma'lum).

Boshlovchi uchta toshni o'ng qo'lining old va orqasiga ola turib, uch marta o'giradi, har o'girganda "Har gulim", –deya qaytarib turadi. Shunda toshlar to'kilib yerga tushmasa, o'yinni navbatdagi dugonasi davom ettiradi. O'yin soqqasi uchta tosh bo'lib, ularni har gal tashlashdan oldin:

Biram yosh,
Ikkam yosh,

Ucham yosh, – so'zlari takroran aytib turilmog'i shart. Bu amalda, "Ey yosh" talabi hisoblanadi.

"Ey yosh" talabi

Ey yosh, biram yosh, yosh,
Ikkam yosh, ucham yosh.

Bu so'zlar aytilayotganda bir tosh osmonga irg'itilib yerga tushguniga qadar ikkinchisi olinib, uchinchisi irg'itilish holatida bo'lmog'i lozim.

"Botmon - botmon" talabi

Soqqa osmonga irg'itilgach, yerga tushgunicha:
Botmon - botmon,
Botmon - botmon,
Botmon - botmon,
Botmon - puchta,
Puchdan uchta,-so'zlari aytilib, ushlab tutib olinmog'i shart.

"Hakalakam" sharti

Bu shartga ko'ra qiz uch toshni qo'liga tashlab, bittasini osmonga irg'itadi. Tosh tushguncha ikkinchi toshni terib oladi. Bu uch marta takrorlanadi. Shu asnoda tubandagi aytim aytib turiladi:
Hakalakam keling,
Dukalakam keling.
Hakalakam uchta,
Dukalakam to'rtta.
Uchtadan berish yo'q,
Hech qaytib olish yo'q.

"O'qmoq-to'qmoq yalomalar" sharti

O'yinchi bitta toshni osmonga irg'itib, u yerga tushgunicha yerdagi zaxira toshdan boshqa birovini olib osmonga irg'itadi. Shu tosh yerga tushguncha o'ng qo'lini bir o'padi yoxud yalab oladi. Shartning "yalomalar" deyilishi shundan. Toshlar navbati bilan uch marta osmonga irg'itilib, qo'lga olinish jarayonida tubandagi aytim olti marta takrorlanmog'i shart:
O'qmoq-to'qmoq, yalomalar—bitta,
O'qmoq-to'qmoq, yalomalar—ikkita,
O'qmoq-to'qmoq, yalomalar—uchta,
O'qmoq-to'qmoq, yalomalar—to'rtta,
O'qmoq-to'qmoq, yalomalar—beshta,
O'qmoq-to'qmoq, yalomalar—oltita.

"Tergulim-termagulim" sharti

Bunda soqqa navbati bilan uch marta osmonga irg'itilib xuddi "O'qmoq-to'qmoq, yalomalar" shartidagidek bajarilsa-da, biroq

endi o'yinchi avval o'z peshonasini silab, so'ngra qo'lini o'pib olishga ulgurmog'i darkor. Yerdagi ikkita tosh bir gal sug'urib olinsa, ikkinchi navbatda terib olinadi. Toshlar supurib olinganda ham, terib olinganda ham tubandagi aytim takrorlanaveriladi:

Tergulim-termagulim, bitta-bitta,
Supurgulim-supurmagulim, ikkita.
Tergulim-termagulim, uchuv-uchta,
Supurgulim-supurmagulim, to'rtta.
To'rttadan qolsam-bermayman hech, o'rtoq,
Yana qaytib olmayman, kech, o'rtoq.

"Uchamak" talabi

Bu avvalgilarga nisbatan qiyinroq, unga ko'ra, soqqa osmonga irg'itilib yerga tushgunigacha zaxirada turgan ikki tosh tezlik bilan qo'ldan-qo'lga o'tkazib olinmog'i, ayni chog'da har biri navbatma-navbat soqqa sifatida osmonga irg'itilaverib o'ziga xos aylana-doira hosil qilinmog'i darkor. Bu jarayon esa tubandagi aytim bilan boshqarilishi lozim:

Uchamak-bitta,
Uchamak-ikki,
Uchamak-uchta,
Uchamak-to'rtta.
Uchta-puchta-puch,
Pildir-pis, uch!

Ana shu olti shart ijrosidan so'ng uch tosh navbatma-navbat osmonga irg'itila turilib, lapar aytib raqsga tushish boshlanadi. Har bir tosh irg'itilganda laparning bir satri kuylangan:

Bitta tolning po'pagi,
Ikkita tolning po'pagi.
Uchta tolning po'pagi,
Tegirmonning kepagi,
Kurmak nonning chalpagi.

So'ngra navbatma-navbat "Zar gilamda uchaylik", "Erta yoz maqtovlari", "Zeboxon bayti" laparlari kuylangan:

Hakalaka o'ynasam man-o,
Dukalaka o'ynasam man.
Dadam javob bersalar-o,
Ko'chada o'ynasam man.
Hakalaka o'ynasam man-o,
Dukalaka o'ynasam man.

Oyim javob bersalar-o,
Bog'chada o'ynasam man.
Ho...o.., hakalaka o'ynasam mano
Dukalaka o'ynasam man.
Dugon-dugonga o'ynab,
Qo'shiqlar kuylasam man.

Nihoyat yakunlovchi sifatida "Karra-xarra" lapari ijro etilgan. O'yinchi qiz shartlarni bexato bajara borib, laparlar ijrosi jarayonida dugonasiga ba'zi-ba'zida hazil aralash qochirimlar, jumboqli pichinglar, kinoya va kesatiqlar qilib tursa-da, buni u kulib-yayrab qabul qilgan, og'ir olmagan. Mag'lub tomon g'olib tomonning boshqa talablarini, chunonchi, ma'lum masofaga zuvillab yugurish, hakkalab chopish, raqsga tushish yo ashula kuylab berish, bir oyoqda belgilangan vaqtgacha tikka turish va boshqa shartlarini bajarmog'i shart sanalgan.

Non yopish

Bunda bolalar 2–3–4 ta bo'lib o'ynaganlar. Yozda ariqlarning ichidan yoki sug'orilgan yerning chetidan loy olganlar. Loydan zuvalachalar yasab ularni bir joyga terib qo'yganlar. So'ngra devorga aylana chizganlar, bu "tandir" hisoblangan. Qizdirilgan tandirga suv sepganday devordagi "tandir"ga ham suv sepganlar. Keyin "pazanda" zuvalalarni qo'li bilan bosib yozgan, cho'p yoki tovuq pati bilan cho'qqilab "kulcha" yasab navbat bilan "tandir"ga yopaverib, shunday deganlar:

To'lqinjonning to'yi bu
Biz taxladik moy kulcha.
Moy kulchaki – xuddi bol,
Xohlaganing saylab ol!

Yoki:

Ruxsor tug'ilgan kuni
Biz pishirdik moy kulcha.
Moy kulchaning moyi bor,
Xohlaganing tanlab ol!

So'ngra kulchalar devorda ancha vaqt turgach, ularni uzib olib, oftobga yozib qo'yganlar. Quriganlarini terib olganlar. Keyin "Kim chiroyli non yopibdi?"–deb bir-birlarining kulchalarini solishtirib ko'rganlar.

Yana bolalar loydan har xil narsalar: choynak, piyola, taqsimcha (tarelka), hayvonlarning shaklini ham yasaganlar.

IKKINCHI QISM

XX ASRDAGI O'ZBEK FOLKLORIDAN NAMUNALAR

Yangi qo'shiqlar

Xotin-qizlar ozodligi madhi

Chimmati yo'q chiroylik,
Yur, klubga boraylik.
Paranjilarni yig'ib
Olovda kuydiraylik.

* * *

Ko'kalamzor, maysazor,
O'ynamasam bo'lmaydi.
Paranji yopinganlar
Yorug'likni ko'rmaydi.

* * *

Kecha-kunduz yig'laydi
Qafasdagi qush- qumri.
Paranjida o'tmasin
Yoshlarning aziz umri.

* * *

G'o'zamizning ichida
Begona o't o'smasin.
Ozodlikning yo'lini
Ruhoniylar to'smasin.

* * *

Paranjining kulini
Surma qilsin eshonlar.
Allaqachon uzilgan
Oyoqdagi kishanlar.

* * *

Paranji balo ekan,
Zindonu jafo ekan.
Paranji tashlaganning
Mehnati a'lo ekan.

* * *

Yangi yo'lning shamoli,
Boshida g'ijim ro'moli.
G'ijim ro'mol ichida
Ko'rinar oydek jamoli.

* * *

Boshdagi ro'molimning
Aylanich ekan gullari.
Maktab boraman deya
Chiqdi bolamning tillari.

* * *

Ro'molimning uchida
-Chug'urchuqning pati bor.
Peshonam sho'ri ketgan,
Ozodlikning xati bor.

* * *

Po'lat sandiq ochildi
Yerga bodom sochildi.
Qora paranjim tashlab
Bahri dilim ochildi.

Oyposhsha

Tandir to'la non yopib
Uzolmagan Oyposhsha[1].
Ozodlikning davrini
Surolmagan Oyposhsha.

Ko'chadagi arava
Bo'sh ketganga o'xshaydi.
Esizgina Oyposhsha.
Yosh ketganga o'xshaydi.

Baland tog'dan tosh ketdi,
Oyposhshaxon yosh ketdi.
Oyposhsha yosh joniga
Qora ko'zdan yosh ketdi.

Oyposhsha chiqdi dashtga,
Ro'molni yoydi toshga.
Oyposhshaxon aytadi,
Tuproq botdi yonboshga.

Bozordan oldim mayiz,
Oyposhsha joning aziz.
Yosh joningga qasd qildi,
Sochlaring esiz-esiz.

Oyposhsha kirdi boqqa,
Ro'molni ildi shoqqa.
Boyda yayray deganda,
Ko'zi tushdi pichoqqa.

Oyposhshaxon kiygani
Tosmikan, tovormikan.
Oyposhshaning o'lgani
Rostmikan, yolg'onmikan.

---

[1] Oyposhsha-Toshkent viloyati Piskent tumanida 1930-yili paranji tashlagani uchun eri tomonidan o'ldirilgan ayol.

Oyposhshaxon bosh yuvdi,
Tarog'i tomda qoldi.
Oftobxonday onasi
Ko'rolmay dog'da qoldi.

Qotillarning qorniga
Qora qoziq qoqilsin.
Ozodlik dushmanlari
To'pga qo'yib otilsin!

Zog'ora

Zog'orani yopsam alim pishadi,
Qo'lima olganim oqib tushadi.
Yeganimda tomoqlarim pishadi,
Qaytib kelmasin emdi zog'ora.

Shunday zamonlar ham aylanib o'tdi,
Zog'ora, kurtuklar[1] yo'qolib ketdi.
Emdi baxtli zamon bizlarga yetdi,
Qaytiblar kelmasin emdi zog'ora.

* * *

Qirga ketdi qo'yimiz,
Kuzda bo'lar to'yimiz.
Jin chirog'in yo'qotdik,
Elektrlik uyimiz.

* * *

Tol ekdik suv bo'yiga
Soya-salqin solsin deb.
G'ayrat qilgan botirlar
Yotib damin olsin deb.

[1] Kurtuk – ovqatning bir turi.

* * *

Tog‘da sayraydi kaklik,
Oyoqlari po‘paklik.
Roziman o‘z baxtimdan,
Mening yorim udarnik.

* * *

Yuqoridan uy qildim,
Uyim uchun to‘y qildim.
Mehnat qilib dalada
Sigir qildim, qo‘y qildim.

* * *

Ayni sahar paytida,
Keldi yoqimli ovoz.
Traktorchi Tursunboy,
Yerni haydab qilar soz.

* * *

Paxtalar do‘ndiq-do‘ndiq,
Kulib-kulib boqadi.
Yashnab dala yuzlari
Gul chechaklar taqadi.

* * *

Yettiga kirib bolaman
Maktabga shaylanadi.
Uni ko‘rgan onasi
O‘rgilib aylanadi.

* * *

Kichkina qo‘li bilan
Qalam ushlashini ko‘r.
Keng ozoda maktabda
Ko‘ngil xushlashini ko‘r.

* * *

Ishlang bilak tolmasin,
Paxta cho'kib qolmasin.
Hushyor bo'ling, o'rtoqlar,
Dushman ig'vo qilmasin.

Yashasin, dehqon yashasin!

Xorazmning erlari bor,
Ishlamoqqa bellari bor.
Onda dehqon qo'llari bor,
Yashasin, dehqon yashasin.

Yozda dehqon uyda yotmas,
Pashsha chaqsa anga botmas.
Og'iz aylanmay non totmas,
Yashasin, dehqon yashasin.

Qishda aravani tek qo'ymas,
Ish yetib horganin bilmas.
Korsan-korsan osha to'ymas,
Yashasin, dehqon yashasin.

Zo'r yarog'i o'roq, beldir,
Pinaklab olsa, zo'r fildir.
Og'iz-to'shak, yostiq-cheldir,
Yashasin, dehqon yashasin.

Shirp ettirib urar bosha,
Cheldan ho'kiz chiqsa rosha.
So'ngra kelar pishgan osha,
Yashasin, dehqon yashasin.

Ilk bahordan qazuv boshlar,
Dehqonlar ishini tashlar.
Kapchisin darhol tarashlar,
Yashasin, dehqon yashasin.

Dehqon dunyoga kerakdur,
Ongli yashagan ziyrakdur,

Tirishib ishlash kerakdur,
Yashasin, dehqon yashasin.

Turli-turli olar xirmon,
Surnayli to‘y berar dehqon,
Dunyoga jon berar dehqon,
Yashasin, dehqon yashasin.

* * *

“Chumoli”day chimillab,
Daha kirsa shivillab,
Avaylab qo‘ysam dasta,
Pilla bo‘lsa duvirlab.

Epchil qo‘llardan o‘tib,
Sushilkada qurir u.
Qozonda qaynab, pishib,
Tola-tola bo‘lur u.

Tola-toladan nozik,
Kalavasi beuzuq.
Ipakni ishga solar,
Qiz-juvon — ko‘zi suzik.

Mashinadan mashinaga
O‘tadi boshqa bo‘lib.
Pishituv sexlarida
Aylanib to‘lib-to‘lib.

Tolasi yakka-yakka,
Bo‘g‘ib bo‘lak-bo‘lakka.
Master qiz ishlar chaqqon
Shodlik sig‘may yurakka.

Taxtaga tortib qo‘ygan,
Har yerdan bo‘g‘ib qo‘ygan.
Chaman gullik bo‘lsin, deb
Qolipga qo‘yib qo‘ygan.

Shoyi bo‘ladi gullik,
Bir emas turlik-turlik.
Shoyi to‘qigan qizlar
Bir-biridan ko‘rimlik.

Mashinalar dazmollab,
Magazinga beradi.
Magazinda turgan qiz
Tax-tax qilib teradi.

Ol meni, deb turadi,
Qizlar tanlab oladi.
O‘zbekiston atlasi
Moskvaga boradi.

Yarqirar toleyimiz,
Mehnat qildik barimiz.
Shahrimizni ko‘rganda,
Balli, deydi elimiz.

* * *

Yuring daryo boraylik,
Kanalga suv olaylik,
Yozyovon cho‘llarini
Suvga serob qilaylik.

Kanal yaxni chopilsin,
Norindan suv ochilsin.
Suvi kelib cho‘llarga,
Cho‘lda paxta ochilsin.

Kanalga suv boylansin,
Cho‘llar boqqa aylansin.
Yangi yerlar ochilib,
Oq oltinlar toylansin.

Ohangaron katta suv,
Olma gulida toshar.
Kanal qazigan qizlar
Mehnatda shuhrat topar.

Kanaldagi mashhur qiz,
G‘ayratingni oshir, qiz.
Do‘stlaring qoyil qolsin,
O‘rtoqlaring shoshir, qiz.

Oq chinni piyolada
Kanaldan suv olaman.
Aytadigan gapim bor,
Ko‘zingdan uyolaman.

Katta kanal shamoli
Ro‘molim olib ketdi.
Uchirib olib borib,
G‘o‘zaga ilib ketdi.

Hulkar tarozi og‘adi,
Jonon sigir sog‘adi.
Sigirni sog‘ar iydirib,
Sochini yerga tiydirib.

Sog‘uvchi kelin juda yosh,
Arg‘imchoq solar toliga.
Ariqda suvlar mavj urar,
Yelib o‘tgan shamoliga.

Elektrda yashnaydi
Fabrika darvozasi.
Dunyoga tarqab ketgan
Kombinat ovozasi.

Fabrikaning yo‘lidan
Ro‘molcha topib oldim.
Topib oldi demanglar,
Mehnatga sotib oldim.

Farg‘onada oy botar,
Marg‘ilonda tong otar.
Fabrikaning qizini
Pervoy gudok uyg‘otar.

Sakkizinchi martimiz,
Yashnaydi hayotimiz.
Ayni yoshlik chog'ida,
Toshgandir g'ayratimiz.

Dalada yurgan shamol
Sochlarimdan tortadi.
Gazetadagi so'zlar
G'ayratim qaynatadi.

Havodagi qaldirg'och,
Men ham sendek uchaman.
Ko'ngul qo'ydim mehnatga,
Fabrikam bo'ldi chaman.

Kamar boylab belingga,
Xizmat qilgin elingga.
Xalqimiz bo'lsa rozi,
Onang mingdan-ming rozi.

* * *

Jon kuydirgan odamlar
Mukofotlar oladi.
Yaxshi oti o'chmaydi,
Ming yilgacha qoladi.

* * *

Qizgina beling tolma,
Yuzlaring qizil olma.
Elga yoqayin desang,
Halol mehnatdan qolma.

* * *

Quyosh chiqar mo'ralab,
Paxta gulini tarab.
Zavqim oshib ketadi,
O'z mehnatimga qarab.

* * *

O‘zi go‘zal yuz ekan,
Muncha shirin so‘z ekan.
Qo‘llariga hayronman,
Muncha chaqqon qiz ekan.

* * *

Mehnatda chiniqqanning
Rangi toza bo‘ladi.
Ishlovini keltirsang
Yaxshi g‘o‘za bo‘ladi.

* * *

Tog‘da yurgan kiyikni
Kunda ko‘rgim keladi.
Lo‘ppi-lo‘ppi paxtani
Tinmay tergim keladi.

* * *

Yurgan kaklik jo‘jasi,
Temir qanot bo‘lipti.
Mehnatkashning yegani
Qandu novvat bo‘lipti.

Urushga nafrat motivlari

Kelsa agar och bo‘ri,
Tayyordir uning go‘ri.
Bizning kuchga teng kelmas
Dushmanning hamma turi.

* * *

Biz o‘stirgan o‘g‘illar,
Armiyaga borurlar.
Tikilib kelsa dushman
Jazosini berurlar.

* * *

Ko‘k qog‘ozda ko‘k qantim,
Oq qog‘ozda oq qantim.
Dushmanni qo‘ymay qirsang,
Onang rozi farzandim.

* * *

O‘sma ketar, qosh qolar,
Surma ketar ko‘z qolar.
Xafa bo‘lmang, opajon,
Dushman o‘lib, do‘st qolar.

* * *

Gul bargi tanga-tanga,
Yorim yo‘lladim jangga.
Qay jangchidan qolishay,
Jonim fido Vatanga.

* * *

Fashist degan bizga yov,
Yo‘limizga bo‘ldi g‘ov.
Sira omon qolmasin,
Sochamiz unga olov.

* * *

Havodagi yulduzim,
Suvga tushdi qunduzim.
Oy borib, omon kelsin,
Yovni yengib yolg‘izim.

* * *

Chigit ekdim yerimga,
Xabar berdim yorimga.
Armiyadan kelarmish
Yorim paxta terimga.

* * *

Olma oqib keladi,
Behi qalqib keladi.
Front ketgan yigitlar,
Orden ta'qib keladi.

* * *

Mening yorim qahramon,
Dushmanga bermas omon.
Bosqinchi fashistlarni
Qilar yer bilan yakson.

* * *

Ariq bo'yini o'yay,
Gulzorlarga suv quyay.
Qizsan demang, ayajon,
Askarlikka qo'l qo'yay.

* * *

Bomba otdim uzoqqa,
Gitler tushdi tuzoqqa.
Qurib ketgur o'xshaydi
Xuddi o'lgan buzoqqa.

* * *

Kelsa agar och bo'ri,
Tayyordir uning go'ri.
Bizning kuchga teng kelmas
Dushmanning hamma turi.

* * *

Bizning bog'da olicha,
Shoxi ketgan tutashib.
Qizlar ro'mol tikishdi
Armiyaga atashib.

* * *

Bizning yerni olishni
Fashist o'ylabdi oson.
Ko'zingga o'q tekkurni
Qildik yer bilan yakson.

* * *

Suqsur bo'ylik suygan yor,
Kunda bo'yingni ko'rsam.
Men ham chegarachi bo'lib,
Sendan komanda olsam.

Boshimda ro'molim bor,
Nomusim bor, orim bor.
Formalari yarashgan
Chegarachi yorim bor.

Nasibang deb qo'ydim osh,
Yostug'ingga qo'ydim bosh.
Mayin yostuq botganda,
Ko'zlarimdan to'kdim yosh.

* * *

Suv oqaru suv oqar,
Suv tagida qum oqar.
Vatan xizmatin qilgan
Ko'ksiga orden taqar.

* * *

Yigirma to'rt yoshida
Og'ir kunlar boshida.
Pulemyoti turibti
Qo'llari yonboshida.

* * *

Bolang o'lsa bo'lmasmi,
Bag'ring kuysa bo'lmasmi.
Gitler o'lgur boshingdan
Yashin ursa bo'lmasmi.

Ona so'zi

Xafa bo'lmang, tuqqanlarim, do'stlarim,
Farzandlaring ketti xunxor ustina.
Qadrdonim, eli kunim, bo'z tanim,
Biz tayyormiz Gitler murdor ustina.

Uch bolam bor edi, ochilgan gulday,
Biri yayrab, biri sayrar bulbulday.
Oldimda yurardi shakarli tilday,
Men uzattim Gitler murdor ustina.

Endi kecha-kunduz qilarman duo,
Sog'-salomat bo'laversin doimo.
Dushmanlarni yengish bizga muddao,
To'pdan otsak, Gitler murdor ustina.

Koshki bo'lsa osh-tuz o'lim, mardona,
Hammalari borsa urush maydona.
Zarba bersa tongda fashist-dushmana,
G'alaba qozonib ayyor ustina.

Endigi vazifa qilarman duo,
Sahar turib xalqim uchun boriho,
Omon bo'lsin partiyadek rahnamo,
G'alaba qozonsak ayyor ustina...

Urushga yubordim asragan jonim,
Dushmanga ketmasin oltin makonim.
Omon kelgay mening qizil arslonim,
Shodlik bo'lgay aziz diyor ustina.

Omon bo'l

Ko'zim ochib oq bilagin ushlagan,
Quchoq ochib xo'sh endi deb yig'lagan.

Ayriliqda bag'rin o'tga dog'lagan,
Sevar yorim, mehribonim, omon bo'l!

Kechalar yotganda sirlar aytishgan,
O'ynashib-kulishib mehri qonmagan,
Yorim deb ayrilib yig'labam qolgan,
Ayra tushgan yorim, omon bo'l!

Sog'indim deb mening dardim qo'zg'ading,
Sevgi o'tlarini yodimga solding,
Omonat xatingni sog'liqda oldim,
Qizil yuzli, sevar yorim, omon bo'l!

Sog'indim deb qilma buncha malomat,
Bu xatni yozaman senga omonat,
Men yuribman bunda sog'u salomat
Sevar yorim, Ukrainada omon bo'l!

Salom bo'lsin

O'g'lim deb ham faryod etgan,
Mening uchun mehnat etgan,
O'g'lim xo'sh, deb g'amgin bo'lgan
Otamizga salom bo'lsin.

To'qqiz oyu kun ko'targan,
Boqib kamolga yetirgan,
Bolam xo'sh, deb yig'lab qolgan
Onamizga salom bo'lsin.

Bir yarim yil birga bo'lgan,
Bir yostiqqa bosh qo'yishgan,
Dardi-sirini aytishgan,
Gulnorjonga salom bo'lsin.

Bir otadan bo'lishganim,
Bir emchakdan emishganim,
Bir non bo'lsa bo'lishganim,
Shu inimga salom bo'lsin.

Hoy, hoy otamiz

Hoy, hoy, otamiz,
Toshni kesar boltamiz.
Dushman bilan jang qilib,
Barini qiyratamiz.

Hoy, hoy, otamiz,
Toshni kesar boltamiz.
Gitler degan ablahni
Jahannamga otamiz.

Hoy, hoy, otamiz,
Toshni kesar boltamiz.
Elga kirgan yovlarni,
Tuproqqa qulatamiz.

Hoy, hoy, otamiz,
Toshni kesar boltamiz.
Fashistlarning tilini
Kesib itga otamiz!

Hoy, hoy, otamiz,
Toshni kesar boltamiz.
Gitler degan hayvonni
Mozorlarga otamiz!

Gitler degan bir bo'ri,
Yirtqichning dili egri.
Qon yalagan bo'rining
Qora yer bo'lar go'ri.

Gitler degani hayvon,
Hayvonning xulqi ayon.
Axir hayvonda hech vaqt
Aql ko'rganmi jahon?

Gitler degani jinni,
Bilmaydi tunu kunni.
Bir kuni o'lar ketar,
Murdasi topar tinni.

Gitler degani urush,
Bizga qilibdi yurish.
Qani, mardlar, otlaning,
Kerakmas qarab turish.

Tinchlik va farovon turmush uchun kurash motivlari

"Gulyor"ga sol sozingni,
"Bayot"ga sol bozingni,
Tinchlik qo'shig'in boshla,
Eshitay ovozingni.

* * *

To'pichoqni minganda,
Tez yurishga qistaymiz.
Yashnamoqda gul turmush,
Biz tinchlikni istaymiz.

* * *

Onamanu onaman
Bolam uchun yonaman.
Bolam tinchlikda o'ssa,
Orzularga qonaman.

* * *

Toqqa chiqib terganing,
Pista bilan bodommi.
Tinchlikni ko'rolmagan
Buzuqilar odammi.

* * *

Tog'da nuqul o'sipti,
Qarag'ay bilan archa.
Yomon niyat dushmanni,
Qilamiz parcha-parcha.

* * *

Bolajonim bag‘rimda,
Erkalayman o‘ynatib.
Vatan-tinchlik bog‘imda,
Bulbul-qushdek sayratib.

* * *

Jahonda tinchlik bo‘lsin,
Olam shodlikka to‘lsin.
Yoshu qari hamma ham
Tinch bo‘lsin, omon bo‘lsin.

Kombinatda ilg‘orman,
Xurramman, baxtiyorman,
Tinchlik uchun jonimni
Berishga ham tayyorman.

Hayotimiz farovon,
Yo‘llarimiz charog‘on.
Bizga shodlik baxsh etgan
Osoyishta hur zamon.

Soatim “chiq-chiq” etar,
Ishlar sifatli bitar.
Tinchlik davri hur davr,
Hamma maqsadga yetar.

* * *

Bugun o‘lkamda bayram,
Gul tuting boylam-boylam.
El uchun halol mehnat
Mening bayramga sovg‘am.

Sahar vaqtida shamol,
Pirpirar boshda ro‘mol.
Elimizning yoshlari
Baxt bilan topdi kamol.

Yurtimizda mo'lchilik,
Bo'lsin olamda tinchlik,
Urushning oti o'chsa,
Hamma uchun sevinchlik.

Bu el – erkinlik bog'i,
Shodlikdir bog' har yog'i.
Har mevada yonadi
Baxtimizning chirog'i.

Gulim boru gulim bor,
Bog'imda bulbulim bor.
Zamonamdan o'rgulay,
Baxtli ozod elim bor.

* * *

Bir ota, bir onadan,
Besh o'g'il, uchta qizmiz,
Erta-kech xalqimiz, deb
Ishlaymiz har birimiz.

Yurtlar tinchlik, omonda –
Osoyishta yashaymiz.
Mehmon siylab kelganda,
Shoyi, atlas to'shaymiz.

"Do'stni boshingga qo'y!" – deb
Aytgan ota-bobomiz.
Ota-ona so'zini
Dilga bitib olamiz.

Do'st kelsa eshigingdan,
Jonga joylab mehmon qil.
Bosgan izin ko'zingga
To'tiyo qil, darmon qil.

XALQ SHOIRLARI IJODIDAN NAMUNALAR

ERGASH JUMANBULBUL O'G'LI
(1868-1937)

G'azal, she'r, shoirlik – bayt aytmoqdur

Vo darig'o, dunyosi qursin, ekan bul bevafo,
Bil, vafodoringdurman deb aylagay sonsiz jafo.
Bir kuni hasrat bilan nolish etarsan ohu voh,
O'zgalarga andak o'lg'ay, qancha o'tsa solu moh,
Ul yigitlik mavsumida umrimiz erdi bahor.

Asta-asta ketdi endi jami a'zo quvvati,
Bil, yigitlik qolmadi, kep qarilikning navbati.
Afsusu armon bilan izlar avvalgi holati,
Lekin ko'ngil o'zga bo'lmas, bul yoshlikning niyati,
Fikru o'y o'rgatar nafs, bilimdir e'tibor.

Nurota yurtid o'tdi bir kishi bulbul bo'lib,
Jami shoirlar ichinda bir atoqli gul bo'lib.
Hamma odam orzuvda suhbatida qul bo'lib,
She'rining orqasidan ichmagu yemak mo'l bo'lib,
Har ne topib kambag'allar eliga aylab nisor.

Har qayerga borsalar, ul izzatu ikromi ko'r,
Uylariga kimki kelsa, har tuslidan anjomi ko'p.
Xoh fuqaro, xoh umaro, she'r aytsa, odami ko'p,
Kim eshitsa dostonini, ofarin der nomi ko'p,
Xoh bek, xoh elu xalq – hamma aytar: bulbulcha bor.

Tajnisli to'rtliklar

Qiziq bo'ldi to'y endi,
To'ydan juda to'y endi,
Dehqonning ketdi mazasi,
Chorvador juda to'yindi.[1]

Tog'ning adiri o'radi,

[1] Qayta yozib olinganda to'rtinchi misra "Maqtovi ketdi to'yingdi" tarzida aytilgan.

O‘raga qo‘ylar o‘radi,
Uch tol qilib sanamlar,
Chochini mayda o‘radi.

Qizarib pishgan olmadi,
Olmadan nega olmadi?!
Olmagani xo‘p bo‘bti,
Endi kelsa olma di (de).

Pishirdingmi muruti,
O‘sibdi, oldir muruti,
So‘fi deysan bog‘bonni,
Qaysi eshonning muriti?!

Minibdi otning qorasin,
Ko‘rsatmadi qorasin,
Ko‘rinibdi ko‘ziga,
Bizlarga ham qarasin.

Bitirdingmi dovini,
Op ke qoqmonning dovini,
Qoldirmay gardkam ur endi,
Oldiga qo‘ygan dovini.

Qozoq[1] ongni otadi,
Ong ham o‘zini otadi,
Qozoqda ixlos ko‘p hali,
Eshonga qo‘yin otadi.[2]

---

[1] Qozoq so‘zining ikki ma’nosi bor. Biri ma’lum xalq, ikkinchisi sodda, sofdil, ba’zan tez aldanuvchi shaxs. Bu o‘zbek a o‘zbak atamasining xalqimiz orasida mavjud bo‘lgan ikki xil ma`no va ikki xil talqini – teng so‘zdir. Bundan ikkinchi ma’noning yuzaga kelishi va tarqalishida shahar nayrangbozlari, ayniqsa, aldamchi, qallob savdogarlar, jallob va dallollar “xizmat” qilgvan bo‘lsalar kerak. Tajnisli to‘rtliklarning ayrimlarida o‘tmishda tekinxo‘r eshonlar tuzog‘iga ilingan soddadil ko‘chmanchi qozoqlar (ayni paytda o‘zbeklar ham) orasidagi o‘ta ixlosmandlik tanqid qilinsa, ba’zilarida sodda va sofdil shaxsning ma’lum bir holati tasvirlangan.

[2] Bu to‘rtlikning ikkinchi varianti shunday:

Mergan ongni otadi,
Ong ham o‘zini otadi.
Tentak bo‘lsa bu mergan,
Eshonga ongini otadi.

Eshon

Ta'rif qilay eshonimni,
Oyog'ida kishanimni,
Yolg'ondan karomat qilib,
O'zbek faqir,[1] eshonimni.

Ko'rar ko'zga katta eshon,
"Kashfu karomatda" eshon,
Nazrini ko'proq bersa,
Vaqti xush, albatta, eshon.

Har kim pulni ko'proq bersa,
Duoni qip katta eshon,
Har kim pulni ko'p bermasa,
Qildim, -der, - murtadan, - eshon.

Yeb-ichgani elning moli,
Xayru saxovatda eshon,
Unumli yer bo'la qolsa,
Suratlari katta eshon.

Har kim nazrin ko'p bersa,
Maqtov bilan sifatda eshon,
Agar birov o'la qolsa,
Ot, deb karomatda eshon.[2]

Bir odami tuzala qolsa,
Uni eshon tuzatdi deb,
Kufrman minnatda eshon,

Esdan izlab topolmaysan,
Tentaklikda bitta eshon.

---

[1] Avom ma'nosida. Eshonlar yolg'on karomat bilan yillar davomida mehnatkashlarni aldab kelganlar.
[2] Tezroq jo'nab qolish taraddudida bo'ladi ma'nosida.

Asov qizlar

Asov, asov, asov qizlar,
Buncha o'zin yasov qizlar.

Biz chaqirsak qaramaydi,
Xudoy urgan masov qizlar.

Bizga qiyo ko'zin solmas,
Bilmam kimman do'sov qizlar.

Qidir[1] desang otday bari,
Ish buyursang, nosov[2] qizlar.

Keldim

Rayonim Nurota, tog'lar orasi,
Otim Ergash, Jumanbulbul bolasi.
Qaridimmi desam, ko'nglim qolasi,
Tobora oshadi yoshdan havasi.

Tomosha qilgali Toshkentning eli,
Shu vaqtda bo'libdi shaharlar guli.
Bir-biridan ziyod zebo manzili,
Bu gulshanda men ham turgali keldim.

Kelib ko'rdim kengish, yoziq ko'chalar,
Kunduzday ravshandir yursa kechalar.
Zavq bilan sayr etar ko'p yosh bachchalar,
Quvonib, shod bo'lib yurgali keldim.

Toshkent obodligi haddidan oshgan,
O'zbekiston markaziga yarashgan.
Ko'rmaganlar ko'rsa aqli shoshgan,
Xo'p qidirib, obdon bilgali keldim...
Har kim kelsa, bundan shod bo'lib ketar,
Sil bo'lsa, o'pkasin yarasi bitar.

---

[1] Aylanib, tomosha qilib kel, degan ma'noda.
[2] Nosov-nosoq, sog' emas, kasal- majruh.

Qari kelib ko'rsa, shaksiz, yosh yetar,
Yosh yigitdek davron surgali keldim...

Ergash shoir o'zi, otasi, yozgan va yozdirgan dostonlari, so'z san'ati haqida

Suxanvar ham ayta bersa,
Gapi ketmasin ko'payib.
Bo'lak so'zni aytibsan, deb
Mulla Hodi yursa koyib.

Endi baytni qo'yayik,
Ketmasin gap ko'p bo'p boyib.
O'tgan katta shoirlarga
Gap aytmoqqa menman noyib.

Gapni qo'zg'asang chiqad-da,
Turma-da bekor hurpayib.
Bilib turib aytmay ketsang,
Shoirlikda u ham ayib.

Qariganda ko'p dostonni
Men yubordim elga yoyib;
Avval "Xolbeka"ni[1] aytdim,
Mening ustozim ko'r G'oyib.[2]

"Yakka Ahmad" man "Xushkeldi"ni
Bitib berdim xatga yoyib.
"Qunduz-Yulduz", "Ravshanxon"ni,
"Hasanxonman Dalli" zayib.
"Qizjipak"ni o'lan qildim,
Qolmasin qozoq angqayib.

"Alibekman Bolibek"ni,
So'ng aytdim so'zim ko'payib.

Go'ro'g'libek lashkar bilan
Qirimga ketdi qangqayib.

---

[1] "Kuntug'mish" dostoni ko'zda tutiladi.
[2] G'oyib, ko'r G'oyib, Mulla G'oyib turkman shoiridir.

Shu dostonni tamom qilsam,
O'qigan qolar ajoyib.
Hukumatga bitib bersam,
Yuborsalar yurtga yoyib.

O'lgan kuni oti o'char,
So'zim qolsa mendan noyib.
Eshitganlar duo qilsa,
Mo'min bo'lsa qo'lin yoyib.

Mening so'zim bir bo'lakdir,
Boshqa so'zga ketar hayib.
Odamdan yaxshi ot qolsa,
Arvohi yurmas sarg'ayib.

Mening otim mulla Ergash,
Kim ekan deb yurma koyib.
Otam oti Jumanbulbul,
Jami so'zga ekan soyib.

* * *

"Yaxshi so'zman ilon indan chiqadi,
Yomon so'zman odam dindan chiqadi",
So'z bir gavhar har kimsada bo'lmaydi,
Yaxshi so'z, yoronlar, kimdan chiqadi.

Yaxshi so'z har kimga ta'sir qiladi,
Yomonning so'zi beta'sir bo'ladi,
Tili borning so'zi bor-da, yoronlar,
Har kim o'z holicha so'zni biladi.

So'z degan bir qimmatbaho gavhardir,
So'zni farq qilmagan do'stlar, bekordir,
Asli bilsa, suxanvarning farqi ko'p,
Kim aytadi: "Hamma so'z barobardir".
Oqillar ayirar so'zning farqini,
Barobar qilmabdi har mol narxini,

O‘zbeklarda so‘zga sinchi ko‘p bo‘lar,
Gap bilan ayiring o‘zbek xalqini.

O‘z o‘yida shoir, necha nodonlar,
O‘zi gapni bilmagan suxandonlar,
Sho‘rlik shunday-da, deydi, so‘zlaydi,
Suxanni o‘xshatib yerga urganlar.

Yaxshi so‘zni yomon qilib yuribdi,
Dona so‘zni somon qilib yuribdi.
Izzatli, hurmatli, ulug‘ erlarni,
Xo‘r qip, yuzin tuman qilib yuribdi.

Shodlik yerda olib kelib xo‘rlikni,
So‘zning barin sarson qilib yuribdi.
Ot ko‘tarib o‘tgan ulug‘ yerlarni,
Bilmagandan yomon qilib yuribdi.

El ichida kalta-kalta matalni,
Yamashtirib, doston qilib yuribdi.
Boshlasa, ortini yig‘ib ololmay,
Jamlay olmay vayron qilib yuribdi.

O‘ylab tursang, ne shoirlar o‘tibdi,
O‘z vaqtida gapni shaylab ketibdi,
Bir yo‘l qilib so‘nggi qolgan shoirga
Jo‘niktirib, yo‘l qip taylab ketibdi.

U yo‘lni ham bu shoirlar qo‘yibdi,
Hech yo‘rig‘i yo‘q bir so‘zni suyibdi.
Bayt ham yo‘q, suxan ham yo‘q, yo‘l ham yo‘q,
Sandirib otini doston qo‘yibdi.

Bunday so‘zga o‘zbek quloq solmaydi,
O‘n dostonin bir tiyinga olmaydi;
Baqirganman, so‘zlaganman, cho‘zma, deb,
Bir yil tinmay aytsa, pisand qilmaydi.

Qanday elga yoqsin aytgan so‘zlari,
Yaxshi so‘zni boshdan sira bilmaydi.

Xalq dono, ayirar so‘zning farqini,
U bilgan dostonga to‘g‘ri kelmaydi.

Bu yomon shoirlar dim o‘xshatolmas,
Aytganda ham to‘rtdan birin aytolmas,
Qanday aytsin, boshin o‘zi bilmasa,
Yugrukman, der, shoirlarga yetolmas.

Yaxshi shoir elni yig‘ar, tarqatmas,
Er yigitning oshiga og‘u qotmas,
“Yaxshidan ot, yomondan dod”, yoronlar,
Yaxshilikdan o‘zga so‘zlarni aytmas.

Yomon shoir mardning qaddini bukar,
Bir so‘z bilan nomus-orini to‘kar,
Kim yaxshi, kim yomon, bilmasa qiyin,
Yomonni ta’riflab, yaxshini so‘kar.

Shunday suxanchiga quloq solmagin,
“Vaqting-baxting”, bekor quruq qolmagin,
“Bilmading-ku, doston aytma, uyat!” –de,
So‘zda ma’no bo‘lsa, eshit, tolmagin.

* * *

Jumanbulbul erur otamning oti,
Jo‘sh elinda Qorakisa elati.
Shoirlik rasm bo‘p o‘tgan ularga,
Shoir o‘tgan necha xeshu avlodi.

Shoirlik qip o‘zi tirik yurganda,
Yer yuzinda shoirlarning ustodi.
Men shunday bir suxanvarning uliman,
Muhammadga ummat, haqning quliman,
Shu so‘zlarni bilganimcha so‘yladim,
Doston aytdim men shularning yo‘liman.

Holim yetganicha shuni so‘yladim,
Payshanba kun tushda tamom ayladim,
Katta shoirlarning yo‘li dostonim,
Baytlarini men o‘zimdan boyladim.

Beustod hech narsa, do‘stlar, yo‘l olmas,
Yo‘l olsa ham, elga e’tibor bo‘lmas,
Axir qolar o‘z oldiga uyalib,
Elga ta’sir qilmas, asl yo‘l emas.

* * *

Shuncha so‘zni aytib bo‘ldim,
Bir nechani yozib bo‘ldim.
Bu dostonni tamom qilib,
O‘zim gapni ezib bo‘ldim.

Men ham shoir bo‘ldim-ku, deb
Necha yerin buzib bo‘ldim.
O‘rlashmoqqa zo‘rlik qildim,
Achchig‘im kelib, qizib qo‘ydim.

Menikini ayb etmangiz,
Oyog‘iga chizib qo‘ydim.
Aytmas edim bu so‘zlarni,
U yoq - bu yoq kezib qo‘ydim.
Qanday ildim urushlarni,
Goh yerdagin uzib qo‘ydim.
Nurotadi viloyatim,
Jo‘sh kantida mamlakatim.
Qorakisadir urug‘im,
Mulla Ergash mening otim.
Shoirlikda so‘zga dehqon,
Chechan bo‘p o‘tgan avlodim.
Har yurtda so‘zin o‘tkargan –
Zotimda qabat-qabatim.
Jumandirdir otamning oti,
Laqabi bulbul sifati.
Hammalari shoir o‘tgan –
Yetti pushtiman avlodi.
Hamma shoir shundan chiqqan,
Jami shoirning ustodi.
So‘rasang, har kim biladi,
Eli- yurtga ma’lum oti.
Jo‘sh yurtida o‘tgan o‘zi,
Aslin so‘rsang turkman zoti.

O‘qisang, mazza qilarsan,
Shoirzodaning abyoti.
So‘zimni o‘qisang qog‘oz betida,
Bir ming to‘qqiz yuz yigirma yettida,
Tamom qildim shu dostonni men o‘zim,
Tarixini aytsam yanvar to‘rtida.
Shu kunida tamom qildim dostonni,
Qichab etdim-da qirqlarning yurtida.
Odamga qo‘shilmay bitib panada,
Qirqning qishlog‘ida, kaptarxonada,
Qaysi vaqtda bitgan ekan demasin,
Bitganimni aytib qo‘ydim sanada.
Begona emasdi, qirqdandir o‘zi,
Shu dostonning ko‘pi Isaning so‘zi,
Maorifga xizmat qilib joniman,
Urug‘i bo‘ldi qirqman yuzi.
Shu so‘z bilan tamom qildim dostondi,
O‘qiganga bu doston gulistondi (r),
O‘qig‘uvchi o‘rtoqlarga salom, deb,
Kezib ko‘rsa, bu so‘zim bir bo‘stondi (r).
Shuning bilan tamom qildim so‘zimni,
So‘zim bilan qabul qilsin o‘zimni,
Hukumat ham qabul qilar deyman-da,
Topganimni aytib, ko‘pi-ozimni.

Bu so‘zni aytmoq yep bo‘ldi,
Dostonimiz sop bo‘ldi,
Kelib qolib bir necha so‘z,
Kela-kela bir to‘p bo‘ldi.

Ana shuytib bu dostonni tamom qilib, qolama so‘zni endigi dostonda eshitasizlar, deb o‘rtoq o‘quvchilarimizdan so‘rab qolaman. 1927-yilning to‘rtinchi yanvarinda mulla Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining og‘zidan eshitib yozildi, deb Maorif so‘z yig‘novchisi Muhammad Isa Ernazar o‘g‘li.

Shoirlarning so‘zi shul-da,
Chin qiziqning o‘zi shul-da,
Biz ham ko‘rib kelibmizmi,
Eskilarning izi shul-da.

Biz qissani tamom qildik,
So‘zni omon-omon qildik,
Eskilar so‘zin buzolmay,
Necha yerin yomon qildik.

FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LI
(1872-1955)

Jangchi o‘g‘limga

Bo‘ron bo‘lsa, zo‘r daryolar chayqalar,
Yaxshi xizmat yigit otin chiqarar.
Yovlar kelsa yurt boshiga dushmanlar,
Ot o‘ynatib qiron solar yigitlar.

O‘g‘lim, bir nasihat maktubim senga,
Chin ko‘ngildan xizmat qilgin Vatanga!

Davring gullab, kulgay sening hayoting,
Ish ko‘rsatsang, qolar dunyoda oting.
Yovni ko‘rsang tosha kelsin g‘ayrating,
Mahkam ushla qo‘lda keskir po‘lating,
Maydonda sen yovga qashi arslon bo‘l!

O‘zingni hech qachon nomard bilmagin,
Dushman ko‘rsang hech seskanib turmagin,
Urgin yovni, ulug‘ ishdan qolmagin.
Yurt oldida mening qaddim bukmagin,
Maydonda sen, ul na’rasher botir bo‘l!

Alplarday urush qilgin maydonda,
Dushmanlaring ko‘rib, bo‘lsin sharmanda.
Er yigitlar barpo bo‘lgan Vatanda,
Yetolmaydi dushmanlari murodga,
Na’ra tortib, maydonda sen arslon bo‘l!

Er yigitsan, yovni pisand qilmagin,
Lekin undan ogoh bo‘lmay qolmagin.
Qari otang umidvor sen-o‘g‘ildan,
Yurtimizdan yovni quvmay qo‘ymagin,
Mard o‘g‘ilsan, maydonda mardi maydon bo‘l!

Jahon tinglagay

O'lkamizga dushman hujum qilipti,
Nomard, qonxo'r dogovorni buzipti.

Ertakda uchragan maston[1] kampirlar,
Aldamchi Gitlerning momosi shular.

Fashist degan qon kechuvchi it erur,
Odam qonin ichgan ko'ppak quturur.

Qon kechkuchi vahshiy ko'zga qon to'lgan,
Boshi gangib, o'lkamizga yugurgan.

Zuluk sifat istaydi qon so'rishni,
Bizdan ko'rsin it jag'iga urishni...

Yoshim yetmish ikki, o'zim yigitman,
Hiylagarning ishin ko'rib bilibman.

Bizni saqlash uchun yigitlar jangda,
Biz ham tayyor Vatan uchun maydonda.

Bizga o'xshash keksa bahodirlar ko'p,
Jangga kirsa, dushman bo'lar talato'p.

Otlar o'ynab, qilar ohang, xurishni,
Yovga ko'rsatamiz qirg'in urushni.

Yo'lbarsdayin yovni tikka bosamiz,
Aldamchi tulkining boshin kesamiz.

Na'ramiz shiddatin jahon tinglagay,
Bosh kesgan tulkilar bunda ingragay.

Bolalarimga

...Ilm o'qib o'ssang izzat ko'rasan,
Haqiqatning yo'lin yaxshi bilasan.

---

[1] Maston—ayyor, firibgar.

Bosh tortib o'qishdan, qilsang yalqovlik,
So'ngra, bolam, ko'p pushaymon qilasan.

Balolardan xalqni qutqarganichun
Baxt yo'liga bizni boshqarganichun,
Yashaysiz gullagan baxtli zamonda,
Uzoq umr ko'ring, dari davronda.

Aqli raso bolalarim biladi,
O'qimagan nari, keyin qoladi.
Ilm bilgan kishi, bilsang, donodi,
Harna bor maqsadga ega bo'ladi.

Bu yo'llar-baxt yo'li ko'p ulug' yo'ldi,
Aqlli kishilar bu yo'lni bildi.
Odobman[1] o'qingiz, o'g'il-qizlarim,
Fozil otang nasihati bil, shuldi.

Jizzax qo'zg'oloni

(Doston)

Yozib oluvchi: Mahmud Zarifov.
Nashrga tayyorlovchi: Hodi Zarif.

Bir-biriga yordam berib,
Jahon urushi boshlanib,
Bu yotgan mulkning ustida
Podsholar itday talashib,
Bir alomat urush bo'ldi.
(It egaga boqmay qoldi).
Men ham chetda qolmayin deb,
So'ngra Amerika keldi.
Podshoman degan tortishdi.
O'lik-o'likka ayqashdi,
Ko'rganlarning aqli shoshdi.

O'ngu so'lni olib tuman,
Bir-biriga bermay omon,

[1] Odobman—odob bilan

Qon qo'yilgan yomon zamon,
Tushgan qolmay yotir omon.
Bel berib urushda German,
Yo'liqqanga bosim kelgan,
O'layotgan ishchi-dehqon,
Podsholarning ishi yomon.
Bo'shab qoldi mazgil joylar,
Bu o'lganga sabab bo'lgan
Ig'vogar o'rtada boylar,
Bularda rahm bo'lmaydi.
Urushga borgan kambag'al,
Sira ham omon kelmaydi.
Shunday bo'ldi qattiq kuni,
Bir necha ishchi- dehqonning
Urushda o'lgan yolg'iz uli.

Ota-ena yig'lab qolib,
Qattiq bo'ldi ko'rgan kuni.
Haddan ko'pdir o'ylab ko'rsa,
Qursin podshoning zulmi.
Bunda elat shunday bo'ldi,
Zavod, fabrik bo'shab qoldi.
Rabochi, mehnatkash barin
Haydadi, urushga soldi.

Mehnatkash boshi gang bo'ldi,
Qayg'u, g'am, kulfatga to'ldi.
Rahm qilmas ko'z yoshiga,
U tob bermas zulm ishiga.
Ketmon berib o'r qazdirdi
Qari qartang chol kishiga.

Bu alomat ajab kunlar,
O'rtada qancha o'liklar.
O'r qazdirib, yig'ib, ko'mar,
Bu urush oda bo'lmaydi.
Me'yorin hech kim bilmaydi,
Kunda qancha odam o'lar.

Lashkarda toqat qolmaydi,
O'z ko'ngli bilan bosh ko'tarib-

Hech kim urushga bormaydi.
Ustidagi kattalari,
Urush navbati kelgan so'ng,
Qilichin yalang'och qilib,
Do'qlab urushga haydaydi,
Bundan qancha odam o'ldi.
O'z holiga qo'ymay xalqdi,
Qayta-qayta chiqim soldi.
Ish tayini bo'lmay qoldi,
Hamma urushda, qiyomat.
Urushda bo'lgan xarajat,
Qaydan topib bersin elat.
Topmaganga qilar bunda
Amaldor katta siyosat.

So'ramas bechoraning holin,
Bunday kunlar bo'lag'oy[1]sa,
Sottirib oladi molin.

Hamma bo'lib qoldi hayron,
Nechovning vatani vayron.
Shunday zamon urush bo'ldi,
Hamma sarosima bo'lib,
Juda qattiq kunda kunda qoldi.
Urush desa xalq yig'lab,
Podshoning o'limin tilab.

Urush boshidagi, podshoning qoshidagi amaldorla ko'rdi: urushda odam yetishmay borayotir, bari mamlakatdan olgan odami o'lib, ozayib qolayotir, kunma-kun odam kamchilik qilayotir. Zavod-fabrikalarda ishlovchi xotin-qizlar bo'lib qoldi. O'roq o'rmoq, yer haydamoq, ekish ishlari xotin-qizlarning qo'lida qoldi. Ishga yaroqli odamning hammasini olgan, podshoning qo'l ostida Turkiston mamlakati bu urushdan tish[2] turgan. Turkiston xalqi podshoga salotlikka noishonim bo'lgan: bulardan so'ramoqchi emas, "birdaniga chaqirib, qo'liga miltiq anjom bersak, ular bizga yaxshi qaramas", – deb mardikor so'radi.

[1] Bo'lag'oy-bo'lib qolsa
[2] Tish-tashqari

Mardikor so‘radi, xatga soladi,
Hammasining ko‘ngli shunday bo‘ladi,
Xatga qarab telegramm beradi...
Gubir[1]ning qoshiga hokimlar kelgan,
Qo‘l ostiga, so‘zin hokim bildirgan.
Eldan-elga yurar otlar chopishib,
Har yerlardan mingboshini topishib,
Borsa, e’lon xatni ma’lum qiladi,
Mingboshining o‘z qo‘liga beradi.
Gubirdan telegramm keldi Jizzaxga,
Xabar etib bordi Samarqand yurtga.
Kattaqo‘rg‘on bilan endi Chelakka.
Mamlakatga shunday xabar beradi,
Barcha fuqaroga e’lon qiladi.
Ko‘ring, shu zamonda Jizzax hokimi
Bag‘donga jo‘natdi bitgan xatini.
Hayron qolar bu xabarning tiliga....
Andijon, Namangan, qolmay Marg‘ilon-
Hammasi eshitdi: Farg‘ona, Qo‘qon,
Xo‘jand, O‘ratepa, yana tog‘ ichi
Qolmayin eshitdi bu katta -kichi[2]
Bu tog‘ning orasi —Qirg‘iz ham Sangzor,
Toshloq, O‘smat xabar topdi, muqarrar.
Hamma bu gaplarga hayron bo‘lgandir,
Yangiqo‘rg‘on —barcha ko‘p g‘amgin bo‘lib,
Hamma xalqqa bunday e’lon kelgandir.
Xabar chiqib yotir eldan falakka
Bu xabarlar botdi turgan elatga...
Qozi, mingboshilar, katta odamlar
Hammasi bir joyga endi yig‘ildi.
Bu xabarnomani o‘qidi, ko‘rdi....
Besh uyga bir odam xabar qilibdi,
Katta odamning bari omon qolibdi.
Gubirning nomasi shunday bo‘libdi:
“Imom bo‘lib elu xalqda turganlar,
Boy bo‘lib mulk egasi bo‘lganlar,
Qozi mingboshi bo‘p xizmat qilganlar,
Katta-kichik amaldor bo‘p yurganlar,

[1] Gubir-gubernator
[2] Kichi—kichik

Dehqonlarga siyosat qip yurganlar
Ishchi-dehqon qatorida bo'lmasin.
Bunday kishi chiqim, odam bermasin,
Podsho rahbar bo'ldi, amaldor bilsin.
Ishchi-dehqonlarga odamni solsin,
Pul topmagan asl kambag'al borsin!
Dunyodorlar bunda joyida tursin...
Amaldor zarbini elga o'tkazsin.
Kechiktirmay bu xizmatni bitkazsin!"
Shunday bo'ldi boshchi mingboshi ishi.
Eshon, mulla, qoshidagi sirdoshi,
Har qishloqdan xabar qilib chiqardi
Ellikboshi bilan yana to'q kishi...

Bir mingboshining qirq-ellikcha ellikboshisi bo'lar edi. Ular har qishloqdan kelib, mingbshining qabatida turibdi. Bular-qishloq baloxo'rlari, qishloqni kemirib eguvchilar, oz chiqimni ko'paytirib oluvchilar, qishloqni "boshqarib yo'lga soluvchilar", mehnatkashlardan haq undirib, o'zlari ega bo'lib eguvchilar, maslahatboshi boylar mingboshinikiga yig'ildi. "Bular nima ish qiladi, nima desak mehnatkash xalq aytganimizga ko'nadi, ko'nmaganda nima iloj qiladi, dod deganda mingboshiga keladi, xalqdan odam ham chiqimni o'rin qilmoq uchun maslahatga yig'ilganning bari ozod bo'ladi. Biz nima desak, el ko'naberadi, endigi ixtiyor o'zingiz-da, qishloqqa borib chuvlab yuramizmi", — deb mingboshiga qarab bu maslahatni berib turgan ekan:

Ushbu damdir, o'zga damni dam dema,
Esonlikda davlatingni kam dema,
Valastnoysan, bu ishlardan g'am yema.
Elda ne gap bo'lsa bizlar etkizib,
O'rin qilib bu xizmatni bitkizib,
El teli-tentagin dam qip qo'yarmiz,
G'am yema, sola ber elga odamni.
Bu ishlarni o'rin qilib kelarmiz...
Odam solsak bizlar elning o'ziga,
Dod deganda quloq solmang so'ziga,
Bittasining so'zin ma'qul bilmangiz...

Har qishloq necha uy ekanining ixtiyori ellikboshida bo'lib, maslahatni bir yerga qo'yib, besh uyga bir odamdan sola berdi. "Kim talab qilsa, borsin, bormagan kishi olti yuz so'mdan pul bersin", — dedi. U vaqtda odamlar olti yuzni ko'rmoq tugul, birovning sanayotganiga ham ko'zi tushgan emas... — Bizga

o'xshagan kambag'alni to'pning og'ziga boylab berar ekan, bu nima degan gap?! Boy, o'ziga tuzuk kishilar chiqimdan qolsa, kambag'allarning mehnat qilib, qayta-qayta chiqim bergani ozmi?! Ziyod davlat bermay bizni xudo ham qisgan ekan. "Yiqilganni tepib o't", – deb podsho ham mehnatkashni qirar ekan. Boylarning qo'yi, moli ko'p. "Menga atab qo'y so'ydi", – deb xudoning ham dimog'i boydan chog' bo'lar ekan: "Uning davlati katta", – deb podsho ham boyni hurmat qilar ekan, – deb yig'inda bir necha so'zlar gapirilayotir:

"Bu so'zlarga yo'qdir mening toqatim,
Behuda yo'q, beradigan davlatim,
Ko'p bo'ldi dunyoda ko'rgan mehnatim.
Bu xalqdan ketmadi zulm, kulfating!
Kecha – kunduz qayg'u, vahm ulfating!
Bizga ma'qul bo'lmas bu maslahating:
So'z so'ylasang sen olasan qiyoma,
Nima qilsang qilasan-da, kattalar,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama!
Ko'zimdan to'kilgan selday yoshim bor,
O'limga chog'lagan yolg'iz boshim bor.
Bu ishlarga rozi emas odamlar.
O'ylaganda odam bag'ri ezildi,
Xalq uchun gapirgan necha so'z endi,
Turgan bir nechaning ko'ngli buzildi,
Tashlab ketsak bunda bu yurgan elni,
Ellikboshi, avrab –maqsading shuldi(r).
Bunda yurgan bilan nima kun ko'rdik?!
Xalq ishlab topganin chiqimga berdi.
Oxiri –oqibat shunday kun bo'ldi,
Bu xalqning boshiga bir o'lim keldi.
Nima qilsa qilsin endi amaldor.
Ellikboshi gapni bilgin muxtasar,
Bundan o'zga so'zing bizga ne darkor
Xoh qo'ydir, xoh yondir, bachchag'ar.
Xalqqa yuk bo'p turgan o'zing balosan,
Mehnatkashni yongan o'tga solasan.
Kuyib ketdik endi davlat dastidan,
O'zim o'lmay, keyin qaytib turmayman.
Pul topmayin sening oldingga tushib,
Zulm bilan mardikorga bormayman.
Bola-chaqam yetim-yesir qilmayman.

Xat op kelib, elga berding maslahat,
O'ylasak bu-zulm, bizga qiyomat.
Kambag'al boshida bir turli savdo,
Yo'qchilik asari ajoyib g'avg'o.
Badavlatlar qayg'u vahm qilmaydi,
Ular buning uchun ko'nglin bo'lmaydi,
Kambag'alning ishi o'rin bo'lmaydi,
"Dod" deganda hech kim quloq solmaydi..."

Turkiston qayda-hamma yerda shu gap. Jizzaxda, yaqin-uzoqda, Samarqand tevaragi: Qoradaraxtda, Bag'don, Porish, Nayman, Turkman, Farg'ona mamlakati, Toshkent, Sir yoqalab o'zbek, qozoq hamma noroziligini ko'rsatib turibdi. Jizzax tevaragida temir yo'l rabochilari — rus proletariati, bolsheviklar partiyasi quvvatini, xalqning norozi bo'lganini do'st tutib gapirgan. Har yerlarda ham shunday so'z bo'lgan. Bu so'z og'izdan-og'izga, eldan-elga hamma xalqqa tarqab ketdi, biridan-biri eshitdi. Birov bilardan, birov bilmasdan bu gaplarni gapirib yotdi. "Podshoning quvvati ketgan emish, lashkari ham ozayib, aytganiga yurmay yotgan emish. Endi bunga pul, odam bersak, tag'i boshimizga battar balo bo'ladi, bu balodan o'zimiz qutulolmay yurganimizda pul, odam berib, buni quvvatlab turmaymiz. Mana atrofda qancha xalq bor, unda qanday bo'lyapti", — deb bir-biridan xabar olib yuribdi. Bu so'zni ma'qul qilib Jizzaxda qo'zg'olon bo'lyapti. "Jizzaxga yig'ilib boramiz. Tuproqqo'rg'onni o'rtaga olamiz, podshoning yordamchisi bo'lgan odamni nobud qilamiz", — deb xoh Jizzax qo'rg'onining tevaragida, xoh qishloqda hamma xalq harakatga kirdi.

Bir necha otli, bir necha yayov,
Yig'ilmoqchi bo'ldi Jizzax ustiga.
Odam kelib bir-biriga duch bo'ldi,
Xoliyadan Toyir cho'loq bosh bo'ldi.
Urushga o'zini choqladi tolib,
O'roq kaltagini qo'liga olib.
Miltig'i bor miltig'ini oladi,
Dushmanning qo'lidan ne ish keladi?
Har bir qishloq bo'lgan so'zni eshitib,
Bir-biriga qo'shilishib boradi.
"Yig'iling, yuringlar Jizzax ustiga,
Yig'ilganda ne kunlarni solarmiz,
Beshquvurning qo'rg'onini olarmiz.
Urush qip, qo'rg'onni bosib olgan so'ng

Hamma birday yaroqli bo'p qolarmiz,
So'ngra biz ham tuzuk bo'lib qolarmiz.
Bir ovoza ketsin osmon – falakka
Jizzax borib, urush qilsak, albatta.
Quloq song[1], og'ayni, so'ylagan so'zga,
Urushli kun yo'ldosh bo'lasiz bizga.
Yuqorida xabar ketdi qirg'izga,
Hamma xalqda bordir shunday harakat.
Bir alomat urush bo'lsin arosat,
Kelayotir Pishag'ar bilan Ravot.
Podsho boshlab bo'ldi bizlarga dushman,
Yo'liqqani qilib ketsin pushaymon".
Quduqcha ham kelayotir Ardaxshon,
Yuqori –Sangzorda odam quyilgan.
G'amli bo'lsa tortar edi ohu voy,
Yuqoridan bosh bo'p chiqdi Qurbonboy.
Urush izlab buning ko'ngli jo'sh urdi,
Katta-kichik Qo'shtamg'ali qo'shildi.
Tog'ning tangisida sherdayin bo'lib,
"Urushda kelarman hammaga g'olib".
Ne odamlar chiqayotir elatdan,
Qurbon polvon bilan baravar bo'lib.
Dushman ko'rsa bilmaganin bildirdi,
Xanjar urmay bag'rin qonga to'ldirdi.
Oq poshshoning yordamchisi, dedi-da,
Sangzordagi tog' begini o'ldirdi.
Jam bo'lib, enkayib endi jo'nadi,
Jizzaxning urushin havas qiladi.
Har qishloqdan chiqib odam qo'shilib,
Ozdan kelayotir, endi ko'payib.
Qari-qartang ko'rsa aqli shoshib,
Bir nechalar yurar yo'ldan adashib.
Kelib qoldi Boshqo'riqqa yonashib,
Boshqo'riq ham bunda yotgan ko'p elat,
Bu yerda ham bo'lib yotgan maslahat.
Otlanib chiqqandir necha yigitlar,
Kelayotgan ko'p odamga duch bo'lib,
Boshqo'riq xalqiga Qo'shoq bosh bo'lib.
El yig'ilib, daryodayin toshay deb,

[1] Quloq song–quloq soling.

Toshoxirdan Jizzax qarab oshay deb.
Urush bo'lsa aralashib qolay deb,
Ne yigitlar endi bundan jo'nadi,
Ko'pning biri bo'lib birga yuray deb...

Bularning harkat qilib yotganini ko'rib, Chibor degan yerda xalqqa Mavlon bosh bo'lib, bunda ham maslahat bo'lib: "Jizzaxda odamlar yig'ilayotgan emish, yuqoridan Husan tuyaning bolasi Qurbonboy bosh bo'lib, ular Jizzax borib, podshoga qarshi urush qilganda biz qarab turamizmi", – deb bir so'z aytib turibdi:

Eshit, qarindoshlar, aytgan dodimni,
Podsholarga qarsh siyosatimni.
Urushda ko'rsatay bu g'ayratimni,
Ko'ngli boring egarlay ber otingni.
Chibor eli sira Mavlon ko'milmas,
Boy bilan amaldor damini yemas.
Urushni ayladim ko'nglimga havas,
Ko'zimga ko'rinmas mening baland-past.
Bunday ishlar qo'rqoqlarga qiyindir.
Botirlar-shunqordir, yovga quyildi,
Chuvildoq ham jag'ajoqlik yig'ildi.
Otlangin maydonga, endi turmagin,
Mard bo'lsang, o'zingni nomard qilmagin.
Urushli kun sira biqib turmagin,
Yura ber, yura ber, maydonga kirgin.
Jizzaxda Mavlonning ishini ko'rgin.
Dushman bizni qizilgulday so'ldirdi,
Bunday podsho mamlakatdan yo'q bo'lsin!
Xalqni shuncha qayg'u g'amga to'ldirdi,
Kunda chiqim, bizdan odam so'radi,
Zulukday qonimiz so'rib boradi,
Nima topsak barin qo'ymay oladi,
Bola-chaqa tayin ochdan o'ladi.
Podshoning urushi oda bo'lmadi,
Dehqon xalqning so'li sira qolmadi.
Kunba-kundan jabr o'tib boradi,
Bu azob suyakdan o'tib boradi.
Har ne deganin mehnatkash berdi.
Oxirida yurtni ham bezor qildi,
Kuyganidan shunday elat otlandi.
Qiyg'ir degan qush uchadi qiyada,
Hammaning alami bo'lgan ziyoda.

Mana, qara, kuygan xalqni ko'rdingmi,
Ot topmagan, borayotir piyoda.
Yayovlab yuradi ko'nglini xushlab,
Charchaganda dam oladi yonboshlab.
Yayovman deb shular qarab qolmadi,
Borayotir kaltak-yarog'in ushlab.
Necha so'zni timsol aytganman senga,
Er yigitlar, yo'ldosh bo'laver menga,
Xabar yetgan Avliyoda Hasanga.

Odam kelib o'ngu so'ldan,
Bari qaytmas yurgan yo'ldan,
Ilgarida yurgan odam—
Mavlon bariga bosh bo'lgan.
Mazgil joyi Chibor elga,
Qaramaydi o'ngu so'lga,
Chiqib qoldi endi belga,
Yetsak deydi Jizzax elga.
Toyli-tayoqli jo'nagan,
Yo'lga tushib yugruk-chobon,
Odam chiqib har bir eldan.
Oz bo'lsa, yo'lda ko'p bo'lgan.
To'zon bo'lib yeru osmon.
Shundayin bo'lib yo'l tortdi,
Endi ko'rdi Jizzax yurtdi.
Katta to'zon bo'lib yotdi.
Oldida Paymurt elatdir.
Har elda ham maslahatdir.
Ot chopilib baland-pastga,
Qo'shilishib yoru do'stga,
Goho qirda, goho pastda,
Bir-biriga bo'lib mehribon,
Kelib qo'shildi Og'ajon.
Bosh bo'lgandir satta polvon,
Zargal eldan odam kelgan.
Tanasiga sig'may joni,
Qanday Jizzaxning maydoni.
Dovriqqa qo'zg'algan eldir,
Takali, qancha Solindir,
Podshosini dushman bilib,
Ishchi-dehqon yo'lga kirib,

Hasan-Go'baning elidan
Sherqul turibdi bosh bo'lib.
Bir-biriga duch bo'lib,
Bir nechaning aqli shoshib,
Bir-biriga tovushlashib,
Hayallama, bo'l, deyishib,
Soya qirda chaqirishib,
Shuytib odam jo'nayotir.
Botirlar ilgari tushib,
Hamma otlangan sher bo'lgan,
Bir nechasi eshak mingan,
Tayoqni taqimga olgan,
Piyodalab necha odam,
Qo'ynini toshga to'ldirgan.
Urush bo'lsa ko'ramiz deb,
Dushmanni, aniq bilamiz deb,
Toshman choqlab uramiz deb,
Toyli-tayoqli jo'nadi.
Har tarafdan odam yengan,
Bir nechalar baytal mingan.
Bir xilida tayoq ham yo'q,
Bu ham bir tavakkal qilgan.
Shunday bo'lib jo'nay berdi.
Borayotir yo'lga to'lib,
O'z-o'zi bilan to'p bo'lib,
Kirga chiqib nazar soldi,
Har tarafdan kelayotir
Odam Jizzaxga quyilib.
Har kim bir so'zni o'ylagan,
Urush deb jonin qiynagan,
Zomindan beri yig'ilgan,
Soni yo'q odam jam bo'lgan,
Hech qolmayin erta-kechi.
Ayol-erkak aralashgan,
Jizzax elda qo'rg'on ichi,
Oqbuloq bilan Yoyilma,
Qo'shbarmoqqa kelib to'lgan.
Qolmayin katta-kichikdan,
Odam chiqib Soyichidan...
Kelayotir Jelliqo'ldan.
Atrof odamlarga to'ldi,

Bu Jizzax o'rtada qoldi.
Zomin, Sangzordan yig'ilib,
Savri, Quyabosh qolmadi.
Eshak bilan oshib endi.[1]
Qirni yoqalab odam keldi,
Bu ishlar bir yerda emas,
Shunday bo'p hamma mamlakat
Oqposhshoga qarshi chiqdi,
Otlanib shuncha azamat

Bir nechalar erday bo'lib,
Tog'da aqirgan sherday bo'lib,
Ko'rsa dushman yerday bo'lib,
Odamni ko'rib qiziqqan-
Erkak-ayol bari chiqqan,
Kayravotda ko'pi xotin,
Sharilloq bilan Qulqishloq,
Urush bo'lsa o'zin choqlab,
Yayovlashib kelayotir.
Borsak deydi juda do'qlab.
Ko'rganlarning aqli shoshdi,
Xalq bir-biriga jamashdi,
Jizzaxga yaqin etishdi,
O'ngu so'lni qurshab keldi.
Xotin – erkaklar jam bo'ldi.
Urushda qarab turmadi,
"Bunday zulmni ko'rgancha.
Kunda bir o'lib yurgancha,
Podshoga qarshi bo'layik.
Podsho kimdir, biz bilmaymiz,
Podsho yordamchisin topib.
Urra deb ot qo'yayik.
Yo olaylik, yo o'laylik,
Sira qaytmanglar, xaloyiq!
Mehnatkashsan. Zulm o'tdi,
Suyaklar o'rtanib ketdi".
Qattiq zulm o'tgandan so'ng
Shuncha xalq qo'zg'olon qipti.
Shunday so'zlar har elatda.

[1] Endi- tushdi

Jizzaxda bor dushman katta,
Jizzax kattasin o'ldirmak-
Kelgan odam shu maqsadda,
Jizzax shunday tutab yotir,
Bosh bo'lgan har eldan botir,
Tepsinishib kelayotir.

O'ngu so'l odamga to'ldi, hamma yoqni odam o'rab oldi. Podshoning zulmi o'tgan, xalqqa juda botgan, xalq kuganidan o'limiga rozi bo'lib. Shu ishni qilib yotgan. Katta-kichik xalq: "Uyda pisib qarab yotgancha, bir o'rtaga tushib, urushib, yo uniki bo'lib, yo bizniki bo'lib, bir yoqli bo'lib kelganimiz yaxshi", – deb Jizzaxga kela bergan. Qancha olislardan yo'l yurib kelganlar ham ko'p. Bularda ortiqcha yaroq yo'q, ko'pining ushlagani kaltak, tshosh, g'isht. "Shuning bilan ham urib chiqarmiz", deb turadigani ham ko'p. Shunda odamning haybat siyosatiga Tuproqo'rg'onda turgan sallot. Bir tarafga bosib chiqolmaydi. Ilgari qarab, o'rab turgan xalq keyinidan kelib bosib qoladiganday. Ilgari qarab, o'rab turgan xalq keyinidan kelib bosib qoladiganday. Shunda Jizzaxning o'zidan bir sartarosh –O'rinboy deganning bolasi bu so'zni aytib turibdi:

Mana shuncha xalq yig'ilgan,
Eshitinglar, kelgan jonlar,
Xo'p mehnatkash mehribonlar,
Pushaymon kunga qolmanglar.
Podsho bizga dushman bo'lgan.
Mullani e`tibor bilgan.
Boy, Eshonga o'rin bergan,
Bu mehnatkash ishchi – dehqon-
Qancha chiqim to'lab turgan,
Jabrni mehnatkash ko'rgan.
Zolimning yozgan xatida
Xizmating beo'rin bo'lgan,
Ezilgan xalq keyin qolgan.
Endi bo'ldi, mana maydon,
Maydonda kechamiz jondan.
O'chimiz olsak dushmandan,
Osmonu yer bo'lib to'zon,
Bu ishlar ajab-qo'zg'olon,
Jizzaxda katta to'polon.
Qilib odamlar siyosat,
Urushmoqqa qilib g'ayrat,

Bo‘lsin dushmanga qiyomat.
Otgan o‘qdan hazar qilma,
Bu maydondan yuz qaytarma,
Mard bo‘p kelding, nomard bo‘lma!

Shunda bir tarafda Toyir cho‘loq barcha xaloyiqqa qarab, bu ham bir so‘z aytib turgani:

Oqizmang ko‘zning jalasin,
Buzing dushmanning qal’asin,
Uring Jizzaxning to‘rasin.
Dushmanning bag‘rini ezing.
Bu yo‘lning simlarin uzing,
Poyezdning yo‘lini buzing.
Sira qarab turmang, elat,
Bu kunda ko‘nglimiz xushlang,
Har qaysingiz bir ish boshlang,
Yo‘liqqanning bo‘ynin uzib,
Makonlarin buzib tashlang.
Ot chopilib alvon-alvon,
Hamma bir-biriga mehribon,
O‘zbek xalqi, navjuvonlar,
Bunda urush izlaganlar,
Zulm ko‘rib bo‘zlaganlar,
Yuring Beshquvar ustiga!

Endi turmang, chog‘laninglar,
Urushni yaxshi o‘ylanglar,
G‘ayrat bilan bel boylanglar
Yuring, Beshquvar ustiga!

Yo‘liqarim gardi firoq,
Jabrga ezilgan yurak,
Xo‘p o‘rtanib yongan chiroq,
Dushmandan bo‘p qolar darak,
Yuring Beshquvar ustiga!
Dushman miltiq otayotir,
Bizga zulm botayotir,

G‘ayrat qilgin satta botir,
Turing Beshquvar ustiga!

Sizlarda yo‘q keskir olmos,
Urush izlab satta elmas,
Dushmanning machsadi bo‘lmas,
Urushda bilaging tolmas,
Yuring Beshquvar ustiga!

Ko‘nglingizni aylangiz shod,
Dushmanlarni qilib barbod,
Bir xili minib yaxshi ot,
Bir xilingda kuchli quvvat,
Yuring Beshquvar ustiga!

Oshiq o‘tgan Zuhra-Toyir,
Dushmanni mulkidan ayir.
Er yigitlar bo‘lib g‘ayur
Yuring Beshquvar ustiga!

Biring-biringga munosib,
Tortinmayin boring bosib,
Yuring Beshquvar ustiga!

Bu so‘zni aytib turganining ustiga Muxtorxon eshon... xalqqa pand-nasihat aytgan kishi bo‘lib, bir so‘z aytib turgan yeri:

Ham muridim, mamlakatim,
Bor mening pirlik hurmatim,
Sizlarga ma’lum quvvatim.
Pirning so‘zin yolg‘on bilma,
Pirdan qaytib murtad bo‘lma,
Oqpodshoga sen tig‘ tortib,
Osiyu gunohkor bo‘lma.

Ajabdir podsholar ishi,
Podsho katta-ulug‘ kishi.
Bu ishingda ko‘pdir xatong,
Bilsang podsho ulug‘ otang.

Podshoni sen dushman bilma,
Nodonning gapiga kirma,
Sen imoningni boy berma,
Qiyomat kun osiy bo‘lma.

Bizlar rahbarlik qilarmiz,
Beringizda bosh bo'larmiz,
Dushman chiqsa yo'q qilarmiz,
Bir tartibga keltirarmiz.

Bering bo'lmagin sharmanda,
Eshonning so'z aytar bunda,
Bo'lib qolmanglar darmonda...

Shunda eshondan bu so'zni eshitib xalq, bo'l ha, yur ha. Deb yurgan odamlar, alam qilib kuyganlardan —xalqqa bosh bo'libturganlardan biri so'z aytib turibdi:

Bizlarga pirlik qilasan,
Tag'i kelib endi bunda
Shaytonday bo'p ozg'irasan.
Buncha xalqni yo'ldan urma,
Sen, eshon, yo'lingdan qolma.
Murid ovlagan sen, eshon.
Unday desang sen ham dushman.
Jannatnng egasi eshon,
Asli qolmagin yo'lingdan
Hech ish kelmaydi qo'lingdan.

Eshonim deb, ko'p yugurdik
Nazru niyozni ko'p berdik,
Jizzaxga bo'lding mo'tabar.

O'trikchi[1] sen, bachchag'ar.
Kirmas odamlar so'zingga,
Qaratma xalqni yuzingga.
Bilasanmi turgan xalqni,
Shuncha xalqqa jabr o'tdi.
U zulmni ko'rgan vaqtda,
Sen aytmading nasihatdi.

O'tirging ma'lum bo'lgan,
Zulm qilgan amaldorman[2]
Asli o'zing birga turgan.

---

[1] O'tikchi-yolg'onchi
[2] Amaldorman-amaldor bilan

Podsho senga o'rin bergan.
Chiqim-soliqdan tish qilgan...
Bizga bu ishlar or emas,
Senday eshon darkor emas...

Sening bilan bo'lmam birga,
Qaytib ketgin kelgan yo'lga,
Nasihat aytmagin elga,
Gaping darkor emas bizga!
Ko'p odamga bosh bo'lganmiz,
Podsho bilan g'ash bo'lganmiz,
Bir-birimizga do'st bo'lganmiz,
Shuytib yig'ilib kelganmiz!

Odamni ahmoq bilibsan,
Azozilday bizni avrab,
Tag'i oraga kiribsan,
Eshonsan,kimning pirisan?
Shu dushmanlarning birisan.
"Jannatga obboroman", – deb,
Sen xalqni aldab yuribsan...

Karomating ma'lum emas,
Odamlar gapingga kirmas!
Hozir bu xalq pirin bilmas,
Eshonim deb ra'ya qilmas,
Ket endi, qolma yo'lingdan!

Bu so'zni eshitib, eshon: "Bu odamlarga bir gap bo'lgan ekan, hozir bular nima ish qilsa qilar, podshodan bir quvvat bo'lsa, bu xabar albatta borsa, podshoning lashkari kelsa, bu beodobchiliklarni kim qildi? – deb so'rasa, u vaqtda oldiga tushib, hozi bo'lgan botirlarni ko'rsatib berarmiz, boylab olgandan keyin, tunovgi g'ayrating qani deb so'rarmiz", – deb joyiga qaytib ketdi.

Ne yigitlar depsinishib,
Qani, tez-tez yur, deyishib,
Har kim maydonda turganda
G'ayratini ko'r, deyishib.

Har tarafdan odam kelgan,

Changu to'zon tutab qolgan.
Bo'lib yotir unday zamon,
O'rtadir Tuproqqo'rg'on,
Qancha bo'lsa sallot turgan,
Oz sallotga bu ko'p odam,
Yon-yog'ini o'rab olgan.
Har tarafga otayotir,
O'yo zing'illab o'tayotir,
Beshquvar o'rtada yotir.

O'qi ketadi falakka,
Otayotir yakka-yakka,
Bosh bo'lgandir bir tarafga
Bir so'z aytar Toyir cho'loq:
—Urushli kun turma qarab,
Dushman bo'ldi bizning taraf,
Yura ber dushmanga qarab,
Kaltak, yaroq qo'lga olib,
Kelaylik dushmanga g'olib
O'zbek urug'i ot solib,
Urushmoqqa bo'lgan tolib.
To'kilsin dushmanning qoni,
Qora yer qolsin bo'yalib,
Bu urushda obro' olib,
Omon eson elga borib.

Mard yigitlar, nomard bo'lma.
Taysllab har yoqqa turma,
Bu maydondan yuz qaytarma
Biz ham bunda otishayik,
Dushman bilan tutishayik,
Bizdan o'tgan siyosatlar,
Kelgan satta azamatlar,
O'q bo'shatgan bu sallotlar,
Bo'lib qolsin ajab zamon.
Qo'lga kirsa Tuproqqo'rg'on.
Undan keyin mehnatkashlar
Qayg'u g'amdan ozod bo'lar.

Hozir bizlar kam yaroqmiz,
Yaroq yo'q deb g'am yemasmiz,

Otishib turgan sallotga
Sira omonlik bermasmiz!

Ko‘zlab otadi sallotlar,
Ne otlar bo‘ldi yarador.
O‘qqa uchgan hayvon zotlar,
Yotir ko‘chada jonivor.

Ko‘ring endi bunday ishni,
Kam-kam odam qisib olib,
Qo‘rg‘onga yaqin etishdi;
Pristav bilan hokimi,
Bir tarafdan otlanishdi.

Shu zamon Jizzax hokimi,
Tuproqqo‘rg‘onning ostida,
Yetishdi otning ustida,
Kelib tushmoqchi oraga:

–Sabil bo‘lmasin mamlakat,
Qayting endi kelgan elat.
Sizlarga bir gap bo‘ldimi?
Birov sizni ozdirdimi?
Bu yurishing qanday gapir?
Bu ish Jizzaxda bo‘libdi,
Bo‘lak yerda bo‘lgan yo‘qdir.
Hech kim sizga zulm qilmay,
Qanday keldinglar uyalmay?
Yurt kattasi bizlar bo‘lsak,
Bu ishlarni bizlar bilmay,
Bu ishlaringdan ish bitmas,
Hech yerga zarblaring o‘tmas,
Nima ishni qilding havas?!
Bir senga emas mardikor,
Behuda g‘avg‘o ne darkor?
Qaytaver kelgan odamlar!
Ko‘p hayallab bunda turma,
Joyingni cho‘liston qilma,
O‘z joningda o‘ching bormi?

Bu podsholik —katta davlat,
Bunga hechchi[1] emas elat,
Podsholikda bilinmaydi
Turkiston degan mamlakat.
Bu so'zni aytib turgan vaqtda,
Hokim kuni to'lgan chog'-da
Xalq chuvillab tovush berdi:
"Tez o'rtaga olgin", deydi.
"Kaltak bilan solgin", deydi,
"Hech qaramay urgin", deydi,
"Necha yillar hokim bo'pti,
Xalqning juda sirin opti
Boylar bilan narxi birdi(r)
El ustiga o'tlar yoqdi,
Buning o'zini qon tortdi..."

Xalq bundayin so'zlar aytdi,
Yon-yog'ini o'rab olib.
Chuvlashib yaqinlab etdi.
Ko'p odamning chuv-chuviga
Hokim boshi g'uvlab ketdi.
Yomon bildi turgan elin,
Qochmoqqa topmadi yo'lin.

Tushib dushmanning qasdiga,
Kelib hokimning ustiga,
Yig'ilib turgan u xaloyiq,
Kaltak yog'dirdi boshiga.
"Kim bo'lsang shu bo'lgin", deydi
"Tag'i so'ylab turgin", deydi,
"Gumbirning qo'ygan hokimi-
Bizga dushman, o'lgin", deydi.

Xalq yig'ilib ko'p ish qildi,
G'okimni urib o'ldirdi.
Bu pristav chinqiradi,
Chinqirab qayda boradi?!
"Sen ham endi qolma", deydi.
Tayog'i bilan soladi.

[1] Hechchi—hech narsa

Quloq solmaydi tiliga,
Yurgizmaydi, o‘z yo‘liga.
“Dushman!” – deydi yig‘ilgan xalq.
Kaltakman soldi beliga.
Ko‘ring yig‘ilgan elatni.
Mingboshisini yo‘qotdi,
Hokim bilan pristav,
Ikkovi dunyodan o‘tdi...

Beshquvarda politsiyalar,
Necha mirshab, amaldorlar,
Qochayotir tog‘u toshga,
Har kim kirolmas savashga.
“Nima qilsa qilar”, deydi
Necha endi er yigitlar,
Bu urushda sher yigitlar.
Kattalardan hokim o‘ldi,
Boshqa amaldorlar bundan
Barisi qochib qutuldi...

–Yigirma – o‘ttiz sallot qoldi,
Tortinib turib ne bo‘ldi.
Kelgan odam qilar g‘ayrat,
Quruq chuvlab turmoq uyat,
Shunday qilib bir ish qilsak,
Qo‘lidan iltig‘ni olsak,
Qo‘rg‘oniga ega bo‘lsak,
Mehnat tortib kelgandan so‘ng,
Xalq ko‘rguday bir ish qilsak!...
Ot chopilsin baland tog‘ning pastiga,
Qarshi chiqib keldik dushman qasdiga.
Omin denglar, ot qo‘yinglar-
Tuproqqo‘rg‘onning ustiga!

Ot qo‘ygandan aqli shoshar.
Qilgan ishidan adashar,
Balki miltiq otolmaydi,
Qo‘lidan miltig‘i tushar,
Qo‘ymasang bo‘g‘ini bo‘shar.

Qani boshlanglar siz bir ish,
G'ayrati bor qilsin hurush,
Dunyoda ko'p ko'rdik koyish,
Ot soling dushman ustiga!

Dushman bo'lsa o'ldirayik,
Zo'rligimiz bildirayik,
Dushmanni o'rtaga olib,
El ko'rguday ish qilayik.

Xalqda ham bor qancha mergan,
Bu urushga birga borgan.
Bular ham ko'p miltiq otdi
O'q borib tuproqqa botdi.
Sallot ham ko'zlab otmaydi,
Shinak olib otayotir
O'qi baland ketayotir.
Chuvlagan xalqning ustidan
O'q zing'illab o'tayotir,
Shunday bo'lib otishib yotir.
Bir-biriga bo'lib dushman,
Qilichlashgan yo'qdir maydon,
Juda odam ko'p yig'ilgan.

—Olis —yovuqdan kelganlar,
O'zini botir bilganlar
Dilgir bo'lib savash izlab,
Bosh hokimni o'ldirganlar.

Bir ish qilinglar Jizzaxda,
G'ulg'ula ketsin falakka,
Noming qolsin elu xalqqa,
Podshoga qarshi kelganlar
Gubir qo'ygan amaldorni—
Bunda urib o'ldiringlar,
Urushdan hazar qilmanglar.
Nechov maydonda oh urdi,
Amaldorning bari shunda,
Bosib oling Beshquvarni!

Topsang amaldorning o'zin
O'ying burung, ikki ko'zin.
Yuz ming faryod aylagand,
Tinglamanglar dushman so'zin!

Sira yo'qdir bizda toqat
Jabru jafo tortib mehnat.
Changalimizda tushib qolsa,
Sira qo'ymasmiz salomat.
O'rus, musulmon demanglar,
Kim podshoga xizmat qilsa,
Sira uni do'st bilmanglar.
Qayda zolim duchor bo'lsa,
Shu dushman, omon bermanglar!

Beshquvurni izillatib yig'latdi,
Ko'ringan dushmanni qo'ymas sulatdi.
Bu Jizzaxda bo'lib yotgan to'polon,
Samarqandga bordi, hokimga etdi.

Hakim aytdi: "Men Jizzaxga boray, deb
Qanday gaplar bo'ldi, borib ko'ray, deb,
Nima ishlar bo'lgan ekan bilay", deb,
Qancha sallot bilan poyezdga tushdi,
Poyezd qichab bu Jizzaxga yetishdi.

Bu kelgan sallotni ko'rib, odamlar stansiya boshidan uzoqqa qochdi, bu g'ovurni eshitib, bir nechalar Beshquvardan chiqib toqqa termashdi. Sallot Beshquvarga qarab yo'l tortdi, ikki yuzi birdan miltiq bo'shatdi. "Bizda yov-yarog' bo'lmasa, sallot yo'q degan so'zlari bekor ekan. Kishi bilmas ko'p ekan; qilich-miltig'i o'tday yongan anjomdor, bunda qarab turib o'lmoq ne darkor", — deb kelgan odamlar qanchasi elga qaytdi.

Sallotlar Tuproqqo'rg'onni ko'rib, u yon-bu yon qarab, pristav, hokimning o'liklarini ko'rib, Beshquvarda qancha nobud bo'lgan kishilarni bilib, Samarqand hokimi Jizzaxda bo'lgan voqeani, harna ko'rgan ishini xatga bitib, Toshkent gubiriga telegramm bilan yubordi. Bu xabar Toshkentga ketdi.

Hokim aytdi: "Hamma yerda ham bo'lgan shunday qo'zg'olon. Mana Samarqandga yaqin Dahbitda ham mingboshisini urib o'ldirib qo'ydi". Ikki yuz sallotni bunda tashlab, "Bir xabar

bo‘lguncha Tuproqqo‘rg‘onni ko‘rib turasizlar”, -- deb Samarqand hokimi poyezdga tushib , Samarqandga qaytdi. Bir-ikki kun orada o‘tdi, yuborgan telegrammning xabari yetdi. Yana sallot kelayotgani ma’lum bo‘ldi. Shunda otli, piyoda bir eshelon sallot kelib, stansiyaning boshida tusha berdi. Bular shu kecha Tuproqqo‘rg‘onda yotdi, uch –to‘rt kundan beri “Turkistonni otadi” degan ovoza hammaga ketdi, erta-mertan tong otdi. Endi avval boshlab Jizzaxni otmoq bo‘lib, anjomini choqlab harakat qilib yotdi.

Gubirning buyrug‘i shunday:
“Elu xalqni otsin. Degan,
Hammani bo‘zlatsin, degan
Qarshi kelgan xaloyiqni
Yakson qilib ketsin”, – degan.

Sallot chiqib oraladi,
Jizzaxga qarab jo‘nadi.
Har zamonda to‘p bo‘shatib,
Yaqinlashdi bozor joyga.
Elu xalqdan bo‘lmay birga,
Bozor joyga etgan vaqtda
O‘t qo‘ydi chorsuga, timga,
Yakson qilmoqchi Jizzaxni.

Bo‘lib qoldi bir alomat,
O‘t qo‘ydi, bo‘ldi qiyomat.
Yurib har yon o‘t qo‘yadi,
Yonib qulaydi imorat.
Otni tashlab yayov bo‘lib,
Qaraydi piyoda sallot,
Bu g‘ulg‘ula ko‘kka ketdi.
Qanday jondor ko‘rsa otdi,
Jizzax xalqi, ne makonlar
Tutab bunda yonib yotdi.
Sallotlar bo‘linib ketgan,
Qishloqni oralab ketgan
Erkak ko‘rinsa qo‘ymaydi.
O‘lmay bundan qutulmaydi.
Ko‘zi to‘lib qayg‘u yoshga,
Duchor bo‘lib bunday ishga,
Qo‘rqqanidan qochib chiqib,

Yashirinadi tog‘u toshga.
Kuyib yongandir ajab joy,
Katta xirmon yotgan bug‘doy.
Sallotni falak uradi,
Bug‘doyga olov beradi,
Bosilgan xirmonni ko‘rsa,
O‘t qo‘yadi-kuydiradi.

Eshiting, so‘ylagan so‘zni,
Qaragan ariq, andizni,
Sarg‘aytirib gulday yuzni,
Har yerlardan topib olib,
To‘playotir xotin-qizni.

Barcha odam g‘amga to‘ldi,
Jizzax ham katta eldi(r),
Bola-chaqa ko‘p yig‘ildi.
Yig‘ib olgandir sallotlar,
Tovonini bosib otlar,
Qiz-juvonni molday qilib,
Bu oldiga haydab oldi.
Miltiq otib ot ustida
Qilib qattiq siyosatdi.
Qiz xotinlar izillasa.
Ustidan miltiq bo‘shatdi.
Umid uzib makonidan,
Ikki boshdan o‘ldik deydi,
Umidni uzib jonidan,
Erkak qochib ketgan, dashtda
Yurgan bular baland-pastda,
Etishmaydi bunda zori,
Nechovlarning intizori.
Sallotning qo‘liga tushgan
Bir nechaning sevgan yori.
Qattiq kunlar yig‘lashadi,
O‘g‘li, qizi-go‘daklari.
Haydab yetdi beshquvarga
Bola-chaqa bo‘lib birga,
Ishi tushib qolgan “zo‘rga”.
Har yoqqa bo‘lingan sallot,
Borgan yerida qiyomat,

Bir xili bordi Ardaxshon,
Dehqonlarga bo'lib dushman
O't qo'ydi necha qishloqqa,
Erkak topmaydi, izlaydi,
Olacha, gilamni qo'ymaydi.
Yaxshi kigizlar yo'liqsa,
"O'lja" deb, tashlab ketmaydi.
Sallotlar qilgan yurishni,
Har yoqqa qilib xurushni,
Gubirning amrini tutgan,
Qilar eli yerga yakson.
"Erta buni otamiz" deb
Haydab, qiz –xotindir sarson.
G'am bilan bir kecha o'tdi.
Tong otguncha band boyqish,
Uyqu qayda, qon yig'lashib,
Nechovlarning hushi ketdi.
Ot chopishib sallot qarar qishloqni,
O'roq vaqti, hech topmadi jonzodni.
U yerdagi qishloqlarga o't qo'yib,
Endi ko'rib qoldi katta charvoqni.

Bu charvoqqa qo'nib joylashib, mingboshi yugurib xizmat qilib turibdi...

Semiz qo'ylardan, g'unajinlardan so'yib, ziyofat qila berdi. Bu yerdan qo'zg'almay bular yota berdi. ikki kunda, uch kunda tag'i borib, sallotlar qo'shila berdi, dushmanga ilg'or tashlanganday, har yerga bo'linib, bir bayrog'i Balxining tengayida yotdi. Ikki-uch kun orada o'tgandan keyin mingboshiga qarab, sallotboshi bu so'zlarni aytdi:

Mingboshisan, bunda xalqni bilasan,
Odaming qayerda? Topib kelasan!
Agar taysallasang, o'zing o'lasan!
Bu qishloq xalqdagi qayoqqa ketdi?
Oldimizga tushib qilgin xizmatdi!
Kuydirib yondiray ushbu elatni,
Shundayin podshoga qarshi kelibdi!
Bu so'zni eshitdi endi mingboshi,
Zarbidan titraydi odamning boshi.
Xo'p deganda bundan sallot otlandi,
Bir xili bo'linib yurgandir pastga.

Bir nechasi chiqib bu tog'u toshga,
Rahmi kelmas elning ko'zda yoshiga,
Chiqib qoldi Molguzarning boshiga,
Ko'rsa eziladi xalqning yuragi,
Qalin Molguzarning archa darag'i,[1]
Daraxtni oralab izlab kelibdi,
Qizu xotin bu panalab yotibdi.
Ko'p xalq panoh tortib toqqa borgandir,
Sallot qo'rg'on qilib o'rtaga olgandir,
Nechovi panalab qochib bergandir,
O'q tegib bir nechasi o'lgandir.
Qo'zg'olonga boshchi bo'lgan Mavlondi(r),
Hammasi sallotga duchor bo'lgandi(r),
Nechov o'lib tog' boshida qolgandi(r),
Qishloqqa haydadi qizu juvondi.
Qaramaydi katta-kichik holiga,
Endi tushdi zolimlarning qo'liga,
Haydab keldi o'zi turgan eliga.
Haydadi shu zamon charvoqqa keldi,
Mavlonni bir kecha ko'rsatib turdi,
Ko'p sallot qilichni qo'lga ushladi,
Mayda-mayda qilib chopib tashladi.
Bu ko'rib xalqda zahra qolmadi,
Har tarafga endi qocha boshladi.
Qochgan bilan endi qayda boradi?
Qayerda o'q tegsa, sho'rlik o'ladi.
Bir nechalar qochib ko'lga tashladi,
Suvda omon qoldim dedi, o'yladi.
Suvdan boshin chiqarganda bechora,
Qarab sallot otib tashladi.
Uch qishloqdan qancha odamni otib,
Xalq qolgandir aqlu xushidan ketib,
Shunday qilib qancha xalqni o'ldirdi,
Boshqo'riq. Xoltoyga endi o't qo'ydi.
Olov qo'yib Muqor bilan Chiborga,
Shunday qilib bu yerlarni yondirdi.

Dunyodan umidni uzib dehqonlar,
Qizu xotin, bola-chaqa yig'lashar:

[1] Darag'i-daraxti.

"Bu dunyoga keldik, qanday bo'ldik", deb
"Zolimning zulmida g'arib o'ldik", deb
"Berahm qonxo'rga duchor bo'ldik", deb
"Bunday azob-uqubatga qoldik", deb.

Xalq bosib juda ham bezor qildi,
Sangzor rayonida bir oycha turdi.
Elu xalqqa juda azobni berdi.
Ko'p yerlarga yetib borsa o't qo'yib,
Sangzorda yo'q qildi ko'rib bozorni,
O't qo'yib yondirib Qoramozorni.
Bularning zulmidan shunday dong ketdi,
Dehqonlarga zulm qilib qoritdi.
Qishloq makonlari duv yonib yotdi.
Bir kun o't qo'yib Qorashaqshaqqa,
Xalqqa yana zolimligin ko'rsatdi,
Joyiga o't qo'yib, nechovni otdi.

Necha odamlarning qo'lini boylab,
Jizzax qarab bandi qilib haydatdi.
Sakkiz yil, o'n yildan sibir hukm etib,
Kishan solib Sibir yurtga uzatdi.
Necha kun bu yerda azobni berib,
Zomin qarab otlanib yo'l tortdi.
Joyi. Chaylasidan bu el ayrilib.
Ayrilsa ham omon qolgan, mayliga.
Yig'lashadi o'lganlarning holiga.
Sallot ketdi, sirlashar yosh-qariga,
Ega bo'ldi omon qolgan xaloyiq,
Kuyib ketgan bunda makonlariga.
O'lgan o'ldi, qolganlari topishib,
Bir-biriga sirin aytib, yig'lashib,
"Shu balodan endi omon qoldik", deb.
Bandi ketgan kishilarning bolalari
Yig'lashadi: "Yetim bo'lib qoldik", deb,
Sallot qildi o'z yo'lida yurishdi,
Enkayib bir kuni Zominga tushdi,
Zo'rlik qilib xalqning ko'zin o'ydirdi,
Olov qo'yib xalq makonni kuydirdi .
Bandi qilib bosh bo'lgan bir nechasin,
Qattiq azob berib rangin so'ldirdi.

Sallot yurib kecha bellardan oshdi,
Azobga qoldirib qancha elatni,
Zolim yuborgandir elga sallotni,
Yonashgan yerini kuydirib o'tdi.
Pishag'arga kelib qo'ygandir o'tni,
Yondirgandir bunda qancha elatni,
Hamma yerda shunday ishlar bo'p yotdi,
Qurib ketdi g'amli elning darmoni,
Ko'p bo'ldi-ku erli xalqning armoni.
Dod deydi holiga yig'lab ko'radi,
Dodlaganman endi qayda boradi.
Hech kim borolmaydi bular qoshiga,
Qattiq kunlar tushdi xalqning boshiga.
Oraladi sallot qancha elatga,
Katta qishloq Sho'rchadayin ellarga,
Bunda kattalari sallotman[1] birga.
O't qo'ygandir Qo'shtol bilan Chambilga.
Elu xalqni aytganiga ko'ndirib,
Qancha elning mazgilin yondirib.
Ravot kelib bozor joyga o't qo'ydi,
Odam qochib bunda tepinib qoldi.
Sallot ot chopadi o'ngu so'liga,
Sir aytmayin biror yoshu qariga,
Bir to'polon bo'ldi ravot eliga.
Sallot yurish qilgan endi uzoqqa,
Bir nechasi yurish qildi Jizzaxga,
Bir bo'lak salloti Bag'donga ketgan,
Qorakum, Qildiga o't qo'yib o'tgan,
Qulpizardan o'tib Bag'donga etgan.
Yangiqishloq-Bag'dod bozor joyini,
Borgan sallot bunda o't qo'yib yotgan.
Tog' ichi, Bag'donda orlab ketgan.
Sarimsoqni olov qo'yib tutatgan,
O't qo'yib Porishni izillatgandir.
Nechovlarni bular Bag'donda otgan,
O't qo'yib Bag'donda qancha qishloqqa
Qancha o'lja bilan Jizzaxga qaytgan.
Mulla, xo'ja u bilan birga boylar.
Qoshida amaldor ham sipohilar,

[1] Sallotman-sallot bilan.

Sallot kattasini juda do'st bilar,
Sular bilan bo'lib yordami berar...

"Chekingga tushsa, chegrayma", – degan gap bor. Xalqni chaqirib, mingboshi shu so'zni aytdi:

Katta-kichik bunda turgan jamoat ,
Odam bilan obod bo'lar mamlakat
Mardikor deb yaxshi o'yla jamoat,
Ma'qul qilib bizga bergin maslahat.
Qani kim boradi, kimlar qoladi?
Borish navbat boylarniki bo'ladi.
Eshitgansan volostnoyning tilini,
Boy yuborar o'zi tuqqan ulini,
Boy qiladi mardikorning qorini.
O'g'lini jo'natsa berar pulini.
Men bilaman kambag'alning holini
Qiyinlikda o'tgan ro'zg'orlarini.
Podsholikda boylar qilsin-da xizmat,
Shu bo'ladi mendan chiqqan maslahat.
Podsho davlatida boylar rohatda,
Rohat ko'rgan kishi borsin, albatta.
Kambag'al bir uyda xizmatkor,
Boyning ishin qilib kunin o'tkazar.
Boy kishining to'rtta-beshta o'g'li bor,
Birini jo'natsa, qolgani bo'lar.
Yo'q kishiga juda og'ir mardikor.
O'z ketsa o'g'il-qizin chuvlatar.
Chuvlab qolsa qanday kuni o'tadi,
Bolalari meni qarg'ib yotadi.
Xo'p o'ylagin, mendan shunday maslahat.
Borar joying Rossiyadan mamlakat.
Bu so'zimni yaxshi o'ylab ko'ringlar,
Uyga borib boz kengashib kelinglar.

Shunda bu mingboshi kambag'alning gapini qilayotgani yo'q, o'z nafini ko'rmoq uchun bu so'zni aytdi, shumlikni o'ylab gapirdi. Buning bilan badavlat to'q kishilar o'ylashib, mingboshiga bir narsa pora beradi. Kambag'al – yo'q. Kishilardan nima unum bo'ladi? Hamma vaqt chivin shiraga ko'nadi, shirasi yo'q taqir yerda chivin nima qiladi? O'zidan hadigi bor, biz ham boymi deb yurgan odamlar ham ko'p –oz mingboshiga pul beradi.

Ertasiga ham kim ellikboshisi bilan yig'ilib mingboshinikiga hozir bo'lad. Kambag'al kishilar aytdi: —Bizda o'zimizda boshqa o'y yo'q. Bu so'zga mingboshi aytdi: —Sizlarni jo'natib, xo'p o'ylab ko'rdim. Sizlarning boraman deganlaring ma'qulday. Agar bor kishilardan boraman deb odam chiqsa, sizlarda beradigan pul bo'lmasa, buning borishidan pulini topib berishi qiyin. Olti yuz so'm oz pul emas, bu ahmoqning og'zida, borning hamyonida. Podshoning g'aznasiga bo'ladi.

Shunda kambag'allardan biri mingboshiga gapirdi:

Mingboshisan necha so'zni so'ylading,
Oqshom yotib qanday shumlik o'ylading,
Kambag'alni yana keyin taylading
Kecha kambag'alga yon bosgan bo'lding,
Bugun turib boylar gapin gapirding.
Endi sening aytganingga ko'nmaymiz,
Har gapning aytganingga ko'nmaymiz,
Har gaping aynidi, ma'qul bilmaymiz.
Xizmat bo'lsa kambag'alni itarib,
Boy kishini ta'rif qilgan bo'lasan.
Biz ha sening aytganingni qilamiz,
Chek tashlagin, chekdan chiqsa boramiz.
Xoh boydir, xoh bo'lgin kambag'al,
Chekka tushsa, biz taqdirdan ko'ramiz.
Har kuni ham turli so'zni gapirib,
Kambag'al —qashshoqni o'rtaga solib,
Bir tun o'tsa so'zlaring boshqa bo'lib,
Sen turibsan to'qning yordamin olib.
Kattalik so'zingga ko'ngil to'lmaydi,
Chek qilmasang bu odalar ko'nmaydi.
Har kim ketar, bilsa, borar yo'liga,
Kecha gaping kambag'alni quvondi,
Bugun so'zing boshqa, bizlarga botdi.

Bu so'zlarni necha odamlar aytdi. Shunda bu so'zlarni mingboshi eshitib: — Chek bo'lsa, chek qilamiz, besh kun-o'n kunda o'zimiz xabar qilamiz, — deb odamlarga javob berdi.

Bir odamda emas, hamma elatda,
Shu gap bor bilsanglar,Turkiston yurtda,
Eshitmagan gapga elat cho'chigan,
O'ylab tursa og'ir gap-da albatta,
Chek ishiga boylar g'amgin bo'ladi,

"Bizning bolamizga navbat keldi" – deb
U qo'shilmay endi xalqning gapiga,
Boy-badavlat o'ylab ketib boradi.

Bizni pisand qilmay yurgan elatda,
Boy bolasi chiqib qolsa bu chekda.
Bizlar borsak jo'ra yo'ldosh qilamiz,
Boyvachchani og'ir ishga solamiz.
Bu elatda yotib egich bachchag'ar
"Mehnat qanday?" – deymiz izza beramiz,
Qanday borsak qo'shib olib boramiz, –

deb kambag'allar yo'lda gurunglashib, har kim o'z uyiga tarqab ketdi.

Badavlat, to'q kishilar har kuni machitga yig'ilib, ilgari tanimay yurgan kambag'allarni qoshiga chaqirib olib, kuniga nasihat qilib: "Chek bo'lganda qaysingizga chek tushsa, besh uyning badalidan men boraman, deb turasan. Sening bola chaqangni ham boqamiz, sen kelguncha xabardor bo'lib turamiz. Olti yuzdan pul bo'lsa ham o'zingga beramiz. O'roqchilik, mashoqchildik bilan kun o'tkazib kelayapsizlar, bu yerda ham birovning" xizmatini qilasizlar, u yerga borganda keyin ham shu xizmat", – deb tulkilik qilayotir. Unda kambag'al kishilar aytadi: "Bu yerdagi xizmatga uni tenglama, xudo biladi,

Unda borgan kishi qaytib kelmaydi, har qaysisi har yerda elim, bolam deb o'lib ketadi. Bu oson bo'lsa odamlar g'alva qilmasdan borar edi, ikki boshdan yo'q bo'lib ketamiz, deb qancha g'alva qilayapti. Sizlar pullaringga ishonasizlar, iz nimamizga ishonamiz?! Chek bo'lsa bizning bolamizga ham chiqadi, deb xavflanayapsizlar: sizlarning bolalaringizning joni aziz, sizlarning ollaringizning joni aziz, bizlarning jonimiz xor, orada nima farq bor?! Farq shu: sizlar dunyodor, jabr ko'rmay bola –chaqangiz bilan rohat ko'rib kelasiz. Shunday qilib, bu mehnatda taysallayotirsiz", – dedi. Bu so'zning ustida chekning xabarini aytib, mingboshi chaqiryapti degan xabari kelib qoldi.

Xabar borib har qishloqqa,
Gohi to'pda, gohi yakka,
Xabar berib elu xalqqa,
Kelayotir endi chekka.
Yig'ilishgan keng charvoqqa,
Bir xil boylar g'amli dog'da,
Bular o'ylab borayotir,
Hamma odam ketgan yoqqa,

Yetdi kattaning qoshiga,
Bir qutiga chekin solib,
Pristav turdi boshida.
Hamma qator bo'lib keldi,
Hamma odam birday endi.
Boyu kambag'al aralash.
Hamma birday bo'lib qoldi.
Shundayin bir qiziq bo'ldi,
Bir xil boyga buzuq bo'ldi,
Bir xilining o'g'li tushdi,
Bir nechasining ukasi
Chekni olib aralashdi.
Nechovlari shivirlashib,
"Yomon qildi, – deydi, – ishni.
Yo'q edi-ku bunday gaplar
Bu chek degan malomatni
Chiqarganlar kambag'allar.
Tag'i o'ylashib ko'rarmiz,
Mingboshiga gapirarmiz,
Nima desa biz borarmiz,
Tag'i qaytadan kelarmiz.
Ilgari gapi bir bo'lgan,
Bizdan qancha pora olgan",

deb pora berganlar bu maslahatda bo'lib yotdi. Chek tamom bo'ldi...

Mingboshiga pul bergan kishilar: "Mana biz sizga qancha pul berib, bizning bolalarimiz ham chekka tushib, ketish harakatini qilib, tashqish qilayotir, biz sizga ishonib beg'am turibmiz, endi gap qanday bo'ladi?" – deyayotir. Bularga mingboshi shunday javob berayotir: "Bormoqqa bolalaring ko'ngil qilmasa, kambag'allardan ko'p, qaysing bo'lsang ham pulni g'amlab olib kelib beraver, odamni o'zim so'mlab[1] qo'yibman, qay mahal jo'nash harakati bo'lsa, har qishloqdan boradigan mardkorni o'zim hatlab besh uyga bir odamdan qilib, hisobni men o'zim to'g'rilayman. Bir besh uyga cho'tlab bir kishining shu yurtga boradigan kiyim-kechagini g'amlab qo'yinglar. O'zimiz ham birga boramiz shu yurtga, pullaringni ayamanglar. Ko'p beraveringlar, men o'zim bir tuzuk badavlat, mulla, eshon boshidan tuman ko'tarilgandan bo'lib: "Bunday qilsangiz, vaqti miz xush bo'ladi. Ilgarigi ishingizni juda qo'l yuvib seskanib ketib edik", – deb qaytdi.

[1] So'mlab-cho'tlab. Taxminlab.

Mingboshi otlanib har bir yerlarga tushib bir dumning joyini bir yerga chaqirib, boy bolalarni o'chirib, kambag'al kishilardan o'tkazib, har bir dahada bir oqshom yotib, bu ishni "to'g'rilab" keldi. O'zi ham juda ko'p pul yig'ib oldi.

Sovuq tushib tirama kun bo'lib qoldi. Necha kunlar o'tdi. "Mardikorlar stantsiyasiga kelsin", – degan xabar yetdi. Eldan boradigan mardikorlar ma'lum bo'lib qolgan, boradigan kambag'al kishilar: "Endi bizni chaqiribdi, shundan shu yoqqa yuborarmikin, yo tag'i uyga barmoqqa javob berarmikin", – deb, bir-biriga gapirib, stansiyaga yig'ilib borayapti. Stansiyaga borgan odamga: "Samarqandga borasan. U yerda do'xtir ko'radi", – deb javob berayapti. Yayov borgan odam yalpi so'kib kelyapti. Ko'pi oladigan pulni hali hal olmagan. "Yur bu yoqqa", deb nechovlarni mingboshining qoshiga olib borayapti. Mingboshi: "Nega olib kelding?" – deb so'rayapti. "Shu vaqtchayin mening haqimni bermaydi", – deb arz qilayapti. Mingboshi: "Haqing bilan ishing bo'lmasin, sen ketguncha o'zim undiib g'amlab beraman" deb yo'lga solayapti. "Hali sizlarni do'xtir ko'rgani yo'q, do'xtirdan o'tgandan keyin kim boradi, kim qoladi, ma'lum bo'ladi", – deb javob berib jo'natib yuborayotir.

Mardikorga bo'ldi xabar,
Bir-birini izlab topar,
Ota-bolaga intizor,
Chuvillashib qarindoshlar.
Yo'qlikdan ketadi o'zi,
Sarg'ayib nechovning yuzi,
Ota deb yig'lashib qoldi.
O'z elinda o'g'il-qizi,
Yosh to'ldirib ikki ko'zi,
"Yo'qlik asar qildi, – deydi
Bola-chaqa qoldi", – deydi.
Boshida bor qayg'u tuman,
Hozir ketsa ko'rmak gumon,
Kuni bilib o'lib ketsa.
Ko'ngilda ketadi yuz armon.
Ketadi bundan sarg'ayib,
G'ayri yurtda o'lib ketsa.
Bo'lar o'ligi behisob,
Bu elda qo'yib dog'ini.
Mardikor deb ketar bundan,
Kim biladi so'rog'ini.

El ko'zidan bo'lar g'oyib,
Bir nechaning bunda yori
Qolar endi sochin yoyib.
Yo'qchilikdan shunday bo'ldi.
Abgoru afloda endi.
Jo'nar fursat yaqinlashdi,
Boshga qayg'u motam keldi,
Dadil bo'ladi mard kishi,
Yig'ilishib qarindoshi,
Bir-biri bilan xo'shlashadi,
Xalqdagi jo'ra-yo'ldoshi.
Nechovlari birga bo'lib,
Yo'llarda o'ksinib qolib,
Yana qaytib ko'rarmizmi?
Tengu to'shdan judo bo'lib.
Odam kelib o'ngu so'ldan,
Mardikorlar chiqqan eldan,
Etar-etmaslik holiga,
Judo bo'lgan mazgilidan.
Etmaslikning ishi g'olib.
Xizmatni bo'yniga olib,
Yoru do'stlar birga kelib.
Ancha yo'lda birga bo'lib.
Bir-biri bilan so'zlashdi,
Endi yo'llarda sirlashib...
Jo'natdi kelgan elatni,
Samarqand qarab yo'l tortdi.
Kurisin podshoning ishi,
Bir nechaning ko'zda yoshi,
Xo'shlashib ayrilib qoldi,
Nechovlarning qarindoshi,
Birga yurgan tengdoshi.
Etishmay bir necha so'zi,
"Otam bugun ketdi", – deyishib
G'amgin bo'lib yog'li, qizi.
Jo'nadi Samarqand qarab,
Borayotir mardikorlar,
So'z qotadi elga qarab:
-Yuragimiz ohu voyda,
Kunimiz zo'tar qanday joyda,
Tag'i kelib ko'rarmizmi.

Burungiday yurarmizmi
Paydo bo'lgan mazgil joyda?
O'z-o'zini g'amga solib,
Vatanini esga olib.
To'q kishilar boyib qaytar,
Samarqanddan yo'lga solib.

Boryotir aqli shoshib,
Otli, yayov yo'lga tushib,
Gohi xafa, goh kulishib,
Mingboshini kelar deyishib,
Eli xalqdan odam chiqqan,
Samarqand qarab yo'l tortgan,
Bir xili ko'nglin ko'tarib;
Nechasi sirin bildirmadi,
O'z ichidan shilinadi,
Indamay ketib boradi.
Bir-biriga yordam berib
O'z ko'nglini ko'taradi.
Buncha xalqning oldi endi
Jomboyga yetib boradi.
Oldi borib qo'nayotir,
To'sat-to'sat kelayotir,
Samovarlar to'layotir.
Cho'ldan chiqib ko'p yo'l yurgan,
Xorib-charchab bunda kelgan.
Bir fasl tushlab o'tmoqqa
Jomboyda eydigan narsa
Boqqoldan topilmayotir.
Och qolgan odam kam quvvat,
Yo'l yurmoqqa kelmas holat,
Yo'lga sig'may borayotir
Elu xalqdan ko'p mardikor.
Shunday bo'p daryodan o'tdi,
Cho'ponota toqqa yetdi.
Cho'ponota tog'dan o'tib
Xorib-charchab Siyob yetdi.
Siyobga chiqib qarasa,
Samarqandga har ko'chadan
Mardikorlar kelayotir,

Erta qichab yetganlari
Saroydan joy olayotir.

Borgan odam bu shaharga yig'ildi,
Xo'jayinlar bari bunda uyildi.
Hokim, pristavlar kelib ko'ribdi,
Mardikorlar necha ko'rikdan o'tdi,
Bu orada hafta yo o'n kun o'tdi,
Mardikor hakim, deb boylarni tutdi,
Mingboshi ham boyning gapi bir bo'pti.
Boy aytadi:
– Kiyimi bilan ko'p xarajat bo'ldi, deb
Ilgarida qancha pulni oldi, deb
Shuning bilan bari haqi to'ldi, deb
Endi buning ag'i nesi qoldi, deb.
Mana siz mingboshi bularga qarang.
Tag'i bizga tarmashib balo bo'ldi, deb
Mingboshi aytar: –Sening haqing to'lmasmi?
Eganing, olganing hisob bo'lmasmi?
Hisoblashsa boyniki oshib ketdi.
Olgan-eganingni hisoblab kelsa,
Olib bergan kiyim ziyod bo'libdi.
Qarayman sira ham haqing qolmagan,
Bu odamlar sening haqing yemaydi,
Behisob bir narsa senga bermaydi.
Bola-chaqangga ham qancha bergandir,
Kambag'alsan, boshing aylanib qopti.
Nari-beri ko'p hisoblab ko'rganman,
End sening nima haqing qolgandir?!

Boy, mingboshi chiqaradi tuhmatni,
Mehnatkashning haqi tegmay o'ziga
Jigar-bag'ri juda ezilib ketdi.
Mardikorlar turib bu so'zni aytdib
-Qani o'yla, bizga nima haq berding?
Bizni juda esi yo'qqa chiqarding.
Boyning haqin oshirib ziyod qilasan,
"Haqing yo'q" – deb bizni yerga urasan,
Kambag'al bo'lgan bilan aqli ketmaydi,
Ko'p bergani uch yuzga ham etmaydi.
Bizlar mehnatkashmiz, endi mardikor

Yo‘qchilikdan bizlar senga gunohkor!
Ko‘p berganda mening yarim haqim bor,
Haq ber desak. Senga bo‘ldik gunohkor.
“Do‘xtirdan o‘tganda beraman”, –deding.
Samarqandga bizni aldab opkelding.
Endi haqim, dedik, tuhmat chiqarding,
Hech vaqtda shunday gap ham bo‘larmi?
Bizning haqimiz dang g‘aznang to‘larmi?
Mehnat qilib biz bo‘ldikmi tuhmatchi?
Qani mening olgan pulim so‘ra-chi!
Ko‘nmay yetsak, bizni do‘qlab ko‘ndirding,
Juda bizga zo‘rligingni bildirding.
Mardikorlar shundayin dodka bo‘ldi,
Qoshidagi pristavga arz qildi,
So‘ngra mingboshi ham biroz pul berdi...

Unda mardikor boshiga chiqqan Samarqand boylari aytayotir:- Bu odamlar ilgaridan qanchaqo‘zg‘olonda bo‘lgan edi. Hech mahalda boramiz deb roy qilmas edi. Bular podshoning siyosatiga. Hukmiga qarshi kelgan edi. Bular boylarning puli bilan sipohilarning qahri-zahri bilan, o‘lganidan borayapti, hisobini topmay quvvati kelmay, hali ham ancha qilayapti.

Boylardan chiqqan bu so‘z rabochiy – mehnatkashlarga botib bir so‘z aytib turgan ekan:

Zolim boylar, juda shumlik o‘ylading.
Kambag‘alning qo‘lin ipsiz boylading.
Dushmanning qo‘liga bizni haydading,
Biz ketamiz bundan mehnatni tortib,
Ko‘p jafolar bunda jonimdan o‘tib,
Zolim boylar bizga katta so‘ylading.
So‘zlaring bizga nishtarday botib,
Nima bo‘lsa biz taqdirdan ko‘rarmiz,
Seni o‘zimizga dushman bilarmiz!
Agar o‘lmay qolsak. Azobni ko‘rib.
Yana bir kun qaytib elga kelamiz,
Axir biz ham ahvolingni ko‘ramiz!
Hozir g‘amgin ko‘zdan to‘kib yoshimni.
Tashlab borayotirman qarindoshingni
Qay yurtlarda g‘arib qilib boshimni,
Kelganda ko‘rarsan mening ishimni!
Kecha-kunduz dushmanlikni o‘ylading,

O‘ynab o‘sgan eldan judo aylading!
Zo‘rlik qilib hozir bizni haydading.
Mingboshi, qozilar bilan bir bo‘lib.
Itday bo‘lib talading juda “zo‘r” bo‘lib.
Kambag‘allar senga bandi xo‘r bo‘lib,
O‘lmasak bu ishning oxirin ko‘rib
Biz ketamiz hozir bundan shaylanib,
O‘rtangan o‘tlarga jonimni solib.
Xizmat bir kun u rohatga aylanib,
Omon bo‘lsak elga qaytib kelamiz,
Shum boshingga qora kunlar solamiz!
Qilganingchaqila berding zolimlar!
Bir kun kelib biz ham o‘chin olarmiz.
Bizdan baland bo‘lib izza berasan,
Bizni haydab yurtni talab turasan
Agar boshimizga baxtli kun tug‘sa,
Sen bachchag‘ar bizdan yomon bo‘lasan,
Kim qayerda, sen tentirab o‘lasan!..

Endi jo‘naydi degan xabar bor. Shunda mardikorlar tengi-tushiga, qavmi-qarindoshiga, ko‘rgani kelgan bola-chaqalariga qarab bir-ikki og‘iz so‘z aytib turibdi:

Oh urganda ko‘zdan oqqan yosh endi,
Eson bo‘lsa nelar ko‘rar bosh endi.
Hech ko‘rmagan yurtga ketib boramiz,
Tengi-tushu qarindoshlar, xush endi.

O‘lmasak ketar-da boshimdan tuman,
Zolim dushman bizni eldan ayirgan.
Oq sut bergan jonim enam, mehribon,
Bolam, deb necha yil parvarish qilgan.

Bizlarni ko‘rmasa o‘ksinib qolgan,
O‘rtangan o‘tlarga jonini solgan,
Bizlarni kuzatib Samarqand kelgan,
Oq sut bergan mehribonlar, xush endi.

Bu jarohat jigar – bag‘rimni tuzlab,
Esingda tushganda bo‘taday bo‘zlab,
Borolmaysan bunda keyinimdan izlab,
To ko‘rguncha, mehribonlar, xush endi.

Biz ketamiz eldan-elga og'ishib,
O'ynab-o'sgan qarindoshdan adashib,
Nasib tortib qayda taqdirim tushib,
Qolding, mehribonlar, bizdan adashib.
Izlab kelgan jonajonlar, xush endi.
Bu zolimlar necha so'zni o'yladi,
O'ynab –o'sgan eldan judo ayladi,
Zo'rlik qilib bizni, badbaxt, qiynadi,
Og'aynilar, o'g'il-qizlar, xo'sh endi.

Qarindoshga rabochilar so'yladi,
G'ayrat qilib bari belin boyladi,
Birov bolam desa. Birov enam deb
Yuragimda qoldi dog'i alam, deb

Ketarmiz,yu qoldi-ku kulba xonam, deb
Bir nechalar o'g'il-qizim, bolam deb
Unday ishlar endi bizga zulm, deb
Bir necha oh tortar, qoldi elim, deb.
Kambag'al qashshoqni yig'ib olgandir,
Bu zolimlar dushmanligini qilgandir.
Uchqurlarni qanotidan qayirib,
Yugrik bo'lsa tuyog'idan toyirib.
Haydadi zolimlar yurtdan ayirib.
Oh tortganda jishar-bag'ri ezildi,
Har kim bo'lsa unda ko'ngli buzildi,
Ko'zdan yoshi munchoq-munchoq tizildi.
Jo'namoqqa harakatga kirishdi,
Qo'y-qo'ziday bir-biridan munglashib,
Qayta boshdan bir-biriman ko'rishib,
"Mehribonlar omon-eson kel, deydi,
Zolimlar zulmidan ozod bo'l, deydi,
Omon borib, yan omon kel, deydi,
Haydagan dushmandan o'ching ol, deydi,
Yig'lab qolgan qarindoshni ko'r, deydi,
O'lmagin hammaneg. Omon yur, deydi.
Qurisin ilohim podshoning ishi,
Kajga aylangan falakning gardishi".
Bunday kunda chuvillashib yig'lashar,
Zulm bilan yurtdan ayrilgan kishi.
Yig'lashadi eldan kelgan odamlar

Bir-biridan ayrilgisi kelmaydi.
Bir-birin quchoqlashib yig'laganiga –
Furmoqqa hech kimda toqat qolmaydi...

–Qayg'u –g'amlar keyin qolsin,
Zolimlar jazosin ko'rsin.
Bizga ham bir vaqti xushlik-
Ko'ngil ochilgan kun bo'lsin!
Necha so'z bir-biriga aytdi,
Ko'nglini ko'tarishib,
So'z bilan berdi quvvatni:
– Dushmon ko'kraging bosmasin!
Mehnatchilar g'amgin bo'lma,
Zolimning ko'ngli o'smasin.
O'z-o'zingdan ajrashib
Yonoshma zolim qoshiga!
Gaping bo'lsa gapirib yur,
Birga yurgan yo'ldoshingga.

Necha so'zni yo'lda aytib
Yetdi poyedning boshiga
Hech qaysisi qaramaydi,
Birga yurgan mingboshiga.
Zolim sipohilar –ayyor,
Borib ko'rdi poyezd tayyor.
–Qoldi katta bo'lgan yurting,
Tayyor ekan minsang oting,
Qaysi yurtga opketadi,
Qayerga nasib tortadi.

Bari poyezdning boshiga chiqdi. Mardikorlar bilan birga ketmoq bo'lib, u yerlarning qozi, mingboshisi oldidagi necha xizmatchisi boromqni ixtiyor qildi. Bular mardikorlarni qayta-qayta pullagan, ko'p dunyoni yoniga solgan. "U yoqdan ham quruq kelmasmiz. Podshomizni borib ko'rsak. Ham qancha yordam qilar. Bu yoqlarga kelmagan shu[1] yurtlarda bo'lgan qimmatbaho narsalardan olib kelsak, shunda ham ko'p foyda chiqar", – deydi. Har yuzboshi o'ziga tobe odamlarni poyezdga soldi. Bir eshelon poyezdni to'ldirdi. "Yoz o'tib, qish navbati yetib qoldi, bu yerlar

[1] Shu–o'sha

Shunday sovuq, u yurtlarning sovug'i baland bo'ladi deb eshitamiz, kim qanday". Bu so'zlarni aytib turgan vaqtda poyezd jo'nadi. Mardikorlar o'ksinib bir-biriga aytib borayotgan so'zi:

Bu poyezd jo'nadi. Ko'nglim buzildi,
Yurgan eldan tuz-nasiba uzildi.
Yana qaytib ko'rarmizmi biz elni.
Taqdiri qismat bizga shu bo'ldi.
Qadrdon birga yoronlar,
Bu poyezdga mehribonlar,
Elda qoldi jonajonlar,
Ajal yetib o'lib ketsak,
Qayda qolar jonajonlar?!
Musofir bo'lib aziz boshim,
Sizlar mening yo'ldoshim,
Katta —kichik siz sirdoshim,
Aqlim olgan qarindoshim.
Tog' askarin chalsin tuman,
Hammadan ayriliq yomon!
Bizga dushman bo'lgan kishi,
Bo'lmasin-da elda omon.
Ketdik biz og'ishib bundan,
Ko'nglimiz bo'lib parishon.
Agar yuz ming so'raganman
Bizdan topmas elda nishon.
Hozir vaqti xush bo'p qoldi,
Mamlakatda bizga dushman.
Hech kim etmas ohimizga,
O'rdi zolim payimizga,
Urushga haydab borar bizni,
Ketdik o'lar joyimizga.
Bundan bizni haydab borar,
Zolim podshoga duch qilar,
Urushning oldiga solar,
Xalqning og'zida shu gap bor,
Yo'q edi bizda ixtiyor,
Harchand qilib ko'rdik bizlar,
Zo'rlik qilgandir dushmanlar,
Elat elda yig'lab qoldi,
Katta —kichik ne jononlar.
Ishq o'tida yona-yona,
Qaba falak do'na-do'na,

O'ynab o'sgan tengi-tushdan
Endi bo'lganmiz begona.
Ustimizdan o'tgan oylar,
Har kim o'sgan joyin o'ylar,
Qolib bizdan mazgil joylar,
Kulday qilib bog'lab berdi,
Elatdagi puldor boylar.
"Qulday bo'lib sotilding", deb
Zolimning odami haydar.

Bu g'uvillab poyezd ketdi,
Biri xafa, biri kuldi.
Ko'pchilik-da, ko'p so'z aytdi:
—Bor ishongan vatan qolib.
Davr olib lochinday uyadan uchib,
Bir vaqti zamoning kelsa aylanib,
Ketadi zarbingdan dushmanlar qochib,
Ketdim, deb ko'nglingni cho'kirma, do'stlar,
Yuraber, albatta, bahringni ochib.
Qayta nasib bo'lsa, bizlar yurarmiz,
Tirik bo'lsak bir tepada turarmiz,
Hammamiz ham bir mamlakat odami,
Og'a-ini zulm bilan boramiz.
Bunday ishlar tushar mardning boshiga,
Sira borma zolimlarning qoshiga!

Baland-past gapiib, barisi ketdi,
Sirdaryodan o'tdi, Toshkentga yetdi.
Toshkent deganingiz bir katta shahar,
Bundan ham necha ming mardikor chiqar.
Bir-birini ko'rib ko'nglin xush etib,
Oda bo'lmas bu savdoga duch etib,
Poyezd ketdi endi Toshkentdan o'tib,
Olib borar ko'p elatni chuvlatib,
Burun-so'ngra yurt qidirib ko'rmagan,
Poyezdda boshlari ulanib ketib,
Ko'rib borayotir qozoq elini,
Tomosha aylagan tog'i, cho'lini,
Bir yerda to'xtasa, ko'p kun qoladi,
O'n besh kunda bazo'r samar boradi.
Quloq solinng mardikorlar so'ziga,

Sen ham qara deydi o'zi-o'ziga,
Katta tunukali qilgan imorat,
Qizarib ko'rindi bular ko'ziga.
"Mana, endi qaray bergin, qarindosh,
Endi bo'lsak bular bilan aralash.
Ajab elga kelib qoldik endi biz,
So'ylaganda bular bilmas tilimiz.
Qanday xalq deb bizni mazax qilarmi,
Tushunmasak bizga qiyin bo'larmi".
Bunda turmay endi jo'nab o'tadi,
Poyezd Qozon shahriga yetadi.
Poyezddan tushganlar mardikor bari,
G'ulg'ula kattadir Qozonning shahri.
Xotin ko'pdir, kam ekan erkaklari,
Necha kun mardikor bu yerda turdi,
Yana bir kun yig'ilib poyezdga mindi,
Poyezd yoqasida ko'rib boradi,
Yog'ochdan qilingandir qancha imorat,
Qayoqqa borarin hech kim bilmaydi,
So'ylamoqqa bunda toqat qolmaydi,
Hammasi bir odam bir-biriga do'st.

Ochiq yer yo'q, hamma yerni qor bosdi,
Sovuqdan barining aqli shoshdi,
Hech bilmaydi qanday yerga etishdi.
"Endi qattiq bo'lar ko'rgan kunim, deb,
Yana qaytib, qolgan elni ko'ray", deb,
Qayerlarga keldi, sira bilmaydi,
Qor bilan sovuqdan o'zga ko'rmaydi.
Har shaharda aylanishib ko'p yurdi,
Bir shahaga kirib bu poyezd turdi.
G'ijirlashib yotgan odamni ko'rdi,
Mardikorni bu poyezddan tushirdi.

Mingboshining ko'nglida bo'lak gapi bor: "Poshsho qayda turadi?" — deb so'raydi.

Tilmoch aytar: — Sen ham nodon musulmon,
Podsho deb o'zingni qilma sargardon,
Podshoni so'raysan, nima qilasan?
Podsho seni qachon esga oladi?!
Keti uzilmay eldan mardikor bordi,

Borganda har yoqqa bo'lib yubordi,
Bir nechalar qoldi Penza shahrida,
Bir necha bo'linib Maskov shahrida.
Bo'linib, har tog'u har shahar ketdi,
Bir nechasi yer ostida ishladi.
Keng mamlakatar, ko'rdi, Rusiya yurti,
Tayr bo'lar borgan kishi xizmati.
Qanchasi ayrilib uzoqqa ketdi,
Qon to'kilib yotgan yerlarga yetdi.
Endi o'ldik, – dedi fe'li ozadi,
Xizmati shu: borgan o'rni qazadi,
Bu yerda kuniga qancha o'ladi,
O'lgan g'uvlab chiqsa havoga,
"Yomon bo'ldi", – deydi qochar panaga.
Bir nechalar ishlar fabrik-zavodda.
Qiz-xotin aralash yurgan xizmatda.
Burun-so'ng ko'rmagan bunday ishlarni.
Joni yo'q odamlar hayon qoladi.
Qattiq kun kechib musofir yurtda,
Mardikorning kuni o'tar xizmatda.
Juda qalin edi qor yoqqan bosib,
Bir necha o'rmonda qarag'ay kesib.
Necha oy, necha yil urush bo'lgandir.
Har kunida qancha odam o'lgandir,
Oxirida odam kamchilik qilib,
Erkaklarni eldan yig'ib olgandir.
Yaramlining barin urushga olgan,
Rusiyada qari-qartang qolgandir.
Podsholar yig'ilib urushni qilgan.
O'yla, bizga shunday kulfat solgan.
Podsho tursa urush oda bo'lmaydi,
Mehnatkashni oda qilmay qo'ymaydi.
Bu ellarda, bilsang, shunday ish bo'lgan,
Bu yurtlar shundayin jabrni ko'rgan.

Mardikorning bir nechasi yo'l ochib, bir nechasi yer qazib okop tayyorlaydi, qanchasi o'rmonda yog'och kesadi. Kun sovuq, qor kuraydi.

Qor ketib, bu yerda yoz bo'ladi, deb ko'ngliga sira kelmaydi. Kigiz etik. Po'stini bori kun ko'rayotir, sag'al usti yuqarog'ini sovuq urayotir, qalin qorda qattiq ishlab terlasa, sovuqqa shunday

qotib yiqilayotir. Sovuq ozroq o'tgani tuzalib kelayotir, sovuq toz
o'tgani o'lib, bir nechasining oyoq-qo'li cho'loq bo'lib qolayotir
Shunday azobni borganlar ko'rayotir. Bu ishlar mardikorlarga jud
botgan, hammasi sarosima, sarson. Podshoning sipohilari boshid
haybat, siyosat qilib turibdi.

Qamchi, tayoq urib turar,
Rahmi kelmas ko'z yoshiga.
Qaramas qilgan ishiga,
Uradi ishchi boshiga,
Jon boricha rabochilar,
O'qtalar mehnat ishiga.
Drod deganda eshitmaydi,
O'z holiga hech qo'ymaydi,
O'lganga ishi bo'lmaydi.
Tag'i qiladi gunohkor,
Azob ko'rsatdi bachchag'ar,
Erta ketib, kechga kelar
Bo'l,ha! —deyishib xo'jayinlar
Nechovni sovuq yiqitdi.
Nechovning kelmas quvvati,
Mehnatkashning unday kunda,
Sira ham yo'q edi hurmati.
Necha mardikorni urar.
Intiladi jondan kechib,
Bir nechaning qolmas joni,
Taysaldlar tayoqdan qochib.
Podsholik zulmi shuldi(r),
Xizmatkor holi tang bo'ldi.
Qayda bo'lsa jabr ko'rdi.
Xizmatkordan qancha o'ldi,
Erta ketsa, oqshom keldi.
Qo'yganidan rabochilar:
—Ko'rolmaymiz, — deydi, — elni.
Zulm bilan zolim podsho,
So'ldirgandir qizil gulni.
Qani endi bizga bersa,
Yo'l ochilagn ochiq kunni.
Jabr botib gapiradi:
Zolimlarni yo'q qilguncha,
Biz ko'rsamiz o'sgan elni...
Mardikorlar ko'zin yoshlar,

Yig'ilishganlar ko'zin yoshlar,
Yig'ilishganda gap boshlar:
–Kunda bizlarni g'am bosib,
Nechovlarni yog'och bosib,
O'ligi to'qayda sasib.
Quloq sol so'ylagan tilga,
Oq podshoni o'ldirmayin
Biz chiqmaymiz ozod yo'lga.
Zolimlardan o'chni olib,
O'zimizday ishga solib,
Ularga ham azob berib,
Shunchayin bunda turib,
Undan keyin elga ketsak,
Kuchu g'ayrat ma'lum bo'lib,
Elga yaxshilikni eltsak.
Qani navbat bizga kelsa,
O'ysak dushmanning ko'zini,
O'zimizdan izillatib.
Dilim biryon, ko'zim giryon,
Bizlarni aylagan sarson.
Biz qilsak yer bilan yakson.
Mamlakat bo'lsa guliston,
Qani bo'lsa shunday zamon.
Dushmanlarga bermang omon!

Har yerda, har to'pda shunday gap bo'layotir, boshqa bir to'pga borsa, ko'p toriqib,[1] diqqatligi oshib, bir-biriga qarab, hol-ahvollarini so'rab, bu so'zlarni aytayotir:

Falakning qavlidan dod bilan bedod,
Dunyoda ko'p tortdik qayg'u ham kulfat,
Yoz demay, qish demay qilamiz mehnat.
Qilgan xizmatimiz bizlarga tuhmat.
Zulmga chidamay dod bilan bedod,
Buzilsin, yiqilsin u charxi noshod!
Bunda yurib bo'lsak biz g'amdan ozod,
Ko'nglimizga jilva qilib ko'rinar
Esimizga olsak u yurgan elat.
Bu mazgilda bir-birimizga suyanib,
So'ylashamiz katta-kichik jamoat.

[1] *Toriqib–qisilib*

Shu kundan ham bo‘lamizmi biz ozod?!
Shu g‘amdan qutulib, ketsak salomat,
Bo‘lsa bir kun yana bizlarga rohat.
Elim desa ohu fig‘on aylaydi,
Uyqusi kelmaydi. Oqshom o‘ylaydi,
Bola-chaqa deydi, mungli so‘ylaydi,
Kunda ishga chiqsa jonin qiynaydi.
G‘ubor kunda yer-osmonni bilmaydi.
Elim deb esiga olar har zamon,
Ketarmiz deb hech ko‘ngliga kelmaydi.
Bir-biriga qarab holin aytadi:
“Zolim poldsho sira javob bermaydi,
Taxt ustida tursa bu zolim podsho,
Bizlarni sira ham ozod qilmaydi,
Yurar edik Turkistonning elida,
Azod ko‘rdik bu zolimning qo‘lida.
Sarg‘aytadi bunda gulday yuzimiz,
To‘rt qilib yoyadi ikki ko‘zimiz.
Yetim qilib kelib o‘g‘il-qizimiz,
O‘ldirmay jo‘natmas endi o‘zimiz.
Kun botganday bu dunyodan o‘tarmiz,
Bo‘lmasa o‘lguncha qonlar yutarmiz.
Agar shunday bo‘lib kunni o‘tkazsak,
Qoq suyak bo‘p bunda yo‘q bo‘p ketarmiz.
Shu ahvolda bu dunyodan o‘tarmiz.
Qachongacha zahar –zaqqum yutarmiz!”

Shunda ilgaridan bekatlarda ko‘p turgan, ruslar bilan aralashib yurgan, emishak ham bo‘lgan, rusning tilini ham bilgan, vaqtda mardikorlarga yo‘lboshchi bo‘lib turgan boshchisi bularning ko‘nglini ko‘trib. Mardikorlarga ko‘p so‘zlarni aytib, yo‘lga solib yuribdi. “Men bu yerda, ruslar orasida ayol-erkak bilan gaplashib yuribman. Bulardan eshitaman, urush kuchayib ketgan, hamma xalq bezor bo‘lgan, ko‘p odam o‘lgan. O‘zlarining gapirishiga qaraganda, bularning ichida bolshevik partiya degan bor emish. Bolsheviklar podshoning qasdiga ishlab, qattiq harakat qilayotgan emish. Podshoni taxtidan tushiradi, podsholikni yo‘qotadi. Mehnatkashning zamoni bo‘ladi, degan gapi bor. Agar shunday zamon bo‘lib qolsa ajab emas, undan keyin omon-eson elga borib qolarmiz”, dedi. Bu gapga mardikorlarning ko‘ngli ko‘tarilibi, ko‘ngli to‘lib, eliga bormasa ham, borganday bo‘lib, “qani shundy

bo'lsa", -deb vaqti xush bo'lib qoldi. Bu gap bularga ham sevinya, ham quvonch bo'ldi. Bir nechalarining ko'nglida, erta bilan turib keta beradiganday bo'lib qoldi. Shunda bir necha yigitlar sherdil bo'lib bir so'z aytib turgan ekan:

Zolimning dodini bermay,
Boshiga kaltak bilan urmay,
Shu taxtidan judo qilmay,
Sira qaytmay Turkistonga!
Zolimga ko'rsatmay rohat,
Bolshevikdan bo'lsa quvvat,
Qilsak dushmanga qiyomat,
U kuni bo'larmiz ozod.
Zolimlarni yakson qilib,
O'g'il-qizni sarson qilib,
Shunday kunni bunda ko'rib,
Mehnatkashlar o'ynab-kulib,
Ketarmiz elga bosh bo'lib.
O'laman deb qaytib turma,
Podsho deb sen ra'ya qilma,
Ne ishlarni bizga solgan.
Unday kunda turish borma[1]?!
Qo'lga ilingan inolgin,
Bittang qolmay xarba qilgin,
Shuncha xalqning bari kuygan,
Shu xalqlarning biri bo'lgin.
Shunday kun boshlanib qolsa,
Kattasin o'rtaga olsa,
Taxt ostiga qon to'kilsa,
Podsho taxtidan yiqilsa,
Bizlarga maqsad kun bo'lar,
Ozodlik deb xabar kelar.
Eshiting bizga baxtli davlat,
Omon borib ko'rarmizda,
Yig'lab-siqtab qolgan elat.
Og'ir kunlar o'tib ketar,
Xizmatkorning ishi bitar,
Zolim oyog'idan yitar,
Mehnatkash maqsadga yetar.

---

[1] Borma-bormi.

MUHAMMADQUL JONMUROD O‘G‘LI PO‘LKAN

«Mardikor»

Ana endi voyenkomning mardikarga qarab aytajatgan so‘zi:

Urush kuni otlar yoli o‘rildi,
U yoqqa– bu yoqqa g‘ayrat qilib jurildi,
Kelgan mehmon quloq soling so‘zima
Manglayindan endi sho‘ring arildi. Ura-ura.
Ariq otlar chuqu yerda surundi,
Bu gaplarning taraddudi burundi.
Manglayingdan endi sho‘ring arildi,
Peterburgda ko‘p odamlar qirildi.

Peterburgni qip-qizil qon ayladi,
Soldat bitgan tanda jonni qiynadi.
Qon to‘kishib Nikolay odami bilan
Balli sarboz, Nikolayni boyladi. Ura-ura.

Olganda omonat tandagi jonlar,
Yig‘lashib o‘rtangan guldayin tanlar,
Nikolayni tilla taxtdan tushurdi,
Elingizga ketar bo‘lding mehmonlar. Ura-ura.
Nikolayni bizlar bandi qib oldik,
Eson-omon hammang ketding elingga. Ura-ura.

Peterburg, Xarkovda bo‘ldi alomat,
Nikolay poshshaga bo‘ldi qiyomat.
Sovsem hammangni ayladim ozod,
Hamma qayting uylaringga salomat.

Nikolay o‘lmasa baring yurarding,
Taraddudin qiling endi ketarning,
Jafo chekkan hammamiz bo‘ldik ozod. Ura-ura.

Necha jillar ilgaridin o‘qigan,
Qonun bilan dushmanini jo‘q qilgan,
Kecha-kunduz o‘qib yaxshi ilmni,
Har tarafga yaxshi jo‘lni tarqatgan.
Soldatlarga munday qil deb o‘rgatgan,

Ko‘ngilli soldatni juda yashatgan.
Borib kirib Petrograd shahriga,
Nikolayni taxtu baxtin ushatgan.
Boylab qo‘ydi Nikolayning baxtini,
Ilm bilan topib oldi vaqtini,
Vayron qildi Nikolayning taxtini.
Soldatlarga yaxshi jo‘llar ko‘rsatib,
—Ur-ha!-dedi Petrograd shahriga.
Xizmatchi, soldatning vaqtin xushladi,
Beshtira miltiq sopini ushladi,
Nikolayni sudrab olib taxtidan,
Gubernatorlarin chopib tashladi.
Soldat aytganini xo‘p yaxshi qilib,
Avval oldi Petrograd elini.
O‘qib tushuninglar bitilgan xatga,
Undan so‘g‘un xatni yozdi elatga.
Ot mindirib soldatlarni yeldirdi,
Beshtira miltiq egniga soldirdi,
Xo‘p olmos qilichni qo‘lga oldirdi.
Ko‘chada sulatdi dushman boshini,
Avval qonun tarqatuvdi har joyga,
Ilm-bilim bilan qilib qo‘ydi dushmanning ishini.
Shahar borgan ko‘radi ajoyibni.
Ot mingan soldatlar o‘qini otdi,
Petrograd elidan ko‘ngli tingan so‘ng.
Talato‘p qib qo‘ydi Xarkovday jurtni.
Dushmanning bilmaganin bildirdi:
Ko‘chalarda tinmay bedov eldirdi.
Jondan kechgan soldatlari qayrat qib,
Ajallini ko‘chalarda o‘ldirdi.
Boy bovalar zulm bilan jo‘natgan,
Nikolaydan qo‘rqib bizlar turuvdik,
Penza elga mardikor bo‘b boruvdik,
Olib qo‘ydi Petrograd elin deb,
Penza shahriga keldi xabari.
Yaxshi odam xizmatidan totindi.
Penza degan bejoy katta el ekan,
Penza elda bir kattasin o‘ldirib,
Aravaga ortdi gubernatorni.
Rahm aylamas Nikolayning holiga,
Tala-to‘plar qilib Rosiy eliga.

Nikolay taxtidan toygan so‘ngra,
Ur-ha qilib xush vaqt bo‘lib hammamiz,
Uyimizga endi qaytamiz deyishib.
Yoronlar, o‘yilsin dushmanning ko‘zi.

To‘ydik eshonning dastidan

Aytay eshonning aslidan
Qo‘rqmas xudoning qahridan.
Bul Marg‘ilonning shahridan
To‘ydik eshonning dastidan.

Kambag‘alga qilar xurush,
Har tarafga qilar yurish.
Ishginasi aldamchilik,
Uning kasbi shoyipurush.

Oz-oz ipakti oladi,
Firibi xarid bo‘ladi.
Kasir ipakti cho‘zg‘ilab,
To‘rt-beshta ro‘mol qiladi.

O‘zi-o‘zbek elga kelib,
Narxini uch so‘mdan qilib,
O‘zbek ketar hech yalchimay,
To‘ydik eshonning dastidan.

Marg‘ilondan qochib keldi,
U yoqda ish tamom bo‘ldi.
Kattaqo‘rg‘on qishlog‘idan
Kelib katta hovli qildi.

Xatirchidan, Payshambidan,
Oqtov degan tog‘ joylardan,
Qurg‘ur Qarshi shoyisidan
Olib borib chokar qildi.

O‘zbeklarnin tuyalarin,
Eshak, echki, biyalarin,

Bosib ortgan bedalarin
Bozor solmay sotib oldi.

Mulla Samad bozorchisi
Bari hiyla qilgan ishi.
Shunday qil deb fatvo berdi,
Ta'rif etay eshonimni
Eshon emas eshshagimni
Inongan pir «yo'ldoshim»ni
Menga ham ko'p jabr qildi.

Eshit o'zbek shoir so'zin:
Eshonlarning yuzi qursin!
Qoching undan, ochdan o'lsin!
Ko'hna zamon o'tib ketdi.

ISLOM SHOIR NAZAR O'G'LI (1874-1953)

Qariyalarga

(1941-yil 24-oktabrda Toshkentda bo'lib o'tgan keksalar yig'ilishi munosabati bilan)

Qarib yetmish, sakson yoshga kirgansiz,
Bu dunyoda ko'p savdoni ko'rgansiz,
To'g'ri bo'lib, uzoq yashab yurgansiz,
Hurmat, olqish sizga, yoshi ulug'lar.

Sizlarsiz, yer yigitlarning otasi,
Eshitingiz elning kichik-kattasi,
Maslahatli ishning bo'lmas xatosi,
Hurmat, olqish sizga, yoshi ulug'lar.

Yovlar kirdi, qanday chidab turamiz,
Kecha demay, kunduz demay qiramiz,
Birday qurol olib, yovni suramiz,
Yo'l ko'rsating yana, yoshi ulug'lar.

Qariyalar bilar ishning ko‘zini,
Gavhar deb bilamiz ular so‘zini,
Kesaylik dushmanning gardon-bo‘g‘zini,
G‘ayrat qiling, siz ham, yoshi ulug‘lar.

Qarilarni fashist ko‘zga ilmaydi,
Qari bilganini pari bilmaydi,
Qari ish ko‘rsatsa dushman qolmaydi,
G‘ayrat qiling, siz ham, yoshi ulug‘lar.

Qahramon to‘pchilarga

Yov quzg‘unlar, biling, uchib yuripti,
Vatan bo‘stoniga hujum qilipti,
To‘pchilar ularni urib qiripti,
Omon bo‘lsin, bizning to‘pchi botirlar!

Ko‘kdan kelganini urib qulatar,
Erdan kelganini mardlar sulaytar,
Fashistning urug‘in qo‘ymay yo‘qotar,
Omon bo‘lsin, bizning to‘pchi botirlar!

Har otganda baland tog‘ni tebratar,
Dushman istehkomin payhonlab o‘tar,
Fashistlarni qoldirmayin qiyratar,
Omon bo‘lsin, bizning to‘pchi botirlar!

Tik qilib otganda yulduzga etar,
Dushmanning boshiga keltirar xatar,
Quturgan yovlarning urug‘i bitar,
Omon bo‘lsin, bizning to‘pchi botirlar!

To‘pchining o‘qlari olmos, po‘latdan,
To‘pchilar, nasabi ozod elatdan,
O‘rgilay jangdagi qahramon marddan,
Omon bo‘lsin, bizning to‘pchi botirlar!

Boboquljon
(Islom shoir o'z o'g'lini armiyaga kuzatayotgandagi nasihati)

Er yigitning burchidir askar bo'lmoq,
O'z Vatanin sidqidil-la qo'rimoq,
Berilgandir qo'lingga olmos yaroq,
Shudir sendan el talabi bil, biroq
Chapayevday ish ko'rsatgin, Boboquljon.

Xalq farzandi el kutganday botir bo'l,
Yovdan qo'rqmas har bir ishga qodir bo'l,
Shchors kabi jangda yer bo'l, bahodir bo'l,
Zo'r kurashda chekinmasdan hozir bo'l,
Chapayevday ish ko'rsatgin, Boboquljon.

Kichiklikdan asrab senday qo'zimni,
Quloqqa ol har bir aytgan so'zimni,
Elu yurtga yorug' qilgin yuzimni,
Hech ayamay qirgin fashist quzg'unni,
Chapayevday ish ko'rsatgin, Boboquljon.

Ko'zimning ravshani, tanda quvvatim,
Nasihatim senga shuldir farzandim,
Bilgin, bolam, ozod Vatan, davlatim,
Qariganda yigitday sher savlatim,
Chapayevday ish ko'rsatgin, Boboquljon.

Oldinga bos, hech orqaga qaytmagin,
Dushman agar tog' bo'lsa ham toptagin,
Yo'lbars kabi yov ustiga hatlagin,
Murdasini ust-ustiga taxlagin,
Chapayevday ish ko'rsatgin, Boboquljon.

Sodiq bo'lgin, bolam, elu yurtingga,
Botir bo'lsang, sira qaytma ketingga,
Onang ham rozidir emgan sutingga,
Yovni qiyrat, omon kelgin yurtingga,
Chapayevday ish ko'rsatgin, Boboquljon.

Tinchlik bo‘lar barqaror

Tinchliksevar xalqlarga,
Bizning Vatan bayroqdor.
Yer yuzida mustahkam —
Tinchlik bo‘lar barqaror.

Qaynar hayot daryosi,
Yashar tinchlik dunyosi.
Kuchdir dushman ig‘vosi.
Tinchlik bo‘lar barqaror.

Fashistlarga yo‘l bo‘lmas.
Xalqlar unga qul bo‘lmas.
Tinchlik oftobi so‘nmas,
Tinchlik bo‘lar barqaror.

Baxtiyor avlodlar
(Dostondan parcha)

Ey baxtiyor avlodlarim,
Chapayevdek sherzodlarim,
Sizlar mening qanotlarim,
Dong tarating, o‘g‘il-qizlar!

Bizga doim zafar yordir,
Sizda mardlik, do‘stlik bordir,
Chunki Vatan baxtiyordir,
Siz baxtlisiz, o‘g‘il-qizlar.

Partiyadir bizga rahbar,
Xalq qozonar doim zafar,
Nur qo‘ynida baxting kular,
Unutmangiz, o‘g‘il-qizlar.

Mahkam bog‘lang mehnatga bel,
Mehnat bilan yashaydi el,
Yurtimizga olam qoyil,
G‘ayrat qiling, o‘g‘il-qizlar.

Ilm bilan ko‘pni biling,

Tabiatni taslim qiling,
Ilm bilan o'sing — uning,
Ilm oling, avlodlarim.

Ilm yoritdi yo'limizni,
Baland qildi qo'limizni.
Obod qildik elimizni,
Biling, baxtli avlodlarim.

Bizda har kim erkin o'qir,
Ilm bilan ko'zlarda nur.
O'qimagan misoli ko'r,
Unitmangiz, o'g'il-qizlar.

Texnikamiz o'smoqda tez,
Ortda qolmang, ey o'g'il-qiz,
Ilm bilan yorug'dir yuz,
Biling, baxtli avlodlarim.

O'qib bo'ling xalq donosi,
Bizda o'qir xalq bolasi,
Bo'ston bo'ldi yurt dalasi, -
Ilm bilan o'g'il-qizlar.

Biroz so'zlay o'tmishimdan,
Ya'ni qora kechmishimdan,
Ko'rgan, bilgan o'z ishimdan!
Eshitingiz, farzandlarim.

Men so'zlasam ul zamonni,
Zolim amin, bek va xonni,
O'rtar qalbni, o'rtar jonni,
Siz eshiting, farzandlarim.

Otam bizni o'ylar ekan,
Yo'qligini so'zlar ekan,
Ko'cha- kuyda bo'zlar ekan,
Boqolmasdan o'g'il-qizin.

O'n uchimda bo'ldim yetim,

Qoldi tanda suyak, etim,
Poda haydab, o‘tdi yoshlik,
Cho‘pon edim, avlodlarim.

Umrim o‘tdi maktab ko‘rmay,
Alifbeni qo‘lga olmay,
Sizday erkin men o‘qimay,
Qoldim, esiz, farzandlarim.

Boylardan ko‘p edim kaltak,
Turar joyim misli katak,
Mehribonlik ko‘rmay garttak[1],
Yoshlik o‘tdi, o‘g‘lonlarim.

Qo‘y haydardim dala-dashtga,
Qornim to‘ymay nonu oshga,
Necha alam etdi boshga,
O‘tmishimda, o‘g‘lonlarim.

Yer ham qattiq, yiroq osmon,
Mehnatkash xalq xonavayron,
Shunday edi zolim zamon,
Buni biling, farzandlarim.

Xon, amirlar toji- taxti,
El bag‘riga o‘tlar yoqdi,
Daryo bo‘lib ko‘z yosh oqdi,
U davrda, farzandlarim.

Ko‘kka yetdi dod-faryod,
Qo‘shiq aytdim bo‘lib noshod,
Qo‘shiqlarim qoqdi qanot,
Mening aziz o‘g‘lonlarim.

Ustozim edi Ernazar,
Boylar bizdan qildi hazar,
Mamlakat xuddi bir mozor –
Edi u payt, farzandlarim.

[1] Shevada – ozgina degani.

Amin, beklar surdi davron,
So‘rdi eldan zulukdek qon,
Mehnatkashga yurt bir zindon –
Edi u payt, farzandlarim.

Beayblarni gunohkorga
Chiqardilar, osib dorga,
Olam to‘ldi ohu zorga,
U zamonda, farzandlarim.
Amaldorlar xushomadgo‘y,
Kattasiga so‘yardi qo‘y,
Xalq mulkiga qilishar to‘y,
Elni talab, farzandlarim.

Qo‘shiq aytdim men nolavor,
Zolimlardan ko‘rib ozor.
Dunyo ko‘zga ko‘rindi tor,
U payt bilsang, farzandlarim.

Men kuyladim xalq dardini,
Men kuyladim xalq mardini,
Xalq shoirin yo‘q qadrini
U paytda, farzandlarim.

Oqdi armonda Zarafshon,
Sohillarni qildim makon,
Yoshlik, esiz, shunday yomon
O‘tdi-ketdi, farzandlarim.

Qiz-juvonlar boyga cho‘ri,
Baxtsiz edi qurib sho‘ri,
Yurtda hokim o‘g‘ri, bo‘ri,
Bilsang u payt, farzandlarim.

Orzu qilib yaxshi zamon –
Obod o‘lka bog‘u bo‘ston
Xalq yaratgan qo‘shiq, doston,
Bilsang, mening farzandlarim.

Shunday obod Chambil[1] elin,
Eshitib xalq xushlar dilin,
Obod qilsang deb mazgilin,
Orzu qilgan, farzandlarim.

Men Chambildek yurt axtardim,
Kezib har yonga bordim.
Topolmadim, charchab hordim,
Bilsang, mening farzandlarim.
U vaqtda xalq bo'b muhtoj,
Ya'ni yashar och-yalang'och,
To'q hayotga hech bir iloj
Topolmadik, o'g'il-qizlar.

Shunday o'tdi o'tmish davr,
Tugab oxir toqat-sabr.
Qo'zg'olardi el birma-bir,
U zamonda, farzandlarim.

O'tmish qursin, qissam uzun,
Tugamaydi aytsam kun-tun,
Alam tortar bor vujudim,
Esga olsam, farzandlarim.

ABDULLA SHOIR NURALI O'G'LI (1874-1957)

Salom sizga, yangi yerlar ochganlar

"Biz boramiz" degan o'g'il-qizlarim,
Salom sizga, yangi yerlar ochganlar!
Keng yag'rinli botir, anor yuzlarim,
Salom sizga, yangi yerlar ochganlar!

"Ol! " deganda oltoychilik yo'l olgan,
Traktorlar minib, cho'lga ot solgan,
Ming-ming gektarlarning egasi bo'lgan,
Salom sizga, yangi yerlar ochganlar!

[1] Afsonaviy joy nomi.

"Ha" deganda tog'larni ham yiqquday,
Osmonga ham narvon qo'yib chiqquday,
Panjangizga xarsang toshlar siqquday.
Salom sizga, yangi yerlar ochganlar!

Chertsang chuldiraydi do'mbiram tori.
Ko'p joylarda ekilibdi jo'xori,
Jo'xori chorvamiz uchun ko'p dori,
Salom sizga, yangi yerlar ochganlar!

Biyobonda ko'shki-saroylar solgan,
Sahrolari qishloqlarday bo'b qolgan.
Ba'zi joylar shahar tusini olgan,
Salom sizga, yangi yerlar ochganlar!

Kuchingiz bor tog'ni toqqa otguday,
Daryo suvin kosa qib uzatguday,
Har ishingiz daryo orzu yetguday,
Ta'rifingiz doston qilib bitguday,
Salom sizga, yangi yerlar ochganlar!

Shundayin zo'rni maqta

Ko'rib texnikaning shunday xizmatin,
Hurmat minan tilga olamiz otin.
Paxtazorda kemaday bo'b suzadi,
Paxta tolasin chanoqdan uzadi;

Qo'li yo'q—teradi, ko'zi yo'q—ko'rar,
Qulog'i yo'q, "to'xta" deganda turar.
Ikki qo'llab jilovin ushlab burar,
Shuncha kuchni bir yigitcha boshqarar,
Turmushlagan paxtasi bor kapaday,
Bo'rvoylari paxta qanor qopiday.
Keng orqali yag'rinlari supaday,
O'zining ham turishi bor tepaday,
Ishlaganda na ertasi — kechi bor,
Unga teng kelolmas G'irot, Boychibor.
Shuni derlar ekan terim polvoni.
Bir botmon bor har g'ovzasi, olgani.
Horishni bilmaydi, tinmasdan yo'rtar,

Egatdan paxtani damiga tortar.
Filning xartumidan katta xartumi,
O'n filcha kelar-da, o'zin tortimi.
Yerga larza solib aylangan chog'i,
Bir qarish bo'b botar polvon oyog'i.
Shundayin zo'r kelib termoqda-paxta,
Shoir bo'lsang, shundayin zo'rni maqta.

Cho'pon qo'shig'i

Qo'yu-qo'zim, keng yaylovlar o'tlog'ing,
Kundan-kunga ortsin oltin tuyog'ing,
Cho'llaganda bordir shakar bulog'ing,
Qurre...qurre... kolxozimning qo'ylari!

Ko'payaver, kolxoz yana boy bo'lsin,
Ma'rashingga barcha qiru soy to'lsin.
El rahmati yuragimga joy bo'lsin,
Qurre...qurre... kolxozimning qo'ylari!

Sutlaringdan qizlar qilar qaymoq, yog',
Bir shahlo ko'z suluv qildi bizni dog',
Qiyo boqsa yigit ko'ngli bo'lar chog',
Qurre...qurre... kolxozimning qo'ylari!

Mukofotga olgan ancha qo'yim bor,
Mart, aprelda qo'zilatish to'yim bor,
Mehmon qilay ko'pni degan o'yim bor,
Qurre...qurre...kolxozimning qo'ylari!

Qorako'ling jahon-olamga mashhur,
Uni odam qishda kiysa yarashur,
Oltin, kumush tering bilan talashur,
Qurre...qurre...kolxozimning qo'ylari!

El "balli!" der cho'ponlar qarashiga,
Ne go'zallar telpak qilib boshiga,
Tering kiyar qiyo qo'yib qoshiga
Qurre...qurre...kolxozimning qo'ylari!

Otlar kishnab kelar ekan toy bilan,

Suvlar oqib kelar ekan soy bilan,
Yorim bilan yurganimni ko‘rganlar
Aytishadi “Hulkar yurar oy bilan”.
Qurre...qurre... kolxozimning qo‘ylari!

Kunlarim
(Doston)

Yozib olib, nashrga tayyorlovchi:
Muzayyana Alaviya

Qaynab chiqishlari kumush qo‘ng‘iroq,
Kuyimga bir umr solgandir quloq.
Tug‘ilgan ham o‘sgan yeri shoirning
Suvlari shakarday shu Qaynarbuloq,
Ko‘zyoshi buloqday oqqan kunlarim.

Otadan qoldim man yetti yoshimda,
Ming turli jafolar sho‘rlik boshimda.
Yorboy degan meni olib saqladi
Onam sho‘r kelolmas sira qoshimga.
Onamni sog‘inib yurgan kunlarim.

Yalang oyoq qirlar kechib boqdim mol,
Kulfat bilan o‘tdi bolalik uvol.
Boy xotinin bergan bitta kulchasi
Yetmas edi, qurib qolardi majol
Bir bor to‘yib non emagan kunlarim.

Boyning beshikdagi Shodmon qizini,
Tun uxlamay tebratardim nozini.
Agar shunda qattiqroq uxlab qolsam,
Eshitardim boyvuchchaning so‘zini.
Sahar chog‘i uyqu eltgan kunlarim.

Otamni so‘rardim, axtarar edim,
Topsam ko‘ylagini o‘pib hidlardim,
O‘limning ma’nosin sira bilmasdan
O‘ksinib hammaga termular edim.
Ikki ko‘zim yoshga to‘lgan kunlarim.

Yomg'ir hech yog'masa yerlar bo'lar cho'l,
Ko'z yoshimga paxol yostiq bo'lar ho'l ,
Yo'qchilik, yetimlik boshni gangitdi,
Qayg'uliga tumanlidir yurar yo'l.
Yo'l topmasdan ko'p adashgan kunlarim.
Necha yil mol boqqan otam podachi,
G'am bilan yoshlikdan oqardi sochi,
Kambag'allik ezib yaxshi kun ko'rmay
Yo'qchilik yiqitib ketgandi kuchi.
So'nggi marta yuzin ko'rgan kunlarim.

Surmaga topmadik bosgan izini,
Yana eshitishga zordik so'zini.
"Otajon!" deb tizzasiga bosh qo'yib
"To'yib ko'rsak!" derdik yana yuzini.
Ichimga o't tushib kuygan kunlarim.

Besh bolaning eng kichigi men edim,
Otam sira kelarmikan der edim.
Ovqat vaqti otajonim yo'q uchun
Yovg'on oshni ko'z yosh bilan yer edim.
Achchiq yoshim yuzni yuvgan kunlarim.

Akalarim quyi solib boshini,
Yig'ib kelar podachilik oshini.
Qolgan-qutgan nonni o'rtaga qo'yib
Opalarim tiyalmaydi yoshini.
Ko'zda yoshim mildiragan kunlarim.

Toshlarda qabarib ketgan oyog'im,
Qaytarmasam qochar echki, ulog'im.
Sal ishim yoqmasa zolim xo'jayin
Qo'lim burab, tortar edi qulog'im.
Jonu tanim teng og'rigan kunlarim.

Tog'dagi cho'ponlar chalar do'mbira,
Kulfat toshi boshlarin qilmish yara,
Payt poylab borardim ular yoniga
Bilar-bilmas do'mbira chala-chala,
Qo'rqa-pisa uyga kelgan kunlarim.

Qo'y — echkini boqib yurib tog'larda,
Kuy eshitib telbalangan chog'larda,
Uyga kelib, eshitgan qo'shiqlarni
Aytardim, molxona, avloqlarda,
G'am bilan qo'shiqlar aytgan kunlarim.
Ustimdan uchadi turli-tuman qush,
Do'mbirani o'ylab, ko'rar edim tush.
Yorboy sezib qolib meni urishdi:
"Moldan kelib uyda qilmaysan yumush".
Do'mbira deb gap eshitgan kunlarim.

Shodmonoy qiz beshigida kulardi,
Aylantirib beshikdan non berardi.
Ko'proq non berdi deb quvonib Shunda
Sakkiz yoshlik go'dak nima bilardi.
Shodmonoyning dardin olgan kunlarim.

Otamning otidir biling Nurali,
Katta akam shunga o'yqash Sherali,
Kichkina akamning otidir Po'lat,
Mashaqqatdan boshqa ko'rmagan hali.
Rohat nima hech bilmagan kunlarim.

Boy xotin berar edi sarqit osh,
Osh ustida ish buyurar boshma-bosh,
"Ivirlamay tez-tez yegin zahringga" —
Har tomondan totilardi ta'na, tosh.
Sarqit oshni yig'lab egan kunlarim.

Yorboyda yo'q edi ozgina insof,
Xotinining qahri edi behisob.
Uyga kelsam jag'i tinmay qarg'aydi,
Suv bilan o'tini ko'p qattiq azob—
Yuqoriga suv ko'targan kunlarim.

Shodmonoyga kasal tegdi bir kecha,
Meni aylantirdi qizdan bir necha.
Sadaqasi bo'lgin shodmonni derdi,
Shum oyoq sen o'lgin qizim o'lguncha.
Bir yo'l o'lmay, ming yo'l o'lgan kunlarim.

Kasalni qushnochlar kelib boqdilar,
Qora tovuqlarni so'yib qoqdilar.
Alas-alas uchun olov yoqdilar,
Beshigina ilon munchoq taqdilar.
Qoqqan kiyimini kiygan kunlarim.
Qizamiqda o'lib qoldi Shodmonoy,
Shum oyoq der edi boyvuchcha tinmay,
Endi javob berdi xo'jayin Yorboy,
Xizmatim haqiga bergandi bug'doy.
Begunoh gunohkor bo'lgan kunlarim.

Akalarim boshlarimdan silardi,
Goh erkalab, goh o'ynatib kulardi.
Oshimiz ham, nonimiz ham shu bug'doy
Bizdan o'tganini kimlar bilardi?
Onamning oldida yurgan kunlarim.

Chiroqsiz o'tadi bizning kechamiz,
Choy qayerda, buloq suvin ichamiz.
U zamonda kambag'al ko'p, cho'pon ko'p,
Bir emasmiz, yuz emas, bir nechamiz.
Onam bilan totli ekan kunlarim.

Qish, qirovli kunlar, yupun ustimiz,
Suyakka xaltadir etsiz po'stimiz.
Hafta, oylar go'sht ko'rmaydi qozon ham,
Na qatiq bor, na yog'imiz, sutimiz.
Kamlikning kamolin kutgan kunlarim.

Ermatboyga yana yurdim yugurdak,
Sahardan kechgacha ishlab o'lgudak.
Bolasizlik bag'rin yondirgan edi,
Farzand ko'rsam derdi ermak bo'lg'udak.
Ermaksizga ermak bo'lgan kunlarim.

Xotini shafqatli, eri darg'azab,
Achchig'lansa urar edi besabab.
Baqirib, chaqirib eri ketganda,
Jizzalik non berib, go'dakni aldab,
Yaxshi so'zga tez ovungan kunlarim.

Xotini yosh to‘kar edi tinmayin,
O‘tar bo‘ldim, derdi, farzand ko‘rmayin.
Ketay desam ketolmayman zolimdan,
Ermatdan qutilish qiyin, o‘lmayin.
Bolang bo‘lay deb ovutgan kunlarim.
Ustim hali ko‘rmagan butun chopon,
Belimda tugunli bir eski arqon.
Qo‘y boqdim cho‘llarda o‘n besh yoshgacha
Oyog‘im ostida pishillab ilon.
O‘tganda o‘lguday qo‘rqqan kunlarim.

Opamning uyida uch yil yurdim man,
Bu uch yil ichida nalar ko‘rdim man.
Eznam edi o‘zi kambag‘al dehqon,
Onam o‘lib toza yetim qoldim man.
Sho‘r boshimga tog‘ yiqilgan kunlarim.

Ichim yonar edi o‘tlar tutashib,
Mening g‘amim ketdi tog‘lardan oshib.
Onam esga tushib ketgani sari,
Ketar edim yurar yo‘ldan adashib.
Biy tekkanday zor ingragan kunlarim.

Orzu qildim onam uchun bir ko‘ylak,
Qo‘lim kalta ololmadim bo‘z alak.
Munglig‘ onam huzurimiz ko‘rmadi,
Ko‘zimga ko‘rinmay onamdan bo‘lak,
Tuprog‘iga boshim qo‘ygan kunlarim.

Dunyoda qarindosh ona bo‘larmi,
Onaning mehriga bola qonarmi?
Yetim boshi yetti toshga tekkanda
Ko‘z yoshlari tog‘u toshni o‘yarmi?
G‘amning girdobiga tushgan kunlarim.

Quvontirib bir ko‘ylak kiydirolmay,
Og‘ziga yoqqanni bir yedirolmay,
Qo‘lim kalta, ilojim yo‘q naylayin,
Dardimni ichimga hech sig‘dirolmay,
Ohim o‘ti ko‘kka etgan kunlarim.

Boshimga tushardi zulm qamchisi
G'am o'tin o'chirmas ko'zning tomchisi.
Peshonamiz sho'rli, taqdir ekan deb,
Qo'lni bog'lar nodonlik arg'amchisi.
Peshona sho'ridan kuygan kunlarim.
Qaylarni egallab yotar boylari,
Hisobsiz qo'ylari, yilqi, toylari.
Kambag'alning mol boqishga haddi yo'q,
Egallangan elning buloq, soylari.
Mol boqishga joy topmagan kunlarim.

Dunyoning g'ussasi, g'amidan bezdim,
O'n sakkiz yoshimdan yurib el kezdim.
Rajab shoir ustozimdan o'rganib,
Qo'shiq aytishlikka ko'plardan o'zdim.
El kezib do'mbira chalgan kunlarim.

Dunyoda ko'p ekan menday kuyganlar,
Jafo chekib aziz jondan to'yganlar.
Taqdirga tan berib ketgan undan ko'p,
Nodonlik qa'rida qolib o'lganlar.
Qo'shiq aytib dil ovutgan kunlarim.

Qayga borsam yotar har turli kasal,
Qabrga kiradi ko'plar bemahal.
Nodon tabib dori-darmon beradi,
O'lib qolsa deydi, yetgandir ajal.
Dardlariga darmon bo'lgan kunlarim.

Echki berib eshondan olar tumor,
Nashavandning nash'asi qilar xumor.
O'ltiradi rangi-ro'yi sarg'ayib,
Ulardan rangliroq yil yotgan bemor.
Sarg'ayganning sirin bilgan kunlarim.

Xat bilmasdi ko'p o'qigan mullasi,
Yurtga sig'mas mullasining hiylasi.
Is chiqargan joydan sira qolmaydi,
Suv to'ldirgan kadidayin kallasi.
Aldangan nodonga kulgan kunlarim.

Ko'rganlarim aytay sizlarga bir-bir,
Bu narsaga bo'ldi bir kam ellik yil.
Kelar edim otimda horib-tolib,
Tog'lar orasida men kechga qolib.
Qoplatun qishloqqa tushgandi yo'lim,
Tevarak qorong'u, bilmay sog'-so'lim.
Go'ristonday jimjit edi hammayoq,
Tog'ning etagiga joylashgan qishloq.
Faqat bir kulbadan eshitdim qo'shiq,
Bir qo'shiq g'am bilan hasratga to'liq.
Yorg'ichoqni aylantirib bir xotin,
O'chog'ida tezak, chiqadi tutun.
Sovuqda qotgandi ikki oyog'im,
Otimni to'xtatib soldik qulog'im.
Shoqollardan xotin qiladi nolish:
"Kulfat ko'rpam bo'ldi, qayg'u-g'am bolish.
Yorim qo'y boshida yotadi mudom,
Kunduzi tinim yo'q, kechasi orom,
Uchta tovuq, bir xo'rozim bor edi,
Shoqollar o'g'irlab ayladi tamom.
Qo'y boshida itlar quvar bo'rini,
Kim yuvadi peshonamiz sho'rini?
Qishin, yozin tinmayin ishlaganlar
Qazisin-da boy boboning go'rini?
Kelin bo'lib tushdim o'n besh yoshimda,
Mening yorim ko'p turolmay qoshimda,
Yoshlik davri o'ynolmadik, kulmadik
Suygan yorim yotar qo'yning boshida.
Qish bo'lganda tunlar bo'ladi ayoz
Qo'lida tasbihi o'qiydi namoz.
Boy boboning og'zi qursin, ko'p yomon
Xizmatkorga tinim bermas qishin —yoz.
Jonimdan o'tadi tinmay so'kishi,
Jahli yomon chidamaydi hech kishi.
Qariganda achib —sasib qaridi,
O'lsam molim qoladi deb qo'rqishi.
Toqatim yo'q, hech ko'rmasam betini!
Zog'lar esin zolimlarning etini!
Qo'y, echkisin, sigirini sog'aman,
Netay, borib icholmayman sutini.
Shoqol olib ketdi tovuq, xo'rozim,

Men sho'rliga endi yig'lamoq lozim,
Ortdirganim edi shu uchta tovuq,
Essiz mehnatlarim, qishi bilan yozim.
Kambag'alga boydan o'tadi alam,
Ochlikdan, sovuqdan boyga nima kam?!
Qo'yni so'yib sho'rvasini ichadi,
Bir qirilsak zolimlarga nima kam?!
Uch xotini o'qalaydi oyog'in,
Yalinchoqlar soladi tugma bog'in.
Janjal chiqsa uch xotin orasida
Boshlariga solar olcha tayog'in.
Boyni qarang boyga qarab boqadi;
Ilon bo'lib, chiyon bo'lib chaqadi.
Jondan to'yib haqimizni so'rasak
O'g'risan deb yomon otga taqadi".
Qo'shiq tindi sirqirradi oyog'im,
Uydan chiqqan yig'idadir qulog'im
Dard eshitib dardga to'lgan kunlarim.

Barchaning boshida xilma-xil qayg'u,
Qismatdan noliydi baxti yo'q sevgi.
Ne go'zallar fig'on chekib yig'laydi,
So'lim kechalarda qochadi uyqu.
Sevgi o'chog'ida yongan kunlarim.

Ikki oshiq bir-biriga ko'p mushtoq,
Mushtoqlarga turmush qo'yardi tuzoq.
Yosh yigitni, yuzi gulday jononni
Hijron g'ami qilar sochini oppoq,
Oshiqlikning jabrin totgan kunlarim.

Amirning farmoni-zulm qilichi,
Oyoqlarda kishan, qo'lda arg'amchi.
Zulmning xilma-xil yuki bosgan el
Qomati bukilib oqardi sochi.
Zolimlarning zulmi qursin, xilma-xil,
Qiynoq azob ko'payardi yilma-yil.
Qiynoqlarda ko'p ezilgan kunlarim.

UMIR SHOIR SAFAR O'G'LI
(1894-1961)

Tilar

Baland tog'lar to'nkarilib,
Qor ustiga qor deb tilar.
Tiralgan barno bo'y qizlar
Bir munosib yor deb tilar.
Adolati yo'q podsholar
Xazinasiga zar deb tilar.
Yakka bo'b uchgan turnalar
Qo'shilmoqqa xil deb tilar.
Yigirma beshdagi kelinlar
O'ng tizzaga ul[1] deb tilar.
Sahar sayragan bulbullar
Bir qo'nmoqqa gul deb tilar.
Osmonda uchgan o'rdaklar
Kecha-kunduz ko'l deb tilar.
Adolatga mingan podsho
Yaxshi zamon, el deb tilar.
Dumidan ayrilgan bedov otlar
Abrashin bir yol deb tilar.
G'ang'illab uchgan zombirlar
Bol ustiga bol deb tilar.
Ellikdan oshgan kampirlar
Oltmish yoshli chol deb tilar.
G'irqillab uchgan so'nalar
Bir suzmoqqa ko'l deb tilar.
Ariqda yurgan miroblar
Doim-doim sel deb tilar.
Cho'lda yurgan chorva mollar
Ismaloqli cho'l deb tilar...
Qo'y boqqan chorva cho'ponlar
Egiz-egiz to'l deb tilar...
Mehnatsevar paxtakorlar
Planini to'l deb tilar...

---

[1] Ul-o'g'il.

Qora zulfing...

Qora zulfing tolim-tolim,
Baxmal kamzuling nozalim.[1]
Soching bilan suhbat qursam,
Armon yo'q edi go'zalim.

Oshiq bo'ldim jamolingga,
Boshingdagi ro'molingga.
Biz ko'rganda hali yoshding
Xub yetibsan kamolingga.

Eshik oldi zardoli,
Mevang bormi olgali?
O'zing ishorat qilmasang,
Haddim bormi borgali!

To'rtliklar

Qosh bilan ko'zing biyona,
Xollaring bor dona-dona.
Rang berdingmi,[2] qizgina,
Ishqingda qilding devona.

* * *

Gumburla tog'ning darasi,
Olis bo'ldi orasi.
Bu ko'ngildan ketmaydi,
Oshiqlikning yarasi.

* * *

Oy tug'adi qiroqdan,
Suv tiniydi buloqdan.
Aytib ketgan gaplaring
Hech ketmaydi quloqdan.

---

[1] Nozalin-nozanin.
[2] Pardoz qildingmi demoqchi.

* * *

Yorim jo'naydi og'inib,
Qizil gullardan tog'inib.[1]
Sahar turib bedorman,
Shirin so'zin sog'inib.

SAIDMUROD PANOH O'G'LI
(1868-1945)

Yodimga tushdi

Nogoh yotib edim mastu mastona,
Chashmi jodularing yodimga tushdi.
Gul ochilib, tong shamoli esganda,
Zulfi zarafshoning yodimga tushdi.

Xitoyi barmoqlar, xinali qo'llar,
Xanasar nolib yurak-bag'rim chok aylar,
Saharda sayragan shaydo bulbullar,
Shakarli lablaring yodimga tushdi.

Nogahon kezardim gulu gulshanda.
Sayri xiromonni ko'rdim chamanda.
Qo'l uzatib siynabanding yeshganda,
G'uchmali bellaring yodimga tushdi.

Men senga oshiqlik lofini urdim,
Dardingdan, izladim, necha yil yurdim,
Oynaday yuzingning sham'ini ko'rdim,
Xoli hindularing yodimga tushdi.

Shoxurshid o'g'li der, otim Sanobar,
Hasratingdan bo'ldi ko'nglim muqaddar,
Xotirimdan chiqmas yaxshi hamdamlar,
Masohib ellarim yodimga tushdi.

Kamayda

Kamayda yig'ildi yigitning g'o'chi,

[1] Shevada "taqinib" so'zi shunday talaffuz qilinadi.

Bilagida bordir polovnning kuchi.
Solsa suvday toshni kesar qilichi,
O'tkir qilichlari bordir Kamayda.

So'filari oblo deydi sahardan,
Odami qaytmaydi bersang zahardan.
Kam xarchlisi yilqi quvar shahardan,
O'g'ri odamlari bordir Kamayda.
Yigiti g'uchchoqdir, oti to'bichoq,
Beklari osinar oltindan pichoq.
Suvi quduqdandir, noni yag'irchoq,
Mashaqqat joylari bordir Kamayda.

Boylari yoylaydi Langar tovini,
Qizlari oladi ko'zning jovini.
Oq murrik tarvuzi, ko'kcha qovuni,
Mevador joylari bordir Kamayda.

Mullalar to'g'risida

Ta'rif qilay bizda o'tgan mullani,
Ellik metr qilar edi sallani.
Laylak uyasidan qilib pallani,
Odamlardan yig'ar edi g'allani.
Foydaga qo'yardi halol tillani,
Harom foydasiga berishin ko'ring.

Amirning o'lponchilariga qarshi

Bu zolimning dastidan ekmagin mulki xiroj,
Uch yarim botmon bitibdi, xirmonim uch orqa poch.
Moliyat ber, deb kelar, qo'lida katta sanoch,
Moliyatni bermasang, boshga tegar irg'ay yog'och.
Ko'sh ho'kizni ber sotib, sabil qolsin poza, omoch,
Bundayin dehqonchilikdan cho'lga bor, yeb yur ko'moch.

Murod Jirovning yoshlarga aytgani

Avvalo, ochildi yasla.
Ko'rganim yo'q ani aslo,

Karavotlar rasta-rasta,
Borib ko‘rsam o‘ynab turar.

Bari ochilmagan g‘uncha.
Tamoshaga kelar necha,
So‘ngra ochilib bog‘cha,
Bulbuldayin sayrab turar.

Yaxshi ko‘rib sizi, bizdi,
Yig‘ib olib o‘g‘il-qizdi.
Yoshlarga tarbiya tuzdi,
O‘qimoqqa saylab turar.

Bog‘chalardan ta’lim olib,
Kitobin qo‘yniga solib,
Qo‘llariga qalam olib,
Doskasida bo‘ylab turar.

Muallimlari qilsa nazar,
Bilgani xatlarni yozar.
Bilmagani xatni buzar,
Yaxshi so‘z deb so‘zlab turar.

Bir nechasi xatni bilib,
Ba’zi biri o‘ynab-kulib,
Bir nechasi fikr qilib,
Miyasida o‘ylab turar.

Muallim aytganin qilsa,
O‘qib-o‘qib xatni bilsa.
Ikkinchisiga talab qilsa,
O‘zlarini shaylab turar.

Bir yildan so‘ng javob olib,
Qo‘llariga kitob olib,
So‘ngra ikkinchiga borib,
Bilganin so‘ylab turar.
Yig‘ilishib yosh bo‘g‘inlar,
Mualimlardan ilm olar,
So‘ngra uchinchiga borar,
Qizil gulday yashnab turar.

ANASH XALFA
(Onajon Sobirova, 1885-1952)

Sizniki...

Yigit: – Gulsanam, arzim eshit,
Labingda xoling kimniki?
Ham zanaxdoning, labing,
Ruxsori oling kimniki?

Sochlaring sumbul erur,
Bizga munosibdir beling.
Sochi sumbul, mushki ambar,
Tor-toring kimniki?

Qiz: –Yorginam, sizga javobim,
Labda xolim sizniki.
Ham zanaxdonim, labim,
Ruxsori olim sizniki.

Sochlarim sumbul erur,
Sizga munosibdir belim.
Sochi sumbul, mushki ambar,
Tor-torim sizniki.

OJIZA XALFA
(Onabibi Otajonova, 1899-1979)

G'ayratim g'ayrat ustina

Erka qizlar, chaqqonlashing,
Boraylik gulzor ustina.
Yuragimga bir zavq keldi,
Dil enib dildor ustina.

Sayr aylashib boqqa kirsak,
Ochilgan gullarni tersak.
Dushmanlarning ko'zin o'ysak,
Shodlik enar shod ustina.

Sayr aylashib boqqa kirib,
G'ayratimiz haddan oshib,
Biz boraylik chaqqonlashib
Bu maqsad –murod ustina.

Qaysi bog'dan oldingiz?

To'tiga o'xshaydi shirin tillari,
Qaddi qomatlari, nozik bellari.
Meni hayron etdi nargiz ko'zlari,
Siz bu gulni qaysi bog'dan oldingiz?

Ko'rgan odam bo'lur aning hayroni,
Bizni lol etibdir adab-ikromi.
Birga o'tirganning yo'qdir armoni,
Siz bu gulni qaysi bog'dan oldingiz?

Orazi husnining yo'qdir bahosi,
So'zlagan so'zlari dardning davosi.
Bilmam bormi uning mehri giyosi,
Siz bu gulni qaysi bog'dan oldingiz?

Tunin-ay

Bir dilbari zolim mani yig'latti tunin-ay,
Mijgon o'qi bilan menga til qotti tunin-ay.
Avvaldan edi har naki sirim onga ogoh,
Ag'yor so'zi bilan menga til qotdi tunin-ay.

Ayb etmangiz, do'stlar, bu emas erdi umidim,
Ul arkalik[1] aylab menga so'z qotdi tunin-ay.

Bor erdi meni yonimda bir ko'hna qadirdon,
Bir muncha muloyim so'zini aytdi tunin-ay.

Maqsudini ber ko'hna qadirdoningni endi,
Bir necha suxanlar birla aldatti tunin-ay.
Sabr ayla, dedi, behudaga yig'lama, Ojiz ,
Ul arkalik aylab senga kor etdi tunin-ay.

[1] Arkalik-erkalik

Uyolaman

Ey mehribonim, sarvi ravonim,
Bilmading hargiz ohu fig'onim.
Ohim dardini, ko'ksim o'tini
Aytsam uyolaman, aytmasam armon.

G'am ila shodim, fikr ila yodim,
Bo'lmadi hosil mening murodim.
Ul saqog'idan, shakar labidan
So'rsam uyolaman, so'rmasam armon.

Ul sho'xi zolim, yetmas xayolim,
Dardin chekarga qolmadi holim.
Yo'linda turib, izidan borib
Ko'rsam uyolaman, ko'rmasam armon.

Chin bulbuli zor, ma'shuqi shunqor,
Yig'lab aytadi Ojiz dilafkor.
Qo'lim bo'ynina marjon o'rnina
Taqsam uyolaman, taqmasam armon.

Qaydadur, bilmam, dildorim?

Oshiq erdim man bir yora,
Axtarib chiqdim gulzora.
Va'dasida turmasdan
Ayladi meni ovvora.
Qaydadir, bilmam, dildorim,
Aqlim olgan sevar yorim?

Gulzor qo'ymayin axtardim,
Bordim izlab har tomona.
Har tomonga nazar tashlab,
Topmadim yordin nishona.
Qaydadir, bilmam, dildorim,
Oh urgan sevar yorim?

Bilmadim, ketmish qayona,
Ayladi meni ovvora.
Hech qayerdan topolmasdan

Qiynaldim qolib hijrona.
Qaydadir, bilmam, dildorim,
Aqlim olgan sevar yorim?

O'lguncha seni derman

Dilbar, u jahon ichra o'lguncha seni derman,
Umrimni guli, tingla, so'lguncha seni derman.
Bo'ynimga qilich kelsa, kelgancha seni derman,
Ko'nglingga malol olma, o'lguncha seni derman.

Ko'nglim uza bilmayman ul sho'xi sitamgardan,
O'lguncha umidim bor ul dilbari shakardan.
Ko'zimga ko'rinib a'lo ul barcha parilardan,
Ko'nglingga malol olma, o'lguncha seni derman.

Orzumga quloq qo'ygil, angshir mening dodimni,
Ko'nglingda bo'lsa zavqing, ber endi murodimni.
Hammalarni tark etdim, qo'y endi uyatingni,
Ko'nlingga malol olma, o'lguncha seni derman.

Shod Vatanning bog'ida shodlik bilan yurgaymiz,
Qo'lni —qo'lga berishib qizil gullar tergaymiz.
Sendan umid kutadi bu telba g'arib Ojiz,
Ko'nglingga malol olma, o'lguncha seni derman.

QODIR RAHIM O'G'LI
(1937-1986)

To'rtliklar

Otani osmon deng, yomg'irli, qorli,
Onani yer desak—bahorli, yozli.
Ikkisin hurmatin keltira olsang,
Seniki hamisha fasllar asli.

* * *

Tog' pastida qolsang — bukilishing bor,
Tog' ustiga chiqsang—yiqilishing bor.
Mehnatdan halol non topib e, do'stim,
Bir umr dimog'ni chog' qilishing bor.

* * *

Qarg'a ham uchadi qanoti bilan,
Lochin ham uchadi qanoti bilan.
Qarg'aning qo'nishi cho'lda yantoqdir.
Lochinning ko'nishi yuksalgan tog'dir.

* * *

Farzand bor o'n beshda bilar yo'lini,
Farzand bor qirq beshda bog'lar belini.
Ba'zisi qanchalik topsa ham yetmay,
Bo'lsa tortib olar ota pulini.

Ustozdir

Tog'lar tog' bo'lmaydi savlat bo'lmasa,
Qushlar ucholmaydi qanot bo'lmasa,
Inson yurolmaydi da'vat bo'lmasa,
Buloq bo'lsang, ko'zin ochgan ustozdir.

Hurmat-izzat ko'rsang, ustoz bilandir,
Elga mashhur bo'lsang, ustoz bilandir.
Gar quyoshga yetsang, ustoz bilandir,
Daryo bo'lsang, cho'lg'ontirgan ustozdir.

Cho'lda yursang, soya solar boshingda,
G'amga qolsang, maslahatgo'y qoshingda,
Gar yiqilsang, hassadir yonboshingda,
Dengiz bo'lsang, qirg'oq bo'lgan ustozdir.

O'zboshimcha ishni qilsang —xato bil,
Ko'lmak suvni yoz kelganda ado bil,
Ustoz ulug' zotdir, uni ota bil,
So'ri bo'lsang, tirgak bo'lgan ustozdir.

Har hunarni o'rganmoqlik yoshdandir,
Ustoz degan xazinador bo'stondir.
Har xislating yozsang - o'nlab dostondir,
Hayotingda mayoq bo'lgan ustozdir.

Toshkent ta'rifi

Seni ko'rib kimlar qalam olmagan,
Ilhomsizga ilhom bergan Toshkentim.
Olamda yo'q sening noming bilmagan,
Mana man deb ko'krak kergan Toshkentim.

Ko'changga to'shabsan durdan gilamni,
Saxovatdan gulga berding in'omni.
Seni ko'rsam, ko'rgandayman onamni,
Farzandingga ko'ksing ochgan Toshkentim.

Olimlaring yulduzlarga boqadi,
Shoirlaring nurni gulday taqadi.
Dehqonlaring dashtda mash'al yoqadi,
O'g'lonlarga mehrin sochgan Toshkentim.

Javohirlar sendan ulgi oladi,
Bir ko'rgan ko'rsam, deb havas qiladi.
Jamolingga oy termulib qoladi,
Tabiatni shaydo qilgan Toshkentim.

Jahon go'zalligi yig'ilib kelib,
Har biri naqshini ko'ksingga ilib.
Kunda bir yasharsan qo'yoshday bo'lib,
Suluvlarday suluv bo'lgan Toshkentim.

Go'zallar sultoni kelsa qoshingga,
Ta'rif topolmaydi qoshu ko'zingga.
Bahor ham shaydodir sening o'zingga,
Fasllardan hosil olgan Toshkentim.

Dostonlar to'qisam senga yarashar,
Shon ila shuhrating oylardan oshar,
Husningni bir ko'rgan Qodir ming yashar,
Hur bo'stonga bog'bon bo'lgan Toshkentim.

MUNDARIJA

Tuzuvchilardan 3

Birinchi qism: O'TMISH FOLKLORIDAN NAMUNALAR
MEHNAT QO'SHIQLARI

Qo'shchi qo'shiqlari 7
O'rim qo'shiqlari 9
Tariq qo'riqlovchi va Chechak qo'shig'i 11
Ho'p maydalar 11
Yorg'ichoq qo'shiqlari 12
Qo'riqchilik qo'shiqlari 14
Dehqonchilik qo'shiqlari 15
Chorvachilik qo'shiqlari 19
Sog'im qo'shiqlari 20
Hunarmandchilik qo'shiqlari 22
Sarboz qo'shiqlari 28

So'z sehri asosidagi xalq qo'shiqlari

Badiklar 29
Kinnalar 33
Olqishlar 34
Qarg'ishlar 38

Mavsumiy marosim qo'shiqlari

Navro'z keldi, yoz keldi 40
Sumalakjon, sumalak 41
Omonliq, hey omonliq 42
Boychechak 43
Oppoqjon 44
Halinchak 45
Lola, lola, lolajon 45
Yo ramazonlar 47
Hayitliklar 49
Sust xotin 49
Choy momo 51
Ko'nalar 52

Oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari

Xatna (Sunnat to'yi) qo'shiqlari 58
Nikoh to'yi qo'shiqlari: Yor-yorlar 63
O'lanlar 71
Laparlar 76
«To'y muborak» qo'shiqlari 83
To'y aytimlari 85
Jarlar 85
Kelin o'tirsin 91
Kuyov o'tirsin 91
Xush kelibsiz 92

Kelin salomlar 93
Kuyov salomlar 98
Motam marosimi qo'shiqlari. Yig'ilar va yo'qlovlar 99
Motam yor-yorlari 115
O'lim allalari 118

Lirik qo'shiqlar

To'rtliklar 124

Hajviy qo'shiqlar

Hajviy to'rtliklar 145
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan 151
Xo'jayinning dardidan 152
Xonavayron bo'lsin Xivaning xoni 153
Qizlar xarob bo'ldi 154
Boshing kesilsinu, qoning to'kilsin 155
Yumoristik qo'shiqlar 155

Tarixiy qo'shiqlar

Botirxon zulmi (Ernazar shoir) 158
Xon zulmi 159
Ming la'nat 160
Nikolay qon jallob 161
Namoz (Nurmon Abduvoy o'g'li) 162

Termalar

Do'mbiram 164
Nima aytay? 168
O'git-nasihatlar 171
Kunlarim (Go'ro'g'li tilidan) 176

Xalq paremik ijodi

Maqollar 179
Topishmoqlar 201
Tabular 224

O'zbek xalq nasri

Asotirlar 231
Afsonalar 234
Rivoyatlar 241
Naqllar 250

Ertaklar

Ziyod botir 254
Muqbil toshotar 263
Malika Husnobod 269
Avom folchi 278
Ur to'qmoq 288
Hiylagar bedana 291
Qirq yolg'on 294
Latifalar 296

Doston

Ravshan (parcha) 304

Xalq og'zaki dramasi

Og'zaki dramalar 351
Polvon kachal 351
Askiyalar 367
Loflar 376
Bolalar folklori 380
Allalar 380
Aytim-olqishlar 384
Erkalamalar 390
Ovutmachoqlar 393
Qiziqmachoqlar 395
Yalinchoqlar 400
Hukmlagichlar 401
Tez aytishlar 406
Chandishlar 408
Aldanmachoqlar 410
Arazlamalar 411
Yarashtirgichlar 412
Guldur-guplar 413
Chorlamalar 414
Chekiashmachoqlar 415
Sanamalar 416
O'yin-qo'shiqlar 421
Tarqalmachoqlar 424
Qiqillamalar 425
Tegishmachoqlar 426
Masxaralamalar 429
O'yinlar 431

Ikkinchi qism. XX ASR O'ZBEK FOLKLORIDAN NAMUNALAR

Yangi qo'shiqlar 443
Xalq shoirlari ijodidan namunalar 463
Ergash Jumanbulbul o'g'li 463
G'azal, she'r, shoirlik-bayt aytmoqdur 463
Tajnisli to'rtliklar 463
Eshon 465
Asov qizlar 466
Keldim 466
Ergash shoir o'zi, otasi, yozgan va yozdirgan dostonlari, so'z san'ati haqida 467
Fozil Yo'ldosh o'g'li 473
Jangchi o'g'limga 473
Jahon tinglagay 474

Bolalarimga 474
Jizzax qo'zg'oloni (doston) 475
Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan 524
Mardikor 524
To'ydik eshonning dastidan 526
Islom shoir Nazar o'g'li 527
Qariyalarga 527
Qahramon to'pchilarga 528
Boboquljon 529
Tinchlik bo'lar barqaror 530
Baxtiyor avlodlar (dostondan parcha) 530
Abdulla shoir Nurali o'g'li 534
Salom sizga, yangi yerlar ochganlar 534
Shundayin zo'rni maqta 535
Cho'pon qo'shig'i 536
Kunlarim (doston) 537
Umir shoir Safar o'g'li 545
Tilar 545
Qora zulfing 546
To'rtliklar 546
Saidmurod Panoh o'g'li 547
Yodimga tushdi 547
Kamayda 547
Mullalar to'g'risida 548
Amirning o'lponchilariga qarshi 548
Murod Jirovning yoshlarga aytgani 548
Anash xalfa (Onajon Sobirova) 550
Sizniki 550
Ojiza xalfa (Onabibi Otajonova) 550
G'ayratim g'ayrat ustina 550
Qaysi bog'dan oldingiz? 551
Tunin-ay 551
Uyolaman 552
Qaydadir, bilmam, dildorim? 552
O'lguncha seni derman 553
Qodir Rahim o'g'li 553
To'rtliklar 553
Ustozdir 554
Toshkent ta'rifi 555

T.MIRZAYEV, O.SAFAROV, D.O'RAYEVA

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI XRESTOMATIYASI

Toshkent – «Aloqachi» – 2008

Muharrir: S.Narziyev
Tex. muharrir: A.Moydinov
Musahhiha: G.Karimova
Sahifalovchi: SH.Mirqosimova

Bosishga ruxsat etildi: 27.09.08. Bichimi 60x84 1/16
«TimesUz» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 35,5. Nashr bosma tabog'i 35,0.
Tiraji 1000. Buyurtma №393.

«Aloqachi matbaa Markazi» bosmaxonasida chop etildi.
700000, Toshkent sh., A.Temur ko'chasi, 108-uy.